TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ABDULLA QAHHOR
MIRKARIM OSIM
SAID AHMAD

17

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ABDULLA QAHHOR
MIRKARIM OSIM
SAID AHMAD

17

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.133-3
KBK 84(5O')-44
A 15

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton — hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

Ma'ruf Toshpo'latov, Luqmon Bo'rixon

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8723-4-9

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

HIKOYADA HAYOT MANZARALARI

XX asr o'zbek adabiyoti avvalgi davr adabiyotidan o'zining qator xususiyatlariga ko'ra ajralib turadi. U, avvalo, biri biridan ko'rkam va mazmundor yangi janrlar bilan boyidi. Roman, drama, komediya, tragediya kabi yangi janrlar o'zbek adabiyotiga yangi mazmun, o'zgacha joziba baxsh etib, uni mavjud ijtimoiy voqelikka, odamlarning kundalik turmushiga yaqinlashtirdi. Adabiyotda avvaldan mavjud qissa, hikoya janrlari esa shakl va mazmun jihatidan tamoman yangilanib, zamonaviy so'z san'atidagi o'zgarishlar manzarasini aks ettiradigan salmoq kasb etdi. Shu bois o'tgan yuz yillik o'zbek adabiyoti tarixini, undagi yangilanishlar ko'lamini hikoya, qissa janriga mansub asarlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Abdulla Qahhor (1907–1968), G'afur G'ulom (1903–1966), Mirkarim Osim (1907–1984), Said Ahmad (1920–2007) singari adiblarning hikoyalari o'zbek adabiyoti hayot hodisalari va inson obrazini gavdalantirishda Yevropa adabiyoti andozalari asosida ravnaq topayotganligini namoyon etdi. "Anor", "Bemor", "O'g'ri", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin" (Abdulla Qahhor), "Mening o'g'rigina bolam", "Hasan kayfiy" (G'afur G'ulom), "Shiroq", "To'maris" (Mirkarim Osim), "O'rik domla", "Turnalar" (Said Ahmad) hikoyalari o'zbek nasri turmush voqeligini, odam olamini aks ettirishda yangi zamon o'zgarishlariga mos tarzda dadil odimlayotganiga yorqin isbot bo'ldi. Hikoya janridagi ushbu va boshqa ko'plab asarlar XX asrda o'zbek adabiyoti avvalgi davr adabiyotidan tamoman farq qiladigan yangi tipdagi adabiyotga aylanganini aniq ko'rsatib berdi.

Ayonki, badiiy asarlar hayot hodisalarini qamrab olish darajasi, e'tibor qaratilgan muammolar ko'lami kabi xususiyatlariga ko'ra janrlarga ajratiladi. Shu jihatlaridan kelib chiqqan holda, qisqa muddat ichida personaj hayotida bo'lib o'tadigan birgina yoki bir-biriga uzviy bog'liq bir necha voqea qalamga olingan asarlar "hikoya"

BENO TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM № 19913

deyiladi. Hikoyada, qissa va romandan farqli holda, sujet tarmoq lanib ketmaydi. Unda diqqat-e'tibor birgina voqeaga qaratiladi. Bu voqea esa o'ziga xos tarzda boshlanadi, rivojlanadi va yakunlanadi. Shu bois hikoya sujeti roman va qissaga qiyoslaganda juda sodda va ixcham bo'ladi. Chunki hikoyada bitta voqea asosida qahramonning odam sifatidagi olami ochib beriladi. Hikoya matni muayyan voqea tasviridan tarkib topadi. Abdulla Qahhorning "Dahshat", "Anor", Mirkarim Osimning "Shiroq", "To'maris" hikoyalari markazida bir gina hodisa turgan bir-biriga bog'liq voqealar tizimi kuzatiladi. Ayrim hikoyalarda, masalan, "Bemor" (Abdulla Qahhor)da personajning birgina hayot hodisasi ichidagi holati ko'rsatiladi. Adibning "Dahshat" hikoyasidagi voqea kutilmaganda shiddatli tus olib, keskin burilishlar hosil qiladi. Personajlarning odam sifatidagi olami, ular yashagan ijtimoiy muhim manzarasi bir-biriga bog'liq yaxlit voqealar tizimida namoyon bo'ladi.

Abdulla Qodiriy (1894–1938)ning "Uloqda", "Jinlar bazmi", Cho'lpon (1898–1938)ning "Do'xtur Muhammadyor", "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", Abdurauf Fitrat (1886–1938)ning "Qiyomat", "Shaytonning Tangriga isyoni" asarlari o'zbek adabiyotida hikoya janri ravnaq topishiga mustahkam zamin yaratdi. Mashhur "O'tkan kunlar" romani muallifi 21 yoshida, ya'ni 1915-yilda yozgan "Uloqda" hikoyasi hayot hodisasini haqqoniy aks ettirishi, bosh qahramon obrazini ta'sirchan gavdalantirishi — badiiy barkamolligi jihatidan frantsuz adibi Gi de Mopassan (1850–1893), rus yozuvchisi Anton Chexov (1860–1904), hind mutafakkiri Rabindranat Tagor (1861–1941) singari jahon adabiyoti namoyandalari hikoyalari bilan bemalol bellasha oladi. Shu bois Oybek (1905–1968) o'zbek romanchiligi asoschisi ijodi to'g'risida mulohaza bildirar ekan: "Abdulla Qodiriy turmushni badiiy ko'rsatishda tez o'sadi. Nasrchilikda uning ustaligi mukammallashadi. 1915-yillarda yozilgan "Uloqda" nomli hikoyasi — "Tuvonboz" va boshqa asarlariga tenglashtirmaslik darajasidagi yuqori bir asar. Yozuvchi hikoya texnikasi, priyomlarini puxta egallagan. Voqealarni ochish, bularning inkishofi va yechilishi yangi zamon novella formasi ravishidadir. Bu asarda jonli bo'yoqlar uchraydi. Kishilarning portreti aniq, qabartirib beriladi. Til "Tuvonboz"ning quruq, rangsiz tilidan juda katta farq qiladi. Hikoya tirik

obrazli bir til ila yozilgan. Xalq so'zi va ifodasi hikoyaning badiiy to'qimasiga uzviy kirib ketadi, singadi. Shaxslar ham o'zlariga xos til bilan so'ylaydilar. "Uloqda" hikoyasida tashviqotchining, voizning o'rnini san'atkor oladi. Yozuvchi bu asarda voqealar ustida muhokama qilmaydi, tushuntirmaydi, isbot qilmaydi, balki obrazlar bilan ko'rsatadi" deb ta'kidlaydi (Oybek. Asarlar. O'n tomlik. 9-tom: Tadqiqot va maqolalar. — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. — 352 b. — 250-bet).

Abdulla Qodiriyning "Uloqda"si o'zbek adabiyotidagi yangi zamon hikoyasi formasida bitilgan dastlabki va eng yorqin asar sifatida e'tirof etiladi. Ulug' adibning ushbu hikoyasi bir asrdan ko'proq vaqtdan beri shu janrdagi asarlar uchun chinakam ibrat, mukammal andoza bo'lib keladi. Undan tashqari shu'la Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Said Ahmad singari yozuvchilarning, ulardan keyingi adiblar avlodining hikoyalariga hayotiy joziba bag'ishlagani yaqqol seziladi. "Anor", "Bemor", "O'g'ri", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin" hikoyalarini muolaa qilganda Abdulla Qahhor kundalik turmush voqeligini tasvirlashda, personajlarning fe'l-atvori, kayfiyati, holati, xatti-harakatini ko'rsatishda Anton Chexov, Rabindranat Tagor singari jahonning mashhur adiblari asarlari barobarida "O'tkan kunlar" romani muallifi ijodidan ham bahra olgani aniq, degan fikr beixtiyor ko'ngildan o'tadi.

Abdulla Qahhor Aleksandr Pushkin (1799–1837)ning "Kapitan qizi" qissasi, Gogol (1809–1852)ning "Revizor" komediyasi, Lev Tolstoy (1828–1910)ning to'rt kitobdan iborat muhtasham "Urush va tinchlik" tetralogiyasi, Anton Chexovning ko'pgina hikoyalarini o'zbek tiliga o'girgan va tabiiyki, tarjima qilishdek mashaqqatli ishni ado etish jarayonida ayni asarlardan ijodiy ta'sirlangan.

Abdulla Qahhor, Said Ahmad qator roman, drama, komediyalar muallifi bo'lsa-da, ko'proq "mohir hikoyanavis" sifatida shuhrat qozondi. Ularning turli mavzudagi realistik va hajviy xarakterdagi hikoyalari XX asr o'zbek adabiyoti manzarasiga o'ziga xos ko'rk, betakror joziba bag'ishlab turadi. Mirkarim Osim hikoyalari esa tarixiy mavzuni ta'sirchan yoritishi, vatanparvar, mard, jasur ajdodlarimiz qiyofasini hayotiy, jonli ifodalashi bilan e'tiborni tortadi. Ularning turli toifadagi odamlar obrazi gavdalantirilgan hikoyalari

o'zbek nasrida hayot hodisalarini badiiy tasvirlash, personajlar ruhiy holatini tahlil qilish tadrijiy tarzda o'sib borganiga ishon, dalil bo'la oladi.

Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Said Ahmad ham o'z hikoyalarida xuddi Abdulla Qodiriy, Oybek singari hayot hodisalarini ijtimoiy turmush manzaralari negizida tasvirlaydi. Xuddi shu jihat ularning hikoyalarini o'zaro bog'lab turadi. Ularning hikoyalari o'zbek nasrida hayot manzaralari qanday aks etganini tahlil qilish uchun munosib obyekt bo'la oladi. Abdulla Qahhorning "Anor", "Bemor", "O'g'ri", "Dahshat" hikoyalarida inson qadri toptalgan, ma'naviy qashshoqlik hukm surgan zulmat turmush manzaralari san'atkorona mahorat bilan tasvirlanadi. Adibning ayni hikoyalari o'tmish haqidagi eng ta'sirchan asarlar sifatida o'quvchilarni hayajonlantirib keladi. Yozuvchining "Mayiz yemagan xotin", "Ming bir jon", "Asror bobo" singari hikoyalari esa XX asr milliy turmushimiz manzaralari yoritilgan eng barkamol asarlar qatorida o'zbek adabiyotini bezab turadi. Abdulla Qahhorning o'tmish turmushidan olingan va sujeti zamonaviy hayot hodisalariga asoslangan ushbu asarlari XX asrda o'zbek hikoyachiligi barq urib tovnag topgani, uning namunalari jahon adabiyotining shu jarrdagi durdonalari bilan bemalol bo'ylasha olishiga yorqin dalil bo'la oladi.

Abdulla Qahhor hikoyalari xuddi Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda asarlari singari millionlab o'quvchilar e'tiborini qozondi. Chunki ular hayot hodisalariga asoslangani, mazmuni teranligi, personajlarning inson sifatidagi qiyofasi, kayfiyati, holati, o'y-kechinmalari haqqoniy gavdalantirilgani bilan darhol diqqatni jalb etadi. Bu ulug' yozuvchining hikoyalari ham xuddi uning roman, drama, maqolalari kabi tilining jozibadorligi bilan alohida ajralib turadi. Ta'kidlash joizki, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom va Abdulla Qahhor asarlari o'zbek tili xuddi arab, fors, ingliz, fransuz, rus, xitoy tillari singari olam hodisalarini, inson faoliyati, turmushiga tegishli barcha jihatlarni yetarlicha ifodalaydigan eng barkamol til ekanini yorqin namoyon etadi. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining xalqchilligi, badiiy tasvir vositalarining o'ziga xosligi, muallif nutqi, personajlar dialogi va monolog ta'sirchan ifodalanishi, bir so'z bilan aytganda, hayot manzarasi

haqqoniy, ta'sirchan aks ettirilishiga ko'ra keyingi davr o'zbek nasri uchun namuna, andozaga aylandi.

Adabiyotshunoslikda Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Said Ahmad asarlari ham boshqa adiblarning ijodi singari, mavjud xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, turlicha tasniflanib, guruhlarga ajratiladi. Jumladan, Ozod Sharafiddinov bu xususda mulohaza yuritib: "30 yillarning o'rtalarida Abdulla Qahhorning hikoyanavislik san'ati barq urib gulladi. U shunday hikoyalar yaratdiki, ular bugun ham g'oyaviy-badiiy quvvatini yo'qotgani yo'q. Mana, yarim asrdirki, Abdulla Qahhor haqida yozgan adabiyotshunos va tanqidchilarning hammasi yakdillik bilan bu hikoyalarni yuksak baholab kelmoqda. Atoqli rus munaqqidi V.V. Smirnova esa maqolalaridan birida adib hikoyalarini tahlil qilib, Abdulla Qahhor mashhur jahon hikoyanavislari bilan bir qatordan o'rin olishga munosib yozuvchidir, degan xulosaga kelgan edi... Abdulla Qahhor hikoyalarini mavzu va hayotiy material jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin — ularning bir guruhi o'tmish haqidagi hikoyalar, ikkinchisi esa zamonaviy mavzularga bag'ishlangan" deydi. (Sharafiddinov O. Xalq yozuvchisi. — // Qahhor A. Asarlar: Besh jildlik. Birinchi jildi. Sarob: Roman. Hikoyalar — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. — 336 b. — 11–12-betlar).

Abdulla Qahhor o'tmish to'g'risidagi hikoyalarida ham, zamonaviy turmush voqeligi diqqat markaziga qo'yilgan shu janrdagi asarlarida ham e'tibor qaratilgan hodisalarning eng muhim, xarakterli jihatlarini alohida ajratib ko'rsatadi va ularni ixcham shaklda, sodda uslubda ifodalaydi. Adib boshqa qalamkashlardan farqli holda, gap va jumlalarni sanoqli so'zlardan iborat qilib tuzadi. Ammo ayni so'zlar keng mazmunni qamrab olishi bilan o'quvchining fikr-xayolini xuddi olamrabo kabi darhol o'ziga tortib oladi. Masalan, adibning "Bemor" hikoyasi: "Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi — bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Bemorning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib, tolning xivchini bilan savalaydi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi" deb boshlanadi. (Qahhor A. Asarlar: Besh jildlik. Birinchi jildi. Sarob: Roman. Hikoyalar. —

Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. — 336 b. — 289-bet).

Yozuvchining "O'g'ri" "Anor" singari hikoyalari mazmida ham gap, jumlalar ana shunday sanoqli so'zlardan tarkib topadi. Fikrni bunday tarzda ixcham ifodalash ulug' rus adibi Anton Chexov, mashhur amerikalik yozuvchi Ernest Xemenguey (1899–1961) asarlarida kuzatiladi. O'ziga xos ushbu "telegramm usluhi" Abdulla Qahhor hikoyalariga alohida joziba baxsh etib turadi.

Abdulla Qahhorning tengdoshlari va keyingi avlod asarlari chinakam badiiy barkamollik kasb etishida, albatta, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Hamza singari so'z san'atkorlari asarlari ta'siri alohida o'rin tutadi. Abdulla Qahhorning "Abdulla Qodiriy yangi davr adabiyoti, Yevropa adabiyoti gazi bilan o'lchanganda ham to'laqonli asarlar yozgan, o'zbek romanchiligini boshlab bergan ulkan adibdir. Uning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari, bir talay hajviy asarlari xalq orasida g'oyat mashhur bo'lib, har bir o'zbek oilasiga, hatto savodxon odam bo'lmagan oilalarga ham kirib borgan edi. Allaqayerdan kelgan bir kitobxon "O'tkan kunlar"ni yod bilar ekan, kitobning istalgan joyini so'ralganda sharros o'qib berganida Abdulla Qodiriy unga chopon kiygizgani yodimda bor. Uning asarlarini o'qish mam qilingan vaqtlarda ham kitobxon "O'tkan kunlar" bilan "Mehrobdan chayon"ni qo'lidan qo'ygan emas, boshqa kitoblarning muqovasiga solib, yashirigcha o'qigan. Bu romanlar o'sha vaqtdayoq qardosh xalqlar va g'arb tillariga tarjima qilingan" degan mulohazalari o'zbek adabiyoti tarixidagi dastlabki mukammal realistik hikoya "Uloqda" muallifi ijodi o'zbek madaniyati ravnaqi, milliy adabiyoti rivojiga bebaho ulush bo'lib qo'shilganining e'tiroli bo'lib jaranglaydi (Qahhor A. Asarlar: Besh jildlik. Beshinchi jild. Haq so'zning kuchi: Maqolalar. Suhbatlar. Qaydlar. — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. — 272 b. — 194-bet).

XX asr o'zbek adabiyoti sahifalarini bezab turgan asarlarning, jumladan, Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Said Ahmad hikoyalarining ahamiyati shundaki, ularda hayot manzarosi haqqoniy gavdalantiriladi. Bu hikoyalar kishilar qalbini ma'rifat nuriga to'ldirib, ularning hayot ezgulik va yovuzlik kurashidan iborat ziddiyatlarga to'la jarayon ekanini tushunishiga, har bir odamning o'zligini anglashiga ko'maklashadi. Turmushdagi yaxshi va yomon hodisalarni farqlaydigan kishilar esa doim teran fikrlaydi. Bu — hayotda hamisha muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki millatning ravnaqi, birinchi navbatda, odamlarning fikrlash darajasi bilan bevosita bog'lanadi. Yaponiya bunga yorqin misol bo'la oladi. Ma'lumki, Yaponiya tabiiy resurslarga boy emas. Uning hududida oltin, kumush, mis, temir, ko'mir konlari yo'q. Yaponiya juda ko'p narsalarni boshqa davlatlardan sotib oladi va ularni qayta ishlab, qimmatbaho tovarga aylantirib, xorijiy mamlakatlarga sotadi. Yaponlar fan, texnika, ishlab chiqarish sohalarida doim yangiliklar yaratadigan zukko, bunyodkor kishilar ekanligi bois muttasil zilzila bo'lib turadigan, tez-tez to'fonlar sodir bo'ladigan, dengizlar qurshovidagi manzil ekaniga qaramasdan, Yaponiya dunyoning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlari qatorida turadi.

"Bemor", "Anor", "O'g'ri" singari asarlar kishilarimizning hayotga qarashlari teranlashishi, Mirkarim Osimning "Shiroq", "To'maris", "Aljabrning tug'ilishi" kabi asarlari esa ular qalbida vatanparvarlik hissi ulg'ayishi, ulug' ajdodlardan faxrlanish tuyg'usi kuchayishi uchun benihoyat xizmat qiladi. Mirkarim Osim asarlari ham xuddi Abdulla Qahhor hikoyalari singari mavzu yo'nalishiga ko'ra tasniflanib: tarixiy qahramonlik mavzusidagi asarlar, tarixiy maishiy mavzudagi asarlar, tarixiy biografik asarlar deb guruhlarga ajratiladi. (Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. — 436 b. — 68-bet).

Mirkarim Osimning "Shiroq", "To'maris", "Aljabrning tug'ilishi" va boshqa asarlari tarixiy faktlarning oddiy bayoni, yilnomalarda qayd qilib qoldirilgan voqealarning shunchaki naqli emas. Ularning asosiy qahramoni — vatanparvar, jasur, el-yurti uchun fidoyi insonlar. Adib asarlarida, xususan, hikoyalarida ana shu insonning faoliyati, o'y-kechinmalari qalamga olinadi. Shu bois Shiroq, To'maris va boshqa personajlar xuddi hayotdagi odamlar kabi tasavvurda jonlanadi. O'quvchi beixtiyor har bir xalq Shiroq, To'maris singari vatanparvar, fidoyi, chin insonlar borligi tufayli yashab keladi. Agar umum manfaatini o'zining huzur-halovatidan ustun qo'yadigan jafokash, mard insonlar bo'lmaganida bashariyat tarixi juda g'arib bo'lib qolar edi. Chunki odamlar kimga havas qilib, kimdan ibrat olishni bilmas edi, deb o'ylay boshlaydi. Mirkarim Osim tarixiy davrga, Shiroq,

To'maris va boshqalar to'g'risida ko'hna manbalarda bitib qoldirilgan afsona, rivoyatlarga murojaat qilganida ular orasidan insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik kabi barcha zamonlarda muhim ahamiyatga ega xususiyatlarni izlab topadi va butun diqqat-e'tiborni shunga qaratadi. U odamlar orasidagi ast insonning kayfiyati, kechinmasi, orzu-havasi va intilishlaridagi murakkab jarayonni ochib beradi. Kitobxon ular bilan tanishayotib, Shiroq, To'maris singari ast insonlar barcha zamonlarning — tarixning ham, bugungi kunning ham tayanchidir, degan to'xtamga keladi. Bu esa zahmatkash adib Mirkarim Osim asarlari tarixiy voqelikni badiiy aks ettirish barobarida zamonaviy hayot bilan bog'langanini bildiradi.

Zamondoshlariga kamtarlik, kamsuqumlikning oliy namunasi bo'lib yashagan Mirkarim Osimning tarixiy mavzudagi asarlari, xususan, "Shiroq", "To'maris", "Aljabrning tug'ilishi" hikoyalarining ahamiyati shundaki, ulardan tarixni unutish xalqning ma'naviy boyligiga putur yetkazadi, degan ma'no anglashiladi. Negaki hikoyalarda tarixiy haqiqat ta'sirchan badiiy haqiqatga aylantiriladi. Mirkarim Osim asarlarida ham xuddi Abdulla Qodiriy romanlaridagidek personajlar musbat va manfiy obrazlarga ajratiladi. Shiroq, To'maris kabi musbat obrazlarda muallif idealidagi inson timsoli gavdalantirilgani aniq bilinadi. "Shiroq", "To'maris"ni o'qiganda ushbu hikoyalarda ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurashni ko'rsatish asosiy maqsad qilib qo'yilgani darhol seziladi. Mirkarim Osim hikoyalaridagi Shiroq, To'maris singari ijobiy qahramonlarga mehri, muhabbati beqiyosligini, salbiy personajlarga nisbatan nafrati, qahri adoqsizligini har odimda ta'kidlaydi. U har ikkala tipdagi obrazlarning qiziqarli, jonli, ta'sirchan qiyofasini chizib beradi. Ammo adib asarlaridagi ijobiy hamda salbiy personajlar ko'p qirrali mukammal obraz darajasiga ko'tarilib chiqmaydi. Chunki salbiy personajlar manfiy sifatlar yig'indisi, ijobiy qahramonlar esa musbat xususiyatlar jamlanmasi bo'lib ko'rinadi. Albatta, "Shiroq", "To'maris"dagi bunday manzara hikoya janri imkoniyati doirasi roman, qissaniki kabi keng emasligidan kelib chiqadi. Lekin Shiroq ham, To'maris ham, ularga qarshi turgan personajlar ham muallif maqsadini, u ilgari surgan g'oyani ifodalaydigan xarakter sifatida taassurot tug'diradi. Chunki ularning xarakteri keskin ijtimoiy voqealar fonida ochiladi.

Manbalarda qayd etilgan tarixiy voqealar mazkur hikoyalarning badiiy to'qimasi tarkibiy qismini tashkil etadi. Sujet tizimidagi voqealar o'tmish voqealariga asoslangani uchun Shiroq, To'maris va boshqa personajlar taqdiri bevosita tarixiy voqealar bilan bog'lanadi. Ko'hna manbalarda bitib qoldirilgan voqealar "Shiroq", "To'maris" sujeti tizimiga singishib, uning dinamikasini belgilab beradi hamda qarama-qarshi qutbdagi qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarni, ular orasidagi manfaatlar to'qnashuvini yoritishga xizmat qiladi. "Shiroq"da ham, "To'maris" da ham moziydagi ziddiyatlarga to'la ijtimoiy hayot manzaralari, qahramonlarning kechinma, holatlari ta'sirchan epizodlarda aks ettiriladi. Adib "Aljabrning tug'ilishi", "Shiroq", "To'maris" va boshqa asarlarida o'tmish voqealari fonida tarixiy hodisalar mohiyatini hamda to'qima qahramonlar, tarixiy shaxslar qismati chigalliklarini ko'rsatadi.

"Anor", "Bemor", "O'g'ri", "Dahshat" (Abdulla Qahhor), "Shiroq", "To'maris", "Aljabrning tug'ilishi" (Mirkarim Osim), "Qora ko'z Majnun", "O'rik donla", "Tumalar" (Said Ahmad) hikoyalari hayotni qanday bo'lsa, o'shandayligicha ko'rsatganligi bilan qadrli. Mualliflar ayni hikoyalarda, janr talablaridan kelib chiqqan holda, har bir so'zni tarozuga solib ko'radi. O'zbek adabiyotida bu jihatdan, albatta, Abdulla Qahhor asarlari alohida ajralib turadi. Shu bois bu ulkan adibning hikoya, qissa, roman, dramalari keyingi avlod yozuvchilari ijodiga samarali ta'sir ko'rsatib keladi. Chunki uning yozganlari qalamga olingan voqelik to'g'risida to'liq tasavvur beradi, tasvirdagi aniqlik, soddalik, ixchamlik o'quvchiga xush yoqadi. "Anor", "Bemor", "Dahshat" muallifining asarlari ijodkor bo'lish ishtiyoqida yonggan havasmandlarga har bir so'z, jumla ustida obdon o'ylab ko'rish, matnni me'yorige yetkazib mukammalashtirish uchun mutasil mehnat qilish zarurligidan saboq beradi. Mirkarim Osim asarlari esa tarixni o'rganish, turmush hodisalarini chuqur bilish, insonparvar, xalqparvar, adolatparvar, inson-e'tiqodli bo'lishga da'vat etadi. Said Ahmad hikoyalari ham o'zbek nasrining quvonarli hodisalari sirasiga kiradi. "O'rik donla", "Tumalar" ham yozuvchining boshqa asarlari kabi lirizmga yo'g'rilgani, har bir so'zda hayotga hayratlanib qarayadigan muallifning ma'naviy olami barq urib turishi bilan e'tiborni tortadi. Abdulla Qahhor ham, Mirkarim Osim ham, Said Ahmad ham

hikoyalarida hayot voqeligining bir parchasini muhrlaydi. O'quvchi ularni mutolaa qilayotganida o'zini shu hodisalarning og'ushida his qiladi. "O'g'ri", "Bemor", "Shiroq", "To'maris", "O'rik domla", "Turnalar" matnidagi quyma, ixcham, oddiy jumlalar chinakam jozibakorlik asl soddalikda ekanini ayon etadi. Mirkarim Osim asarlarida Shiroq, To'maris yashab o'tgan olis o'tmishdagi bosqinchilik, xunrezliklardan iborat ijtimoiy voqelik jonli, ta'sirchan tasvirlanadi. Tarixiy voqelik personajlarning insoniy qiyofasi, dunyoqarashini ko'rsatish uchun fon bo'lish barobarida, ajdodlarimiz turmush tarzi bilan tanishtiradi. "Dahshat", "Bemor", "Ahor", "Shiroq", "To'maris"da o'tmishdagi ijtimoiy voqelik mohiyati, "O'rik domla", "Turnalar"da XX asr odamlari turmushining qiziqarli manzaralari personajlar obrazi orqali ochib beriladi. "Shiroq", "To'maris"da tarixiy manbalardagi voqealar badiiy gavdalantiriladi. Mirkarim Osim asarlarining ahamiyati, qiymati o'tmish voqeligi Shiroq, To'maris kabi ta'sirchan obrazlar orqali ifodalangani bilan belgilanadi. Adib ayni asarlarida o'tmish voqeligiga o'zi yashayotgan davr talablaridan kelib chiqib yondashadi. U tarixiy manbalardagi bugungi kun odamlari uchun ahamiyatli voqealarga badiiy tus berish orqali o'tmishni unutmasdan, ilkka, el-yurt manfaatini o'zining hayoti, shaxsiy huzur-halovatidan afzal ko'rgan fidoyilarni doim eslab, ularning xotirasini e'zozlashga da'vat qiladi. "Shiroq", "To'maris" sujetidagi voqealar, matndagi badiiy bo'yoqlar ularning tarixiy mavzudagi ta'sirchan asarga aylanishini ta'minlaydi.

Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Said Ahmad hikoyalarida personajlar portreti aniq, qabartirib chiziladi. Ularda o'zbek nasri turmush voqeligini ifodalash, inson obrazini aks ettirishda jahon adabiyotidagi ilg'or an'analarni ijodiy o'zlashtirishda dadil odimlab borayotganini namoyon qiladi. Shu bois adabiyotshunos Baxtiyor Nazarov Said Ahmad ijodi to'g'risida fikr bildirib: "Said Ahmad adabiyotga hikoyanavis sifatida kirib keldi va bu janrda barakali ijod etdi. Uning "Onalonlar", "Tumalar", "Cho'l burguti", "Muhabbatning tug'ilishi", "Hayqiriq", "To'y kechasida" singari o'nlab hikoyalari o'zbek lirik hikoyachiligi yo'nalishini belgiladi, deyish mumkin" deb ta'kidlaydi. (Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O., XX asr o'zbek adabiyoti tarixi: Universitetlar

va pedagogika institutlari bakalavr istisosini oluvchilar uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 1999. — 544 b. — 379-bet). Said Ahmad ham xuddi Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim singari o'z hikoyalarida juda jiddiy ijtimoiy, ma'naviy muammolarni qo'yadi. "O'rik domla", "Cho'l burguti", "Turnalar" mavzuli asarlarining farqli jihati ular xalqchil hajvga yo'g'rilgani, beozor kulgiga asoslanganida ko'rinadi. Bu hajv, kulgining negizi milliy turmushimizga borib bog'lanadi. Said Ahmad hikoyalarida turli mavzularga murojaat qilishi asosida kundalik hayot manzaralari o'ziga xos bo'yoqlarda aks ettiriladi.

O'zbek hikoyachiligi namunalari sifatida nomi qayd qilingan ushbu asarlar hikoya janri hayot manzaralarini aks ettirishda qisqa, roman janri uchun asos bo'la olishi, doim unga yo'l ochishini ko'rsatadi. "Ahor", "Bemor", "O'g'ri" hikoyalari turmush voqeligini tanlab tasvirlash, hayot manzarasini haqqoniy aks ettirishda Abdulla Qahhor uchun tajriba orttirish, ijodiy chiniqish, ulg'ayish maydoni bo'lgani, adib "Saroh", "Qo'shchinor chiroqlari" romanlarini ana shu mustahkam zaminda turib yaratgani isbot talab qilmaydi."Qor qo'ynida lola" hikoyasi Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani uchun poydevor ekanligi, hikoyadagi ikki xotinli chol ga uzatilgan o'n olti yashar Sharofat obrazi roman qahramoni Zebi obrazi uchun andoza bo'lgani yaqqol bilinadi. Zukko o'quvchi Said Ahmad hikoyalaridagi ko'pgina chizgilar kengaytirilgan, hoyitilgan tarzda yozuvchining "Ulug" trilogiyasiga ko'chib o'tganini darhol sezadi. Hikoya janri qissa, romanlar uchun emas, boshqa adabiy turlar uchun "xarakterlash" bo'la oladi. Ayni hodisa Said Ahmad ijodida ham kuzatiladi. Adabiyotshunos Baxtiyor Nazarov bu xususda: "Yozuvchining katta janrga o'tishda o'ziga xos yo'li bor. U bo'lg'usi katta asar niyatini avval kichik janr (ko'pincha, hikoya) orqali o'quvchiga yetkazib, maqsadlarini sinovdan o'tkazib oladi, so'ng uni chuqurlashtirib, katta janrga qo'l uradi. "Kelinlar qo'zg'oloni"da ham shunday bo'ldi. Avval shu nomda hikoya yozildi. Kitobxon yaxshi qabul qildi. So'ng adib hikoyani kinossenariyga aylantirib, niyatini badiiy film orqali namoyon etish orzusida bo'ldi. Biroq bu reja o'z vaqtida amalga oshmay qoldi. Aniqrog'i, niyatini to'kis tushuna olguvchi kinorejissor topilmadi. Yozuvchining niyatini nozik anglagan teatr rejissori Bahodir Yo'ldoshev asarning niyatini nozik anglagan teatr rejissori Bahodir Yo'ldoshev asar

sahnabop ekaniga muallifda rag'bat uyg'otdi. Komediyani o'zi Hamza nomidagi teatrda sahnaga qo'ydi" deydi (o'sha manba. 381-bet).

Said Ahmad hikoyalari ham adabiyotshunoslikda xuddi Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim asarlari singari mavzu ko'lami, mazmun mundarijasi va janr xususiyatlariga ko'ra tasniflanib, ayrimlari "lirik hikoya", ba'zilari "lirik-publitsistik hikoya" sifatida guruhlarga ajratiladi. Ularning barchasida XX asr odamlari obrazi gavdalantirilib, ularning quvonch va tashvishlari ochib beriladi.

Abdulla Qodiriyning "Uloqda", "Jinlar bazmi", Cho'lponning "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", Fitratning "Qiyomat", "Shayton ning Tangriga isyoni", Abdulla Qahhorning "Anor", "Bemor", "O'g'ri", "Dahshat", "Mayiz yemagan xotin", G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam", "Hasan kayfiy", Mirkarim Osimning "Shirog", "To'maris", Said Ahmadning "O'rik domla", "Turnalar" kabi hikoyalari zamonaviy o'zbek adabiyoti ham uning muntoz adabiyoti singari xalqining dahosiga xos muhtasham adabiyot ekani, uning muazzam manzarasini umumiy tarzda ta'rif-tavsif etib bo'lmasligiga yorqin dalil bo'la oladi. E'tiborli jihati shundaki, o'zbek adabiyoti juda qisqa tarixiy davrda shunday beqiyos yuksaklikka erishdi. Undagi hikoya janrining mukammal namunalarida hayot manzaralari benihoya ta'sirchan aks ettiriladi. Ular adabiyot asl hayot darsligi ekanligi, san'atning hech bir turi, ilm-fanning hech bir sohasi insonshunoslik bobida u bilan bo'ylasholmasligi, tenglasholmasligiga aniq misol, chinakam isbot bo'la oladi.

Abdulla Ulug'ov
filologiya fanlari nomzodi, professor

ABDULLA QAHHOR

O‘TMISHDAN ERTAKLAR

(Qissadan boblar)

Eshilib, to‘lg‘anib ingranadi kuy,
Asrlar g‘amini so‘ylar “Manoqot”-
Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘zgasi
Qanday chiday olgan ekan odamzod!

Abdulla Oripov

BIR-IKKI SO‘Z

Mening bolalik yillarim Farg‘ona vodiysining Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvaydi, Tolliq, Olqor, Yulg‘unzor, Oqqo‘rg‘on degan qishloqlarida o‘tgan. O‘ttizinchi yillarning o‘rtalarida bolaligimni o‘ylaganimda chalakam-chatti tush ko‘rganday bo‘lgan edim: dumli yulduz chiqqan edi; Babar (Bobir bo‘lsa kerak) degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o‘lmagan edi, shunda otqorovul odamlarga yuzlanib: “Yopiray, bunaqa battol o‘g‘rini umrimda ko‘rgan emasman, ustidan oshirib o‘q uzibman-u, kiprik qoqmadi-ya!” degan edi.

Zehnimda shunga o‘xshagan qalqib yurgan xotiralardan tashqari, qalqimasdan toshdek cho‘kib yotgan xotiralar ham hisobsiz ekanidan uzoq zamon bexabar ekanman. Bundan meni Anton Pavlovich Chexov domla xabardor qildilar.

Bundan o‘ttiz yil burun men u kishining yigirma ikki tomlik to‘plamini qo‘limdan qo‘ymasdan o‘qib chiqdim. Shunda alomat bir hodisa yuz berdi: shu bilan muhtaram ustod menga go‘yo muborak ko‘zoynaklarini berdilar-u: “Mana buni taqib, o‘z xalqingning o‘tmishiga nazar sol!” dedilar.

Ustodning muborak ko‘zoynaklarini taqib xalqimizning o‘tmishiga qaradim. Bir tomonda Anton Pavlovichning temiryo‘l gaykalarini burab olgan “yovuz niyatli kishi”si, ikkinchi tomonda

otqorovul yur desa yurgan, tur desa turgan, ustidan oshirib o‘q uzganida kiprik qoqmagan “battol o‘g‘ri” — Babar! Bular zamona daraxtida yetishgan bir olmaning ikki pallasi edi.

Shunday qilib, bolaligimda zehnimga cho‘kib qolgan xotiralar uyg‘ondi, yuzaga chiqdi, o‘sha vaqtdagi xalq hayoti ko‘z oldimga keldi. Mana shuning natijasi bo‘lib, o‘ttizinchi yillarning o‘rtalarida g‘am-g‘ussaga to‘la “O‘g‘ri”, “Tomoshabog‘”, “Bemor”, “Anor”, “Millatchilar” vujudga keldi. Bu hikoyalarni keng kitobxonlar ommasi xush qabul qilgan, hanuzgacha qayta-qayta bosilib kelayotgan bo‘lsa ham, o‘sha vaqtlardayoq yosh kitobxonning e’tiroziga sabab bo‘ldi. Yoshlar hikoyalarda tasvir etilgan voqealarni ortiq darajada mubolag‘a deb bilishardi.

Yillar o‘tib, yangidan yangi kitobxon avlod yetishgan sayin bu e’tirozlar keskin tus ola bordi: nainki ho‘kizidan ayrilgan musibatdiyda bir mo‘ysafidga hech kim rahm qilmasa, axir, amaldorlar ham odam-ku; nainki kishi o‘z yurtida begona bo‘lib, o‘z shahrining tomosha bog‘iga kirolmasa; nainki bemor xotinga go‘dakning saharlari qiladigan duosidan boshqa davo topilmasa; nainki sog‘-salomat yigit boshqorong‘i xotiniga ikkitagina anor olib berolmasa; nainki ziyoli deb atalgan kishi boyning itidan ham tuban tursa!

Yosh kitobxonlarning ta’nasi, xususan, so‘nggi yillarda dashnomga aylana boshladi.

1960-yilda o‘zbek ayolining o‘tmishiga oid “Dahshat” degan bir hikoya yozgan edim. Bu hikoyada sakkizta ayolni Olimbek dodxohning haramiga qamab qo‘yganim bir ayolga haqorat bo‘lib tushibdi. Imzosiz, manzilsiz yuborilgan xatda shunday satrlar bor:

“...o‘tmishda shundoq bo‘lsa, ehtimol, bo‘lgandir, lekin o‘zbek xotin-qizlari tarixining shunday malomatli sahifalarini hozir, bugungi kunda tiriltirish shartmidi? Siz o‘tmishni qalamga olganingizda ba’zan uydirmachilikka berilib ketasiz...”

Mana shunaqa ta’na-dashnomlardan keyin “uydirmachilikka” berilmasdan, o‘z ko‘zim bilan ko‘rganlarimni, kechirganlarimni, o‘tmish hayot lavhalaridan esimda qolganlarini qalamga olgim kelib qoldi. Kitobning gazeta va jurnallarda bosilib chiqqan ayrim parchalarini o‘qigan bir tanqidchimiz haqiqatday g‘ashlik qilib, “Juda

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 29923

zulmat-ku, kitob o'quvchida juda og'ir taassurot qoldirmasmikan?" deb qoldi. Bu tanqidchi 1950-yilda tug'ilgan, undan keyin tug'ilgan yoshlar, shubhasiz, bu mulohazani keskinroq aytishini ham bilaman. Men kitobni "O'tmishdan lavhalar" deb atamoqchi edim, mayli, shularning ham ko'ngli to'lsin, kitobni "O'tmishdan ertaklar" deb atay qolay.

FALOKATNING SHAROFATI

Biz Yaypanda Olim buva degan bir novvoyning tashqarisida turar edik.

Novvoyxonaning orqasi tashqining qariyb yarmini egallagan, hovli juda ham tor, ayam uning o'rtasini tesha bilan chopib qo'qongul, sariqgul, rayhon, jambil ekkan, hovlining guvalak devorlari qalding'ochning uyasiga o'xshar edi. Ishigi bir tabaqalik, kichkina va pastakkina uyning darchasi ichkari hovlining ayvoniga ochilgani, buning ustiga, nomahram nazaridan pana qilib, panjaraga yog'langan qog'oz yopishtirilgani uchun uy qorong'i, odami odamni tusmol bilan tanir edi.

Olim buvaning ichki hovlisi ham tor, ustini boshdan oyoq tok qoplagani uchun juda ham dim. Uning xotini ertadan kechgacha g'uv-g'uv charx yigirardi, tez-tez biznikiga kirib ayam bilan gaplashib o'tirardi; bizning musofirligimizga rahmi kelsa kerak, ba'zan o'pkasi to'lib, ayamga taskin bergan bo'lardi:

Musofir bo'lmagan kim bor;
Mujovir[1] bo'lmagan kim bor;
Birovning yurtiga borib,
Muhojir bo'lmagan kim bor?..

Olim buvaning o'g'li kimningdir eshigida qarol, qizi erga tegib ketgan. Uning o'zi saharda turib non yopadi, nonni do'konning oldidagi taxtaga dastalab qo'yganidan keyin chorbog'iga kirib ketadi-yu, shom qorong'isida chiqadi; do'konga kelib nonni, tushgan pulni sanaydi, pul ba'zan kam kelsa kerak, javraydi, pul yoki

[1] Mujovir — surg'unlik ma'nosida.

non kam kelganiga emas, pul tashlamasdan non olib ketgan kishi birovning haqini yeb, do'zaxiy bo'lganiga kuyadi.

Yozning issiq kunlari. Hovlimiz, ayniqsa, qoroug'i bo'lsa ham salqinroq, uyimiz g'ij-bij pashsha. Bir kuni dadam uyning eshik va darchasini zich yopib, achchiq tugma qalampir tutatdi. Tutun shunday achchiq ediki, oydan dadamning o'zi zo'rg'a chiqdi, uzoq yo'taldi. Uning niyatidan xabardor bo'lib, Olim buva astoydil xafa bo'ldi va devor osha:

— Usta, Xudoning maxluqiga ozor bermang, pashshani ham Xudo yaratgan, jon bergan! — dedi.

Dadam tutunni darrov o'chirdi.

Bir kuni uyimizga dadamning ovchi jiyani keldi. U Pastqo'riqda ov qilib yurgan ekan, o'qi tugab, biznikiga o'q yasagani kelibdi. Men onamning "o'qqa yaqin borma", — deb hay-baylab turishiga qaramay, ovchining o'q yasashini tomosha qilib turdim. Mehmon miltiq doridan pichasini yoqib, usti qizil va ichi oq chiroyli pistondan bittasini chaqib ko'rsatdi. Piston qarsillaganda men bir cho'chib tushdim, keyin zavq qilib irg'ishladim. Shunda pistondan ikkitasini o'g'irlab, kigizning tagiga yashirib qo'ydim. Mehmon ketganidan keyin nima xayolga bordim-u, bitta pashshani tutib ikkala pistonning orasiga qo'ydim, sandonchaning ustiga qo'ydimda, bolg'acham bilan qattiq urdim. Piston qars etib ketdi. Olim buvaning xotini bilan gaplashib, rayhon chopib o'tirgan ayam birdan voyvoylab, quyimchini ushlaganicha o'zini rayhonning ichiga tashlab yubordi. Kampir dod solib uning ustiga o'zini tashladi va menga qarab: "Nima qilib qo'yding, bor, dadangni aytib kel!" — deb baqirdi. Ayam rayhonning ichida hamon voyvoylar ekan, "Chorig'ingni kiy!" -- dedi. Qo'rqib ketdim, darrov chorig'imni kiydim, ko'chaga qarab chopdim. Do'konimiz guzarda — chorrahada bo'lib, bolg'a tovushi eshitilib turar edi. Dadam o'zi dam bosib ishlayotgan ekan, meni ko'rib qo'rqib ketdi, shoshib ayanini so'radi. Men boshqa gap qo'shmasdan "ayam yig'layapti", — dedim. Dadam qop peshgirni yechib do'kondan chiqdi va "shayton arava"sini[1] minib uyimiz tomonga ketdi. Men qo'rquvimdan tez o'tirdim. Chorrahaning narigi tomoni keng maydon, unda kat-

[1] Shayton arava — velosiped.

ta-kichik toklarga osilgan rang-barang to'qovoqlardagi bedana-larning birbiridig'i, ko'cha bo'yi va maydonning tevarak atrofidagi do'konlarda tarafma-taraf sayrayotgan kakliklarning qaqquvog'i hech tinmas edi. Do'kondan chiqdim, chorrahaning u tomoniga o'tib, kaklik sayrayotgan bir do'kon oldiga borenoqchi bo'lganimda dadam chaqirib qoldi. Dadam "shayton arava"dan tushib beliga peshigirini bog'lar ekan: "Ayangni otibsan-ku! Ukacha tug'ib bera-digan ayani otaditmi kishi!" — dedi va qo'limga damning arqonini berdi. Dadamning avzoyidan ayam tuzalib qolganini fahmlab, dam bosaverdim.

Dadam varillab turgan o'choqdan cho'g'day qizigan bir parcha temirni olib teshayotgan edi, undan chiqqan lo'yaday temir sam-dondan kundaga, undan yumalab chorig'imning qo'njiga tushib ketdi. Chorig'imni qo'lantayoq kiygan edim, temir boldirimga jaz etib yopishdi. Chinqitib yubordim. Dadam chorig'imni darrov yechib tashladi va meni ko'tarib, do'kon oldidagi taxtasupaga yotqizdi. Bir vaqt qarasam, tepamda besh-olti kishi turibdi. Bular-ning biri meni yelpiyapti, biri boldirimni puflayapti. Kimningdir: "Bu azamat bola, yig'lamaydi, yig'layotgani yo'q, toychoq bo'lib kishnayapti", deganini eshitdim. Boldirim harchand jazillayotgan bo'lsa ham, yig'idan to'xtadim, lekin vujudim qaltirab-silkinib ko'zimdan yosh oqar edi. Bir chol jarohatimga kigiz kuydirib bos-di va boldirimni latta bilan bog'lab qo'ydi. Birov yarim qarich ke-ladigan sariq obokidandan, birov qizil tuyechoq non keltirib berdi. Biroz tinchiganimdan keyin dadam kulib: "Temirchi degan kuyib-kuyib temirchi bo'ladi-da!" dedi.

Kechga yaqin dadam do'konni yopdi, meni opichib oldi. Uyga ketdik.

Ayam oyog'im kuyganini eshitib hushidan ketayozdi; keyin nima bo'lib meni yakka do'konga yuborganini aqliga sig'dirolmay o'zini qarg'edi. Mendan oldin va mendan keyin tug'gan sakkiz bo-lasini qora yer bag'riga bergan ayam endi meni yer-ko'kka ishon-mas, ko'z o'ngidan bir qadam nari jilgani qo'ymas edi. Ayamning yaradorbo'lgani, oyog'imning kuygani bir chekkada qolib ketdi. Ota-onam biri qo'yib, biri olib, mushtday boshim bilan do'kon-ga yolg'iz borganim, bu qadar uddaburroligim to'g'risida hayron

qolib so'zlar edi. Go'yo butun dunyodagi hamma balo-qazo hov-limiz bilan do'konimiz orasiga yig'ilib, mening ko'chaga chi-qishimni kutib turgan ekan-u, men birini urib, birini yiqitib, biriga chap berib, do'konga yetib boribman.

Shundan keyin ota-onamning nazarida, "Xudoga ming qat-la shukur", katta bo'lib qoldim, uzoqqa ketmaslik sharti bilan ko'chaga yakka chiqadigan bo'ldim, lekin hech vaqt ko'chadan xush-xursandlik bilan qaytmas edim. Ko'chaga birinchi chiqqan kunim eshigimiz oldidan o'tadigan zovurga yiqilib tushdim: tor ko'prikning ustida bo'riq[1] yotgan ekan, shuni tepib zovurga tushir-moqchi bo'lganimda ikkala oyog'im ko'tarilib ketdi, shekilli, yi-qildim va zovurga tushib ketdim. Zovurdan meni birov tortib oldi. Hovliga yig'lab kirdim. Onam yuragi yorilguday bo'lib yuzimga suv sepdi, ho'l ko'ylagimni yechib tashlash ham esiga kelmay, latta yoqib boshimdan aylantirib tashladi — alasladi. Shundan keyin bir hafta ko'chaga chiqqani ijozat bo'lmadi. Yana bir kuni, eshigimiz oldida loyparsilloq o'ynab o'tirgan edim, guzar tomon-dan bir to'da otliq qozoq-o'ris kelib qoldi. Men qozoq-o'risni hech qachon ko'rmagan edim. Bularning kizagi qizil ko'k shap-kasiga, chakkasida burpayib turgan sochiga, kiyim-boshi va shop-sholupiga qarab angrayganimcha ergashib ketaveribman. Bir vaqt qarasam, dalaga chiqib qolibman. Darrov orqaga qaytdim, biroq uyimizni emas, hatto ko'chamizni ham topolmadim. Ayrilishda yig'lab o'tirgan edim, toleyimga arava kelib qoldi. Aravakash aravasini to'xtatib, otidan tushdi, mendan gap so'radi; dadamni tanirkan, otiga mingashtirib hovlimizga keltirib qo'ydi. Men bu voqeani ayamga aytmadim, aytsam ko'chaga chiqarmay qo'yardi. Lekin boyagi aravakash bu gapni dadamga aytibdi. Ayam dadam-dan bu gapni eshitib vahima qildi:

— Voy sho'rim, Xudo bir saqlapti! Qozoq-o'ris oyog'ingdan olib yerga ursa, yo otiga bostirib ketsa nima qilardik! Qulog'ingda bo'lsin: qozoq-o'risni ko'rsang qoch, qocholmasang o'zingni zo-vurga ur!

Dadam meni maqtadi:

[1] **Bo'riq** — jo'xoripoyaning bir bo'g'ini.

— Durust, durust, botir yigit bo'ladiganga o'xshaysan, — dedi va ayanga yuzlandi: — Qozoq-o'risni ko'rsa katta odam shoshib qoladi-yu!..

Do'konga yakka o'zim borganim, qozoq-o'risdan qo'rqmaganim go'dakning birinchi aytgan so'zlari singari ota-onamni quvontirib yubordi. Shundan keyin ko'chaga bemalol chiqadigan, hatto narigi ko'cha va torko'chalarga borib, bolalar yotsirasa va o'yinga qo'shmasa ham, ularning o'yinini tomosha qiladigan, shikast yemasdan, adashmasdan uyga qaytadigan bo'ldim.

Ramazon kirdi. Allaqayerda chalinayotgan nog'oraning taka-tumi, echkining tovushiga o'xshash surnay sadosi hammani saharlikka uyg'otardi. Ota-onamning so'zidan, harakatidan, ro'za qiziq narsa bo'lsa kerak, deb bir-ikki sahar men ham turdim. Biroq ro'zaning saharligi emas, bozorshabi qiziq bo'larkan. Dadam meni bozorshabga olib bordi.

Chorraha va katta maydonning atrofidagi son-sanoqsiz do'konlarda chiroq, kamida ikkitadan, uchtadan sham. Odam ko'p. G'ovur, hayqiriq, kulgi, ashula... Sotuvchilar qichqirgani qichqirgan: "Issiq non bu!" "Saharlikka qo'shaloq somsa degan bormi!" "Shining-u, chaynamang!" ... Bolalar uchqun sochayotgan sixmushakni vizillatib uyoqdan buyoqqa chopishadi. Ora-sira tollar orasidan qizil uchqun sochib vashtilaganicha osmonga ko'tarilgan qamishmushak yulduzlar orasida chilparchin bo'ladi-yu, paqillab, hamma uchqun so'nadi, faqat bitta kattakon uchqun yerga qarab sho'ng'iydi.

Yana bir kecha bozorshabga chiqqanimizda dadam meni maydonning to'ridagi samovarga olib bordi. Bu yerda ham odam ko'p, g'ovur, kulgi. O'rtaga osilgan kattakon, juda ham ahamiyatli bir chiroq ko'zni qamashtirib ayvon va sahnadagi odam to'la so'rilarni kumushdayday yoritib turardi. So'rilarni oralab ayvonga tomon ketayotganimizda birov meni ko'tarib so'rining chetiga o'tqazdi. Dadamga ham joy berishdi. So'rining ostidami, tepasidami kimdir ingichka, lekin juda o'tkir tovush chiqarib ashula aytmoqda edi. Men alanglab qolgan edim, dadam imo bilan kattakon, quchoqlasa sig'maydigan bir dona karnaygulni ko'rsatdi. Qarasam, ashula shu karnaygulning ichidan

chiqayotgan ekan. Men "moshina-qo'shiq" deb eshitganman, lekin o'zini ko'rmagan edim, moshina-qo'shiqqa tikilganimcha qoldim. Ashula tugagandan keyin yana shu karnaygulning ichidan: "Otangga rahmat, Hamroqul qori!" degan tovush chiqdi. Nazarimda, karnaygul ustidagi sariq qutichaga soqol-mo'ylovli kichkina-kichkina odamchalar qunab qo'yilganga o'xshardi.

Ashula tugagandan keyin bir nima qars-qars etib ketdi. Qo'rqib dadamning qurchog'iga otildim. Dadam: "Qo'rqma, qo'rqma, buqamushak", dedi. Qarasam, davrada haqiqatan buqaga o'xshagan bir nima qarsillab, har qarsillaganida odam bo'yi sapchib yuribdi. Davrada mendan boshqa ham qo'rqib ketgan odamlar bor ekan, rosa kulgi bo'ldi. Keyin, mushakdan gap chiqib, qaytarmayoqa oq kamzul kiygan sersoqol bir odam Xo'jandda bo'lib o'tgan bir voqeani gapirib berdi. Xo'jandda dong'i ketgan bir mushakchi bor ekan. Shu odam allanima degan bir boyning to'yida beliga to'rtta katta-katta mushak bog'lab osmonga uchibdi. Mushakchi terak bo'yidan balandroq chiqqanda, mushakning dorisi tamom bo'lmay turib, odamlar uni oyog'iga bog'langan arqondan tortib yerga tushirishibdi. Buni eshitib hamma yoqasini ushladi.

Yana moshina-qo'shiq xonish boshladi. Narigi so'rining ustida "gardish mushak" degan narsa uchqun va tutun puflab aylana ketdi.

Shundan keyin "Buvaqovoq" degan o'yin boshlandi.

Qirg'izbashara jikkakkina bir odam ayvonning bir chekkasiga tutib qo'yilgan bordon orqasidan uchta sanochni bittama-bitta zo'rg'a ko'tarib chiqdi-yu, keltirib so'rilar davrasiga qo'ydi va kattakon shokosani chertib, qimizini maqtay ketdi. O'sha bordon orqasidan oq eshak mingan, novcha, sallasi qozonday, qorni eshakning yoliga, uzun ayri soqoli qorniing ikki tomoniga tushgan bir odam chiqdi. "Buvaqovoq" degan shu ekan. Buvaqovoq qirg'izning oldidan o'tayotib qimizning narxini so'radi. Qirg'iz qimizni maqtab: "Bir shokosasi ikki pul", dedi. Buvaqovoq o'n shokosasini bir pul so'radi. Qirg'iz unamadi, bag'illab berdi. Odamlar xo'p kulishdi. Buvaqovoq eshagidan tushdi, sanochlardan birining og'zini ochib qimizni tatib ko'rdi; ikkinchisini ochdi, bundan ham tatib ko'rdi. Qirg'iz ochilgan ikkala sanochning og'zini burab, mahkam ushlab turganda Buvaqovoq uchinchi sanochni

naniroq tortdi-da, qimizni tatib-netib o'tirmasdan shokosaga quyib ichaverdi va har safar shokosani bo'shatganida qirg'izga qarab: "Gap bitta — o'n shokosasi bir pul!" deb qo'yardi. Qirg'iz shovqin solar, talpinar, so'kar, lekin ikkala sanochning og'zini qo'yib yuborolmas edi. Odamlar yumalab-yumalab kulishdi.

Shunday qilib, piston kasofatining sharofati bilan "Xudoga shukur, bozorshablarga boradigan kap-katta yigit" bo'lib qolganimdan keyin vaqt bemahal ko'chaga chiqsam, bolalar bilan yashin topaloq, tutmindi, dasta, lo'ppi tepish o'ynab uzoq yursam ham ayam tergamas, aksincha, behad quvonar edi. Mendan begonasiraydigan bolalardan endi bir-ikki o'rtoq orttirganimda bu mahalladan ko'chadigan bo'ldik.

Bir kuni dadam "shayton arava"sini minib Qo'qonga ketgan edi, kechqurun qaytishda Olim buvaning opasi — saksonlardan oshib qolgan kampirga yo'liqibdi. Dadam qo'ng'iroq chalmay uning yonidan shuv etib o'tib ketibdi. Uning shabadasidan sesканib ketgan kampir boshini ko'tarib qarasa, oldinda odamga o'xshagan bir maxluq oyog'i yerga tegib-tegmasdan uchib ketayotganmish. Kampir shaytonlab o'zini tashlab yuboribdi. Odam yig'ilibdi. Kampirni uyiga zambilda olib ketishibdi. Dadam qo'rqqanidan ko'chaga chiqmay, do'konga ham bormay qo'ydi. Uch kun deganda kampir o'lib qoldi. Dadam tergov va Olim buvaning g'azabidan qo'rqib cho'p-ustixon bo'lib qoldi. Ayani yig'idan boshini ko'tarmas edi. Kampirning yettisi o'tgandan keyin Olim buva dadamga kishi qo'yib: "Mayli, usta xafa bo'lmasin, opamning kuni bitgan, qazosi yetgan ekan, Xudoning irodasi. lekin bundan keyin "shayton arava" minmasin, shu "shayton arava" olib kelgandan beri Yaypandan fayz ketdi", debdi.

Dadam ertasigayoq "shayton arava"ni Qo'qonga eltib sotib keldi, Olim buvaga uchrab uzr-ma'zur aytdi; unga ikkita o'n ikki qadoqlik ketmon, bitta bolta yasab berdi. Chol dadamni hol-joniga qo'ymasdan bu narsalarning pulini beribdi.

Shu bilan tinchigan edik, oradan bir hafta o'tar-o'tmas yana bir voqea yuz berdi.

Dadam ertalab do'konga ketayotganida yo'lakda paranjilik bir xotinni ko'ribdi. Paranjining orqa etagiga bir shox yantoq

ilashib borayotgan ekan, dadam xotinga yetib olib yantoqni bosibdi. Yantoq yerda qolib, xotin dadamga qayrilib qarabdi-yu, ketaveribdi. Bu xotin Olim buvaning erga tegib ketgan qizi ekan, paranjisiga ilashgan yantoqdan bexabar, "usta menga tegishmoqchi bo'lib paranjimni tortdi", degan xayolga boribdi-da, bu gapni ertasiga aytibdi.

Olim buva ertasiga ertalab yo'lakda shovqin soldi:

— Ho "shayton arava!" Ho kelgindi! Buyoqqa chiq! Chiq deyman buyoqqa!

Cholning bunaqa shovqin solganini emas, balandroq tovush chiqarganini ham bech birimiz eshitmagan edik. Dadam cho'chib ayamga qaradi. Uning ham rangi o'chib ketdi. Dadam yo'lakka tomon yugurdi. Men ham chopdim. Yo'lakda o'ng qo'lini yengidan chiqarib olgan Olim buvani ko'rib tanimadim: meni hamisha bolam-bo'tam deb suyadigan, shirinso'z, yuzidan tabassum arimaydigan chol qani? Uning o'rnida ko'zlari qinidan chiqay deb turgan, rangi soqolidan ham oqroq, vujudi titrab, uzun soqoli silkinayotgan dahshatli bir odam turardi. Dadam ro'para bo'lishi bilan uning og'zidan haqorat ustiga haqorat yog'ildi, ikki gapning birida "kelgindi it" deb, qizidan eshitgan gaplarini dadamning yuziga soldi, yana haqorat qildi. Dadam boshini quyi solganicha nuqul:

— Otaxon, avval gapga quloq soling, — der, shundan bo'lak gap aytsa, chol kelib musht soladiganga o'xshardi.

Chol do'g'ayib keldi.

— Hozir ko'rpangni ko'tar, it kelgindi! — dedi va po'shtpo'shtlab hovlimizga, taxta bo'lib qotib qolgan va begona kishidan qochishni ham unutgan onamning yonidan o'tib, uyga otildi.

Dadam hamon "otaxon, otaxon" deya uning ketidan ergashdi. Olim buva uydan bir quchoq ko'rpa ko'tarib chiqib ko'chaning o'rtasiga uloqtirdi. Odam yig'ildi. Hech kim Olim buvaga taskin-tasalli bermasdi, aksincha, kimdir baqirib:

— "Shayton arava" minadigan odamdan yaxshilik chiqmaydi, ur bo'yniga! — dedi.

Olim buva boshini quyi solib eshik oldida turgan dadamning yonidan o'tarkan, qo'lini paxsa qilib baqirdi:

— Mening qizimni ko'chada sanqib yurgan qanjiq deb o'yla-ganmiding? Ho' it! Qaytib yuzingga qarasam xotinim uch taloq! — dedi-yu, hovlisiga kirib ketdi.

Hovlidan uning shovqini eshitilib turardi.

Dadam ko'rpalarni otyo'lakdan olib hovliga kirdi. Ayam boshi-ni devorlarga urib, sochlarini yulib yig'lar edi. Dadam boyagi yan-toq voqeasini aytib, ayamni yupatmoqchi bo'ldi:

— Cholning qulog'iga hozir gap kirmaydi, og'ziga so'z olib qo'ydi, mayli, keyin biladi, uyalib qoladi, — dedi.

Ayam birdan yig'idan to'xtadi.

— Siz uyaling, bir mo'minning xotiniga ko'z olaytirgani siz uyaling! — dedi.

Dadam unga bir xo'mrayib qaradi-da, indamadi, indamay ko'chaga chiqib ketdi.

Dadam kechki payt qaytib keldi, Qo'shariq degan mahalladan uy topib, eshakarava olib kelibdi. Ko'ch-ko'ronimizni eshakarava-ga ortib, Qo'shariqqa ko'chdik.

"INDAMAS"

Qo'shariq mahallasi guzardan ancha nari, ko'cha ikkita kat-ta-katta ariq o'tadigan daraxtzorga borib taqalgan, biz ijaraga ol-gan hovli shu daraxtzordan beriroqda ekan. Hovlini ko'rib ayam suyunib ketdi: bir tup kattakon tut, pachaqroq bo'lsa ham ayvon, to'qqiz yog'ochlik vassa-bo'yra yorug' uy...

Namozgarga yaqin ko'chada bolalar chug'urlashib qolishdi. Chiqdim. Bolalar mening uchun yangi "Oq terakmi, ko'k terak" o'ynashayotgan ekan. Bu o'yinda bolalar orada yigirma-o'ttiz qa-dam masofa qoldirib ikki safga tizilishar, qo'l ushlashib turishar, safning boshlig'i qarshi safga qarab: "Oq terakmi, ko'k terak, bizdan sizga kim kerak?" derkan; qarshi tomonning boshlig'i "fa-lonchi kerak" deganda nomi aytilgan bola safdan chiqar ekan-u, yugurib borib o'zini jon-jahdi bilan qarshi safga urar ekan; shun-da safni uzolsa, g'olib bola mag'lub safdan bir bolani yetaklab kelar, safni uzolmasa, o'zi shu safda qolib ketar ekan. Men Olim

buva mahallasida bolalar qatoriga kirib qolganim uchun dadil borib safga qo'shildim. Qanchadan qancha bolalar qarshi safni buzib bola olib keldi, qanchadan qanchasi safni buzolmay qolib ketdi. Orziqib kutdim: meni ham "kerak" desa, men ham yugurib borib safni buzsam, bola yetaklab kelsam... Biroq meni hech kim "kerak" demadi. Bu bolalar mening nomimni bilmasligi esimga kelmabdi.

Bolalar charchab o'yin buzilganda narigi tomonning bosh-lig'i — hammadan ko'proq shovqin solib yelib-yugurgan bola meni payqab oldimga keldi, menga boshdan oyoq razm soldi-yu, birdan:

— Kelgindi! — deb urgani qo'l ko'tardi.

— O'zing kelgindisan! — dedim ehtiyotdan orqaga chekinib.

Bola bir irg'ib mening kallamga qo'yib yubordi. Men javob qilolmadim, qarasam, boshqa bolalar ham urmoqchi bo'lib, ilon-ni ko'rgan chumchuqday atrofimda chug'urlashib turishibdi. Shu payt bizni kuzatib turgan kichkina salla, uzun malla to'nli novcha bir chol:

— Qo'yinglar, bolalar, tegmanglar, kelgindi bo'lsa o'zi bo'lib-dimi, Xudo qilgan, — dedi.

Bolalar darrov tarqalishdi. "Kelgindi, kelgindi it", degan gapni Olim buvadan eshitganimda buning haqoratdan tashqa-ri, yana odam hazar qiladigan ma'nosi ham borligini bilmagan ekanman, cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chi-qib ketdi.

Hovliga kirdim. Bu gapni ayamga aytmadim, ichimga sol-dim. Shundan keyin ko'chadan, bolalardan ham, odamlardan ham ko'nglim qoldi. Ayam tug'gandan keyin dardga chalinib, "uy qizi" bo'lib qolganim ham chandon malol kelmadi.

Ayam O'lmasoyni tug'ganidan keyin tez o'ng'arilmadi, uzoq yotib qoldi. Qo'shni xotinlar non yopib berishar, kir-chirga qara-shar edi. Ro'zg'orning boshqa ishlari mening bo'ynimga tush-di: uy va hovlini har kuni ikki mahal supuraman, dalaga chiqib ko'targanimcha o'tin orqalab kelaman, dadamga ovqat pishirgani qarashaman, idish-tovoq yuvaman, suv tashiyman, O'lmasoyning latta-puttasini yuvaman...

Ayamni har kuni yoki kun osha peshinga yaqin dard tutadi: avval xo'p chanqaydi, keyin qo'llarining tomiri tortishadi. Ayam panjasini yozish emas, hatto og'zini ocholmas, jag'i qotib qolar edi. Dadam tabib olib kelmoqchi bo'lganda, ayam ko'nmadi: "Hovlimizda ziyon bor, hammasi shundan", dedi. U bir kuni kechqurun darchadan tashqariga qarab yotgan ekan, tutning ostidagi devorning raxnasidan hovlimizga bitta qora echki oshib tushibdi, tushibdi-yu, tushgan joyida g'oyib bo'libdi. Ayamning nazarida qora echki jin bo'lishi kerak, kasalligining boshini shundan ko'rardi. Dadam Qur'on, avrod sotib olib uning yostig'i ostiga qo'ydi. Bularning hech biri foyda qilmadi — dard tutishini qo'ymadi.

Birov dadamga: "Ucharmaxsumga o'qiting, nafasi o'tkir", debdi. Bu odam juda zo'r, duoning kuchi bilan qulf ochadigan azayimxon bo'lib, aytilgan joyga bir zumda yetib borgani uchun "Ucharmaxsum" deb nom chiqargan ekan. Dadam borib shu azayimxonni olib keldi. Ucharmaxsum, haqiqatan, yelday kelib uyga kirdi, yuziga doka tutgan ayamdan beriroqqa cho'kkalab, beshiktervat singari tebranib mayin tovush bilan o'qiy ketdi. Maxsum kichkinagina, ozg'in, siyrak soqoli-yu qop-qora cho'tir yuzidan yoshini chamalab bo'lmaydigan, lekin og'zida bironta ham tishi yo'q, ko'zlari yumaloq va ravshan bir odam edi. Maxsum besh-olti marta keldi. U kelmagan vaqtlarda men uyiga borib duo yozilgan qog'ozlar olib kelardim. Ayam bu qog'ozlarni suvda ezib ichardi.

Maxsum bir kelishda to'qqizta qori bola bilan keldi. Bular ayamning ikki tomoniga o'tirib uzoq o'qishdi, dam solishdi, keyin bilishimcha, bular ayamni "chilyosin" qilishgan, "chilyosin" uzoq yotgan kasalni yo u yoqli, yo bu yoqli qilar ekan, xayriyat, ayamni bu yoqli qildi. Ayam bir-ikki haftadan keyin biroz o'ng'arilib o'rnidan turdi.

Ayam o'rnidan turganidan keyin mahalladan bir qancha xotin-xalaj, taomilga ko'ra, har biri topgan-tutganini ko'tarib "sichqon surdi"ga kirishdi, o'zlari osh-ovqat qilishdi. Bularning ko'pchiligi xushchaqchaq xotinlar ekan, semiz bir xotin ayamning qo'lini ushlab lo'lichasiga rom ochdi:

Ho azizlar, avliyolar,
Avliyolar, anbiyolar!
Mag'ribdan desammikan,
Mashriqdan desammikan...

Uning qiliqlariga hamma, xususan, ayam kulaverib qotib qoldi. Ayamning bunaqa kulganini hech qachon ko'rmagan edim.

Yosh bir juvon mahalladagi hamma erkaklarga laqab qo'yib hammaning ichagini uzdi: Madamin talmov — bu odam hamisha talmovsirar ekan; G'ani salang — bu odam juda novcha bo'lib, salanglab yurar ekan; Nurmat tajang — bu odamning hech to'g'ri gapi yo'q, nima desa xunob bo'lib aytar ekan. Juvon bularning qilig'ini ham qilib ko'rsatdi. Juvon dadamga "Chinoq" deb laqab qo'ydi, hammadan ham shu kulgi bo'ldi: ayam shuncha yil turib dadamning qulog'i kemtik ekanini ko'rmagan ekan.

Hamma kulishdan charchab jim bo'lganda haligi semiz xotin meni payqab qoldi-yu, yoniga chaqirdi, boshimni silab:

— Ayang tuzalib qoldi-ku, xotinlarning ichida nima qilib o'tiribsan, ko'chaga chiqsang bo'lmaydimi? — dedi.

Men indamadim, bolalar meni uradi, kelgindimiz, deya olmadim.

— Bozorboshiga ot o'yin kelgan emish, ot o'yinini ko'rganmisan? — dedi xotin yana.

Men yana indamadim. Boyagi yosh juvon tiqilinch qildi:

— Gapirsang-chi! Tiling bormi?

Men nima deyishimni bilmasdim. Semiz xotin ikki qulog'imdan ushlab peshanasini peshanamga niqtadi.

— Gapirasanmi, yo'qmi?

Ayam Olim buvaning tashqisida turgan vaqtlarimizda meni ko'chaga chiqarmaganini, bu yerda ro'zg'or ishi bo'ynimga tushib "uy qizi" bo'lib qolganimni, u yerda ham, bu yerda ham hech kim men bilan gaplashmaganini unutib:

— O'zi shunaqa, indamas, "ichimdagini top" bola chiqdi, — dedi.

Semiz xotin bilagimdan mahkam ushladi.

— Gapirasanmi, yo'qmi? — dedi va o'rnidan qo'zg'aldi. — Hozir ishtonimga qamab qo'yaman!..

Men uning qo'lidan chiqib qochdim. Xotinlar xo'p kulishdi. Bular chiqib ketguncha ko'cha eshigi bo'sag'asida o'tirdim.

Bir necha kundan keyin Nursuqdan dadam orttirgan oshnalarining xotinlari ham "sichqon surdi"ga kelishdi. Bular ham mening indamasligimni payqashdi, biri: "Ustaning zap o'g'li bor ekan-u, soqov ekan", debdi. Bular ketgandan keyin ayam bu gapni dadamga kuyib-pishib gapirdi.

Kuz kirdi. Dadamning ishi ko'payib ketdi, shekilli, bir kuni ertalab: "Shogird topgunimcha bir-ikki kun qarashmasang bo'lmaydi", — deb meni do'konga olib ketdi va damga soldi. Men har kuni dadamga o'xshab saharda borib xuftonda qaytmasam ham, kun yorishganda borib qorong'i tushmasdan qaytar edim. Kuni bo'yi damning arqonini tortaman, qo'yvoraman, tortaman, qo'yvoraman...

Men bilan hech kimning ishi yo'q, gapirish kerakmas, damdan har qancha zeriksam ham, shunga xursand edim.

Bir kuni popukli gilam do'ppi kiygan, barvasta va sersoqol Dodarxo'ja degan bir qorateginlik o'shanaqa popukli gilam do'ppi, yalang'och badaniga olacha to'n kiygan yalang oyoq o'spirin bolani boshlab keldi. Bu kishi o'n ikki yildan beri Ortiq oqsoqol deganning juvozini haydar, bola uning ukasi, oti Kulala ekan. Kulala Qorateginidan besh yasharligida kelgan, juvozxonada katta bo'lgan, avvallari akasi bilan ko'chama-ko'cha yurib yog', kunjut holva sotgan, keyin bir temirchida damkash bo'lgan ekan. Akasi: "Kulalaga hunar o'rgating, menga boshqa narsa kerakmas", dedi. Shunday bo'lsa ham, dadam unga oylik tayin qildi. Kulala suyunib damni qo'limdan oldi. Lekin bundan xursand bo'lganim yo'q: yana uyda bo'laman, ayam yana urishib, ba'zan yig'lamsirab meni gapga solmoqchi bo'ladi. Men endi "indamas" degan ta'nadan qutulish uchun odamdan, hatto ayamdan ham mumkin qadar qochadigan bo'lib qoldim. Bu hol ota-onamni katta tashvishga solib qo'ydi. Ayam ko'p yig'lab bezor qilganidan keyin dadam meni o'sha Ucharmaxsumga eltib o'qitdi. Maxsum menga xo'p dam solganidan keyin tupugidan yalatdi. Shundan keyin yana ham

indamas bo'lib qoldim, bir so'z aytmoqchi bo'lsam, bundan keyin nima deyishimni o'ylab, bor so'zni ham unutar edim.

"ZINGER"LI BOY

Bir kuni Kulala do'kondan halloslaganicha kelib: "Opa, yetti yarim tanga pul berarmishsiz, usta akam "Zinger" oladilar" dedi. Ayam "Zinger" nima ekanini surishtirmay, uyga kirib, lattaga o'ralgan bir hovuch tanga-chaqa olib chiqdi, o'zi pul sanashni bilmagani uchun Kulalaga tutdi. Kulalaning hovliqishidan "Zinger" qiziq narsa bo'lsa kerak, degan xayolda uning ketidan chopdim.

Chorrahaning do'konimizga qarshi burchagida ayvonlik ko'k do'kon bo'lib, buni "lapka" deyishardi. Bu lapkaning oldiga tumonat odam yig'ilgan, ayvonga qo'yilgan sandal ustida qop-qora, qo'ng'izga o'xshagan, lekin u yoq-bu yog'i yaltiroq bir narsa turar edi. Hamma unga hayrat va shubha, xavotir va maroq bilan qarar, jur'at qilgan kishilar unga ko'rsatkich barmog'ini sekin tegizib, asta-asta chertib ko'rar edi. Lapkadan shaharlik, qaytarma yoqa kamzul kiygan bir kishi dadamni ergashtirib chiqdi. Kulala bir irg'ib ayvonga chiqdi-da, qo'lidagi pulni dadamga uzatdi. Dadam pulni olib boyagi kishiga berdi. U kishi sandalning bir chekkasiga o'tirib, tizzasida bir nimalar yozdi.

G'ovur, har xil gap.

— Shapka tikadigan mashina!

— Voy pangvosh-ey, poshsholik go'sxo'rmas, shapka tikadigan mashinani qo'lingga berib qo'ymaydi!

— Ityoqa ko'ylak, bo'g'ma kamzul tikadigan mashina!

— To'g'ri, qulog'ini bursang bas, gazlamasi ham ichida!

Shaharlik kishi tizzasiga qo'yib yozgan qog'ozini dadamga berdi-da, sandalning ustida turgan rang-barang qiyqimlardan bir nechtasini olib mashinada bir-biriga uladi, tikkani qanchalik pishiq ekanini ko'rsatish uchun qiyqimlarni bir-biridan uzmoqchi bo'ldi. Quroq yirtildi-yu, chokidan so'kilmadi. Odamlar. "O'ha!" deb yuborishdi. Kimdir yaqinroq borib:

— Qoyilman! Ayil tiksa ham bo'ladimi? — deb so'radi.

— Bo'ladi, to'qim yamasa ham bo'ladi! — dedi shaharlik kishi, keyin xaloyiqqa yuzlanib, mashina qanday savdo bo'lganini aytib berdi.

Mashinaning bahosi qirq sakkiz tanga, uchidan yetti yarim tanga naqd to'lansa, olti oy muhlat bilan nasiyaga berilar ekan.

Dadam mashinani ko'tarib, pastda turgan Kulalaga uzatdi. Shu damgacha tek turgan xaloyiq birdan gurulladi. Odamlar bir-birini turtib, itarib olg'a, endi mashinani emas, dadamni ko'rgani intilar, unga birov hayrat, birov hasad, biroz havas bilan qarar edi. Kulala mashinani yelkasiga qo'ydi, ikkovimiz g'izillaganimizcha uyga ketdik. Orqamizdan bolalar duv ergashdi.

Temirchi ustaning "Zinger" olganligi darrov dovruq bo'lib ketdi. O'sha zamoniyoq shu atrofdagi xotin-xalaj uyimizga yopirilib kirishdi. Bularning ichida indamasligim uchun mening ta'zirimni bermoqchi bo'lgan semiz xotin ham bor edi. "Zinger"ni ishlatishni bilar ekan, eski dasturxondan menga birpasda ko'ylak tikib berdi. Men hammani hayratga solgan ko'ylakni kiyib, darrov ko'chaga chiqdim. Atrofimda bolalar chug'urlashar, kelgindi ekanimni ham unutib, hammasi: "Zingeringni bitta ko'rsat", deb yalinar edi. Men bolalarning yalinganidan o'zimda yo'q suyunib chopqillaganimcha uyga kirdim va qaldirg'ochday chug'urlab, ayamga qayta-qayta:

— Bolalar zingeringni ko'rsat, deyishayotipti, — dedim.

Ayamga "Zinger"ni o'rgatayotgan semiz xotin yalt etib menga qaradi.

— Voy, tiling chiqib qolipti-ku! — dedi.

Ayam ham hayron bo'ldi, keyin suyundi.

— Maxsum pochchamning nafaslaridan o'rgilay, o'sha kishiga o'qitgan edik, — dedi.

Uyalib ketdim. Ko'ylagimni yechib qo'ydim. Anchadan keyin ko'chaga chiqdim. Bolalar tarqab ketishibdi.

Bir-ikki kundan keyin "Qayquvotlik Nodirxon to'ra ham "Zinger" olipti", degan xabarni eshitdik.

Uyoqda Nodirxon to'ra, buyoqda usta Abduqahhor!..

Sal kunda dadam og'izga tushib ketdi. Dadam mahallada "Zingerli boy" deb nom chiqardi, men buni bolalardan ham eshitdim.

Biroq bu xursandchilik uzoqqa bormadi. Kulala bir kuni "Zingerli boy "shayton arava" minib odam o'ldirgan", degan gapni topib keldi. Shundan keyin gap chiqaverdi. Ayam ham har kuni kechqurun dadamning kelishiga bir dilsiyohlik topib qo'yar edi: "Namoz o'qimaydi", "mahallaga kelganidan beri biron marta is chiqargani yo'q", "mahallaga qo'shilmaydi", "Zinger" olgunicha xirsday bo'lib qolgan o'g'lining qo'lini halollasa bo'lmaydimi?.."

Ota-onam katta tashvishga tushib qoldi. Ayam yig'lar, dadam ichidan qirindi o'tsa ham, unga taskin-tasalli berar edi. Dadamning aytishiga qaraganda, Olim buva endi opasining xunini da'vo qilmaydi, chunki o'zi "Xudoning irodasi" degan. Lekin boshqa gaplarda jon bor edi. Ota-onam bularning hammasini meni sunnatga yotqizish bilan bosmoqchi bo'ldi. Yanagi hafta bir pud guruch damlab meni sunnatga yotqizishdi. Ota-onam bunchaligini kutmagan bo'lsa kerak, imom boshliq butun mahalla to'yga kirganda "xayriyat" deyishdi. Osh ustida "Zinger"dan gap ochilganda mahallamizning imomi "Zinger" tikkan kiyim namozlikka yaramaydi, debdi.

Dadam "Zinger"ni eski qopga o'rab, tandirning tagiga tiqib qo'ydi, bomdod, shom va xufton namozini machitga chiqib o'qiydigan bo'ldi.

Shu bilan tinchib qolgan edik, yana tashvish chiqib qoldi.

Bir kechasi saharga yaqin O'lmasoy yig'laganda ayam uyg'onib qarasa, yo'lakni to'sib osilgan sholchaning oldida shopday bo'lib bir kishi turganmish, ayamning uyg'onganini ko'rib devordan oshib ketibdi. Yana bir kuni ertalab qarasak, tutning ostiga devordan ikkita guvalak ko'chib tushibdi. Uyimizda o'g'rining qo'liga ilingudek hech narsa bo'lmasa ham, juda vahima bo'lib ketdi. Bir-ikki kecha dadam bolta ko'tarib hovlini aylanib yurdi.

— Katta boylarni poshsholik qo'riqlaydi, — dedi dadam. — Miroqil paxtafurushning uyini o'g'ri bosganda, ellikboshidan tortib mingboshigacha xoda yutgan, bu yog'i shahardan tergovchilar kelgan edi. Chakana "Zingerli boy"ni chakana o'g'ri bossa, kim uzatgan oyog'ini yig'adi?

Dadam qayoqdandir kattakon, men zo'rg'a ko'taradigan qora to'pponcha topib keldi; to'pponcha buzuq bo'lsa kerak, kechasi

eshik va darchani zich yopib, chiroqda tuzatdi, zig'ir yog'i bilan moyladi, kechalari boshiga qo'yib yotadigan bo'ldi. Ayam o'g'ridan ham ko'ra to'pponchamiz borligini birov bilib qolishidan qo'rqar, uning nomini aytish kerak bo'lib qolsa, "to'pponcha" emas, "moshina-qo'shiq" der edi. Dadam bir kuni ayamni urishib berdi:

— Unaqa demagin, tag'in "moshina-qo'shiq" ham olipti, degan gap chiqmasin!

Har nechuk "Zinger" tufayli bolalar orasida obro'yim oshib ketdi, bolalarning o'yiniga qo'shiladigan, o'shalar qatori chug'urlab, shovqin solib yuguradigan bo'ldim.

Biroq Yaypandan Qo'qonga ko'chadigan bo'lib qoldik.

Anjir xazon bo'lay deganda Qo'qondan amakim keldi. Amakimni ilgari ko'rganim esimda yo'q, u kishi dadamday cho'qqisoqol bo'lsa ham, unga qaraganda novcharoq, barvasta bo'lib, ko'rsatkich barmog'ini dam-badam burnining yonidan yuqoriga surib, dimog'ini tortib qo'yadigan odati bor ekan.

Amakim usta Abdurahmon qizi Savrinisoni o'z qo'lida o'sgan shogirdi Azimga bermoqchi, bu yerga kelishdan maqsadi Yaypan bozoridan arzonroq guruch va zig'ir yog'i olish va shu bilan birga, Girmon bilan urush boshlanganini aytib, bizni shaharga ko'chgani da'vat qilish ekan.

Urush boshlanganiga bir yarim oycha bo'libdi. Buni amakimning o'zi ham o'tgan juma kuni eshitibdi: ellikboshi juma namozidan chiqqan odamlarni to'xtatib: "Bekorchi temir-tersaklaring bo'lsa masjidga keltirib tashlanglar, poshsholikka kerak", debdi. Amakim sekin: "Poshsholik buni nima qiladi, muncha nazari past bo'lmasa?" deb so'rasa, ellikboshi: "Girmon bilan urush boshlanib qoldi, temir-tersakdan o'q yasaladi", deb javob beribdi.

Biz urush nima ekanini bilmasak ham, amakimning: "Hamamiz bir joyda bo'laylik", deganidan ko'nglimizga g'ulg'ula tushdi.

Dadam ertasiga bozor kuni amakimga kerakli narsalarni olib berdi. Amakim shu kuni kechki payt Qo'qonga jo'nar oldida ayamga tayinladi:

— To'yda o'zing xizmat qilmasang bo'lmaydi, ovsining tamom bo'lgan... Shoshilishimning boisi ham shu, bechora qizining to'yini ko'rib o'lsin, — dedi.

Ayam hammadan ham "Zinger" dahmazasidan qutulishiga xursand edi.

Yanagi haftaning o'rtalarida butun ro'zg'or va do'konimizning asbob-uskunasini bitta aravaga ortib Qo'qonga jo'nadik.

HUR QIZ

Qo'qonga tush mahalida kirib keldik. Ko'chalarda odam ko'p, xuddi Yaypanning bozor kuniga, yo'q, hayitga o'xshaydi. Jangur-jungur izvoshlar, arava, gumbur soyabonli aravalar ko'p, onda-sonda eshak yoki odam qo'shilgan eshak aravalar ham ko'rinib qoladi. Ko'chaning ikki beti to'la lapka, do'kon; temirchilar, misgarlar taraqlatgani-taraqlatgan. Yasanib nag'ma chalib ketayotgan bir bolani ko'rib qoldim. Bir joyga kelganimizda xuddi azaga kelgan bir hovli xotin baravariga uvvos tortib yig'laganday vahimali bir tovush eshitildi. Men hayron bo'lib qolgan edim, dadam: "Qo'rqma, zovut, Mirrabbiyboyning zovuti, odam chaqiryapti", dedi.

Amakimning hovlisi Qipchoqariq degan mahallada, tollarning ostiga ko'milgan anhor bo'yidagi pastqam hovlilardan biri ekan. Yarmini kattakon tol qoplab yotgan hovlida bizni boshdan oyoq oppoq kiyingan bir kampir bilan ozg'in, rangi zahil, lekin qoshi ko'zi qop-qora, sariq ko'ylak va qizil jeletka kiygan bir qiz qarshi olishdi. Kampir dadamning onasi, qiz amakimning qizi Savriniso ekan. Kampir dadamni quchoqladi. Qiz ayamning ko'ksiga boshini qo'yib yig'ladi, keyin yuz-ko'zini artib, meni quchoqladi, o'pdi. Ikkovi bizni tandir va o'choq qurilgan bostirmaga, undan qorong'iroq uyga boshlab kirishdi. Bu uyda amakimning og'ir betob xotini yotgan ekan. Betob ozib cho'p bo'lib ketgan, chaqchayib turgan ko'zlaridan odam qo'rqar edi. Savriniso meni hovliga olib chiqdi, ro'paradagi yangi uyning zinasiga o'tqazib gapga soldi, jeletkasining cho'ntagidan ikkita parvarda olib berdi, keyin:

"Hozir G'afforjon maktabdan keladi, birga o'ynaysiz", dedi-yu, qaytib ketdi, anchadan keyin yana chiqdi, qo'limga bir bo'lak sovunak holva berdi.

Shu orada G'afforjon kelib qoldi. Men uni qo'lidagi kitobidan tanidim. G'afforjon menga qayrilib ham qaramay, kitobini so'riga uloqtirdi-yu, borib tolning kallagidan bir nima olmoqchi bo'ldi. Savriniso borib uning qulog'iga bir nima dedi. G'afforjon bag'illab berdi. Savriniso yana bir nima degan edi, G'afforjon yerga o'tirib, oyoqlarini tipirchilatib yig'i boshladi. Savriniso meemas, dam olib-dam olib, biron narsaga alahsib qolsa, yig'lashni unutib, yana eslab yig'lar edi.

Uydan kampir chiqdi, G'afforjonni ko'rib, xuddi bir kor-hol bo'lganday uning oldiga yugurib bordi, boshini silab gap so'radi.

— Dadamni aytib kelgin, desam, shunaqa qilib o'tiribdi, — dedi Savriniso.

Kampir baqirib berdi.

— Qo'shnining bolasini yuborsang bo'lmaydimi! — dedi va yengidan bir nimalar olib G'afforjonga berdi-da, aldab-suldab ko'chaga chiqarib yubordi.

Savriniso hovliga suv sepib, so'riga joy qildi. Men nima qilishimni bilmay ko'chaga chiqdim. Muyulishdagi ko'prik boshida bolalar turishgan ekan, yaqin bordim. Bular mendan yotsirashmadi. Gaplashib ketdik. Biroq ko'p o'tmay, bular mening har bir so'zimdan kula boshladi, biri "qishloqi" deb qo'ydi. Men, masalan, "do'kan", "non", "bola" deb o'rganganman, bular "dikon", "nun", "bala" deyishar ekan. Shundan keyin menga ro'yxush berishmadi. Shunda G'afforjondan: "Bu bola bizning qarindoshimiz", degan gapni shuncha kutdim, aytmadi, bolalar qayoqqadir ketayotganda, menga "yur" ham demadi.

Qaytib keldim. Amakim ham kelibdi. Savriniso o'choq boshida, boshqalar so'rida gaplashib o'tirishgan ekan. So'z to'y haqida borayotgan edi.

— Onasi ham shunga ilhaq bo'lib ko'z yumolmayapti, — dedi kampir nafasi titrab, — qachon oldiga kirsam: "To'y qachon, ko'zim ochiqligida qizimning to'yini ko'rib qolay", deydi.

O'zimning ham shartim ketib, partim qolgan... Vaqtida odamlarga o'tkazib qo'yganim bor, to'yonaga kim nima olib kelishini bilmasam ham, har nechuk, umidim katta, o'z qo'lim bilan berganimni o'z qo'lim bilan olay...

Kechasi Savriniso onasining yonida, kampir bilan amakim va G'afforjon yangi uyda, biz hovlidagi so'rida yotdik. Ota-onam xiyla vaqtgacha shivirlashib yotishdi.

— Savrinisoning Azimga hech ham ko'ngli yo'q ekan, — dedi ayam, — boya suvxonada meni quchoqlab zor-zor yig'ladi.

Dadam ayamni urishib berdi.

— Qiziqmisan o'zing, dunyoda qaysi bir qiz ko'ngli bo'lganga tegipti? Qaysi bir qiz ko'ngli bo'lmaganga tegmapti? Tushirindida yig'lamasdan aravaga chiqqan kelin bormi?

Ertasiga kechqurun ikkala ammam kelishdi. Ayam shularning oldida amakimga so'z qotdi:

— Savriniso o'n oltiga endi to'ldi, shu ishni biron yil bo'lsa ham paysalga solinsa bo'lmasmikan? — dedi.

Bu gap dadamga ham ma'qul tushdi, shekilli, so'zga og'iz rostlaganida amakim shovqin solib berdi:

— O'zing necha yoshda erga teggansan?! O'n to'rtda eding! Nima qilasan Savrini qaritib!

Kampir ming'illadi:

— Abdurahmon uzil-kesil gapni aytib qo'ygan, bu to'g'rida bir nima degani hech kimga so'z qolgani yo'q!

To'y kelasi oyning sakkizi, juma kuniga tayinlandi. Ertasiga Savriniso yo'lakda dadamning oyog'iga yiqildi, tovush chiqarmay kuyunib yig'ladi. Dadam uni yupatdi, "hammaning ham boshida bor", degan gaplarni aytdi.

Men bir kuni Savrinisoning azob-uqubatlariga sabab bo'layotgan Azimni ko'rish uchun amakimning do'koniga bordim. Azim mo'ylabi endi sabza urgan, peshanasi tor, ko'zlari katta-katta, bo'yi pastroq bo'lsa ham, har yelkasiga to'rttadan odam sig'adigan bir yigit bo'lib, dadamning aytishiga qaraganda, "bosqonchi misan bosqonchi, bosqonni boshidan oshirib urishni Qo'qonda shu rasm qilgan" ekan. U duduq, xiylagina duduq bo'lishiga qaramay, sho'x, xushchaqchaq, yaxshigina askiya ham qilar ekan. Kulala

askiyada yengilganida uning damini qaytarish uchun: "Siz mening otimni aytguningizcha onam yana bitta Kulala tug'adi", deb shaxsiga tegganida, Azim xafa bo'lish o'rniga qotib-qotib kuldi.

Amakim Yaypanga borganida bizga uy ijaraga olib qo'yishni va'da qilgan edi, olib qo'ymabdi. Shuning uchun uy topilguncha, balki to'y o'tguncha biz shu yerda turadigan, dadam o'zi do'kon ochguncha amakimga qarashadigan bo'ldi. Bu orada men siqilib qoldim; ko'chaga chiqib bolalarga qo'shilolmayman; G'afforjon maktabdan kelganidan keyin quloqni qomatga keltirib nuqul nay puflaydi, chalolmaydi, faqat puflaydi, bundan zeriksa, ko'chaning u yuzidagi botqoqqa borib baqa o'ldiradi. Menga e'tibor qiladigan, qo'li tegganda so'z qotadigan birdan bir odam Savriniso bo'lib qoldi.

Savriniso bir kuni kampirdan javob so'rab, meni Ko'mir bozorida turadigan kichik ammamning uyiga olib bordi. Ammam qizi Mukarram ikkovimizning qo'limizga pul berib, rohatijon yegani yaqin G'ishtko'prikka yubordi. G'ishtko'prik Ko'mir bozoridan ancha narida ekan. Biz Ko'mir bozorida qanorlarda ko'mir ortilgan tuyalarni, undan nari har xil yaltiroq narsalarga to'la baqqollik do'konlarini tomosha qilib bordik; G'ishtko'prikning ikki tomonida zarang kosa tutib tilanayotgan pes-moxovlar, oldiga mayda tosh uyib rom ochayotgan folbinlarni oralab, ko'prikning u tomoniga o'tdik. Yangi do'konda o'tirgan jikkakkina chol oldidagi muzni qirib likopchalarga soldi-da, ustiga qoshiqcha bilan shinni oqizib qo'limizga berdi. Rohatijonni qoshiqchaning uchida olib uzoq yedik.

Qaytdik. Kelib qarasam, Savriniso yig'layverib shishib ketibdi, lekin yig'laganini bildirmaslik uchun meni gapga soldi, ikki gapning birida kular edi.

Ertasiga ikkala ammam kelishdi, kampir uchovi uzoq gaplashganidan keyin paranji yopinib qayoqqadir ketishdi. Ikkala ammam nima uchun kelganini, kampir uchovi qayoqqa borganini shu kuni kechasi ayamning dadamga aytgan gaplaridan bildim: uchovi shu mahallalik Bandi eshonga borib ilm-u amal qildirishibdi, Savrinisoni Azimga isittirishibdi. Shundan keyin, bilishimcha, Savriniso kampirning ziqnovi bilan, jo'mragiga paxta tiqilgan

sopol obdastadan suv ichadigan, faqat kampirning qo'lidangina ovqat yeydigan, amal ko'milgan ko'cha eshigi ostonasidan nari hatlamaydigan bo'ldi.

To'y kuni yaqinlasha boshladi. Savriniso nuqul meni quchoqlab tovush chiqarmay yig'lar edi.

Yangi oy chiqdi. Seshanbadan boshlab G'afforjon ikkovimiz uzoq-yaqindagi qarindoshlarimiz, tanish-bilishlarimizni to'yga xabar qila boshladik, katta ammamizni aytgani Oyimqishloqqa bordik. Ammamiz bir do'ppi yong'oq berdi. Yong'oqni G'afforjon ikkovimiz bo'lishib oldik. Men o'z tegishimni keltirib Savrinisoga berdim. Savriniso yuz-ko'zimdan o'pdi, katta uyning zinasiga o'tirib, amirkon kovushini yechdi-yu, poshnasi bilan yong'oqni chaqib, bittasini o'zi yesa, ikkitasini mening og'zimga soldi. Yong'oq tamom bo'lganidan keyin Savriniso boshimni tizzasiga olib, silab bir kuy maqomiga tebranib o'tirdi. Chakkamga bir tomchi iliq yosh tomdi. Stansiyada parovozlar bir-biriga navbat bermay qichqirar edi. Savriniso o'ychan, lekin beixtiyor tovush chiqarib gapira boshladi:

— Poyezd meni chaqiryapti... Chaqir! Qattiqroq chaqir, boraman! Meni uzoq-uzoq yurtlarga olib ket!

Qayoqdandir paydo bo'lgan amakimning baqirgan tovushi eshitildi.

— Qayoqqa olib ketadi! — dedi va Savriniso tomonga otildi.

Men arang qochib qoldim. Amakim dahshat ichida o'zini uyga urgan Savrinisoning ketidan otilib kirdi. Savrinisoning avval "Dadajon!" degan chinqirig'i, keyin mushukday vag'illagani, nihoyat, ingragani eshitildi-yu, jim bo'lib qoldi. Bu jimlikda kampirning tovushi eshitildi.

— Hoy, bolam, Abdurahmon, evida! Po'pisa qilgin, qo'rqitgin, nainki shunaqa ursang!

Men derazaning oldida dag'-dag' titrab turardim. Qorong'i uydan ayam chiqdi, mening rang-qutim o'chganini ko'rib yugurib keldi, qumg'ondan suv olib yuzimga sepdi, gap so'radi. Men javob berishga ulgurmay ichkaridan amakim chiqdi va onamga "kir" deb ishora qildi-yu, oyog'idan tushib qolgan bir poy kovushini kiyib, ko'chaga chiqib ketdi.

Onamning ketidan uyga kirdim. Savriniso taxmonning oldida mukka tushib o'zini bilmay yotar edi. Ayam taxmondan ko'rpa tortib tushirdi, joy soldi, qisqa-qisqa nafas olayotgan Savrinisoni ko'tarib yotqizdi. Ayam ko'targanda Savriniso eshitilar-eshitilmas ingradi.

— Vahima qilma, o'lmaydi, kechgacha tuzalib qoladi, — dedi kampir boshidan tushib ketayotgan ro'molini peshanasiga surib. — Ovsiningga aytmay qo'ya qol!..

Kampir chiqib ketdi.

Savriniso kechgacha ham o'ziga kelmadi, aksincha, isitma chiqardi. Ayam uning yonidan jilmadi. Men goh derazadan qaraymman, goh eshikka bosh tiqaman, Savriniso ko'zini ochishini, meni chaqirishini kutaman, undan ham ko'ra birdan: "Va-a, hammaladi. Savriniso ko'zlarini xiyol ochdi, lekin osma chiroqning xira shu'lasida dadamni tanimadi, sinchiklab qarashga darmoni yetmadi, shekilli, ko'zini yana yumdi. Dadam tashqariga chiqdi. Eshik oldida qilmishiga o'kinib, boshini quyi solib turgan amakim imo bilan: "Qalay?" deb so'radi. Dadam indamay zinadan tushib ketdi. hatto kampir ham kechasi bilan ko'z yummadi. Voqeadan va hozirgi ahvoldan Savrinisoning onasi xabardor bo'lib qolmasin uchun hamma oyoq uchida yurar, shivirlab gaplashar edi. Saharga yaqin amakim ona-bolaning qo'shmozor bo'lishidan qo'rqdi, shekilli, xotinini bir bahona bilan qo'shnisi — yaqinda qazo qilgan Abdurazzoq yamoqchining uyiga eltib qo'ydi. Savriniso o'sal ekan, shekilli, dadam chuqur xo'rsinib ayamga: "Bechora tugab boryapti, ko'zlarini ko'rdingmi, dunyoga to'ymayotipti", dedi.

Savriniso o'sha mahalda uzilgan ekan.

O'lik yuvilib, tobutga solingandan keyin azaga kelgan xotinlar orasida: "Qizning o'ng biqini momataloq bo'lib yotipti, zarb yegan ekan", degan gap o'rmalab qoldi. Buni fahmlagan fahmladi-yu, fahmlamagan fahmlamadi, yopiqliq qozon yopiqligicha qolaverdi.

Tobut ko'tarilganda amakim ikki-uch qalqidi-yu, chalqanchasiga ketdi. Odamlar uni uyiga olib kirib yotqizishdi. Amakim shu yotganicha Savrinisoning yettisiga ham, yigirmasiga ham turolmadi.

Savriniso dafn qilinib, ikki kun o'tgach, onasini Abdurazzoq yamoqchining uyidan olib chiqishdi. Kampir yig'lab turib Xudoning irodasi, peshana, taqdiri azal haqidagi uzundan uzoq daromaddan keyin Savriniso to'satdan qazo qilganini unga aytdi.

Teri-yu suyakdan iborat bo'lib qolgan bemor ko'zlarini katta ochdi, oppoq tilini zo'rg'a chiqarib, qonsiz lablarini yalagan bo'ldi, ko'zlarini yana yumdi, kipriklari yaltiradi. Uning kuygani, yig'lagani, faryod chekkani shu, bundan ortiqqa madori yo'q edi.

O'zini bilmay yotgan bemorga kampir tasalli bergan bo'ldi.

— Bola bechora qiz ketdi, u dunyoda hurlarga qo'shilib ketadi...

Kunlar o'tgan sayin bu xonadonga yana bir musibat qora ko'lanka sola boshladi: yuvg'uchining gapi asta-sekin o'rmalab, mirshabboshining qulog'iga yetadiganga o'xshab qoldi. Men buni dadamning usta Homidjonga aytgan gaplaridan bilib qoldim:

— Bu gap mirshabboshining qulog'iga yetsa, yomon bo'ladi, o'risning zakuni qattiq. Yaypanda bir qassobni arava urib o'ldirganida Qo'qondan yigirmatacha tergovchi bordi, ikki kun o'likni joyidan jildirgani qo'ymadi, butun bozorboshi uch hafta so'roq berdi.

Usta Homidjon vahmak odam ekan, bu gapni eshitgach, cho'chigan xo'rozday bo'ynini cho'zib, og'ir-og'ir kiprik qoqdi. Dadam ikkovi hamon og'ir yotgan amakimga sir bermay ko'chaga chiqadi, uyga kiradi, shivirlashadi... Usta Yunus, usta Aroqul deganlar kelishdi. Uzoq maslahat qilishdi. Kampir bularning hech biridan qochmasa kerak, gapga aralashib, hech kimga so'z navbati bermasdi:

— Oldini olaman deb isini chiqarib qo'ymanglar, Xudo xohlasa, bu gap mahalladan tashqariga chiqmaydi, mahallada o'g'limning dushmani yo'q...

Shunday bo'lsa ham, bular, chamamda, zakon biladigan biron odamning taskin-tasallisiga muhtoj edi. Shunday odam mahalla-

ning o'zidan chiqib qoldi. Temirboy baqqol degan bundan uch yil burun birov bilan zakonlashib sayozgacha[1] borgan ekan. Usta Homidjon shu odamning qo'yniga qo'l solib ko'ribdi. Bu odam voqeadan, dadamlar tortayotgan tashvishdan xabardor ekan, gapni ko'paytirmay: "Da'vogar bo'lmasa kimning kim bilan ishi bor?" debdi.

Bu borada da'vogar yo'q edi.

Savrinisoning qirqi o'tgandan keyin Azim duduq yo'qolib qoldi. Qidirilmagan joy qolmadi. O'sha kuni birov uni Shaldiramoq da g'altakarava surib ketayotganini ko'ribdi. G'altakaravada gullik qora las ko'rpa, qizil lo'labolish yana allanimalar bor ekan. Ko'rgan kishi: "Yo'l bo'lsin, Azimboy" desa, Azim: "Oyim o'ttiz bo'ldi", degan emish.

Butun hovlini to'ldirib turgan Savriniso ekan, hamma yoq hu vullab qoldi. Savrinisoning zinada o'tirib amirkon kovushining poshnasi bilan yong'oq chaqqani, taxmonning oldida mukka tushib yotgani, odamlarning yelkasida lapanglagan tobut ko'z o'ngimdan sira ketmas edi.

Bir kuni shom paytida anhorning ko'prigidan oyog'imni osil tirib jimgina o'tirgan edim, yonimga G'afforjon kelib o'tirdi.

— Bir yili dadam meni Shohimardonga olib borgan edi. Shohimardonning yo'lida bitta tog' bor, shu yerdan o'tishda "Qirq qizlar-u!" deb chaqirsang tog'ning ich-ichidagi hur qizlar "huvv" deb javob berishadi. Savriniso opam shu hur qizlarga qo'shilib ketdi. Katta enam shunaqa deyaptilar. Shohimardonga boramiz. Dadam olib boradi.

Koshki edi o'sha tog'ga men ham borsam, bor tovushim bilan hur qizlarni chaqirsam, hur qizlar, shularning ichida Savrinisoning ham "huvv" degan tovushini eshitsam...

Amakim biroz o'nglangandan keyin dadam ayamning ko'z yoshlariga rahm qilib shu mahalladan hovli topdi. Bunga juda suyundim, chunki bu yerda amakimning ko'zlaridan, soqoli, qop-qora qo'llari, hatto jag'i uzilgan kovushidan ham qo'rqar edim.

[1] **Sayoz** — sudyalar syezdi.

Biz Oq domla deganning tashqisiga ko'chadigan bo'ldik. Hali darmonga kirmagan amakim va uning bemor xotiniga ayam qatnab, Abdurazzoq yamoqchining dastyor bo'lib qolgan qizi Omina doimiy turib qaraydigan bo'ldi.

XUDO

Oq domlaning tashqisi bir vaqtlar tashqi bo'lib, keyinchalik hovlisining yarmidan ko'pini yangi mehmonxona egallagani, uy buzilib, o'rniga juvozxona solinadigan bo'lgani uchun qarovsiz qolgan, hozir jinnixona qilib qo'yilgan, domla shu yerda jinnilarni o'qib tuzatar ekan.

Oq domla peshanasi, ko'z ostlari, bir chekkasi va butun bo'yni oppoq pes, biroq nafasidan jinni shifo topadigan bo'lgani uchun xalq Pes domla degani og'zi bormay, Oq domla derkan. Biz ko'chib keladigan bo'lganimizdan keyin uyning oldidagi xariga zanjirband qilib qo'yilgan ikki jinni yangi otxonaga olib chiqilibdi.

Dadam uyning shikast-rextini tuzatdi, hovlini yantoq va qora sho'radan tozaladi.

Ko'chib kelgan kunimiz ertasiga ertalab otxona tomondan g'alati bir o'kirik eshitildi. Dadam ishga ketgan edi, ayamning hayhaylashiga qaramasdan yugurib yo'lakka chiqdim. Otxonaning oldida norg'ul bir yigit ustunga bog'lab qo'yilgan ikki jinnini gavron bilan navbatma-navbat urmoqda, domla esa kichkina gilamchada cho'kkalab, boshini quyi solganicha duo maqomiga tebranib, har zamon-har zamonda jinnilarga dam solmoqda edi. Jinnilarning biri yigitga orqasini berib jim, hatto gavron tushganda ham seskanmasdan taxt turibdi, ikkinchisi esa har gavron tushganda tuyaday o'kirayotibdi. Gavron sinib tamom bo'lgandan keyin domla yuziga fotiha tortib o'rnidan turdi va gilamchasini qoqib, qo'ltig'iga qistirdi-da, bitta-bitta qadam bosib uyiga kirib ketdi. Ma'lum bo'lishicha, domla har kuni bomdoddan qaytganida jinnilarni mana shu xilda urdirib o'qir ekan.

Qayrilib qarasam, orqamda rang-quti o'chgan ayam turibdi. Ayam kechqurun dadamga voqeani aytib: "Bu yerdan ko'chamiz", deb turib oldi.

Boshqa hovli badeganda topilavermadi. Qo'qonning bo'ri bo'lib uliydigan va mushuk bo'lib vag'illaydigan kuz shamoli boshlanib ketdi. Uyimizning oldida ayvon bo'lmagani uchun eshik sal ochilsa shamol uyni ko'tarib ketguday bo'lar edi.

Jinnilarning dod-faryodi, jinnilardan ko'chadigan jin vahimasi ustiga yana uyning bu qadar noqulayligi qo'shilgan bo'lsa ham, ayam boshqa hovliga ko'chishdan aynib qoldi, dadamga: "Mayli, qishni shu yerda chiqaraylik, uyog'iga Xudo poshsho", dedi; "Dadangga ayt, ko'chmaymiz, shu yer yaxshi", degan mazmunda menga ham gap o'rgatdi. Keyin bilsam, amakimning uyitomoqchi, bunga hozir uyimizning torligi va noqulayligi monelik qilib turgan ekan.

Birinchi qor uchqunlab turganda shu mahallalik Muqim buva degannng tashqisiga ko'chdik. Katta yo'l bo'yi, uzun yo'lakning o'ng tomonidagi hovlichaning bir yog'i — qorong'i va pachaq bo'z do'koni, bir yog'i — mehmonxona. Dadam hovlichaning yarmidan ikki tomonga ikkita ustun o'rnatib, chiy tortib qo'ydi.

Muqim buva to'zg'oqday oppoq, do'koniga saharda kirib ketganicha kuni bo'yi, ba'zan kechalari ham shiliqqa-shiq, shiliqqa-shiq bo'z to'qiydi, ba'zan: "Xudoga shukur!" degan tovushi eshitilib qolardi. Uning xotini — o'zига o'xshagan oppoq To'xta xola ko'chib kelgan kunimiz osh qilib yo'qlab kirdi. U ham muso firni "Xudo qilgan baxti qora" deb bilar ekan. Uning so'ziga qaraganda, kishining musofiratda to'kkan ko'z yoshlari oxiratda etagiga dur-u gavhar bo'lib tushar ekan.

To'xta xola ham farzand dog'ini ko'p ko'rgan, yetti qiz, to'rt o'g'lidan faqat ikkita qizi qolgan, biri To'xlimerganga, biri Avg'onbog'ga tushgan ekan. To'xta xolaning musofirga shafqatidan ham ko'ra farzand dog'ini ko'p tortganligi uni ayamga yaqin qilib qo'ydi. Shunday bo'lsa ham, To'xta xola uyimizga kam kirar, kuni bo'yi va kechalari ham charx yigirar edi, chilla kirib, sovuq zaptiga olgonda, kampir "temirchining archa ko'miridan hozillab turgan sandal"iga jainib olgani ko'proq kiradigan bo'ldi.

Bir kechasi amakim ikki xufton kechroq G'afforjonni olib keldi va xo'rsinib, hamma kutib turgan gapni aytdi: "Xudo omonatini oldi", dedi. Dadam ikkovi chiqib ketdi. G'afforjon onasining o'lganini payqamagan ekan, yotib uxladi. Ertalab azaxonaga ayam ham ketdi. Men uning borishini sira istamasdim, amakim ko'z o'ngimdan ketmas edi.

Tushga yaqin dadam bizga ovqat keltirib berdi, kechqurun kampirni olib keldi; kampir kasal ekan, sandalning chetidan joy qilib berdi-yu, yana ketdi.

Erta yotdik. Kampir sandal ko'rpani o'zining ustiga tortdi. G'afforjon ikkovimizga joy soldim. Uxlab qoldik. Bir mahal G'afforjon uyg'onib suv so'radi. Qorong'ida kampirning vag'illagan tovushi eshitildi: "O'l! Og'zingni ochib yot, chanqog'ing bosilsin!" dedi. Men yetimga rahmim kelib, suv keltirib berdim.

Ayam azaxonada bir haftadan ortiqroq qolib ketdi, lekin har kuni peshinda kampirga osh qilib bergani kelardi. Kampirning do'ppidekkina qozonchasi bor ekan, ayam shunda osh damlardi. Oshni kampirning o'zi suzib, birovga manzirat ham qilmay, yakka o'zi yerdi. Men-ku suqlanadigan bola emas, dadam ham birovning qo'lidan bitta yong'oq ham oldirmay o'stirgan, lekin shuncha erka va tantiqligi bilan G'afforjon ham g'ashlik qilmas, aftidan, shunga ko'nikkan edi.

Shu-shu kampir bilan G'afforjon biznikida qolib ketdi.

Kampir har kuni, shomdan keyin G'afforjon ikkovimizni ko'chaga chiqarmay namozlik va har xil duolar o'rgatardi; go'r azobi, qiyomat, farishtalar, shayton va boshqa ko'k jonivorlaridan gapirardi. G'afforjon, ko'pincha, erkalik, tantiqlik qilib bu gaplarga chandon quloq solmasdi, lekin men quloq solmagani kampirdan hayiqardim. Kampir aytgan jonivorlarni sal kunda ko'z oldimga keltiradigan bo'ldim: farishta — kattakon parvona, hur — qanotli Savtiniso, shayton — tuyoqli, kallasi xo'rozning tojiga o'xshagan odam, arvoh — yuradigan kafanli o'lik, jin — bir oyoqli arvoh, alvasti — odamsimon qora ho'kiz... Bir kechasi kampir Xudo nimanilarni qaysi kunlarda yaratganini aytib berdi. Qaysi kuni nimalarni yaratgani esimda qolmasa ham, kunlar haqida tasavvur qoldi: shanba — parpasha paranji rangida, yakshanba — qoramtir qizil, dushanba — ko'k, seshanba — qop-qora, chorshanba — kulrang, payshanba — sariq, juma — havorang.

G'afforjon so'fi Badal eshonning xonaqosida ochilgan jadid maktabida o'qir ekan, onasi o'sal bo'lgandan keyin dadasi maktabga yubormay qo'yibdi, onasining yigirmasi o'tgandan keyin maktabni kampir esga soldi. Zotan, amakim G'afforjonni mulla qilish emas, kampirning qulog'i va jag'ini yarim kun bo'lsa ham tinchitish uchun maktabga bergan ekan.

Maktab Galaboqqollikda, bu yerga uzog'i bilan uch-to'rt yuz qadam kelsa ham, G'afforjon hali biron marta ham o'zi borib kelmagan, avvallari uni goh Savriniso, goh Azim olib borib, olib kelarkan, endi bu vazifa mening zimmamga tushdi.

Har kuni ertalab kampir vag'illaydi, G'afforjonni, ba'zan hammamizni qarg'aydi. G'afforjon yig'i-sig'i bilan maktabga otlanadi. Bir kuni xonaqo eshigidan kirganimizda G'afforjon qo'lini orqasiga qilib hovlida aylanib yurgan cho'qqisoqol, piyozi chakmon va chaqmoqi telpak kiygan bir kishini ko'rib to'xtadi va shivirlab: "Domla, Abduvahob domla, hozir meni uradi", dedi. Domla bizni ko'rdi, ko'rsatkich barmog'i bilan imlab chaqirdi. G'afforjon harchand qo'rqsa ham, yugurib bordi. Domla meni ham chaqirdi. Men ham bordim. Domla avzoyidan G'afforjonni uradigan bo'lsa ham, begona bola oldida urgisi kelmadi, shekilli, urmasdan, nega kechikkanini so'radi, uning onasi o'lganini eshitib boshini siladi, bir nimalar deb ko'nglini ko'tardi. G'afforjon, kaltak yemaganiga suyunib, yugurganicha hujralardan biriga kirib ketdi. Domla meni gapga soldi, talaffuzimdan qishloq bolasi ekanimni bildi, shekilli, qaysi qishloqdan ekanimni so'radi. Men "ko'chmanchimiz" deyolmadim, qizarib ketdim, shekilli, ikki yonog'im lovullab ketdi. Uyalganimni ko'rib domla boshqa gap so'ramadi. Yugurganimcha xonaqodan chiqib ketdim. Peshinda G'afforjonni olib ketgani kelganimda G'afforjon domla menga nima deganini so'radi, javobimni eshitib: "Domla qishloq bolalarini yaxshi ko'radi, naymanchalik Meliboy degan bolani pul olmay o'qitadi", dedi. Yana bir kuni o'sha Meliboy degan bolani o'z ko'zim bilan ko'rdim: olacha guppi to'n, qunduzsiz telpak kiygan bo'liqqina bola ekan. Ko'p afsus qildim, Abduvahob domla gap so'raganda, falon qishloqdanman desam, ehtimol, meni ham maktabga olib bepul o'qitar

edi... Biroq domlaga yana ro'para bo'lgani tortindim. Qani endi men ham erka-tantiq bo'lsam, ko'p gapirsam, behuda sho'xliklar qilsam-u, kampir mendan bezor bo'lsa, dadamga aytib maktabga berdirsa! Indamasligim, qobilligim koni ziyon bo'ldi.

Bir kuni G'afforjonni maktabga qo'yib kelsam, ayam o'choq boshida dam-badam burnini etagi bilan artib, tovush chiqarmay yig'lab o'tiribdi, kampir sandalning chetida doka ro'molini yelka aralash boshiga tashlab, xuddi ko'rshapalakka o'xshab bukchayib, tez-tez tasbeh o'girayotibdi. Kampir jussasiga, hol-ahvoliga butkul mos kelmaydigan qattiq va vahimali tovush bilan onamga vag'illadi.

— Tur, chiqib qorni kura! Yig'lama deyapman, huv ko'z yoshing o'z boshingni yesin!

Ayam o'pkasini tutishga harakat qildi:

— Qor tinsin, undan keyin kurarman...

Kampir yana vag'illadi:

— Qor qachon tinishini — Xudoning ishini qayoqdan bilasan, arvak!

"Arvak" deganda mening ko'z oldimga cho'p-ustixon, rangi oppoq bola kelar, ayamning ozg'in va rangi oppoq ekani xayolimda ham yo'q edi, darrov qaradim, haqiqatan ham, ayam nihoyatda ozg'in va rangi oppoq ekan.

Ianjal bir piyola choydan chiqibdi. Amakim bundan bir hafta burun kampirga qadog'i falon pullik bir yumaloq toza famil choy keltirib bergan, kampir uni yostig'ining tagida asrab, yolg'iz o'zi ichib yurgan ekan. Choy shu bugun tugabdi. Kampir bu choyning maqtovini yana eshitish, qanday choy ichib yurganini, Abdurahmon Abduqahhorga qaraganda mehribonroq ekanini aytib, kelini oldida maqtanish uchun shu choydan ayamga bir piyola beribdi va ichib bo'lganidan keyin "Qalay?" deb so'rabdi. Ayam choyning xushbo'yligini, ta'mini kampirning o'zidan eshitgan; bu maqtovga o'zidan ham bir nima qo'shish maqsadida xushbo'yligi va ta'mi ustiga qorinni ham to'ydirar ekan, demoqchi bo'lib: "Xuddi bir kosa go'ja osh ichkanday bo'ldim", debdi, shunday debdi-yu, kampirdan baloga qolibdi: "Ana sen bezotsan, ana sen bunaqa narsalarni qayoqdan bilasan, nainki shundaq choyni go'jaga o'x-

shatsang!.." Shundan boshlangan gap ayamning to'zg'on tutishiga kelib taqaldi:

— Sen bolaginamning birini ikkita qiladigan xotin emassan! Uyda baraka yo'q! Shu zamonda chirog'ning shishasi yorilsa, kim darrov yangisini oldiradi, qog'oz yopishtirib tutaverarmaysanmi! Ustingga xotin olib bermasam men ham yurgan ekanman! Qo'ydirvoraman!..

Imonsiz kampir ukam O'lmasoy ikkovimizni ham qo'shig'iga qo'shdi: "Sendan bo'lgan bola nima bo'lar edi, itdan bo'lgan qurbaqa bo'lmaydi..." dedi. Bo'yniga osilgan tavqi la'nat — "kelgindi", "ko'chmanchi", "musofir" degan so'zlar ham bir bo'ldi-yu, kampirning bu gapi ham bir bo'ldi.

Shu g'alvadan keyin kampir pishirib yeyish, chaynab yutish mumkin bo'lgan hamma narsani sandiqqa solib qulflab oldi, hatto jo'n choyni ham yostig'ining tagiga qo'yib, kerak bo'lganda bir chimdim beradigan bo'ldi. Kampir har ishdan bir ishkal topar, har baboos bilan ayamni urishar, qarg'ar, dadamga chaqib urdirar, dadam so'ziga quloq solmasa: "Ona rozi — Xudo rozi, xotin topiladi, ona topilmaydi!" deb o'zi ham yig'lar edi.

Men G'afforjonni maktabga olib borganimdan va olib kelganimdan keyin ham kunni mumkin qadar To'xta xolaning uyida o'tkazishga tirishar edim. To'xta xola oldimga jiyda, o'rik va boshqa topgan-tutganini qo'yar, gapga solar, ba'zan qiziq-qiziq ertaklar aytib berar edi. Men unga juda el bo'lib qoldim, bir kuni charxining charmagi sinib qolganda, yangi charmak yasab berdim. Ayam kampirning vag'illashi, qarg'ashidan narirogda turishimni xohlasa kerak, To'xta xolaning uyida ekanimda hech qachon charmon bilan ko'rishmagan akasi keldi. Dadam ishdan kelib mehqirmas edi. Bir kuni kechki payt jarbuloqdan ayamning uch-to'rt yildan beri ko'rishmagan akasi keldi. Dadam ishdan kelib mehmon bilan ko'rishdi-yu, uyda go'sht bo'lmasa kerak, G'afforjon ikkovimizga uch miri berib, go'sht keltirishni buyurdi. Kampir qarab turgan ekan, G'afforjon ikkovimizni chaqirib, qo'limizdan pulni oldi va dadamni chetga tortib qo'lini paxsa qildi.

— Uch miriga bersa kovushday go'sht beradi-da, nima qilar san go'shtni, go'shtsiz kichiri qilib qo'yaqolsin! Qatiq bilan yesa, kichiri ham yaxshi bo'ladi, — dedi.

Ayam buni eshitib qoldi. Nazarimda, mehmon ham eshitdi. Kampir ovqatgacha ham, ovqatdan keyin ham qovog'ini ochmadi, nihoyat, mehmonning oldida bir dilsiyohlik qilish muddaosida bo'lsa kerak, G'afforjonni tergadi.

— G'afforjon, bugun maktabingda necha varaq kitob o'qiding?

G'afforjon bayron bo'lib qoldi.

— Varag' o'qiganimiz yo'q...

Kampir vag'illadi.

— Varaq o'qimagan bo'lsang, nimani o'qiding? Domlang o'qitadimi o'zi? Mustafoning nechta teshigi bor?[1]

G'afforjon "Mustafo"ning yozilishini bilsa ham, "teshigini" sanamagan ekan, bilmadi.

— Jadid shu-da, Mustafoni o'qitmaydi, — dedi kampir va jadidni odam deb o'ylar ekan, qarg'ab ketdi. — Xudoyo og'zidan qoni kelsin! Mustafo ko'r qilsin!..

Kampir shaqillar, G'afforjon bo'ngrar edi. Hammaning dili siyoh bo'ldi.

Mehmon ketdi, ayam yo'lakka chiqib yig'ladi. Yotar mahalida kampir qilmishiga vaj ko'rsatgan bo'ldi:

— O'gay aka hech qachon akalik qilmaydi, senga gap o'rgatib uyingni buzadi. Bundan tashqari, akang yuzida farishtasi yo'q odam ekan! — dedi.

Ayam uning gaplariga gap qaytarmadi. Dadam ham indamadi. Kampirga ayamning: "Xo'p, akam bundan keyin kelmasin", demaganidan ham dadamning indamagani ko'proq alam qildi, shekilli, shovqin solib, "erini minib olgan kelinning dastidan" dodladi va arazlab o'sha zahotiyoq amakimning uyiga ketmoqchi bo'ldi. Dadam qo'ymadi.

Bir kuni ayam payt poylab turib dadamga yig'ladi.

— Yana ko'zimga qora echki ko'rinyapti. Jinnixona bo'lsa ham, Oq domlaning tashqisi yaxshi edi, har nechuk domla, duo, ins-u jins yo'lamasdi...

---

[1] Mustafo Muhammad payg'ambarning sifatlaridan biri bo'lib, eski arab alifbosida "mstfi" shaklida yoziladi, haqiqatan, oldingi to'rt harfning "r" singari olifbosida "mstfi" shaklida yoziladi, haqiqatan, oldingi to'rt harfning "r" singari yozilishini ko'rgan, teshiksi bo'lar edi. Kampir savodsiz bo'lsa ham, bu so'zning yozilishini ko'rgan, teshigini sanab yodida saqlagan ekan.

Dadam uni unishib berdi.

— Ahmoq bo'lma, Oq domlaning o'zi kasal bo'lib yotgan emish! — dedi.

Men suygan bandasiga kasallik yuboradigan, bolalarni o'zi berib, o'zi oladigan, odamlarga jonni omonat beradigan, bizni ko'chmanchi, kelgindi, musofir qilgan va qilish-qilmishi odamlarga tanj-alam yetkazishdan iborat bo'lgan Xudoning shakl-shamoyilini, afti-angorini, soxt-sumbatini sira ko'z oldimga keltirolmas edim, bora-bora "Xudo" deyilganda boshiga yelka aralash doka ro'mol tashlab, sandalning chetida ko'rsha-polakday bukchayib o'tiradigan kampir ko'z oldimga keladigan bo'ldi.

Bir yoqda "ona rozi — Xudo rozi", bir yoqda ayamning nohaqdan to'kadigan ko'z yoshlari, dadam ikki o't orasida qolib qiynalsa kerak, do'konda ish juda kamligidan nolishiga qaramay, keyingi vaqtlarda uyga yarim kechalari keladigan bo'ldi. Bir kechasi G'afforjonning injiq-tantiqligidan va kampirning shang'illashidan bezor bo'lib, sovuq va qor yog'ib turganiga qaramasdan ko'chaga chiqdim, amakimning do'koniga bordim. Do'konning eshigi yopiq. G'ishtlik machit, Boytako'prikdan keladigan tanish-bilish ustalar va ularning shogirdlari tutab yonayotgan kattakon to'nka atrofiga tizilishgan, kitobxonlik bo'lmoqda edi. Kitobni xira ostmachiroq ostida o'tirgan dadam o'qimoqda edi. Mening kirib bir chekkada o'tirganimni hech kim payqamadi. Dadam mulla ekanini shunda bildim. Kitob nihoyatda qiziqarli edi.

Kitobxonlik tamom bo'lgandan keyin bular gaplashib qolishdi. Men uyga borib voqeani ayamga aytdim. Ayam dadamning mulla ekanini bilar ekan. Uning aytishiga qaraganda, dadam kitobni juda yaxshi ko'rar, kamoli yaxshi ko'rganidan tushiga kirgan, tushida Hasti Xizr bir kitobdan bir-ikki xat o'qitgan, keyin o'sha varaqni yirtib olib dadamga yegizgan, shundan keyin dadam mulla bo'lib qolgan ekan. Dalla hikoyasidan esimda qolganlarini aytib bergan edim, ayam juda ham qiziqib quloq soldi, keyin dadam kelganda o'pkaladi:

— Uyga bevaqt kelasiz, desam, joningizning huzurini topib olgan ekansiz da... — dedi.

Ayam bu gapni shunday bir ohangda aytdiki, shu bilan: "Onang to'kadigan zaharni bitta o'zim yutib o'tiribman", — demoqchi ekanini, hatto men ham fahmladim. Dadam o'zini fahmlamaganga soldi.

— Diqqatman, diqqatman! Chilla o'tib boryapti, ishning barakasi yo'q. Qishloq yaxshi edi, — dedi.

Ayamning jon-jahoni yorishib ketdi.

— Unish deb shaharga ko'chgan edik, qani urush? Qishloqqa keta qolaylik! Shaharda suvdan boshqa hamma narsani sotib olamiz, qishloqda undoq emas edi...

Bu gapdan kampir xabardor bo'lib hovlini boshiga ko'tardi, ayamni yulmoqchi bo'ldi.

— Kelin deganni Xudoyi taolo ona-bolani bir-biridan judo qilishga yaratgan! Ilm-u amal bilan bolamni o'zingga qaratib olgansan!

Kampir supurgining ustiga o'tirib, shapalog'ini chaparasta qilib ayamni xo'p qarg'adi. Kampir har safar qarg'ish-duoga qo'l ko'targanida ayam yig'lar, uning qarg'ishlari darrov bizga tegadiganday chinqirib, O'lmasoy ikkovimizni bag'riga bosar edi. Dadam harchand xunob bo'lsa ham, onasiga qarshi biron so'z aytmas edi.

Kunlar g'urbat bilan boshlanib, g'urbat bilan tugar edi. Shu orada O'lmasoy kasal bo'lib qoldi-yu, ko'chish to'g'risida boshqa gap ochilmadi. Kampirning jag'i biroz tiyildi.

Bolasining kasal bo'lishidan yurak oldirib qolgan ayam nima qilishini, o'zini qayoqqa urishini bilmay, fe'li tez bo'lib, dadamga, hatto kampirga ham shovqin soladigan bo'lib qoldi. Kampir bolaning kasal bo'lishiga birdan bir sabab ayamning "kasofat"ligi deb bilsa ham, qo'shnoch kelib O'lmasoyni ko'rib, qo'shnoch toptirdi. Qo'shnoch kelib O'lmasoyni deb bilsa ham

qulоq solmoqda. Yarmidan yuqorisi oynavandlik baland ayvonning damida Bandi eshon juda ham yoqimli tovush bilan avrod o'qimoqda edi. Tong yorishgandan keyin eshon avrodni tugatib fotihaga qo'l ko'tardi. Hamma gurullab yuziga fotiha tortdi. Shundan keyin har kim topgan-tutganini gavdalik bir kampirga topshirib tarqaldi.

Shu kuni kechga borib O'lmasoy ko'zini ochdi. Hammamiz suyundik. Ayam saharda O'lmasoyni ko'tarib yana avrodga ketdi. Men G'afforjonni maktabga qo'yib keldim-u, kampirning dodfaryodi ustidan chiqdim: ayam avroddan O'lmasoyning o'ligini olib kelibdi... Ayam eshikning yondorisiga suyanib, ikki qo'llab jag'ini ushlaganicha tek turar, amakim unga bir nimalar deb tasalli berмoqda edi.

Odam yig'ildi, qavm-qarindoshlar kelishdi. Peshinda mahalla odamlari joynamoz yopilgan zambilni ko'tarib ketishdi.

Shu bilan uyimiz xuddi qabristonday jimjit bo'ldi-qoldi. Kampir, hatto G'afforjonning ham tovushi chiqmas edi.

Qish chiqdi. Devorlarning kavagida qurbagalar qurillab, tom va devorlarda musichalar hu-hulab qoldi.

Qishloqqa ko'chish haqida ayam bo'lak og'iz ochmagan bo'lsa ham, dadam shuning harakatida yurgan ekan, shekilli, bir kuni xushxabar topib keldi:

— Dunyoda hali ham jannati odam ko'p, Qudashga ko'chamiz, hovli-joy, do'kon ham tayyor, — dedi.

Amakimning qudashlik To'raqul vofurush[1] degan bir tanishi bor ekan, shu odam dadamning qishloqqa ko'chish niyati borligini bilib: "Bizning Qudashga ham temirchi yarashadi, ko'chib boradigan bo'lsangiz, yo'lingizga poyandoz solamiz", debdi va uy-joy, do'kon va'da qilibdi. Dadam Qudashga borib uy va do'konni ko'rib keldi.

Ko'chishimiz aniq bo'lib qolgandan keyin kampir G'afforjonni olib amakimning uyiga ketdi. Ko'chishimizdan bir kun oldin ayam ikkovimiz kampir bilan xayrlashgani bordik. Kampir yangi uyda hamon boshiga yelka aralash doka to'mol yopinib, ko'rpachalakday bukchayib o'tirgan ekan. Ayam shod-xurram bo'lsa ham, sirtiq tovush bilan xayrlashdi: "Biz bilan ketmas ekansiz-da", dedi. Ayam bu gapni til uchida aytayotganini bilib tursam ham, "unaqa deманг", degan ma'noda sekin biqiniga turtdim.

Shunday qilib, o'rik gulini to'kkanda Qo'qondan Qudashga ko'chdik.

[1] Vofurush — kosiblarning molini ko'tara oladigan savdogar.

TO'RAQUL VOFURUSH

Yaypan ko'chalari keng, lapkasi, oto'yini bor, tollarda bedana, ko'cha bo'yi va bozorboshidagi do'konlarda kaklik sayraydigan obod qishloq edi. Qudash ko'chalari tor va egri-bugri, bironta do'kon bo'lmasa ham, ko'zimga Yaypandan yaxshiroq ko'rindi. Ko'l bo'yidagi devorsiz, devori qulagan, nuragan bog'lar, qing'ir-qiyshiq uylarni quchoqlab yotgan chorbog'lar qiyg'os gulga kirgan, butun qishloq kattakon bog'ga o'xshardi. Kulala yugurib kelayotgan aravaning orqasidan sakrab tushdi, yo'l bo'yidagi guldan tushib qizargan o'rikning shoxini egib g'o'ra oldi, aravaga yetib olib g'o'rani hammamizga ulashdi. G'o'ra chigitdan katta emas edi, lekin yeganimda hamma yoqni bahor hidi tutib ketdi, butun bahorni shu chigitdakkina g'o'raning ichiga qamab qo'yilganday tuyuldi.

Hamma dalada bo'lsa kerak, odam ko'rinmaydi. Hamma yoq jimjit, faqat qushlar chug'urlaydi, arava g'ijirlaydi, ot tap-tup qadam tashlaydi, so'liq shiqirlaydi. Kattakon qayrag'och ostidagi chominko'prikdan o'tib chapga qayrildik, qunloq ariq bo'yidan borib, tok chirmashib chiqqan, chumchuqlar chug'urlashib quloqni qomatga kettirayotgan qari terak ostida to'xtadik.

To'raqul vofurushning hovlisi beqaterakning ostidagi yangi darvoza, uning o'zi yo'q, bizning kelishimizni qo'shnisiga aytib qo'ygan ekan.

Biz turadigan uy aslida yangi otxonaning yarmi bo'lib, yo'lakka darcha qo'yilgan, qolgan yarmiga ko'cha tomondan eshik ochilib do'kon qilingan ekan.

Yukimiz tushirilayotganda Kulalaning akasi Dodaxo'ja keldi. U qishda Ortiq oqsoqolnikidan ketgan, Qudashga kelib, bu

yerda ham juvoz haydar, ko'chama-ko'cha yurib yog' sotar ekan; "qishloqqa temirchi keladi", degan gapni eshitib, vofurushdan surishtirib qarasa, biz ekanmiz. Dadaxo'ja kechgacha qarashdi. O'choq, mo'ri qurildi, dam, sandon o'rnatildi. Uyga poxol to'shaldi.

Kechqurun novcha, oriq bir chol xuddi ikki-uch joyidan bukilib, sinib ketishidan xavfsiraganday ehtiyot bilan qadam bosib keldi. Uning burni xuddi bir narsadan jirkanganday jiyrilgan, og'zi yarim ochiq, dimog'i bilan gapirar edi. U do'konga kirib dadam bilan so'rashdi, keyin yo'lakdan borib o'rta oshikka kirib ketdi-yu, birpasdan keyin patnisda to'rtta non, choy olib chiqdi. Vofurush uzoq o'tirmadi, yonidan bog'ichiga ikkita ko'zmunchoq taqilgan qora hamyonni oldi, ko'zdan pana qilib yonboshida pul sanadi-da, dadamga bir nechta ko'k qog'oz uzatdi.

— Bilaman, kamxarjsiz, bizga saksonta o'roq yasab bersangiz bas, — dedi va chiqib ketdi.

Dadam juda xursand bo'lib ketdi, pulni sanamasdan belbog'ining qatiga tiqdi.

Vofurush ketgandan keyin Dadaxo'ja boshini likillatdi.

— Pulni oldingiz, usta, bo pand yemang! Bu odam sof ajdar bo! O'likning yog'ini, tirikning tirnog'ini yeydi bu!

Dadam kulib qo'ya qoldi.

Lekin Dadaxo'ja bilib aytgan ekan. Vofurush har kuni, kun osha ertalab yoki kechqurun og'zi yarim ochiq va burnini jiyirgancha do'konga kirib keladi, shoshib: "Usta, mayda pulingiz bo'lsa berib turing" yoki "Kulala bizga falon narsa keltirib bersin, keyin surishib ketamiz", deydi. Uning so'ragani arzimagan narsa bo'lgani uchun "yo'q" deb bo'lmas, berilgandan keyin qaytarib olish noqulay bo'lgani uchun hisobga kirmas edi. Dadam shundan bezor bo'ldi, shekilli, vofurushning buyurmasiga yetadigan ko'mir, temir bo'lsa ham, shaharga tushib bor puliga ulgurji noliydigan bo'ldi. Vofurush, haqiqatan, "keyin surishib" ketiladigani uchun hech narsa so'ramaydigan bo'ldi, lekin boshqa yo'lga o'tib oldi: do'konga tez-tez kelib "darrov bittagina" tesha yo doskalla, yo boshqa bizon narsa yasab berishni so'raydigan bo'ldi.

Dadam xunob bo'lar, lekin uning so'rovini qaytarolmas, Kulala miyig'ida kulib: "O'likning yog'i-yu tirikning tirnog'i", deb qo'yar edi.

Dadam vofurushning saksonta o'rog'ini berish, shu bilan birga, arpaga o'roq tushguncha yana ko'pgina o'roq yasab qo'yish uchun axondan xufton gacha do'kondan chiqmay qo'ydi; og'ir ishda Kulalaga tez-tez dam berish uchun meni dalaga soldi. Men ham shulat qatori ishlab, kuni bo'yi dam bosardim.

Dadam saksonta o'roq ustidan bo'nak olganida kuniga yasaydigan o'rog'ining bir qismini vofurushga berib, qolganini o'zi sotishni ko'zlagan ekan, biroq vofurush har kuni kechqurun burnini jiyirganicha do'konga kirib, bor o'roqni olib ketaverdi.

Dehqon arpa, beda, bug'doyni o'rib olish uchun bu kunlarda faqat o'roq so'rar, boshqa hech qanaqa ish ko'tarib kelmas edi. Vofurush bir kuni kechqurun kelib tayyor o'roqlarni chiptaga o'rayotganida dadam yolg'i bilan arzini aytdi:

— Bo'nakka bergan pulingiz ko'mir bilan temirga ketib qoldi, choychaqaga bir-ikkita o'roq tashlab ketmasangiz bola-chaqa qiynalib qoldi.

Vofurush, og'zi yarim ochiq, burnini jiyirganicha dadamga qarab qoldi-yu, anchadan keyin dimog'i bilan:

— Yana besh-o'n tanga pul beraymi? — dedi.

— Yo'q, qultuq, — dedi dadam, — avval qarzni uzay... Har kuni bir-ikkita o'roq tashlab ketsangiz bas...

Vofurush o'roq o'talgan chiptani chilvir bilan mahkam bog'lar ekan, to'ng'illadi:

— Unda qandoq bo'ladi?.. Unda saksonta o'roqni qachon olaman-u, qachon sotaman? O'roqdan menga bir nima qoladigan bo'lsa mavsumida qoladi, mavsumidan keyin ustiga bir nima bo'lsa mavsumida qoladi, mavsumidan keyin ustiga bir nima qo'yolmayman! O'zingiz o'ylang, insof qiling! Men sizga ko'k qog'ozlarni sharaqlatib sanab berdim, qo'lingiz mo'may pul ko'rdi. Bozor menga ko'k qog'oz bermaydi, Xudo bersa tomizadi, xolos. Men tonganini yalayman.

Dadam hazilga oldi:

— Nima qilay, ko'k qog'ozingizni qaytarib beraymi?

Vofurushning achchig'i keldi.

— Lafzingizdan qaytasizmi? Odamga puldan ham, moldan ham ko'ra lafz kerakdir deyman! Mayli, lafzim yo'q, odamgarchiligimning tagi teshik, desangiz shunga qarab gaplashamiz!

Dadam indamadi, lekin bunaqa indamaslik indagandan yomonroq edi. Vofurush keyinchalik: "Bir ochga, bir yalang'ochga tegma", deb o'ylagan bo'lsa kerak, har kuni bittadan o'roq tashlab ketadigan bo'ldi.

Shundan keyin dadam xuftondan keyin ham ishlab, o'zimiz uchun o'roq yasaydigan, Kulala vofurushga tegishli o'roqlardan "urib" bozor kunlari sotib keladigan bo'ldi. Biroq vofurush Kulalani bozorda tutib olibdi, bir-ikki shapaloq urib, qo'lidagi uchta o'roqni tortib olibdi. Kulala yig'lab keldi. Dadam indamadi, lekin bir qoshi baland, bir qoshi past bo'ldi. Bu uning nihoyatda darg'azab bo'lgani alomati edi.

Kechqurun rang-quti o'chgan Dodarxo'ja keldi, Kulaladan bir ikki og'iz gap so'radi-yu, qo'lidan ushlab, yo'lakdan dikanglatgancha o'rta eshikka tomon olib bordi, eshikni qoqdi. Vofurush tovush berdi, anchadan keyin kelib eshikni ochdi va Dodarxo'janing avzoyini ko'rib dang qotib qoldi. Dodarxo'ja Kulalani bo'ynidan ushlab itarib yubordi. Kulala vofurushning oyog'i ostiga yiqildi.

— Ur, dayus! — dedi Dodarxo'ja Kulalani ko'rsatib,— bo bir ur, o'ldir!

Vofurush jon talvasasida beixtiyor:

— Usta! — deb baqirdi.

Dadam uning tovushini, albatta, eshitdi, lekin kelmadi.

Dodarxo'ja vofurushning yoqasidan ushlab bir siltadi. Vofurush umbaloq oshib ketdi, keyin darrov o'rnidan turdi, yana: "Usta! Ho musulmon odam bormi!" deb baqirdi. Dadam yugurib keldi, vofurushga hamla qilmoqchi bo'lgan Dadarxo'jani ushladi, urishib ko'chaga tomon surib ketdi. Vofurush darrov uyiga kirib, eshigini zanjirlab oldi.

Vofurush ikki kun ko'rinmadi, uchinchi kuni ertalab dadamni amin chaqirtirdi. Amin dadamga dashnom beribdi: "Qari odamni urdiribsiz, bu safarcha ma'zur ko'ramiz, lekin bundan keyin qadamingizni bilib bosing, qishloqning darvozasi bor", debdi, dadamning bir og'iz gapiga ham quloq solmabdi. Ma'lum bo'lishicha, Dodarxo'ja qishloqdan badarg'a qilinibdi, otqorovul uni Qo'qon yo'lining yarmigacha eltib qo'yibdi.

Dadamning qilmishini amin bu safarcha "ma'zur" ko'rgan bo'lsa, vofurush ham ma'zur ko'rarmikan? Dadam tashvishga tushib, boshqa hovli va do'kon qidirib qoldi. Biroq "qari odamni", yana To'raqul buvani urdirgan kelgindiga hech kim boshpana berishni xohlamas, mojaro to'g'risidagi gapga quloq solmas edi.

Dadam yig'ilib qolgan o'roqlarini olib juma kuni Yaypan bozoriga ketdi. Uning maqsadi faqat o'roq sotish emas, Yaypandan hovli, do'kon so'roqlash edi.

Kulala do'konni ochib o'tirdi. Men kelganimizdan beri dam bosib bolalarga qo'shilmaganim uchun o'zim yakka o'ynab ketdim, tuproq ko'chalarni, qumloq anhor bo'ylarini kezdim, kimsasiz bir bog'ga kirib yarim do'ppi javpazak pesa[1] terib chiqdim, anhor ko'prigidan oyog'imni osiltirib o'tirib pesa yeb o'tirganimda birdan ko'nglim to'ldi-yu, ko'kragimdan yig'i o'rniga bir kuy otilib chiqdi, kuy ko'kragimdan o'zining so'zlarini yetaklab chiqdi: "Qayerga borsam kelgindiman... bolalar o'yinga qo'shmaydi...". Ming'illab o'tirib uxlab qolibman.

Bir vaqt ko'zimni ochib qarasam, tepamda mendan ancha katta bir bola ashtarxon gilosning shig'il meva qilgan bir shoxini pichoq bilan yo'nib turibdi. Men uyqusirab "shu o'rikning egasi bo'lsa kerak, hozir meni uradi", degan xayolda qolgan o'rikni bolaga tutdim. Bola o'rikni indamay oldi, bir-ikkitasini yedi, meni urmadi, temirchining bolasi ekanimni eshitib, yaqtagining cho'ntagidan bir hovuch qop-qora ashtarxon gilos olib berdi. Gaplashib qoldik. Bolaning oti Xoliq ekan. O'rtoq bo'lib qoldik. Anhor bo'ylab yuqoriga qarab ketdik. Xoliq ko'pdan beri pichog'ini charxlatishni orzu qilar, lekin akasi pul bermagani uchun bu orzusiga yetolmas ekan, men Kulalaga aytib charxlatib bermoqchi bo'ldim. Orqa ko'chadan yurib, To'raqul vofurushning chorbog'iga yetganimizda, Xoliq baland devor ostidagi omburga qo'lidagi gilosning shoxini tashladi va mening hayron bo'lib turganimni ko'rib "Xayri oladi" dedi. Xayri To'raqul vofurushning xotini ekan. Men uni ko'rgan emasman, vofurushning

[1] **Javpazak pesa** — chala pishgan, dumbul o'rik.

xotini borligini ham bilmas edim. Vofurush o'rta eshikni ketganida tashqaridan, kelganida ichkaridan qulflab olar, xotinining tovushini ham chiqarmas ekan. Bu ariq vofurushning chorbog'i va hovlisidan o'tar, Xayri ariqqa savat to'sib, Xoliq oqizgan narsalarni tutib olar ekan.

Vofurush, hatto chorbog' eshigini ham qulflab hech qayoqqa chiqarmaydigan bu xotin nima qilib o'tirar ekan? Shu kuni yo'lakka kelib quloq soldim. Hovli jimjit, ariq bir qiyomda shovullaydi, chorbog' tomonda ba'zan barra ma'raydi; qayerdadir sariq so'piyon kiyovlaydi... Birozdan keyin hovlidan tap-tup va shildiragan, jiringlagan tovush eshitildi. Eshik yonidagi yong'oqqa chiqib qaradim. Katta hovlining bir chekkasida kichkinagina, lekin katta xotinlarday uzun oq ko'ylak kiygan, boshiga farang durra o'ragan bir qiz chochpopuk va bozvonini jiringlatib to'p o'ynamoqda edi.

Men Kulalani Xoliqning pichog'ini charxlab berishga ko'ndirdim va shu munosabat bilan voqeani aytib berdim. Namozgar paytida dadam Yaypandan keldi. Kulala mendan eshitgan gaplarni dadamga aytayotganida vofurushning uyidan dodlagan ovoz chiqdi. Dadam, Kulala uchovimiz yugurib yo'lakka chiqdik. Qo'ni-qo'shni keldi. Bir qancha erkak-ayol yig'ildi. Birov eshikni qoqdi. Xayri hamon dodlar, big'illar edi. Kimdir vofurushning nomini atab chaqirdi. Ichkaridan javob bo'lmadi. Xayrining goh bo'g'iq, goh chinqirgan tovushigina eshitilar edi. Birov eshikni ikki-uch tepdi, bo'lmagandan keyin eshikka tarmashib chiqdi va shovqin soldi.

— To'raqul buva, bas, bo'lmasa bostirib kiramiz! — dedi.

Hayal o'tmay cholning hansirashi eshitildi-yu, zanjir shiriqlab, eshik katta ochildi. Nima bo'lib dadam hammadan oldinda turib qolgan ekan, chol eshikdan chiqa solib dadamga baqirdi:

— Ha, ha, meni yana urdirgani odam boshlab keldingmi? — dedi va hamla qildi.

Dadam orqaga chekindi.

— Men odam boshlab kelganim yo'q, hammaning o'z qulog'i bor. Birovning bolasini o'ldirib qo'yasiz-ku!.. — dedi.

Odamlar oraga tushdi. Biroq chol hech kimga quloq solmasdan dadamga o'shqirdi.

— Nima ishing bor, men sening xotiningni urayotibmanmi? Qizing bo'lsa qo'ynimga solib qo'y, ana undan keyin gapir! — dedi, keyin odamlarga yuzlandi: — Kim ekan u uyimga bostirib kiradigan?

Vofurush shovqin solib hammani haqorat qilavergandan keyin: "Bostirib kiramiz", degan yigit uni belidan olib uloqtirib yubordi. Vofurush yelka aralash boshi bilan tushdi. Kimdir uni turg'izib qo'ydi. Vofurush o'ng chakkasini ikki qo'llab ushlaganicha bo'g'iq tovush bilan voyvoylab ko'chaga tomon yo'naldi, eshikdan chiqqanidan keyin tovushi ochilib ketdi.

— Kelgindining dastidan dod! Tojiboy amin, fuqarolaringdan xabar olasanmi, yo'qmi! Tojiboy amin!..

Vofurush uzoqlashgan sayin qattiqroq baqirar edi. Hamma jim bo'lib qoldi. Kimdir: "Qochaver!" deb yugurganicha chiqib ketdi. Birov xunob bo'lib, birov kulib, birov so'kinib, hamma tarqala boshladi. Ayollardan bir necha kishi vofurushning uyiga kirib ketishdi. Ko'cha eshigi oldida dadam vofurushni otib urgan yigitdan o'pkaladi.

— Chakki qildingiz, uka, mana endi men baloga qolaman, — dedi.

Yigit vofurushni chaparasta qilib so'kkanidan keyin:

— Qo'rqmang, usta, qayoqqa chaqirtirsa, biz ham boramiz? — dedi. Uning so'zini bir necha kishi ma'qulladi.

Xuftondan kechroq dadamni amin chaqirtirdi. Dadam darrov chiqib boyagi qo'ni-qo'shniga xabar berdi. Mojaro ustida odam ko'p edi, lekin dadam bilan birga sakkiz kishi bordi, xolos.

Vofurushning uyiga kirgan xotinlardan biri kelib mojaroning sababini ayamga aytib berdi. Vofurush hovlining bir chekkasidan bir-ikkita mevasi qolgan gilosning shoxini topib olibdi-yu, "Buni senga kim berdi?" deb so'rabdi, Xayri "Ariqdan oqib keldi", degan ekan, do'pposlay beribdi.

Dadam ko'p o'tmay qaytib keldi. Amin gapni ko'paytirmabdi, odamlarning gapiga ham quloq solmabdi, dadamga: "Qishloqdan beto'xtov ko'chib keting!" debdi. Dadam Yaypan-

da uchrab qolgan amakimning qaynatasi usta Turdialidan besholti tanga qarz olib kelgan ekan, shu yerda boshini bog'lab o'tirgan vofurushning bo'nagidan qolgan haqini, uyi va do'kon ijarasini beribdi, orani ochiq qilibdi.

Usta Turdiali Buvaydida turar, Yaypanga bir ish bilan kelgan ekan, Buvaydini dadamga maqtabdi: "O'n ikki machitlik katta qishloq, temirchi zotidan bitta o'zim", debdi.

Shunday qilib, Yaypanga emas, Buvaydiga ko'chadigan bo'ldik. Ertasiga ko'ch-ko'ron va do'konning asbob-uskunasini aravaga ortib, Qo'qonga yo'l oldik. Dadam bizni amakimning uyiga qo'yib, o'zi do'kon topgani Buvaydiga boradigan bo'ldi. Yo'lda amakim bilan kampir ko'z oldimga kelib, meni g'am bosdi, yashiriqcha yig'ladim.

BIR PALLA TARVUZNING PO'CHOG'I

Dadam bizni amakimning uyiga qo'yib, uy va do'kon topgani Kulala bilan Buvaydiga ketdi.

Ayam O'lmasoyning go'riga borib yig'lab keldi.

Amakim og'ir ishga yaramay qolibdi, ul-bul charxlab, otashkurak, kapgir, o'roq, randa singari yengil-yelpi narsalar yasab kun ko'rar ekan. Kampir haj qilish ko'yiga tushib qolibdi, besh vaqt namozidan keyin nuqul "baytillo" deb yig'lar ekan. G'afforjon hamon maktabga qatnar, nay puflar, kampir bilan birga ba'zan namoz o'qir ekan. Bularga qaraydigan Nisobuvi amakimdan qochmay qo'yibdi.

Xayriyat, amakimning uyida ko'p turmadik. Dadam uch kun deganda Buvaydidan uy va do'kon topib keldi.

Buvaydiga ko'chdik.

Buvaydi, haqiqatan, katta va obod qishloq ekan. Uning markaziy ko'chasi samovar, bazzoz, hunarmandlar do'koni o'rnashgan baland timdan boshlanardi. Undan nari ko'chaning ikki tomoni zich do'kon: baqqol, attor, qandolatchi, novvoy, sartarosh, yana samovar, biz tomonda kappon... Undan nari Eshon buvaning karvonsaroyi — bozor kunlari dehqonlar ot-ulovini shu yerga qo'yib bozor-o'charini qilar ekan.

Karvonsaroy darvozasining chap tomonida ayvonlik yangi do'kon, uning oldidan o'tadigan anhor ustiga taxta qoqilgan; darvozaning o'ng tomoni — saroydan qayrilib chiqadigan anhor ustiga ham odamning belidan keladigan balandlikda kattakon taxta so'ri qilingan. Bularning hammasiga yetti-sakkizta azamat tol soya solib turar edi.

Hovlimiz ko'chaning u yuzida, karvonsaroyning ro'parasidagi machitning orqasida, shu machitning vaqfi ekan. Ayam hovlini ko'rib suyunib ketdi. Qutichadekkina hovli, uning ko'cha tomoni uzun ayvon; ayvondan kiriladigan va darchasi ayvonga ochiladigan o'n bir yog'ochlik vassajuft uy, o'ng tomonda darchasiz bo'lsa ham, yorug'lik tuynukdan tushib turadigan yana bir uy. Bu uydan machitga eshikcha, chorvoqchaga eshik qo'yilgan. Chorvoqcha katta bo'lmasa ham, ikki tup olcha, bir tup shaftoli, ikki kunda uzum, bir-ikki tup qizil gul bor ekan.

Hammamizning ham xursandligimiz cheksiz edi.

O'rnashib oldik. Do'konga o't solindi.

O'roq mavsumi o'tgan, ketmon mavsumiga hali uzoq edi. Dadam taqachilikni jinidan battar yomon ko'rsa ham, tirikchilik toshni yoradi, degandek, otni qornidan bog'lab taqalanadigan dorni tikib, taqa yasashga kirishdi. Qishloq kattakon bo'lgani uchun bu ish ham yomon bo'lmadi, ro'zg'orimiz tebranib turdi. Biroq falokat yuz berdi: ot taqalanayotganda uning orqa oyog'ini dumi bilan o'rab mahkam ushlab turishi kerak bo'lgan egasining beparvoligi orqasida ot tepib, dadamning qo'lini mayib qildi. Dadam qirq kuncha ishga yaramay qoldi.

Kulalaning qo'lidan faqat charxlash, tesha tovlash keladi, shu ham harna bo'lgani uchun ertadan kechgacha do'konni ochib o'tirardi. Ikkovimiz har xil o'yinlar o'ynaymiz; simni sandonning ustida bolg'a bilan tez-tez urib cho'g' qilamiz, yong'oq poylama o'ynaymiz, oshiqning tovva tomonini teshib qo'rg'oshin quyamiz — hamisha olchi turadigan qilamiz, "kon" degan yumshoqroq toshdan soqqa yasaymiz, gugurtning dorisini paxtaga o'rab, sandonning ustida bolg'a bilan uramiz — qarsillab "to'pponcha" otamiz... Ko'pincha, bolalar yig'ilishadi.

Bilmadim kimdan o'rgangan ekan, Kulala bir kuni bolalarga alomat bir hunar ko'rsatdi: bir palla tarvuzning po'chog'iga ikki piyola suv quydi, suvga qog'oz yondirib tashladi-yu, yonib turgan qog'ozning ustiga piyolani to'ntarib qo'ydi. Piyola atrofidagi suvni ho'pladi, ho'plaganda ham po'rillatib ho'pladi. Qog'oz suvning betida yonganiga, piyola suvni po'rillatib ho'plaganiga hamma hayron, hatto ba'zi bolalarning rangi o'chdi. Kulala, bu hunarini faqat bir marta ko'rsatdi, bolalarning yalinishiga qaramay, qaytib ko'rsatmadi, tarvuzning po'chog'ini anhorga tashlab yubordi. Ertasiga kap-katta bolalar ham kelishdi. Bulardan biri tarvuz ko'tarib keldi. Kulala tarvuzni do'konga olib kirib qo'ydi-yu, bularga boshqa hunar ko'rsatdi: zulfinda osig'liq turgan qulfning kalitini olib, charxga qum bosiladigan taxtaning ustiga qo'ydi, ichida duo o'qib kalitga dam soldi. Kalitga jon kirdi, qimirladi. Hamma: "Uh!" deb yubordi. Kulala yana dam soldi. Kalit taxtaning ustida bir qarich siljidi, shundan keyin qayerni ko'rsatib "suf" desa, o'sha yerga borib turaverdi.

Hamma hayron, hamma Kulalaga vahima bilan qarar edi. Buning sirini bilish hech kimning aqliga kelmagani uchun Kulala taxtaning ostida jildirayotgan ohanraboni[1] hech kim payqamas edi.

Men Kulalaning "ko'z baxshilik" qilganini dadamga aytgan edim, dadam Kulalani urishib berdi. Biroq voqea kundan kun ovoza bo'lib, butun mahallaga, hatto qo'shni mahallalarga ham yoyildi. Kulalaning kalit yurgizgani "duoning kuchi bilan qulf ochgan emish"ga aylandi.

Shogirdi shunaqa bo'lsa, ustasi qanaqa ekan!

Kulala buyoqda qolib, dadam og'izga tushib ketdi. Dadam bu ovozani qanchalik rad qilsa, unga odamlarning ixlosi shuncha ortar edi.

Ayam ko'ziga yosh olib, dadamdan o'pkaladi.

— Shuncha ilmingiz bor ekan, bir og'iz aytmaysiz... Shuncha bolamizni qora yer bag'riga qo'ydik...

Dadam yolg'ondan qovog'ini solib:

[1] **Ohanrabo** — magnit.

— Mening ilmim o'zimga o'tmaydi, — dedi.

Bir kuni dadam shu yerdan orttirgan o'rtog'i Ali laylakning dalasiga qovun sayliga ketdi. Shu kuni peshinga yaqin ko'cha eshigi ochilib, kattakon dasturxon ko'targan bir bola, uning ketidan yangi safsar duxoba paranji yopingan bir xotin kirdi. Bola dasturxonni ayamning qo'liga berib chiqib ketdi. Xotin chimmatini orqaga tashlab, ayam bilan juda qadrdon dugonaday ko'rishdi, hol-ahvol so'radi. Uning shirinso'zligidan va savlatidan ayam anqayib qoldi. Juvonning egnida xonatlas ko'ylak, boshida farang durra, ko'kragida bozvon, bo'ynida bir necha qator qizil marjon, quloqlarida baldoq... Ayam ayvonga palos soldi, yakandoz yozdi. Juvon amirkon kavushini yechib, yakandozga chiqdi, o'tirishi bilan ikki chakkasidagi gajagini bosib-bosib qo'ydi, keyin enli o'sma tortilgan qoshlarini chimirib, g'amza bilan:

— O'tiring, ovora bo'lmang!.. — dedi va keng yengi bilan yelpindi. — Shuncha kelaman deyman, ro'zg'or o'lsin, uydan hech chiqolmayman!

Ayam choy damlab keldi. Juvon uni etagidan tortib o'tqazdi, boshqa turgani qo'ymadi.

Juvon Qo'qonning Shayxulislom guzaridan Norbo'ta degan boyning qizi bo'lib, otasi poshsholikka bug'doy sotar, bu ishdan sinib abgor bo'lganidan keyin qizini buvaydilik Chilon[1] qoriga to'rtinchi xotin qilib beribdi. Chilon qori uni uch-to'rt yil kafti-da ko'tarib yuribdi-yu, oyma-oyiga sakkiz oydan beri qaramaydigan bo'lib qolibdi. Juvon bu yog'i Shoposhshadagi allaqaysi bir shayxdan tortib, Qo'qondagi G'ishtko'prik folbinlarigacha rom ochiribdi. Hamma rom bir joydan chiqib, juvon bu xususda o'rtancha kundoshidan gumondor ekan. Uning kuyib-pishib aytishiga qaraganda, bola ko'rmaganining sababi ham o'sha kundoshi ilm-u amal qilib pushtini kuydirgani ekan. Uning bu yerga kelishidan murodi qaytarma qildirish va kundoshining ilm-u amalini duo bilan kuydirtirish ekan. Juvon zor-zor yig'lar, ayamga yolvorar, uning yelkalarini silar, oyoqlariga bosh qo'ygunday bo'lar edi. Ayam har ish qo'lidan keladigan-u, tarang qilgan bir alpozda:

[1] **Chilon** — ruscha "chlen" so'zining buzilgani. Qori biron shirkatning a'zosi bo'lsa kerak.

— Mening erim temirchi-ku, — dedi.

Juvon yana yig'ladi.

— O'rgilay, sadag'alari ketay temirchi bo'lsalar! Maclali piyrim' ham dukchilik qilganlar!..

Juvon yana yig'ladi, shu qadar kuyib yig'ladiki, kechqurun dadam kelganda ayam bir mungliq-mushliparning hujatini chiqarishini yolvorib so'radi. Dadam bu gapni eshitib avval kuldi, keyin qovog'ini solib: "Agar bu gap o'rtamizda qolsa, birovga og'zidan chiqarmasa, mayli, suv tegmagan bitta ko'zacha olib kelsin", dedi.

Juvon ertasiga xabar oldi, indiniga suv tegmagan ko'zacha ko'tarib keldi. Dadam ko'zachadagi suvga dam solib, qaytarma qilib berdi. Juvon bu suvdan eriga choy qaynatib berishi kerak ekan.

Bir necha kundan keyin uyimizga bukchaygan bir kampir keldi. Kampir eshikdan kirishi bilanoq yerga cho'nqayib "usta piyrim"ni duo qildi, yig'lab kelinini qarg'adi.

— Juvon o'lgur o'g'limning til-jag'ini bog'lab olgan. O'g'lim o'shaning chizgan chizig'idan chiqmaydi, o'sha kelib dasturxonga o'tirmaguncha ovqatga qo'l uzatmaydi. Uch yillik kelin eridan hali bir shapati yegani yo'q. Xudoyo niyatingizga yeting, usta piyrimga aytiog, shu bolaning til-jag'ini ochib bersinlar, bola bechora dunyoga shundoq kelib, shundoq ketavermasin...

Bu to'g'rida bam ayam o'rtaga tushdi. Dadam bu kampirning ham hojatini chiqarib, o'g'lining til-jag'ini ochgani bir qaynatim choyga dam solib berdi.

Shunday qilib, uyimizga xotin-xalaj sergatnov bo'lib qoldi. Dastlabki kunlarda dadam bu ishdan o'zini mumkin qadar tortib ayamni qistatgan bo'lsa, keyinchalik xotinlarni ham, ayamni ham ko'p yalintirmay qo'ydi. Xotinlar machit tomondan kelib eshikchadan to'g'ri "chiltonxona"ga kiradigan bo'lishdi.

Ro'zaning so'nggi kunlari edi. Namozgar paytida ko'chada qiy-chuv, dod-faryod bo'lib qoldi. Dadamning ketidan men ham yugurib chiqdim. Mahallada Obid tajang degan novcha, ozg'in bir bangi bor edi, shu odam ko'chaning oxiridan hayqirib, xotinini

---

[1] Andijonlik mashhur Dukchi eshon, har xil "karomat"lar ko'rsatib, jumladan, "o'liq qozon qaynatib" dong chiqargan.

urib-topib kelayotibdi. Xotin bizning eshikdan o'tganda o'ng qo'ldagi hovliga qochib kirdi. Dadam uning ketidan kirmoqchi bo'lgan Obid tajangning yo'lini to'sdi.

— Obid aka, qu'ying, ro'zachilik, iftorga yaqin qoldi... — dedi.

Obid tajang to'xtadi, qizargan ko'zlari bilan dadamga yeb qo'yguclek bo'lib qaradi-yu, chaparasta qilib so'ka ketdi.

— He o'sha... kelgindi! Ko'chmanchi! Sen ro'zadan gapirma, sen tutgan ro'za harom! Temirchi bo'lib bir marta bolg'a urganingni ko'rganim yo'q, nuqul xotin-xalajga don sepasan!

Dadam indamay uyga kirib ketdi.

Keyinchalik bu gapning tagi chiqdi. Dadamning "chiltonxona"si to'g'risida mahallada gap o'rmalab qolgan, dadam farzand talab bo'lib kelgan bir juvonga rostmi-yolg'onmi, tegishgan emish. Bu gapni ayamga Ali laylakning xotini yetkazibdi. Ali laylakning o'zi ham xunuk bir xabar topib keldi: mahallaning yigitlari biron kishiga paranji yopintirib "chiltonxona"ga kirgizmoqchi, dadam biron nojo'ya harakat qilgan taqdirda machitga sudrab chiqib, bovuzga pishib rosa urmoqchi bo'lishibdi.

Ayam "chiltonxona" to'g'risidagi gapga uncha ishonmasa ham, ehtiyotan g'ashlik qildi.

Dadam deyarli har kuni ayamga har xil jangnomalar, "Bahoridonish" singari qiziq-qiziq hikoya kitoblar o'qib berar edi, bir kuni qo'liga "Kitobi bahri durar" tushib qoldi. Bu kitobdan shunday gap chiqib qoldi: "Odamzodning har yelkasida bittadan farishta o'tiradi, o'ng yelkasida o'tirgan farishta uning savob ishlarini, chap yelkasida o'tirgan farishta uning gunohlarini yozadi..."

Ayam tortinibroq so'z qistirdi:

— Sizning chap yelkangizga Xudoyi taolo ikkita farishta qo'ysa ham kamlik qiladi, — dedi.

Dadam talmovsiradi.

— Nega, o'g'ri bo'lmasam, birovning haqini yemasam?.. Nanoz o'qimayman, xolos, Xudoning o'zi kechiradi...

Ayam yig'lab yubordi.

— Og'riyoqman... Nima bo'lishini bilmayman. Uydan farishta qochdi... Harom, hamma yoq harom...

Ayam Ali laylakning xotinidan eshitgan gaplarini, o'zining gumonlarini to'kib soldi. Dadam avval kuldi, keyin bu tuhmatlarga chiday olmasdan "Kitobi bahri durar" bilan ayamning yelkasiga urdi va shovqin soldi.

— Men azayimxonmidim? Mungliq-mushtiparlarning hojatini chiqaring, deb yalingan kim? — dedi, keyin ayamni urganiga pushaymon bo'ldi, shekilli, buni ko'nglidan chiqarish uchun yumshadi. — Bir palla tarvuzning po'chog'idan shuncha ish chiqishini qayoqdan bilay!

Dadam Ali laylakning xotini aytgan gaplar bo'hton, ayamning gumonlari behuda ekanini isbot qilishga kirishdi. Nazarimda, ayam uning hamma gapiga ishondi.

Oradan ko'p o'tmay, dadam kutib yurgan ish bo'ldi — "chiltonxona"ga bir yigit paranji yopinib kiribdi. Dadam buni payqab paranjilik yigitni duo bilan qarshi olibdi, shivirlab uzundan uzoq bir oyatni o'qish bilan uning hojatini chiqaribdi, duo o'qib kuzatibdi. Buni dadam do'konda Ali laylakka kula-kula gapirib berdi.

Dadam azayimxonlikni bas qildi, kelgan xotin-xalajni "duo menga yuk tashladi", deb qaytaraverdi. Biroq "duo yuk tashlagan temirchi piyrim"ga xotinlarning ixlosi kundan kun ortar, eshikdan qo'ymasa, teshikdan kirishar edi.

VALIXON SO'FI

Kuz juda erta va shamol-to'polon bilan boshlandi. Ishimiz yurishib ketdi. Do'konimiz azamat tollar ostida va ayvoni bo'lishiga qaramay, kunduzi ham eshikni yopib, chiroq bilan ishlar edik. Kuzda qo'lning orqasi, barmoqlar yoriladi, gugurt cho'pi sig'gudday, undan ham kattaroq bo'lib chatnab ketadi. Buning birdan bir davosi qora saqich, qora saqichni o'tga toblab yoriqqa bosiladi.

Dadam bir kechasi kitobxonlikdan keyin, yotish mahalida qora saqichni chiroqqa toblab qo'liga bosar ekan, birdan: "Abdullani maktabga beraman, har qancha saqich bo'lsa men bosib bo'ldim", — deb qoldi. Men qo'rqib ketdim, chunki maktabning ta'rifini ko'p eshitgan edim: domla behining novdasi bilan uradi, moshga cho'kkalatadi, falaqqa osadi... Bir qassob yetaklab ketayotgan echkisi yurmay tarxashlik qilganda: "Ey jonivor, yuraversang-chi, men seni maktabga olib ketayotganim yo'q, kushxonaga olib ketayotibman-ku", — degan ekan...

Men dadamning bu gapiga "joni og'riganda aytdi-qo'ydida", — deb qo'ya qoldim, chunki dadam mening temirchi bo'lishimni xohlar, esimni taniganimdan beri o'yinchoqlarim temirchilik asboblari bo'lgan, "temirchilik qilib" uydagi biron buyumga ziyon yetkizsam, hatto buzib qo'ysam ham meni hech kim qattiq urishmas edi.

Dadam do'konga kun chiqmasdan ketar, men dam bosgani kun yoyilganda borar edim. Ertasiga do'konga borsam, dadam bitta patnisga oltita non, yarim qadoqcha pashmak holva solib dasturxon qilib qo'ygan ekan, shuni ko'tarib meni yetakladi-yu, machitga olib kirdi va machitimizning so'fisi hoji do'ppi kiygan Valixon so'figa: "Suyagi meniki, eti sizniki, taqsir", — deb topshirdi. Valixon so'fi: "O'g'lingiz mullo bo'lsin", — deb yuziga fotiha tortdi. Dadam ketdi. Men domlaning yoniga cho'kkalab birinchi saboqni oldim.

Machitning qop-qora va qorong'i hujrasi, o'ttizga yaqin bola atrofga tizilishib, har qaysisi o'z sabog'ini pishitar, hujra behisob chumchuq chug'urlayotgan sadaqayrag'ochga o'xshar edi. Bolalar javrashdan charchab yoki bezor bo'lib chug'ur-chug'ur pasaysa, Valixon so'fi ingichka, urishqoq jo'jaxo'rozning bo'yniday qip-qizil bo'ynini cho'zib bolalarga ko'z olaytirar, bu ham ta'sir qilmasa, malla avra to'nining uzun yengini asta shimarib, uzun gavronni qo'liga olar, shunda chug'ur-chug'ur yana avjiga chiqar edi.

Ikki hafta harflar yozilgan "taxta" o'qiganimdan keyin domla: "Shanba kuni haftiyakka tushasan, dadangga ayt, haftiyak olib bersin", — dedi. Juda suyundim. Dadam darrov haftiyak olib keldi. Ayam "Xudoga ming qatla shukur", — deb haftiyakka bo'zdan jild tikib berdi.

Shanba kuni oltita chapchap, to'rtta shirmon, bir qadoqcha sovunak holva, mushtday-mushtday ikki yumaloq novvotni dasturxon qilib berishdi. Shu kuni haftiyakdan birinchi saboq oldim. Men haftiyakdan oldin "taxta" o'qigan bo'lsam ham, "taxta" bilan

haftiyak orasida biron munosabat borligidan bexabar xatga qaramasdan domlaning aytganini takrorladim:

— Apalamza al, bevamiza ham alham, dol pishdi alhamdu.

Men bu saboqni kuni bo'yi pishitdim, ertasiga ham shiftga qarab takrorlayotgan edim, qarasam, darchada dadam turibdi. Dadam meni imlab chaqirdi. Dadam kelganini ko'rib, ketimdan domlam ham chiqdi.

— Qani, o'qi, o'qi! — dedi dadam.

Men boyagi o'qiganimni aynan takrorlagan edim, dadam kuldi.

— Apalamza al? — dedi va domlaga yuzlandi: — Taqsir, bu nima deyapti?

Domla menga "alhamdu"ni ikki-uch marta o'qitib eshitdi, og'ir-og'ir kiprik qoqib o'ylanib qoldi-da, nihoyat dadil:

— Bolangizning zehni o'tkir! — dedi.

Dadam yana kuldi:

— Bolamning zehnini biltmayman, lekin vaqtida o'zlarining zehnlari qaley edi?

Domla gangib qoldi.

— Nima edi... g'alatmi? O'qiganimizni o'qitamiz, esdan chiqqan bo'lsa ajab emas...

— Yo'q, taqsir, esingizdan chiqqan emas, vaqtida uqmasdan o'qigan bo'lsangiz kerak. Hali ham bo'lsa o'qib oling: apalamza al emas, alifning ustida zabar, lomning ustida sokin bor — "al" o'qiladi!

Dadam "alhamdu"ni to'liq hijolab berdi-yu, meni qo'limdan yetakladi. Domla ketimizdan: "Mening maktabimda Chilon qorining o'g'li o'qiydi, Abdurahmon hojining o'g'li o'qiydi", yana allanimalar deganicha qolaverdi. Biz machitdan chiqib ketdik.

Do'konga kelib dadam damning arqonini qo'limga tutqizdi: "Mana buni ushla, o'g'lim, men seni o'zim o'qitaman", — dedi va so'fini so'ka-so'ko voqeani shu yerda o'tirgan bir-ikki kishiga gapirib berdi.

Dadam va'dasida turdi: har kuni kechasi kitob o'qiganida o'qiyotgan satrlari ostida barmog'ini yurgizib, so'zlarni menga ko'rsatadigan bo'ldi. Men ko'zimga jo'nroq ko'ringan so'zlarni

boshqa vaqtlarda ko'mir bilan eshikka, devorga yozib yurar edim. Shunday qilib, men o'qishni harf tanishdan emas, so'z tanishdan, so'zlarning yozilishi va o'qilishidan boshladim. Qayerda "alqissa", "xachir", "savdogar", "No'sheravon", "payg'ambar", "jang" degan so'zlarni ko'rib qolsam, darrov o'qib tashlar edim.

Valixon so'fi dadamdan bir-ikki kun arazlab yurdi-yu, oradan o'tgan gap tarqalib ketsa, maktabdorlik nonidan benasib bo'lishdan qo'rqdi, shekilli, bir kuni do'konga keldi.

— Usta, o'g'lingizni damga solar ekansiz, maktabdan to'g'rilikcha chiqarib olsangiz ham bo'lar edi-ku. Xo'p, bo'lar ish bo'ldi, endi shu gap oramizda qolsin, — dedi.

So'fi otasining davlatida o'qib olmagani, tirikchilik og'ir ekani, machitning butun vaqfini imom, qolaversa, mutavalli yeb, so'figa faqat yalatganidan hasrat qildi. So'fi faqat azon aytish-u, hol-baqudrat maktab tutishnigina bilar, maktab qo'lidan ketsa, so'filikdan keladigan daromad tirikchilikka urvoq ham bo'lmas ekan. Dadam yopig'liq qozon yopig'liq qolishiga so'fini ishontirib jo'natdi.

Biroq dadam meni maktabdan nima uchun tortib olgani allaqachonlar tarqalgan, mening o'zim maktab bolalardan bir qanchasiga aytgan edim. Oradan ko'p o'tmay, bolalarning yarmi maktabdan ketib qolibdi. So'fi bir kuni do'konimizga yana, lekin bu safar go'yo dadamga achingan bo'lib, aslida esa do'q-po'pisa bilan keldi.

— Dunyoda kim ko'p, g'alamis ko'p. Kecha bir-ikki g'alamis imomga arz qilib qoldi: "Temirchi namoz vaqtida taraqlatadi, ba'zan sizning "Allohu akbar" deganingizni eshitmay qolamiz", — dedi. Men hammasini jerkib tashladim, imomga tushuntirdim...

So'fi shu bilan "tilingni tiysang tiyganing, yo'qsa bu yerdan ko'chirib yuborish ham qo'limdan keladi", — demoqchi edi. Dadamning achchig'i keldi.

— Taqsir, temirchilik Hasti Dovuddan qolgan hunar, bu ham savob ish. Hazrati Ali bir sohibqiron kofir bilan yetmish botmonlik zanjir tortishganlarini, kofirni sudrab musulmon diniga kirgizganlarini bilasizmi?

So'fi sboshib:

— Bilaman, bilaman! — dedi.

— Bilsangiz, hazrat Ali kofir bilan tortishgan yetmish botmonlik o'sha zanjirni temirchi yasab bergan!

So'fi o'zini dono va bilimdon ko'rsatish uchun:

— Yo Bahovaddin! Gapimiz bir joydan chiqqanini qarang, inonga men ham xuddi shundoq degan edim-a! Bemalol ishlayveringg, bemalol taraqlataveringg, o'zim bor... Mening biryog'im mingboshi dodxoh, biryog'im yuzboshi... Yuzboshi har hayit meni yo'qlab turadilar, mana shu hoji do'ppini o'sha kishi berganlar... — dedi.

Soxta g'amxo'rlik ostida do'q-po'pisa, mingboshi, dodxoh va Buvaydining manman degan, hatto mansabdorlarga ham so'zi o'tadigan yuzboshi haqidagi bu gaplarning zamirida o'sha muddao — dadamning tilini tiydirish, tarqab borayotgan maktabni buib qolish muddaosi bor edi.

Oradan bir-ikki hafta o'tar-o'tmas maktab butkul tarqab ketdi. Bolalarning bir qismi rimdan nari katta machitdagi, bir qismi to'g'onboshilik bir otinoyi ochgan maktabga ketib qoldi. Bu hol so'fining dadamga adovatini oshirib yubordi. So'fi har qayerda har vaj bilan dadamning payini qirqa boshladi.

Kuz shamol-to'polon bilan boshlangan bo'lsa ham, haderaay havolar qayta isib ketdi. Bu g'animat kunlarni qo'ldan bermaslik uchun dehqonlar shudgor qilishga, yer ag'darishga shoshilar, yerni tizza bo'yi va undan ham chuqurroq ag'dargani olti, sakkiz, hatto o'n-o'n ikki qadoqli yangi ketmonlar buyurishar edi.

Bir hafta juma kuni ham ishladik. Shunda so'fi namozdan keyin uch-to'rtta namozxonni chekkaga tortib ig'vo qilibdi: "Bu kelgindi o'zi namoz o'qimaydi, buning ustiga, mo'minlarning qulog'ini qomatga keltiradi, ko'chirib yuborish kerak", — debdi, ularni dadamga qarshi qayrab solmoqchi bo'libdi. Biroq uning qutqusiga hech kim quloq solmabdi, chunki temirchi faqat dehqonga emas, besh vaqt namozni kanda qilmaydigan, ertadan kechgacha tasbeh o'girishdan bo'shamaydigan xudojo'ylarga ham kerak, shular ham yerdan chiqqanni yeydi, kiyadi. Dadam Ali laylakdan bu gapni eshitib kulib qo'ya qoldi. Lekin Ali laylakning

qoni qaynab ketdi. So'fi yana sasiyyergan ekan, Ali laylak bir kuni so'fini xilvatga tortib, to'qmoqday mushtini uning iyagiga tirabdi: "Ustani tirikchilik qilgani qo'yasanmi yo kekirdagingni sug'urib qo'lingga beraymi", — debdi. So'fi yalinib-yolvorib uning qo'lidan zo'rg'a qutulibdi, lekin to'g'ri borib yuzboshiga arz qilibdi, "Ali laylak bir kelgindi temirchini deb meni urmoqchi bo'ldi", — debdi. Yuzboshi bu gapni mingboshiga aytib, qozixonada Ali laylakni o'n olti darra urdiribdi.

Ali laylak gap yer edi, shu chorshanba — darra yegan kuni ertasi uning navbati ekan, gapga dadamni ham aytdi. Jo'ralar o'n to'qqiz kishi ekan. Ali laylakning darra yegani, shu munosabat bilan Valixon so'fi to'g'risida so'z bo'libdi. Jo'ralar so'fining dadamni bu yerdan ko'chirtirish niyati borligini, buning sababini eshitib, darg'azab bo'lishibdi. Birov so'fi yuxboshining yuvindixo'ri, yana birov mingboshining voqeanavisi[1] ekanini aytibdi. Butun kecha shu haqda gap bo'lib, so'fining adabini berish to'g'risida har xil takliflar bo'libdi, birov "so'fini "haytov"ga solish kerak", debdi — "haytov"ga solinadigan kishini aldab mehmonxonaga olib kirilar, hamma "haytov" deb shovqin solayotganda bir necha kishi uni bosib, dodlaganiga quloq solmay, soqol-mo'ylovini qirib tashlar ekan; birov, kaltakesak yedirib so'fini pes qilish kerak, pes bo'lsa so'filikdan bekor bo'ladi, debdi; birov, so'figa eshakning miyasini yedirib jinni qilish kerak, debdi; birov uni "chirog'poya" qilishni taklif qilibdi, "chirog'poya" bo'lgan kishi qishloqdan qochib ketishga maibur bo'lar ekan.

Bu gaplar, albatta, qiziq ustida, bundan tashqari, o'n olti darradan hanuz to'lg'onayotgan kishining yuziga qarab aytilgan gaplar, agar so'fi boshqa biron qilmishi bilan jo'ralarning g'asbiga tegmaganda, ehtimol, qolib ketar edi.

Shu orada Valixon so'fining jag'ini ochadigan bir hodisa yuz berdi.

Bir kuni Buvaydining manman degan boyi — juvozkundaga o'xshagan yum-yumaloq yuzboshi ko'chadan piyoda o'tib ke-o'xshagan yum-yumaloq yuzboshi ko'chadan piyoda o'tib ketayotib do'konimizga tomon bir qaradi-yu, to'satdan burildi, ay-

[1] **Voqeanavis** — ayg'oqchi, agent.

vonga kirdi; devorga suyab qo'yilgan ikkita jodini ko'zdan kechirdi-da, bittasining kundasiga shappalab:

— Usta, mana shunisini bizning hovliga eltib tashlagin! — dedi.

Uning bu gapi, ayniqsa, sensiragani dadamga qattiq malol keldi, shekilli, bir qoshi past, bir qoshi baland bo'ldi-yu, burilib ketayotgan yuzboshining ketidan:

— Odam yuboring, chaqasini tashlab olib ketsin, — dedi va ishini qilaverdi.

Men qo'rqib ketdim: bu odam yuzboshi ekanini — so'fini har hayit yo'qlaydigan, unga hoji do'ppi bergan o'sha yuzboshi ekanini dadam bilib turib shunday dedimi, yo bilmasdan gapirdimi?

Yuzboshi birdan to'xtadi, qayrildi, quloqlariga ishonmagandday dadamga qaradi-da, to'rlagan kalta bo'yni qizarib ketdi. U bir nima demoqchi bo'ldi-yu, demadi, burilib ketaverdi.

Yuzboshi shunda aytadigan gapini aytib, hordig'ini chiqarib olsa ham bo'lar ekan, kuni bo'yi bu alamni ko'ksidan chiqarolmapti, kechqurun timning tagidagi samovarda karillab o'tirib, bir bahona bilan dadamni xo'p so'kibdi.

— Tub joy itdan ko'ra, musofir itning quturgani yomon bo'ladi! — debdi.

Shunda yuzboshiga choy quyib berib o'tirgan Valixon so'fi dadam haqida birtalay nojo'ya gaplarni gapirgandan keyin:

— Namoz o'qimaydi, namozni pisand qilmaydi, bu odamni musulmon deb bo'lmaydi! — debdi.

Yuzboshiday odam, yana so'fi bir kelgindi haqida shunday degandan keyin, albatta, bularning gapi yerda qolmaydi. Qandolatchi — baqqol, dadamda hech qasdi bo'lmasa ham, yuzboshi bilan so'fining gaplarini tasdiqlovchi bir dalil ko'rsatishni lozim ko'ribdi, dadam shahardan nima bo'lib izvoshda kelganini eshitgan ekan, shuni nazarda tutib:

— Bu temirchi hozirgi turishida gubernatordan kam emas, izvoshdan tushmaydi! — debdi.

Shu bahonada yuzboshiga surkanib qolishni istagan boshqa odamlar ham topilibdi. Bulardan biri: "Usta asbobini aytganiga

sotadi", debdi, yana biri "chiltonxona" to'g'risida qulog'iga kirgan gaplarni bir juvoz qilib: "Qishloqni nahs bosib ketdi", debdi.

Bu gaplarni dadamga jo'ralaridan biri goh kulib, goh xit bo'lib gapirib berdi, o'git maqomida:

— Qishloqning bo'risi ham yuzboshi, tulkisi ham yuzboshi, bu bilan chap chiqishmang, o'sha jodini uyiga eltib bersangiz bo'lar edi, — dedi.

Shundan keyin so'figa Xudo berdi: dadamni har qayerda va har vaj bilan yomonlaydigan, har narsadan bir ishkal topib xarxasha qiladigan bo'ldi: Jarbuloqdan dadamning jiyani kelgan edi, bu bola kimdandir chayonning suratini chizishni o'rgangan ekan, machitdagi hovuz atrofiga o'rnatilgan panjaraning bir necha joyiga chayonning suratini chizibdi. So'fi buni ko'rib do'konga shovqin-suron bilan keldi: "Qiyomatda chayonga kim jon topib beradi!" — deb xo'p chiyilladi; bir kuni imomning hujrasidan uning ko'knor tuyadigan qayrog'i yo'qolibdi, shu kuni machitga Kulala kirgan ekan, so'fi to'g'ri kelib Kulalani do'pposlay ketdi.

Dadam uning xarxasha-mashmashalaridan bezor bo'lib, Ali laylakning jo'ralaridan Parpivoy degan yigitni o'rtaga qo'ydi va so'fining hamma shartini qabul qilishga tayyor ekanini bildirib, "yarashaylik" dedi. So'fi ko'nmabdi, "Men bu chala kofirni mahalladan ko'chirmay o'lsam, go'rimda tikka turaman", debdi. Kofirdan chala kofir yomon, kofirni Xudo yaratgan, chala kofir shaytonning vasvasasi bilan kofir bo'lgan emish. Parpivoy bu gapni juda tutaqib, so'fini so'kib gapirdi.

Shundan keyin Ali laylakning jo'ralari Valixon so'fini so'filikdan bekor qilishga bel bog'lashdi.

Jo'ralar o'rtaga tashlagan choralardan faqat eshakning miyasini berib, so'fini jinni qilish ma'qul ko'rilibdi, chunki "haytov"ga solib soqol-mo'ylabi qirib tashlansa, bu kasofat soqol-mo'ylabsiz ham azon aytaverishdan toymaydi, kaltakesak hali chiqqan emas, "chirog'poya" xatarli ekan.

Bozor kuni dadam bilan Ali laylak bitta cho'loq eshakni sotib olishdi, Bastomi qumiga eltib, tunuka qutichada miyasini olib kelishdi. Kulala daladan ko'kat terib keldi. Bundan ayam o'qchib o'qchib sakkizta somsa yasadi. Parpivoy so'fini samovarga olib

kirib, kuz ko'katidan bo'lgan "dori somsa"ni oldiga qo'yibdi. So'fi ikkita choy bilan sakkizta somsani paqqos tushirib, uzun duo qilibdi.

Dadam bu ishni qilishda zarracha tap tortmagan bo'lsa ham, so'fining somsa yeganini eshitib rangi o'chdi, peshingacha qo'li ishga bormadi, nazarimda, so'fining azon aytish o'rniga hangrashini, hangrab-cho'chchanglab machitdan chiqib kelishini kutar edi. Kulala ikkovimiz ham shunday kayfiyatda azonni orzuqib kutardik.

Yo'q, so'fi peshinga azonni, chamamda, odatdagidan ko'ra pastroq, lekin tutilmasdan aytdi. Dadam beixtiyor machitga tomon yotar edi.

So'fi namozgarda ham adashmadi. Shoinga yaqin Ali laylak va uning jo'rtaridan besh-olti kishi do'konga kelishdi, hammasi ham imo-ishora bilan dadamdan: "So'fi qalay?" deb so'rashdi. Dadam kulib bosh chayqadi.

Oradan bir hafta o'tdi. Dadam har kuni azonga diqqat bilan quloq solar, oxirda xunob bo'lib: "Adashmayapti, xumpar!" deb qo'yar edi.

Shundan keyin Parpivoy boshliq sho'x jo'ralardan uch-to'rt kishi boshqalar bilan maslahatsiz-nesiz Valixon so'fini "chirog'poya" qilishibdi: so'fini yarim kechasi turib, og'ziga hoji do'ppisini tiqishibdi, oyog'ini osmonga qilib, iimning ustuniga mahkam bog'lashibdi-da, orqasiga sham o'rnatib yoqib ketishibdi. So'fi shu alpozda sahargacha "chirog'poya" bo'lib turibdi...

Buni eldan burun ko'rgan samovarchi tugayotgan shamni sug'urib tashlabdi, qo'rquv va qiynoqdan o'lar holatga yetgan so'fini yechib olibdi va uyiga eltib qo'yibdi.

"Chirog'poya" qilganlar, albatta, so'fi qishloqdan qochib ketdi, deb o'ylashgan, biroq dadam bilan Ali laylak juda katta tashvishga qolishdi: so'fi qishloqdan qochib ketsa-ku xo'p, qochib ketmasa, yuziga cham qoplab: "Meni Ali laylak bilan temirchi usta shu ahvolga soldi", — deb yuzboshiga, mingboshiga arz qilsa nima bo'ladi?

Dadam so'figa yon berish va shu bilan uni insofga keltirish maqsadida boshqa mahalladan uy qidirdi.

ODAM ZAVODI

Uy tezda topilavermadi. Toleyimizga Valixon so'fi uzoq yotib qoldi. Buning ustiga, uning tilini tiyadigan bir hodisa ro'y berdi.

Narigi mahalladagi Olim sarkor deganning bog'ida ko'k shapka kiygan zindambir[1] to'rtalar turishar edi. Bular yer-suv ishlariga qarashsa kerak, ammorga ola tayoq o'rnatib, odamlarning aytishiga qaraganda, suv o'tkashar, dehqonlarning yeriga qora nomerlar qoqishar edi. Bular to'qima-savat izvoshni shaldiratib do'koningiz oldidan tez-tez shaharga o'tishar edi. Bir kuni mana shu shaldiroq izvoshning oldingi o'qi sinib qolibdi. O'sha zindambirlardan biri izvoshning oldingi o'qini yamatgani do'koningizga yosh bir barina bilan izvoshning o'qini yamatgani do'koningizga kelishdi. Dadam bularga "eshak" qo'yib berib, o'zi o'qni izvoshdan olishga kirishdi. Zindambir o'tirmay dadamga qarashdi. Barina meni gapga soldi. Uning menga bergan savollariga dadam tushunganicha javob berib turdi-yu, barina uyimizni ko'rmoqchi bo'ldi, shekilli, dadam menga imo qildi. Men uni hovlimizga boshlab bordim.

Farzand dog'ini ko'ra-ko'ra jonida jon qolmagan ayam oy-kuni yaqinlashgan sayin hali tug'ilmagan bolaning o'lib qolishidan vahimaga tushar, goh oshkora, goh pinhoniy yig'lar edi. Barina ayam bilan qo'l berib so'rashdi, uyimizni, turish-turmushimizni ko'rdi, batto sandalga o'tirdi. Ayam uning imo-ishora bilan bergan savollariga imo-ishora bilan javob berar, qornini ko'rsatib yig'lar edi. Barina bu nimalar deb uning qornini, boshini siladi, keyin, ayam aytmoqchi "durbin"ga solib ko'rdi. Barina durbinda ko'rganidan keyin nima der ekan, deb ayam vahima ichida tin olmay ko'zlari javdirab turar edi. Barina uning qorniga shappalab "yaxshi" deb qo'ydi. Keyinchalik bilsam, barina ayamning suratini olgan ekan-u, ayam "ichimni durbinda ko'rib", "yaxshi" dedi deb suyunib yuribdi.

Biz do'konga chiqqanimizda dadam o'qni yamab izvoshga qo'yayotgan ekan. Barina zindambirga goh kulib, goh achinib bir nimalar dedi. Zindambir dadam bilan gaplashdi. Orada "doktorxona" degan gap ko'p aytilib qoldi.

[1] **Zindambir** – yer o'lchovchi.

Bular Qo'qonning Ko'mir bozori mahallasida doktorxona ochilganini aytib, ayamni o'sha yerga olib borishni maslahat berishibdi.

Mahallada obro'yimiz oshib ketdi. Nazarimda, dadam deb duv-duv gap bo'lib ketdi. Shundan keyin mahallada "temirchining to'ralardan oshnasi bor ekan", "temirchining uyiga barina kebdi, endi Valixon so'fi tugul undan kattarog'idan ham qo'rqmas ekan", degan gaplar tarqaldi. Shu munosabat bilan Ali laylak, uning jo'ralaridan bir necha kishi qulluq bo'lsinga kelishdi.

Dadam ayamni o'sha doktorxonaga olib borishga jazm qildi. Barina ichini durbinda ko'rib "yaxshi" deganiga shunchalik suyungan ayam, albatta, doktorxonada tug'ishga darrov rozi bo'ldi.

Ish qistov bo'lishiga qaramay, dadam bir necha kundan keyin Qo'qonga borib doktorxonani, uning shart-sharoitini ko'rib, bilib keldi. Doktorxona, haqiqatan, Ko'mir bozorida, kichik ammamning uyiga yaqin ko'chaning ichida ekan. Bu haqda ammamdan ham, uning eri taqachi usta Mo'mindan ham tayinlik bir gap chiqmabdi. Lekin usta Mo'min, shu mahallalik allakim degan bir musulmon etikdo'zning o'risdan olgan xotini doktorxonada tilmoch, deb eshitgan ekan. Dadam shu etikdo'zga uchrabdi. Dadamning mo'ljaliga ko'ra, yigirma besh so'm pul bo'lsa, hamma xarajatga yetar ekan.

Dadam ko'zini chirt yumib, Ali laylak va uning jo'ralaridan qarzga yigirma besh so'm yig'ib oldi. O'sha kun yaqinlashganda Qo'qonga jo'nadik.

Biz kichik ammamning uyiga tushdik. Ertasiga amakim bilan kampir keldi. Bizning nima maqsadda kelganimizni eshitib, kampir dod-faryod ko'tardi.

— Nechuk ekanki mening nevaram o'risning qo'lida tug'ilar ekan! Voy, nevaraginamning qulog'iga kim azon aytadi!

Qani endi dadamning tushuntirib, aldab aytgan gaplari kampirning qulog'iga kirsa! Nihoyat, dadam tutaqib ketdi.

— O'risga nima qipti! O'risni men yaratibmanmi! — deb shovqin soldi.

Amakim bularni murosaga keltirdi.

— Mayli, bolaning qulog'iga azonni Abduqahhorning o'zi aytadi, — dedi.

Bu narsa, haqiqatan, dadamning esiga kelmagan ekan.

Dadam bu haqda doktor bilan gaplashibdi. Doktor ko'nibdi.

Shanba kuni ayamni doktorning o'zi kelib ko'rdi, dushanba kuni doktorxonaga yotqizdik. Dadam ikki kecha-yu kunduz doktorxonaning eshigi oldida o'tirdi, men dadamga non, tunuka choynakda choy eltib turdim. Uchinchi kuni ertalab doktorxonadan sariq soch, ko'kko'z yosh bir barina chiqib quvnoq tovush bilan:

— Usta Abdukaxxar! Baranchik! — deb yubordi.

Dadam irg'ib o'rnidan turdi. Ichkariga otildi. Men ham kirdim. Boyagi barina dadamni ayam yotgan uyga boshlab kirdi. Ayam kechasi tug'gan ekan, to'rdagi yaltiroq sim karavotda oppoq ko'rpa-yostiq orasida faqat boshi ko'rinib yotar edi. Doktor xotin dadam ikkovimizni ayamning chap tomonidagi kichkina sim karavot oldiga boshlab bordi va oq ro'yjachaning bir chekkasini ko'tardi. Uning ostida buvak-ukacham ko'zlarini chirt yumib, qovog'ini solib yotar edi. Dadam bolani qo'liga oldi va qulog'iga azon aytdi.

Uch kundan keyin ayamni ko'rgani ko'plashib keldik: ammam, uning qizlari — O'lmasoy, Mukarramxon... Ayam o'zida yo'q xursand, umrida hozirgiday xushchaqchaq bo'lmagan, bir aytib o'n kular edi.

— Men boshda qo'rqqan edim, odam tortinsa to'lg'oq qochadi... Yo'q, bular tortinadigan ish qilishmadi. Bechora marjalar meni yosh boladay oq silovga solib cho'miltirishsa bo'ladimi! Kula-kula o'libman. Marjalar ham xo'p kulishdi.

— Marja emas, barina degin! — dedi dadam.

— Yo'q, doktor xotinni barina der ekan, qolgani hammasi marja! Tilmoch xotin aytdi. Men ham marja emishman. Kula-kula o'libman.

Ukamga shu yerning o'zida ot qo'yadigan bo'ldik. Ammam "Ko'paysin", "Turg'un" degan nomlarni aytgan edi, dadam unamadi.

— Qo'y, irim-chirimdan hech narsa ko'rmadim, Umarali qo'yamiz, — dedi.

Umarali Ali laylakning jo'ralaridan norg'ul, baquvvat bir yigitning oti edi.

Uch kundan keyin doktor ayamga javob berib, dadamga: "Izvoshda olib keting, uyda biron hafta yotsin", — debdi.

Dadam bizni Buvaydiga izvoshda olib ketdi, lekin qishloqning kiraverishida izvoshdan tushib, uyimizgacha bir chaqirimdan ortiqroq yo'lni piyoda bosib ketdik, chunki guzardan izvoshda o'tish, kattalarni pisand qilmaslik bo'lar, xalqning nazarida esa pulimiz oshib-toshib yotganini ko'rsatar, bundan tashqari, yana "bu odam gubernatordan kam emas, izvoshdan tushmaydi", — degan gaplarga sabab bo'lar edi.

Qo'ni-qo'shni ayollar chaqaloqning hech bo'lmasa kichik chillasi chiqishini ham kutib o'tirmasdan dasturxon qilib, ayamni ko'rgani kirishdi. Bular, nazarimda, lozimandadan ham ko'ra, ko'proq doktorxonada tug'ilgan bolani ko'rgani kirishar, hammasi, nazarimda, undan o'rislik belgilarini qidirishar edi. Buning ustiga, ayam doktorxonada ko'rgan-bilganlarini juda oshirib gapirdi: mashinaga solib cho'miltirgan, mashinada ko'rgan, mashinada ovqat pishirgan, mashinaga yotqizib tug'dirgan...

Bir kampir yoqasini ushladi.

— Yo qudratingdan, paxtani zovutga soladi deb eshitgan edim, endi odam zovuti ham chiqipti-da!.. — dedi.

Ayamning odam zavodida tug'gani Yaypanda "Zinger" olganimizday og'izga tushib ketdi.

TESHIKTOSH

Valixon so'fi hamon kasal, do'konimizga to'ra kelgani, uyimizga barina kirgani obro'yimizni oshirib tinchgina ishlar edik.

Ketmon ishlatilaversa yeyilib ketadi, yarimta bo'lib qoladi, ishga yaramaydi. O'rtacha dehqon xo'jaligida bahordan kuzgacha besh-oltita ketmon ishdan chiqadi. Yangi ketmon falon pul, ishdan chiqqan ketmonni tiklash — ya'ni peshlatish ikki baravar arzon tushadi. Dehqon yangi ketmon sotib olmay, bo'sh

vaqtida eskisini peshlatib qo'yadi. Shuning uchun qish kirishi bilan temirchiga ish yog'iladi.

Dadam chapdast ustalardan bo'lib, bir kunda o'n oltitaga yetkazib ketmon peshlar edi. Dadam ketmonni tez va yaxshi peshlashi ustiga xat bilishi, nazarimda, bozorboshidagi usta Turdialining nonini yarimta qilib qo'ydi: peshlangan ketmon bir-biridan farq qilmasa ham, dehqon o'z ketmonini olgisi kelar, usta Turdiali ketmonni olishda unga har xil belgilar qo'ysa, dadam po'lat qalam bilan ketmonning yelkasiga egasining otini yozib qo'yar, dehqon xat bilmasa ham, bunga juda qiziqar, xursand bo'lar edi.

Buvaydining "to'ngak ko'chiradigan shamollari" qattiq sovuq olib keldi. Har o'pqini bir jahon sovuqday mayda shakar qor yog'di. Sovuq kundan kun zabtiga olib, daraxtlarning shoxi bulduruqdan egildi. Musichalar tap-tap tushib o'laverdi. Shogirdimiz Kulala do'konda yotolmay, Chilon qorining qarollari bilan uning og'ilida yotib yurdi. Biz kunduz kuni do'konning eshigini berkitib, chiroq bilan ishlardik.

Mana shu kunlarning birida ko'chadan xotin kishining chinqirib dodlagan tovushi eshitildi. Hammamiz yugurib chiqdik. Bozorboshi tomondan dumi qisiq qora bir itni quvlab kelgan olomon "To's!" "Ur!" deganicha o'tib ketdi. Odam yig'ildi. Muzlab, afti burishib yotgan anhordan nari ko'chaning o'rtasida yosh bir juvon yotar edi. Kimdir: "Iya, Babarning xotini-ku!" dedi va qo'rquvdan, og'riqdan behush bo'lib yotgan juvonning yuziga sariq qiyig'ini yopib qo'ydi. Juvonni ko'tarib uyiga eltgani bolalarning kuchi yetmas, kattalar esa nomahram edi. Kimdir Babarni aytib kelgani chopdi. Juvonning quymichi va boldiridan oqqan qon qorni qizartirib, bug'lanib turar edi.

Hayal o'tmay, Babar yetib keldi va xotinini dast ko'tarib uyiga olib ketdi. Bolalar, birimiz suvga olib chiqilgan ko'zaning sinig'ini, birimiz juvonning kovushini, yopinib chiqqan to'nini olib uning ketidan ketdik. Babar Hatam samovarchining xizmatkori bo'lib, xotini bilan xo'jayinining tashqisida turar edi. Babar xotinini avaylab sandalning chetiga yotqizdi. Xotini hushiga kelib ingradi. Qo'shni xotinlar kirib kelishdi. Bulardan shaddod bir kampir Babarning qiyig'ini yechib oldi, ikkiga bo'ldi.

— Is bosib bog'lash kerak, darrov is top! — dedi.

Babar tovdondan, vassa bo'yra shipdan is yig'ib, kampirga berdi. Kampir yaralarga is bosib bog'ladi. Juvon anchadan keyin ko'zini ochib vahima ichida:

— Quturgan it edi, shekilli? — dedi.

Kampir unga tasalli berdi.

— Quturgan bo'lsa nima, ering Teshiktoshga olib boradi. Teshiktoshdan ikki marta o'tsang, ko'rmaganday bo'lib ketasan, — dedi, keyin o'zi bormagan, ko'rmagan bo'lsa ham, Teshiktosh haqida gapirib berdi. — Teshiktosh uzoq. Bachqirdan ham nari, bulut suv ichadigan daryoning bo'yida. Ovchilar shu daryoda bulut ovlashadi, suv ichgani tushganda otib olishaveradi...

— Oboraman, Xudo xohlasa, oboraman! — dedi Babar.

O'n kundan keyin Babar xotinini Olqordagi ammasinikiga olib ketdi, shu ko'yi o'zi ham zim — g'oyib bo'ldi. Oradan o'n kuncha o'tgandan keyin bozor kuni quloqlarini oq qiyiq bilan bog'lab olgan Babar ikki yelkasida obkash, qo'shquloqlarda qatiq, chambaraklardagi kosa va shokosalarda qaymoq, xalta va xaltachalarda qurut, suzma ko'tarib do'konimizga kirib keldi. U bozorga o'tib ketayotgan ekan, dadam bilan salomlashgani, undan ham ko'ra sovuq o'tib ketgan oyoqlarini isitgani qayrilibdi. Uning cho'ziq yuzi xiyla so'ligan, katta-katta ko'zlari kirtaygan, qo'llari kir, kiyim-boshi bir ahvolda, aftidan, kunituni g'am-koyish bilan bo'lib, o'ziga qarash ham yuragiga sig'mas ekan. Kulala oq tarashadan gulxan yoqib berdi, oldiga ikkita jirish non, bir siqim jiyda qo'ydi. Uning aytishiga qaraganda, xotini kechalari bilan ingrab chiqar, Babar uni tezroq Teshiktoshga olib borib, azobdan qutqarish uchun pul yig'ar ekan. Olqordagi sigirlik, lekin bozorga qatnolmaydigan odamlar qatiq-qaymog'ini va bozor-o'charini Babarga topshirib, uning xizmati badaliga hol-baqudrat bir nima berishar ekan. Babar hozirning o'zida ro'zg'ordan orttirib sakkiz tanga naqd pul qilib qo'yibdi, yana besh-to'rt tanga orttirsa, xotinini olib beto'xtov Teshiktoshga jo'nar ekan.

Babar isinib, non-jiyda bilan qornini to'yg'azib, xuddi qari odamday hammamizni duo qildi, qatiq-qaymoqlarini ko'targanicha bozorga tushib ketdi.

Bozor qaytish mahalida kimdir: "Babar o'g'irlik qilib qo'lga tushdi", — degan xabarni topib keldi. Bu aqlga sig'maydigan gap edi. Dadam voqeani bilib kelgani meni bozor boshiga yubordi.

Bozorda odam siyrak. Timdan beriroqdagi ko'chib ketgan misgarning do'koni oldida odam, ko'proq bolalar to'planib turishibdi. Qudrat cho'loq degan poyaki odamlarga kuyib-pishib gap ma'qullayotibdi. Bozorni aylanib yuradigan poyaki voqeadan boshdan oyoq xabardor ekan.

Babar oxirgi ikki xurma qatig'ini sotib, xaridor xurmani bo'shatib kelguncha qaymoq bozoridagi katta tolning tagida turgan ekan, kappon tomondan hayqiriq, "Ushla-ushla!" degan tovush eshitilibdi. Bir guruchfurush xaridordan pul olayotganda, birov pulga chang solib qochibdi. O'g'rining sherigi bo'lsa kerak, guruchfurushni o'g'ri qochgan tomonga emas, qaymoq bozoriga tomon yo'llabdi. Es-hushini yo'qotib qo'ygan guruchfurush to'g'ri kelib Babarning yoqasidan ushlabdi. Qo'rqib ketgan Babar guruchfurushni dast ko'tarib, boshidan oshirib tashlabdi. Guruchfurush o'rnidan tura solib jon achchig'ida dod solibdi va yana Babarga yopishmoqchi bo'libdi. Babar bir urib uni ag'daribdi. Voqeadan bexabar xalq o'zidan katta va sallali odamni urayotgan Babarni ushlabdi, otqorovulni chaqiribdi. Otqorovul uni ko'chib ketgan misgarning do'koniga qamab qo'yibdi. Hozir amin kelib uni so'rashi kerak ekan.

Aminni chuvalib ketgan sallasini qo'ltiqlab olgan guruchfurushning o'zi topib keldi. Amin Babardan gap so'ramay-netmay boshiga, yelkasiga bir necha qamchi urdi.

— Qani pul?

Babar nima bo'lganini, nima bo'layotganini tushunolmay garang bir ahvolda guppi to'nining cho'ntagidan bir siqim chaqa-tanga olib aminga uzatdi. Amin pulni olib, guruchfurushga berdi. Guruchfurush pulni olib, Babarga o'shqirdi:

— Qolgani qani?

Babar oxirgi ikki xurma qatiqning pulini so'rayotibdi, deb o'yladi, shekilli, xuddi uzr so'raganday:

— Hali olib keladi, Xudo ursin agar... — dedi.

Sovuqqa chidolmay yer tepinib turgan amin otqorovulga ko'z qisdi.

— Yana birpas tur, sherigini aytsa-aytgani, bo'lmasa dalaga olib chiqib otib tashla!

Babarning ko'zlari javdirardi:

— Meni nimaga ottirasiz, amaki, ottirmang... Xotinimni qu-turgan it qopgan, juda yomon qopgan, ishonmasangiz odam yubo-ring, uyda yig'lab yotibdi... Teshiktoshga olib boradiganman... Meni ottirmang, ishingiz bo'lsa buyuring, Hatam akadan so'rang, men ishdan qochadigan yigit emasman... Xotinim yig'lab yotibdi.

Amin chiqib ketdi. Guruchfurush tashqariga chiqib Babar ber-gan pulni sanab ko'rdi, pul mo'ljaliga biroz to'g'ri keldi, shekilli, otqorovulga bir miri choychaqa uzatdi:

— Qolganini undirsangiz, yana bir miri beraman, — dedi-yu, ketaverdi. Otqorovul Babarga baqirdi:

— Sherigingni aytasanmi yo otib tashlaymi?

Babar tushunolmadi.

— Mening sherigim yo'q, Olqordan bitta o'zim ko'tarib kel-ganman...

Otqorovulning jon-poni chiqib ketdi, uni turtib-tepib do'kon-dan olib chiqdi-yu, "otib tashlagani" Eshonbuvaning karvonsa-royiga tomon haydab ketdi. Bolalar duv ergashdi. Babar yo'l bo'yi yolvordi:

— Jon aka, meni otib tashlamang, Xudo xayr bersin... Xo-tinimni it qopgan, uyda yig'lab yotibdi...

Men do'konga yugurib kirib, voqeani aytdim. Kulala bilan dadam ham chiqishdi. Otqorovul Babarni saroyning to'ridagi teshikdan dalaga olib chiqdi. Bolalargina emas, birtalay katta odamlar ham yig'ildi. Otqorovul miltig'ini o'qladi, "Aytasanmi, yo'qmi?" deb bir-ikki o'shqirganidan keyin bir necha qadam orqa-ga chekindi-yu, Babarning kallasini qoraga olib o'q uzdi. Babar o'q kelib tegishini kutib bo'lsa kerak, og'zini, ko'zlarini katta

ochib, qimir etmay turar edi. Otqorovul orqasida turgan odamlarga yuzlandi.

— Yopiray, bunaqa battol o'g'rini umrimda ko'rgan emasman, ustidan oshirib o'q uzibman-u, kiprik qoqmaydi-ya!

Otqorovul Babarni eltib yana qamab qo'ydi.

Ertasiga Babar to'g'risida xunuk bir xabar eshitdik. Bu xabar rost ekan, tafsilotini otqorovul gapirib berdi.

Otqorovul Babarni gapga solib ko'ribdi, uning begunoh eka-nini bilgach, qo'yib yuborgani ijozat so'rab xuftondan keyin amin-ning uyiga boribdi. Amin mingboshinikiga ketgan ekan. Ming-boshinikiga shahardan mehmonlar kelgan, ziyofat avjida ekan. Otqorovul mehmonxonadagi xizmatkorlar bilan o'tirib qolibdi. Ziyofat saharga yaqin tugabdi. Otqorovul yo'lda Babar to'g'risida gapirgan ekan, amin "Iya, esdan chiqibdi-ku", deb jadallabdi. Ke-lib gugurt chaqib qarashsa, Babar dildirab, burchakka tiqilib o'tir-gan emish.

Uning ahvolini ko'rib amin "ayb o'zingda" deganday shovqin solibdi:

— Eshik qulf emas-ku, chiqib ketavermadingmi!

Babar tishi tishiga tegmay zo'rg'a:

— O'zingiz qamab qo'ydingiz-ku, poshsholik odamisiz, — debdi.

Amin eshikni katta ochib yuboribdi. Babar dildirab, do'kon-dan sekin chiqibdi, keyin birdan yuguribdi; yiqilibdi, o'rnidan zo'rg'a turib yana chopibdi... Kim biladi, sho'rlik, nima uchun Hatam samovarchining samovariga kirmabdi, nima uchun biron eshikni taqillatib tong otguncha boshpana so'ramabdi, "bemahalga qolganimdan xotinim xavotir bo'lib ko'chaning boshida o'tirgan-dir", — deb o'ylagan bo'lsa kerak!

Ertalab yo'lovchilar Olqorning kiraverishidagi yakka baqa-terak ostida cho'qqayib o'tirgan bir odamni ko'rishibdi; ertalabki quyoshning nurida erib to'kilayotgan bulduruq boshiga, yelkasiga tushsa ham, u qimir etmas emish. Borib qarashsa, Babar ekan! "Nima qilib o'tiribsan", — deb birov yelkasidan tortgan ekan, Ba-bar ag'anab tushibdi, bechora sovuq urib o'lib qolgan ekan.

Bilmadim, oradan qancha vaqt o'tdi ekan. Oqpordan bir dehqon ketmon peshlatgani keldi. Dadam undan Bahoning xotinini so'radi.

Dehqon anchadan keyin xo'rsinib javob berdi:

— Bechora eringa g'amida jinni bo'lib qoldi... Yomon jinni bo'ldi, o'zini urib, tishlab, ne azobda o'ldi...

Uni qutirgan it qopganidan bu odam bexabar ekan...

OQPOSHSHONING ARZANDASI

Valixon so'fi o'n kuncha goh o'zidan ketib, goh o'ziga kelib, ko'ziga ellanmalar ko'rinib, alahlab yotdi-yu, keyin og'ir kasalga chalinib, ikki oy deganda o'midan turdi.

Qish o'tdi, bahor o'tdi. To'ralardan oshnamiz borligini eshitgan bo'lsa kerak, Valixon so'fi bizga xarxasha qilmay qo'ydi, jabr ko'rganligi haqida hech kimga arz qilmagan bo'lsa kerak, chunki bir jihatdan, "chirog'poya" og'ziga oladigan gap bo'lmasa, ikkinchidan, to'ralar oldida mingboshi-yu yuzboshi ham qo'l qovushtirar edi.

Bundan tashqari, yozda yurt notinch bo'lib qoldi.

German bilan urush boshlanganligi xabarini biz Yaypanda ikki oydan keyin, o'shanda ham tasodifiy suratda eshitgan bo'lsak, oqposhsho urush ishlariga musulmonlardan mardikor oladigan bo'lganini uch kunga qolmay eshitdik.

O'n to'qqiz yashardan o'ttiz bir yashargacha hammani olarmish!

Buvaydi bo'lisiga besh ming o'n ikki kishi tushibdi!

Bu kunlar dehqonchilikda qizg'in ish pallasi bo'lishiga qaramay, har kuni namozgarga yaqin ko'chalar, guzar gavjum, tinmay tagidagi ikkita samovarga odam sig'ishmaydi. Bosinqi g'ovur: "Ey Xudo!" "Zolimga o'zing insof ber!" degan nidolar...

Dadam har hafta-o'n kunda temir, ko'mir keltirgani Qo'qonga tushib turardi. Umrida shaharni ko'rmagan ko'pchilik dehqonlar uni dunyodagi hamma gapdan xabardor deb o'ylashar, shuning uchun do'koningiz oldidan odam arimas edi.

Bu kunlarda dehqonlarning o'zlari ham gapning uyasi bo'lib qolishdi.

— Mardikorlikka olingan odamlarni zavodga solib ko'zini ko'kartirar emish. Odamni bu eshigidan kirgizib zavodni bir bo'kirtirsa, narigi eshigidan ko'zi ko'karib, nonni teskari tishlab chiqaverarmish.

— Mardikor o'lsa, o'ligini sandiqqa solib tikka ko'marmish!

— Mardikor kasal bo'lsa, oyog'idan osib, og'zidan mo'miyo olarmish.

— Qof tog'ida bir mergan ov qilib yurgan ekan, qarasa, kalladay keladigan bir tosh pastdan yuqoriga yumalab ketayotgan emish. Mergan toshni olib gubirnatirga eltib beribdi. Gubirnatir uni oqposhshoga yuboribdi. Oqposhsho toshni yorib qarasa, ichidan oppoq panja chiqibdi. Posh sho kulibdi, panjani taxtining poyasiga qo'yib, qilich bilan qiyma-qiyma qilib tashlabdi.

Bunaqa mish-mishlarning son-sanog'i yo'q edi.

Qishloq kattakon azaxonaga o'xshab qoldi: bosinqi g'ovur, oh-voh, ko'z yoshi. Hamma kutadi, hademay, o'lik chiqishi, butun qishloqni boshiga ko'targan qiy-chuv, yig'i-sig'i, dod-faryod ichida tobut ko'tarilishi, ya'ni mardikorga olingan kishilarning ro'yxati e'lon qilinishi kerak.

Biroq ro'yxatdan darak yo'q. Yurt og'alari bo'lmish mingboshi, Chilon qori, katta machitning imomi Sharofiddin maxsum, yuzboshi, Abdurahmon paxtafurushlar maslahat qilishgani qilishgan. Bulardan birontasi ko'cha yo guzarda ko'rinmaydi. Odamlar bularni uylaridan ham topisholmaydi.

Birdan duv-duv gap bo'lib qoldi: "Hamma xatga tushgan ekan, yuzboshi Toshkentga dilg'irom yuborib, paxta ekkan chorakorini so'rab olibdi, o'rniga shahardan mardikor olib beribdi". Hali ro'yxat e'lon qilinmasdan turib, "Men ham paxta ekkan edim", — deya mingboshining ostonasiga bosh urgan dehqonlar, "Mening bolamni, mening erimni chorakor, qarol qilib oling, o'la-o'lguncha xizmatingizni qiladi, qulingiz bo'ladi", — deb yuzboshining oyog'iga yiqilgan ayollarning hisobi yo'q edi. Bir tomonda yig'i-sig'i, bir tomonda g'ovur, hayqiriq, qarg'ash...

Bu orada "ko'zni ko'kartirish", "oppoq panja" va boshqa mish-mishlar o'rniga chin xabarlar tarqala boshladi: Xo'jandda xalq g'ulu ko'taribdi, toshkentliklar "biz mardikor bermaymiz", deb mahkamaga borishibdi, falon joyda xalq mingboshining uyiga o't qo'yibdi, falon qishloqda odamlar aminni alamon qilishibdi...

Nihoyat, yurt og'alari hamma mahalladan ellikboshi bilan imom va obro'li kishilardan bir-ikkitasini chaqirib, yig'in qilishdi. Yig'inda katta machitning imomi mulla Sharofiddin yurt og'alari vakolati bilan va'z aytibdi, "amri podshoh vojib" degan gaplardan keyin: "Mardikorlikka xohlagan odam boradi, xohlamagan bormaydi, o'rniga odam beradi", — debdi. Bu gap har bir xonadondagi, butun qishloqdagi azani to'yga aylantirib yubordi. Biroq bu xursandchilik ko'pga bormadi. Olinadigan mardikor jo'natiladigan kun aytilgach: "Xohlamagan odamning o'rniga kim boradi va buning evaziga nima so'raydi?" — degan savol hammaning giribonidan tutdi.

Mahallada "Poshsholik jinni" deb ataladigan Ro'zi gov degan ovsar bir yigit bor edi. Qachondir Buvaydiga kattaroq bir to'ra kelganda Ro'zi govga yarim tanga siylov berib, yelkasiga qoqib qo'ygan ekan, shundan beri uni poshsholik jinni deb atashar ekan. Uning jinniligi shundan iborat: jini suymagan itni pichoqlab tashlaydi, qatiqdan qo'rqadi, vaqti chog' bo'lgan vaqtlarda hamisha shu ashulani aytadi:

Olma bersam olmaysan,
Behi bersam olmaysan,
Qaysi boyning qizisan?...

To'ra yelkasiga qoqqandan beri Ro'zi gov qorni ochsa, ro'para kelgan eshikni qoqib ovqat so'rar ekan. Mardikorlikka o'z ixtiyori bilan borishga xohish bildirgan kishi faqat shu bo'ldi. Uni Chilon qori ukasining o'rniga yuborgani shoshib-pishib yetmish besh so'mga sotib oldi. Undan keyin odamning narxi yuz, sal kunda ikki yuz, hatto uch yuz so'mga chiqdi. Kimdir yetti yuz ham so'rabdi.

Yurt og'alari yana qishloqning kazo-kazolarini chaqirib yig'in qilishibdi. Yig'inda, to'ralarning ra'yiga muvofiq, shu yurt og'alaridan iborat yuzboshi boshliq mahkama tuzilibdi. Mahkamaning vazifasi mardikor olishda poshsholikka yordam berish, shu bilan birga, mardikorlikka ketadiganlar va ularning bola-chaqasiga qarashishdan iborat ekan. Mahkama nomidan yuzboshi gapirib, xalqqa achinibdi: "Odam yollagani pul topsa, odam topolmaydi, mahkama xalqning bu mushkulini ham oson qilishi kerak", — debdi. Uning bu gapi o'sha kunni hayitga, tunni bozorshabga aylantirib yubordi. O'sha kuni: "Yuzboshi buvam yaqinda mingboshi bo'larmishlar", — degan gap tarqaldi.

Mahkama mardikor puli yig'gani har mahallaga ikkitadan vakil tayinladi, xalqdan yig'ilgan pulga odam sotib olgani shahar va bo'lis bozorlariga kishilar yubordi.

Bizning mahalladan mardikor puli yig'gani o'zimizning ellikboshi bilan Valixon so'fi tayinlangan ekan, ikkovi do'konimizga keldi. Dadam boshqa ish bo'lmaganidan bozorchilardan tushgan pichoqlarni charxlab o'tirar, Kulala charx tortar edi. So'fi dadamning yuziga qaramasa ham, ortiq darajada mulozimat ko'rsatdi, hol-ahvol so'radi, hatto menga ham so'z qotib: "Ha, qochoq!" deb qo'ydi. Dadam shahar aksi urgan, zakonchiroq odamligidan bexabar ekan, shekilli, yangi ellikboshi gapning po'skallasini aytdi-qo'ydi.

— Qani, usta, puldan chiqarasizmi, yo mardikorga borasizmi? Besh yuz so'm berganlar ham bo'layotibdi, siz uch yuz so'm bersangiz bas, kosib odamsiz...

Dadam uning so'zini hazilga yo'ydi:

— Oqposhsho "bolg'angni uraver, senga hech kim tegmaydi" degan-ku?

Valixon so'fi kuldi.

— Biz ham shuni aytyapmiz, — dedi shoshib. — Mardikor pulini bering-u, joyingizdan qimirlamang!..

Dadam yana ham muloyimroq, yana ham hazilga taqab dedi:

— Mardikor puli xatga tushgan, lekin o'zi bormay, o'rniga odam beradigan kishiga chiqqan bo'lsa kerak? Men xatga tushgan emasman, yolg'izqo'l kosib, bola-chaqalik odamman.

Ellikboshi so'figa qaradi. O'lganining kunidan g'azabini ichiga yutib turgan so'fining rangi o'zgardi.

— Hamma vaqt yurtdan o'zingizni chetga tortasiz-da, usta! Yurtga kelgan to'y ekan, nima qilasiz gapni ko'paytirib! Sakkiz oydan beri to'shakda yotgan Odil buva ham xatga tushgan emas, lekin berdi, yuz so'm berdi! Madrayim cho'loq ham xatga tushgan emas, lekin qatordan qolgani yo'q! Rahmatlik Norbo'tamng xotini tul boshi bilan topganini tutib o'tiribdi! Kalonasini o'g'irlab yotgan bir kasal chol, tug'ma bir cho'loq, bir tul xotincha lik emasmisiz?! Qo'ying-e! Xudo urdi-ketdi!

So'fi qo'liga tushib qolgan qayroqni uloqtirib yubordi.

Bular bilan gap talashish yuzboshi va boshqa baloxo'rlarning og'zidagi suyakka qo'l uzatib, ularni irillatish bo'lar edi. Bular irillasa har chog' dadamga og'iz solishi, har qanaqa qilib bo'lsa ham, uni mardikorlikka berib yuborishi mumkin edi. Shuning uchun dadam yon berdi.

— Bisotimda ellik so'm pulim bor. Yozda ish yo'q, kuzda temir, ko'mir kerak...

So'fining ko'zlari shoxsoqqaday irg'ib chiqdi.

— Mayli o'shani ham bermang! Yurtdan chiqdim, deb qo'ya qoling! Yurtdan chiqing, bir paqiringiz ham kerakmas!

Yurtdan chiqish — tiriklay go'rga kirish degan so'z. Uzoq savdolashgandan keyin dadam ikki yuz ellik so'm berishga rozi bo'ldi. Buning ellik so'mi naqd, ikki yuz so'mini uch kun ichida birovdan qarz ko'tarib berishi kerak edi.

Dadam ikki yuz so'm so'rab, har yili bahorda dehqonlarga bo'hak va qarz beradigan Chilon qoriga uchradi. Qarz shu chog'gacha yuz so'miga o'n so'm foyda bilan berilar ekan, mardikor puli chiqqandan beri tobora ko'tarilib, yigirma, o'ttiz, hatto qirq so'mga yetibdi. Dadam shu mahallalik temirchi bo'lib, vaqt-bemahal foydasi tegishini, ishni arzon va ikir-chikirni bepul qilib berishini nazarda tutib, Chilon qori ikki yuz so'mni yuziga yigirma besh so'm foyda bilan qarz beribdi.

Dadam pulni ellikboshiga eltib berdi. Ellikboshi ikki yuz ellik so'mni olib "qizil qog'oz"ni yigirma so'mga beribdi, dadam "Nega bunday?" deb so'rasa, ellikboshi: "Tushgan pulni hukumat bilib qolsa, "xalq boy ekan" deb o'lponni ko'paytiradi", — debdi.

Pul yo'q, ish yo'q, dadam diqqat, yuragiga qil sig'masdi.

Bir kun kechki payt dadam ikkovimiz otyo'lakda yong'oq o'ynayotgan bolalarning o'yinini tomosha qilib, muyolishdagi xarsangtoshda o'tirgan edik, Ali laylak kelib qoldi. Uning ham kayfiyati yaxshi emasdi, mardikor puliga ho'kizini sotib beribdi.

— Buning hammasi xotintaloq yuzboshidan chiqyapti, — dedi Ali laylak nafasi titrab. — Poshsholik, mardikorlikka hamma borsin, degan emas ekan, bu zang'ar mardikor pulini hamma xonadondan olyapti, yurtning boshiga kelgan ko'rgulikni qoshiq qilib xalqning qonini ichyapti. Qishloqni qarzga ko'mib tashladi. Noinsof, yuz so'mga o'ttiz besh, qirq so'mgacha foyda qo'yyapti.

Ali laylakning jo'ralaridan ko'pi mardikor puli bergani qurbi yetmay, o'zi boradigan bo'libdi. Bulardan biri — Ermat degan yetmay, o'zi boradigan bo'libdi. Bulardan biri — Ermat degan yigit mardikor puliga, yerini sotib bermoqchi bo'lgan ekan, yuzboshi yarim baho qo'yibdi. Yuzboshi shafe, shafeligidan kechmaguncha yerni boshqa odam ololmas ekan. Ali laylak qishloqning yigitlarini so'ka ketdi.

— Bu zamonning yigitlari bezalak bo'lib ketgan! Zog'ora unday qovushmaydi! Buni yuzboshi ham, boshqasi ham biladi-da, shuning uchun hech narsadan tap tortmay qilg'iligini qilaveradi. Hammamiz lattamiz, latta bo'lmasak, bu zang'ar yuzboshining har boshiga ming balo yog'dirmasmidik! Yarim paqir tillani o'tda eritib, uning to'ymas ko'zlariga, bo'g'ziga quymasmidik!..

Ali laylakning tiliga chiqqan bu gaplar, nazarimda, dadamning, balki, butun qishloqning dilida o'ta dog'langan yog'day tutab yotar edi.

Haqiqatan, shunday bo'lib chiqdi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Bir kuni namozgar paytida bozorboshidan ustma-ust ikkita o'q chiqdi. Hayal o'tmay, yana uch-to'rtta o'q otildi, undan keyin o'q bodroq bo'lib ketdi. Kulala ikkovimiz ko'chaga yugurgan edik, dadam qaytardi, urishib berdi, borib eshikni zanjirlab keldi. O'q ovozi siyraklashdi, lekin dod ovozi eshitildi: "Voydod!.. Voydod! Yuzboshini o'g'ri bosdi, kelaver!" Dodlagan odamning o'zi bo'lsa kerak, ashula boshladi: "Oyda, yilda bir kelgan mehmonidan ayrilmasin..."

Qorong'i tushguncha qadar goh yakka-dukka o'q, goh dod, goh ashula tovushi eshitilib turdi-yu, birdan jimidi. Shu jimigani-

cha ertalabgacha, butun qishloq yerning qa'riga kirib ketganday tiq etgan tovush chiqmadi. Dadam bomdodda machitga chiqib xabar topib keldi: o'g'rilar yuzboshini jodida uch bo'lak qilishibdi, keyin kerosin sepib o't qo'yishibdi. Keyinchalik gap chiqdi: o'g'ri bosganda yuzboshining shaharlik qayinsinglisi tomga chiqib yantoq orasiga yashiringan, o'sha yerda turib o'g'rilarning nomini etagiga yozib olgan, butun bo'lgan ishni ko'rib turgan ekan. Ummat degan bir yigit yuzboshining oldiga bir etak tilla to'kibdi, "yegin", debdi. Yuzboshi tilladan yutolganicha yutib, oxiri yutolmay qolganidan keyin Ummat uning og'ziga tillani zo'rlab tiqibdi.

Peshindan keyin Kulala ikkovimiz dadamning yo'qligidan foydalanib tomma-tom timgacha borib, timning tepasiga chiqib oldik. Bu yerdan Qo'qon yo'li Buvaydining kiraverishi, yuzboshining toki va uning ostida ko'k ayvoni baralla ko'rinib turar edi.

Buyog'i yuzboshining darvozasigacha, uyog'i Qo'qon yo'li — ko'chaning ikki tomoni liq odam. Butun Buvaydi go'yo ko'chib chiqibdi. Hamma salla o'ragan. Otqorovullar uyoqdan buyoqqa chopgan, yo'rtgan, qattiq shivirlab kimgadir dashnom bergan, safdan salgina chiqqan odamni yuzi-ko'zi demay qamchilagan...

Xiyla vaqtdan keyin Qo'qon tomondan bir to'da otliq ko'rindi. Xalq bir gurulladi-yu, darrov jimidi. Allaqanday tovushlar, hayqiriqlar eshitildi. Xalq engashdi. Otliqlar asta-sekin yaqinlasha boshladi. Oldinda oq kiyim, oq shapka kiyib, sariq pogon taqqan uchta to'ra, ularning o'ng tomonida o'zimizning mingboshi, chap tomonida katta salla o'ragan kishilar, orqada birtalay soldat. Bular ikki tomonda engashib turgan xalq orasidan o'tib o'ng tomonga, yuzboshining hovlisiga tomon burilishdi, otdan tushmay darvozadan kirib ketishdi. Xalq hamon engashganicha qimirlamay turar edi. Biz yuzboshining hovlisiga yaqin borgani qo'rqdik.

Xalq asta-sekin qomatini rostladi. Hayal o'tmay, "chiqdi-chiqdi" degan gap o'rmaladi. Xalq yana engashdi. Shu ahvol namozgargacha davom etdi. Namozgargacha xalq necha-necha qomatini rostlab, necha-necha engashdi. Nihoyat, namozgarga yaqin otqorovullar shovqin solib, to'ralar chiqayotganidan xalqni xabardor qildi. Xalq yana engashdi. Otliq to'ralar, ularni kuzatib qishloq kazo-kazolari darvozadan chiqishdi. Ularning ketidan soldatlar yigirmadan ortiq dehqonni qurshab, Qo'qonga haydab ketishdi. Bularning orqasidan hech kim ergashmadi.

To'ralardan biri birovni so'roq qilayotib, yuzboshini "Oqposhshoning arzandasi edi", — debdi. "Bandilarni oqposhshoning o'zi so'roq qilar emish", degan gap tarqaldi.

Dadam bilan Ali laylak to'ralar kelishi xabarini eshitgan zamon Valixon so'fining chaquvidan qo'rqib, dadamning Tolliqdagi bir oshnasinikiga qochib ketishgan ekan, dadam yarim kechasi keldi.

DUKCHI ESHONNING KO'LANKASI

To'ralar shuncha odamni haydatib ketdi-yu, go'yo qishloqning tepasiga shapkasini ilib qo'ydi: xalq hamon engashib turganday, hamma yoq jimjit, na biron tovush chiqadi, na oh-voh. Ali laylak aytmoqchi, "yig'lagan ham yengiga yig'lar" edi.

To'ralar haydatib ketgan odamlardan biri, yo'q, ulardan biri emas, anglashilmovchilik orqasida to'pga qo'shilib ketgan Madrayim degan bir yigit Qo'qondagi "Oq uy"da besh oy yotib qaytib keldi. Soldatlar bandilarni Uchko'prikdan haydab o'tayotganda bu yigit nima bo'lib ko'prikning ustida turib qolgan ekan, oldingi soldatlar indashmabdi-yu, orqadagilardan biri uni to'pdan chiqib qochmoqchi bo'lgan bandi gumon qilib, miltig'ining qo'ndog'i bilan yelkasiga bitta tushiribdi-da, bo'ynidan itarib to'pga qo'shib yuboribdi. Soldat, to'ra yo biron amaldor bir nima qilsa "nega, nima uchun", deb so'rash hech kimning xayoliga kelmaydigan bo'lgani uchun Madrayim to'pga qo'shilib ketaveribdi. Turmada uni ro'yxatga yozib qo'yishibdi, ehtimol, bandilarning o'zlari jo'rttaga yozdirishgan bo'lsa: yaxshigina ovozi bor, ba'zan o'zi qo'shiq ham to'qir ekan:

Osmondagi parrandalar, borib aytinglar:
Farzandingiz Qo'qondagi "Oq uy"da, deng lar:
Sim-sim dedim, simlar dedim, simlar qo'ynimda,
Zarra gunoh menda bo'lsa qilich bo'ynimda...

Besh oy o'tib Madrayimning butkul gunohsizligi ma'lum bo'lgandan keyin kulib-kulib qo'yib yuborishibdi. Madrayim mardikorlikdan qochib kelgan va qo'lga tushib qamalgan ikki qo-chaq bilan hamgap bo'libdi. Bular mardikorlikka borilgan yurt — "sovuq do'zah" deyishibdi, u yerdagi mehnat, tirikchilikning "maqtov"ini xo'p keltirishibdi: burnini, qulog'ini, oyoq-qo'lini sovuqqa oldirib, puchuq, chinoq, cho'loq bo'lganlarning hisobi yo'q; qo'li, oyog'i kesilib, keliga o'xshab qolgan sho'rliklar ham bor ekan; ochlikdan, sovuqdan o'lganlarning o'ligi ko'miltuay yirtqichlarga yem bo'lar ekan... Mardikor olinayotgan kunlari mo'miyo olarmish", degan mish-mishlar bu gaplarning oldida hech narsa bo'lmay qoldi.

Laylakqor urib turgan bir kun edi. Birdan bozorboshida dod-faryod ko'tarilib qoldi. Dadam xabar olib kelgani meni bozor-boshiga yubordi. Timning ostiga behisob xotin-xalaj to'plangan, qiy-chuv, bolalar yig'lagan... "Uying kuysin, mingboshi!" "Bolang o'lsin, yuzboshi!" Katta machitning imomi Sharofiddin so'riga chiqib ayollarga xitob qildi:

— Musulmonlar! Yurtbuzar kazzoblarning so'ziga inon-manglar! Yarim podshohimiz Kuropatkin hazratlari qo'l ostlaridan mardikorlikka ketgan farzandlarining holidan har kuni va har soat xabar olib turibdilar. Hamqishloqlarimiz Xudoning panohida va podsho hazratlarining himoyatida sog'-salomat rizqlarini terib yeb yuribdilar. Inshoolloh, yaqin fursatda diydor ko'rishamiz. Uoho omin!..

Hamma gurullab fotihaga qo'l ko'tardi. Ayollar birpas jim bo'lib yana yig'i, g'uvur, shovqin-suron, qarg'ish boshlandi.

Hech qachon shop-shalop taqib yurmagan mingboshi shop-shalopini taqib, miltiqli uch yigit bilan tinga kirib keldi.

Ayollar birpas jim bo'lishdi-yu, yana ham qattiqroq shovqin-suron ko'tarishdi.

— Uying kuygur, mingboshi, erimni topib ber!

— Barqadar topmagur, bolamni topib ber!

Miltiqli yigitlarning dag'dag'asi, havoda o'ynagan qamchilar ham ayollarga kor qilmas edi. Bir xotin, paranjisi boshidan tushib ketganiga qaramay, shovqin solganicha olomonni yorib o'tdi-yu, qo'lidagi bolasini mingboshining oyog'i ostiga qo'ydi.

— Ol, o'zing boq, uying kuygur!

Uning ketidan yana bir necha xotin bolasini mingboshining oyog'i ostiga tashladi. Dod-faryod yer-ko'kka sig'mas edi. Mingboshi ikki-uch qadam orqaga chekindi, miltiqli yigitlar bolalarni olib onalariga, onalari olmagandan keyin ro'para kelgan xotinlarga tutqizishar, bolalar chirillab yig'lashar edi.

Mingboshi boshiga yog'ilib turgan qarg'ish va haqoratlardan g'azablanmadi; har bir xotin orqasida yuzlarcha, minglarcha erkak-ayol turganini sezdi, shekilli, ularni yaxshi gap bilan insofga keltirgani urindi, nihoyat, orqasi bilan yurib borib so'riga chiqdi.

— Shoshmanglar, quloq solinglar! — dedi, — birlamchi, g'alamis odamlarning gapiga quloq solmanglar, ikkilamchi, o'zlaring bilasizlar, mardikorlikka ketganlar ko'pi bilan olti-yetti oyga ketgan, qo'sh mahaligacha bitta qolmay keladi.

— Bitta qolmay o'ladi! — dedi bir xotin baqirib.

— O'lmaydi... Uchchilamchi, hammamiz bir musulmonmiz, bir-birimizga tikan kirishini ravo ko'rmaymiz, men sizlarga aytib qo'yay: poshsholik bilan o'ynashib bo'lmaydi, bitta o'ynashgan andijonlik Dukchi eshonmidi? Bu voqeani bilganlardan so'ranglar. Bilgan odam bo'lmasa, men aytib beray: shu odam poshsholik bilan o'ynashib, o'zi bilan o'n bir kishining boshini yedi — hammasi osildi!

Shu yerda boshiga to'ncha yopinib turgan bir kampir yig'lab:

— Rost, shundoq bo'lgan edi, — dedi.

Mingboshi darrov uni qo'lidan tortib, so'riga chiqardi.

— Gapiring, ona, ko'rgan bo'lsangiz bularga gapirib bering! — dedi.

Kampir qo'rqib ketdi, mingboshiga qaradi, mingboshi "gapir" deb turganidan keyin, titrab, goh xalqqa, goh mingboshiga qarab gapirdi:

— Rost, o'n bir kishi osilgan edi... Ibrat qilgan edi... O'n bir kishini osganda ibrat bo'lsin, deb butun Andijondagi bolalarni yig'ib kelgan edi... O'shanda mening Kenjaboyim qo'rqib shaylonlab qolgan edi.

Hali ayollarga qo'shilib shovqin solgan, yig'lagan bu kampir, aftidan, hozir nimaga guvohlikka o'tayotganini o'zi ham bilmas edi.

Mulla Sharofiddinning "yurtbuzar odamlar", "yaqin fursatda diydor ko'rishamiz" degani mingboshining "g'alamis odamlar", "mardikorlar qo'sh mahalligacha bitta qolmay yetib keladi" deganiga to'g'ri kelgani, ya'ni ikkovining gapi bir joydan chiqqani ayollarga tasalli berdi, Dukchi eshonning vahimali ko'lankasi esa kor qildi.

Ayollar tim ostidan ketgan bo'lsa ham, hech kim uyiga kirmadi, layliakqor yog'ib turganiga qaramay, tor ko'chalarda hamon yig'i-sig'i davom etdi.

Men do'konga kelib, voqeani dadamga batafsil gapirib berdim. Qo'qon turmasidan mardikorlar to'g'risida gap topib kelgan Madrayimni shu kuni "bandi qilib, singa olib ketishdi", degan gap tarqaldi.

ARAFA

Hutning o'rtalarida kimdir Qo'qondan: "Oqposhsho taxtdan tushibdi, hurriyat bo'libdi", degan gapni topib keldi. Butun qishloq va har bir qimirtagan jonning poshshoga katta-katta da'volari, hurriyatdan behisob umid va orzulari borday, garchi da'vo va umid-orzular nimadan iborat ekanini hech kim aniq ayta olmasa ham, Buvaydi arafa tusini oldi. Hammaning nazarida, hurriyatning chashmasi — mardikorlikka ketganlarning beto'xtov, shu kuni, shu soatda qaytib kelishi, shu voqea bo'lsa, hurriyatning boshqa ne'matlari kelaveradiganga o'xshadi.

Bir hafta o'tdi, ikki hafta o'tdi, mardikorlardan darak bo'lmadi; aksincha, allaqayerda yana mardikor olinayotgani haqida ovoza tarqaldi. Jumbushga kelgan, asalarining uyasiday guvullagan qishloq yana jimjit bo'ldi-qoldi.

Hut o'tdi. Hamalning oxirlarida "Mardikorlarga javob bo'libdi", degan xabar keldi. Bu xabarga endi hech kim ishonmasa ham, mardikorlarning yaqinlari, qarindosh-urug'lari, yor-do'stlari, hatto begona odamlar ham "sovuq do'zax"dan eson-omon chiqib keladigan, yurtni ma'mur qiladigan "mard yigitlarning bir bo'lagi" bilan diydor ko'rishgani bozorboshiga, undan nari Uchko'prikka, qolaversa, bu yog'i Bag'dod, u yog'i Qo'qon stansiyasigacha boradi-o'n kun deganda yetib kelolmasligini hech kim tushuntirolmas edi.

Oradan ko'p o'tmay, mardikorlardan oldinroq sovuq bir xabar yetib keldi. Qo'qondagi katta to'ralardan biri: "Poshshoilik o'z izzati bilan poyezdga solib yuborgan mardikorlar keladi, izzatini bilmay, qochib ketganlar yetib kelolmasa ham ajab emas", debdi. Bu "qochib kelgan bo'lsa yoki endi poyezdda kelsa kelgani, yo'qsa o'lgani", degan so'z, buni qishloq ahli juda yaxshi tushunar edi.

Vaqtida mardikor puli qishloqning iligini quritgani uchun dehqon qishda kerakli asbob-uskunasini shaylab qo'yolmadi.

Ko'p xo'jaliklarning umidi mardikorlikka ketgan kishilaridan edi, buning ham tayini bo'lmadi. Shunday qilib, ko'klam haromi larish bo'lib o'tdi. Buning oqibati nima bo'lishini hamma bilar edi, shuning uchun qo'lida g'allasi bor dehqonlar, katta alloflar bozorga don chiqarmay qo'ydi. Buning ustiga, "hurriyatda chiqqan pul"ga odamlar shubha bilan qarashar, "hukumat loaqal ikki taxta oq tunuka ham topolmay, qog'oz tanga chiqargan bo'lsa, u yog'iga voy"[1], deyishar edi.

Ali laylak ho'g'ilar edi:

— Bu qiztaloq oqposhsho kelib-kelib ko'klamda, yer tobiga kelib, hansirab turganda taxtdan tushganini qara! Chilon qori bilan Egamberdiboy zamon nima bo'lishini bilmay har yili qarz,

[1] Muvaqqat hukumat tanga o'rniga marka chiqargan edi.

bo'nakka beradigan pulini tishining kavagiga tiqib qo'ydi, birovga bir mini bermaydi!

Natx-navo ko'taritib keldi. Qimmatchilik hademay pulga non topilmaydigan qahatchilikka aylandi.

Ochlik bo'lganda dehqon kelisining kiri, tegirmonchi do'ppisining changi bilan bo'lsa ham nariroqqa borib oladi, lekin kosibga qiyin. Temir, ko'mir qimmatligi ustiga, odamlar hech narsa buyurmay, bech narsa so'ramay qo'yishdi. Ish yo'q. Qani endi birov loaqal bitta pichoq charxlatsa!

Dadam har ehtimolga qarshi do'konni ochib o'tirar, Kulala ikkovimiz bitta charxni ko'tarib ko'chama-ko'cha, qishloqma-qishloq kezar edik. Biror ish chiqib qolsa, Kulala charxlaydi, men charx tortaman. Asbob og'irroq bo'lsa-yu, qiynalib ketsam, asbobning egasi menga rahm qilib, charxni o'zi tortar edi. Bu qilgan ishimiz badaliga pul emas, dadam tayinlaganicha "chaynasa yumshaydigan nima bo'lsa" olar edik.

Ayam har kuni erta-yu kech irim qilib dasturxon yozar, "chaynasa yumshaydigan" hech narsamiz bo'lmasa, quruq choy — tutning bargi, jiydaning po'stlog'ini damlab ichar edik. Bir kuni ayam ko'ziga yosh olib, dadamdan o'pkalaydi:

— Beg'amsiz, ro'zg'orning g'amini yemaysiz, semirib ketyapsiz, — dedi.

Dadam kuldi.

— Men semirsam mayli, sizlarni semirishdan Xudo saqlasin, — dedi.

Dadam semirgan emas, shishgan ekan...

Shu kunlarning birida dadam qora sigir yetaklab keldi. Sigir bo'g'oz edi. Keyin bilishimcha, sigirni dadam "zingertik boy" bo'lgan vaqtida orttirgan to'pponchasiga alishgan, to'pponchaning ustiga ikkita qo'shtig' miltiqning quvurini kesib, qisqartib, ilonning boshiga o'xshash uchta dankov — kurakcha yasab bergan ekan. Deyarli har kecha birovning uyiga bosqin bo'ladi, devorini teshib, molini olib ketadi. "Bosma", "teshma" degan gaplar ko'p eshitilar edi. Buvaydi bilan Qo'qon yo'lida qaroqchilar ham paydo bo'ldi.

Qora sigirning dumiga tikilib, tut pishig'iga yetib oldik.

Har kuni kechasi dadam bilan Kulala dala aylanib, yashiriqcha xashaki tut qoqib kelishar edi. Tez kunda bu serunig', shilimshiq xashaki tut qoqib kelishar edi. Tez kunda bu serunig', shilimshiq meva ko'ngillarga tegdi, harchand och bo'lsak ham, og'izga olgani yuragimiz bezillar edi. Shundan keyin uning suvini siqib shirni qiladigan bo'ldik. Bu ham jonga tegdi. Shirinni ko'rishim bilan og'zim suv ochar, ko'nglim aynir edi. Ukam Umarali shirinlik kosani uzoqdan ko'rsa ham g'ingshiydigan bo'ldi. Umarali, biron nojo'ya ish qilsa, men uni: "Hozir shirni yalataman!" deb biron nojo'ya ish qilsa, men uni: "Hozir shirni yalataman!" deb qo'rqitardim.

Arpaga o'roq tushdi, meva-cheva chiqdi, lekin baribir qahatchilikning dami qaytmadi. "Kunjara yebdi", "Uyida shishib o'lib qolibdi", "Falonchi qizini simlikka[1] beribdi", degan gaplar tez-tez eshitilib turar edi. Nazarimda:

Shaftoli shoxi larzon,
Har mirsadan qiz arzon,
Bahosini so'rasang,
Qalmi ko'ylak, bo'z ishton...

degan ashula o'shanda chiqqan edi.

Toleyimizga sigirimiz tug'ib berdi. Biz tutxo'rlikdan sutxo'rlikka o'tdik. Sut, qaymoq, qatiq, yog', suzma, qurut... Ba'zan dasut-qaymoqni donga alishar edik. Xiyla joniniz kirib qoldi. Dadam ba'zan hazillashib ayamga: "Sigirning dumidan mahkamroq ushla, bu jonivor bizni qilko'prikdan o'tkazib qo'yadi", derdi.

Men ba'zan ish bo'lganda damgarlik, bekorchilikda do'kon poylashdan ozod bo'lib, qo'riqda sigir boqadigan bo'ldim. Dadam har kuni ertalab yarim so'mga tuyaning ko'ziday zog'ora non olib beradi, men shu ketganimcha namozgarda qayterdim. Qo'riqda mendan boshqa molboqar bolalar ham bor, biz payt poylab bir-birimizning sigirimizni emar edik.

Hamalning o'rtalarida javob berilgan mardikorlar javzoning boshlarida bittadan-ikkitadan bo'lib kela boshladi.

Bularning qaytishi qishloqqa vabo oralagan kunlarga to'g'ri keldi.

---

[1] Sim — hozirgi Farg'ona shahri.

Ko'chamizning oxiridagi go'ng to'kiladigan maydonda bo'yra darvoza bo'lib, bu Abdurahmon buva degan ayolmand bir mo'ysafid dehqonning qo'rasi edi. Chol uch o'g'lini uylantirgan, beshta qizini uzatgan, sakkiz oila, bir dunyo nevara-chevara bo'lib, qo'rada qariyb bir mahalla odam turar edi. Bir hafta ichida mana shu qo'radan uchta o'lik chiqdi. Undan keyin Abdurahmon buvaning bozorboshilik ilyani qazo qildi. Uning yigirmasi o'tmay turib, Abdurahmon buvaning o'zi vafot etdi. Qishloq bo'ri oralagan qo'tonday besaranjom bo'lib qoldi. Machitlar to'la — hamma, hatto dadam ham namozxon bo'lib qoldi. Bemahal qichqirgan xo'roz, yer tirnalaydigan itlarga qiron keldi. Kimdir go'ristondan qaytgan tobutni to'nkarib qo'ymagan ekan, odamlar uni olomon qilib yuborishayozdi. Allaqaysi mozorning g'oridа chilla o'tirgan bir aziz Abdurahmon buva to'g'risidagi gapni eshitib: "O'sha qo'radan chiqqan eng birinchi murdaning oyog'i chalmashib qolibdi, murdaning oyog'i chalmashsa, urug'ini tortadi", debdi. Abdurahmon buvaning uzoq-yaqin hamma qarindoshlari jon achchig'ida oyoqqa bosishdi va o'sha murdaning qabrini ochib, oyog'ini to'g'rilab qo'ygani qishloqning o'rtasidagi tepalik — go'ristonga yig'ilishdi. Talay tomoshabin ham bor edi. Biz, bolalar, daraxtlarning shoxiga, tomlarga chiqib uzoqdan qarab turdik. Yig'ilgan odamlar orasidan yig'i-sig'i eshitilib turgan edi, birdan g'ovur ko'tarildi-yu, yana tindi. Birozdan keyin yana yig'i-sig'i boshlandi, lekin uzoq davom etmay darrov jimi-di. Odamlar asta-sekin tarqalishdi. Shu bilan Abdurahmon buvaning urug'idan boshqa hech kim o'lmadi. Oradan uch-to'rt kun o'tar-o'tmas dadam "qishloqqa vabo kelgani rost, shekilli, Isomiddin ellikboshini olib ketibdi", deb keldi. Shundan keyin ajal kalxat singari qishloq ustida jimgina parvoz qilib, har kuni bir, ba'zan ikki, hatto uch xonadonni qon qaqshata boshladi. Qishloq vahima ichida, hech kim uyidan chiqmas edi. Qo'shnimiz Hatam sartovarchi qazo qildi, janoza o'qigani, tobut ko'targani odam bo'lmay, o'lik peshingacha turib qoldi.

Mardikorlarning kela boshlashi mana shu kunlarga to'g'ri keldi. Har kuni qishloqning har tomonidan yig'i chiqadi — birov vabo yo ochlikdan o'lgan, yo qazo qilgan biron kishining mardikorga ketgan yaqin kishisi kelgan, yo bo'lmasa mardikordan qaytgan kishi birovning o'limi xabarini olib kelgan bo'lar edi.

Sunbulaning oxirlarigacha ko'p hovlilar, butun-butun mahallalar huvullab boyqushxonaga aylandi. Bu hovlilarda pishgan mevalar, yegani odam bo'lmay yoki odamlar hazar qilib, to'kilgan joyida chirib, shoxida qolib ketar edi. Nihoyat, o'likdan "yer to'ydi" — vabonin shiddati susaydi. Kuzning madadi bilan ochlik ham sepsildi. Odamlarga biroz darmon kirdi.

Qo'qonlik amaldor aytmoqchi "poshsholik o'z izzati bilan hoyezdga solib yuborgan" mardikorlar mezonga qolmay batamom yetib kelishdi, "izzatini bilmay qochib ketganlarga" aza ochildi.

Uzoq yurtlardan kuzga yaqin yetib kelgan mardikorlar "Lenin", "Bulishbek" degan so'zlarni olib kelishdi. Bu so'zlarning ma'nosini sho kunlari Jarbuloqdan kelgan katta ammamning o'gay o'g'li Saidakbarxon eshondan bildik.

Bu odam eshon bo'lsa ham, mening tasavvurimdagi uzun soqol, sallasi katta, ko'zini yumib tasbeh o'girib o'tiradigan eshonlardan emas edi. Saidakbarxon shaharda ko'rgan-eshitganlaridan gapirib, ikki xuftongacha o'tirdi. Bu orada ayam menga "yotgin" deb ikki-uch xo'mraydi, men har safar turmoqchi bo'lib yana o'tirib qolar, ko'zimni g'ijimlab kelayotgan uyquni qochirish uchun ko'zimga sekin tufuk surkab qo'yar edim.

Saidakbarxon Lenin to'g'risida gapirib, uning yetmish ikki firqa tilini bilishini, oqposhshoni yiqitganini, urushni to'xtatish to'g'risida girmon poshshosiga ham so'zi o'tganini maqtadi, lekin "boy bilan kambag'alni baravar qilaman", degan niyatidan kuldi.

— Xom sut emgan banda shu-da, bo'yidan bir qarichgina yuqoriroqqa chiqsa, darrov Xudoyi taoloning soyasiga tig' uradi. Namrud ham shunday qilgan, Xudoga o'q otgan... Xudoning azmi bilan birov boy, birov kambag'al bo'libdi, besh panjani baravar qilib bo'lar emishmi!

Saidakbarxon ertasiga azonda, qattiq yomg'ir yog'ib turganiga qaramay, Bachqir qishlog'iga o'tib ketdi.

Yomg'ir peshindan keyin tindi. Besaranjom qora bulutlar orasidan oftob mo'raladi. Ko'chada qunishgan odamlar paydo bo'ldi.

Do'konimiz oldiga bir necha kishi yig'ildi. Hammaning og'zida har xil gap, lekin bu gaplarning eng qizig'i Lenin to'g'risidagi gaplar edi. Dadam Lenin boy bilan kambag'alni baravar qilmoqchi ekanini aytdi. Bunga birov tushunolmas, birov ishonmas edi. Ali laylak boshining orqasini qashlab turib:

— Xo'p, — dedi. — Lenin boy bilan kambag'alni baravar qilar ekan, qanaqasiga baravar qiladi, boyni kambag'al qiladimi yoki kambag'alni boy qiladimi?

Gapga aravasoz usta Nu'mon aralashdi:

— Kambag'alni boy qilsa ham boyga ziyon, boyni kambag'al qilsa ham boyga ziyon; har nechuk, Lenin degani kambag'aldan chiqqan odamga o'xshaydi, kambag'al bo'lganda ham kambag'allikning jabrini juda ko'p tortgan odam bo'lsa kerak.

Leninning bu niyati oqposhsho yiqilgani bilan hurriyatdan umid uzib jimjit bo'lib qolgan qishloqni junbushga keltirdi. "Hurriyat" degan gap yana bosh ko'tardi, lekin endi odamlarning amaldorlarga da'vosi, hurriyatdan umid-orzulari aniq va buning mag'zida boy-kambag'al, amaldorlarning zulmi, boylarning jabri, norozilik yotar edi. Amaldorlarning bo'yni qisildi, boylarda parishonlik yuz berdi. Ilgari yuzboshining o'ldirilganligi qishloqni badnom qilgan voqea, shu munosabat bilan to'rtalar haydatib ketgan kishilar yurtni balogа qoldirgan "kasofatlar" hisoblansa, endilikda, bu voqea Buvaydini qishloqlar orasida mo'tabar, to'rtalar haydatib ketgan kishilardan bedorn-darak ketganlari "rahmatlik", qaytganlari "azamatlar" bo'lib qoldi. Yuzboshi uch bo'lak qilingan o'sha jodini kim yasaganligi tilga olinishidan dadam ilgari qo'rqqoldi.

Odamlar nimanidir kutar, bu gaplar va bu hodisalar kartakon bir voqeaning arafasiga o'xshar edi.

Butun yoz tashvish-tahlikada o'tdi. Bir-biriga qarshi, bir-birigа qovushmagan har xil xabarlar... Kuzda dadam Qo'qonga borib keldi. Uning sezishicha, shahar notinch, hammaning ichi to'la gap lekin hech kim yorilib bir nima demas ekan.

Kech kuzakda: "Toshkentga Leninning o'rg qo'li — Bolishbek kelipti", degan gap tarqaldi. Oradan bir oy o'tar-o'tmas, "Bo'lishbek Qo'qonga kelayotgan emish", degan xabar keldi. Hamma ko'chada, samovarlar liq to'la odam. Qishloqda tayinlik bir gap aytadigan odam yo'q, yurt og'alari ko'rinmaydi. Chilon qori Qo'qonga ketgan ekan, "musulmonobod bo'ladi", degan gapni topib kelibdi. Hademay "bachqirlik Ergashni oq kigizga solib xon ko'tarib Qo'qonga olib ketishibdi", degan xabar tarqaldi.

Bachqir Buvaydiga yaqin qishloq, Ergash mashhur o'g'riboshi bo'lib, Sibirga borib kelganligi hammaga ma'lum ekan, hamma hayron.

— Musulmonobodni Ergash qilar emishmi?

Oradan biroz vaqt o'tib, Qo'qonda urush boshlanib ketdi. Yong'in shu'lasi Buvaydidan baralla ko'rinib turar edi. Har kuni shomdan keyin hamma tomda.

Biron haftadan keyin "Ergash yigitlari bilan Qo'qondan qochibdi", degan xabar keldi.

Omon-omon bo'lgandan keyin oradan o'n kuncha o'tkazib turib, dadam amakim bilan onasi va ammamdan xabar olgani Qo'qonga borib keldi. Qo'qonda rastalar, kapponlar kuygan, ko'p joylar vayron bo'lgan, lekin shahar tinch ekan. Dadam do'konimiz oldiga yig'ilgan odamlarga shu to'g'rida gapirib berdi.

— Lekin, — dedi kulib, — o'rtsning yaxshisi endi kelibdi: yo'lkada to'qnash kelib qolsang, chetlanib yo'l beradi. Agar shu urushda Ergashning qo'li baland kelsa bormi, bilmadim nima bo'lar edi...

Ali laylak so'rab qoldi:

— Bolishbekni o'z ko'zing bilan ko'rdingmi, qanaqa odam ekan?

— Ko'rmadim, — dedi dadam, — chamamda, Bolishbek bitta odam bo'lmasa kerak.

Oradan ko'p o'tmay, Buvaydiga Ergash qo'rboshi yigitlari bilan keldi. Uning yigitlari Eshon buvaning karvonsaroyiga, o'zi mingboshining uyiga tushdi.

Dadam bizni o'sha zamonni Tolliqdagi oshnasinikiga olib ketdi, chunki ichi to'la adovat bo'lgan Valixon so'fi "bu odam ko'k shapkali to'ralar bilan oshnachilik qilar edi", deb Ergashga chaqsa, holimiz nima kechishi noma'lum edi.

"KO'ZA"LAR

Ergash yigitlari bilan o'sha kechasi Buvaydidan chiqib ketibdi. Bu xabarni bizga Ali laylak yetkazdi. Ertasiga Buvaydiga qaytib keldik.

Dadam har nechuk Valixon so'fining ko'zidan yiroqroq bo'lish uchun katta go'ristonning naryog'idagi mahalladan hovli topdi. Darrov ko'chib oldik. Hovli tor, devorlari baland, xuddi kattakon hovuzga o'xshar, buning ham to'rtdan birini ayvon egallagan edi. Ayvonga qisir sigirimiz bilan g'unajinni bog'ladik. Ayvonga ochiladigan darcha berkilgandan keyin uy qop-qorong'i bo'lib qoldi. Ayam uyni ko'rishi bilan: "Voy, lahad-ku", deb yubordi.

Dadam shu atrofdan — qishloqning chigaverishidan do'kon qidirdi. Do'kon tezda topilavermadi. Kulala uchovimiz chaxnni chog'ini chaxlab, bir xalta-yarim xalta don-dun topib kelar, shuni tamaddi qilar edik.

Ro'za kirib qoldi. Hech birimiz ro'za tutmadik.

Ayam bir kun bir shokosa bug'doyni yorma qilib nonushtaga sheyuq osh pishirdi. Eshikni tambalab uyga kirdik. Ayam ovqatni suzib endi dasturxonga qo'yganida birdan gupur-gupur bo'lib qoldi: ko'cha eshigi va devorlardan oshib besh-olti kishi hovliga tushdi. Ko'cha eshigini ochib yuborishdi. Eshikdan hano bir qancha kishi kirdi. Ikki-uch kishi "po'sht-po'sht" deb uyga otildi va dadam bilan Kulalani sudrab hovliga olib chiqdi. Hovlida Valixon so'fi ko'zlarini shoxsoqqaday o'ynatib turar edi: "Ha, kasofating o'zingga ursin!" deb qo'lidagi tayoq bilan dadamning boshiga tushirdi. Qo'rquvdan es-hushini yo'qotib qo'ygan ukam Umarali o'ziga kelib chinqirib yubordi. Boshiga dasturxon yopinib olgan ayam eshik oldida turib dir-dir titrar, nuqul "kasal, hammamiz kasalmiz", der va "sen ham ayt", deb meni turtar edi.

Oshni ikki qo'shquloqqa quyib, dadam bilan Kulalaning bo'yniga osishdi va ikkovini bozorboshiga tomon haydab ketishdi. Odamlarning g'ovuri, bola-chaqaning shovqin-suroni ichida Valixon so'fining hadeb: "Kasofating o'zingga ursin!" deb baqir-

gani eshitilib borar edi. Do'konimiz oldidan o'tishda Ali laylakka ko'zim tushdi. Ali laylak indamay odamlarga ergashdi. "Ko'za"larni tinning ostidagi samovarga olib kirishdi.

Yana odam yig'ildi, Valixon so'fi so'riga chiqib, xalqqa xitob qildi:

— Musulmonlar, mana, ko'rib turibsizlar, birniki mingga, mingniki tumanga!

Valixon so'fi yurt boshiga kelgan vabo, ochlik, boshqa hamma falokatni "mana shu kasofatlar"ga to'nkadi, so'zini tamom qilib: "Ur, ko'zani!" dedi. G'ovur ko'tarildi. Bir nechta kishi dadamni urgani do'g'ayib keldi. Men dodlab yubordim. Meni Ali laylak quchoqlab yupatdi. Kimdir betimga suv sepdi. Biroq dadamga hech kim qo'l tegizmadi, Ali laylak boya dadamni urmoqchi bo'lib do'g'ayib kelgan odamlarga bir nimalar dedi.

Dadam bilan Kulalani samovarning ko'mirxonasiga qamab qo'yishdi. Xaloyiq tarqala boshladi. Men bo'lgan voqeani ayamga aytgani hovliga chopdim. Ayam hamon boshida dasturxon, ukamni bag'riga bosib ko'cha eshigi oldida o'tirar, har bir o'tkinchiga: "Kasal edi, hammamiz kasalmiz", deb arz qilar, yig'lar edi.

"Ko'za"larni shomga yaqin qo'yib yuborishdi. Bularni kazo-kazolar "haqiqat" qilib, Kulalaning ham gunohini dadamga yuklashibdi, katta jarima solishibdi. Jarimani to'lash muhlati juda qisqa bo'lgani uchun dadam ertalabdan pul topish harakatiga tushdi. Uyda qisir sigir bilan g'unajindan boshqa pulga arzirli hech narsa yo'q edi. Dadam g'unajinni qora kunga asrab, qisir sigir bilan do'konning hamma uskunasini sotdi. Ayam aytmoqchi, ikki qo'l-u bir tepa bo'ldik-qoldik. Jarima to'landi. Dadam shaharga borib biror ustaga xalfa tushishni ko'zlab qoldi.

Oradan bir necha kun o'tib, Namangan temir yo'lining qaysi bir stansiyasida jang bo'ldi. "Ergash temir yo'l stansiyasini tormor qilayotganda Qo'qondan bir poyezd askar kelib qolibdi", deyishdi. Otishma tush mahaligacha davom etdi. Urush tingandan keyin mingboshi jarchi chiqartirib, timga, hamma do'konlar va mahallalardagi uylarning eshigi ustiga oq bayroq tiktirdi. Shu kuni bolalarning dastidan hech bir oq latta qolmadi, kampirlarning

doka, duda ro'moli-yu eski salladan tortib oq lattaki bor, hammasi eshiklarning ustiga, daraxtlarga ilindi.

Kechga yaqin "Bozorboshiga Bolishbek kelar emish", degan ovoza tarqaldi. Butun qishloq bozorboshiga, timga yopirilib keldi. Biz, bolalar, timning chiqaverishidagi tolning kallagiga, ustunlarga, tomlarga chiqib oldik. Namozgarga yaqin timga ellikka yaqin otliq kirib keldi.

Bular hammasi miltiq ko'targan, qilich taqqan bo'lsa ham, kiyimidan askarga o'xshamas edi. Kalta, ityoqa ko'ylakning ustidan enli kamar bog'lab, to'pponcha taqib olgan qop-qora va jikkakkina bir kishi so'rining ustiga chiqib xalqqa va'z aytdi. Men uning gapini eshitolmadim, lekin "Lenin", "qonxo'r boylar" degani qulog'imga kirdi.

U so'zini tugatgandan keyin timning allaqayeridan baland ovoz eshitildi:

— Ho, oshna, Bolishbek akam qachon keladilar?

U odam yana bir nimalar dedi. Men yana uning gapini eshitolmadim, lekin ko'kragiga urib:

— Men musulmon Bolishbekman! — deganini aniq eshitdim.

Bular otlanishayotganda qarasam, musulmon Bolishbekning yonida dadam paydo bo'lib qoldi, kuyib-pishib unga uzoq gapirdi. Musulmon Bolishbek atrofida turgan odamlardan bir-ikkitasiga dadamni ko'rsatib bir nimalar dedi-yu, otlanib jo'nadi. Bular Eshon buvaning karvonsaroyidan o'tib, so'qmoq bilan Tolliqqa tomon ketishdi.

Men dadam bilan Kulalani yo'qotib qo'ygan edim, qaytib kelsam, uyda o'tiribdi. Ikkovining ham og'zi qulog'ida. Ayam ham xursand. Ma'lum bo'lishicha, dadam musulmon Bolishbekka jarima voqeasini, asbob-uskunasiz qolganini aytib arz qilgan ekan, musulmon Bolishbek yonida turgan odamlarga "Ustaning pulini kim olgan bo'lsa, darrov qaytib bersin, bermasa, qaytishda ichiga miltiq dori to'ldirib, burnidan o't qo'yaman", debdi.

Musulmon Bolishbekning bu gapi birpasda butun qishloqqa tarqaldi. Eshitgan odam kular edi.

Dadamdan olingan pulni mahalla baloxo'rlari bo'lishib olgan ekan, Valixon so'fi ko'chada folbinday oldiga qiyiq yozib o'tirib,

baloxo'rlardan pulni yig'di va muloyim supurgi bo'lib, dadamga qaytarib berdi.

Ertasiga hamma oq bayroqlarning o'rniga qizil bayroq tikildi. Qishloqda qizil gazmol bo'lmagani uchun odamlar doka, duda, bo'zni ko'z og'riganda quyiladigan qizil rangga bo'yab osishdi. Qishloq attorlarida qizil rang qolmadi.

Dadam musulmon Bolishbekka arz qilishga qildi, jarimani undirib oldi-yu, lekin bu yog'ini o'ylamabdi: Ergash qo'rboshi qaytib kelsa, baloxo'rlar, avvalboshi Valixon so'fi o'ch olsa nima bo'ladi?

Ali laylak ham shu gapni aytdi va qishloqdan ko'chib ketishni maslahat berdi.

Ali laylakning qo'shni qishloq — Oqqo'rg'onda qarindoshi bor ekan, gaplashib kelgani dadamni olib ketdi.

MUHAMMADJON QORI

Oqqo'rg'on qishloq emas, anjirzor ekan. Bog'lar, chorbog'larda boshqa meva ko'rinmaydi, nuqul anjir. Biz tushgan hovli sahnida ikki tup anjir bor ekan, ocharchilik bo'lishiga qaramasdan, hosiliga hech kim tegmabdi — oldin pishgani shoxida mayiz bo'lib, endi pishgani kindigidan sap-sariq sharbat oqib yotibdi. Buning sirini Kulala qayoqdandir bilib olibdi: hovlining egasi bulturgi vaboda bola-chaqasi bilan o'lib ketgan ekan. Dadam Kulalani urishib berdi, chunki bu gapni ayam eshitib qolsa, ukam ikkovimizni quchoqlab dod solishi turgan gap edi.

Hovli xiyla katta, o'rtasida chog'roq gulzor, suvsizlikdan hamma gullar qurib, faqat gultojixo'roz qolibdi. Ikkita baland va yorug' uy, bir chekkada kichkina bostirma og'il. Ayam buzoqchamizni og'ilga bog'lab chiqar ekan, bir umrlik orzusi ushalganday yayrab: "Endi bu yerdan ko'chmaylik, dadasi. Siz ham qadamingizni bilib bosing, birov bilan chap chiqishmang, besh mahal namozni kanda qilmang", — dedi.

Do'kon hovliga yaqin, qumloq maydonning naryog'idagi uch ayrilishda, ayrilishning o'rtasidagi allanima degan mozor-

ning ro'parasida; mozor esa anhor bo'yidagi keksa tutning ostida bo'lib, ustiga takaning shoxi va soqoli osilgan loy gumbazdan iborat edi.

Bu yerda ham ish yo'q. Hamma dalada. Qishloqda pashsha uchmaydi. Men yangi hovlida ayam bilan qolib, dadam bilan Kulala charx ko'tarib dala aylanishar, kechqurun mashoq, bir xalta-yarim xalta don ko'tarib kelishar edi.

Dadam bir kuni xufton namozidan "Katta machitda qo'qonlik Muhammadjon qori "usuli jadid" degan yangi maktab ochkeldi.

Dadam ertasiga ertalab meni katta machitga boshlab bordi. Biz machit hovlisining chap tomonidagi qator uchta hujradan birinchisining darchasiga ro'para bo'lganimizda ichkaridan qop-qora soqol-mo'ylabi bodrab chiqqan, o'zi to'ladan kelgan, bir ko'zi bilinar-bilinmas g'ilay bir kishi yugurib chiqdi va dadam bilan so'rashganidan keyin menga ham qo'l berdi, qo'llarimni mushukning qorniday yumshoq va issiq hovuchiga olib siltab qo'ydi. Uning menga qo'l berganidan allaqanday, xuddi bir gaz o'sganday bo'ldim, vaqtim chog' bo'lib ketdi. Shu chog'gacha hech kim men bilan qo'l berib so'rashmagan edi. Muhammadjon qori shu ekan.

Maktab deganda mening ko'z oldimga machitning tashlandiq hujrasi, bo'yra, urushqoq jo'jaxo'rozday bo'yni qip-qizil va hoji do'ppi kiygan Valixon so'fi kelar, qulog'imga bolalarning chug'ur-chug'uri, "apalamza al" eshitilar edi. Muhammadjon qori Valixon so'figa sira o'xshamagani singari, bu maktab ham Valixon so'fining maktabiga butkul o'xshamas, bolalar past-baland qoqilgan sakkiz qator taxta — partada jimjit kitob o'qib, xat yozib o'tirishar edi.

Boshqa narsa bo'lmagani uchun dadam biroz pulni dasturxon qilib kelgan ekan, domla olmadi, hatto xafa bo'ldi. Dadam ketdi. Domla meni gapga soldi. Men uning so'roqlariga javoban Valixon so'fida biroz o'qiganimni, dadam xat tanitganini, dadam o'qigan kitoblarning nomini aytib berdim. Domla nonxo'rak oldida meni bolalarga tanitdi: "Zehni o'tkir bola, maktab ko'rmasdan xat tanib-

di, o'rtoq bo'linglar", dedi. Bolalar menga havas bilan qarab-qarab chiqib ketishdi.

Domla meni to'xtatdi.

— Ertadan senga kitob, daftar, qalam beraman, o'qiysan, xat mashq qilasan, — dedi. — Tiling salgina chuchuk ekan, mayli, tutal aytib yursang, burro bo'lib ketadi. Qani, ayt-chi: tutning tomirini turp tutib turipti, turpning tomirini tut tutib turipti!

Men bu tutalni dabdurustdan aytolmadim. Haqiqatan, tilim chuchuk, ko'p so'zlarga kelishmas, lekin buni o'zim emas, hatto ota-onam ham payqamagan yo e'tibor qilmagan ekan. Tutalni ertasiga domlaga sharros aytib berish uchun uyda xo'p mashq qildim. Ayam yangi maktabning birinchi sabog'idan xafa bo'ldi, lekin domla buni nima maqsadda o'rgatganini eshitib, uni xo'p duo qildi, ukam Umaraliga ham o'rgatdi. Ertalab qarasam, dadam ham tutal mashq qilib maxsisini kiyayotibdi.

Ertasiga tutalni tez-tez aytolmasam ham, harqalay, domlaga sharros aytib berdim va boshqa tutal o'rgandim: "Bir tokchada uch tokcha, uch tokchasi bir tokcha..."

Undan keyin "Ustodi avval" degan kitobdan o'qish va xat mashq qilish uchun saboq oldim. Dadam kitob o'qiganda satrlarga ko'z yugurtirib so'zlarning shakli yod bo'lib qolganday, bu so'zlarni ko'mir bilan devorlarga, eshiklarga yozib yurib, xatga ham qo'lim kelib qolgan ekan. Ikki oy o'tar-o'tmas "Gulshani dilafgor", "Bolalar bog'chasi", "Ajoyib ul-maxluqot" singari kitoblarga, Abdulla Avloniy, Tavallo, So'fizoda, Sidqiy, Zavqiyning "abyotlar"iga tishim o'tadigan, Mahmudxo'ja Behbudiyning insho kitobidan maktub, turli hujjatlar nusxasini chiroyli qilib ko'chiradigan bo'ldim.

Peshqadam bolalardan Sotiboldi Fuzuliy, Hatam Xo'jahofiz, Tursunqul Bedildan dars olar, domla bularga yangi dars berganda, meni chaqirib yoniga o'tqizar edi.

Domlamizning aytishiga qaraganda, biz olti bola kuzdan boshlab faroizm va xarita o'qishimiz kerak edi, biroq bu ilmlar bizga nasib bo'lmadi.

Machitning qator uch hujrasidan biri maktab, ikkinchisida domlamiz o'tirar edi, uchinchisiga Buxoroda tahsil ko'rgan aka-

uka Qutbiddin va Husniddin degan mullavachchalar ko'chib kelishdi. Bular Bo'rmang'it mahallasidan marhum Sayfiddin hojining o'g'illari bo'lib, avval Qo'qondagi Buzrukxo'ja madrasasida, undan keyin biroz vaqt Buxoroda tahsil ko'rgan, zamona notinch bo'lgandan keyin o'qishni tashlab kelishgan ekan. Aka-uka ikkovi ham novcha, ozg'in, soqol-mo'ylabi sabza urgan; ikkovining ham egnida bo'z xalta ko'ylak, alak avra to'n, boshida anjir nusxa kichkina salla; ikkovi ham mayin tovush bilan, iloji boricha, qiroat-tilovat maqomida so'zlar, machitni "masjid", supurgini "sufurgi", hamma bolani "valad"[1] der edi. Bo'rmang'itdagi otasidan qolgan o'z hovlisida turmay, machitning hujrasiga suqilishdan ikkovining muddaosi machitga o'rnashib olish — Qutbiddin domlamizdan so'filikni, Husniddin maktabni tartib olmoqchi ekan. Biz buni aka-ukaning domlamiz haqida orqavaroqdan aytgan gaplari, har narsadan bir ishkal topmoqchi bo'lib qilgan g'animlik kirdikorlaridan bilar va o'zaro so'zlashar edik. Bir kuni, domla peshinga azon aytganida, Qutbiddin machitning jilovxonasida o'tirgan bir-ikkita mo'ysafidga soatini ko'rsatib: "Azonni yarim soat oldin aytdi", deb kulibdi; Husniddin Haydar degan bolaning dadasiga: "Suv olgani hovuzga chiqqan xotinlarga so'fi qaraydi", debdi; Qutbiddin bir-ikkita boladan: "Domlalaring namozlik o'rgatadimi?" deb so'rabdi. Shundan keyin domla azon mahalida Qutbiddindan soat so'raydigan, tahorat olgani machitning orqasidagi hovuz bo'yiga chiqqanida boshiga ro'mol yopinadigan, har kuni darsdan keyin bizni chug'urlatib namozlik o'rgatadigan bo'ldi. Biroq g'iybat, fitna-fasodlarga domlaning e'tibor qilmasligi ham aka-ukaning jig'ibiyronini chiqarar edi, o'tibor qilishi ham.

Bir kuni tush paytida maktabning eshigi oldida Qutbiddinning shovqini, domlamizning bosinqi tovushi eshitildi. Men darcha oldida o'tirar edim, qaradim.

— Kelishdakka zo'r bermasinlar, — dedi domla qattiq shivirlab, — Xudoyi taolo odam bolasiga zabon ham bergan!

Qutbiddin uzun yengini tirsagiga surib, domlaga qo'lini paxsa qildi:

[1] Valad (arabcha) — bola.

— O'z qishlog'imizda masjid, maktab turganda biz qayoqqa boramiz? Biz chekkan riyozatning qadr-qiymati bo'lmasa ham, Buxoroyi sharifning qadr-qiymati bordir? Masjidning eshigi oldida hamisha bitta-ikkita ot bog'loqliq turadi, binobarin, sizga xat, ariza va boshqa halo-battarlar yozdirgani uzoq joylardan ham odam kelib turadi, shundan keladigan daromad kifoya emasmi?

Domla bosh chayqab kuldi:

— Men bu yerga so'filik qilib, maktab tutib non topgani kelgan emasman, padari buzrukvorim o'zlariga to'q kishi. Men qishloqqa ilm-ma'rifat urug'ini sochgani kelganman.

Qutbiddin zaharxanda qildi:

— Jadidlik urug'ini sochgani kelganman, deng! Hammani to'rtinchi qilaman, deng!

— Jaholat! Jadidga nima qipti? Jadid — yangi, usuli jadid — yangi usul, degan gap, jadidlik kufrmi?

Qutbiddin uning so'ziga quloq solmadi:

— Sizning jadidligingiz, salla-yu kallangiz, butun ilmingiz Buxoroyi sharifning bir dona g'ishtiga arzimikan?

Domla maktabga tomon ko'z tashladi. Uning xiyolgina g'ilay ko'zi xijolatdanmi yo g'azabdanmi butkul g'ilay bo'lib ketdi, lekin tovushi o'zgarmadi:

— Albatta, Buxoroyi sharifning har bir g'ishti ilm, har bir toshi hikmat, lekin xazinaga kirgan mushuk zarga qaramaydi, sichqon bilmaydi! — Domla shunday dedi-yu, maktabga kirdi-ketdi. Qutbiddin uning ketidan ko'zlarini o'ynatib: "Alfozi qabeha"[1] deganicha qolaverdi.

Oradan uch-to'rt kun o'tib maktabga beqasam to'n ustidan uch-to'rtga shohi belbog' bog'lagan, yelkalariga o'q osgan novcha bir kishi kirib keldi. Domla uni darrov hujrasiga olib kirdi. Bu odam qo'rboshining ponsodi ekan. Anchadan keyin domla rangquti o'chib ponsod bilan chiqdi. Ponsod uning ko'z oldida bizga partalarni buzdirdi, taxtalarini machitning sahniga uydirib, o'z qo'li bilan o't qo'ydi.

Ponsod ketdi.

[1] **Alfozi qabeha** — qabih so'zlar.

Shu kuni peshin namoziga azonni Qutbiddin aytdi.

Peshindan keyin domla hujrani bo'shatdi. Biz uning kitob, ko'rpa-yostig'i va boshqa narsalarini machitning orqasidagi tor ko'chada turadigan bir odamning qaznog'iga tashib berdik.

Men voqeani ota-onamga aytdim, bu kunlarda ukam Umarali og'ir betob edi, hech birining qulog'iga gap kirmadi.

BIR BOSHGA IKKI O'LIM

Ukam Umaralining ahvoli kundan kun og'irlasha boshladi. Dadam uning kasalini "ko'z"dan ko'rar edi.

Umarali juda bo'liq, sho'x, tili nihoyatda biyron bola edi. Dadam har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytib ham uni qo'liga olar, suyar, chug'irlatar, gaplariga, qiliqlariga zavq qilib kular edi. Onam uni "suq ko'z"dan asrab, to'ni, hatto ko'ylaklariga ham ko'ztumor, ko'zmunchoq taqqan, har kuni erta-yu kech unga isiriq solar edi.

O'sha mash'um shanba kuni ertalab dadam bomdod namozidan chiqib, do'konga tomon burilganida qarasa, Umarali eshigimiz oldidagi qumtepada o'zidan ikki yosh chamasi katta bola bilan olishayotgan ekan, bolani yiqitibdi, qumga bosib ustiga minib olibdi. Machitdan chiqqan boshqa namozxonlar ham buni kuzatib turishgan ekan, hammasi yoqasini ushlabdi. Shunda dadam ko'z balosidan qo'rqib ichida "o'h" deb qo'yibdi.

Umarali o'sha kuni kechqurun isitmaladi, ertasiga kuni bo'yi ko'zini ochmasdan isitmada yonib yotdi; uchinchi kuni betoqat bo'lib, inqillab o'zini u yoqqa-bu yoqqa tashladi; ba'zan qizargan ko'zlarini katta ochib, goh dadamga, goh ayamga javdirab qarardi. Farzand dog'ida kuya-kuya jizg'anak bo'lib qolgan va hozir Umaralining har bir inqillashi yuragiga cho'g'day tegayotgan ayam, nazarimda, tin olgani ham qo'rqar, harakatlari, gaplaridan savdoyi odamga o'xshar edi. Dadam unga tasalli-taskin berish uchun o'zini harchand og'ir tutishga urinsa ham, o'tirar-turarini bilmas, Umaralga dam-badam isiriq solar, najot izlaganday

hadeb ko'chaga chiqar, ko'chadan har safar bir ilinj bilan qaytar edi.

Sallasi kattakon bir domla kelib Umaralga uzoq dam soldi, keyin dadamga yuzlanib: "Azizlarga bir jondor ko'taring", dedi. Dadam xuddi "azizlar mana buni olsin-u, o'g'limni bersin", deganday og'ildan darrov buzog'imizni yetaklab chiqdi va uni Shohimardonga atab, domladan fotiha oldi.

Ertasiga bir xotin kelib Umaralini childirma bilan "ko'chirdi".

Umarali kechasi-yu kunduzi isitmada yonib inqillar, ba'zan jindakkina mizg'iganday bo'lsa ham, birozdan so'ng yana ko'zlarini katta ochib, jonini qo'ygani joy topolmay o'zini goh dadamning, goh ayamning quchog'iga otar edi.

Tabib keldi, ukamning tomirini ushlab ko'rdi-yu, kabob buyurdi. Kulala butun qishloqni qidirib dorilikka besh paysa[1] go'sht topib keldi. Dadam ikki to'g'ram go'shtni otashkurakda cho'g'ga tutib kabob qildi, Umaralini quchog'iga olib, kabobning selini uning og'ziga tomizdi. Qisqa-qisqa inqillab turgan bola birdan jim bo'ldi. Men suyunib ketdim. Biroq dadam, yelkalari silkindi-yu, peshanasiga ikki-uch shappalab ho'ngrab yubordi. Ayam nima hodisa ro'y berganini darrov uqmadi, shekilli, ukamni uning quchog'idan yulib oldi va bir necha vaqtdan keyin dod soldi. Men ayvonning ustunini quchoqlaganimcha qotib qoldim.

Dadam peshanasiga shaq-shaq urib tovush chiqarmay to'lg'anardi.

Birpasda hovli erkak-ayol, bola-chaqaga to'ldi. Erkaklar dadamni ushlab bir chekkaga o'tqazishdi. Ayollar hushdan ketib qolgan ayamning bag'ridan murdani olib uyga kirishdi. Kimdir menga suv ichirdi...

Umaralini namozgarga yaqin zambilda olib ketishdi. Men qisqa-qisqa nafas olib hushdan ketib yotgan ayamning yonidan jilmadim. Xotinlar ovoz solishdi.

Ayam ertasiga hushiga keldi, yig'i boshladi.

Dadam dam-badam ichidan xuruj qilib kelayotgan yig'ini yutib, ayamga tasalli berdi, taqdiri azal, odamning umri, bir tom-

[1] **Paysa** — taxminan yigirma gramm.

chi kabobning seli Umaralining oxirgi rizqi ekani va yana allanimalar haqida gapirdi.

Oradan bir hafta o'tib men domlamiz va maktabdan xabar olgani bordim. Maktab machitning orqasidagi tor ko'chaga, birovning otxonasiga ko'chibdi. Maktabda endi faqat haftiyak, Qur'on o'qilar, bolalarni domla har kuni peshin namozini o'qigani machitga olib chiqar ekan.

Domla bolalarni uradigan odat chiqardi, bir kuni Qur'on o'qiyotib bir so'zga tilim kelishmagani uchun bir shapati tushirdi. Alamimdan o'sha so'zni chimchilagan edim, Qur'onning varag'i teshilib ketdi. Domla buni payqab qoldi, yana bir shapati yedim.

Sovuq tushguncha tashqarida, sovuq tushgandan keyin og'ilda to'ngak yoqib uning atrofiga tizilishib o'qidik.

Men qishi bilan Qur'onni "Taborak"kacha yod oldim.

Hammamizni domla mumkin qadar qattiqroq shovqin solib o'qishga majbur qilar edi.

Bahor kechalarining birida dadam arava olib kelib vahima qildi:

— Ergash qo'rboshi hukumatga "urushadigan joyingni ko'rsat", degan ekan, hukumat "men sen bilan Oqqo'rg'onda urushaman", debdi. Erta-indin Oqqo'rg'onda urush boshlanar emish. Urush o'tguncha Qo'qonga borib turmasak, oyoqosti bo'lamiz. Qani turinglar, vaqtida qochib qolaylik, — dedi.

Ayam yig'i boshladi.

— Voy, men Umaralining hayitini o'tkazmasdan qayoqqa boraman! Qachongacha men bolalarimning go'rini g'arib qilaman! Xudoyo temirchilik hunar bo'lmay o'lsin!

Mening ham ko'nglim buzilib ketdi, yig'ladim, nazarimda, biz hozir shaharga jo'nasak, Umarali go'ridan chiqib, orqamizdan qarab qoladiganday bo'ldi. Kulala ham yig'lab yubordi.

Dadam hammamizni yupatdi:

— Ergash nima o'zi, Sibirdan qochgan bitta o'g'ri-da! To'pto'pxonasi bo'lmasa, xazinasi bo'lmasa, hukumat bilan qancha urushadi; bir cho'qishda qochadi, qaytib kelamiz... Urush bo'lgan joyda talon ham bo'ladi, ehtiyotdan "Zinger"ni olib ketamiz.

Uyda "Zinger"dan boshqa pulga arziydigan narsa bo'lmagani uchun quruq bo'yimiz aravaga chiqdik. Ayam aravada "Zinger"ni paranjisi ostiga olib o'tirdi.

Bu shoshilinch ko'chishning asl sababi Qo'qonga borganimizda ma'lum bo'ldi: Oqqo'rg'onda urush-purush yo'q. Ergash qo'rboshi o'z qishlog'i Bachqirda o'rda solayotgan ekan, dadam shu o'rdada taqachilik qilishi va yarog'-aslaha ustaxonasida ishlashi kerak ekan. Ergashning bir ponsodi shu haqda Ergash nomidan dadamga gapirib, Bachqirga ko'chgani ikki kun muhlat beribdi, chorshanba kuni ertalab arava yuboradigan bo'libdi.

Oqqo'rg'onning suvi minba'd bizga harom bo'lganini eshitib ayam dod-faryod ko'tardi, o'zini urdi, sochini yuldi: nazarida, Umarali hayit tongida go'ridan turib mung'ayib shahar yo'liga nigoron bo'lishi unga yana bir farzand dog'iday va bolasining bir boshiga kelgan ikkinchi o'limday bo'ldi.

Ro'zg'orimiz, do'konimizning asbob-uskunasi Oqqo'rg'onda qolib ketdi.

QO'QON XAROBALARI ORASIDA

Qo'qonga nonushta mahalida kirib keldik. Shaharga kirishimiz bilan ayam yana yig'i boshladi — amakimning uyiga tushishimizga uning sira-sira xohishi yo'q edi; "Sen ham ayt, yig'la", deb meni turtdi, biqinimni chimchilab oldi. Men yig'lamasdanoq dadam ko'ndi. Biz Ko'mir bozoridagi kichik ammamning uyiga tushadigan bo'ldik.

Degrezlikdan Ko'mir bozorigacha xarobalar orasidan o'tib bordik. Yo'l bo'yidagi uylar, do'konlar kuygan, yemirilgan, Katta Chorsu atrofidagi do'konlar, timlardan nom-nishon yo'q. Omon qolgan masjid jome oldidagi va ro'parasidagi xarobalar orasida odamlar savdo-sotiq bilan mashg'ul: birovning yelkasida eski kiyim-kechak, birov yerga idish-tovoq, temir-tersak, birov rang-barang ko'rpa yoyib, birov chala kuygan taxta, yog'och uyib o'tiribdi. Gadoy ko'p...

Ayam ammamning uyiga tushgani rozi bo'ldi-yu, lekin yo'l bo'yi yosh boladay g'ingshidi: "Usta Mo'min o'zi ayolmand odam, shunday ocharchilik zamonda birovning nonida sherik bo'lish insofdanmi! Ro'zg'or yo'q, do'kon yo'q, ish yo'q..." Dadam qo'lida hunari borligini, hunarli odam hech qachon och qolmasligini aytib, unga tasalli bergan bo'ldi.

Ko'mir bozori ham kuygan, xaroba, Madrasayi Xon peshtoqining bir chekkasi o'pirilib tushibdi. Qator hujralardan ba'zi birining eshigi yo'q, qop-qorayib turibdi. Ammamning uyi juda ichkarida bo'lgani uchun hech bir ziyon-zahmat yetmabdi.

Ayam eshikdan kirishi bilan ammamni quchoqlab, Umarali haqida dard-hasratini aytib yig'ladi. Ammam, uning qizlari, hamma mamiz yig'ladik. Dadam Qur'on o'qib, hammani yupatgandan keyin ko'chaga chiqib ketdi.

Ammam otning suyagidan bir qozon sho'rva qaynatdi.

— Ilgari bilmas ekanmiz, otning suyagidan ham yaxshi sho'rva bo'lar ekan, — dedi. — Hukumat birlashingiz degan, birlashgan odamlarga non-knishka beradi. Biz birlashganlardan, har kuni gob bitta, goh chorakam bitta gardish bo'lka olamiz.

Sho'rva suzildi. Ammam chorakta qattiq gardish bo'lkani tesha bilan ushatib yarmini dasturxonga qo'ydi. Sho'rvani ichdik. Boshqalarni bilmayman-u, suyak sho'rva Kulala ikkovimizga zo'rlik qildi.

Ovqatdan keyin ayam bilan ammam boyagi qolgan nonni olib kampirni ko'rgani atnakimnikiga ketishdi. Ammamning katta qizi O'lmasoy boshiga to'rtcha yopinib, ikki singlisi va Kulala ikkovimizni tomosha qildirgani ko'chaga olib chiqdi. Boylako'prik, O'ishtko'prikka bordik, undan nari o'tgani qo'rqdik: hamma yog chordevor, xaroba, O'lmasoyning aytishiga qaraganda, chekka mahallalarni tez-tez bosmachi bosib turar, zavod gudok bersa, qochib ketar ekan.

Qaytdik. O'lmasoy bizni Madrasayi To'rtqatorga boshlab kirdi. Bu yerda ochlarga ovqat ulashilar ekan. Madrasaning hovlisi lid to'la qari-qartang, juldur kiygan va bo'yni ipday bolalar. Hammaning qo'lida sopol, zarang, tunuka kosa... Ammamning qizlari har kuni shu mahalda kelib ovqat yeb ketishar ekan. O'lmasoy qayoqdandir sopol tog'oracha topib keldi. Hovlining bir chekkasiga qurilgan doshqozondan odamlarning kosasiga bir cho'michdan ovqat suzib berayotgan badjahl chol bizni sanab, tog'orachaga besh cho'mich atala quyib berdi. Biz navbatma-navbat tog'orachani ko'tarib atalani ichdik.

Uyga qaytdik. Ayam bilan ammam kelishgan ekan. Ayamning ko'zlari qizargan, qovoqlari shishgan edi. Buning sababi dadam kelganda ma'lum bo'ldi: kampir Umarali to'g'risida ko'ngil so'rash, ayamning ko'nglini ko'tarish o'rniga: "Do'xtirxonada tug'ilgan bola ninsa bo'lar edi!" — debdi.

Kechqurun usta Mo'min keldi. Dadam u bilan kunduzi ko'rishgan, ahvolimizni aytgan ekan. Uzoq maslahat qilishdi. Ammam tushunmasdan-bilmasdan "biz birlashganlardan", deb yurgan ekan, aslida eri usta Mo'min "birlashgan" emas, kasabalar ittifoqiga a'zo bo'lib kirgan ekan. Usta Mo'min dadamga ittifoqqa kirishni maslahat berdi. Biroq bir narsa tishga tegib qoldi: ittifoqqa kirgan temirchilarning hammasi o'z do'konida va o'zining asbob-uskunasi bilan ishlar, hukumat ularga temir, ko'mir berar, temirchi yasagan narsasini hukumatga topshirib, oylik, non-knishka va oyda uch gazdan chit olar ekan. Dadamning na do'koni bor, na asbob-uskunasi, mannan degan usta bo'la turib birovga bosqonchilik qilishni istamas edi. Bunday taklifni qilgani, chamasi, usta Mo'minning ham og'zi bormadi.

Usta Mo'minning o'zi besh jon, biz to'rt jon. Bularning nonida sherik bo'lishimiz na ammaniga, na uning eriga hech qanchalik malol kelmasa ham, "mehmonning izzati uch kun", dadam diqqat, ertalab chiqib ketganicha kechqurun kelardi. Ayam uni zixner, "hech bo'lmasa Kulalani bir ishga joylab qo'ying", der edi. Kula- la usta Mo'minga qarashsa ham, non-knishkasi yo'q, nazarimda, dadam uni ro'para kelgan ishga joylab, shunday yaxshi shogirdni qo'ldan chiqargani ko'ngli bo'lmas edi.

Oradan besh-olti kun o'tganda Kulalaning akasi Dodarxo'ja keldi. Dodarxo'ja Qudashdan quvilganidan keyin Qo'qonga kelib birmuncha vaqt hammollik qilibdi; avval To'xlimerganda, undan keyin Ganjiravonda birovlarning juvozini haydabdi, yog'ini sotibdi; urush o'tib shahar tinchigan va Ganjiravon notinch bo'lgandan keyin Kulalani qidirib Qo'qonga kelibdi, Buvaydiga boribdi,

bizdan darak topolmay, yana Qo'qonga kelibdi; shundan beri meshkobchilik qilib yurgan ekan, endi Kulalani topib, o'z yurti Qorateginga ketmoqchi ekanini aytdi. U: "Bitsin boylar, bitsin zolimlar!" degan gapdan og'zi qulog'ida, hay-hay qilinmasa, Qorateginga jo'nash oldida Qudashga borib To'raqul vofurush va amin bilan "ikki og'iz gaplashib" kelishdan ham toymas edi.

Dadam o'ylab-netib o'tirmasdan Yaypandan rettirgan "Zinger"ni sotib, pulining yarmini Kulalaga tutqizdi; usta Mo'min, usta Homidjon, usta Aroqul, amakim va boshqa ustalarning biridan ombur, biridan mixsandon, biridan xoyis, bolg'a, bosqon, "musulmon dam" olib, usta Kulalaning to'rt ishkalini but qildi va "hasti Dovud madad qilsin", deb fotiha berdi. Aka-uka o'zida yo'q xursand edi. Qorateginliklar Farg'onaga kelishda ham, Qorateginga ketishda ham har qancha yuk bo'lsa orqalab, O'ratepa orqali doyon osha piyoda yurishar ekan, ikkovi erta saharda yo'lga chiqadigan bo'ldi. Usta Mo'min "hech bo'lmasa Xovosgacha poyezdda borishsin", deb idorasidan qog'oz keltirib berdi, poyezdga qog'ozsiz chiqatilmas ekan. Ertasiga bularni usta Mo'min bilan dadam stansiyaga kuzatib chiqdi. Men ham bordim. Stansiyada uzoq qolib ketdik, nihoyat, usta Mo'min unga-bunga uchrab patta oldi. Ikkovi umrida poyezdga tushmagan ekan, shoshib-hovliqib qizil vagonga chiqdi. Poyezd jilganda Kulala menga qarab ko'zga yosh oldi. Men ham yig'lab yubordim.

Oradan uch-to'rt kun o'tgach, dadam Qipchoqariqdan hovli topib keldi. Ammam ko'rpa-yostiq, amakim qozon-tovoq, boshqa tanish-bilishlar choynak-piyola deganday, har kim baholi qudrat qarashib, o'sha hovliga ko'chdik. Hovli amakimning hovlisiga yaqin Muhammadrajab degan bazzozning mehmonxonasi ekan. Uy bitta bo'lsa ham, ilgari o'ris o'tirgan, osti taxta pol, usti lampa, oppoq va ozoda edi.

Dadam har kuni azonda chiqib ketar, peshinda bizga g'isht bo'lka, katelokda yaxshi-yaxshi ovqatlar keltirib berar, yana ketib shomga yaqin kelar edi. Mening qiladigan ishim, boradigan yerim yo'q. G'afforjonni uncha xushlamasam ham, o'shanga ishqalanadigan bo'ldim, birmuncha vaqt birga o'ynab yurgan-

nimizdan keyin ikki hodisa sabab bo'ldi-yu, undan uzil-kesil ko'nglim qoldi.

Bir kuni G'afforjon meni stansiya yo'lidagi bir xarobaga boshlab bordi. Urushdan oldin bu yerda har xil do'konlar, tapkalar bo'lgan ekan. G'afforjon bir tepalikni ko'rsatib, shu yerda bo'r borligini aytdi. Qarasam, haqiqatan, tepalikning bir tomonini qazib odamlar bo'r olganligi ko'rinib turibdi. Ikkoviniz o'sha yerni qazidik. Mushtday, yong'oqday ancha bo'r qazib olganimizda, tepamizda bo'qoqli, qora shim, ilyoqa kalta ko'ylak, qora va yaltiroq soyavoni siniq shapka kiygan, yoniga to'pponcha osgan novcha bir kishi paydo bo'ldi. Men, "bu odam hozir bizni urishib beradi", degan xayolda etagimdagi bo'rni tashlagan edim, G'afforjon "qizil soqchi" dedi-yu, ishini qilaverdi. Qizil soqchi chuqurning bo'yiga o'tirdi, bizni gapga soldi, ota-onamizni, mahallamizni so'radi. G'afforjon qipchoq-ariqlik usta Abdurahmon temirchining o'g'li ekanini aytdi. Men dadamning nomini aytdim, lekin nima ish qilishini aytolmadim. Soqchi meni chuqurdan tortib oldi, yoniga o'tqazdi va gapga soldi.

— Nega dadang kiyim-bosh qilib bermaydi? — dedi.

Men G'afforjonga qaraganda juldur kiyinda ekanimni endi payqadim.

— Dadamning puli yo'q, — dedim.

Soqchi ota-onam borligiga ishonmadi, shekilli, gapni aylantiraverdi. Men ota-onam borligiga G'afforjonni guvoh qilmoqchi bo'lib orqamga qarasam, G'afforjon ketib qolibdi.

— Men seni hozir bir yaxshi joyga olib boraman, — dedi qizil soqchi, — to'yguningcha ovqat yeysan, kiyim-bosh qilib berishardi, o'qiysan...

Men yig'ladim.

— Bormayman, o'qimayman, o'zim o'qigannan! — dedim.

Soqchi u desam — bu dedi, bu desam — u dedi, qo'ymadi: qochmoqchi bo'lgan edim, yo'limni to'sib, bilagimdan mahkam ushlab oldi. Uning qo'lidan qochib qutulishimga ko'zim yetmay, yig'lab, yolvorib ketaverdim.

Xavoba, ba'zan obod ko'chalardan uzoq yurib, atrofi yog'och panjarali kattakon bir hovli oldida to'xtadik. Hovlining ko'cha

eshigi oldida men tengi ikki bola bir qulochdan keladigan tayoqni yelkasiga qo'yib g'oz turar edi. Bularni ko'rib, "shu eshikdan kirsam, qaytib chiqmas ekanman-da", degan xayolda yuragim orqamga tortib ketdi.

Hovli g'ij-bij bola, shovqin. Ichkariga kirdik. Qizil soqchi meni baland imoratning zinasida yig'lab o'tirgan bir bolani yupatayotgan no'g'oy xotinga topshirib chiqib ketdi.

Bola nuqul:

— Men ochlar maktabida o'qimayman, — deb yig'lar edi.

No'g'oy xotin uning boshini silar ekan:

— Kim aytdi senga ochlar maktabi deb, ochlar maktabi emas, dorilshafaqa! — dedi.

Baribir "dorilshafaqa" degan so'z unga tasalli bermadi. Men ham yig'ladim.

Qorong'i tushgandan keyin panjaradan oshib qochib ketdim. Uyda rosa xavotir bo'lishgan ekan, lekin meni hech kim urishmadi, voqeani eshitib kulishdi.

Shundan keyin G'afforjon bilan bir haftacha ko'rishmadim, ko'rishgim ham kelmadi. Katta ko'chadan Mamajon degan boshqa o'rtoq topib oldim. Uning dadasi Qulmat qizil soqchi bo'lib, dadam bilan tanish ekan.

Mamajon bir kuni meni G'ishtlik machitdagi patir-puturga[1] boshlab bordi. Bu yerda jo'xori berar ekan. Patir-puturda bizning mahalladan uch-to'rt bola, bularning ichida G'afforjon ham bor edi. Bular jo'xori olgandan keyin hammamiz qaytdik. Mamajon yo'lda qoldi. Nima bo'ldi-yu, G'afforjon xotin olganidan gap ochildi. Bolalar bunga ishonishmas, "Xotinni qanaqa boqadi", deb kulishar edi. G'afforjon: "Xotin olganman, xotinim bor", deb turib oldi. Bolalardan biri hasad qilganday:

— Xotin olgani bilan o'zi oliptimi, dadasi olib bergan, — dedi.

— Xotinni hammaga ham dadasi olib beradi-da! — dedi G'afforjon.

Bolalardan yana biri:

[1] **Patir-putur** — kooperativ.

— Xotin o'z-o'zingnikimi, nima qilsang qilaverasanmi, ura olasanmi? — dedi.

G'afforjon kerildi.

— Uraman! O'ldirib qo'yaman!

Bolalar ishonmagan bo'lib uni giigijlashdi. G'afforjon hozir borib xotinini uradigan bo'ldi. Hammamiz uning ketidan bordik, birov ro'paradagi tomga, birov devorga, birov tolning kallagiga chiqdi. Men ko'cha eshigining tirqishidan qarab turdim. Abdurazzoq yamoqchining katta qizi Omina hovlining o'rtasida bosh yuvmoqda, sochiga qatiq surkab shox qilib qo'ygan, kattakon qora qumg'ondan tog'orachaga suv quymoqda edi.

G'afforjon to'g'ri borib uning kallasiga qo'yib-qo'yib yubordi. Omina biron gunoh qilgan bo'lsa-yu, G'afforjonning urishini bilsa, ehtimol, boshini ushlar yo qochar edi, boshiga to'satdan shaloq tushgani uchun qo'rqib ketdi-yu, tura solib G'afforjonning yuziga chang soldi. G'afforjon tepmoqchi bo'lib oyog'ini ko'targan edi, Omina oyog'idan ushlab uloqtirib yubordi. G'afforjon chalqancha yiqildi va erkakligi tutib ketdi-yu, o'rnidan turib uning sochiga chang soldi. Bo'ldi urish, bo'ldi mushtlash... Biz qo'rqib tumtaraqay bo'ldik.

Men hovliga kelib, bo'lgan voqeani ayamga aytib berdim. Ayam avval xo'p kuldi, keyin qovog'ini solib: "Bunaqa gaplarni gapirib yurma, uyat bo'ladi", dedi. Keyin bilishimcha, amakim o'sha Abdurazzoq yamoqchidan qolgan Nisobuvini xotin qilib olgan, uning katta qizi Ominani G'afforjonga fotiha qilib qo'ygan ekan.

G'afforjonning butun tentak-tantiqliklari, yoshiga nomunosib erka-injiqliklari, meni soqchining qo'liga tashlab qochib ketgani ham bir bo'ldi-yu, bu qilmishi ham bir bo'ldi. Shundan keyin G'afforjon mening uchun yetti pushti begona, so'zlari, kiyim-boshi, hatto o'zi ham o'ziga yarashmaydigan bo'ldi-qoldi.

Shu-shu bo'ldi-yu, G'afforjondan butkul ko'nglim qoldi. Bularning hovlisi ilgari ham ko'zimga kechasi yonidan o'tgani odam qo'rqadigan bir xarobaday ko'rinar edi, bunga yana nimadir yelkasida tebrangan Savrinisoning tobuti, qizining o'limini eshitib qo'shildi. Bu hovliga uzoqdan ko'zim tushsa ham odamlarning

yig'lagani darmoni yetmagan onasi, ko'rpa-yostiq ortib g'altak-arava surib ketayotgan Azim duduq, bo'yi bir qarich, soqoli uch qarich chol — G'afforjon ko'z oldimga kelar edi.

Ayni qovun pishig'i edi. Bir kuni dadam shom paytida ikkita qovun ko'tarib keldi. Uning boshida tepasi uchlik, peshanasiga qizil yulduz taqilgan, bolalar aytmoqchi, sentr shapka, egnida qora, kalta kiyim, oyog'ida kattakon etik. Men hayrat va quvonchdan qichqirib yuborayozdim. Ayam garang bo'lib qoldi, nafasi titrab, bir nimalar dedi. Dadam o'tirib qovunni so'ydi, karjlar ekan, kuldi.

— Har kuni yog'liq-yog'liq ovqat olib kelganimda hayron bo'lmading, bu ovqatlar qayoqdan kelayotibdi, deb bir og'iz so'ramading, endi shapkamga qarab hayron bo'lasanmi?

Ayam yig'ladi.

— Siz urushga ketib qolsangiz biz nima qilamiz?

— Men hech qayoqqa ketmayman, urush shu yerning o'zi-da, eshitmayapsanmi, shu o'n-o'n besh kun ichida bosmachi Xodanari borsak shu atrofdagi qishloqlarga chiqamiz. Qani endi Yaypanga borsak, Qudashga borsak, Buvaydilarga borsak... Lekin bozorini bosdi. Baqachorsini bosdi, Degrezlikni bosdi... Juda Oqqo'rg'onga borsak, seni ham olib boraman, Umarali bechora Qur'onsirab yotibdi, haligacha go'rining ustida birov g'ing degani yo'q...

Ayam yig'idan to'xtab uzoq o'ylanib qoldi, yana o'pkasi to'ldi-yu, birdan turib paranjisini chimmatsiz yopindi-da, chiqdi-ketdi. Dadam "Qayoqqa?" deganicha qolaverdi. Men ayamning ketidan yugurdim. Ayam anhor bo'yidan jadallaganicha borib amakimning hovlisiga kirib ketdi. Men ko'prik boshida birpas turdim-u, qaytib, dadamga aytdim. Anchadan keyin hovliqqanicha amakim, uning ketidan ayam kirib keldi. Amakim eshikdan kira solib dadamni urisha ketdi.

— Esing bormi, o'qqa uchsang nima qilasan! Tur, hozir borib shapkangni topshirib kel!

Dadam churq etmadi. Amakim so'kina-so'kina chiqib ketdi. Dadam endi ayamni urishar, deb o'ylagan edim, yo'q, urishmadi. Ayam unga mung'ayib qarar, ko'zlaridan duv-duv yosh oqar edi.

Allamahalda amakim usta Homidjonni boshlab keldi. Ikkovi dadamni o'rtaga oldi. Dadam urush to'g'risida ayamga aytgan gaplarini aytgan edi, usta Homidjon tutaqib ketdi.

— Askar deganni urushga yubormay nima qiladi, so'qimga boqadimi! Ashxobodga angliz kelgan, deydi, har kuni o'sha yoqqa askar jo'natayotibdi. Askarlar stansa yo'lidan ashula aytib o'tganini o'z qulog'im bilan eshitdim:

Hech bo'lurmi, hech bo'lurmi,
Sharq sizlarga hech qolurmi,
Hoy ket, xoin anglizlar,
Turkiston sizga qolurmi?...

Bu gaplar ta'sir qildimi, yo qarshi so'z aytib ayamni yig'latgisi kelmadimi, har nechuk, dadam sukut qildi.

Oradan bir hafta o'tdi, ikki hafta o'tdi, dadam sentr shapkasini topshirmadi. Shundan keyin amakim ayam ikkovimizni olib O'rdaga boradigan, bizni yig'latib, komandirlardan dadamni so'rab oladigan bo'ldi. O'rda tagiga ikki marta bordik, biroq ikki marta ham O'rdaga qanday qilib kirishni, kirganda ham kimga yo'lishni bilmay, soy bo'yida o'tirib-o'tirib qaytib keldik. Bu orada shaharning chekka mahallalarini necha-necha bosmachi bosdi, necha-necha otishmalar bo'ldi. Dadam, aftidan, bu otishmalarda qatnashsa ham, bizga aytmas edi.

Bu orada ko'rni otrad[1], yalang oyoq otrad deganlari chiqdi, nachaylik[2] va komandirlardan Sottixon, Hasan-Husan Ermatovlar, Sulton Abdurahmonov, bizning mahalladan taqachi Qo'zivoy Rahimov, Toshkentda komandirlikka o'qigan va Ashxobod urushiga borib kelgan Nishon Rizayev va boshqalar chiqib shaharda dong taratdi. Shundan keyin amakim xarxasha qilmay qo'ydi. Ayam ham ko'nikdi.

Kuzning boshida dadam meni O'rdaning ro'parasidagi soydan nari, Qalandarxonada ochilgan "Urfon" degan yangi maktabga berdi, ayamni yangi shahardagi "Mandalak" degan pilla zavodiga ishga joylab qo'ydi. Umri musofirchilikda va to'rt devor orasida.

[1] **Konniy otrad** — otliqlar otradi.
[2] Nachalnik.

da o'tgan, ish deganda og'ir temirchiliknigina biladigan ayamga zavod ma'qul bo'lib qoldi: "Nuqul xotinlar ishlar ekan, ishi ham ishga o'xshamaydi, o'ynab-kulib ishlaydi kishi", der edi. Unga non-knishka, kerosin-knishka, baliq-knishka berishibdi.

Men "Urfon" maktabiga birinchi borgan kunim ko'zimga juda issiq ko'ringan Meliboy domla degan yigit hammamizni kattakon bir sinfga yig'ib sharqiy degan ashula o'rgatdi. Ashulani yozib oldik.

Qalqing, ishchilar, oyoqqa,
Biznikidir bu zamon,
Yo'q endi bizni ezuvchi,
Zolimlara hech omon!

Men bu yigitni keyinchalik tanidim: bir vaqtlar G'afforjon o'qigan Abduvahob domlaning maktabida ko'rgan ekanman. Abduvahob domlaning suyukli shogirdi, naymanchalik qishloqi bola Meliboy ekan.

Bu maktabda bir oycha o'qidim, xolos. Bir kuni dars vaqtida Shayxulislom guzari tomonda qasur-qusur bo'lib qoldi. O'qish to'xtadi. Bolalarga javob berildi. Domlalarimizning hammasi miltiq ko'tarib, otishma bo'layotgan tomonga chopishdi. Domlalarimizning hammasida miltiq bo'lib, miltiqlar hay'ati ta'limiyada[1] turar ekan.

Bu gapni ayamga aytmay qo'ya qolsam ham bo'lar ekan, dadam baloga qoldi. Ayam yig'lab, o'zini urib dadamga dashnom berdi: "Bitta-yu bitta bolamni shunaqa notinch maktabga berasizmi! Domlalarning hammasi askar ekan-ku! Bosmachi maktabni bosganda nima bo'lardi!" dedi.

Dadam gap qaytarib o'tirmadi. Ikki kundan keyin meni "Istiqbol" degan maktabga berdi. "Istiqbol" uyimizdan bir mahalla nari Baqaqurilloqda bo'lib, bir boyning butun mahallani enlab yotgan kattakon imoratida ekan. Bola ko'p, o'zimizning mahalladan qizil soqchi Qulmatning o'g'li — o'rtog'im Mamajon, Temirboy baqqolning o'g'li Po'latjon, Rasul maxsido'zning o'g'li Salimjon,

[1] O'qituvchilar xonasi.

Ro'zimat yog'chining o'g'li Husan, Xandon no'g'oyning o'g'li Hasan, G'afforjonlar ham bor ekan. Bu maktabda domla ko'p, bularning ichida eng zo'ri Abduvahob domlada o'qigan, keyin o'zi maktab tutgan Hakimjon domla ekan. Bu domla novcha, qo'ng'iz nusxa mo'ylab qo'ygan, qop-qora sochini bir tomonga silliq qilib taragan, qirrali shim va qop-qora botinka kiygan kishi edi. Hakimjon domla maktab mudiri, tabiiyot muallimi, o'rta yoshlardagi Po'latjon domla hisob, jug'rofiya, Abduvose Qayumiy hisob va sharqiy, Abdullajon Karimov badantarbiya, Nosir Zokiriy ona tili, Karpova degan rus xotin rus tilidan dars berar, bulardan tashqari, sentr shapka kiygan to'rtta tatar muallim bo'lib, bularning hammasi harbiy kiyimda edi.

Qish chiqdi deganda bir kuni maktabga o'n-o'n beshta sallali qariyalar kelishdi. Hakimjon domla bularni hujrasiga olib kirdi. Domla qariyalar bilan suhbatlashgandan keyin, ularni jo'natib, bizning sinfga kirdi. Bir tatar muallimi bizga tabiiyotdan dars berib, havo borligini isbot qilmoqda edi. Hakimjon domla darsni to'xtatib, qariyalar nima uchun kelganini gapirib berdi. Qariyalar: "Qur'ondan xat ko'tarilayotibdi, maktabda Qur'on o'qitsang o'qitganing, bo'lmasa bolalarimizni maktabdan chiqarib olamiz", — deyishibdi. Domlaning aytishiga qaraganda, qariyalarni vahimaga solgan narsa Toshkentda qo'zg'algan "yangi imlo" masalasi ekan. Yangi imlo tarafdorlari o'qish — savod chiqarishni osonlashtirish uchun eski imloda "mktb", "m'lm" shaklida yoziladigan so'zlarni "maktab", "muallim" shaklida yozishni taklif qilishar ekan. Bu, albatta, Qur'on xatiga hech to'g'ri kelmas edi. Hakimjon domla qayta-qayta tayinlab: "Ota-onalaringga borib aytinglar: birinchidan, bizning maktabda yangi imlo yo'q; ikkinchidan, ertadan boshlab sizlarning sinflaringda haftasiga ikki marta Qur'on darsi bo'ladi", — dedi.

Maktabdan ketib qolgan bolalar bor ekan, shundan keyin hammasi qaytib keldi. Har shanba va seshanba kuni Qur'on o'qiydigan bo'ldik. Qur'onni muallimlarimizdan Nosir Zokiriy o'qitar, shu bilan birga, o'qigan satrlarimizning ma'nosini ham aytib berar edi.

Men Oqqo'rg'onda Qur'onni "Taborak"gacha yod olganimda, uning har bir so'zi, xususan, "sab'a samovotun tiboqo" degani

etimni jimirlatib yuborgan edi, bu yerda ko'p suralarning ma'nosini, xususan, "sab'a samovotun tiboqo" degani "yetti qavat osmon" degani ekanini bilganimdan keyin kulgim qistadi, nazarimda, Qur'onning salobati yo'qoldi.

Bir kuni maktabga novcha, bo'g'ma to'r ko'ylak, shinel kiygan bir yigit keldi, darsdan keyin yuqori sinf talabalarini yig'ib, "Ishtirokiyun yoshlar ittifoqi" to'g'risida gapirib berdi. Uning aytishiga qaraganda, "Ishtirokiyun yoshlar"ni Lenin "o'g'lim" der ekan. Yigit gapirib bo'lgandan keyin varaqa — anketa tarqatdi. Anketani to'ldirib berdik. Yigit ketdi.

Oradan uch-to'rt kun o'tgandan keyin tatar muallimlarimizdan biri anketa to'ldirganlarni eski shahardagi semun imoratga boshlab bordi. Ikki qavatlik, seroyna kulrang imorat kappon, rasta va boshqa imoratlarning xarobasi ustida qaqqayib turar edi.

Ikkinchi qavatga chiqdik. Kattakon zalda biz tengi, bizdan kattaroq bolalar ko'p ekan. Bir yigit o'rtaga chiqib urush, bosmachilik, ochlik to'g'risida va'z aytdi; undan keyin bu yerga to'plangan "Ishtirokiyun yoshlar"ning vazifasini uqtirib, hammaga oq tunuka quticha ulashdi va bilagimizga qizil bog'ich bog'ladi. Biz guzarlarga, bozorga borib, erta-indin bo'ladigan Birinchi may bayrami kunlarida xalq orasiga kirib ochlarga "iona" to'plashimiz kerak ekan.

Tarqaldik.

Men shaharni bilmaganim, hanuz kamgap bo'lib, birovdan iona so'rab olishimga ko'zim yetmagani uchun Mamajonga ergashdim. G'izillaganimizcha Katta Chorsuga bordik. Bu yerda tiklangan, omonat qurilgan samovarlarda odam ko'p ekan. Mamajon jomening oldidagi samovarga boshladi. "Iona" degan so'z ikkovimizning ham esimizdan chiqib qolibdi, odamlarga quti tutganimizda nima deyishimizni bilmay bir-birimizga qaradik. Yo'q, xayriyat, Mamajon gap topdi, qutini tutganida: "Ochlarga pul bering", dedi. Odamlar ikkovimizning ham qutimizga pul tashlashar edi. Bir davrada o'tirgan sersoqol bir chol yonini kavlar ekan, kulib: "Ochlarga pul bering emas, ochlarga yordam qiling, deng lar", dedi.

"Ochlarga yordam qiling", deb Chorsuni aylandik, undan nari o'tgani qo'rqdik — bosmachi bosib qolishi mumkin edi. Ta-

roqchilikka, G'ishtko'prikka, undan Yog' bozoriga bordik. Kechga yaqin qutilarimiz pulga to'ldi, to'lgan qutilarni semun imoratga topshirib, ertaga darsdan keyin yana yordam puli to'plagani bo'sh quti oldik.

May bayramini xalq uch-to'rt kun hayit qildi. Mamajon ikkovimiz bu kunlarda ikki-uch qutidan pul yig'dik. Undan keyin faqat bozor kunlari, ba'zan kechalari tomoshaxonalarga kirib, pul yig'adigan bo'ldik.

Bir kuni Hakimjon domla ishtirokiyun yoshlardan olti bolani yog' bozoridagi dorilmuallimga yubordi. Men bu zo'r maktabning maqtovini ko'p eshitgan edim. Bu maktabning talabalari — o'spirin yigitlar bo'ysira[1] bo'lib, sharqiy maqomiga gurs-gurs qadam tashlab o'tganda ko'chaning ikki yuzini odam tutib ketar edi.

Biz ishchimiz, mehnatchimiz,
Biz ham inson o'g'limiz;
O'ylashaylik, bizlar na deb
Zolim boylar qulimiz?..

Kattakon hovlining uzun ayvonida biz tengi va bizdan kattaroq bolalar ko'p ekan. Dorilmuallimning talabalaridan biri — novcha, sariqroq, ko'zlari ko'k Hojiqurbon Qosimiy degan bir yigit ayvonning bir chekkasiga qo'yilgan stolning orqasida o'tirib, hammaga guvohnoma va har uch bolaga bittadan sopol hushtak ulashmoqda edi. Men, Mamajon, Sharifxon degan bola uchovimizga bitta hushtak tegdi.

Guvohnomani o'qidim.

"Berildi ushbu guvohnoma Abdullo Qahhoriyga shul xususdakim, mazkur o'rtog'ni Xo'qand eski shahar ishtirokiyun yoshlar ittifoqi mehnatkash yoshlarni ro'yxatga olish uchun vakil qilingandir. Guvohnoma tubandagi muhr va imzolar bilan tasdiqlanadi. Rais. Sarkotib".

Guvohnoma va hushtaklarni olganimizdan keyin eski shahar ishtirokiyun yoshlar ittifoqidan kelgan yosh, mo'ylabi endi sabza urgan bir yigit bizga vazifalarimizni tushuntirib berdi. Har uch bola bir komanda bo'lib, buning biri komandir bo'lar ekan. Ko-

[1] **Bo'ysira** — saf.

manda mahallalarni kezib, hovlilarga kirib qarol va xizmatkor bo'lib yurgan o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha hamma yoshlarni hamda ko'knorixona va takyalarni ro'yxatga olishi, yosh qizlar erga berilayotganidan darak topsa, beto'xtov shtabga ma'lum qilishi, komandaga birov qarshilik qilsa, komandir hushtak chalib qizil soqchini yordamga chaqirishi kerak ekan. Yosh qizlarni erga berish to'g'risida so'z ketganda, darrov ko'z oldimga Omina keldi, G'afforjonni yomon ko'rganim uchun bo'lsa kerak, shu yerdayoq voqeani aytib bergim keldi, biroq ota-onamdan istihola qilib, amakimdan qo'rqib, indamadim[1].

Bilagimizda qizil bog'ich, qo'limizda guvohnoma, hushtak — shaharda bizdan zo'r odam yo'q edi.

Biz mahalla kezgani juma kunlari chiqishimiz kerak edi. Boshqa komandalarni-ku bilmayman, qarol, xizmatkor, yosh qizlar masalasida ishimiz o'ngmadi — juma kuni bir nechta mahallani kezib Isfara guzardan bitta qarol topdik, xolos; erga beriladigan yosh qizlardan darak topmadik; lekin ko'knorxona-yu takyadan serob ekan — Jomening orqasi va katta Chorsu atrofidan beshta takya, to'rtta ko'knorxona topib, xatga oldik.

Shu orada maktabimiz "Istiqbol" internatga aylandi. G'afforjon, Temirboy baqqolning o'g'li Po'latjon, Oq domlaning o'g'li Obidjonlar internatga kirmay ketib qolishdi. Mamajon ham ko'rinmay qoldi. Men bu haqda ota-onamdan so'rashni ham lozim ko'rmay internatga yozildim. Amakim uyimizga kelib dadam bilan janjallashibdi: "Bitta-yu bitta o'g'lingni boqolmay hukumatga berdingmi!" — debdi. Ayam amakimning tarafini olgan ekan, dadam: "Bolam hukumatga kerak bo'lsa, internatda o'qimasa ham olib ketaveradi", — deb ikkovini yengibdi.

[1] Xayriyat indamaganim, ko'nglimga kelgan gapni ayamga aytganimda, ayam: "Bizni amaking bilan yuzko'rmas qilmoqchimiding!" deb urishib berdi. G'afforjon bilan Omina voqeasi dilimda qolib ketgan ekan, oradan olti-yetti yil o'tib, yozuvchilikka havas paydo qilganimda dastlab shuni qalamga oldim. "Yosh qizlar o'gay ota qo'lida" degan hikoya yozdim. Hikoya xotin-qizlar gazetasi "Yangi yo'l"da bosilib chiqdi. Ikki-uch yildan keyin shu haqda yana bir hikoya yozdim. Bu hikoya "Boshsiz odam" sarlavhasi bilan "Yer yuzi" jurnalida bosildi. Bu hikoyada G'afforjonni — Faxriddin, Ominani — Mehri deb atadim.

"Istiqbol"ning mudiri Hakimjon domlani inqilobiy qo'mita ishga olib qo'ydi. Internatga Hakimjon domlaning domlasi Abduvahob domla mudir bo'lib keldi. Bolalarga ko'k bo'zdan "forma" va qalpoq berishdi.

Abduvahob domla internatda qattiq intizom o'rnatdi: darvoza oldiga o'zimizdan navbatchi qo'yib, bolalarni hech qayoqqa chiqarmaydigan bo'ldi; biron gunoh qilgan bolalarga jazo berish uchun talabalardan "mufattish komissiyasi" tuzdi. Bolalar bir-birini sizlashi, muallimlarga murojaat qilganida avval chest berib "afandim" deyishi, ovqatxonaga bo'ysira bo'lib kirishi, ovqat vaqtida gapirmasligi, ovqatdan keyin biroz dam olgach, bo'sh vaqtni dars tayyorlab, sharqiy o'rganib, muallimlarning har xil leksiyalarini eshitib o'tkazishi kerak edi. Iona yig'ish, mahallalarni kezib ro'yxat qilish ishlari qolib ketdi. Bu haqda bizga hech kim hech narsa demay qo'ydi. Biz ishtirokiyun yoshlarning yig'ilishiga ham Abduvahob domla ijozat bersagina borar edik.

Bolalar intizomga o'rgangandan keyin ota-onasi bor bolalarga har payshanba kuni uyga borib yotib kelgani javob beriladigan bo'ldi.

Bir payshanba kuni hovliga borib, shodlik ustidan chiqdim. Ayam meni quchoqlab goh kulib, goh yig'lab xursandchiligini izhor qildi:

— Hukumat dadangni askarlikdan bo'shatib, do'kon ochib berdi. Hozir hukumatga askardan ham ko'ra o'roq kerak ekan. Temir, ko'mirni ham o'zi berar ekan. Saydali degan yigitni bosqonchi qilib berdi. Ha, undan ham qizig'i: hukumat bizga, o'z-o'zimizga hovli berdi. Ro'zimat yog'chining kichik hovlisini berdi. Dadang oq qog'oz olib keldi. Ertaga ko'chamiz. Dadang Saydali bilan hozir shu hovlining uyoq-buyog'ini tuzatyapti...

Haqiqatan, ertasiga — juma kuni o'sha hovliga ko'chdik. Hovli Mirtohir mahallasi bilan Galaboqqollik o'rtasidagi ko'chaning boshida ekan. Bir chekkasidan zovur o'tadigan kichkina hovlicha, bir uy, ayvon, kattakon tol. Dadam ko'chimizni keltirib tashlaganidan keyin ayamga tegishib:

— Qoziqni mahkam qoqaver, endi sug'urmaysan! — dedi va ishga ketdi.

Do'kon shu ko'chaning ro'parasida ekan.

Ayam ikkovimiz kuni bo'yi tinim bilmadik. Men kechki payt ketishim kerak edi, ayam qo'ymadi, nazarimda, o'z uyimizda bir-ikki kecha yotishimni xohlar edi. Yotib qoldim.

Ertasiga darsga kechikdim. Hovliqib ketayotgan edim, Baqa-qurilloqqa qayrilishda sinfdoshimiz Nazir degan bolani ko'rib qoldim. Ikkovimiz chopdik. Internat hovlisiga kirib, chap tomondagi darsxonaga burildik. Eshikdan avval men kirdim. Uzun yo'lakda qo'lini orqasiga qilib yurgan Abduvahob domlani ko'rib qoldim. Domla barmog'i bilan imladi. Yugurib bordim, g'oz turib "afan-dim" deganimni bilaman, qulog'imning ostiga tarsaki tushdi. Gan-gib qoldim. Domla boshi bilan ishora qilib sinfni ko'rsatdi... Nazir mening shapaloq yeganimni ko'rib qochib qolgan ekan, domla uni "mufattish komissiya"ga topshiribdi. "Mufattish komissiya" uni sud qilib "qattiq jazoga mustahiq" qildi: bolalar ovqat yegani kir-ganda, Nazir bir chekkaga qo'yilgan kursiga chiqib, hamma ovqat yeb bo'lguncha ikkala qo'lini ko'tarib turdi...

Ta'til kunlari boshlandi. Bu kunlarda bosh qashigani qo'limiz tegmas edi. Qayoqdandir bir tatar qiz kelib yaxshi o'qiydigan bolalardan kashshoflar otradi tashkil qildi. Buning ham o'ziga yarasha mashg'uloti ko'p ekan. Juma kunlari sayohat qilib sha-hardan tashqari Pishqoroq ko'li atrofi, Naymancha soyi bo'ylari, shahar qo'rg'oni, Solihjon boyvachcha va boshqa boylarning bog'lariga chiqardik. Bu vaqtlarda shahar atrofi bosmachi-lardan tinchib qolgan, uzoq qishloqlardangina turli xabarlar ke-lar edi.

Yana qayoqdandir bir yigit kelib internatda "sanoyi nafisa"[1] to'garagi tashkil qildi. Ichimizda ashula aytadigan bolalar bor ekan, yangi sharqiylar, xor va deklamatsiyalar o'rgandik.

Shahardagi bir qancha maktabning "sanoyi nafisa" to'garaklari ishtirokida eski shahardagi musulmon teatrida besh pardalik kat-ta konsert berildi. Biz konsertda uch nomer — gimnastika, bitta sharqiy, bitta deklamatsiya bilan qatnashdik. Nomerlarimizni ijro qilganimizdan keyin zalga chiqdik. Ikkinchi parda yopilganda sahnaning oldiga soqol-mo'ylabi qop-qora, qaytarmayoqa kam-

[1] Nafis san'atlar.

zul kiygan Ahmadxonov degan kishi, uchinchi pardadan keyin o'zimizning Hakimjon domla chiqdi. Ahmadxonov "bashariyat, mustabid", "sharq ozodligi" degan gaplarni ko'p qaytardi, Hakim-jon domla esa "maorif", "hurriyat" degan gaplardan keyin ikki og'iz so'zining birida "xoin Abduvahob" deyaverdi. Biz hayron bo'lib bir-birimizga qaradik. Nazarimda, Hakimjon domla Abdu-vahob domlani "zolim" deyish o'rniga nuqul "xoin" der edi.

Biz yotoqqa qaytib kelguncha "xoin Abduvahob" degan gap allaqachon bolalarning qulog'iga yetibdi. Yotoqlarda shovqin-su-ron, bolalar bir-birini yiqitgan, mingan... Navbatchi murabbiy-ning qo'lidan hech narsa kelmay qoldi. Hammaning og'zida shu qo'shiq edi:

Hur bo'lib yasha, bir bo'lib yasha,
Jumla xobingni endi sen tashla...

"Anarxist" degan gap paydo bo'ldi. Hamma o'zini anarxist hi-soblar, anarxistligini bir-biriga isbot qilish uchun kurakda turmay-digan ishlarni qilar edi. Shunda Abduvahob domladan bir shapaloq yeganimni eslab men ham bir noma'qul ish qildim, bu qilmishim keyinchalik maorif xodimlarining majlisida, undan keyin muzofot firqa qo'mitasining ijroiya byurosida og'izga olinibdi.

Abduvahob domla ketib qoldi. Uning o'rniga o'rta yoshlarda-gi, cho'qqisoqol, yuzidan tabassum arimaydigan Po'latjon domla vaqtincha mudir bo'ldi.

Bolalar "hur" bo'lib, o'qishlardan futur ketdi. Buning aksi muallimlarga ham urdi. Ba'zan dars soatlari bo'sh o'tar edi.

Akasi firqa-sho'ro maktabida o'qiydigan Akram degan bola ona tili darsida "f" harfiga qarshi chiqib domla bilan olishdi, tanaf-fus vaqtida darslar jadvalidagi hamma "f"ni o'chirib, ustiga "p" yozib chiqdi; yana bir darsda domlaga: "Nima uchun ona tili dey-miz, ota tili desak bo'lmaydimi?" — deb savol berdi. Shu masala Toshkentda bo'lib o'tgan imlo konferensiyasida ham ko'tarilgan, bunga Fitrat degan kishi: "Biz onamizdan tug'ilganimizga shubha yo'q, lekin otamizdan bo'lganimizga shubhalanish mumkin", — deb javob bergan ekan. Domla shuni aytdi.

Yoz o'tdi. Kuzning o'rtalarida payshanba kuni uyga kelsam, ayam meni xafaroq qarshi oldi. Uyga kirdim va qoziqlarga osig'liq uchta beshotar miltiq, shoda-shoda o'q, tokchada turgan ikkita yaltiroq to'pponchani ko'rib hayron bo'ldim, keyin suyunib ketdim.

Ayam dadamdan nolidi.

— Topishi yaxshi edi, uyimizdan chaksa yarim, chaksa un, guruch uzilmasdi, xumchada yog'... Buni ko'rmaysanmi, do'konni topshirib, Meliboy aminga yigit bo'lib o'tiribdi! — dedi, keyin o'ziga tasalli berdi: — Lekin ko'proq ishi shaharda: o'q, yaroq olgani kelgan bosmachilarning odamini tutishar ekan. Ha, aytganday, esingda bormi, Oqqo'rg'onda Tolib degan qo'shnimiz bo'lar edi, uyi do'konimizning orqasida edi, shu yigit o'q olgani kelgan ekan, qo'lga tushay deganda, qochib ketibdi... Lekin mana bunaqa qishloqqa chiqqani yomon, o'tgan kuni Meliboy amin boshliq yigitlar bilan qishloqqa ketganicha hali daragi yo'q. Qaysi qishloqqa ketganini bilmasam...

Ko'z oldimga darhol Valixon so'fi keldi.

— Buvaydiga ketishgandir! Dadam Valixon so'fini topib otib tashlaydi. So'fi dadamni olomon qildirib yuborishiga sal qolgan edi, — dedim.

— Ha, so'fi o'lgurni otib tashlasin! — dedi ayam xuddi hozir o'zi otmoqchi bo'lganday ko'rsatkich barmog'ini o'qtalib. — Qudashga borib To'raqul vofurushni ham otsin! Bular bizga ozmuncha azob berdimi! Yaypanga ham borsin! Lekin Olim buva dadangni so'kkan, hovlisidan haydab solgan bo'lsa ham, o'zi yaxshi odam edi...

Norg'ul, qorachadan kelgan Meliboy aminni bir-ikki ko'rgan edim, uning hovlisi ko'chaning narigi yuzi, muyulishida bo'lib, miltiqli odamlar kirib-chiqib yurganiga ko'zim tushgan edi. Dadamdan eshitib ayamning aytishiga qaraganda, bu odam asli alaqaysi qishloqdan bo'lib, "hukumatga til bergan", bosmachilar buni fahmlab qolgandan keyin shaharga qochgan, bosmachilar uning uyiga o't qo'ygan ekan. Uning yigitlari ham Avg'onbog', Yaypan, Qirqketmon, Arg'amchiqishloq, Oqtepa, Chilgijiyda, Naymancha va boshqa qishloqlardan, shaharliklardan dadam bilan bir aravakash-u allakim degan bir sozanda bor ekan. Meliboy

amin: "Men Leninning o'g'liman, Lenin Qo'qonga keladi, kelmasa o'zim borib olib kelaman", — deganmish.

Ayam bora-bora dadamning bu ishiga ham ko'nikdi, dadam otrad bilan tez-tez qishloqlarga chiqqanda, bir-ikki kun yo'q bo'lib ketganda ham ko'p tashvish tortmaydigan bo'ldi. Biroq qishda ro'y bergan katta fojia ayamnigina emas, meni ham vahimaga solib qo'ydi.

Bir kuni darsdan keyin tatar muallimlarimizdan biri bolalarni katta zalga yig'ib marsiya o'rgatdi:

Tug'onlar, shahidlar, qurbon bo'ldingiz
Aziz xalq uchun tortishqonda...

Shu kuni duv-duv gap bo'ldi: Nosir maxsumni bosmachilar o'ldirishgan emish; o'n uchta qizil soqchi so'yilibdi; bular o'ttiz ikki kishi ekan...

Nosir maxsum shaharda mashhur muallimlardan bo'lib, Taroqchilikda kattalarga maktab ochganini eshitgan, uning soqolmo'ylabli "talaba"lari Birinchi may namoyishiga duxovoy muzika chalib chiqqanini ko'rgan edim.

Ertasiga tushga yaqin Po'latjon domla butun internatni bo'ysira qilib Jomega olib bordi. Ko'chalarga, Jome va uning atrofiga odam sig'ishmas edi. Motam marosimiga shahardagi hamma maktablar, internatlarning talabalari, mehnatkashlar ittifoqi qora lenta bog'langan qizil bayroqlar ko'tarib kelgan edi. Qurbonlar Jomening sahniga qo'yilgan ekan, bizning internat orqaroqda turib qoldi. Qurbonlar qo'yilgan yerda yig'i-sig'i, dod-faryod.

Kimningdir baland tovushi yangradi. Motam mitingi ochildi. Jimlik hukm surdi. Bu jimlikda avval bosiq, keyin qizg'in nutqlar eshitila boshladi.

Shu choq orqamizda turgan maktabning keksa muallimi bizning Po'latjon domla bilan gaplashib qoldi va shivirlab fojianing tafsilotini gapirib berdi.

Bular Nosir maxsum boshliq, qishloq sho'rosiga saylov o'tkazgani Chilgijiydaga chiqishgan ekan. Saylov o'tibdi. Saylovdan keyin osh tortilibdi. Oshga giyoh solingan ekan, osh yegan odamlarning hammasi tirrakday qotib qolibdi. Shunda qishloqni

bosmachi bosibdi-yu, Nosir maxsum boshliq hamma qurbonlarni qilichdan o'tkazibdi. Keksa muallim Qulmat degan soqchi to'g'risida ko'proq gapirdi. Qulmat saylov majlisida ko'proq gapirgan ekanmi yo bosmachilar sha'niga bir nima degan ekanmi, uning avval tilini kesishibdi, keyin qiblaga orqasini o'girib, bo'ynidan so'yishibdi. Bu Qulmat kim ekan, desam, o'rtog'im Mamajonning dadasi ekan! Men beixtiyor qurbonlar tomonga qaradim, lekin Mamajonni ko'rmadim. Qurbonlar dafn qilinayotganda biz qabrdan yana ham uzoqda qoldik. Miltiqlar otildi. Marsiyalar o'qildi.

Men o'sha kuni kechqurun Mamajonni ko'rgani, ko'ngil so'rasi gani uning uyiga bormoqchi bo'lib, Po'latjon domladan javob so'radim. Po'latjon domla mening bu niyatimdan xursand bo'lib, yonimga besh bolani qo'shib berdi, Qipchoqariqqa bordik. Qiyshiq ko'cha eshigi oldi va yo'lning ikki tomonini odam tutib ketgan, bularning ichida qizil soqchilar ham ko'rinar edi. Odamga liq to'la kichkinagina hovlichaga kirolmadik. Pastakkina, g'orga o'xshagan qorong'i uydan dod-faryod eshitilar edi. Mamajonni topolmadik, eshik oldida biron soat turib qaytdik. Ertasiga o'zim yakka borsam, odam biroz sepsilipti, lekin Mamajonni yana ko'rolmadim. Bir necha kundan keyin uning o'z qishlog'i Bog'donga ketganini eshitdim. Shu-shu Mamajon bilan boshqa ko'risholmadim. Shu voqeadan keyin ayam cho'p-ustixon bo'lib ketdi, dadamning taskin-tasalli berib aytgan gaplari unga kor qilmas edi. Ayam bir hafta "Mandalak"ka bormay qo'ydi, yana bora boshlaganidan keyin ishga alahsib, xotin-xalaj bilan bo'lib biroz ovundi, rangi kirganday bo'ldi.

Bir payshanba kuni uyga kelsam, ayam meni juda xursand qarshi oldi:

— Qonxo'r gumdon bo'libdi-ku! Do'zahda ko'zidan-u qulog'idan alanga chiqadigan bo'libdi-ku! Qon kimlarni tutmaydi!

Men tushunolmadim.

— Hali eshitganing yo'qmi? Nima yangi xabar bo'lsa avval "Mandalak"ka keladi o'zi. "Mandalak"da duv-duv gap. Ergash qo'rboshini bir kampir doskalla bilan chopib tashlabdi. Ergash o'sha kampirning bitta-yu bitta o'g'lini otib tashlagan ekan. Kampir arzga boribdi. Ergash "ayt arzingni" degan ekan, kampir

paranjisining tagidan doskalla chiqaribdi-yu, "mana arzim, mana arzim", — deb kallasiga uraveribdi.

Men bu gapga uncha ishonmadim, lekin ayamning jon-jahoni yorishgan, go'yo butun bosmachilarning joni Ergashda-yu, Ergash o'lishi bilan hammasi qirilib ketganday edi. Shundan keyin unga dadamning taskin-tasallisi kerak bo'lmay qoldi.

Shundan keyin, haqiqatan, bosmachilar haqida har xil xabarlar kela boshladi: falon qo'rboshi qo'lga tushibdi; falon qo'rboshi hukumatga yarog'-aslahasini topshiribdi; falon qo'rboshi yigitlari bilan tog' oralig'ida ketayotgan ekan, ko'chki bosib qolibdi... Lekin, shu bilan birga, uzoq qishloqlarda jang bo'lgani, bosmachilar qishloqni talagani, qishloq sho'rosiga o't qo'ygani, qo'rboshilar bir-birini o'ldirgani haqida ham xabarlar kelib turar edi. Sharqiy Buxoroga Turkiya poshsholaridan Anvarbek kelgan emish, degan gap ham chiqdi.

Bahor kirganda internatimiz "Kommuna maktabi"ga aylanib, butxonaning oldidagi bir boyning juda ham kattakon imoratiga ko'chdi. Imorat butun mahallani egallagan, ichkari boshdan oyoq mevazor bog' edi. Maktabga askarlikdan bo'shagan Bisirov degan bir tatar yigit mudir bo'ldi. Toshkentdan ikkita muallim, ikkita tutash-murabbiya keldi.

Imorat va bog' ne ahvolda edi. Bisirov domla har kuni darsdan keyin o'zi bosh bo'lib talaba va muallimlarni ishga solar, darsxona va yotoqlarni tozalatar, bog'ni choptirar, gullar ektirar edi. Klub ochildi. Muallimlarimiz iona qilgan kitoblardan kutubxona tashkil etishdi. Klubda yangi sharqiylar o'rgandik. May bayramiga tayyorgarlik ko'rdik.

May arafasi kuni hammamizga yangi forma berildi. Ertasiga bo'ysira bo'lib, sharqiy maqomiga qadam tashlab namoyishga chiqdik. Yangi forma va yangi sharqiylarimiz bilan biz ham odamlarning diqqatini jalb qildik. Namoyish bo'ladigan O'rda maydoniga kirganimizda yer-ko'kni tutib yotgan xalq bizni ko'rib guvulladi, chapak chaldi. Xalq orasidan o'tib borib, maydonning o'rtasiga qurilgan minbardan ancha berida turib qoldik. Birozdan keyin maydonga yer-ko'kni larzaga solgunday sharqiy aytib dorilmuallimning talabalari kirib keldi:

Inqilob, inqilob, ey shonli yor,
Dahshating tebratur tog'-u toshni;
Zulm elin, jabr elin aylading xor,
Beramiz, yashag'il, jon-u boshni.
Nurlaring o'chmasin bu jahonda,
So'nmagil, ey muborak charog',
Yashagil, ko'p zamon bo'l amonda,
Zulm elin, jabr elin aylading dog';
Rohat olmakdalar yanchilganlar,
Naqadar shafqat bordir soyangda;
Shafqating, rohating istaganlar,
Kecha-kunduz sening xizmatingda.

Saf bizning orqa tomonimizga kelib biroz "erinda soy" qilib turdi-da, komanda berilgach, taqqa to'xtadi. Butun miting davomida shulardan ko'zimizni olmadik. Bir men emas, nazarimda, har bir bola tezroq tovushi yo'g'on bo'lishini, dorilmuallimin talabalari safida sharqiy aytib, shularday qadam tashlab, shahar ko'chalarini larzaga keltirib yurishni orzu qilar edi.

Bayram ichi bolalar orasida: "Kommuna" maktabi dorilmuallimiga qo'shilar emish", degan gap yurib qoldi. Yoz bo'yi bu gap goh yo'qolib, goh yana chiqib yurdi-yu, o'qishlar boshlanishidan biron hafta oldin "dorilmuallimin "Kommuna" maktabi talabalaridan yigirmata bolani tanlab olar emish", degan yangi gap chiqdi. Haqiqatan, bir-ikki kundan keyin Po'latjon domla bizdan ellikka yaqin bolani bo'ysira qilib dorilmuallimga boshlab bordi. Bungacha dorilmuallimin butxonaning yonboshidagi sobiq xotin-qizlar gimnaziyasi binosiga ko'chgan ekan. Boshqa maktablardan ham bola ko'p edi. Hammani kattakon bir sinfga olib kirishdi. "Hozir dorilmuallimning katta domlasi Qori Niyoziy kelarmish, Qori Niyoziy bo'ladigan bolani ko'zidan bilarmish", degan gap yurib qoldi. Hamma ko'zini katta ochib, taqdiri nima bo'lishini kutib jimgina o'tirar edi. Katta domla deganda, mening ko'z oldimga novcha, yo'g'on, oppoq soqoli ko'ksiga tushgan nuroniy chol kelgan edi. Po'latjon domla o'rta bo'yli, chuvakkina, qop-qora sochini bir tomonga silliq qilib taragan, pidjak

va qirrasi chiqqan shim kiygan bir yigitni boshlab kirdi. Qori Niyoziy qo'lini orqasiga qilib, partalar orasida nari-beri yurdi-da, birdan to'xtab, o'rta yerda o'tirgan bir bolaga barmog'ini bigiz qilib "Sen!" dedi. Bola irg'ib o'rnidan turdi, Po'latjon domlaning amri bilan sinfdan chiqib ketdi. Qori Niyoziy bolalarga zehn solib yana yurdi, yana bir bolaga barmog'ini bigiz qilib "Sen!" dedi. Bu bola ham chiqib ketdi. Qori Niyoziy uchinchi to'xtashida meni ko'rsatdi.

Shunday qilib, yuzdan ortiq boladan ellik olti bola tanlab olindi. Bular hammasi Farg'ona muzofot ta'lim-tarbiya bilim yurti, ya'ni dorilmuallimin qoshidagi namuna-tatbiqot maktabining talabasi bo'ldi. Bu maktabdan dorilmualliminga bir qadam edi.

Shanba kuni tushki ovqatdan keyin uyga borib yotib kelgani bolalarga javob berildi. Men ovqatni chala-chulpa yeb, g'izillaganimcha uyga qarab ketdim. Nazarimda, oyog'im yerga tegib-tegmay borar edim.

Ayam kerosin, baliq ko'tarib yangitta ishdan kelgan ekan, anchagina parishon ko'rinar edi. U mening quvonchdan entikib aytgan gaplarimga "Muncha yaxshi, muncha yaxshi", deb turdi-yu, nazarimda, hech ham suyunmadi. Dadam Melivoy amin boshliq otrad bilan qishloqqa chiqib ketganicha to'rt kundan beri bedom-darak ekan. Amakim keldi, ayamga taskin-tasalli berish o'rniga uni xo'p urishdi, "Yig'lama, kasofat, birato'la yig'laysan!" — dedi-yu, bir shisha kerosin olib chiqib ketdi.

Dadam ertasi juma kuni peshindan keyin keldi. Uning oldingi bitta tishi tushgan, bir qoshi past, bir qoshi baland — xiylagina tajang ko'rinar edi. Ayam uning tishiga ham, menga keltirgan chiroyli sariq etikchasiga ham e'tibor qilmadi, hol-ahvol so'rash o'rniga yig'i boshladi.

— Bu qurib ketgurlar qachon gumdon bo'ladi-yu, qachon yurt tinchiydi!

Dadam menga etikni kiygizib ko'rar ekan, xunob bo'lib:

— Bosmachi hali-beri yo'qolmaydiganga o'xshaydi, bularga O'rdaning o'zi yarog'-aslaha chiqarib turibdi-yu, — dedi va O'rdadan go'ng ortib chiqqan bir brichka Oydinbuloq atrofida qo'lga tushganini, go'ng ostidan ikkita beshotar miltiq, besh yuzga

yaqin o'q chiqqanini aytdi, keyin beshbattar bo'g'ildi: — Xo'sh, O'rdada bironta nikalayvachcha bo'lsa bordir, lekin bosmachilar ichida Xalpaerim nima qilib yuribdi degin!

Ayam ko'z yoshini darrov artib, dadamga qaraganicha angrayib qoldi. Men ham hayron bo'ldim, Xalpaerim deganda ko'z oldimga juda ham kattakon ko'k gumbaz ustiga o'rnatilgan oltin taxtda o'tirgan nuroniy mo'ysafid — Yer yuzidagi hamma musulmonlarning podshosi kelar, lekin uning qayerda, qaysi mamlakatda podsholik qilishini bilmas edim. Dadam tushuntirib berdi. Uning aytishiga qaraganda, Turkiyadan Sharqiy Buxoroga kelib, bosmachilarga qo'shilgan va qizil askarlar bilan urushda o'lgan Anvarbek Xalpaerimning o'zi yoki uning o'ng qo'li bo'lib, aslida Xalpaerim emas, Xalifayi Rum ekan. Men tasavvurimdagi cholning bosmachilarga qo'shilishini aqlimga sig'dirolmadim. Bu gapga ayam mutlaqo ishonmadi, kalaka yo'sinidagi gaplar gapirdi. Dadamning achchig'i keldi. Shunday qilib, oraga boshqa gap sig'madi-yu, quvonchim ichimda qolaverdi. Kechqurun maktabga ketdim.

Maktabda ro'y bergan ikki hodisa Xalpaerim to'g'risida dadam kuyib-pishib aytgan gaplar rost ekanini tasdiqlaganday bo'ldi.

Bir kuni dorilmuallimin va namuna-tatbiqot maktabining mudiri va jug'rofiya muallimi Subhiy afandi sharqiy o'rgatgani bolalarni yig'di. Bu kishi jahon urushida asir tushgan, hanuz harbiy kepatasini yo'qotmagan sobiq zobitlardan bo'lib, muallim va murabbiylarimiz orasida xiylagina mo'tabar edi. Subhiy afandi bizga "Turk elining dog'i-doshi og'liyur"[1] deb boshlanadigan bir sharqiy o'rgatdi. Bu sharqiy Turk-ingliz muhorabasi vaqtida chiqqan ekan. Subhiy afandi shu muhoraba, Turk o'rdasi *Chanoq Qal'a* qirg'oqlarini o'z qoniga bo'yagani, mashhur Turk sarkardalari to'g'risida gapirib, Anvarbekdan so'z ochdi va "Turk o'g'li turk Anvarbekni ruslar o'ldirmishlar", dedi. Shunda men "Anvarbek Xalpaerimmi?" — deb so'ragim keldi-yu, botinolmadim.

Yana bir kuni Muhammadjon Xoliqiy degan *domlamiz ona* tili darsida arab alifbesi dunyodagi hamma alifbelardan *chiroyli* ekanini, bunga sabab uning hamma harfi musulmon odamning yuzidan olinganligini, musulmon odam qanday qiyofaga kirmasin, darhol tanib olish mumkin ekanini aytdi, bunga misol qilib, kecha bo'lib o'tgan bir voqeani gapirib berdi. Kecha Subhiy afandining oldiga rus qiyofasidagi bir musofir kelib, bir kecha tunagani joy so'rabdi. Subhiy afandi uni Muhammadjon domlaga "O'z tilini yo'qotgan musulmon", deb tanishtiribdi va biron yotoqdan joy berishini so'rabdi. Muhammadjon domla Subhiy afandi aytmasdanoq mehmon musulmon ekanini darrov bilibdi: yuzidan shundoqqina farishta yog'ilib turgan emish.

Shu kuni "Subhiy afandini Osobiy Otdel olib ketibdi", degan gap tarqaldi, lekin ertasiga ertalab Subhiy afandi darsga kirdi.

Shu voqeadan keyin dorilmuallimning asosiy sinfida o'qiydigan bir bola "Subhiy afandining Is'hoq afandi degan bir o'rtog'i bosmachiga chiqib ketgan ekan, kechalari bir ko'zini bog'lab Subhiy afandining oldiga kelib turar emish", deb qoldi. Uni kimdir o'z ko'zi bilan ko'ribdi.

Yanagi shanba kuni uyga borganimda Xalpaerim to'g'risida dadam aytgan gaplar rost ekanini tasdiqlamoqchi bo'lib, maktabda bo'lib o'tgan voqealar, yurgan gaplarni ayamga aytib berdim. Ayam achchig'i kelib: "Dadangning ishi bunaqa, endi boshimga maktabing ham bormi!" — dedi.

Yakshanba kuni ovqatdan keyin bolalarga kuzgi paxtalik nimcha berildi. Navbatim kelganda omborga kirdim. Qop-qora, barvasta xo'jalik mudirimiz Nosirjon Hoji menga loyiq nimcha qidirar ekan, yo'g'on, g'aldiragan tovush bilan: "Dadangga nimalar deding? Sen unaqa gap tashib yurmagin!" — dedi. Yuragim shig' etib ketdi: demak, ayam mening gaplarimni dadamga aytibdi-da!

Nosirjon Hoji uzatgan nimchani naridan beri kiydim-u, eshikka otildim. Eshik oldida turgan bolalar "qulluq bo'lsin", qilishdi, shekilli, lekin birontasining gapi qulog'imga kirmadi, yuragim g'ash edi: dadam maktabga qachon kela qoldi, kimlarga uchrab nimalar dedi ekan?

Endi nima bo'ladi?

1965-yil

[1] Turk elining tog'i-toshi yig'laydi.

HIKOYALAR

ADABIYOT MUALLIMI

O'zining aytishiga ko'ra "nafis adabiyot muallimi" o'rtoq Boqijon Baqoyev og'ilga kirib ta'bi xira bo'ldi: sigirning qulog'iga yana kana tushibdi! Kanadan ham ko'ra sigir uning achchig'ini keltirdi: kanani teray desa qo'ymaydi — boshini silkiydi, pishqiradi.

— Hayvon! Sigir emas, hayvon! — dedi og'ilning eshigini qattiq yopib. — Hayvon!

Xotini Mukarram hovlida samovarga suv quyar edi.

— Hayvon! — dedi Baqoyev, — bu sigirni sotib puliga cho'chqa olish kerak!

— Shaharda cho'chqa asrash mumkin emas, — dedi Mukarram samovarga ko'mir solayotib.

— Nima uchun? Taqiq qilinganmi? Kim aytdi? Men aytib edimmi? To'g'ri, mumkin emas... albatta, mumkin emas...

— Uyga kiring, Hamida keldi.

Hamida o'n olti yoshlardagi tiyrak, quvnoq qiz, pochchasini ko'rib sevinib ketdi.

— Siz uyda ekansiz, bilsam, daftarimni olib kelar ekanman... esizgina...

O'rtoq Boqijon Baqoyevning ta'bi ochildi — sigir, uning qulog'idagi ko'm-ko'k kana, g'o'qillab tumshug'i bilan ariq yoqalarini buzib yurgan cho'chqa ko'z oldidan ketdi.

— Texnikumdan rabfakka o'tibsan, deb eshitdim, rostmi? — dedi. — Himm... yaxshi qilibsan. Rabfakka o't, deb men aytib edim, shekilli? Himm... Auff, zarda bo'libman... Rabfak yaxshi. Men bir borgan edim. Kanselariyaning eshigiga praktikum deb yozib qo'yipti. To'g'ri emas. Praktikum, minimum, maksimum — bular hammasi lotincha yoki lotinchaga yaqin so'zlar. Men shaxsan shunday deb bilaman.

Biroz jim qolishdi.

— Boqijon aka, — dedi qiz uyalibroq, — bir narsani sizdan so'ramoqchi edim: biz sinfda Chexovning "Uyqu istagi"ni o'qidik,

go'dakni o'ldirgan qizni sud qilmoqchimiz. Da'vogar go'dakning onasi — Rahima bo'ladi, qoralovchi — Sharifjon. Sudyalar ham bo'ladi. Men qizni oqlab, butun gunohni uning xo'jayiniga, yosh qizni bu qadar berahm ekspluatatsiya qilgan kishiga qo'ymoqchiman. Mana shu... Shuni yozdim. Shu to'g'rida sizning fikringizni bilmoqchiman. Chexov shunday demoqchi emasmi?

O'rtoq Baqoyev o'ylab turib, so'radi:

— Nafis adabiyot darsini sizlarga kim beradi? Hakimov? Ahmoq odam! O'z ustida ishlamaydi. Savol alomati hamma vaqt "mi"dan keyin qo'yiladi desam, kuladi. Gap bunda ham emas...

Mukarram samovarni ko'tarib kirdi. Hamida irg'ib turib, uni opasining qo'lidan oldi va stolga qo'ydi. U homilador xotinga yuk ko'tartirib, qarab o'tirgan pochchasidan o'pkalamoqchi edi, biroq uyaldi, indamadi. O'rtoq Boqijon Baqoyev juda chanqab turgan ekan, ustma-ust to'rt piyola choy ichdi va terladi.

— Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, — dedi yuzidagi terni artib. — Himm... soqol ham o'sipti, sartarosh bo'lmasa odamlar maymun bo'lib ketar edi. Maymun, juni to'kilib, odam bo'lgan. Bu haqda Engelsning fikri bor...

— Haligini aytmadingiz, Boqijon aka, — dedi qiz. — Chexov shunday demoqchi emasmi?

O'rtoq Baqoyev yana bir piyola choy so'radi.

— Chexovmi? Himm... Burjuaziya realizmi to'g'risida so'zlaganda, eng avval uning obyektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo'ladi. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya'ni... himm... Mukarram, tovuqqa moyak qo'ydingmi? Qo'yish kerak, bo'lmasa daydi bo'lib ketadi... Tavba, tovuqdan ahmoq jonivor yo'q — moyak qo'ysang tug'adi! Nima uchun moyak qo'ysang tug'adi? Xo'roz nima uchun saharda qichqiradi? Ajoyib psixologiya! Biologiya o'qiysizlarmi?

Hamida biologiyadan nimalar o'qiganini, bu o'qish yilida yana nimalar o'tilajagini so'zlab berdi va o'zining oqlash nutqida fiziologik asoslar ham ko'rsatish niyati bor ekanini aytib, yana so'zni Chexov ustiga burdi.

— Himm... — dedi Baqoyev, — Chexov to'g'risida o'zimning fikrim bor. Boshqalar nima desa desin, har holda, uning dunyoga qarashida... Uning dunyoga qarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoga qarashidan farq qiladi. Bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari bo'lishlariga qaramasdan, mutlaqo farq qiladi!

— Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan emas-ku, — dedi Mukarram. — Bizning kutubxonada uning Maksim Gorkiy bilan oldirgan surati bor. Chexov 1904-yilda o'lgan bo'lsa kerak.

O'rtoq Baqoyev biroz o'ng'aysizlandi.

— Sizlar qaysi Chexov to'g'risida gapirayotibsizlar? Choydan quy!.. Bu Chexov haqidami? To'g'ri, bu 1904-yilning birinchi yarmidami, ikkinchi yarmidami o'lgan... Boshqa ro'mol-burjuaziya realizmining namoyandasi bo'lgan Chexov haqida so'zlayotibman.

— "Uyqu istagi" qaysi Chexovniki? — dedi Hamida.

— Hech shubhasiz, bu Chexovniki. Bu narsa birinchi marta "Sovremennik" jurnalida bosilgan.

Shundan keyin o'rtoq Boqijon Baqoyev uzundan uzoq so'zlab ketdi. Uning nima to'g'rida so'zlayotganini Hamida bilmas edi. Detirding degan allaqanday mashhur tanqidchi Shelling degan yozuvchiga "sen dastyorga zor bo'lguncha o'g'ling dastyor bo'ladi", deb xat yozgan; Marks Dobrolubovni Mering bilan bir qatorga qo'ygan; Stending degan allaqanday bir dramaturg o'lar chog'ida Demping degan bir tanqidchiga: "Agar butun jonivorlarni Xudo yaratgan bo'lsa, men uning zavqiga qoyil emasman, echkiemar ham jonivor bo'ldimi?" degan...

Hamidaning boshi og'irlashib ketdi; ikki marta sekin, og'zini ochmasdan esnadi.

Hamida mezbonlar bilan xayrlashib ko'chaga chiqqanda qorong'i tushgan edi; "Uyqu istagi" to'g'risida pochchasidan hech qanday fikr ololmadi. Uning so'zlaridan nima olgani haqida o'ziga hisob berar ekan, g'uvullab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo'q edi: praktikum, minimum, maksimum; Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...

1957-yil

KARAVOT

G'anijonning xotini tug'may yurib-yurib birdaniga qo'chqorday o'g'il tug'ib berdi.

G'anijon xotini homilador bo'lganda ham, bolani ko'tarib yurganda ham, oy-kuni yaqinlashib qolganda ham bunga qishloqda har kuni, har yerda bo'layotgan va bo'ladigan hodisa deb qaragan edi. Biroq bolaning Yer yuziga tushuvi uning uchun hech qachon, hech yerda ko'rilmagan va ko'rilmaydigan hodisaday tuyuldi; nazarida, butun qishloq ko'pdan beri shu kunga mahtal bo'lib, hozir faqat shu to'g'rida gapirayotganday, har bir suyunchi olib kelgan va har bir "qulluq bo'lsin" degan kishi shuni tasdiq qilayotganday bo'lar edi. U "dadasi" degan so'zni birinchi marta eshitganida, bu so'z qayerinidir qitiqladi, qayerigadir issiqqina tegib, butun vujudi yayrab ketdi.

Mana shu G'anijon o'g'ilchasiga karavot olgani rayon markaziga bordi, ko'ziga eng chiroyli ko'ringan karavotchani oldi va otiga o'ngarib qaytib kelmoqda edi.

Yo'l bo'yidagi ariqlar afti burishganicha muzlab qolgan, daraxtlar cho'ltoq supurgiga o'xshaydi. Havo, kuni bo'yi zo'r berib loaqal to'rttagina qor tashlamaganidan xunob bo'lganday, qovog'i soliq. Shuning uchun, hali kun botmagani holda, qosh qoraygan. Qisqasi, kishining bahrini ochadigan hech narsa yo'q. Shunday bo'lsa ham, G'anijon gasht qilib, otning oyoq tashlashi va suvluqning shiqillashi maqomiga ashula aytib borar edi:

— Hoy-hoy, mening yorimsan,
Tanimdagi jonimsan,
Qorong'u kechalarda
Yondirgan chirog'imsan...

Paxtaobod qishlog'ining chiqaverishida yo'l bo'yida o'tirgan kimdir qo'lini ko'tarib G'anijonga bir nima dedi. Shu onda orqadan gurullab avtomobil kelib qoldi-yu, G'anijon uning nima deganini eshitmadi. Ot avtomobildan hurkib, xiyla yergacha surib ketdi. G'anijon qaytib kelgani erindi-yu, keta berdi. Biron kilometr yo'l bosganidan keyin, shu yaqin o'rtadan miltiq tovushi chiqdi.

Tepalikdagi baqaterakdan gurr etib ko'tarilgan bir to'p qarg'a "qaqug'" deganicha har tomonga uchib ketdi. Qarg'alarning qag'illashi G'anijonga sovuqni va yo'l bo'yida o'tirib qo'lini ko'targan haligi kishini eslatdi. Kim ekan u, shu sovuqda ko'chada o'tirgan? Nega qo'lini ko'tardi-yu, nima dedi? Bemahalda yo'lga chiqqan biron yo'lovchi ekan-u, "otingga mingashtirib ol" dedimikin? Unday bo'lsa, nega o'rnidan turmadi?

G'anijon beixtiyor orqasiga qaradi-yu, yana yo'lida davom etdi; biron ashula boshlamoqchi bo'lgan edi, yo'l bo'yida o'tirgan kishi sira nazaridan ketmay, hech narsa esiga kelmadi.

Nega yo'l bo'yida o'tiribdi? "Mingashtirib ol" demoqchi bo'lsa, nega o'rnidan turmadi? Yo kasalmikin? Agar shunday bo'lsa, yaxshi bo'lmadi. Hali ham qaytish kerak. Bordi-yu, askarlikdan bo'shab kelayotgan biron nogiron bo'lsa-chi?

G'anijon darhol otining boshini burib orqaga chopdi; o'sha odam o'tirgan joyni tusmol bilan topdi. Bu yerda hech kim yo'q edi. Tovush chiqardi. Hech kim javob bermadi. Shu atrofni ko'p qidirdi, topolmadi. Negadir "o'sha odam, albatta, nogiron" degan fikrga keldi. Nazarida, u oqsoqlanib, qishloqqa kirib borayotganday bo'ldi. Ot qo'yib qishloqqa kirdi. Bir necha kishini to'xtatib so'radi. Hech kim "o'sha odam men" yoki "shunday odamni ko'rdim", demadi. G'anijon "piyoda jo'nagan ekan, ko'rmabman", degan gumon bilan orqaga qaytdi; yaqin ikki kilometr yergacha yo'lning ikki tomonini sinchiklab ko'zdan kechirib ot chopdi; yana qaytdi... Shunday qilib, G'anijon uyiga yarim kechasi keldi. Uning avzoyi shunday ediki, xotini qo'lidagi chiroyli karavotchaga ham qaramay:

— Voy o'lay, nima bo'ldi? — dedi.

— Hech... charchadim, — dedi G'anijon, lekin bo'lgan voqeani xotiniga aytgani uyaldi.

Bir uyquni olib turgan xotini yana uyquga ketdi hamki, G'anijon kiprik qoqmadi. U ko'zini yumishi bilan shinel kiygan oqsoq kishi ko'z oldiga kelar, ro'parasida qo'ltiqtayoqqa tayanib turib "hali shumi mehr-u oqibat" deyayotganday bo'lar edi. G'anijon tamaki chekkani turib, tokchadagi patnisni tushirib yubordi. Xotini uyg'ondi.

— Ha, nima qilib yuribsiz? Chirog'ni ko'tarsangiz-chi!

— Tamaki qayerda?

— Nima qilasiz?

— Minib bozorga borib kelaman! Tamakini nima qiladi kishi? Chekadi-da! — dedi G'anijon bo'g'ilib.

— Ha, muncha... Kechasi tamaki chekadigan odatingiz yo'q edi, shunga so'radim.

Erini hech qachon bunday kayfiyatda ko'rmagani, undan sira dag'al so'z eshitmagani uchun xotinining ko'ngliga g'ulg'ula tushdi, o'rnidan turib yonboshladi.

— Biron joyingiz og'riyaptimi?

— Yo'q.

G'anijon tamaki chekdi va kelib cho'zildi. Xotini uning boshini siladi.

— Birov xafa qildimi?

— Yo'q.

Xotini biroz turib yana so'radi:

— Nega bemahalga qoldingiz?

— Yo'lda ish chiqib qoldi.

— Nima ish? Nima bo'ldi? Ayting, o'rgulib ketay... Menga aytmasangiz kimga aytasiz...

G'anijon, xotini juda katta tashvishda qolganini payqab, gapning uchini chiqardi.

— Kelayotsam, yo'l bo'yida birov o'tirgan ekan, qo'lini ko'tarib "jon aka, meni mingashtirib oling", deganday bo'ldi.

— Kim ekan u?

— O'rnidan turmadi. Shundan gumon qildimki, askarlikdan bo'shab kelayotgan biron nogironmi... Nogiron ekanligi aniq!

— Darrov mingashtirib olmadingizmi?

— Ot, harom o'lgur, surib ketib qoldi. Qaytib borib topolmadim. Chaqirdim, u yoq-bu yoqni qidirdim. O'tirgan joyini otdan tushib qaramabman, shunga ko'nglim g'ash bo'layotibdi. Yarasi yomonroq bo'lsa, ko'ngli ozib, o'sha yerda yotib qoldimi...

— Unchalik emasdir... Avvali shuki, askarlikdan bo'shab kelgan kishi yo'l bo'yida "kim o'tar ekan", deb o'tirmaydi, ularga ot-arava, mashina hamma vaqt tayyor, hamma vaqt topiladi.

Xotini bu gapni G'anijonga tasalli berish uchun boshlagan edi, biroq unga tasalli berishdan burunroq o'zining ko'ngliga g'ashlik tushdi. Uning nazarida, o'sha odam, haqiqatan, nogiron bo'lib, yarasi ochilganligi orqasida ko'ngli ozgan, hozir hushiga kelib, ariq bo'yida inqillab yotganday bo'ldi.

— O'tirgan joyini qaramadingizmi?

— Qaradim, lekin otdan tushib qaraganim yo'q. Qorong'i edi.

— Voy, odam ham shunchalik beg'am bo'ladimi? Otdan tushib paypaslab qaramaysizmi! Endi nima bo'ladi!

G'anijon irg'ib o'rnidan turdi.

— Borib kelsammikin?

— Shu vaqtgacha yotarmidi?

— U-ku yotmas, birov olib ketar, lekin bu ahvolda biz yotolmaymiz-da!

G'anijon darrov kiyinib chiqdi va borib kolxoz otboqari Nasibalini uyg'otdi. Nasibali mast uyquda yotgan ekan, malol kelib gaplashdi.

— Qayoqqa borasiz shu mahalda?

Gapni cho'zmaslik uchun G'anijon yolg'on gapirdi:

— Amakimning o'g'li askarlikdan bo'shab kelibdi, shuni ko'rib kelaman.

Nasibali darrov otxonaga kirib, bitta otni yetaklab chiqdi.

— Ot minganda odam orqa-oldiga qarab yuradi, — dedi qorinbog'ini tortayotib, — hali sal bo'lmasa avtomobil urib ketayozdi.

— Qachon?

— Hali-chi, hali! Paxtaoboddan chiqaverishda!

— Qo'l ko'targan sizmidingiz! U yerda nima qilib o'tirgan edingiz?

— Arpaga borgan edim.

— E, salomat bo'ling! Bo'ldi, ot kerak emas!

Nasibali hayron bo'lganicha qolaverdi. G'anijon yugurganicha uyiga keldi va eshikdan shovqin solib kirdi:

— Nasibali ekan! Nasibali!

Bola emizib o'tirgan xotin o'rnidan turib beixtiyor:

— Voy, o'lsin? — dedi.

Birpasdan keyin er-xotin mojaroni unutishdi. G'anijon karavotning bir tomonini ko'tarib:

— Bu karavotni ko'rdingmi? Karavot olish mana bundoq bo'ladi. Tug'ishni senga-yu, karavot olishni menga chiqargan! — dedi.

Er-xotin xotirjam bo'lib uyquga ketishdi.

1945-yil

ANOR

Uylar to'la non, och-nahorim bolam,
Ariqlar to'la suv, tashnayi zorim bolam.
O'tmishdan

Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi. Uning shashti qaytdi. Lo'xori tuyayotgan xotini uning qo'lidagi tugunchani ko'rib, kelisopni kelining ustiga qo'ya chopdi. Keli lapanglab ag'anadi, chala tuyilgan jo'xori yerga to'kildi.

Turobjon tugunchani orqasiga bekitib, tegishdi:

— Akajon, degin!

— Akajon! Jo-on aka!..

— Nima berasan?

— Umrimning yarmini beraman!..

Turobjon tugunchani berdi. Xotini shu yerning o'zida, eshik oldida o'tirib tugunchani ochdi-da, birdan bo'shashib ketdi va sekin boshini ko'tarib eriga qaradi. O'z qilmishiga gerdayib turgan Turobjon uning ko'zida jiqqa yosh ko'rib:

— Nima ekanini bildingmi? — dedi. — Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang asal oqadi. Bunisi oq mum, harom emas — shimsa ham bo'ladi, chaynasa ham bo'ladi.

Xotin yengini tishlab bir nuqtaga qaraganicha qoldi.

— Yo, qudratingdan, ishonmaydi-ya! — dedi Turobjon keltirgan matog'ini titkilab. — Mana, chaynab ko'r! Ko'rgin, bo'lmasa innaykeyin degin...

Turobjon qizardi. U bir zamon betob o'rtog'ini yo'qlab eltgan tarvuzini, bemaza chiqqan bo'lsa kerak, sigirning oxurida ko'rib shunday xijolat bo'lgan edi.

Hovli yuzida aylanib yurgan oqsoq mushuk to'kilgan jo'xorini iskab ko'rdi, ma'qul bo'lmadi, shekilli, Turobjonga qarab shikoyatomuz "miyov" dedi.

— Tur, jo'xoringga qara! Uni ko'r, mushuk tegdi.

Xotin turayotib baralla yig'lab yubordi.

— Bu yer yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday gulvataga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsam-chi!

Turobjon do'ppisini boshidan oldi va qoqmoqchi bo'lganida ko'zi yirtiq yengiga tushdi, yuragi achidi: endi uch-to'rt suv yuvilgan yangigina yaktak edi!

— Axir, boshqorong'i bo'l, evida bo'l-da! — dedi do'ppisini qoqmasdan boshiga kiyib. — Anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo'lsa! Saharimardondan suv tashib, o'tin yorib, o't yoqib bir oyda oladiganim o'n sakkiz tanga pul. Akam bo'lmasa, ukam bo'lmasa...

Er-xotin tek qolishdi. Xotin jo'xorini tuyib bo'ldi, uni kelidan tog'orachaga solayotib to'ng'illadi:

— Havasga anor yeydi deysiz, shekilli...

— Bilaman... Axir, nima qilay? Xo'jayinimni o'ldirib pulini olaymi, o'zimni hindiga garov qo'yaymi? G'alatimisan o'zing?

Xotin ovqatga unnadi, erining "boshqorong'i bo'l, evida bo'lda", degani unga juda alam qildi, xo'rligi keldi, o'pkasi to'ldi.

Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go'jaga qatiq ham rang kirgizolmadi. Turobjon ikki kosa ichdi, xotini esa hanuz bir kosani yarimlatolmas edi. Uning imillashini ko'rib Turobjonning ko'ziga negadir oqsoq mushuk ko'rindi. Mushuk yirtilgan yengini esiga tushirdi, avzoyi buzildi. Uning avzoyidan "esiz jo'xori, qatiq, o'tin" degan ma'noni anglab xotin, ko'ngli tortmasligiga qaramasdan, kosani bo'shatdi, ammo darhol tom orqasiga o'tib ko'zlari qizargan, chakka tomirlari chiqqan holda qaytdi.

— Hali tug'ilmagan bolani yer yutkur deding-a, — dedi Turobjon borgan sayin tutaqib.

Xotin indamay dasturxonni yig'ishtirib oldi, qozonga suv quyayotib, eshitilar-eshitilmas dedi:

— O'sha asalning puliga anor ham berar edi.

— Berar edi! — dedi Turobjon zaharxanda qilib, — anor olmay asal oldim!

— Albatta, berar edi! Albatta, anor olmay, asal olgansiz!

Mana shunday vaqtlarda til qotib og'izda aylanmay qoladi, mabodo aylansa, mushtning xizmatini qiladi.

— Ajab qildim, — dedi Turobjon titrab, — jigarlaring ezilib ketsin!

Bu so'z unga qanday ta'sir qilganini faqat boshqorong'i xotingina biladi. Turobjon bu gapni aytdi-yu, xotinining ahvolini ko'rib achchig'idan tushdi, agar izzat-nafs qo'ysa hozir borib uning boshini silar va: "Qo'y, xafa bo'lma, jahl ustida aytdim", der edi.

— Kishining yuragini qon qilib yuborasan, — dedi anchadan keyin. — Nainki men asal olsam! Asal otliqqa yo'q, hali biz piyoda-ku! Xo'jayinga bir oshnasi sovg'a qilib kelgan ekan, bildirmasdan... o'zidan so'rab ozrog'ini oldim... O'zi berdi. Tansiq narsa, xursand bo'larmikansan debman. Yo tansiq emasmi? Umringda necha marta asal yegansan? O'zim umrimda bir marta yeganman: Shokirxo'ja qandolatchi asal qiyom qildirayotganda qozoniga ammamning jo'jasi tushib ketgandi, shu jo'jani yalaganman...

Turobjonning bu so'zlari xotinining qulog'iga notayin bir g'o'ldirash bo'lib kirar edi. Uning Turobjon bilan uy qilganiga uch yil bo'lib kelayotir, nazarida, bu odam shu uch yildan beri g'o'ldirab kelgan, hozirgisi shuning davomiday edi. Ittifoqo, bu kun nima bo'ldi-yu, uch so'zni ravshanroq aytdi: "Jigarlaring ezilib ketsin", dedi. Olamda uning suyangani eri, birdan bir orzusi — anor edi, birdaniga har ikkisi ham yo'qqa chiqdi.

Xotin uyga kirib ketdi. Anchadan keyin darchadan xira shu'la tushdi. Turobjon ham kirdi. Xotin darcha yonida, bir tizzasiga boshini qo'ygan, qoramtir-kulrang osmonga qarab o'tirar edi. Turobjon tikka turib qoldi. Tokchadagi beshinchi chiroq pixillab yonar, uning atrofida katta bir parvona aylanar edi. Turobjon ham darcha yoniga o'tirdi.

Shiftning qayeridir "qirs" etdi, qayerdadir kaltakesak chirqilladi, Turobjonning qulog'i jing'illadi. U ham osmonga — xira yulduzlarga qaradi. Masjiddagi keksa baqaterak orqasidan ko'tarilgan

qizg'ish o't ko'kka olovli iz qoldirib juda yuqoriladi va go'yo osmonga urilganday chilparchin bo'lib, "po'p" etdi.

— Mushak, — dedi Turobjon, — Mullajon qozining bog'ida. Mullajon qozi beshik to'yi qilgan.

Xotin indamadi.

— Shahardan to'ralar ham chiqqan, — dedi Turobjon yana.

Xotin yana indamadi. U Mullajon qozining bog'ini ko'rgan emas, ammo ta'rifini eshitgan. Bu bog'ni ko'z oldiga keltirib ko'rdi: bog' emas, anorzor... Anor daraxtlarida anor shig'il, choynakday-choynakday bo'lib osilib yotipti.

— Bitta mushak uch miri, — dedi Turobjon, — yuzta mushak otilsa... bittangadan yuz tanga. Bir miridan kam — yetmish besh tanga bo'ladi.

Er-xotin uzoq jim qolishdi. Turobjon og'zini katta ochib ham esnadi, ham uf tortdi.

— Ma, buni tik, — dedi u yaktagini yechib, — ma!

Xotin yaktakni olib yoniga qo'ydi, aftidan, hozir tikmoqchi emas edi.

— Bo'l, — dedi Turobjon, birpasdan keyin, — ol... Senga aytyapman!..

— Ha, muncha!.. Turtmasdan gapira bering... Tikib qo'yarman, muncha qistov...

Turobjonning tepa sochi tikka bo'ldi.

— Hay, sening dimog'-firog'ing kimga! Xo'sh, nima deysan?

— Men sizga bir narsa deyapmanmi? Tikib qo'yarman.

— Har narsaga ro'zg'or achchiq bo'la bersa... qiyinroq bo'lar, — dedi Turobjon yaktagini kiyayotib, — kambag'alchilik...

— Kambag'alchilik o'lsin!

Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjon buni ta'na deb tushundi.

— Nima, men seni olganimda kambag'alligimni yashirganmidim? Erkaboyga o'xshab chimildiqqa birovning to'ni, kavush-mahsisini kiyib kirganmidim? Bunday armoning bo'lsa hali ham serpulroq odamga teg.

— Ikkita anor uchun xotiningizni serpul odamga oshirgani uyaling!

Bu gap Turobjonning hamiyatiga tegdi. "Jigarlaring ezilib ketsin" degani xotiniga qancha alam qilgan bo'lsa, bu gap Turobjonga shuncha alam qildi.

— E, hoy, anor olib bermadimmi? — dedi Turobjon mayin tovush bilan, ammo bu mayin tovushdan qo'rqqulik edi, — sira anor olib kelmadimmi?

— Yo'q! — dedi xotini birdan boshini burib.

Turobjonning boshi g'ovlab, ko'zi tindi.

— O'tgan bozor kuni yegan anoringni o'ynashing olib kelganmidi?!

— O'ynashim olib kelgan edi!

Turobjon bilolmay qoldi: xotinining yelkasiga tepib, so'ngra o'rnidan turdimi, yo turib keyin tepdimi; o'zini obrezning oldida ko'rdi. Xotin, rangi oppoq, ko'zlarini katta-katta ochib unga vahimali nazar bilan qarar va boshini chayqab pichirlar edi:

— Qo'ying... Qo'ying...

Turobjon uydan chiqib ketdi. Birpasdan keyin ko'cha eshigi ochilib-yopildi.

Xotin uzoq yig'ladi, eriga qattiq gapirganiga pushaymon bo'ldi, o'zini qarg'adi, o'lim tiladi; yig'idan tolib tashqariga chiqdi. Qorong'i, uzoq-yaqinda itlar hurar edi.

Ko'cha eshigini ochib u yoq-bu yoqqa qaradi — jimjit. Guzar tomonda faqat bitta chiroq miltillar edi. Samovarlar yotgan. Qaytib uyga kirdi.

Tom orqasida xo'roz qanot qoqib qichqirdi. Ko'cha eshigi ochildi. Xotin to burilib qaraguncha Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi. U tugunni uyning o'rtasiga tashladi. Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi.

Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko'rib xotin qo'rqib ketdi — bu qadar oqargan! Turobjon o'tirib peshanasini ushladi. Xotini yugurib oldiga keldi va yelkasiga qo'lini qo'ydi.

— Qayoqqa bordingiz? — dedi entikib. — Nima qildingiz?

Turobjon javob bermadi. Uning vujudi titrar edi.

1956-yil

O'G'RI

Otning o'limi — itning bayrami.
Maqol

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish — uy, ho'kiz to-pish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

Odamlar dod ovoziga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bu-kilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqag'laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi.

Qobil boboning qo'shnisi — burunsiz ellikboshi kirdi. U og'il-ga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi; negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

— Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid ba-g'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyod sevintirdi. Chol yig'lab yubordi.

— Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...

Odamlar, o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan tesh-gani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig'idan to'xtab, ellik-boshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Qobil bobo qo'l qovushtirib uning ketidan yurar va yig'lar edi.

— Yig'lama, yig'lama deyman! Ho'kizing oq poshsho qo'l os-tidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi, go'yo u ko'chaga chiqsa bas — ho'kiz topiladi. Bu "Xudo yarlaqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftob-ga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'la-di? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuzi-ga qarash aqldan emas.

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi.

— Ha, sigir yo'qoldimi?

— Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

— Ho'kizmi?.. Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!..

— Bor-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

— Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?

— Ola ho'kiz...

— Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?

— Qo'sh mahali...

— Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?

— Bisotimda hech narsa yo'q...

— O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

— Qidirtirsakmikin-a? — dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, — suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga "Ma, ho'kizing" deganday bo'lib ketdi.

— Kam bo'lmang, — dedi pulni uzatib, — yana xizmatingizdaman.

— Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi.

Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir "duoning zo'ri bilan qulf ochadigan" azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab yarim qop jiyda, uch yelpish tovoq jo'xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo'ldi:

— Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi!

Qobil bobo yor-do'stlari bilan kengashdi — pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da qildi. Cholning butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oladimi! "O'ynashmagil arbob bilan — seni urar har bob bilan". "Yaxshilab turshuntirilgan" pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pulni olganidan keyin, Qobil boboning baxtiga, "beto'xtov hokimga xabar beraman" demasdan, "aminga bor", deb qo'ya qoldi. Amin "ellikboshiga borilsin", dedi.

— Gumoningizni ayting bo'lmasa! — dedi ellikboshi tajang bo'lib, — kim olganini men bilmasam, avliyo bo'lmasam! Olgan odam allaqachon so'yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko'nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi; Xudo biladi, kavush bo'lib bozorga chiqdimi...

— Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa... — dedi chol yerga qarab.

— Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, Xudo ajalga to'zim bersin! Men

qaynatamga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin. Bitta ho'kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi — Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin "kichkinagina" sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi...

1956-yil

TO'YDA AZA

Zo'ri behuda miyon meshikanad.
Tojik xalq maqoli

Dotsent Muxtorxon Mansurov nihoyatda istarasi issiq, nihoyatda dilkash chol, shu qadar dilkashki, uni ko'rgan kishi har faslning o'z husn-latofati bor, degan gapni yil fasllari to'g'risidagina emas, umr fasllari to'g'risida ham aytsa bo'lar ekan, deb qolardi. Uning bitta-ikkita qora tuk chap berib qolgan oppoq cho'qqi soqoli... Yopirimay, soqol ham odamga shuncha yarasha-dimi-ya!..

Cholni bunchalik istarasi issiq, dilkash qilgan, soqolidan tortib yurishigacha hamma narsasini, har bir harakatini chiroyli, yoqimli qilib ko'rsatgan, ehtimol, uning odamoxunligi ham bo'lsa. O'zi shunaqa bo'ladi-ku: yaxshining yuzida zuluk ham xol bo'lib ko'rinadi.

Ammo-lekin Muxtorxon domla nafsambiriga odamning joni edi. Uning xushfe'lligi, to'poriligi... mahallada katta-kichik hamma bilan salomlashar, yosh bilan yosh, qari bilan qari bo'lib gaplashar, xursand kishi bilan chaqchaqlashib, xafa bilan dardlashar edi.

Bu odam mahalla hayotiga, har bir kishining diliga kirib, shu qadar singib ketgan ediki, ta'tilga yo xizmat safariga ketsa butun mahalla huvullab qolganday bo'lar edi.

Kunlardan bir kuni mahallada duv-duv gap bo'lib qoldi: "Muxtorxon domla uylanarmishlar!.."

Domla bundan uch yil burun beva qolib, unga goh singlisi, goh uzatgan qizi qarab yurar edi. Uning niyatini eshitib mahallada xursand bo'lmagan odam qolmadi.

Hech kim qarigan chog'ida juftidan qolmasin. Osonmi, kishi nima bo'lishini bilmaydi, bosh yostiqqa tegishi bor... Qari odamga mahram kerak...

Hali hech kim ko'rmagan bo'lsa ham, Muxtorxon domla yoqtirgani uchun juda aqlli, tamizli ayol chiqishi muqarrar bo'lgan kelinni hamma g'oyibona yaxshi ko'rib qoldi.

— Mahallamizning toleyi bor ekan, — deyishar edi. — Domla otaxonimiz edilar, kelinimiz bizga onaxon bo'ladilar...

Mish-mish rost bo'lib chiqdi: domla bozor qilishni, magazinga kirishni jinidan battar yomon ko'rar edi, kimdir uni univermagda navbatda turganini ko'ribdi; ertasiga choyxona oldidan chamandagul do'ppi kiyib o'tdi.

Mahalla faollari kengashib, mahalla nomidan yaxshiroq bir to'yona qiladigan bo'lishdi. Ularning fikricha, bu narsa kuyovga ham, kelinga ham butun aholining hurmat va muhabbatini izhor qilishi kerak edi.

Shu orada domla qayoqqadir ketib, bir haftadan keyin paydo bo'ldi. Uning avtobusdan tushib kelayotganini ko'rgan choyxonadagi odamlar hang-mang bo'lib qolishdi; chol o'lgur soqolini, shunday chiroyli soqolini tag-tugi bilan qirdirib tashlabdi! Achinmagan, xafa bo'lmagan odam qolmadi.

U biron yoqqa borib qaytganida choyxonaga kirmasdan, katta-kichik bilan ko'rishib hol-ahvol so'ramasdan o'tmas edi, hozir choyxonaga yaqinlashganida ko'chaning narigi yuziga o'tib oldi-yu, yerga qarab, jadallaganicha o'tdi-ketdi. Uning o'zigagina emas, butun mahallaga fayz kirgizib turgan soqolini oldirgani, buning ustiga, yana choyxonani chetlab o'tgani ba'zilarni tashvishga solib qo'ydi:

— Domlamizga nima bo'ldi ekan? Domlamiz nega bunaqa bo'lib qoldi ekan?..

Domlaga hech bir g'ubor qo'nishini istamagan boshqalar bu ikki gunohni bir-biriga yegizib, uni oqlashga tirishdi:

— Domlamiz biron xayolga borib soqolini qirdirgan-u hozir pushaymon, uyalganidan bizga ro'para bo'lmadi...

Oradan ko'p o'tmay, choyxo'rlardan biri qiziq bir gap topib keldi. Bu yigit domlani shaharning narigi chekkasidagi istirohat

bog'ida ko'ribdi. Domla, boshida chamandagul do'ppi, egnida kalta va tor shim, katak ko'ylak, yengini baland shimargan, bilagida kattakon tilla soat, o'zi yakka pivo ichib o'tirgan emish! Uning bunday odati yo'q edi, shuning uchun yigit hayron bo'lib biroz qarab turibdi. Domla ikki shisha pivoning ustidan yuz gramm aroqni bitta otib o'rnidan turibdi-yu, gulchidan kattakon guldasta sotib olib, bog'ning orqasidagi jinko'chaga kirib ketibdi. Bu gapni eshitib odamlarning dami ichiga tushib ketdi. Ba'zi birovlarning ko'ngliga allaqanday jirkanch, domlaning sha'niga hech to'g'ri kelmaydigan gaplar keldi...

Shunda mahallaning qariyalaridan Karim ota hozir ba'zi birovlarning ko'ngliga kelgan gapdan ham xunukroq bir taxminni aytib qoldi:

— Xayr, ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin, — dedi, — kelinimiz yoshga o'xshaydi... Qiz bo'lmasa deb qo'rqaman!

Karim otaning bu taxmini, domlaning keyingi vaqtlardagi raftoriga qaraganda ehtimoldan uzoq bo'lmasa ham, odamlarga qattiq malol keldi. Bir-ikki kishi Karim otaning dilini og'ritdi.

Biroq, oradan ko'p o'tmay, Karim otaning taxmini to'g'ri chiqib qoldi: "Domla o'zining studentkasi — yigirma yashar bir juvonga uylanayotgan emish", degan gap tarqaldi.

To'yga yaqin qolganda kelin ko'chaning boshidagi atelyega ko'ylak buyurgani kelgan ekan, nima bo'lib bundan xabar topgan ayollar ko'rgani borishdi. Kelin, darhaqiqat, yosh, lekin xuddi qiziqchilikka semirganday yum-yumaloq; egnida yengsiz qizil ko'ylak, boshida popushakning tojiga o'xshagan, lekin qizil shlapa; qo'lidagi sumkasi, oyog'idagi poshnasi bir qarich tuflisi ham qizil. Uni adovat va nafrat bilan boshdan oyoq kuzatgan ayollardan biri, burilib atelyedan chiqib ketar ekan:

— Xo'rozqandga o'xshamay o'l! — dedi.

— Qarigan chog'ida xo'rozqand yalamay domla ham o'lsin! — dedi yana biri.

Bu laqab darrov tarqalib ketdi. Domlaga qo'l urish bilan mahallaning fayzini o'g'irlagan, odamlarning dilini hamisha yoritib turadigan chiroqni so'ndirgan bu ayolni ko'rgan ham, ko'rmagan ham toshni teshadigan bir g'azab bilan yomon ko'rar edi.

Bu g'azab odamlarning ko'nglidagi domlaga bo'lgan hurmat va muhabbat tuyg'usini chirita boshladi. Bora-bora domla deganda odamlarning ko'ngliga g'ashlik tushadigan bo'lib qoldi. Domla, shuni o'zi sezsa kerak, mumkin qadar odamlarning ko'ziga ko'rinmaslikka tirishadigan bo'ldi.

To'y kelinnikida bo'lib o'tdi. Buni mahallada Karim otadan boshqa hech kim bilmay qoldi. Karim ota ham to'yga emas, kabob pishirib bergani chaqirilgan ekan. Bundan xabardor bo'lgan mahalla yoshlari uni hol-joniga qo'ymay, choyxonaga olib chiqishdi va to'y qanday o'tganini gapirib berishga majbur qilishdi. Karim ota "birovning sirini aytmayman", deb avval tarxashlik qildi-yu, bir-ikki savolga javob berganidan keyin qulfi dili ochilib ketdi: ikki gapning birida peshanasiga urib, goh bo'g'ilib va goh qotib-qotib kulib, odamlarni kuldirib hikoya qildi.

To'yga kelin tomondan ellikka yaqin, kuyov tomondan sakkiz kishi aytilgan ekan, ikkala tomondan hammasi bo'lib o'n bir kishi kelibdi. Bir dutorchi, ikki ashulachi va Karim ota ham shu hisobga kirar ekan. Soat oltiga belgilangan to'y soat o'ndan oshganda boshlanibdi. Kelin birpas boshiga oq ro'mol yopinib o'tiribdi-yu, bir-ikki rumka ichgandan keyin, alamiga chidolmay o'yinga tushibdi. Domla chapak chalibdi, ashulaga qo'shilibdi...

— Ha, aytganday, — dedi Karim ota piqirlab kulib, — domla sochlarini bo'yatibdilar!.. Azbaroyi Xudo, kuya tushgan po'stakka o'xshaydi!.. Mayli, bo'yoq topilgan bo'lsa bo'yasin, lekin shu bo'yoq bilan qilig'ini ham bo'yashga, sochiga mos qiliqlar qilishga urinsa uncha yaxshi chiqmas ekan.

Darhaqiqat, domlaning fikr-yodi o'zini, iloji boricha, yosh ko'rsatishda bo'lib qoldi. U nima qilsa, nima desa, shuni esdan chiqarmas, yosh ekanini ko'rsatish uchun qulay kelgan hech bir imkoniyatni qo'ldan bermas, "hali yoshsiz" degan kishiga jonini, jahonini berishga tayyor edi. To'ydan keyin oradan bir oy o'tar-o'tmas kelin g'alati bir dardga yo'liqdi: ba'zan kechalari hadeb chuchkiradigan bo'lib qoldi; doktorga ko'ringan ekan, doktor: "Bu dardning davosi — dengiz havosi" debdi. Domla ertasiga ertalabdan idorama-idora yugurdi, soat to'rtga qolmasdan yo'llanma bilan poyezd chiptasini keltirib kelinga topshirdi.

Kechqurun eshik oldiga ko'kish taksi ko'ndalang bo'ldi. Domla, kuni bo'yi yelib-yugurib holdan toyganiga qaramay, ikkita og'ir jomadonni mashinaga o'zi olib chiqdi va yukxonaga o'z qo'li bilan joyladi; o'sha yengsiz qizil ko'ylagini, qizil shlapasini kiyib hovlidan yana xo'rozqand bo'lib chiqqan kelinga mashinaning eshigini ochib berdi, keyin chiqib yoniga o'tirdi. Mashina jo'nadi, jo'nadi-yu, tezlab do'ngroq ko'prikdan o'tishda nima bo'lib yukxona qopqog'i bir ko'tarildi-da, boyagi ikkala jomadon otilib chiqdi. Ikkala jomadon, xuddi bir-biri bilan chopishganday, irg'ishlab-irg'ishlab talay yergacha bordi-yu, biri yo'lning o'rtasida, ikkinchisi yo'lkaga chiqib to'xtadi. Haydovchi bundan kechroq xabardor bo'ldi, shekilli, mashina qirq-ellik qadam narida to'xtadi. Mashina to'xtashi bilan domla eshikdan otilib chiqdi, jomadonlarga qarab yugurdi va ketidan chopgan haydovchi, choyxonadan yugurib tushgan uch-to'rt kishining ko'magini rad qilib, har birini bir odam zo'rg'a ko'taradigan ikki jomadonni o'zi yakka ko'tardi va mashina tomonga yurdi. U yarim yo'lgacha jomadonlarni azod ko'tarib, bardam qadam tashlab bordi-yu, undan nari rangi oqarib, tizzalari qaltirab tentiray boshladi; shundoq bo'lsa ham, nomus kuchli, bir iloj qilib mashinaga yetib bordi; jomadonlarni qo'ydi-yu, birdan ko'zlarini ishqab, mashinaga kirib ketdi. Haydovchi jomadonlarni yaxshilab joyladi.

Mashina qo'zg'aldi, qo'zg'aldi-yu, o'n-o'n besh qadam yurmasdan, birdan eshigi ochildi, xo'rozqand dodlaganicha o'zini yerga otib, ikki-uch yumalab ketdi. Odam yig'ildi. Xo'rozqandni ko'tarib olishdi. Xo'rozqand gapirolmas, dir-dir titrab, kishnaganday bir tovush chiqarar va qo'li bilan mashinani ko'rsatar edi.

Bir necha kishi mashinaga tomon yugurdi. Haydovchi qo'rqib, nima bo'lganiga tushunolmay, bir chekkada turar edi. Odamlar mashinani ochib qarashsa, domla... o'lib qolipti!

Ertasiga domlani ko'mish marosimi bo'ldi. Marosimga mahalladan odam ko'p qatnashmadi, aftidan, domla ko'p odamning qalbida bundan bir oy burun o'lgan, ko'plar o'sha to'yni domlaning janozasi hisoblashgan edi...

1956-yil

MING BIR JON

Martning oxirgi kunlari. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanida, bahor kelganidan bexabar hanuz g'aflatda yotgan o't-o'lanni, qurt-qumursqani uyg'otgan, avvalgidan ham yorug'roq, avvalgidan ham issiqroq shu'la sochayotganday tuyuladi.

Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakkina kishi, o'ziga juda ham katta ko'k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko'chaga qarab o'tirgan edi, birdan tutaqib ketdi: shunday havo bo'lsa-yu, oyoq-qo'li butun odam ko'chaga chiqolmay, derazadan mo'ralab o'tirsa!..

Mirrahimov jussasi kichkina bo'lgani bilan tovushi juda yo'g'on va buning ustiga, sekin gapirolmas edi. Hamshira yugurib kirdi, Mirrahimovning sog'lig'ini, kayfiyatini so'radi, keyin dardni bardosh yengadi, bu xususda Mastura Aliyevadan ibrat olish kerak, degan mazmunda sha'ma qildi.

Mastura Aliyeva sakkiz oydan beri palatasidan chiqmay yotgan og'ir xasta, uni kasalxonada hamma bilar, ko'p kishi kirib ko'rgan ekan. Mirrahimovning odamgarchiligi tutib ketdi:

— Shu sho'rlik ayolni bir kirib ko'raylik! Uch kunligi bormi, yo'qmi... Sob bo'lgan deyishadi...

— Ha, ancha og'ir, — dedi hamshira xo'rsinib, — o'n yil dard tortish osonmi!

Poygakdagi karavotda kitob o'qib yotgan Hoji aka degan xasta yo'g'on gavdasiga nomunosib chaqqonlik bilan boshini ko'tarib, ko'zidan oynagini oldi.

— O'n yil? O'n yildan beri kasal ekanmi?

— Ha, o'n yil bo'libdi. Bechora turmush qilganiga bir yil bo'lar-bo'lmas shu dardga yo'liqqan ekan. Tomog'idan hech narsa o'tmaydi. Ovqatni qorniga quyishadi... Teshib qo'yilgan... Ba'zan o'zi quyadi, ba'zan eri.

Hoji akaning ko'zlari o'ynab ketdi.

— Eri? Eri bormi?

— Bor. Shu yerda. Besh oydan beri birga!

Hoji aka uzoq angrayib qolganidan keyin:

— O'n yil kasal boqib, yana kasalxonada ham birgami? — dedi.

— Shuni ayting, — dedi hamshira. — Doktorlarga yalinib-yolvorib palataga karavot qo'ydirib oldi.

Hoji aka dardga bu qadar bardoshli ayoldan ham ko'ra bunchalik vafodor erni ko'rishga ishtiyoqmand bo'lib qoldi-yu, xalatining belbog'ini mahkam bog'lab, shippagini kiydi.

— Qani, yuringlar, tabarruk odamlar ekan, bir ko'rib chiqaylik.

Hamshira Mastura bilan uning eriga xabar bergani ketdi.

Hayal o'tmay, qorni chiqqan Hoji aka oldinda, uzun koridordan o'ninchi palataga tomon yo'l oldik. Palata eshigi oldida bizni hindiga o'xshagan qop-qora, katta-katta ko'zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga alohida minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo'lladi. Palataga kirdik. Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, palatani shom qorong'iligi bosdi. Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan zaif, yo'q, zaif emas, mayin tovush eshitildi:

— Kelinglar... Rahmat! Odamga odam quvvat bo'ladi, ming rahmat! Akramjon, kursi qo'yib bering...

Oftob yana yorishdi. Masturani baralla ko'rdik... Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap-sariq teri-yu suyakdan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotar edi... Tobutda yotgan o'likning qo'limi, oyog'imi biron sabab orqasida bexosdan qimirlab ketsa, kishi qay ahvolga tushadi? Uning o'lim pardasi qoplagan yuzida chaqnab turgan ko'zlarini ko'rgan kishi xuddi shu ahvolga tushar edi.

Boya bizni kutib olgan yigit — Akramjon kursi qo'yib berdi. Mirrahimov ikkovimiz o'tirdik. Hoji aka yo'g'on gavdasi bilan Masturani to'sib tikka turib qoldi. Yonimdagi kursini surib Hojining etagidan tortay desam, qorni silkinyapti... Ajabo, bu odam nega kulayotibdi, deb aftiga qarasam... rangi bo'z bo'lib ketibdi! Uning qo'rqqanini payqab, hamshira darrov yo'l qildi:

— Iye, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring! — dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. Hoji koridorga chiqib yiqilarmikan, deb o'ylagan edim, yo'q, xayriyat, gumburlagan tovush eshitilmadi...

Hamshira yo'l qilib Hojini olib chiqishga chiqdi-yu, lekin baribir, Mastura payqadi. Juda-juda xunuk ish bo'ldi. Mirrahimov ikkovimiz nima deyishimizni, nima qilishimizni bilmay qoldik. Bu hol kasalga qanday ta'sir qildi ekan, deb sekin qaradim. Mastura qonsiz labida tabassum bilan eriga yuzlandi:

— Akramjon, daftaringizga yozib qo'ying: uch mardi maydon meni ko'rgani kirgan edi, bittasi arang qochdi-yu, ikkitasi qochgani ham bo'lmay, o'tirib qoldi.

Mastura piqirlab kulib yubordi; yana kuldi, yosh boladay o'zini tutolmay qiqirlar edi. Bu hazil va ayniqsa, kulgi avval xunuk, odamning etini jimirlatadigan darajada xunuk eshitildi, keyin nechukdir, Masturaning yuzidan o'lim pardasi ko'tarilganday, hayot to'la ko'zlari o'lik yuziga jon kirgizganday bo'ldi. Mirrahimov Hoji akaning qilmishi to'g'risida uzr tariqasida bir nima demoqchi bo'lib gap boshlagan edi, Mastura so'zini og'zidan oldi:

— Bunaqa narsa menga ta'sir qilmaydi, — dedi. — Akramjon, bularga tobut voqeasini aytib bering... Yo'q, yo'q, o'zim aytib beraman! Bunga besh yildan oshdi. Ko'z oldimdan ketmaydi... Qalin qor yog'gan kun edi. Men derazaning ro'parasida mana shu xilda yotibman, Akramjon paypog'ini yamayotgan edi, shekilli. Birdan ko'cha eshigimiz ochildi-yu, qizil bir narsa kirdi, nima ekan deb qarasam — tobut! Akramjonning ikki o'rtog'i hovlimizga tobut ko'tarib kirdi! Yuragim jig' etib ketdi...

Voy sho'rim, nahot o'lgan bo'lsam... To es-hushimni o'nglab, Akramjonga bir nima degunimcha, boyagi ikkovi tobutni devorga suyab qo'yib, uyga kirib keldi; uyga kirdi-yu, meni ko'rib ikkovi ham boyagi Hoji akangizday shaytonlab qolayozdi. Akramjon hayron... Men ana ketdi, mana ketdi bo'lib yotgan edim-da, o'sha kuni ertalab birov avtobusda yig'lab ketayotgan bir bolani ko'rib, mening ukamga o'xshatibdi-yu, shundan haligiday gap tarqalibdi... Tobutni buzib pechkaga qalashdi. Menga shu ham ta'sir qilgani yo'q. Bunaqa narsalar o'lim kutib yotgan kasalga yomon ta'sir qilishi mumkin, men hech qachon o'lim kutgan emasman, kutmayman ham! U yog'ini surishtirsangiz, men odam bolasining o'lim kutishiga, ya'ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham

dunyodan umid uzgani emas, balki "rozilik tilashgani hali erta", dermikin degan umid bilan, dunyoda tengi yo'q, timsoli yo'q zo'r umid bilan qaragani deb bilaman.

Akramjon Masturaning biz bilan yozilib o'tirganiga qanchalik xursand bo'lsa, toliqib qolishidan shunchalik xavotirda ekani ko'rinib turar edi; shuning uchun Masturaga tez-tez dam berishni ko'zlab, ko'proq bizni gapirtirishga, o'zi gapirishga harakat qilardi.

— Sizning nima dardingiz bor? — dedi Mirrahimovga yuzlanib.

Mirrahimov birdaniga uchta dardning nomini aytdi.

— Voy sho'rim!.. — dedi Mastura, — jindakkina joningizga-ya! Shu jussangizga uchta dard sig'dimi?

Bo'ldi kulgi! Ayniqsa, Mirrahimov zavq qilib kuldi. Kasallik, o'lim to'g'risidagi gap tugab, xushchaqchaq suhbat boshlanishiga ilhaq bo'lib turgan Akramjon Mastura boshlagan askiyani ilib ketdi; askiyaga juda usta ekan, olamda dard nima, o'lim nima ekanini butkul unutib, rosa kulishdik. Afsuski, Mirrahimovning yo'g'on tovushi suhbatimizning buzilishiga sabab bo'ldi: vrach koridordan o'tib borayotib, uning beso'naqay kulgisini eshitgan bo'lsa kerak, eshikni ochib qaradi va Masturaga zehn solib, uning yuzida horg'inlik ko'rdi, shekilli, bizni chiqarib yubordi. Akramjon ketimizdan chiqdi, bizning bu iltifotimiz Masturaga qancha kuch-quvvat berishini aytib, ko'nglida mavj urib, yosh pardasi bosgan ko'zlarida ko'rinib turgan cheksiz minnatdorchilik tuyg'usini aytib bitirolmas, aftidan, Masturaning bir daqiqalik oromi uchun o'ng ko'zini o'yib berishga ham tayyor edi.

Palatamizga qaytdik. Hoji aka karavotida yonboshlab, qand choy ichib, o'zini yelpib yotar edi. Bo'lib o'tgan xijolatli ish to'g'risida u ham indamadi, biz ham indamadik. Hoji akaga bir nima deyish u yoqda tursin, Mirrahimov ikkovimiz ham kechgacha bir-birimizga so'z qotmadik; aftidan, borlig'imiz Mastura bilan band, quyunday charx urayotgan taassurotlar, fikrlar, tuyg'ularni ifoda qilgani so'z topolmas edik.

Kech kirdi. Hoji aka o'rtacharoq xurrak tortib uyquga ketdi. Mirrahimov dam-badam u yoqdan bu yoqqa ag'darilar edi, nihoyat, mening uyg'oq ekanligimni payqab, boshini ko'tardi.

— Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta, — dedi. — Hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so'ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so'nadi. Mana shu ishonch Masturaga o'limni yo'latmaydi.

Mirrahimov uzoq jim qolganidan keyin yana birdan:

— Eri-chi, eri? — dedi. — Bu yigitning ham raftoridan, yigitlik umri ming bitta-yu, shundan bittaginasini Masturaga qurbon qilyapti.

Ertasiga Mastura haqida yana bir ko'ngilsiz gap eshitdik: bechoraning tomog'idan hech narsa o'tmasligi ustiga, qorniga tez-tez suv to'planar ekan...

Kunlar o'tib hammamiz tarqaldik. Mirrahimov o'zining MTSiga, Hoji aka kurortga ketdi. Oradan bir qancha vaqt o'tgandan keyin shu tomonga yo'lim tushdi-yu, kasalxonani bosib o'tolmadim; kirib tanish hamshiradan so'rasam, Mastura bir soatdan keyin operatsiyaga yotar ekan. Doktorlar operatsiya stolidan turolmaydi, deb besh oydan beri uning ra'yini qaytarib kelishar ekan, oxiri bo'lmabdi — Mastura o'lsam tovonim yo'q, deb tilxat beribdi.

Kirib ko'ray desam, doktor ijozat bermadi. Mening yo'qlab kelganimni ko'rsa, dalda bo'ladigan biron so'z aytsam, zoraki darmon bo'lsa deb kutdim.

Vaqt-soati yetganda Masturani hamshira bilan Akramjon ikki tomondan suyab olib chiqishdi. Lekin eshikdan chiqishi bilanoq Mastura ikkovini ikki tomonga itarib o'zi yurdi; bardam qadam tashlab, operatsiya zalining eshigini o'zi ochib kirib ketdi. Akramjon, butun diqqati xotinida bo'lgani uchun meni payqamadi. Mastura esa menga bir qaradi-yu, tanimadi, shekilli, indamadi.

Operatsiyaga doktorlarning ko'ngli chopmagani, xastaning holi o'zimga ma'lum bo'lgani, Masturaning o'limning yuziga bunchalik tik qaragani qorong'ida qo'rqqan kishi ashula aytganidek emasmikin, degan gap ko'nglimdan o'tgani uchun operatsiyaning natijasini kutmadim, kechqurun kasalxonaga telefon qilmoqchi bo'lganimda, rostini aytsam, telefon trubkasini dadil ololmadim. Yo'q, xayriyat, Mastura operatsiyadan bardam turibdi. Shunaqa deyishdi. Shundan keyin men uzoq safarga ketdim-u, Masturaning taqdiridan bexabar bo'ldim, lekin uni tez-tez eslar edim; bu toqati

toq, joni temirdan insonning tuzalib ketishini, yashashini, uzoq umr ko'rishini uning o'zidan ham ko'proq tilar edim. Shuning uchun oradan uch yil o'tgach, Akramjonni bir begona xotin bilan ko'rganimda alamimdan dod deb yuborayozdim.

Paxta bayrami hech qayerda Mirzacho'ldagidek qiziq o'tmasa kerak, chunki bu yerga respublikaning turli hududlaridan kelgan odamlar o'z viloyatining ashulasini, o'yinini ham olib kelgan deyishadi.

Paxta bayramini yor-jo'ralar bilan Guliston rayonida o'tkazdik.

Akramjonni, boya aytganim xotin bilan shu yerda, Guliston rayoni markazining chiqaverishida ko'rdim. O'rta bo'yli, xushqomat, vujudidan yoshlik kuchi va g'ayrati yog'ilib turgan qop-qora juvon otda olma yeb, yo'l bo'yida turar, Akramjon o'z otining ayilini qayta bog'lamoqda edi. Akramjon meni ko'rib qoldi-yu, juvonga bir nima dedi. Juvon darrov otdan tushdi. Ikkovi yugurib keldi. Ikkovi ham men bilan juda eski qadrdonday so'rashdi. Biroq men, harchand qilsam ham, palatadan chiqib operatsiya zaliga kirib ketayotgan Mastura ko'z o'ngimdan ketmay, bular bilan samimiy ko'risha olmadim: Akramjonni bir nav quchoqlagan bo'ldim, juvonga esa qo'limning uchini berdim.

Juvon:

— Amaki, meni tanimadingizmi? — dedi va xurjundan ikkita olma olib, birini menga berdi.

— Qayerdadir ko'rganday bo'laman, lekin...

Juvon qo'lidagi olmani ustma-ust bir necha martaba tishladi va chala chaynab yutdi.

— Endi ham tanimadingizmi? — dedi.

Tanidim! Faqat ko'zidan tanidim! Kulimsirab, olamga tabassum sochib turgan bu juvon o'sha Mastura edi. Men nima deyishimni bilmay:

— Bu yoqda nima qilib yuribsiz? — dedim.

Mastura kuldi.

— Kuchimni, g'ayratimni to'la-to'kis ishga solib yuribman, — dedi.

— Operatsiyaga kirib ketayotganingizda men yo'lakda turgan edim, hayajonda bo'lsangiz kerak, tanimadingiz...

— Yo'q, amaki, — dedi Mastura biroz xijolat bo'lib, — kechirasiz, atayin so'rashmagan edim... So'rashsam, menga tasalli berar edingiz... O'sha tobda menga tasalli berib aytilgan har bir so'z ishonchimga raxna, ko'nglimga g'ulg'ula solishi mumkin edi.

Uzoq suhbatlashdik. Er-xotin otlarini yetaklab, meni talay yergacha kuzatib qo'yishdi: so'ng xayrlashib so'l tomonga ot qo'yib ketishdi. Men sahroda lochinday uchib ketayotgan Mastura bilan Akramjonga uzoq qarab qoldim.

Ikkovi ufqqa yetganda, biri orqaga qaytdi, hayal o'tmay yetib keldi.

Bu Mastura ekan, yo'ldan bir necha qadam narida turib:

— Amaki, Hoji akamga salom ayting, — dedi va ufqda kutib turgan Akramjon tomonga ot qo'yib ketdi.

Shaharga qaytganimizdan keyin Masturaning omonatini topshirish uchun Hoji akani topdim, lekin salomini topshirolmadim: Hoji aka bechora qazo qilgan ekan.

1956-yil

MAHALLA

Inson bilan tirikdir inson,
Muhabbatdan hayotning boshi.
Odamzodga baxsh etadi jon,
Odamlarning mehr quyoshi.

Erkin Vohidov

Rohat buvi kattakon qora pechkaning eshigini ochib oyog'ini tovlayotgan edi, deraza ostida ko'zoynak taqib nevarasining yirtilgan kitobini yelimlayotgan choli urishib berdi:

— Seni pechkaga o'rgatib bo'lmadi-bo'lmadi... Nima, polni o'yib, sandal qilib beraymi? Pechka deganning eshigini ochdingmi, ko'mir osmonni isitadi deyaver!..

Rohat buvi pechkaning eshigini yopdi, borib divanga cho'zildi. Uy sovuq bo'lmasa ham, bir necha kundan beri uning eti uchar, oyog'i sovqotar, og'rir edi.

Kampir shu yotganicha ertasiga ham turgisi kelmadi, indiniga turolmadi, uchinchi kuni yuragi birpas qattiq urib turdi-yu, birdan bo'shashib, o'ldi-qoldi.

Hikmat buva nima bo'lganini bilolmay, ko'zi bilan ko'rib turganini aqliga sig'dirolmay, garang bir ahvolda turib qoldi; o'g'li, kelini, uch nevarasi kirib yig'i boshlagandagina o'ziga kelib, titroqli nafas bilan shivirladi: "E, Xudo, nima qilib qo'yding, bisotingda menga atagan yana qanaqa kulfatlaring bor, to'k, boshimga hammasini birdan to'ka qol!"

Ellik uch yil! Ellik uch yildan beri bir dasturxondan tuz tatigan, bir ko'rpani bosgan, birga kulgan, birga yig'lagan; ellik uch yildan beri mushukchaday bir-biriga suykanib, bir-birini yalab, og'ritmay tishlab, yiqitib, yiqilib berib, piypalashib o'ynagan; ellik uch yildan beri mehr atalmish ulkan tuyg'u rishtasini pilla qurtiday bir maromda asta-sekin chuvib, bir-birining qalbini o'rabchulg'ab kelgan...

Hamma rasm-rusm joyiga yetkazilgandan keyin odamlar tobutni ko'targanda shu rishta birdan tortildi-yu, go'yo Hikmat buvaning yurak-bag'rini sug'urib oldi. Chol o'kirib yubordi.

Kampirni birpasda yerga topshirib qaytishdi. Ko'ngil so'raganı yana butun mahalla kirdi. Hikmat buva kasal musichaday bir chekkada qunishib o'tirar, aftidan, endi uning uchun olamda hech kim, hech narsa qolmagan edi.

Shundoq Hikmat buva hafta o'tar-o'tmas bir hovuch suyak bo'ldi-qoldi. Chol cho'zilib yotganda uning o'likmi-tirikmi ekanini bilish qiyin, lekin kampiri oyog'ini pechkaning o'tiga tovlayotganda urishib bergani esiga tushsa arslonday o'kirar, o'zini u yoqdan bu yoqqa otar edi.

Uyda uni yolg'iz qo'ymaslikka harakat qilishar edi. Kichkina nevarasi hamma o'yinchoqlarini uning uyiga kirgizib qo'ydi, bog'chadan kelganidan keyin shu yerga kirib o'ynaydigan bo'ldi. Katta nevarasi har kuni uni necha marta xilma-xil qilib suratga olaberdi. O'g'li uni avtomobilga solib bir necha marta shaharni aylantirdi.

Chol xursand bo'lish o'rniga: "Onang borida shu ishni qilmading", deb do'ng'illadi. Kelini unga magnitofon keltirib berdi.

Chol magnitofon bilan birpas ovundi-yu, keyin ko'ziga yosh olib: "Qizim, shu narsani ilgariroq topib kelganingda kampirni gapirtirib yozib olar ekanman", dedi...

Bir kuni qattiq yomg'ir yog'ib, qishdan qolgan qorni eritib yubordi. Ayvonda ustunga suyanib yomg'ir suvining vaqirlashini tomosha qilib turgan cholning ko'zi tandirdan narida yotgan bir poy eski kalishga tushib qoldi. Kampir bir oyog'i og'rib shishganda shu kalishning jag'ini kesib kiygan edi. Chol borib kalishni oldi, avaylab artdi, uyga olib kirdi. Chol uchun kampir go'yo qaytadan o'ldi. U kechgacha yig'ladi, kechqurun o'g'li bilan kelini ishdan kelganda "kampir bechorani shifokorga durustroq ko'rsatmadilaring", deb xarxasha qildi.

Hikmat buva kechalari uxlamas, dori ichib uxlasa ham, yarim kechasi uyg'onib, tong otguncha o'tirib chiqar, uydagi hamma narsa unga kampirini, yolg'iz qolganini eslatar, har bir tovush o'lim bo'lib uning miya qopqog'ini chertar edi.

Chol tugab borayotganini ko'rib, o'g'li bilan kelini tashvishga tushib qolishdi.

Bir kuni ertalab chol yo'qolib qoldi. Qidirilmagan joy qolmadi: yor-do'st, tanish-bilish, qarindosh-urug', hatto tez yordam kasalxonasidan ham xabar olindi, militsiyaga murojaat qilindi. Hamma yoq qidirilibdi-yu, qabristondan xabar olinmabdi, chol qabristonda ekan. Hikmat buva qabristonga tez-tez borib, kampirning boshida bir soat-yarim soat o'tirib kelar, lekin bunaqa qolib ketadigan odati yo'q edi. Chol bu safar borganida kampirning qabrini ziyorat qilish u yoqda qolib, uning yonidan o'ziga go'r qazitdi, mudir va go'rkovlar harchand unashmasa ham, qo'ymadi — janjallashdi.

Chol kun og'ganda adoyi tamom bo'lib qaytdi. Kimdir uni avtobusdan tushirib yo'lkaga chiqarib qo'ydi. Cholning zo'rg'a qadam bosib kelayotganini ko'rgan muyulishdagi cho'tkachi yugurib borib uni olib keldi va qo'liga bir piyola choy berdi.

— Xafa bo'lmay yuribsizmi, otaxon... Kampir onam alomat ayol edilar... Siz o'sha kuni o'zingiz bilan o'zingiz ovora bo'lib ta'ziyaga kelgan odamlarni payqamadingiz... Ana odam-u... Mahallaga sig'may ketdi! Mahallamizning ko'chasi bir metr cho'k-

di!.. Kampir onam dunyoga kelib odam ekkan ekanlar. Dunyoga kelgan odam avvalboshi odam ekishi kerak ekan. Men ibrat oldim...

Issiq choymi yo cho'tkachining gaplarimi cholga ancha mador bo'ldi.

— Ha, — dedi chol biroz g'urur bilan, — haligacha odam keladi... Ishxonasi ham shuncha yildan beri esidan chiqarmagan ekan.

Cholning paydo bo'lganidan xabar topgan uy ichi, qo'ni-qo'shni chuvullashib kelib uni o'rtaga olishdi. Birov dashnom bergan, birov bo'g'ilgan, birov suyungan...

Bular cholni o'rtaga olib chuvullashib ketayotganda yo'l bo'yida turgan shu mahallalik shifokor voqeani eshitib choldan o'pkalagan bo'ldi, keyin unga razm soldi-yu, kampirdan gap ochdi:

— Onaxonimiz ta'rifga sig'maydigan ayol edilar, shuncha odam bekorga kelgani yo'q! Lekin, otaxon, mahallamizga biron sakkiz chelakli bitta samovar kerak ekan, o'sha kuni juda-juda bilindi. Mahalladan pul yig'sak, xonadonga necha puldan tushadi?

Cholning hamiyati qo'zg'ab ketdi.

— O'g'lim bilan kelinimning bitta samovarga kuchi yetib qolar, — dedi.

Shifokor undan shu gapni kutgan ekanmi, jilmayib qo'ydi. Chol go'rini qazitib qo'yib, endi bu yerga samovar olgani emas, yotib o'lgani kelgan bo'lsa ham, o'g'li bilan kelini nomidan mahallaga kattalik qilib qo'yganidan keyin bu to'g'rida o'ylashga majbur bo'ldi — o'g'lidan pul oldi, samovar qidirishga kirishdi. Biroq o'shanaqa samovarni topishdan ko'ra kondan mis qazib, samovar yasash osonroq ekan: cholning bormagan magazini, yalinmagan magazin mudiri qolmadi. O'g'li bilan kelini uning yelib-yugurishiga, unda shuncha kuch qayoqdan paydo bo'lganiga hayron edi.

Nihoyat, mahalladagi mansabdorlar yordami bilan samovar topildi, mahalla faollari akt bilan qabul qilib oldi, umumiy majlisda rais Hikmat buvaga rahmatlar aytdi, hamma chapak chaldi.

Shu majlisda yana bir masala ko'tarildi: mahallada har kuni bo'lmasa ham, haftada ikki-uch marta to'y-ma'raka, tug'ilgan kun va boshqa marosimlar bo'lib turadi, kim marosim o'tkazadigan bo'lsa uyma-uy yurib idish-tovoq, dasturxon va boshqa narsalar tilaydi, faollar mahalladan pul yig'ib, biron yuz ellik kishilik mahalla ro'zg'ori tashkil qilsa bo'lmaydimi?

Bu taklifni hamma olqishladi, buning mutasaddisi kim bo'ladi, degan savolga hamma qiy-chuv ko'tarib yana Hikmat buvani ko'rsatdi. Hikmat buva unamasdan qarshi so'z aytgani o'rnidan turgan edi, shuncha odam chapak chalib, ko'ziga qarab turganini ko'rib indayolmadi.

Mahalla necha xonadon? Bularning hammasi cholni ovora qilmay pulni keltirib bera qolsa ekan! Bu xonadonlardan ko'piga kirish kerak, koshki bir kirganda pulni bera qolsa ekan: biri ertaga keling, deydi, biri falonchi muncha berganda men nega shuncha berar ekanman, deb xarxasha qiladi, biri majlisda angrayib o'tirib gapga yaxshi tushunmagan, unga tushuntirish kerak bo'ladi...

Chol har kuni ertalabdan xonadondan xonadonga, bor pulga bir nima olib qolish uchun magazindan magazinga, arz-dod qilgani idoradan idoraga yugurar, shu orada fursat topib ba'zan kampirining mozoriga ham borib kelar edi.

Chol, nihoyat, mahalla ro'zg'orini to'la-to'kis qilib, maktab omboriga qamab oldi. Biroq ro'zg'orni but qilishdan ham ko'ra uni asrash qiyinroq bo'ldi: ba'zi odamlar narsani olib vaqtida qaytarishmaydi; ba'zilar, masalan, jo'mragi uchgan choynak, papirosdan kuygan dasturxon, lattasiga allanima balo to'kilgan kursi, uchi qayrilgan sanchqi va hokazo qaytarishadi, yana "o'zi shunaqa edi", deb janjal qilishadi. Yo'q, xayriyat, sal kunda odamlar insofga kelishdi, cholning ishi yengil bo'lib qoldi.

Bahor keldi. Shaharda daraxt o'tqazish mavsumi boshlanib ketdi. Shu munosabat bilan gazeta maqola berib, o'tgan yil bahorda qaysi mahallalar rejani to'ldirmay qolganini, qaysi mahallalar bu ishda namuna ko'rsatganini aytib, ilg'or mahallalar qatoriga "Yangi mahalla"ni ham qo'shibdi.

Buni cholga nevarasi ko'rsatib kuldi, chunki o'tqazilgan daraxtlarning ko'pgina qismi tutmagan edi. Chol chiqib mahallani aylandi, daraxtlarni ko'zdan kechirdi.

O'tgan yil bahorda jami bir ming yetti yuz oltmish besh tup ko'chat o'tqazilgan bo'lib, bundan faqat sakkiz yuz oltitasi tutgan, tutgan daraxtlardan yigirma ikki tupi singan, sakkiz tupi sassiq, mo'rt va umri qisqa daraxtlar ekan. Chol bu ma'lumotni olib to'g'ri redaksiyaga bordi, avval tortinibroq gapirdi, gapi o'tganini payqagach, shovqin soldi. Gazeta ertagi sonida "Yangi mahalla" haqida noto'g'ri ma'lumot bergan muxbiriga jazo berganini aytdi va muxbirni aldagan mahalla faollarining kotibiga dashnom berdi va shu bilan birga, gazetaning xatosini ko'rsatgan Hikmat buva Normatovga tashakkur bildirdi.

Hikmat buva shu kuni burchakdagi cho'tkachiga mahsisini yog'latib, "mahallamiz sharmanda bo'lgani" haqida uning intihosiz javrashiga quloq solib o'tirgan edi, shu asnoda o'sha yolg'onchi kotib o'tib qoldi va cholni ko'rib o'shqirdi:

— Hu o'sha... O'zimiz to'g'rilar edik-ku, senga nima, bir oyog'ing go'rda-yu...

Chol sekin burilib qaradi.

— Mening bir oyog'im go'rda, sening ikkala oyog'ing to'rdami? Unaqa demagin, bolam, kim oldin o'lishini bilib bo'lmaydi...

Chol yana bir nima demoqchi edi, o'ziga go'r qazitib qo'yganini eslab dami ichiga tushib ketdi. Kotib jahl bilan qo'l siltab jo'nadi. Chol qo'llarini orqasiga qilib boshini quyi solib uyiga tomon bitta-bitta qadam tashlab borar ekan, o'ylar edi: "Bu bola go'r qazdirib qo'yganimni eshitganmikan? Yo'q, eshitgan emas, lekin eshitishi mumkin..."

Chol jadallab uyga keldi va o'tirib xat yozdi: "Qabriston mudiri va go'rkovlariga yozib ma'lum qilamanki, qari baqaterak ostidagi mening nomimga qazilgan go'rni qabriston idorasiga topshiraman, azbaroyi foydalanish uchun".

Hikmat buva xatni nevarasidan berib yubordi.

1964-yil

NURLI CHO'QQILAR

Gohi yer mehrini o'ylarkan,
Esga tushar dorning siyog'i,
Ajab hikmat: odam o'larkan
Uzilganda... yerdan oyog'i.

Abdulla Oripov

To'qqizinchi sinf a'lochilaridan, temir-tersakni hammadan ko'p yig'ib, oti radiodan aytilgan va maktab ma'muriyatidan rahmatlar eshitgan Zuhraxon degan qiz yo'qolib qoldi.

O'sha kasofat shanba kuni maktabdan qaytishda Zuhra kitob-daftarlarini opasi Fotimaga berib, lola tergani qirga chiqqan ekan, qaytib kelmabdi. Uning ota-onasi avvaliga qarg'ab, keyin yig'lab butun lolazorni, butun qishloqni taka-taka qildi. Maktab ma'muriyati bulardan ham ko'proq jon kuydirdi — jamoa Kengashiga aytib butun qishloqni oyoqqa turg'izdi, rayonga ma'lum qildi, chunki sinfda a'lochi qiz to'rtta bo'lsa — Zuhra uning yigirma besh foizini tashkil qilar edi.

Chol-kampir boshqa xunuk xayollarga bormaslik uchun birinchi ovutdi: Zuhra qoqvosh, ta'bi nozik, dimog'dor qiz bo'lib, maktabdoshlariga qo'shilmas edi, shahardan lola tergani chiqqan qizlardan birontasi ta'biga yoqib, o'sha bilan o'ynab ketgan bo'lsa ajab emas ("biron yigit bilan qochib ketmadimikan", deganga til bormas edi).

Ko'ngliga yo'l berish mumkin bo'lgan va birdan bir xayriyatli gumon shu bo'lib qoldi. Haqiqatan, shanba va yakshanba kunlari shaharlik yoshlar bitta danak topsa, shu lolazorga kelib chaqib yer edi. Bularning ichida chiroylisi bor, sho'xi bor, boyvachchatabiati bor, bevoshi bor...

Buning ustiga, Zuhra nihoyatda ko'zga yaqin, bir qaragan kishi ko'zi xira tortib, yana qaragisi kelar, xususan, xonatlas ko'ylak kiyib sochini "laylak uya" qilganida, maqtoviga "chiroyli" degan so'z goh kamlik, goh eskilik qilib qolar edi.

Zuhra o'ziga munosib, ya'ni yaxshi o'qiydigan suxsurdakkina biron yigit bilan ketgan, degan umidda chol bilan kampir biroz taskin topgan bo'ldi-yu, lekin Fotima baloga qoldi: "Zuhra lola

tergani boraman desa, bitta o'zini yuboraverdingmi? Birga borsang oyog'ingga kuydirgi chiqarmidi, muncha noshud-notavon, muncha ham anqov-lakalov bo'lmasang!"

Kampir bunaqa gaplarni alam ustidagina emas, umuman, kuyib aytar, chunki sho'x va shaddod Zuhraga qaraganda Fotima bo'shtobroq, sho'xlik husnning pardozi bo'lsa kerak, ikkovi bir olmaning ikki pallasi bo'lsa ham, Zuhraning oldida uning istarasi so'nikroq ko'rinar edi.

Oradan o'n kun o'tgach, Fotima maktabdan yig'lab keldi: Zuhra tufayli sinfda davomat pasayib ketgani uchun komsomol komitetining sekretari uni sinf daftaridan o'chirmoqchi bo'libdi. Bu gap chol-kampir uchun Zuhraning o'limi xabari bilan barobar bo'ldi. Fotima yana zixnovga qoldi:

— Sen palpis-pandavaqi bo'lmasang, boshimizga shunday kunlar tushmas edi! Zuhra sendan kichik, lolazorga boraman, deganida yo'lini to'ssang, unamasa, sochidan sudrab olib kelsang bo'lmasmidi! Ahvoling shu bo'lsa, holingga voy, er olmaydi, boshimga yostiq bo'lasan!..

Fotima bunaqa ta'na-dashnomlarni ko'p eshitdi, nihoyat, jonjonidan o'tib ketdi-yu, yig'lab dedi:

— Ayajon, hamma aybni menga to'nkayvermang, axir Zuhraga mening so'zim emas, o'zingizning so'zingiz ham o'tmas edi-ku? Hu ana unda, ozib-yozib bir ish buyurib: "Qizim, to'rttagina piyoz archib ber", deganingizda teskari qarab: "Men senga malay emasman!" degani esingizdan chiqdimi? Shunda ham indamadingiz. Men esimni taniganimdan beri sizga qarashaman, ro'zg'or ishini butkul qo'limga olsam-u, sizni yetti qavat ko'rpachaga o'tqazib qo'ysam deyman! Nahot ota-onaning izzatini, xizmatini qilgan kishi malay bo'lsa? Hamma ayb o'zingizda, yaxshi o'qisin, deb Zuhrani juda erkalatib yuborgan edingiz! Qizimning qo'li qavaradi, deb o'smasini ham o'zingiz siqib berar edingiz!

Kampir Fotimaning so'zlariga qarshi lom-mim deyolmay qoldi: haqiqatan, o'zi vaqtida o'qiyolmay qolib, hayotida nima kamlik, qanday qiyinchilik tortgan bo'lsa hammasini ilmsizlikdan ko'rgan, zehni o'tkir Zuhraning ilmga tezroq to'lishini ko'zlab, uning maktabdagi qilday yutug'i oldida uyidagi filday gunohini

payqamagan edi. Shundan keyin Fotima zixnovdan qutuldi, lekin kampirning g'amiga g'am qo'shildi. Zuhradan xat kelguncha yaqin bir oy bo'yi o'zini o'zi yeb, bir burda bo'lib qoldi.

Zuhra bosh-keti yo'q to'mtoq xatida shunday debdi:

"Turmush o'rtog'im bilan ko'nglimizning amrini bajarib, baxtiyor oilalar safidan mustahkam o'rin egalladik va baxtli turmush quchog'ida oqib, kelajakning nurli cho'qqilari tomon bormoqdamiz. Sizlar feodalizmning uqubatli quchog'ida yashagansizlar, yuksak ideallarga asoslangan muhabbat nima ekanini bilmaysizlar, shuning uchun mendan xafa bo'lmanglar, xursand bo'ladigan kunlaring yaqinlashib kelmoqda".

Fotima xatning boshiga — "aziz dadajonim, mehribon onajonim", oxiriga — "sizlarga sihat-salomatlik tilayman", degan so'zlarni qo'shib o'qidi. Xatda na manzil bor, na imzo, konvertga shahar o'n birinchi aloqa bo'limining muhri bosilgan edi.

Xatning "baxtli turmush, nurli cho'qqi" degan joylari kampirga tasalli berdi. Lekin chol xatni Fotimaning qo'lidan yulqib oldi, qo'yniga tiqdi-yu, to'nini yelkasiga tashlab shaharga jo'nadi va shu ketganicha bir hafta deganda keldi: Zuhrani qidirib o'n birinchi aloqa bo'limiga qarashli hamma xonadonga bir-bir bosh tiqibdi: maktab, idora, korxonalardan so'roqlabdi: nihoyat, shahar militsiya boshqarmasiga uchrabdi. Militsiya to'rt kundan keyin: "Shaharga bunaqa ayol yozilgan emas", deb javob beribdi.

Kuzga yaqin rayonda katta majlis bo'lgani, majlisda Zuhra va uning maktabi og'izga tushgani, xunuk-xunuk gaplar aytilgani to'g'risida mish-mish tarqaldi. Bu mish-mishlar ramaqijon bo'lib yurgan kampirni yiqitdi. Kampir uzoq yotib qoldi.

Qish o'tdi. Bahor keldi. Zuhraning na tirigidan darak bor edi, na o'ligidan. Chol ba'zan juda kuyib ketgan vaqtlarida boshiga mushtlab: "Juvonmargga aza och, aza ocha qol", deb yig'lardi.

Fotima maktabni bitirdi. Uning niyati yana o'qish edi, biroq chol-kampir: "O'qish shu bo'lsa — bas, maktablarga o't tushsin", deb turib oldi. Bundan tashqari, Zuhra bunaqa bo'lganini, onasi ne ahvolda yotganini ko'rib, Fotima bu niyatidan qaytdi, ish so'rab raisning oldiga bordi. Rais Fotima haqida onasining "noshud-notavon" qabilidagi so'zlarini eshitgan ekan, uning aftiga ham qaramasdan, ferma mudiri ixtiyoriga yubordi va ketidan mudirga telefon qilib "ish-pish topib ber", dedi.

Fotima fermada "ish-pish" qilib yurgan edi, bir kuni gapdan gap chiqdi-yu, Fotima sigir degan jonivorning befarosatligidan nolib: "Men rais bo'lsam, sigir boqib o'tirmas edim, olimlar bilan birgalashib, yem-xashakning o'zidan sut oladigan mashina chiqarar edim", dedi. Sog'uvchilar xo'p kulishdi. Bu gap raisning ham qulog'iga yetgan ekan, fermaga kelganida Fotimaning yelkasiga qoqib: "Durust, durust, kallada xomxayol bo'lsa ham bo'lgani, kalla bo'sh turmagani yaxshi", dedi va oradan ko'p o'tmay, uni sog'uvchilikka o'tkazdi. Bu kunlarda ferma sigirlarni mashinada sog'ishga o'tgan bo'lib, sigirlar hali o'rganmagan, ko'pi mashinaning ichagini ko'rsa yuragi yorilib, boshini sarak-sarak qilar, pishqirar, sog'uvchini suzish payida bo'lar edi. Fotima pastdan yuqori bo'lganiga suyunib, mashinaga qiziqib, bu ishga shavq bilan kirishib ketdi.

Kampir o'sha yotganicha qovun pishig'ida biroz o'ngarilib o'rnidan turdi, lekin ko'p o'tmay yana yotib qoldi, shu yotganicha bo'lak turmadi — vafot qildi. Zuhra azaning to'qqizinchi kuni kirib keldi. Chol uni ko'rib qarg'ashga og'iz ochdi-yu, lekin qarg'ayolmadi, "Bo'yning uzilmasin, bolam", deb ho'ngrab yubordi. Zuhra kattakon qizil ro'mol o'rab olgan, katta ro'molchasini lunjiga bosib soldatchasiga g'oz turar, aftidan, onasining xotirasini o'zicha hurmatlar edi. Uning kelganini eshitib, qo'ni-qo'shni ko'ngil so'ragani chiqishdi. Zuhra xotinlarga orqasini o'girib turaverdi. Fotima, bechoraning yuzi shuvut, deb o'ylaydi-da, uni sekin turtib:

— Bunaqa vaqtda hech kim o'tgan gapni o'ylamaydi. Uyalma, bularga bir nima degin... — dedi.

Zuhra yuzi shuvut emas, xotinlarning ko'ngil so'rashini ham, bunga javoban "ko'nglimni ko'targanlaring uchun rahmat", degan ma'nodagi gapni ham eskilik deb bilgani uchun shunaqa qilib turgan ekan, Fotimaga yalt etib qaradi:

— Nimadan uyalaman, erkin muhabbat masalasini Navoiy, Tolstoylar ko'targan! — dedi-yu, burilib uyga kirdi-ketdi.

Fotima odamlardan xijolat bo'lib, uni kasalga chiqardi.

Fotima odamlarni kutdi, uzatdi, ayvonda ne mahalgacha otasi bilan gaplashib o'tirdi, keyin, unga joy solib berdi-da, yotgani uyga kirdi. Zuhra hanuz uxlamagan ekan, yig'layverib shishib ketibdi. Buni ko'rib Fotimaning gina-kudurati yozildi, uning qilmishi, yozgan to'mtoq xati, boyagi gapi xususida ko'ngliga tugib qo'ygan o'pka-ta'na so'zlarini aytmadi, aksincha, uni yupatdi, turmushini so'radi. Zuhra bundan o'n bir oy muqaddam qornida besh oylik bolasi bilan eridan chiqqan ekan.

— Ota-onasi feodal, feodalizmning uyasi, meni cho'ri, uy cho'risi qilmoqchi bo'lishdi! O'zing bilasan, uy-ro'zg'or ishiga uquvim yo'q, qozon-tovoqni jinimdan battar yomon ko'raman. Shuning uchun ayam meni faqat o'qitganlar, men ham yaxshi o'qiganman. Yo'q, bularga men oqsoch bo'lishim kerak ekan! Xizmatchi olgani qo'yishmadi, "Moskvich"imizni sottirib yuborishdi. Bundan tashqari: "Yengsiz ko'ylak kiyma! Birovning oldida kerishma! Qahvaxonaga muncha ko'p borasizlar!.." Bezor bo'ldim! Chiqdim-ketdim!.. Lekin erim meni yaxshi ko'rardi: qo'lida ko'tarib yurardi, ko'chaga chiqsa, albatta, bir nima olib kelardi... Bechora uch-to'rt oy xo'p qatnadi — yalindi... "O'sha ota-onang bor ekan, uyingni yelkamning chuquri ko'rsin", dedim. Uch marta onasi, bir marta otasi keldi, ikkovini ham qabul qilmadim!

"Qabul qilmadim" degan gapni Fotima hazm qilolmadi, katta boshini kichik qilib kelgan va eshikdan qaytgan mo'ysafidlarni ko'z oldiga keltirib yig'laguday bo'ldi.

— Ering ota-onasidan kechsinmi? — dedi.

— Kechmasa ham... yoshlar yashashi kerak!

— Bularni to'rqovoqqa solib shipga osib qo'yish kerakmi? Shu talabni ering qo'ysa sen nima der eding?

Zuhra "bunaqa gaplarni sen tushunmaysan", degan ma'noda boshqa gapga o'tdi:

— Maktabni durustroq bitirdingmi? Sening toleyingga ayam bunaqa bo'lib qoldilar... Yanagi yilga qaysi institutga kirasan?

Fotima hayron bo'lib so'radi:

— Dadamni yolg'iz tashlab qayoqqa boraman?

— To'g'ri, lekin dadam dunyodan o'tib borayotibdi, sen dunyoga endi qadam qo'yayotibsan!

Fotima esnab:

— Ishga kirdim, fermada sigir sog'ayotibman... — dedi.

Zuhra birdan boshini ko'tardi:

— Nima? O'n yil o'qib sigir bilan tappidan boshqa narsaga aqling yetmadimi?

Zuhra arazlab orqasini o'girdi, lekin Fotima bu ishga vaqtincha, noilojlikdan kirganini, o'qish to'g'risidagi rejalarini aytar, deb xo'p kutdi, biroq Fotima hayal o'tmay mushukchaday mayin xurrak otdi.

Fotima tong yorishganda uyg'ondi. Zuhra undan oldinroq turib, ketib qolibdi — kim biladi, ertalab yana odam yig'iladi, dedimi, yo "erimdan chiqqanimni Fotima aytib qo'yadi", degan o'yda otasiga ro'para bo'lgani yuzi chidamadimi...

Zuhraning iziga tushib bo'lmadi. Fotima uning erdan chiqqanini dadasiga aytmay qo'ya qoldi, yarashib ketar, deb o'yladi.

Oylar o'tdi.

Bu orada Fotima ishga sho'ng'ib ketdi. Ma'lum bo'lishicha, sigir degani yem-xashak, sut-u tappidan, sog'uvchilik ishi yelin tortish-u sut chiqarishdangina iborat emas, sigir degan maxluq shuncha befarosatligi bilan sog'uvchining mehrini, mehnatini, bilimini sezar, shunga qarab sut berar ekan. Fotima shuni bilganidan keyin ishda kun sayin ochila bordi, shunday bo'ldiki, rais hisobot-saylov majlisida "kesakdan o't chiqqan"iga xursandlik izhor qilib, bir qancha qiziq gaplar gapirganidan keyin uni ilg'or sog'uvchilar qatoriga qo'shdi. Yaxshi sog'uvchi bo'lgani, rais qo'shig'iga qo'shgani uchun Fotima kolxozda otning qashqasi bo'lib qoldi. Faqat sho'xlik-shaddodlik emas, shuhrat ham husnning pardozi ekan, shekilli, Fotima birdan ochilib ketdi: ana qora yolqin tashlaguvchi ko'zlar-u, ana tutab turgan payvasta qoshlar-u, yoshlarning ishtahasini ochadigan kuldirgichlar-u... Zuhra xonadonga dog' solib ketganidan keyin ko'p odam: "Endi Fotima qari qiz bo'lib o'tirib qoladi", deb taxmin qilgan edi, yo'q, jazman ustiga jazman chiqaverdi: raisning qaynisi, kolxozning montyori, buxgalterning o'g'li, ximizator, dorixona mudiri... Fotima yaqinda o'qishini bitirib fermaga veterinar bo'lib kelgan Samijon degan yigitga mayl berdi.

Samijon ko'p mulohazali yigit ekan, to'y cholga ham tatisin, degan maqsadda Zuhrani xo'p qidirdi, olti hafta qidirib, oxiri daragini topdi. Uning bir o'rtog'i Zuhrani shahar kutubxonasining zalida ko'ribdi. Zuhra zalda o'tirgan bo'lsa — demak, kutubxonaga a'zo, a'zo bo'lsa o'sha yerda manzili bo'lishi kerak.

Ikkovi shaharga borib, haqiqatan, kutubxonadan Zuhraning manzilini topdi. Zuhra markaziy hammom qoshidagi sartaroshxonada kassir bo'lib ishlar ekan. Samijon eshikda qolib, sartaroshxonaga Fotima kirdi va ko'k yog'och panjara ichida o'tirgan Zuhrani ko'rib yuragi shig' etib ketdi: ozib cho'p bo'lib ketibdi, bukchayibdi, shunday sochdan chilvirdakkina ikkita kokil qolibdi...

Zuhra Fotimaga ko'zi tushib, xuddi yalang'och o'tirganida ustiga birov kirib qolganday shoshib, sariq ro'molini yelka aralash boshiga tashladi, beixtiyor panjaradan chiqib keldi.

— Nega, nega kelding... Men bu yerda vaqtincha ishlab turibman.

— Yaxshimisan... Ering yaxshimi, — dedi Fotima "yarashdingmi" deyolmay.

— Ketib qolgan, allaqachonlar ketib qolgan. Leningradda, o'qishda...

— Bolang katta bo'lib yuribdimi?

— Venera bog'chada, — dedi Zuhra va bundan ortiq gap so'rashini istamadi, shekilli, o'zi savol berdi: — Erga tegayotganemishsan, deb eshitdim, kim o'zi?

Fotima to'y uning qishloqqa borishiga qarab qolganini aytishga shoshilib:

— O'zimizning qishloqdan, fermada vetvrach, — dedi.

Zuhra labini burdi.

— Sigir doktori degin! Tappi tappidan yiroq tushmas ekan-da.

Fotimaning dami ichiga tushib ketdi. Shu asnoda Samijon kirib keldi. Fotima ikkovini tanishtirishini ham bilmay qoldi, tanishtirmasligini ham, lekin uning Zuhraga tomon iljayib borayotganini ko'rib "Samijon!" — deyishga majbur bo'ldi. Zuhra kuyov shu ekanini bilib unga ko'z qirini tashladi, hindchasiga kaftlarini juftlab ta'zim qilib qo'ya qoldi. Samijon o'sal bo'lib to'xtadi,

so'rashgani uzatmoqchi bo'lgan qo'lini ko'ksiga qo'yganicha orqaga tisarildi. Shu on bir mijoz kassaga pul to'lagani keldi-da, Zuhra chopib borar ekan, Fotimaga qarab: "Bir aylanib kelinglar, keyin uyga boramiz", dedi. Samijon ta'zim qilib chiqib ketdi. Fotima Samijonning oldida Zuhraning qilmishidan uyaldi, uni uzib-uzib olmoqchi bo'lib panjaraning oldiga bordi, lekin uning mijoziga qilgan muomalasidan yuragi tor, jizzaki bo'lib qolganini fahmlab, shashtidan qaytdi.

— Zuhra, jigarim, — dedi hazil yo'sinida, — onang hindi emas edi-ku, kuyov bilan o'zimizcha qo'l berib so'rashsang nima qilardi? "Bir aylanib kelinglar", deganing nimasi, uyingga olib boradigan bo'lsang, qayerda turishingni ayt, kalitingni ber, biz borib turaylik!

Zuhra qip-qizarib ketdi, cho'ntagidan kalit olib, ikki barmog'i bilan Fotimaga uzatdi, uy manzilini aytdi.

Fotima Zuhraning qilmishi uchun uzr so'rab Samijonga uning hali odam ko'rmaganini, odob-axloq o'rganmaganini, shu tufayli bo'lsa kerak, uyi buzilganini aytib berdi.

Zuhra bog'dan nari to'rt qavatlik imoratning zinasi ostidagi uyda turar ekan. Fotima sirtqi eshikni ochib yo'lakka kirdi, ikki tomonda ochiq turgan eshiklardan uy bilan oshxonaning ahvolini ko'rib, Samijondan nomuslarga o'ldi.

— Voy, kim aytadi shu uyda xotin kishi, yoshgina juvon turadi deb!

Samijon uni xijolatdan chiqarishga shoshildi:

— Ziyoni yo'q, ayni muddao! Zuhraxon yosh, yolg'iz, oyog'i toyilmadimikan deb qo'rqqan edim, yo'q xayriyat... bu uyga erkak zoti emas, odam bolasi oyoq bosmaganga o'xshaydi. Bechoraning dugonasi ham bo'lmasa kerak.

Ikkovi uy bilan oshxonani yig'ishtirdi, tozaladi.

Ishdan keyin Zuhra sariq qog'oz xaltachada bir nima ko'tarib keldi, oshxonaga kirib ketdi-yu, ko'p o'tmay, uyga tovoqda ovqat ko'tarib kirdi. Ovqat aslida chuchvara bo'lib, qaynatishda sovuq suvga solingan bo'lsa kerak, xamiri bilan qiymasi qorishib yotardi. Zuhra magazindan olingan tayyor chuchvarani qaynatishni ham bilmaganidan zarracha xijolat emas, aksincha, qozon-tovoqqa

yo'qligini shu bilan yana bir marta pisanda qilganidan mamnun ko'rinar edi.

Fotima tegishdi:

— Ilgari ayamga malay, qaynanangga cho'ri bo'lib qolishdan qo'rqib, qozon-tovoqqa qo'l urmasding, endi nimadan qo'rqasan, hech bo'lmasa o'zing uchun o'rgansang bo'lmaydimi?

Zuhra kuldi.

— Shu bilganim o'zimga yetadi, chuchvaradan maqsad go'sht bilan xamir yeyish bo'lsa ikkovi ham turibdi, qo'shib yeyaveraman!

— Axir, bir kuni ering kelar, yarasharsizlar...

Zuhra yarashishdan umidi bo'lmasa kerak:

— Men ozodligimni hech qanaqa erga alishmayman! — dedi kulib.

— Yolg'izlikning o'zi bir tutqunlik emasmi? — dedi Samijon

Zuhra eri to'g'risida qizishib gapira ketdi, bu gaplarning tagida faqat "Mening qadrimga yetmadi, menday xotinning qadriga yetmadi", degan bir alam yotar edi.

Bu alam, aftidan, uni kemirib, so'rib, darmonini quritibdi va "dunyo shu o'zi, hayotda hech kim o'z qadrini topolmaydi", degan ko'yga solib qo'yibdi. Endi ma'lum bo'lishicha, Zuhraning uy tutishi, kiyim-boshi, o'ziga qaramay qo'yganligi shuning oqibati, hozirgi har bir gapi, harakati shuni ta'kidlar, hatto dasturxoni yig'ishtirganida, bo'sh tovoqni olib chiqib ketayotganidagi raftori, aft-angori, butun vujudi "Ey, olam eli, mana ko'rdingizmi, men nechog'liq xorlik, zorlik tortayotibman!" deb turganga o'xshar edi.

Choy mahali hech kimdan sado chiqmadi. Samijon, gap ochishning mavridi keldi, degan ma'noda Fotima bilan ko'z urishtirib olganidan keyin:

— Kuyov bilan bunaqa arazlashib qolgan bo'lsalaring, yakka o'zingiz shahri azimda nima qilasiz, qishloqqa keta qolaylik? — dedi.

Zuhra anchadan keyin javob berdi:

— Shahardan qishloqqa... bir qadam orqaga qaytish bo'lmasmikin?

Fotimaning achchig'i keldi.

— Orqaga qaytish bo'lsa nima, nurli cho'qqidan tushib qolasanmi?

Zuhra bir vaqtlar ota-onasiga yozgan xatida: "Kelajakning nurli cho'qqilari tomon bormoqdamiz", degani esida bor ekan, rangi bo'zarib ketdi.

— Ta'na qilma! — dedi labi pirpirab. — Men nurli cho'qqiga yetolmagan bo'lsam... sigir minib sen yetib borasan!..

Bu gap Samijonga ham tegib ketdi.

— Odam intiladigan cho'qqi tog' cho'qqisi singari, bulutlar orasida emas, yerda bo'ladi, — dedi Samijon.

Fotima uning javobiga qanoat qilmadi:

— Ayam mendan rozi bo'lib ko'z yumdilar, dadam ming marta rozilar: dugonalarim, qavm-qarindosh, butun kolxoz mendan rozi, mening uchun bundan balandroq cho'qqi bormi? Sendan kim rozi? Hatto suyub teggan ering ham rozi bo'lmabdi-ku! Sen qanaqa cho'qqiga intilgan eding?

Zuhra pushti ro'molchasini lunjiga bosganicha kursiga qapishib qoldi. Uning ahvolini ko'rib Fotima shu gapni gapirganidan pushaymon bo'ldi. Zuhraning ko'zlari yumuq, qalin kipriklari orasidan yosh sizar edi. Zuhra turib-turib birdan Fotimaga o'zini otdi, uni qattiq quchoqladi, ichidan xuruj qilib kelayotgan faryodni yutish uchun yuzini uning qorniga ishqab to'lg'andi, ingradi, so'ng, o'zini yerga otdi-yu, boshini karavotning poyasiga bir necha marta urdi. Samijon uni ko'tarib karavotga yotqizdi. Fotima nima qilishni bilmas, qo'rqib nuqul: "Mengina o'lay!" der, uning boshini silar edi...

Bugun shanba kuni Zuhra qizini yaslidan olishi kerak ekan, vaqtida bormagani uchun qorong'i tushganda murabbiyasi Venera ni olib keldi.

Zuhra bularning tovushini eshitib, ko'zini ochdi. Murabbiya Zuhraning kasalligini ko'rib hol-ahvol so'radi, keyin Venera ni unga tomon yo'lladi. Venera uning etagidan mahkam ushlab turaverdi. Fotima darrov sezdi: Zuhra yuragi torlik qilgan paytlarda qiz bechorani ko'p urishib, ehtimol, urib, o'zidan bezdirib qo'yibdi. Buni Samijon ham payqadi. Haqiqatan, Fotima "kel"

deb qo'l cho'zgan edi, qiz biroz begonasirasa ham, yugurib bordi va uning quchog'iga o'rnashib, onasiga xo'mrayib qaradi.

Mehmonlar to'rt kun turib qolishdi. Fotima Zuhra bilan, Samijon mehmonxonada yotib yurdi. Venerani yasliga eltishmadi, Samijon o'ynatib, javratib yurdi.

Beshinchi kuni Zuhra butkul tuzalib ishga chiqadigan bo'lgandan keyin, mehmonlar ketadigan bo'lishdi. Zuhrani qishloqqa, hatto to'yga taklif qilish ham noqulay bo'lib qoldi. Bular uchun cholga: "Zuhra eson-omon yuribdi, qizi katta bo'lib qolibdi", degan xabarni eltish ham katta gap edi.

Zuhra bularni avtobus stansiyasiga kuzatib chiqdi. Avtobus tayyor ekan. Fotima Venerani ko'tarib olgan, avtobusga chiqish uchun uni Zuhraga uzatgan edi, Venera, dod, deb Fotimaga chirmashib oldi, unga ham ishonmay Samijonga intildi. Zuhra xijolat bo'ldi. Shu choq avtobus yo'lovchilarni qistab ustma-ust gudok berdi. Fotima yopilayotgan eshikdan avtobusga chiqib, bolani derazadan Zuhraga uzatmoqchi bo'ldi. Venera yana chirillab, Fotimaning sochini changallab oldi. Avtobus ketidan tutun chiqarib, yurib ketdi.

Samijon derazadan boshini chiqarib qichqirdi:

— Zuhraxon, o'zingiz borib olib keling! Shu hafta ichi boring, kutamiz!

Zuhra ko'zi jiqqa yoshga to'lib, qo'lidagi katak ro'molchasini siltadi: shunday yaxshi qizi borligini, uni ko'p urishib o'zidan bunchalik bezdirib qo'yganini endi payqadi; bilagiga tashlab olgan jiletkasi oyog'i ostiga tushganidan bexabar, avtobusning ketidan bir-ikki qadam bosdi...

1965-yil

MIRKARIM OSIM

QISSALAR

TO'MARIS

I

Cho'l bahor kelinchagi oyog'i ostiga chechaklar bilan bezalgan yashil poyandozini yoyib tashlagan. To'rg'aylar havoda pirillab ko'klamga madhiya o'qimoqda. Rango-rang kapalaklar chechaklarning xushbo'y hididan mast. Allaqanday uzun oyoqli qushlar o'tlar orasida dumlarini likillatib, katta-katta bosib yuradi, toshbaqalar burishib ketgan xunuk bo'yinlarini o'tlarga cho'zadi, qo'ng'izlar esa orqalariga qarab yurib, tezakdan yasagan qumaloqlarini allaqayoqqa yumalatadi. Qizg'ish-qo'ng'ir bir ilon o't orasidan o'rmalab kelib, atrofni tomosha qilayotgandek qaqqayib qolgan yumronqoziqqa tashlanadi, qushlarga o'xshab chirqillab turgan kaltakesaklar qo'rqib ketib oyoqlari bilan qumloq yerni ikki yonlariga chiqarib, tuproq ostiga yashirinadi. Ba'zan ovullar yaqinidan ko'kraklari oppoq sayg'oqlar gala-gala bo'lib chopib o'tadi, yer gumburlab ketadi.

Orol dengizining janubidagi shu bepoyon cho'llarning sohibi bo'lgan ko'chmanchi massagetlar[1] kelin kutmoqda. Ularning qarorgohi bayram tusini olgan. Har yer-har yerga gulxan qalangan, kiyik va qo'y go'shti pishayotgan mis qozonlar go'yo mehmonlarni sabrsizlik bilan kutayotgandek shaqir-shaqir qaynamoqda.

Qabila boshlig'i To'maris o'g'li Siparangizni shak[2] urug'idan Zarina degan bir qizga uylantirmoqda. Massagetlar kelinni olib keladigan mehmonlarni kutib olish taraddudida.

---

[1] **Massagetlar** — Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida miloddan avvalgi VIII–IV asrlarda yashagan qabilalar uyushmasi.

[2] **Shaklar** *(saklar, skiflar)* — miloddan avvalgi birinchi mingyillik va milod boshlarida O'rta Osiyo, Qozog'iston va Sharqiy Turkiston shimoli-sharqiy hududlarida yashab chorvadorlik, dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangan qabilalar uyushmasi.

Yoshlar mehmonlarga joy hozirlamoqda, ayollar ovqat pishirmoqda, yangalar o'tov xizmatini o'taydigan uzun soyabon aravalarni bezatmoqda...

Charchab gulxan yonida o'tirgan yoshlar uzoqdan ot choptirib kelayotgan choparni ko'rib, o'rinlaridan sakrab turib ketdilar.

— Kelin... kelin kelayotir, — deb baqirdi u harsillab. — Qariyalar oldinda... darhol kutib olinglar.

Chopar sakrab egardan tushdi-yu, otini qoziqqa bog'lab, bir chekkadagi katta gulxan yaqinidagi chollar oldiga borib o'tirdi.

Butun qarorgoh oyoqqa qalqib, aziz mehmonlarni kutishga hozirlandi. Oradan ko'p o'tmay, uzoqda uchi ingichka namat qalpoq kiygan otliqlar ko'rindi. Massaget yoshlari shaklarga peshvoz chiqib:

— Xush kelibsizlar, qo'noqlar, poyqadamlaringizga hasanot, — dedilar va otlarining jilovidan ushlab, egardan tushishlariga yordam berdilar.

Shaklar otdan tushib, massaget qariyalari bilan ko'rishganlaridan keyin atrofi soyabon aravalar bilan qurshalgan sayhon joyga, guldor namatlar ustiga chordana qurib o'tirdilar. Mezbonlar qo'y terisidan qilingan supralarda pishirilgan go'sht, meshlarda qimiz keltira boshladilar.

Kun botgandan keyin kelin va uning dugonalari tushgan uzun soyabon aravalar yetib keldi. Har yer-har yerga qalangan gulxanlarning olovi gurullab, osmonni yoritib yubordi, ashulalarning avji falakka ko'tarildi. Kelin bilan kelgan qizlar va yigitlarning yallasi, bolalarning qiy-chuvi, xursandlikdan terisiga sig'may qolgan kishilarning shovqiniga qo'shilib ketdi. Osmon baravar ko'tarilgan gulxanlarning yorug'ida o'yin-kulgi, ziyofat boshlandi.

Vaqt alla-palla bo'lganda kuyov bilan kelinni ular uchun belgilangan soyabon aravaga chiqarish oldidan kurashtirib ko'rishdi[1].

Bo'ychan, bug'doyrang, sochlari tim qora, ko'zlari chaqnab turgan Zarina o'zining sahroyi go'zalligi bilan boshqa ayollardan ajralib turardi. U gulxanlar yorug'ida davra qurib o'tirgan yigit-qizlarga bir qarab oldi-da, to'rda, obro'li kampirlar va chollar

---

[1] Bo'lg'usi kelin-kuyovlarning kuch sinashishi o'zbeklar orasida yaqin kunlargacha saqlanib qolgan tortishmachoqning ibtidoiy shakli edi.

qurshovida savlat to'kib o'tirgan To'marisga ta'zim qildi, so'ngra qarshisida kurashga shaylanib turgan cho'zinchoq yuzli, ko'zlari katta-katta Siparangizga tikildi. Qiz sochlarini ro'molcha bilan mahkam tang'ib, belini kamar bilan bog'lab olgan edi. U bexosdan kelib, yigitni belidan oldi-da, chirpirak qilib uloqtirib yubordi, yigit ancha yergacha gandiraklab borib tizzalab qoldi. Kelin tomondan kelgan yigit-qizlar xursand bo'lib qiyqirib yubordilar.

Kuyov bilan kelin payt poylab, bir-birlarining atrofida anchagacha aylanib yurishdi. Zarina epchillik bilan Siparangizga chang solib uni chalib yubordi, yigit yonboshi bilan qattiq yiqildi-yu, lekin orqasi yerga tegmadi, darhol sakrab turib yana olisha ketdi.

Bir-birlarini yiqita olmagandan keyin ular o'zlarini sovutish uchun aylanib yurishdi. Siparangiz tetiklangandan keyin to'satdan qizning o'ng qo'liga yopishdi-yu, bir siltab tortib, xipcha belidan mahkam qisganicha ko'kragiga ko'tarib oldi. Qiz chap tomonga tashlaydi, deb mo'ljallab turgan edi, yigit uning ko'nglidagi gapni anglaganday, tizzasi bilan qayirib, o'ng tomonga tashladi. Shu mahalgacha nafaslari ichlariga tushib ketgan kuyov tomon yigitlari qiyqirib yubordilar. Qizning yag'rini yerga teggan edi, u qizarib-bo'zarib o'rnidan turgach, yangalar "Yarash-yarash", — deb baqirib, kelin bilan kuyovni aravaga chiqarib qo'ydilar.

Ertasi kuni tongotar paytida havo aynib, qum bo'roni boshlandi. Hamma jonivorlar sahrodan kelgan qum uyurmalaridan o'zlarini saqlash uchun in-inlariga berkindi, cho'l huvullab qoldi. Qum to'zonidan osmon qorong'ilashdi, ko'chmanchilar aravalarining hamma yog'ini berkitib oldilar. Bo'ron bir soat davom etdi, so'ngra qanday bexosdan boshlangan bo'lsa, shunday tez tindi. Soyabon aravalarning oldi ochildi, odamlar namat ustiga yoyilgan qumlarni qoqib tushira boshladilar. To'rg'aylar hech narsa bo'lmagandek, yana chuldirab qo'shiqlarini aytishga kirishdi. Oftob yana jilmayib, cho'l kelinchagi ustidan yana oltin tangalar socha boshladi. Bahor naqqoshi yana qo'liga mo'yqalamini olib, tabiat qo'yniga zebo naqshlar sola boshladi.

O'g'li bilan keliniga qarab To'marisning sevinchi ichiga sig'mas edi. Biroq oyning o'n beshi yorug' bo'lsa, o'n beshi qorong'i,

deb bekorga aytmaganlar. Baxt osmonida bir parcha bulut paydo bo'lib, cho'l malikasining yuragini g'ash qila boshladi. Mamlakat chegarasidan kelgan choparlar uning huzuriga Eron shohining elchisi kelayotganidan darak bergan edilar.

Kayxisravning[1] elchisi o'z mulozimlari bilan O'kuzning[2] o'ng qirg'og'iga o'tib, ikki kun yo'l yurgandan keyin To'maris huzuriga yetib keldi. U otini sekin yurgizib, ustiga oq namat qoplangan katta soyabon arava oldida to'xtatdi. Shu payt egniga yarg'oq teridan kamzul kiygan, kamariga qilich va o'q-yoy osgan namat qalpoqli bir pahlavon yigit kelib, otning jilovidan ushladi va elchi egardan tushguncha bir qo'li bilan oltin uzangini ushlab turdi. Xuddi o'sha yigitga o'xshab qurollangan ikki ayol arava yoniga sholcha solib, ta'zim qilganlaricha qotib qoldilar. Yoshi qirqlarga borib qolgan, chiroylikkina bir ayol aravaning orqasidagi pardani ko'tardi-da, belidagi oltin kamarga taqilgan qilichini avaylab ushlagan holda palos ustiga sakrab tushdi. Bu ayol massagetlar malikasi To'maris edi. Yarqiroq mis bolta ushlagan ikki qiz uning ikki yoniga kelib turdi. Elchi To'marisni ko'rgach, ikki qo'lini yerga qo'yib, yer o'pdi-yu, o'rnidan turib ta'zim qildi:

— Shahanshohi Eron a'lo hazratlari sen ulug' malikaga behad salom va sovg'alar yubordilar, — dedi u baland ovoz bilan. — Senga sog'liq, tuman boylik va uzoq umr tilab qoldilar.

U tumtaroqli so'zlar bilan To'marisni qutlug'lar ekan, mulozimlari tillado'z chopon va harir ko'ylaklar tugilgan zarbof bo'g'chani malika oyog'i ostiga qo'ydilar.

To'maris sovg'alar uchun minnatdorchilik bildirib, Eron shohining sog'lig'ini so'radi va elchining yo'lda qanday kelganini surishtirdi, so'ngra sholcha ustiga tashlangan yo'lbars terisiga o'tirishni taklif qildi. Elchi va uning mulozimlari ham qator qilib solingan po'staklar ustiga o'tirdilar. Oradan ko'p o'tmay, mezbonlar ular oldiga charm supra yozib, pishirilgan qo'y go'shti, baliq,

[1] **Kayxisrav** *(Kir, Kurush)* — Qadimgi Eron shohi (miloddan avvalgi 558–550-yillar), Ahamoniylar davlati asoschisi. Miloddan avvalgi 550-yili katta qo'shin bilan O'rta Osiyoga hujum qilgan va massagetlar qabilasining hukmdori To'maris bilan bo'lgan jangda o'ldirilgan.

[2] **O'kuz** — Amudaryo (Jayxun)ning qadimiy nomi.

g'oz, o'rdak kabob keltirib qo'ydilar. Elchi bilan yonma-yon o'tirib, uni gapga solayotgan To'maris ovqatga manzirat qildi.

Elchi ovqat yeb o'tirar ekan, doimiy ovul va shaharlari bo'lmagan massagetlarning qo'y va yilqilar orasida juda ibtidoiy hayot kechirishiga, ayollarning erkaklardek qurollanganiga, malikaning oddiy odamlar qatorida o'tirishiga hayron qolar va uning turmushini sernaqsh koshonalarda, zeb-ziynat ichida yashovchi Eron shohining hayoti bilan solishtirardi: "Shuyam malika bo'ldi-yu, — deb o'ylardi u, — o'z fuqarolari bilan yonma-yon o'tirib ovqat yeydi, sochlari o'sib yelkasiga tushgan yilqichilar qo'l cho'zib, uning oldidan yog'liq go'shtni olib yeydilar, na ostida oltin taxti bor va na boshida toji. Ayollarning erkaklar bilan yonma-yon o'tirib, bir-birlariga gap otib, go'sht chaynashlarini qarang. Bu xotinlarning erlari rashk nima ekanini bilmasalar kerak. Tavba, ayol kishi ham qurol taqadimi? Bularda na qul bor va na xizmatkor, hammalari topganlarini o'rtada baham ko'radilar. Yovvoyi xalq-da! Qul bo'lishdan boshqa narsaga yaramaydi bular!"

Kayxisrav elchisini yuborayotganda unga: "Agar To'marisni xotin qilib olsam, uning fuqarosi o'z-o'zidan menga qaram bo'lib qoladi, urushib o'tirishga hojat qolmaydi. Sening vazifang mening shu rejamni ro'yobga chiqarishga yordam berishdan iboratdir, tushundingmi?" — degan edi.

Elchi hozir o'z podshohining topshirig'ini bajarish uchun butun ayyorligini ishga solar, tilyog'lamalik qilib, To'marisni maqtab ko'klarga ko'tarar edi:

— Olamda shu mahalgacha hech bir zaifa shundog' ulug' mamlakatga hukmdor bo'lmagan, Yer yuzi sendek adolatli malikani ko'rmagan, — derdi u kekirdagini cho'zib. — Oftob tangrisi senga ham husn beribdur, ham shon-shavkat. Agar sen o'z taqdiringni bizning shahanshoh taqdiri bilan bog'lasang, dunyoda hech bir podshoh bizga bas kelolmaydur. — Shu zayldagi tumtaroqli gaplardan keyin o'z maqsadini ochiq bayon etdi: — Men yolg'iz elchi emas, sovchi ham bo'lib keldim. Shahanshohi olam senga g'oyibona oshiq bo'lganlar.

To'maris ovqat yeyishdan to'xtab qoldi.

— Ne deding? Sovchi bo'lib?

U Eron shohining qanday niyatda ekanini endi tushunib olgan edi.

— Ha, sovchi bo'lib, — takrorladi elchi bosh egib. — Ering o'lganiga bir yildan oshdi, hali yoshsan, go'zalsan. Faqat shahanshohi olam Kayxisrav kabi ulug' hukmdorga munosib qalliqdursan.

— Nima, uning xotinlari o'lib, o'zi so'qqabosh bo'lib qoldimi?

— Yo'q, xotinlarining hammasi sog'-salomat. Ul kishiga kuyovga chiqsang, sen bosh xotin, barcha xotinlari sening cho'ring bo'ladilar.

To'maris qoshlarini chimirib, o'yga toldi. Agar u shohning sovg'alarini va taklifini qabul qilsa, xalqining boshiga qanday kunlar kelishini ko'z oldiga keltirib, dahshatga tushdi.

— Shahanshoh menga emas, mening yurtimga, boyligimga oshiq bo'lgandir, — dedi To'maris zaharxanda qilib. — Men emas, shu serbaraka yurtim unga kerak bo'lib qolgan. Siz, elchi janoblari, o'z tojdoringizga borib ayting: men uning taklifini qat'iyan rad etaman. Men unga qalliq bo'lishni, o'z elimni unga qul qilib topshirishni istamayman.

— Shahanshohning takliflariga rad javob berishdan avval sarkardalar va ulug' oqsoqollaringning maslahatini olishing, o'ylashib ko'rishing kerak edi, — dedi elchi To'marisning o'ngso'lida o'tirgan namat qalpoqli, yarg'oq teridan kamzul kiygan kishilarga istehzo aralash nazar tashlab.

— Bu to'g'rida o'ylab bosh qotirishning hojati yo'q, — dedi urug' oqsoqollaridan biri. — Yurtimizning ulug'i rost gapni aytdi. Hukmdoringga bor-da: "To'maris senga xotin, ulusi qul bo'lishni istamas emish", deb ayt. Agar shahanshoh bizga mehmon bo'lib kelsa, yaxshilab ziyofat qilamiz, oyog'iga qirq qo'chqor so'yamiz. Ammo qilich bilan kelsa, bari askarlarini qirib tashlab, ularning qonini o'ziga ichiramiz.

— Ulug' shahanshohi Eronning sha'nlariga yarashmaydigan gap bo'ldi, — dedi elchi bo'g'riqib ketib. U qattiqroq bir gap aytmoqchi edi-yu, ammo g'azab bilan tikilib turgan chehralarni

ko'rib, tilini tishlab qoldi. — Ulug' tojdor meni yaxshi niyat bilan yuborgan edilar. Sizlar ulug' shahanshohning ezgu niyatlarini payqamadingiz. Buning oqibati siz uchun xayrli bo'lmas.

— Agar elchi bo'lmaganingizda, shul gapni aytgan og'zingizni qum bilan to'ldirar edim. Qayerda ekanligingizni unutmang, janob! Orqa-o'ngingizga qarab gapiring. Shahanshohi Eronning niyati bizga ma'lum bo'ldi, — dedi hamon jahldan tushmagan To'maris. — Boshimizdan zar sochganlaringda ham biz erkinlikni qullikka alishtirmaymiz.

Dasturxon atrofida o'tirganlar:

— Rost gap!

— Vatandosh ayollarimizning gapi bunday bo'ladi, — deb To'marisning so'zini ma'qulladilar.

Shu payt uzoqdan ot dupuri va yigit-qizlarning qiyqirig'i eshitilib qoldi. Elchi xavotirlanib, chang-to'zon ko'tarilgan tomonga qaradi.

— Qo'rqmang, o'g'lim Siparangiz o'z qaylig'i va do'stlari bilan shikordan qaytib kelayotir, — deb elchini tinchitdi To'maris. — Yaxshiki boyagi gaplaringizni o'g'lim eshitmadi, yo'qsa, teringizga somon tiqqan bo'lur edi! Qiziqqon, g'ayratli yigit u.

Bir lahzadan so'ng cho'l shamolidan yuzlari biroz qoraygan, ko'zlari chaqnagan, qora sochli uch chiroyli qiz bilan uch barvasta yigit otlaridan sakrab tushdilar va To'marisning oldiga ikki oq quyruq kiyikni keltirib qo'ydilar. Qizlarning ham, yigitlarning ham bellarida o'q-yoy va sadoqlarida o'qlari bor edi.

Elchi o'rnidan turib, yuzlari cho'zinchoq, ko'zlari katta, novchadan kelgan Siparangizga ta'zim qildi va tumtaroqli so'zlar bilan o'zining kimligini e'lon qilib, uning sog'lig'ini so'radi. Siparangiz u bilan so'rashib bo'lgandan keyin, qaylig'i bilan elchining so'l tomoniga, yo'lbars terisi ustiga o'tirdi.

To'y kuni Siparangizdan yiqilgani uchun unga itoatgo'y bo'lib qolgan Zarina erining yonida odob saqlab, uning so'zlariga quloq solib o'tirar, undan oldin gap boshlashni o'ziga ep ko'rmas edi.

Siparangiz elchining yo'lda qanday kelganligini so'radi, elchining batafsil hikoyasini tinglagandan keyin takallufsizlik

bilan Eron shahanshohining boyligi, uning qancha mulozim ham qullari, necha xotini borligi va hokazolarni surishtira boshladi. Elchi xinaga bo'yalgan soqolini siypab kulimsirarkan, savollarga batafsil javob berib, shohning saroyidagi urf-odatlar bilan uni tanishtirdi. Yoshlar Eron shohining ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan zeb-ziynat ichida yashashi, ichkilik bazmlari to'g'risidagi hikoyasini zavq bilan tinglab o'tirdilar.

— Shahanshoh ziyofatiga taklif etilgan zardo'z choponli a'yon-amaldorlar, harir kiyim kiygan mehmonlar, begona yurt elchilari avval oltin taxt ustida o'tirgan shohi olamga ta'zim qilib, o'zlariga ko'rsatilgan yerga o'tiradurlar. Etaklarini bar urgan epchil bakovullar osh tortar ekan, bellariga qirqtadan qo'ng'iroq taqqan yosh soqiylar ularga oltin piyolalarda sharob tutadilar. Bir tarafda sozandalar...

Elchining gapiga diqqat bilan quloq solib o'tirgan bir yigit uning so'zini oxirigacha tinglab:

— Siz sharob degan so'zni ishlatdingiz, bu nima, bizga tushuntirib bering, — dedi.

— Sharob — uzum suvidan tayyorlanadigan ajoyib ichimlik, o'zi xushta'm, bir kosa urib olsangiz, vaqtingiz chog' bo'lib, kulaverasiz.

— Ajoyib narsa ekan, — dedi boyagi yigit so'lakayini oqizib.

To'maris qovog'ini solib o'tirar, yoshlar elchining hikoyasini zavq bilan tinglayotganiga g'ashi kelardi. Siparangiz To'marisning avzoyiga qarab, o'zi yo'qligida onasining kayfini buzgan bir gap o'tganini payqadi.

Ertasiga u nima bo'lganini so'rab-surishtirib bilib oldi. U shohning taklifini onasi qat'iyan rad etganini eshitib, xursand bo'lgan esa-da, biroq elchiga nisbatan qattiq chora ko'rilmaganiga hayron qoldi.

— Elchining quloq-burnini kesib jo'natish kerak, — dedi u qat'iy qilib.

— Bunday qilish yaramaydi. Elchida ayb yo'q. U o'z qulog'iga quyib qo'yilgan gaplarni gapirdi, xolos, yaxshisi, keltirgan sovg'a-salomini qo'liga berib jo'natamiz, shuning o'zi shohga tarsaki bo'lib tushadi, — dedi To'maris.

II

Marg'iyonani[1], So'g'diyani[2] ishg'ol qilgan Kayxisrav o'z qo'shini bilan O'kuzning chap qirg'og'iga kelib chodir qurgan edi. U To'maris huzuridan qaytib kelgan elchisining ma'ruzasini tinglab, makr-hiyla bilan massagetlarni asorat zanjiriga tushirish mumkin emasligini payqadi va qurol kuchi bilan ularni itoatga keltirishga ahd qildi.

Oradan ko'p o'tmay, To'marisning ayg'oqchilari Kayxisravning katta qo'shini O'kuzdan o'tish taraddudida, eroniylar yog'och va qamishlardan sollar yasamoqdalar, deb darak topib keldilar. To'maris jang ko'rgan dono chollar, ayollarni chaqirib kengash o'tkazdi. Chollardan biri darhol o'q-yoy bilan qurollangan merganlarni daryo bo'yiga yuborib, ko'prik qurayotgan eroniylarni o'qqa tutishni, o'ng qirg'oqqa o'tishlariga imkon bermaslikni maslahat berdi. Siparangiz bu taklifga qarshi chiqdi:

— Bunday qilsak, xorazmiylar, Yaksartning[3] naryog'idagi shaklar nima deydilar, bilasizmi? Massagetlar eroniylar bilan to'qnashishdan qo'rqib, ularni daryodan o'tkazmadilar, uzoqdan ularni o'qqa tutib, ko'priklarini, sollarini buzib tashladilar, deb ayyuhannos uradilar. Bundan so'ng biz nima degan odam bo'lamiz, qanday qilib bosh ko'tarib yurgaymiz. Yaxshisi, eroniylarga elchi yuborib, biz ko'prik qurib, daryoning bu betiga o'tishingizga to'sqinlik qilmaymiz, o'tib olganingizdan keyin siz bilan jang qilishga tayyormiz, deyishimiz kerak.

— Gapning o'g'il bolasi mana bundoq bo'ladi, — deb uning so'zini quvvatladi yoshroq bir yigit.

To'maris ham jangovar massaget elining obro'sini saqlab qolish maqsadida o'g'lining gapini ma'qullab, cholning taklifini rad etdi.

---

[1] **Marg'iyona** — hozirgi Turkmanistonning janubi-sharqi, Afg'oniston hududida joylashgan qadimiy davlat (miloddan avvalgi I mingyillikdan miloddning I asrigacha).

[2] **So'g'diya** (*So'g'diyona*) — O'zbekistonning g'arbiy qismida joylashgan qadimiy davlat (miloddan avvalgi I mingyillikdan milodning XIII asrigacha).

[3] **Yaksart** — Sirdaryo.

Shundan so'ng Amuning o'ng qirg'og'idagi bepoyon cho'listonda biri biridan dahshatli voqealar yuz bera boshladi. Jangovar yigitlarning tantiligi ularga juda qimmatga tushib ketdi.

Kayxisrav o'zining otliqlari va og'ir qurolli piyodalarini daryodan moneliksiz olib o'tgach, darhol massagetlar ustiga yurish boshladi, lekin bir hafta yursa ham, ularni uchratolmadi. Ko'chmanchilarning eroniylarni bepoyon cho'llar ichiga olib kirib, ularni suvsiz, oziq-ovqatsiz qoldirib, tor-mor qilish niyatida ekanliklari ma'lum bo'lib qoldi. Yoz boshlanib, kunlar isib ketgan, maysalar qovjirab, sarg'ayib qolgan edi.

Kayxisrav kengash chaqirib, tajribali chollarning maslahatini eshitmoqchi bo'ldi.

— Baliq daryoda o'zini qanday sezsa, bu la'nati ko'chmanchilar ham shu suvsiz cho'llarda o'zlarini shunday sezadilar, — dedi keksa jangchilardan biri. — Cho'l-biyobon ularning o'z bag'rida o'stirgan mehribon onasi, biz uchun esa o'gay onadan battar. Massagetlar qayerda buloq, qayerda quduq bor, yaxshi biladilar...

— Xo'sh, ularni tor-mor qilmoq uchun qanday choralar ko'rishni tavsiya etasiz? — dedi ipak chodirning to'rida o'tirgan Kayxisrav noxushlanib. Uning egnida podsholik alomati bo'lgan to'q qizil kimxob chopon, qo'lida javohirlar bilan bezalgan aso, bir mulozim uzun yelpig'ich bilan tinmay yelpib turardi.

— Ularni tor-mor qilmoq uchun shunday bir nayrang ishlatmoq kerak. Qo'shinimizni uchga bo'lib, bir qismini orqada qoldirsak va ularni oziq-ovqat, sharob-nob bilan mo'l-ko'l ta'min etsak... Qolgan ikki qism bilan yurishni davom ettirsak.

Eron shohi ko'pni ko'rgan keksa jangchining makr-hiyladan iborat bo'lgan rejasini zavq bilan tinglab o'tirdi. "Soddadil massagetlar daryodan o'tishimizga monelik qilmay, mardlik ko'rsatdi-yu, bizlar hiyla ishlatib, nomardlik qilamizmi?" — degan fikr ko'nglining ko'chasiga ham kelmasdi. Iroq va Misrni, O'rta Osiyoning janubiy qismini qurol va oltin, makr-hiyla bilan bosib olib, buyuk Eron davlatini barpo etgan bu shuhratparast shoh maqsadiga erishish yo'lida har qanaqa nomardliklardan tap tortmasdi.

U askarning uchdan ikki qismini boshlab ilgarilab ketdi, orqaroqda qolgan jangchilari xuddi ziyofatga tayyorlanayotganday ipak chodirlar qurib, yer o'choqlar qaziy boshladilar.

O'z ayg'oqchilari orqali bundan xabar topgan To'maris asosiy qo'shindan ajralib orqada qolgan dushman qismini tor-mor etish payiga tushdi. U askarlarining uchdan bir qismini o'g'li Siparangizga topshirib, buyurdi:

— Sen ularni to'zg'itib yuborgandan keyin hayallamay, darhol Kayxisravga orqa tomondan ot sol, biz manglayidan uramiz. Quyosh tangrisi bizni yorlaqasa, shahanshohi Eron askarlari qurshovda qolgan jayronlarday qochgani joy topolmay qolg'aylar. Uqdingmi?

— Uqdim, — dedi o'g'li va uqqanini ko'rsatish uchun onasining aytgan gaplarini takrorladi.

— Bor, o'g'lim, Quyosh tangrisi madadkoring bo'lsin.

Massaget otliq askarlari orqada qoldirilgan eroniylar qarorgohiga bostirib kirganlarida ular endi ovqatlarini suzib, sharob to'la meshlarni dasturxon yoniga keltirib qo'ygan edilar. Qisqa jangdan so'ng eroniylar orqalariga qaramay qochdilar. Ularning bir qismi qilichdan o'tkazildi, bir qismi qo'lga tushirildi.

Asir tushgan bir eroniy so'roq vaqtida Siparangizga shunday dedi:

— Ulug' sarkarda ekansiz, bizni g'aflatda qoldirib, ustimizga balo-qazoday bostirib kelib qoldingiz. Biz endi bazmi jamshid boshlagan edik. — U sharob to'la meshlarga va zarrin kosalarga, ovqat suzilgan tovoqlarga ishora qildi. — Bular bizga emas, sizlarga nasib qilgan ekan.

— Ovqatlaringiz, sharoblaringiz o'zingizga buyursin, bizning ziyofat yemoqqa vaqtimiz yo'q, — dedi Siparangiz sharob suzilgan kosalarga qarab, ammo o'zining bir totib ko'rgisi kelib turardi.

— Yigitlar yo'l yurib, jang qilib charchadi, otlar ham toliqdi, ularga biroz dam bermoq kerak, — dedi yosh sardorning yigitlaridan biri. — Tamaddi qilib, so'ng darhol otlanamiz.

— To'g'ri, ozroq dam olaylik, tamaddi qilaylik, — deyishdi qorni ochgan yigitlar dasturxonlardagi noz-ne'matlarga qarab.

Siparangiz ikkilanib qoldi, keyin:

— Hoy, chol, — dedi asir eroniyga qarab. — Boshing uchun rost so'yla, ovqat va sharoblarga zahar solingan emasmi?

— O'zimiz yemoqchi bo'lgan ovqatga nega zahar solaylik? Nima, o'zimizga o'zimiz dushmanmizmi? Barcha Xudolarning Xudosi Ahuramazdani[1] shafe keltirib qasamyod etamanki, biz bu noz-ne'matlarga zahri qotil solganimiz yo'q.

— So'zlaringning to'g'riligini isbotlash uchun bulardan yeb-ichib ko'r-chi!

Asir sharob ichib, tovoqdagi go'shtdan yeb ko'rsatdi. Qo'lga tushirilgan boshqa eroniylarga ham sharob ichirib, ovqat yedirib, ularning zaharlanmaganiga qanoat hosil qilgandan so'ng, yigitlar dasturxonlar yoniga o'tirdilar-da, sharoblarni no'sh etib, pishirib qo'yilgan go'shtlarni tushira ketdilar.

O'tkir sharob umrida ichkilik ichmagan yoshlarga darrov ta'sir qila qoldi. Ular hiringlashib, bir-birlari bilan askiya qila boshladilar. Qorovulga qo'yilgan otliqlar ham benasib qolmasinlar, deb ularga ovqat va may oborib berdilar. Biroz ovqatlanib otlanmoqchi bo'lgan yigitlar og'izlariga ichkilik tegishi bilan xursandchilikka berilib, qancha vaqt o'tganini bilmay qolgan edilar.

Kayxisravning muddaosi ham shu edi. Massagetlardan qochib qutulgan eron otliqlaridan ba'zilari Kayxisrav huzuriga yetib borib, qarorgohda ro'y bergan hodisalardan uni voqif qilgach, u otining boshini orqaga burdi, anqayib qolgan yumronqoziq ustiga tashlangan ilondek Siparangiz qo'shiniga birdan hujum qildi. Qorovul bo'lib turgan shirakayf askarlar eroniylarning yetib kelganlarini payqamay qoldilar. Qisqa jangdan so'ng dushman ularni qirib tashladi. Bazm qurib o'tirgan yigitlarning ba'zilari jang suronini eshitgach, o'rinlaridan turaman deb, gandiraklab yiqilib tushdi, otlariga yetib olganlar qilichlarini qinidan sug'urishga ulgurolmadilar. Ba'zi yoshlar jang ko'rgan askarlarning so'ziga kirmay, otlariga dam berish uchun ayilni bo'shatib qo'yishgan edi, shu sabababdan otlariga minishlari bilan egar qiyshayib, otlarning qorniga kelib, o'zlari boshlari bilan yerga sanchilishdi. Xullas, dushmanning nayrangiga uchib, hushyorlikni qo'ldan bergan

[1] **Ahuramazda** *(Xurmuz)* — zardushtiylarning ezgulik xudosi.

Siparangiz o'zining bir necha yigiti bilan asir tushib qoldi. Ularning oyoqlariga kishan solib, qo'llarini orqalariga bog'lab Kayxisravning ro'parasiga turg'izib qo'yishdi. Shoh istehzoli iljayib, asirlarni ko'zdan kechirdi.

— Ha, qo'lga tushdingmi? — dedi u Siparangizga bosh irg'ab. — Holing shu-ku, men bilan jang-jadal qilmoqchimiding, ona suti og'zidan ketmagan tirmizak!

Tiriklayin qo'lga tushmaslik uchun dushman bilan toza olishib, u yer-bu yeri tirnalgan yosh sardorning mastligi tarqab, hushyor tortib qolgan edi. U boshini viqor bilan ko'tarib, shahanshohga nafrat ko'zi bilan qaradi-da:

— Ha, sen bilan jang-jadal qilmoqchi edim, ammo bu baxt menga muyassar bo'lmadi, — dedi. — Sen ochiq yerda rasmana jang qilishdan qo'rqib, hiyla-makr bilan bizni qo'lga tushirding. Afsuski, yoshlik qilib, qilich dastasini ushlagan qo'limga mangfur sharob kosasini oldim va tuzoqqa ilindim. Agar sen nomardlardek...

Shohni haqorat qilishga o'tgan Siparangizning tovushini o'chirish uchun askarboshilardan biri:

— Bas qil, ahmoq! — deb uning yuziga qo'lidagi piyoladan suv sepib yubordi. Yigit bexosdan seskanib ketgan edi, uning gaplari naryoq-beryog'idan o'tib ketgan Kayxisrav kulib yubordi, yonidagi a'yon va sarkardalar ham shohlariga taassub qilib, ko'zlaridan yosh chiqquncha xaxolab kulishdi.

— Kuling-a, kuling, — dedi Siparangiz ularga jirkanib qarab, — ko'p o'tmay yig'laysiz, qon yig'laysiz. Hiyla va makrlaringiz endi ish bermaydi, arslon terisini yopingan tulkilar...

Haligi askarboshi uni gapirtirmaslik uchun yana yuziga suv sepib yubordi. Kayxisrav bu safar zo'rma-zo'raki iljayib qo'ydi, yoni-beridagilar xaxolab kulishga jur'at etmay, tirjayib qo'yishdi.

— Biz qahr-g'azab qilishni ham bilamiz, lutf-u karam qilishni ham, — dedi Eron shohi Siparangizga qarab. — Xususan, biz sen kabi bolalarga shafqatlimiz. Ehtimol, onangni sog'ingandirsan, istasang, seni qo'yib yuboramiz.

Siparangiz zaharga aylangan tupugini qult etib yutib o'yladi: "Qo'shinimizning uchdan birini men nobud qildim. Safdoshlarimning qirilib ketishiga men sababchi bo'ldim. Agar endi bo'shatib yuborsalar ham, o'z elatimga qaytib ketmayman. Onamning oldiga qaysi yuz bilan boraman?"

— Qo'limni yechib qo'yinglar, — deb iltimos qildi u.

Kayxisrav bir mulozimiga ishora qilgan edi, u yugurib borib yigitning qo'lini yechdi-da, o'z joyiga borib turdi. Shu on Siparangiz qo'ynidan kichkinagina yaltiroq pichoq olib, o'zining ko'ksiga sanchdi-yu, mukka tushib jon taslim qildi.

— Mard yigit ekan, — dedi Kayxisrav birozdan keyin. — O'limni nomusdan afzal ko'rdi. O'lmaganda, ehtimol, ulug' sarkarda bo'lar edi. Mayli, bo'lar ish bo'ldi, endi mana bularni ham, — u asir yigitlarga ishora qildi, — o'z sarkardasi ortidan narigi dunyoga jo'natinglar.

III

Siparangiz va uning safdoshlari halok bo'lganligi to'g'risidagi xabar To'marisning va barcha ayollarning yuraklarini o'qdek teshib o'tdi. Ruhiy azobning zo'rligidan ularning ko'zlariga yosh ham kelmay qoldi. Birmuncha vaqtdan keyin soyabon aravalarning ichidan xotinlarning dod-faryodi eshitila boshladi. Xususan, Siparangizning qaylig'i sochlarini yulib yig'lab, hammaning yurak-bag'rini ezib yubordi, ammo To'maris qayg'usining zo'ridan yig'lay olmasdi. U esi og'ib qolgandek bir nuqtaga tikilganicha qotgan, lablari bir nima deb pichirlar edi.

Qayg'u-hasratning davosi — dushmandan o'ch olish edi. Dahshatli xabar kelgan kunning ertasiga To'maris tajribali urug'-doshlarini to'plab, kengash o'tkazdi.

Davra qurib munkayib o'tirgan keksalarga, kampirlarga, dushmandan o'ch olish istagi bilan yongan yoshlarga bir-bir ko'z yugurtirib, titroq ovoz bilan:

— Otalar, onalar, ukalar, ahvolimiz tang, falokat boyqushlari tepamizda uchib yuribdur, — dedi. — Yovuz dushman navqiron yigitlarimizni makr bilan qirib tashladi. Biz ularning o'chini olmog'imiz, bor kuchimizni to'plab, yovni yurtimizdan haydab chiqarmog'imiz kerak. Shu to'g'rida sizning maslahatingizni olmoqchimiz.

To'rda o'tirgan oppoq soqolli, kulcha yuzi qip-qizil, o'tkir ko'zli bir chol tomog'ini qirib gap boshladi:

— Beparvo bo'lganimiz, g'aflat bosib, bemaslahat ish qilganimiz uchun bizni Mihra[1] jazoladi. Agar biz yuborgan qo'shinga Siparangiz emas, ko'p janglarda suyagi qotgan, ehtiyotkor bir kishi boshchilik qilganda, navqiron yigitlarimizdan ajralib qolmas edik. Siparangiz mard bo'lsa-da, ammo ko'p jang ko'rmagan, tajribasiz yigit edi. Keyinchalik u zo'r sarkarda bo'lib yetishardi, afsuski, umri qisqa ekan.

— Rost aytasiz, — deb uning so'zini bo'ldi To'maris. — Men suyagi qotmagan o'g'limni bu qo'shinga bemaslahat bosh qilib yubordim va manmanlikning jazosini tortdim.

— Yigitlar orasida qizlar, ayollar bo'lganida bu falokat boshimizga kelmas edi, — dedi bir kampir tutaqib. — Mihra ayollarni kuch-quvvatga to'lgan vaqtida, fahm-u farosat yordamida yaratgan. Siparangiz qo'shinida qizlar bo'lganida yigitlarning qo'lidan may kosasini urib tushirar edi...

— Bo'lar ish bo'ldi, otilgan o'qni qaytarib bo'lmas, — dedi boyagi chol uning gapini og'zidan olib. — Biz endi bundoq qilsak: barcha qariyalar va bolalarni mollar bilan orqaga yuborib, barcha er-xotin, yigit-qizlarni qurollantirsak va dushmanni cho'l ichiga aldab olib kirib, o'sha yerda qirib tashlasak...

Ko'pni ko'rgan chol qayergacha chekinish va dushman bilan qaysi joyda jang qilish kerakligini batafsil gapirib berdi. Kengashdagilar uning rejasini ma'qullab, ba'zi tuzatishlar kiritdilar.

O'sha kuniyoq To'maris urushga yaramaydiganlar panaroq joyga yuborilsin, deb buyruq berdi, keyin otlarining jilovidan ushlab saf tortib turgan erkak va ayollarning qurol-yarog'lari, ust-boshlari, oyoq kiyimlarini ko'zdan kechirdi. Ularning puxtaligiga qanoat hosil qilgandan keyin bir arg'umoqni qurbonlikka so'ydirib, Quyosh tangrisiga iltijo qilish uchun bir tepalik ustiga chiqdi, belidagi oltin kamariga osilgan qilichi va qalqonini yerga qo'yib, massagetlar nazdida Xudolarning Xudosi bo'lgan Mihraga sig'ina boshladi:

[1] **Mihra** *(Mitra)* — Quyosh xudosi.

— Ey, butun mavjudotni — Yer-u ko'kni, suv va o'tni yaratgan Quyosh tangrisi! Sen ko'zingni ochsang — olam nurga to'ladi; ko'zingni yumsang — Yer yuzini qorong'ulik lashkari bosadi. Odamlarga o't bergan ham sen, daryolarni toshirgan, ekinzor va o'tloqlarga suv bergan ham sen! Qo'y va kiyiklarni ko'paytirgan, don-dunga baraka bergan ham sen! Ey ulug' Quyosh tangrisi, bizni eroniylarga xor qilma, dilimizga g'ayrat, bilagimizga quvvat ato qil, yuragimizga o'ch olovini sol! Qilichimizni o'tkir qil, toki, yurtimizni oyoq osti qilgan makkor dushmanni tor-mor aylab, qullik balosidan xalos bo'laylik!

U najot so'rab Mihraga yolvorarkan, ko'zlaridan duvullab yosh oqib ketdi. Bir lahza yerga qarab turdi-da, o'zini tutib olgandan so'ng qilich-qalqonini taqib olib, pastga tushdi, o'ynoqlab turgan oq otiga minib, qurollangan xalqqa murojaat qildi. Yurtning boshiga tushgan falokat to'g'risida gapirib, so'zining oxirida shunday dedi:

— Opa-singillar, aka-ukalar, qayerga ketayotganingizni hammangiz bilasiz. Shu ketganimizcha yo hammamiz bitta qolguncha qirilib, o'z qonimiz bilan sha'nimizga tushgan dog'ni yuvib tashlaymiz yoki dushmanni qirib yuborib, g'alaba bilan qaytamiz. Ishonaman: oramizda Eron shohi oldida tiz cho'kadigan nomard yo'q. Biz, albatta, yengamiz! Shafqatsizlikni bizlardan ko'rsin Eron shohi!

— Bizni jangga boshla, onaxon! Dushmandan intiqom olib, dudini dimog'idan chiqaraylik!

Oftob nuri To'marisning yelkasiga tushib turar, go'yo Mihra nurli qo'llari bilan uni siypab, olqishlayotgandek bo'lar edi.

— El-yurt ayol kishining fotihasini oldi, g'alaba bizga yor bo'lg'ay, — dedi soqoli ko'ksiga tushgan bir chol.

Shu payt tip-tiniq osmonda bir burgut qanotlarini keng yoyib, ular ustida aylana boshladi. Qurolli yigit-qizlar boshlarini ko'tarib, uning parvozini tomosha qildilar. Hamma ko'zlar chaqnab, yuzlar yorishib ketdi, chunki ularning e'tiqodida bu yaxshilik alomati edi...

To'maris tish-tirnog'igacha qurollangan va hali charchamagan Eron qo'shini bilan hozir jang qilsa, oqibati xunuk bo'ligan

shini yaxshi bilardi. Eng oldin dushmanni cho'llarda sarson qilib, uning tinkasini quritish va qulay joy topib turib, jang qilish kerak edi.

Yengil g'alabadan havolangan Eron qo'shini To'marisning chekinayotganini eshitib, zudlik bilan uni ta'qib eta boshladi. Kayxisrav osongina zafar qozonib, o'lja olishga shoshilayotgan qo'shinini to'xtatib qolishdan ojiz edi. Massagetlar esa bir tepalik ostida o'zlari uchun qulay joyni ishg'ol qilib, saf tortib turdilar. Birinchi safda o'q-yoy bilan qurollangan yengil aslahali merganlar, ular orqasida og'ir qurolli askarlar turar edi. Kayxisrav askarlari sekin-asta yaqinlashib kelaverdilar. Massaget merganlari to'satdan ularni o'qqa tutdilar, sadoqlar bo'shab qolgach, uzun dastali mis boltalar, kalta nayzalarni ishga soldilar. Qo'shinning ikki yoni va orqa tomonini himoya qilib turgan otliqlar suvlig'ini chaynab, tilla o'mildiriqlarini oftobda yarqiratib turgan sabrsiz arg'umoqlarning boshini qo'yib yubordilar. Saflar bir-biriga aralashib ketdi. Qilich va nayzalarning bir-biriga taraqlab tegishi, jangchilarning suroni, otlarning kishnashi, yaradorlarning ingrashi birga qo'shilib, qiyomat-qoyim bo'lib ketdi. Odamlar g'uj bo'lib olib, bir-biriga nayza sanchar, bolta bilan boshiga tushirar, qilich bilan chopar edi. Jang shu zaylda kechgacha davom etdi. O'z yerlarini yovdan tozalash va o'ch olish ishtiyoqi bilan yongan massagetlar jonbozlik ko'rsatib yov bilan mardlarcha olishishdi, nihoyat, zafar ularga yor bo'lib, dushmanni orqaga sura boshlashdi. Zarina boshchiligidagi otliq qo'shin dushmanning chap qanotini sindirib, orqaga o'tib oldi. Bir tepalik ustida jangni kuzatib turgan Kayxisrav qilich yalang'ochlab, o'z navkarlari bilan jangga shoshildi, biroq u birinchi to'qnashuvdayoq halok bo'ldi. Kayxisravning o'lganini bilib, eroniylarning ruhi tushib, yuraklaridagi o't so'na boshladi. Dushmanning bir qismi chekinib, yaqin o'rtadagi to'qaylarga yashirinmoqchi bo'ldi. Biroq To'maris boshchiligidagi erkak va ayol suvoriylar ularning oldini to'sib chiqib, qilichdan o'tkaza boshladilar. Massagetlar eroniylar ustidan to'la g'alaba qozonib, bir talay asir olishdi.

— Kayxisravning... kallasini kesib olib kelinglar! — deb buyurdi hali ham nafasini rostlab ololmagan To'maris. Uning

yonida turib dushman bilan olishgan kelini uch-to'rt ayol jangchi bilan shahanshoh askarlarining jasadiga to'lgan maydonga ot surdi. Ko'p o'tmay, Zarina Kayxisravning jasadini topdi va uning kallasini kesib olib, To'marisga keltirib berdi.

— Endi bir meshga qon to'ldirib kelinglar!

Jangchilar darhol malikaning buyrug'ini bajo keltirdilar.

To'maris soch va soqoliga qon yopishib qotib qolgan, ko'zlari yumuq, dahshatli kallani qo'liga olib, unga qaradi-da:

— Ey Kayxisrav, umr bo'yi jang qilib odam qoniga to'ymading, mana endi to'yguningcha ich! — deb uni mesh ichiga soldi-da, mesh og'zini chilvir bilan mahkam bog'lab qo'ydi.

ALJABRNING TUG'ILISHI

I

— Shahri Bag'dodga sog'-salomat yetib kelganingizdan behad xursandman, yana ko'rishadigan kun bor ekan, — dedi uy egasi — marvlik Xolid ibn Abdumalik keng peshanali yosh mehmon bilan quchoqlashib ko'rishar ekan. — Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso janoblari qachon yetib kelar ekanlar, deb yo'lingizga muntazir edik. Alhamdulilloh, yana diydor ko'rishar ekanmiz, ming qatla shukurki, avvalgidek tetik va bardam ekansiz.

Ko'pdan buyon ko'rishmagan ikki do'st, hol-ahvol so'rashib bo'lganlaridan keyin ko'rpachaga o'tirdilar. Uzun yaktakli, qotmadan kelgan uy xizmatkori ularning oldiga dasturxon yozib, barkashda turli noz-ne'matlar va ikki kosa sharbat keltirib qo'ydi. Soch-soqoliga oq oralab qolgan o'rta yoshli mezbon xursandligini yashira olmay, "qani, olsinlar", degandek, tomirlari bo'rtib chiqqan qo'li bilan dasturxonni ko'rsatdi.

— Marv shahrida menga emakdosh bo'lgan yor-do'stlarni sog'indim, — dedi yoshi o'ttizdan oshgan, qalin qoshli mehmon non tishlab, behi sharbatidan ho'plar ekan, — Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad ibn Abdulloh, Muso ibn Shokir va uning o'g'illari sihat-salomat yuribdurlarmi?

— Alhamdulilloh, hammalari eson-omon, sizni ko'rishga, suhbatingizdan bahramand bo'lishga mushtoqdurlar.

Ular dasturxon ustida Xurosonda birga o'tkazgan kunlarini, boshlaridan kechirgan voqealarni eslab, suhbatlashib o'tirishdi. Mezbon tilining uchida turgan gapni aytish uchun payt poylab turardi.

— Kechikib kelishingizning sababi nima? — deb so'radi u negadir o'zini noqulay sezib. — Xalifa hazratlari ham: "Na uchun Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso kechikdi, uni zudlik bilan huzurimga jo'nat, deb Xorazmshohga maktub yuborgan edim-ku", deganlarini ikki marotaba eshitdim. Nima hodisa yuz berdiki, shahri Bag'dodga qadam ranjida qilgingiz kelmadi?

— Buning sababini sizgagina ayta olaman, — dedi mehmon o'ylanqirab. — Ma'mun Xuroson qo'shini bilan Bag'dodni bosib olganidan so'ng o'z inisi Aminni qatl ettirganini, Ozarbayjonda boshlangan zardushtiylar qo'zg'olonini shafqatsizlik bilan bostirib, asirlarni o'ldirayotganini eshitib, bu yerga kelishga oyog'im tortmay qoldi. Otashparastsan, deb begunoh odamlarni bola-chaqasi bilan qirib tashlash — o'ta zolimlik-ku!

Xolid ibn Abdulmalik oqara boshlagan boshini qashib, miyig'ida kulib qo'ydi-da:

— Sizga al-Majusiy deb laqab qo'yganlari bejiz emas ekan, otashparastlarga bu qadar xayrixoh ekanligingizning sababi endi ma'lum bo'ldi, — dedi.

— Ha, bobom rahmatlik zardusht dini rahnamolaridan biri edilar. Arab sarkardasi Qutayba binni Muslim Xorazmni bosib olganidan keyin hammani zo'rlab islom diniga kiritdi. Xorazm yozuvini bilaturgan odamlarni o'ldirtirib, qadimiy kitoblarimizni yondirib yubordi. Eski e'tiqodlariga sodiq bo'lgan bobom jon saqlab qolish uchungina arab tilida kalima keltirishga majbur bo'lgan ekanlar.

— O'tgan ishga salavot, — dedi uy egasi mehmonning chaqnagan ko'zlariga kulimsirab qarab, — aytilgan so'zni, otilgan o'qni qaytarib bo'lmas, degan maqol bor. Xarobaga aylangan Xorazm yana obod bo'lib, qaddini rostlab oldi, yana bilim urug'lari o'sib chiqa boshladi-ku!

— Yurtimizda eski madaniyat qo'ri bor edi-da! Qutayba binni Muslim yonib turgan ma'rifat o'chog'ini so'ndirishga urindi, ammo bid'at-xurofot kuli ostida ma'rifat cho'g'lari qolgan ekan.

— Borakallo, xalifa Ma'mun saroyiga to'plangan olimlar yana ilm-ma'rifat gulxaniga o't qalab yubordilar. Xorazm yana olimlar yetishtira boshladi, yopilib qolgan ma'rifat darvozasi ochildi. Keling, kechagi kunni yodlab, bugungi kunni zaharlamaylik, imkoniyatlardan foydalanib qolaylik.

— Rost, men ham shul mulohaza bilan yo'lga chiqishga majbur bo'ldim, — dedi mehmon qalin qoshlarini kerib qo'yib.

— Qayerda bo'lsangiz ham xalifa hazratlari sizni toptirib keltirar edilar. Vaziri a'zam al-Afzal ibn Sahl janoblari ham sizni sabrsizlik bilan kutayotgan edilar.

— Ha, ul kishi Marv shahrida saroy vaziri bo'lib turganlarida menga xayrixoh bo'lib, kechalari mendan hind hisobini o'rganur edilar. Shul sababdan bo'lsa kerak, menga bir maktub yo'llab, darhol poytaxtga yetib kelishimni iltimos qildilar. Shuning uchun to'g'ri kelib, ul kishining huzurlarida bo'ldim. Kechikib kelganim uchun norozi ekanliklari aftlaridan bilinib turar edi. Sir boy bermay, meni yaxshi qabul etib, ikki-uch kun o'tmay alohida hovli topib berishni va'da qildilar. Hozir karvonsaroyda turibman.

— Menikiga ko'chib kelaqoling. Siz uchun alohida xona bor.

— Tashakkur, sizni bezovta qilishni istamayman. Karvonsaroy hujrasida orom olib, o'zimga kelib olay.

Ular allavaqtgacha gaplashib o'tirib, o'tgan voqealarni esladilar.

Ma'munning otasi xalifa Horun ar-Rashid o'zining eroniy vaziri Ja'far ibn Yahyoni arzimagan bir gunohi uchun qatl ettirgan edi. Shundan keyin unga qarashli Eron va Xurosonda norozilik boshlanadi, u yer-bu yerda isyonlar ko'tariladi. Horun ar-Rashid ularni tinchitish uchun o'zining eroniy joriyasidan bo'lgan to'ng'ich o'g'li Ma'munni Marv shahriga — sharqiy viloyatlarning markaziga katta huquqlar bilan hokim qilib yuboradi. Ma'mun eroniylarga imtiyozlar berib, Xuroson va O'rta Osiyoda yetishgan olimlarni o'z atrofiga to'play boshlaydi, har tarafdan ko'hna kitoblarni toptirib, kutubxonasini boyitadi. Xorazmlik yosh olim

Muhammad ibn Muso uning buyrug'i bilan sharqiy Afg'oniston, shimoliy Hindistonga borib, riyozat va astronomiyaga doir bir talay ilmiy asarlarni olib keladi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, Horun ar-Rashid olamdan o'tadi. U ikkinchi xotinidan bo'lgan Aminni taxt vorisi qilib tayinlab ketgan edi. Otasining bu ishidan norozi bo'lgan Ma'mun tishini tishiga qo'yib sabr qilib turadi, sekin-asta turkiy xalqlardan askar to'plab, poytaxt Bag'dodni bosib olishga tayyorlana boshlaydi.

Ma'munga ergashib Dajla bo'yiga kelgan Xolid ibn Abdumalik ko'rgan-kechirganlarini bayon qilar ekan, Xorazmiyning ko'zi o'ngida dahshatli manzaralar birin-ketin o'ta boshladi.

Bag'dod shahri bo'sag'asidagi qonli janglar, shahar qo'rg'oniga shoti qo'yib chiqayotgan qiyiq ko'zli jangchilarning "urho-ur" deb qichqirishlari, u yer-bu yerdan ko'tarilgan alangalar, ko'ksiga nayza sanchilgan askarlarning ingrashi, ayollarning dod-faryodlari...

Nihoyat, xalifa Amin yengilib, shahardan qochdi. Uni tutib olib, akasi oldiga sudrab keldilar. Egnida yiltiroq po'lat sovut, boshiga dubulg'a kiygan aka qilichining dastasini changallab, darhol ukasining kallasini olishni buyurdi.

Ma'mun Pomir tog'laridan Ispaniyagacha cho'zilgan o'lkalarga hukmdor bo'lib, o'zini xalifa deb e'lon qilganidan keyin[1] bir qo'li bilan u yer-bu yerda boshlangan xalq qo'zg'olonlarini bostira boshladi, ikkinchi qo'li bilan atrofiga olimlarni to'plab, ilm-fan uchun ko'plab mablag' sarf qilishga kirishdi.

Bayt ul-hikmat, ya'ni donishmandlar uyini tashkil qilib, hind, yunon, suryoniy tillarida yozilgan ko'hna kitoblarni yig'dira boshladi.

II

— Abu Abdulloh Muhammad ibn Musodek buyuk olimning qatorimizga kelib qo'shilganidan behad mamnunmiz. Marhamat qilib Bayt ul-hikmat kalitini qo'lga olsalar-u, hujralardagi kitoblarni tartibga keltirishga yordam bersalar, yosh olimlar va tolibul

[1] Ma'mun 815-yili taxtga o'tirgan edi.

ilmlar u kishining maslahati bilan har ilmga doir kitoblarni ayrim hujralarga joylab, ro'yxatga olsalar... — deb gapida davom etdi to'rda, fil suyagidan yasalgan naqshli kursi ustida o'tirgan Ma'mun. Shoyi, atlas chopon, yupqa jun chakmon kiygan, boshlariga yumaloq oq salla o'ragan olimlar katta uyning devori tagiga solingan ko'rpachalarda qo'l qovushtirib o'tirar edilar. Ustidagi zardo'z choponi ko'zni qamashtiradigan oq yuzli, rangi toza xalifaning o'ng tomonidan joy olgan al-Xorazmiy uning gapini ma'qullab, bosh egib qo'yar edi.

— Marv shahridan sandiqlarda keltirilgan hind tilidagi asarlar tartibsiz holda. Ulardan eng muhimlarini arab tiliga tarjima qilishni Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso janoblariga, astrunumiyo va astruluxiyoga doir kitoblarni yunon tilidan tarjima qilishni Yahyo binni Musoga topshirsak... — Yosh xalifa og'zidan chiqqan ba'zi so'zlarni tushunmay peshanalarini tirishtirib o'tirgan yosh olimlarga qarab: — Yunoniylar astrunumiyo deb ilmi falakni, astruluxiyo deb ilmi nujumni aytadilar, astr — yulduz demakdir, — deb qo'ydi.

Uning donishmandligini tan olgan olimlar indamay bosh egib qo'ydilar.

O'zidan uch yosh kichik bo'lgan Ma'mun bilimdonligini ko'z-ko'z qilayotganligini fahmlagan al-Xorazmiy esa yerga qarab qoldi.

* * *

Bayt ul-hikmat kaliti qo'liga teggandan keyin al-Xorazmiy yosh olimlar bilan birga Hindiston, Eron, Iskandariyadan keltirilgan kitoblarni tartibga sola boshladi. U kechqurun charchab uyiga kelar, ovqatlanib, mizg'ib olgandan keyin yarim kechagacha o'tirib ishlar, hind tilidagi ko'hna kitoblarni mutolaa qilar edi. Ikki-uch yil ichida Bayt ul-hikmatdagi kitoblar joy-joyini topdi, shundan keyin u xotirjam bo'lib, hind hisobi bilan shug'ullana boshladi.

"Hindlar sonlarni raqamlar bilan yozishni kashf etganlar, amma "1" sonining ahamiyatini tushunib yetmaganlar, — deb o'zi bilan o'zi gaplashar edi besh sham o'rnatilgan qandil yorug'ida

ishlab o'tirar ekan u. — Axir, ikki — ikkita bir, uch — uchta bir, to'rt — to'rtta bir va hokazo. Hindlar joriy qilgan to'qqizlik sanoq tartibi bilan katta sonlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish va taqsim qilish amrimahol..."

Xorazmiyning xizmatiga doim tayyor bo'lgan, ish buyurishini kutib uxlamay o'tiradigan xizmatkori xo'jayinining ba'zan yarim kechagacha o'zi bilan o'zi gaplashib ishlab o'tirganiga hayron qolar: "Nega muncha o'z joniga azob beradi-ya! Miyasi aynib qolmasaydi. Kunduz kunlari ishlagani yetmasmidi. Podsho shundog' ham unga maosh berib turibdi-ku!" — deb o'ylar edi.

III

Tevarak-atrofdan dehqonlar, ko'chmanchilar kelib, bozor qiladigan Dajla nahri bo'yidagi qishloq Abul Abbosning o'g'li xalifa Mansur zamonida katta shaharga aylangan edi[1]. Yuz ming qul ertadan kechgacha ishlab xalifa uchun shohona ko'shk va saroylar, mulkdorlar, amaldorlar uchun baland g'ishtin imoratlar, savdogarlar uchun mag'ozalar[2] qurib, shaharni ikki qavat qo'rg'on bilan ixota etgan edilar. Keyin Dajla ustiga ko'prik qurilib, so'l qirg'og'ida katta bozor, usti yopiq rastalar vujudga keldi.

Xalifa Ma'mun erta bahorda boshlanadigan toshqindan keyin Dajla bo'yidagi saroy bog'iga chiqib istirohat qilar edi.

Shaharning shimol tomonidagi bu bog' qishin-yozin ko'mko'k xurmo, limun, shamshod va sarv daraxtlari bilan qoplangan edi. Xiyobonlarda nozlanib yurgan tovuslar rang-barang patlarini yoyib, o'z go'zalliklarini ko'z-ko'z qilar, daraxtlar tagida o'tlab yurgan kiyiklar begona odamni ko'rganda pishqirib, ko'lankasi quyuq daraxtlar orasiga kirib ketar edilar.

...Yurt tashvishi, ulusning mojarosidan charchagan xalifa to'lqinlanib oqayotgan Dajla daryosiga qarab, sozanda va xonandalarning xonishini tinglab o'ziga keldi. Keyin yana yurt tashvishi yuragini kemira boshladi. "Bobak qo'zg'oloni borgan sari avj

[1] Bag'dod shahri 762-yilda qurilgan edi.
[2] **Mag'oza** — magazin.

olayotir, boshqa elatlar ham ozariylardan o'rnak olib, isyon tug'ini ko'tarmasmikinlar? Bizga qarashli mamlakatlarga fitna o'g'risi kirmayotganmikin?" — deb o'yladi u yuragi siqilib va darhol chopar yuborib, vaziri a'zamni o'z huzuriga chorlatdi.

— Shahar tinchmi, yurt osoyishtami? Nima yangiliklar bor? — deb so'radi u saroy bog'iga zudlik bilan yetib kelgan al-Fazlning salomiga alik olib.

— Poytaxt tinch, sizdan minnatdor bo'lgan shahar aholisi duoyi joningizni qilib yotubdurlar.

Ma'mun, odat tusiga kirib qolgan bu gaplarni takrorlayvermang, degandek qovog'ini uyib qo'lini siltab qo'ydi.

— Yuqoriga chiqib, yonimga o'tiring, hech narsani yashirmay mamlakatning xorijiy va dohiliy ishlaridan meni xabardor qiling.

Soch-soqoliga oq oralagan bo'lsa ham, hali tetik al-Fazl ibn Sahl qomatini tiklab, zinadan daryo bo'yidagi shiyponga ko'taril-di-da, o'zidan ancha yosh xalifaning yoniga tiz cho'kdi.

— Janoblariga tobe hukmdorlar o'z vaqtida boj-xiroj to'lab turibdurlar, — dedi u nafasini rostlab, — ammo O'tror shohi itoat ipini uzib, o'z vazifasini o'tashdan bosh tortayotir.

— Ya'ni boj-xiroj to'lagisi kelmayotir, a? Undog' bo'lsa chorasini ko'rish kerak.

Ma'mun oppoq qo'lini keng peshanasiga tiraganicha o'yga toldi.

— Afsuski, hozir uning ustiga qo'shin yubora olmaymiz, — dedi u birozdan keyin vazirga qarab. — Askarlarimiz ozariylar isyonini bostirish bilan ovora. Vaqtincha murosa yo'liga o'tish kerak. Hukmdor har vaqt qilich va qamchinni ishga solavermaydur, ba'zan itoatdan bosh tortgan tobelarini yaxshilik bilan yo'lga solishga majbur bo'ladur. Siz O'tror shohiga sovg'a-salom yuborib, "Bir yillik xiroj sizniki, kelasi yildan boshlab, o'z vazifangizni o'tashdan umidvormiz", — degan mazmunda maktub yo'llang. Agar bir sanadan keyin ham oyog'ini tirab turib olsa, unga qarshi qorluqlar xoni Jabg'uni qayrab solurmiz, dushmanni uning g'animi qo'li bilan bartaraf qilmoq kerak. Xo'sh, yana qanday yangiliklar bor?

— Turk Afshin ozariylar bilan jang qilib, bir ming asir olibdur.

— Ofarin. Afshinni jangi jadalga rag'batlantirish kerak. Jang olib borgan kunlari unga o'n ming dirham, urush bo'lmagan kunlari ikki hissa kam maosh to'lab turmoq zarur. Asir olingan o'tpa-rastlar bola-chaqalari bilan qilichdan o'tkazilsin. Farmonimni yozib oling.

— Bosh ustiga, sizning har amringizga tobe, buyruqlaringizni bajo keltirishga tayyorman. Sizdek ulug' va adolatli xalifaga xizmat qilganim uchun o'zimni baxtli sezaman. Himoyatingiz ostida ma'rifat kuchlari jaholat devoriga raxna solmoqda, ilm-u fan rivoj topmoqda...

Vazirning xushomadgo'yligi xalifaga erish tuyulsa ham, negadir undan yuragi orom olar edi.

Xalifa xalq qo'zg'olonlarini bostirish to'g'risida gapirayotganida qovog'ini uyib mushtini qisar, olimlarning kashfiyotlari to'g'risida gapirayotganida yuzi yorishib, undan nur yog'ila boshlar edi. Fursat topganida ilmi nujum bilan shug'ullanadigan al-Fazl bu holni ko'rib: "Ma'mun juda murakkab, bir-biriga zid xislatlardan tarkib topgan odam, — deb o'yladi. — Unda nur va zulmat, latofat va kasofat bor. Shuni tan olish kerakki, u olimlarga homiylik qilib, ularni o'z qanoti ostiga olgan, ahmoq hukmdorlargina ilm ahliga nisbatan adolatsiz bo'ladilar".

Shiypon yonida qad ko'targan sarv daraxtlari uning ko'nglidan o'tayotgan fikrlarni ilg'ab olganday bosh chayqab, shivirlashib qo'yar edilar.

IV

Al-Xorazmiy o'n bitta sham qo'ndirilgan qandil yorug'ida xontaxta ustiga egilib, mushkul bir hisob masalasini hal qilayotganida ko'cha eshikni birov asta taqillatdi. "Kim ekan shu bemahalda kelgan?" — deb, u qalamni dovot yoniga qo'ydida, asta o'rnidan turdi. Uning xizmatkori o'z hujrasida xurrak otib uxlab yotar edi. Asta-asta qadam bosib, eshik yoniga keldi-da:

— Kim u? — deb so'radi.

— Men — Feruz. Matkarim darvozabonning o'g'li.

Alloma o'z yurtdoshi Matkarimni yaqindan tanir edi. Ovozi notanish yigitning yaxshi niyat bilan kelgani bilinib turardi. U eshikni ochib, ro'parasida chorpahildan kelgan qora chakmonli yigitni ko'rdi.

— Assalomu alaykum!

— Yarim kechada nima qilib yuribsan? — dedi salomga alik olishni ham unutib qo'ygan uy egasi.

— Boshpana izlab keldim... Sizdan boshqa panohimiz yo'q... Qutqaring! — Yigit entikib gapirar edi.

— Ichkariga kir!

— Mening... sherigim ham bor, — dedi uzoqroqda iymanib turgan hamrohining qorasini ko'rsatib.

— Kim u?

— Fo'lodbekning qizi... Yoqutoy...

Hayron qolganini yashira olmagan uy egasi:

— Iya! — deb yubordi. — Mayli, kiringlar!

Mehmonxonaga kirib, ipak gilam ustiga o'tirganlaridan keyin mezbon qora chakmon kiyib, yigit qiyofasiga kirgan oq yuzli, qora qosh qizga hayron bo'lib qaradi.

U bir-birini sevgan bu ikki yoshning boshidan ko'p mojarolar o'tganini, boshqa joy topolmay unikiga qochib kelishganini anglади.

Es-hushini yig'ishtirib olgan Feruz uy egasining unga mehribonlik bilan qarayotganini ko'rgach, dadillanib voqeani bayon qila boshladi...

...U farg'onalik Fo'lodbekning o'g'li Hayot bilan tengdosh bo'lib, ularnikiga tez-tez kelib turar edi.

Ulardan ikki yosh kichik bo'lgan Yoqutoy akasi va uning qalin do'sti Feruz bilan birga chillak o'ynar, o'q-yoy otishar, charchaganlaridan keyin hovli o'rtasida qad ko'tarib turgan xurmo daraxti ostiga solingan sholcha ustida o'tirishib ovqatlanishar edi.

Yoqutoy qo'rquv nimaligini bilmaydigan qiz bo'lib, ba'zan o'zi tengi o'g'il bolalar bilan olishib qolar, har safar ulardan ustun chiqar edi. Otasi uning jasurligidan mag'rurlanib: "Bu mardlik unga mendan o'tgan, asli o'g'il bo'lib tug'ilishi kerak edi-yu, adashib qiz bo'lib tug'ilgan", — deb qo'yar edi.

Feruz bilan bu qiz o'rtasidagi do'stlik bora-bora boshqacha tusga kira boshladi. Ular bir-birlarini ko'rganda suyunib ketar, boshlari osmonga yetgandek bo'lar edi. Otasi esa qizining husni ochilib ketayotganini ko'rib, xursand bo'lish o'rniga vahimaga tushar, "Uning ta'rifi saroygacha borib yetmasaydi", — deb qo'rqar edi. O'sha vaqtda haramga Bag'dodning eng chiroyli qizlarini kanizak qilib olar edilar.

"Feruz es-hushli, uddaburro yigit, kiroyi kuyoving shunday bo'lsa, — deb o'ylar edi Fo'lodbek. — Otasi ham o'ziga to'q odam, katta maosh oladi".

Ko'rinishdan musulmon odamga o'xshagan bu odam asli zardushtiy bo'lib, kecha-yu kunduz yaxshilik Xudosi Xurmuzdan bola-chaqasiga baxt-saodat tilar edi. Ba'zan parda bilan yopib qo'yilgan tokchani ochib, yog'ochdan yasalgan, ustiga qimmatbaho toshlar qadalgan haykal oldiga sham yoqar, unga bosh egib, pichirlab duo o'qir edi.

"Ey odamlarga mehr-shafqatli bo'lgan yaxshilik xudosi, biz musofirlarni balo-qazodan asra, bolalarimga baxt ato qil!" — deb yalinib-yolvorar edi. Biroq uning duosi darrov ijobat bo'lmasdi.

Yoqutoy o'n oltiga to'lib o'n yetti yoshga qadam qo'yishi bilan husni ochilib, uning dovrug'i saroygacha borib yetdi. Ularning uyiga haram bekasi kelib ketganidan keyin Fo'lodbek o'zini qayerga qo'yishini bilmay qoldi. Ko'p o'tmay, podshoning shaxsiy mulozimi Hojib uni dargohiga chaqirtirdi.

— Hojib sizni nega chaqirtirgan ekan? — deb so'radi xotini u saroydan qaytib kelganidan keyin. Qovog'idan qor yog'ib turgan Fo'lodbek chakmonini qoziqqa ilib qo'ydi-da, "uh" deb ko'rpachaga o'tirdi.

— Haram bekasi uyimizga kelib ketganidan keyin nima gap bo'lardi, — dedi oldiga qo'yilgan bir piyola muzdek sharbatni ichib. — Yonimga o'tir, gapimni eshit. Men Hojibning huzuriga kirib, ta'zim qilganimdan so'ng: "Boshingga baxt qushi qo'ndi, Fo'lodbek, — dedi. — Podshohi a'zam qizing Yoqutoyning ta'rifini eshitib, uni amirlashkar Afshin ibn Qorus janoblariga in'om qilmoqchi bo'ldilar. Shundog' ulug' odamga qaynota bo'lib,

qo'yin-qo'njing tilloga to'ladigan bo'ldi", — dedi. Men bosh egib qo'ydim-da, odatdagidek, podshoning amri vojib, dedim. Eshitishimcha, Afshinning uch xotini bor ekan. Qizimiz sho'rlik, hasaddan yonib turgan uch kundosh orasiga tushadigan bo'ldi. Zardushtiylarning ashaddiy dushmani Afshinga qizimni bergandan ko'ra o'lganim yaxshi! Yo'lda kelaturib, qizimizni Feruz bilan qovushtirib qo'ymaganimga achindim. Keyin o'ylab-o'ylab, haliyam vaqt o'tgani yo'q, deb qat'iy bir qarorga kelib qo'ydim. Shu bugunoq pirimiz Egamberdini uyga chaqirib kelib, zardushtiylar odatiga muvofiq, ma'bud oldida nikoh o'qitamiz.

Katta to'y berib qizini uzatmoqchi, orzu-havasini ko'rmoqchi bo'lgan ona, tiz cho'kib, ikki qo'li bilan yuzini berkitib yig'lay boshladi.

— Ha, nima bo'ldi? Nega yig'layapsan? — deb o'shqirdi er g'azablanib.

— Yo'q... o'zim... Siz ham tomdan tarasha tushgandek, hech kutilmagan gapni aytib, meni esankiratib qo'ydingiz.

Eshik orqasida turgan Yoqutoy ularning gapini eshitib behad quvonib ketdi, quloq solayotganimni ko'rib qolishmasin, deb o'zini darhol panaga oldi.

Er-xotin maslahatlashib o'tirganlarida Feruz salom berib kirib keldi.

— Farishtalar haydab keldi seni, — dedi uy egasi quvonib. — Hozir seni yo'qlab turgan edik. O'tir, xayrli bir gap bor. — U xotiniga yuzlanib buyruq berdi. — Sen oshxonaga yugur, o'choqqa olov yoq, osh damla. Uyda et bormi?

— Ha, bor. Bir lagan osh uchun masallig' topiladi!

...Goh qovog'ini uyib, goh kulimsirab quloq solib o'tirgan al-Xorazmiy Feruzning keyingi so'zlarini eshitib behad quvondi.

— Fo'lodbek jasur odam deb eshitgan edim, rost ekan, mard odamning ishini qilibdur, — dedi u kulib. — Sen, Feruz, mening o'g'limsan, Yoqutoy — qizim. Mana uy, mana joy. Tap tortmay menikida turaveringlar. Otangiz uchun qo'rqmang, agar u xalifaning g'azabiga uchrasa, qutqarib qolish qo'limdan keladur.

Bir-birini sevib qovushgan ikki yoshga boshpana berganidan u mamnun, podshoning iltifotidan mahrum bo'lishdan qo'rqmas,

xayrli ish qilishni ta'magirlikdan ustun qo'yar edi. Husnlari gul-dek ochilib ketgan ikki yoshning yuzlaridan yng'ilayotgan yog'du luvullab qolgan uyini nurga to'ldirgandek bo'ldi.

* * *

— Biz amirlashkar Afshin Haydar ibn Qorusga tengi yo'q go'zal bir qizni in'om etib, uni xursand qilmoq niyatida edik, niyatimizga yetolmadik, — dedi sakkiz qirrali oltin taxt usti-da vigor bilan o'tirgan Ma'mun, ro'parasida tiz cho'kkan vazir al-Fazlga qarab. — Qizning otasi Fo'lodbek taklifimizni rad etib, qizini bir yigit bilan qochiribdur. Biz mirshablar yuborib uni hibsga oldirdik. Shunisi qiziqki, uyida yog'ochdan yasalgan bir ma'bud bor ekan.

— Zardushtiy ekan-da. Ehtimolki, shuning uchun qizini otash-parastlar dushmani Afshinga berishni istamagandir, — dedi al-Fazl, negadir hayajonlanib.

— Shundog'. Fo'lodbek qizi bilan yosh kuyovini kimnikiga yashirgan deb o'ylaysiz?

— Farg'onalik do'stlarining biri kuyovi bilan qiziga boshpana bergandir-da!

— Topmadingiz, — deb kuldi Ma'mun. — Ular al-Xorazmiy-ning uyida berkinib yotgan ekanlar. Muhammad ibn Muso kuni kecha kelib o'zi aytdi, Fo'lodbekni xindondan chiqarib, yoshlar-ning gunohini kechirishni so'radi. Men uning iltimosini qabul etib, xursand qilib yubordim.

— Oliyjanoblik qilibsiz, — dedi al-Fazl mamnun bo'lganini yashira olmay. Keyin noqulay ahvolga tushganini yashirish uchun gapni boshqa yoqqa burdi. — Farg'ona-yu Xorazmdan ko'chib kelgan turkiy xalqlar orasida majusiylar ko'p. Ular masjidga chi-qib namoz o'qib tursalar-da, uylarida oltin ma'budga topinadurlar.

— Biz majusiylikni bartaraf qilishimiz lozim. Qo'l qovushtir-rib, qarab turaversak, ular Shamosiya tepaligida otashkada qurib, uni mug'tepaga aylantiradilar.

Al-Fazl bir vaqtlar Xurosonda zardushtiylarning ibodatxonasi-ni ko'rgan edi. To'rtburchakli hovli o'rtasidagi usti yopiq bino, besh zina bilan pastga tushiladigan otashkada, o'rtada yonib tur-gan olovga xushbo'y giyohlarni tashlab, duo o'qiyotgan oppoq soqolli pirimug'on ko'z oldida jonlanib, seskanib ketdi.

— Rost aytadurlar, zardusht diniga barham bermoq kerak. Uning ta'siri ostida bo'lgan turkiy xalqlar arablarni yomon ko'ra-durlar, ba'zan ko'cha-ko'ylarda to'qnashuvlar bo'lib turadur.

— Hammasidan xabarim bor, — dedi Ma'mun qovog'ini uyib. — Ammo turkiy xalqlar bizning tayanchimiz. Notinch arablar u yer-bu yerda isyon tug'ini ko'targanlarida ularning yordami bilan tartib o'rnatamiz. Shuning uchun bu masalada eh-tiyotkor bo'lmoq kerak. Agar al-Xorazmiy o'z yurtdoshlariga pand-nasihat qilib, arablar bilan to'qnashib turishning oqibati xu-nuk bo'lishini yoshlarga tushuntirib tursalar, yaxshi bo'lur edi. — U vazirining yuzida norozilik alomati paydo bo'lganini ko'rib, o'z fikridan qaytdi. — Yaxshisi, bu ishga ulug' allomani aralashtir-maganimiz ma'qul. Hozir u zot hind hisobini mukammallashtirish ustida bosh qotirmoqdalar. Bu ishni o'zimiz bartaraf qilganimiz yaxshi. — Ma'mun xufya ishlar bo'yicha vaziri bo'lgan Mahmud ibn Yahyoga bu haqda topshiriq berish, poytaxtdagi majusiylarni ro'yxatga olib, ularga qarshi zimdan chora ko'rish kerakligini ko'nglidan o'tkazib qo'ydi.

V

Bayt ul-hikmatda al-Xorazmiyning "Hisobi al-hind" degan asari muhokamaga qo'yilgan, olimlar qatorida yer o'lchovchi mas-sohlar, multiylar, ulamolar ham bu majlisga chaqirilgan edi.

Oq shoyi ko'ylak ustidan uzun yengli qizil chopon kiygan, taqyasi ustidan oq salla o'ragan Muhammad ibn Muso katta tara-biy uyning ikki chekkasida chordana qurib o'tirgan olimlarni o'z asarining mazmuni bilan tanishtirar edi.

— Ilgari arablar va ularga tobe musulmon xalqlar hisob amal-larini taqamlar bilan emas, so'zlar yordami bilan bajarar edilar, — deb gapida davom etdi u. — hindlar esa har bir sonni alohida belgi, ya'ni raqamlar bilan ifoda etadurlar. Mana ko'ring, — u o'rnidan turib, devorga tirab qo'yilgan uzun, ensiz qora taxtaga oq bo'r bilan to'qqizgacha bo'lgan raqamlarni yozib ko'rsatdi. —

Mana bunisi bir, bu — ikki, bu — uch va hokazo. Biz shu raqamlarni ba'zi islohlar bilan qabul qilib olib, hisob amallarini ular yordami bilan hal qilish yo'liga o'tishimiz kerak, — u bir-birlari bilan shivirlashib gaplashayotgan shayxulislom bilan qoziyul quzzotga tikilib qarab turdi-da, ular gapdan to'xtaganlaridan keyin so'zini davom ettirdi: — Hindlarda to'qqizlik sanoq tartibi joriy bo'lib, ular "1" raqamining ahamiyatini tushunmagan edilar. Mening hind hisobiga kiritgan yangiligim shulki, "1" raqami yoniga bir halqa, ya'ni — sifr[1] qo'yib, uni "o'n" deb o'qidim. — U taxtaga "10" raqamini yozib ko'rsatdi. — O'nlik sanoq tartibi bilan katta sonlarni jam va tarx qilish, zarb va taqsim etish oson. — U qora taxtaga to'rt xonali sonlarni yozib, ularni bir-biriga ko'paytirib ko'rsatdi[2].

Olimlarning ba'zilari hayajonga kelib o'zlarini tutolmay: "Ofarin!" deb yubordilar. Xalifaning so'l tomonida o'tirgan vazir al-Fazl beixtiyor o'rnidan turib ketdi.

— Bu — ulug' kashfiyot! — deb yubordi u. — Abu Abdulloh al-Xorazmiy janoblari eshiklari berk ilmi riyoziyning kalidlarini topib qo'limizga topshirdilar. Hech bir arab olimi hal qilmagan muammolarni yechib, bizni hind raqamlari bilan tanishtirdilar. Endi bularni arab raqamlari deb ataymiz, — dedi u qora taxtani qo'li bilan ko'rsatib.

— Hindlar, — deb yubordi oppoq soqoli ko'ksiga tushgan shayxulislom, — eshitishimcha, hindlar handasiy shakllar va raqamlar bilan fol ochar ekanlar, bas shunday ekan, biz qanday qilib ularning raqamlarini qabul qilib olurmiz. Al-Xorazmiy bizni hind xalqi bilan yaqinlashtirib, ularning urf-odatlarini qonimizga singdirmoqchi. Eshitishlaricha, ul kishining ota-bobolari otashparast majusiy ekan.

— Rost, — deb uning gapini tasdiqladi mosh-guruch soqolli, ikki beti qip-qizil qoziyul quzzot. — Shuni aytib o'tayki, hindlar biz arablar singari o'ngdan so'lga emas, so'ldan o'ngga qarab yozadurlar. Ilmi hisob ularning diniy e'tiqodlari bilan chambarchas bog'langan. Masalan, bir soni — ota, ikki soni — ikki ko'z, uch soni agniy degan Xudolarining ramzidur va hokazo. Biz, qanday qilib, bu bid'atchi xalqning raqamlarini arab raqamlari deb ataymiz. Hindlar — irkit, sehrgar xalq. Ular sochlarini qirdirmay, tirnoqlarini kesdirmaydurlar, sigir go'shtini yemaydurlar, ammo badanlariga yangi sigir tezagini surtadurlar, raqamlarini uzun qora taxtaga oq kesak bilan yozadurlar, — dedi devorga tirab qo'yilgan taxtaga ishora qilib.

Al-Xorazmiy tishini tishiga qo'yib, qalin qoshlarini chimirib, indamay o'tirar: "Qoziyul quzzot hind sudxo'rlari bilan birga ish olib boradi, deb eshitgan edim, rost ekan-da, — deb o'ylar edi. — Bo'lmasa, hind urf-odatlarini qayerdan biladi! Bu mutaassib mullolardan har baloni kutish mumkin. Ammo xalifaning menga xayrixohligi aftidan ko'rinib turipti, kashfiyotim to'g'risida xavotir olmasam ham bo'lar!"

Fil suyagidan yasalgan kursi ustida pinagini buzmay o'tirgan Ma'mun ulamolarni bu majlisga chaqirganidan o'kinar, ularga nisbatan ehtiyotkor bo'lish, olimlarni muhofaza qilish kerakligini ko'nglidan o'tkazar edi. Shahar qoziyul quzzotidan keyin so'zga chiqqan Xolid ibn Abdulmalikning so'zlariga u xayrixohlik bilan quloq sola boshladi.

— Ilm o'rganish musulmon er va ayollar uchun ham farz, ham qarz, — dedi marvlik keksa olim titragan ovoz bilan. — Buni doim yodimizda tutishimiz kerak. Hadiysi muqaddasda, ilmni Chin-Mochinga borib bo'lsa ham o'rgan, deyilgan. Holbuki, xitoylar ham hindlar singari it, ilon, kaltakesak etini yeydurlar.

Qoziyul quzzot o'zini tutolmay: "Ular sigir tezagini badanlariga surtmaydurlar", — demoqchi edi-yu, lekin qovoqlarini solib o'tirgan olimlarga qarab tilini tiydi. — Xitoylar... Xitoylar handasiy shakllar, raqamlar bilan fol ochmaydurlar...

— Har bir xalqda ham yaramas odatlar bor, bid'at, xurofot bor, ammo shu bilan birga, munavvar fikrli odamlar vujudga keltirgan ilm-fan mavjud, biz ular yashnatgan ma'rifat gulshanidan ilm urug'larini terib olib, o'stirishimiz zarur.

Ilm uchun o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lgan bu keksa olim zabardast ulamolardan qo'rqmay haqiqatni himoya qilar edi.

[1] **Sifr** — nol.

[2] Yevropada "Algoritm" ("Al-xorazm") so'zi o'nlik sanoq sistemasining sinonimi o'rnida ishlatiladi.

Xalifa cho'zilib ketgan tortishuvga yakun yasab:

— Haqiqat munozaralar orqali ochiladur, degan gap bor, — deb so'z boshladi. — Har ikki tomonning ham fikrlarini eshitdik. Abu Abdullo al-Xorazmiyning yozgan kitoblari, kashfiyotlari ustida hali ko'p mulohazalar yurg'izamiz. Ammo biz o'z ishimizda hadisi muqaddasga amal qilib, har bir xalqning ilm-fanini o'rganishimiz, bilim urug'larini bid'at-xurofot balchig'idan tozalab, ahli muslimning miyasiga qadashimiz lozim...

U so'zining oxirida munozaraga chiqib, o'z fikrlarini aytgan olimlar, ulamolarga tashakkur bildirdi-da, bu masalani hal qilish uchun bir majlis kifoya qilmasligini aytib gapni tamom qildi.

VI

— Ajoyib loyiha, — dedi al-Xorazmiy, to'rtburchak qog'ozdagi shakllarni diqqat bilan ko'zdan kechirar ekan. — Rasadxonaning kattaligi Batlimusning "al-Majistiy"[1]sida ko'rsatilgan hajmda: uch qavatli, doira shaklida. Uchinchi qavat ustida quyosh soati va boshqa olatlar uchun joy ajratilgan.

— Loyihani ustoz Xolid ibn Abdumalik bilan birga tuzganedik, sizga manzur bo'lganidan behad mamnunman, — dedi xursandligidan qiyiq ko'zlari yumilib, kulchadek yuzi yorishib ketgan Ahmad al-Farg'oniy.

— Shuning uchun ham uning kamchiligini topa olmadim, shekilli, lekin o'zingiz Iskandariya shahriga borib, Batlimus rasadxonasini ko'rib kelsangiz, loyihaning nuqsonlarini payqab, unga isloh kiritsangiz... Agar Muso binni Shokirning ikki o'g'li bilan O'rta yer dengizi sohiliga sayohat qilsangiz, ham bahri dilingiz ochilgan, ham foydali ma'lumotlar olgan bo'lur edingiz.

— Rost, ulug' yunon olimi yashagan shaharni, rasadxonani ziyorat qilib kelishning o'zi kishiga ilhom bag'ishlaydur, borganim bo'lsin.

---

[1] **Batlimus** — Ptolemey. II asrda Aleksandriya (Iskandariya) shahrida astronomiya bilan shug'ullangan olim. Uning "Almagest" degan asarini arablar "al-Majistiy" deb tarjima qilganlar.

— Men ertaga vaziri a'zam bilan so'zlashib, sizlar uchun kerakli mablag'larni olib berurman. U kishi ham, xalifa ham bu ulug' ish uchun dirham va dinorlarini ayamaslar.

Ma'mun Bag'dod yaqinida, shahar changi va tutunidan uzoqda bo'lgan "Shamosiya" tepaligi ustida rasadxona qurish niyatida edi. Olimlar, me'morlar uning amrini bajo keltirish uchun ishga tushib ketgan, ustalar tepalik atrofidagi kulbalarni buzib, yer tekislash bilan band edilar. Ahmad al-Farg'oniy ikki yosh olim bilan Aleksandriya shahriga borib, qadimiy rasadxonaning har bir bo'lagini, yer ostidagi qismini ko'rib chiqib, loyihani itmomiga yetkazdilar. Ilm-ma'rifat ahli ulardan behad xursand, ammo islom dini aqidalariga qadimgi yunon faylasuflarining ta'siri kuchayayotganidan ulamolar xavotirda edilar.

* * *

— Shariat oyoq osti bo'lmoqda, Bayt ul-hikmatda uya qurib olgan jodugarlar dinga xilof aqidalarni, qadimgi majusiy olimlarning maslaklarini targ'ib etmoqdalar, — dedi bir ko'zi yumilib qolgan oppoq soqolli shayxulislom uy egasiga qiyshayib qarab. U Bag'dod shahri qoziyul quzzotining uyiga mehmon bo'lib kelgan edi. — Bu baloyi ofatning oldini olish mumkinmasmikin?

— Yo'q, — dedi sochlari oqara boshlagan tetikkina mezbon, — suv boshidan loyqa. Xalifaning o'zi bu shakkok odamlarga bosh bo'lib, shariat bulog'ini loyqatmoqda, qadimiy yunon olimlarining asarlarini tarjima qildirmoqda. Marv viloyatidagi Saraxs shahrida tavallud etgan kelgindi al-Fazl ibn Sahl — vaziri a'zam, xorazmlik Muso ibn Muhammad Bayt ul-hikmatning bosh kitobdori, Farg'ona-yu Marvdan kelgan muhandis-u munajjimlar — saroyda eng mo'tabar odamlar. Bag'dod shahrida yuz berayotgan bu beboshlikni ko'rib, dunyodan chiqib ketging keladur.

— Yolg'iz siz bilan biz emas, a'yonlar, askarboshilar orasida ham norozilik boshlangan, — dedi keksa mehmon. — Esingizdami, Xorun ar-Rashid zamonida ham xuddi shunday ahvol yuz bergan, davlat ishlarini eroniylar egallab olgan edilar. Marhum xalifa bir bahona topib eroniy vazirni qatl ettirgan, shu bilan arab akobirlarini tinchitgan edi.

— Ha, esimda bor! — uy egasi jilmayib qo'ydi. — Hammamiz Xorun ar-Rashidning bu qilgan ishidan mamnun bo'lgan, mamlakat jilovi yana arablar qo'liga o'tgan edi. Tarix takrorlanadur, degan hikmatli bir gap bor. Sabr qilib turaylik, shoyad marhum xalifaning ruhi madadga kelsa-yu, Eron-u Turon tazyiqidan qutulsak. Kulfatga ko'nikib yuraverilsa, borgan sari uning yuki og'irlashadur. Ojiz odamlargina o'z qismatlariga ko'nikib yuraveradurlar.

— Ammo ehtiyotkorlikni ham qo'ldan bermaslik kerak. Agar biz shul ishga jur'at qilsak, Ma'mun g'azab otiga minib, qo'liga jazo qilichini olmasmikin?

— Qo'rqmasinlar. Xalifa hech qachon o'z davlatining ustunlariga bolta urmaydur, suyanchig'i bo'lgan arab zamindorlari, akobirlariga ziyon-zahmat yetkazmaydur. Axir, bizning foydamizni ko'zlab sobiq qullar, yalangoyoq dehqonlar isyonini qonga botirayotir! Eshitishimcha, Ma'mun kechalari ilmi nujum bilan shug'ullanib, davlat ishlarini tashlab qo'ygan vaziridan ham norozi bo'lsa kerak.

— Tavakkal qilgan kishining ishiga Xudo rivoj beradur. Yotib qolgandan otib qolgan yaxshi, — deb yubordi hayajonga kelgan mehmon qaltiragan ovoz bilan. — Yaxshi gapga ham farishtalar "omin" deydurlar, yomon gapga ham.

Ular dasturxon ustida allamahalgacha suhbatlashib o'tirishdi. Go'yo devorlarning qulog'i bordek, ba'zan uyoq-buyoqqa alanglab, tovush chiqarmay pichirlashar edilar.

VII

Rasadxona qurilishi jadal sur'atlar bilan borar, bosh me'mor ham, ustalar, olimlar ham ishning borishidan xursand edilar. Diametri ellik metr bo'lgan doira shaklidagi uch qavatli rasadxona qurilib bitishiga oz fursat qolganda yuz bergan dahshatli bir voqea ilm-ma'rifat ahlini sarosimaga solib qo'ydi. Olimlarning homiysi bo'lgan vaziri a'zam al-Fazl ibn Sahl hammomda noma'lum bir odam tomonidan o'ldirilgan, suiqasdchilar jinoyat ipining uchini berkitib ketgan edilar.

Kutilmagan bu hodisadan olimlar sarosimaga tushib, qo'llari ishga bormay qoldi. Ilm ahli qazoga uchragan munajjim va davlat arbobi ibn Sahlni tantana bilan dafn etib, ming xil fikr bilan boshlari qotgan holda turar joylariga qaytdilar.

Al-Xorazmiy ham chuqur qayg'uga botgan, olimlarning homiysi bo'lgan vazirning o'limiga qisman o'zi sababchi bo'lganini o'ylab, azob chekar edi. "U har vaqt meni, ulamolarga yoqmagan kashfiyotlarimni himoya qilib kelar edi, — deb o'ylar edi. — Qisman uning g'ayrati bilan hind raqamlari qabul qilinib, arab raqamlari deb atala boshladi. Go'ring nurga to'lgur, xurosonlik, o'rta osiyolik musofir olimlarni himoya qilib kelar edi. Shu sababdan arab mullolari, akobirlari uning boshiga yetdilar..."

U o'z yog'iga o'zi qovurilib o'tirganda, Ahmad al-Farg'oniy kelib qoldi.

— E, keling, keling, nima qilishimni bilmay xunob bo'lib o'tirgan edim, — dedi salomiga alik olib. — Qani, buyoqqa chiqing.

— Men ham boshimni qayoqqa urishimni bilmay, o'zimni chalg'itib, g'amlarimni unutish uchun to'g'ri siznikiga qarab yo'l oldim, — qovog'idan qor yog'ib turgan al-Farg'oniy mehmonxona to'riga solingan ko'rpachaga o'tirib, yuziga fotiha tortdi. — Qanday ulug' va pokiza odamdan ayrilganimiz endi bilindi. Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, deb bekorga aytmaganlar.

Ular marhum vazir to'g'risida gaplashib o'tirdilar.

— Xalifa jinoyatchilarni ushlab, jazolarini berarmikin? Axir, bul ishni shundoqligicha qoldirib bo'lmaydur-ku! — dedi yosh mehmon xunob bo'lib.

Al-Xorazmiy unga qarab turib, birozdan keyin:

— Bul hodisaning ildizi chuqur, Xorun ar-Rashid zamonidagi Ja'far ibn Yahyo fojiasiga o'xshaydur, — dedi qovog'ini solib. — O'shal vaqtda ham eroniylarning dastlari daroz ekanligidan norozi bo'lgan arab akobirlari qo'llariga xanjar olgan edilar. Ma'mun zamonida ham kichikroq miqyosda bo'lsa-da, o'shal hodisa takrorlandi. Xalifa bir chora ko'rishdan oldin ishining oqibati ustida bosh qotirar, ona urug'ini rozi qilaman, deb, ota urug'ini yerga

urmas. U yetti o'lchab bir kesadigan, ehtiyotkor hukmdorlar toifasidan.

— Tushunarli. U qaynab turgan qozonni yopiqligicha qoldirsa kerak, haqiqiy jinoyatchilar jazosiz qoldirilg'ay, deb o'ylayman.

— Shundog'.

Ular uzoq vaqtgacha gaplashib o'tirib, o'z g'am-tashvishlarini unutganday bo'ldilar.

Boshda sarosimaga tushgan boshqa olimlar ham vaqt o'tishi bilan o'zlariga kelib, o'z ishlariga boshlari bilan sho'ng'ib ketdilar. Dahshatli fojiadan bir yil o'tgandan keyin rasadxona ham qurilib tamom bo'ldi[1]. Allomalar o'n hissa g'ayrat bilan samoviy jismlarni o'rganishga kirishib ketdilar.

Al-Xorazmiy kechalarini yulduzlarning harakatini o'rganish bilan o'tkazar, Ptolemeyning jadvalida xatolar borligini payqab, unga tuzatishlar kiritar edi. Bu ish bilan bog'liq bo'lgan ko'p masalalarni hal qilishda ilmi hisob, to'rt amal ish berolmasligini payqab boshi qotar, yer o'lchash ishlari bilan shug'ullanuvchi massohlar, meros taqsim qilish kabi ishlar bilan shug'ullanuvchi muftilar ham ko'p riyoziy muammolarni yechishda qiynalib, undan maslahat so'rar edilar.

U kecha-yu kunduz bir xildagi hisob masalalarini hal qilish uchun umumiy usul qidirish bilan band bo'ldi, mashaqqat chekib, mushkul hisob masalalarini hal qilish uchun noma'lum bir sonni tenglamalar orqali topish yo'lini kashf etdi. Uning "Al-jabr val muqobala" degan asari Bayt ul-hikmatda muhokama qilinayotganda olimlar hayajonga kelib, uni tabriklay boshladilar. To'rda viqor bilan o'tirgan zar choponli xalifa o'z xursandligini yashirishga urinsa ham, yonida o'tirgan al-Xorazmiyga jilmayib qarab qo'yar edi.

Bu majlisga u din peshvolaridan hech kimni chaqirtirmagan, haqiqiy olimlarni ko'rolmaydigan hasadgo'y mullalar bema'ni gaplarni o'rtaga tashlab, ilm ahlining ta'blarini xira qilishlari mumkin edi.

[1] 819-yil.

Ma'mun shavq-zavq bilan gapirgan olimlarning so'zlariga yakun yasab shunday dedi:

— Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso yangi ilm kashf etib, unga aljabr deb ajoyib nom qo'yibdurlar. Ilgari ilmi hisob bor edi, lekin samoviy jismlar orasidagi masofani belgilash, yer o'lchash, meros taqsim qilish ishida uchraydigan mushkul masalalarni hisob ilmi, to'rt amal yordami bilan hal qilish mumkin emasdi. Al-Xorazmiy janoblari bu qiyinchilikni bartaraf etganlar, murakkab masalalarni hal qilish uchun ularga majhul bir son kiritib, ularni muodala[1] orqali, harflar va sonlar yordami bilan yechish yo'lini topganlar. Bu shunday ulug' kashfiyotki, yuz yil, balki ming yildan keyin ham odamlar amaliy masalalarni hal qilish uchun bu ilmga murojaat etgusidurlar. Aljabr degan istiloh abadiy saqlanib qolg'usidur.

— Bu mushkul ilmning mohiyatini uch-to'rt jumla bilan lo'nda qilib ta'riflab berganingiz uchun behad xursandman, — deb yubordi yuzi yorishib ketgan al-Xorazmiy xalifaga ta'zim qilib. — Olimlarga xayrixoh bo'lgan hukmdorlar davridagina ilm-fan oldidagi to'siqlar bartaraf qilinib, uyquda yotgan aql-farosat uyg'ongusidir.

— Ilmi aljabr bamisoli tikanli daraxt, jabrga chidagan odamgina uning ustiga chiqib, mevalaridan bahramand bo'lg'ay, — deb askiya qildi al-Farg'oniy.

Olimlar kulib uning gapini tasdiqladilar. Ular cho'lda yurib, quduq yoniga yetib kelgan yo'lovchilardek xursand edilar.

* * *

Oradan asrlar o'tdi. Olimlar vujudga keltirgan ma'rifat xazinasi yevropaliklar qo'liga o'tib ketdi. Xorazmiyning bu ulug' asari XII asrda lotin tilida bosilib chiqdi, keyin fransuzlar uni "algebra" deb tarjima qildilar. Asrlar bir-birlarini quvib o'taverdilar. Sharq xalqlari yo'qotib qo'ygan ma'rifat xazinasini axtara boshladilar.

Yevropada adashib yurgan "aljabr" ilmi yana "algebra" shaklida o'zimizga qaytib keldi.

[1] **Muodala** — tenglama.

IBN SINO QISSASI

Ma'rifat darvozasi

I

Baqqol Mahmud Massoh xaridor kutib, oppoq cho'qqisoqolini qashib o'tiradi, ko'zlari o'tgan-ketganda. Uning do'konida odamning jonidan boshqa hamma narsa topiladi. Qand-novvot deysizmi, holva, sabzi, piyoz, guruch deysizmi — hammasi bor. Agar biror xaridorga attorlik buyumlari yoki igna, ip, mix va boshqa narsalar kerak bo'lib qolsa, baqqol o'rnidan turib do'kon orqasidagi hujradan ularni topib olib chiqadi.

Odatda, erta bilan va kechqurun bozori biroz qiziydi-yu, tush paytida savdo-sotiq yotib qoladi. Bunday paytlarda ko'chadan kichik bolalar o'tsa, zerikib o'tirgan baqqol ularni chaqirib, qo'lariga ikkitadan yong'oq yoki ozroq shirinlik tutqazib, gapga soladi, keyin chopqillaganicha uyiga yugurgan norasidalar orqasidan jilmayib qarab qoladi.

Kunlardan bir kun Mahmud Massoh xaridor kutib o'tirganida qotmadan kelgan, qirra burunli, ko'zlari tiyrak bir bola kelib salom berdi-da, ikki paysa[1] qora murch va to'rt paysa dolchin[2] so'radi.

Oq ko'ylak ustidan olacha ipak to'n kiygan, gavdasi yo'g'on baqqol kichkinagina tarozisida yosh xaridorning aytgan narsalarini tortib, qo'lidan mayda chaqalarni oldi-yu, unga tikilib:

— Seni ilgari ko'rmas edim-ku, qayerliksan? — deb so'radi.

— Afshonalik. Dadamlar shu mahalladan hovli sotib olganlar, uch-to'rt yil burun. Men onam bilan qishloqda qolgan edim.

— Afshona atrofi qo'rg'on bilan o'ralgan katta qishloq, Qutayba binni Muslim ul yerga jome soldirgan.

— Yaxshi bilar ekansiz, — dedi yosh xaridor ko'zlari javdirab.

— Bo'lmasam-chi! Tevarak-atrofda men ko'rmagan joy yo'q. Yoshligimda massoh, ya'ni tanobchi bo'lib ishlar edim. Padaring kim? Otlari nima?

[1] **Paysa** — taxminan 50 gramm.

[2] **Dolchin** — bir turli tropik o'simlikning quritilgan jigarrang po'stlog'i (ziravor va dorivor sifatida ishlatiladi).

— Abdullo ibn Hasan, ibn Sino....

— Bo'ldi, bo'ldi, tanidim. Ul kishi saroyda baytul-molda xizmat etadurlar, ilgari Hurmitanda soliq yig'uvchi edilar. Obro'li, badavlat odam. O'shal kishining o'g'illariman degin.

— Hovva.

— Volidayi mehribon, o'g'lim mayda-chuyda xarid qilishni o'rgansin, deb seni chiqargan bo'lsalar kerak, bildim. Xo'sh, oting nima?

— Husayn.

— Necha yoshdasan?

— To'qqiz yoshga to'lib, o'nga qadam qo'ydim.

Baqqol ko'zlarini katta ochib:

— Yo'g'-e! — dedi. — Endi yetti yoshga qadam qo'ygan bo'lsang kerak, deb o'ylagan edim. Novcha bo'lsang ham, oriqqina bola ekansan. Maktabga borib tururmisan?

— Qishlog'imizda Muhammad Vose masjididagi maktabga qatnab turardim.

— O'qish, yozishni bilurmisan?

— Ha, savodim chiqqan, Qur'onni yodlab olganman.

— Juda soz, ammo ilmi riyoziy va handasadan bexabardursan?

— Domlamiz bizga bunday ilmlarni o'qitmaganlar.

— Iqlidus kim?

— Bilmayman, kim ul kishi? — deb so'radi har narsani bilishga qiziquvchi bola, ko'zlari chaqnab.

— Qadimgi yunon mulkida o'tgan donishmand, handasa ilmiga asos solgan: yer o'lchashni o'rgatgan ulug' olim. Agar oldimga kelib tursang, xatti munhaniy, ya'ni egri chiziq, xatti munkasir, ya'ni siniq chiziq nima, musallas[1], murabba' nima, o'rganmoqchi bo'lgan Husayn.

— Xo'p, albatta, chiqib turaman, — dedi ilmga ishtiyoqmand bola cholga o'z nabirasidek yoqib qolgan edi. U ketgandan keyin ko'ngli yumshab, anchagacha jilmayib o'tirdi.

[1] **Musallas** — matematik o'lchov: uch qat; uch burchakli ma'nosida.

Shundan so'ng yosh Husayn baqqol oldiga tez-tez chiqadigan bo'lib qoldi. Uyga qaytib kelgandan keyin u hovlining bir burchagidagi nimqorong'i xonaga kirib olib xontaxta yoniga o'tirar, hisob chiqarish, turli shakllarni chizish bilan mashg'ul bo'lar edi.

O'zidan ancha kichik, yuvosh, og'ir ukasi ham unga taqlid qilib qog'oz qoralardi.

Devonga erta bilan ketib kech qaytadigan otasi o'g'lining nima bilan shug'ullanayotganidan bexabar edi. Ittifoqo, bir kuni ishdan ertaroq qaytib kelib, Husaynning nimalarnidir chizib o'tirganini payqab, qo'lidan qog'ozni oldi-da, uni yoruqqa solib ko'rdi.

— Iye, handasiy shakllar-ku. Musallas, murabba'... hammasi to'g'ri chizilgan.

Husayn otaning yuzi yorishib ketganini ko'rib tilga kirdi:

— Dada, Iqlidus, nuqta shudurki, uning o'lchovi yo'q, chiziq ensiz uzunlik, degan ekanlar...

— Kimdan eshitding bu gapni?

O'g'li og'zini ochmasdan burun onasi javob qildi:

— Husayn uch-to'rt kundan beri mahallamizdagi baqqol oldiga chiqib hind ilmi hisobini o'rganmoqda. Uyga qaytib kelgach, allanima balolarning suratini solib o'ltiradur.

Eridan ancha yosh bo'lgan qora qosh, quralay ko'zli xushsurat Sitorabonu, "dadasi urishib bermasaydi", deb hayiqib turar edi. U erining mamnun bo'lganini ko'rib, jilmaydi-da, orqaga surilgan oq shoyi ro'molini to'g'rilab qo'ydi.

— Juda soz, — dedi sochiga qirov tusha boshlagan jikkak, qirraburun Abdullo ibn Hasan xursandligini yashirishga urinib. — Men Mahmud Massoh bilan gaplashib, uni uyimizga taklif etgayman. Bo'sh vaqtlarida kelib Husaynga ilmi riyoziy va handasadan dars bersin. Maktabda ul ilmi dinni o'rgandi, endi dunyoviy ilmlarni egallasin. Bolaligida uning miyasiga ilm urug'i qadalsa, keyin sermeva daraxt bo'lib unib chiqqay.

Shundan keyin Mahmud Massoh Abdullo ibn Hasanning uyiga kelib uning o'g'liga dars bera boshladi. Ba'zan Husaynning o'zi uning do'koniga chiqib saboq olar, keksa baqqol yosh shogirdining zehniga qoyil qolar, shu sababdan uni zavq bilan o'qitar edi.

Oradan ikki yil o'tmay Husayn ustodining bilganlarini o'rganib oldi.

Bir kuni ustodiga qarab:

— Emdi doiraning sathini o'lchashni o'rgating, — dedi.

— Qo'lingga pargor[1] olib doira chiz-da, uni to'rtga bo'l...

Shogird uning aytganini qilib, bosh ko'tardi.

— Hosil bo'lgan uchburchaklarning asoslari egri chiziqlar-ku...

Ustodi uning nima demoqchi bo'lganini anglab, bosh qashidi-da:

— Massohlar yer maydonini turli shakllarga bo'lib yuzasini taxminan o'lchaydurlar, ammo doiraning sathini aniq belgilash yo'lini bilmaydurlar, — dedi.

Kechqurun baqqol uy egasi bilan yolg'iz qolganida:

— O'g'lingizning zehni qilichdek o'tkir, ba'zi savollarga javob topolmay qolayotirman, — dedi. — Bilganlarimni hamasini o'rgatdim. Kuni kecha: "Ulg'ayganingda massoh bo'lmoq istaysanmi?" — deb so'rasam, "Yo'q, tabib bo'lurman, ilmiy hikmat o'rganurman", — deb aytdi. Shul kichik yoshdan nimaga intilishini, kim bo'lishini biladur! Ilohim umri uzoq bo'lsin, maqsudiga yetsin.

O'g'li uchun faxrlangan otasi xursandligini yashirish uchun gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo'ldi.

— Ba'zi yoshlar borki, ular boshqalardan qolmaslik uchun madrasaga kirib o'qiydurlar. Tahsil ko'rmoqdan murod nima ekanligini, nimaga intilayotganlarini bilmaydurlar. Oqibatda, ilmning gardini ham yuqtirmay, madrasadan quruq chiqadurlar.

— Ammo o'g'lingiz ular toifasidan emas. Husayn mening o'rgatganlarim bilan cheklanib qolmay, kamol topmog'i zarur. Unga fikri munavvar bir muallim topib qo'ydim.

— Kim ekan ul?

— Yaqinda Buxoroga kelib qolgan yosh olim Abu Abdullo Notiliy. Forobiyni o'qib tushunadurgan, odobli, bilimdon yigit, — dedi Mahmud Massoh kulib, tavsiya qilayotgan muallimning fazilatlaridan zavqlangan kishidek.

— Mayli, boshlab keling, men gaplashib ko'ray.

[1] **Pargor** — sirkul.

Shu payt ko'chada bolalar bilan quvlashib yurib qizarib ketgan Husayn mehmonxonaga kirib otasi bilan ustodiga salom berdi.

— O'g'lim juda sho'x, o'yinqaroq, — dedi Abdullo ibn Hasan tez-tez nafas olayotgan Husaynga qarab. — Bir daqiqa tinch turganini ko'rmayman.

— Tani sog', serg'ayrat bola-da! — dedi ustod zavqlanib. Keyin shogirdiga yuzlandi. — Qani, o'g'lim, yonimga kelib o'ltir, ikki og'iz gapimni eshit. Avvalo, shuni aytib qo'yayki, senga boshqa muallim topib qo'ydim, ertaga boshlab kelgayman. Uni hurmat qilib, darsiga diqqat bilan quloq sol. Endi nasihatimni eshit. Kishi to'g'ri yo'l topgan bo'lsa, bor kuchini sarf qilib, orqaga qaytmasligi, umid ipini yo'qotmasligi kerak. Sen to'g'ri yo'lga tushib olgansan, nimani xohlaganingni bilursan, o'z kuchingga inonursan, olg'a intilsang, inshoolloh, o'z maqsadingga yetgaysan!

— Aytganingiz kelsin! — deb yubordi hayajonga kelgan ota qaltiragan ovoz bilan.

II

Ertasiga kechqurun Mahmud Massoh baland bo'yli, qomati kelishgan, ko'rinishdan yoshga o'xshasa ham, sochlariga oq oralagan, ko'zlari atrofini ajin bosgan bir odamni boshlab keldi.

— Abu Abdullo Notiliy, — dedi u salomlashganlaridan keyin yonidagi kishini ko'rsatib. — Kecha bu kishi to'g'risida gapirgan edim.

— Xush kelibsiz, safo kelibsiz, juda xursandman, — dedi uy egasi ular bilan ko'rishib. — Qani, ichkariga.

Mehmonxonaga kirib, yuzlariga fotiha tortganlaridan keyin oq yaktak kiygan, qizil belbog'li yosh yigit kirib dasturxon yozdi, barkashda non, turli noz-ne'matlar va uch kosa sharbat keltirib qo'ydi. Mezbon non ushata turib yosh xizmatkorga:

— Husaynni chaqirib yubor, — dedi.

Birozdan keyin tortinchoqlikni bilmaydigan Husayn kattalardek eshikdan salom berib kelib, quyiroqqa tiz cho'kdi.

— Vaalaykum assalom, — Notiliy boshiga baxmal do'ppi, egniga qisqa adras to'n kiygan, ikki beti qip-qizil, novchagina, qirra

burun yangi shogirdiga sinovchan nazar tashlab, uni o'z yoniga chaqirdi. So'ngra Husaynning otasiga yuzlanib dedi: — Men bul yigitchaning ta'rifini eshitdim, o'n yoshga to'lmasdan Qur'onni yodlab olib, keyin Iqlidus ta'limoti bilan tanishibdur. Hammasidan xabardorman. Uning zehni ravshan ekanligi ko'zlaridan aks etib turadur. Agar ruxsat etsangiz, darsni hoziroq boshlab yuborsam.

Mezbon hayron bo'lib, Massoh bilan ko'z urishtirib oldi-da, keyin o'zini qo'lga olib:

— Mayli, biz ham dars eshitaylik, — dedi.

Notiliy chaqqonlik bilan dasturxon ustidagi butun nonni sindirib, uning yoniga qo'ydi-da, burdasini ko'rsatib:

— Qaysi biri katta? — deb so'radi. Ikkilanishni bilmaydigan Husayn dadillik bilan bir chekkasi ushatilgan nonni ko'rsatib:

— Albatta, bu katta, — dedi, — bunisi kichik.

— Demak, har bir butun o'z bo'lagidan katta bo'lar ekan. Boshqacha ta'bir bilan aytsak, har narsaning bo'lagi o'sha narsadan kichik, — dedi yangi ustoz qomatini tik tutib. — Bu chinligiga shubha tug'ilmaydigan bilim. Uni isbot qilib o'tirishning hojati yo'q. Buni ilmi mantiqda ma'qulot deb ataydurlar. Yana bir misol: har qanday uch soni toq, to'rt soni juft, buning chinligiga shubha yo'q. Uchinchi bir o'lchovga teng bo'lgan ikki o'lchov bir-biriga teng va hokazo.

— Ma'qul, ma'qul, — dedi uy egasi bosh irg'atib.

— Ertaga Husaynni sinab ko'rgayman. Ma'qulot nima ekanligini tushundimi, yo'qmi — bilib olgayman.

— Tushundi, ko'zlaridan bilib turibman, — dedi Massoh kulib. — Mana ko'rasiz, ertaga u butun patirni ushatib, bir burdasini o'z oldiga qo'yganda, butunning bo'lakdan kattaligini isbot qilib bergay.

Davrada yengil kulgi ko'tarildi.

— Juda soz, — dedi Notiliy hazil aralash. — Siz ham darsimga diqqat ila quloq solganga o'xshaysiz. Ertaga kelsangiz, "Ma'qulot" nima, "Mahsulot" nima, bilib olursiz. Qariganda ham kishi mantiqqa rioya qilmog'i kerak.

— Rost, — dedi baqqol kulimsirab. — Ba'zan shunday cholar uchraydurki, na so'zlarida mantiq bor, na ishlarida, lekin men o'zimni ular qatoriga qo'shmayman.

— Siz yaxshi qarigansiz, es-hushingiz joyida, — deb uning gapini tasdiqladi uy egasi.

Notiliy xotin, bola-chaqasini uyda qoldirib, pul topish uchun shaharma-shahar kezib yuruvchi jahongashta faylasuflardan edi. U Buxoroda issiqqina joy topib, tuzukkina mansbga ilinganidan xursand bo'ldi. Yoshligidanoq arab tilini domlalari va otasidan o'rganib olgan, zehni o'tkir shogirdiga u o'z bilganlarini zavq-shavq bilan o'rgata boshladi.

Husayn bo'sh vaqtlarida otasining kitobxonasini titkilab, arab, fors tillaridagi adabiy asarlarni o'qib chiqar, ba'zan tabobatga doir kitoblarni mutolaa qilar edi.

Bir kuni Notiliy juma namozidan qaytayotganda allakim uning o'ng tomonidan kelib, asta yengidan tortdi. O'giriliб qarasa, yiltirab turgan olacha chopon kiygan, ko'k sallali Mahmud Massoh ekan. Ikkovlari hol-ahvol so'rashib yonma-yon ketaverdilar.

— Qalay, shogirdingiz sizni shoshirib qo'ymayotirmi? — deb so'radi baqqol so'z orasida.

— Shoshirish ham gapmi! — dedi Notiliy hazil aralash. — Odam bolasida bunday xotira va zakovat quvvati bo'ladur, deb sira o'ylamas edim. Bir marotaba o'qigan yoki eshitgan narsasi hofizasiga mixlanib qolur. Goh tabobatga, goh mantiqqa doir kitoblarni mutolaa etadur. Bir kuni Arastuning "Moba'dat-tabia"[1] degan kitobini topib, mutolaa etibdur-da, mag'zini chaqa olmabdur. Menga murojaat qilib, birinchi bobini tushuntirib berishni so'radi. Men qo'lidan kitobni olib, kechasi avloqda o'qib chiqdim, lekin hech narsa anglamadim. Arastuni o'qimoqqa hali yoshlik qilursan, deb kitobni qaytarib berdim. Natijada mening ustodlik sha'nimga dog' tushib, o'rtadan samimiyat ko'tarildi. Ularning uyidan ketmoq niyatidaman. So'rab-so'roqlab boshqa bir talaba topdim, badavlat odamning bolasi.

— Hay ottang, sizdek suhbatdoshdan ayriladurgan bo'ldiniz-da, — dedi baqqol peshanasi tirishgan yosh faylasufga qarab.

— Men ham shunga achinurman, Abdullo ibn Hasan saxovatli, xushmuomala odam edi...

[1] Moba'dat tabia — metafizika.

Kechqurun uy egasi bilan yolg'iz qolganlarida Notiliy Husaynning tabobatga doir kitoblarni o'qiyotgani, uni bir tabibga shogird qilib berish zaruriligini gapirdi-da, so'zining oxirida:

— Menga javob bersangiz, chunki bilgan narsalarimning hammasini unga o'rgatdim, xaltamdagi bilimlarni qoqib oldi u, — dedi qizarib-bo'zarib.

Uy egasi Notiliy o'z vazifasini ado etganini, endi uni ushlab turish foydasiz ekanligini fahmlagan edi. Shu sababdan gapni ko'p aylantirmay o'g'liga ustodlik qilib, fikriy rivojlanishiga yordam bergani uchun minnatdorlik bildirib, uni xursand qildi.

III

Bir kuni Abdullo ibn Hasan devondan ertaroq qaytib kelib ovqatlangandan keyin o'g'liga tezroq kiyinib, ko'chaga chiqishga tayyor bo'lib turishni buyurdi.

— Qayerga borurmiz? — deb so'radi Husayn.

— Tabib Abu Mansur Qamariyning uyiga. Sen to'g'ringda ul kishiga ikki og'iz gap aytib, o'g'limga ustozlik qiling, ul tib nazariyasi bilan biroz tanishgan, tibbi amaliyni o'rgansin, degan edim, iltimosimni qabul qilib, seni ko'rishni istadilar. O'zimni ham ul kishiga ko'rsatmoqchiman, muzam qochib turibdur.

Husayn shoshib-pishib oyog'iga mahsisini, egniga hoshiyali kaltagina adras to'nini kiydi. Ota bo'yi cho'zilib qolgan o'g'liga qarab, yuragida otalik mehri mavjlanayotganini sezsa-da, lekin qovog'ini uyib:

— Yur, ketdik, — dedi.

Buxoroning mashhur tabiblaridan Abu Mansurning mehmonxonasiga kirgan kishining dimog'iga quritilgan o'tlar, turli-tuman dorilarning hidi "gup" etib urilardi. Oyoq ostiga pati to'kilgan gilamlar, to'rga ko'rpacha emas, ayiq terisi tashlab qo'yilgan edi.

Taram-taram qizil yuzli xushsurat uy egasi bilan mehmon po'stak ustiga o'tirib, hol-ahvol so'rashar ekan, quyiroqdagi gilamga tiz cho'kkan Husayn tokchalarga terilgan rang-barang shishalar, quritib qo'yilgan o'tlar, giyohlardan ko'zlarini uzolmas edi.

— O'g'lingiz dori-darmonlarga qiziqar ekan, — dedi birozdan keyin uy egasi kulimsirab. — Ko'zlari sizning so'zlaringizni tasdiqlab turadur. Agar yonimda yurib tibbi amaliyni o'rgansa, kechalari "Jolinus" kitoblarini mutolaa qilsa, maqsadiga yetgay.

— Iloyo aytganingiz kelsin, — dedi mehmon xursand bo'lib.

Mezbon Husaynga qarab:

— O'g'lim, tokchadagi dori-darmonlarni ko'zdan kechirib chiq, senga ruxsat etaman, — dedi, keyin rangi siniqqan mehmonga yuzlandi. — Tobingiz qochib turganga o'xshaydur. Qani, yonboshlang, men tomiringizni ko'ray.

U jiyakli olabayroq ipak to'nining etaklarini tizzalari orasiga olib, po'stak ustiga yonboshlagan mehmonning tomirini ushlab, shiftga qaradi-da, Husaynga eshittirib, shunday dedi:

— Tomiringiz betartib, notekis urmoqda, bugun yo ovqatni ko'p yeb qo'ygansiz, yo birov sizni xafa qilgan, ammo bilurman, taomni oz yeysiz, ikkinchi taxminim to'g'ri bo'lsa kerak.

— Topdingiz, sohibi devon bugun menga nohaq ozor berdi. Na qilay, podshoning muqarrabiga e'tiroz bildirib bo'lurmi? Zamonaning zayli, nomunosib, nodon odamlar halol va to'g'ri odamlar ustiga minib olib, vaqti-vaqti bilan jilovni qattiq tortib qo'yadurlar.

— Kuchingiz toliqqan, asablaringiz bo'shashgan, dam olishga muhtojsiz. Agar ilojini topsangiz, saroydagi ishingizni tark eting.

— Farzandlarim yosh. Hech bo'lmasa mana bu o'g'lim sizning hunaringizni egallab olsaydi. Hamma umidim shundan.

— Rost, bul o'g'lingiz serg'ayrat va zehnli ekanligi yurish-turishi, vajohatidan bilinib turibdur. Kichigi ham shundaymi?

Husaynning dadasi ma'yus holda, bilinar-bilinmas bosh chayqab qo'ydi. "Zehni pastroq, yuvosh bola" demoqchi edi-yu, lekin:

— Bir ota-onadan har xil bola tug'ilar ekan, — deb javob qildi.

Qamariy gapni aylantirib o'tirmay maqsadga ko'chdi.

— Boshingiz omon bo'lsa, shul o'g'lingizdan baraka topgaysiz. Men uni yo'lga solib yuborishni o'z ustimga olurman. Erta, yo'q, indinga sizni yo'qlab borurman, qolgan gapni o'shanda aytgayman.

* * *

Abu Mansur shogirdining uyiga kelganda u ko'chada o'ynab yurar edi.

— Qani yosh Jolinus? — deb so'radi tabib, uni hurmat bilan qarshi olib, mehmonxonaga taklif etgan uy egasiga.

— Ko'cha-ko'yda o'ynab yurgan chiqar. Yerga ursa, osmonga sapchiydur. O'n to'rtga qadam qo'ysa-da, sho'xligi qolmagan.

— Sho'xlik g'ayrat va shijoat belgisi. Yuvosh boladan qo'rqish kerak, katta bo'lganda ishyoqmas bo'lishi mumkin, — dedi Qamariy kulimsirab.

Mehmon bilan mezbon ovqatlanib, sharbat ichib, u yoqdan-bu yoqdan gaplashib o'tirganlarida Husayn salom berib kirib keldi-da, quyiroqqa cho'kkalab o'tirdi.

— Vaalaykum assalom, ishlaringiz qalay, "Moba'dat tabia"ni mutolaa qilib turibsizmi?

— Yo'q, taqsir. Tushunmagandan keyin na qilayin o'qib?

— To'g'ri, hozircha Arastuni qo'yib, Jolinus asarlarini o'qiy boshlash kerak. Endi bolalik bo'stonidan hatlab o'tib, o'spirinlik davriga qadam qo'ygansiz, hayot uchun kerakli kasb-hunar orttirmoq lozim. Tibbi amaliyni o'rganib olmoq kerak, ilmi hikmat sizdan qochib qutulmas. Xo'sh, endi mening yonimga keling-chi, nabzingizni ko'ray.

U oldiga kelib cho'k tushgan shogirdining aftiga qarab jilmaydi-da, tomirini ushlab ko'rib:

— Sovuq suvda cho'milibsiz-u, lekin bir-ikki sho'ng'ib, badaningizni ishqalab, quruqlikka chiqibsiz-da, darhol kiyimingizni kiyib olibsiz, — dedi.

— Iye, qayoqdan bildingiz? Jo'yi Muliyonda cho'milayotganimni ko'rdingizmi?

— Kelganlariga ancha vaqt bo'ldi, qayoqdan ko'radurlar sening cho'milayotganingni? — dedi otasi hayratlanganidan ko'zlari chaqnab ketgan Husaynga qarab. — Hammasini nabzingizdan bilgan bo'lsalar kerak.

— Rost, — dedi Qamariy uning gapini tasdiqlab. — Sovuq suvda uzoq cho'milgan kishining tomir urishi zaiflashadur, agar badanga sovuq o'tmagan bo'lsa — kuchayadur, lekin tezlashmaydur.

Husayn tomir urishidan odamning ichki holatini biladigan yangi ustodiga hurmat aralash hayrat bilan qarab, uning kasb-hunarini egallab olishga ahd qildi. Ma'rifat darvozasidan ilm-fanning tikanli gullar bilan qoplangan chamanzori ko'ziga tashlanib turardi.

KITOBGA IXLOS

Yarim kecha, osmonda charaqlagan yulduzlar mast uyquda yotgan yerga nazar tashlab, bir-birlariga ko'z qisib qo'yishadi. Kunduzi bozorchilarning g'ala-g'ovuridan charchagan Buxoro sukunat qo'ynida orom olmoqda. Ahyon-ahyonda uzoqlardan dovul tovushi eshitiladi: tun posbonlari uyqudagi shaharni qo'riqlab yuradilar.

Shimol tomonga qaratib solingan baland bir ayvonning o'rtasida, xontaxta ustida miltillab yongan shamning sarg'ish nuri ostida o'n yetti-o'n sakkiz yoshdagi bir yigitcha mutolaa qilib o'tiradi. Uning qotmadan kelgan tiniq yuzida, katta-katta ko'zlarida zakovat nuri porlaydi. Nazari satrlar oralab yo'rg'alarkan, yer ostidan xazina topgan kishidek qo'llari asta titraydi, yuziga g'alati tabassum yuguradi, keng va yorqin peshanasida marjondek ter paydo bo'ladi. U butun koinotni unutgan, butun fikri satrlar orasiga yashiringan sirlarni topish tashvishida.

Ayvonning chekkasida yotgan Sitorabonu bir uyquni olib, o'rnidan turib o'tirdi, o'g'lining haligacha yotmaganini ko'rib:

— Hoy o'g'lim, shu mahalgacha o'tiribsanmu? Yosh joningga muncha javr qilmasang? Yot hozir, — dedi.

— Onajon, yana biroz o'tirishga ijozat bering. Juda ajoyib kitob ekan.

— Qo'yaver, mutolaa qilaversin, — degan tovush eshitildi darichalari lang ochiq xona ichidan. — Kishi shavq-zavq bilan ishlasa, hech toliqmagay... — Husaynning otasi shu gapni aytdi-yu, yo'tali tutib qoldi. O'g'li tayyorlab bergan doridan ichib tinchidi-da, boshini yostiqqa qo'ydi. Tabibi hoziq deb nom chiqargan o'g'lidan u xursand edi.

Qirqlarga borib qolgan bo'lsa-da, tarovatini yo'qotmagan Sitorabonu erining gapidan qanoat hosil qilib o'g'lidan so'radi:

— Kecha bir tangaga sotib olgan kitobingmi?

— Ha, buni qarangki, shu mahalgacha boshimni qotirib yurgan muammolarni osonlikcha hal qilib berdi-ya bul kitob.

Onasi uning gapiga yaxshi tushunmagan bo'lsa ham, riyozat chekib ilm o'rganayotgan o'g'lining yuksak martabaga yaqinlashib qolganini ichki his bilan angladi va mayin jilmayib, boshini yostiqqa qo'ydi.

Husayn har kuni yarim kechagacha o'tirib, yunon va arab hukamolarining tib va falsafaga doir kitoblarini o'qir edi. Uyqusi kelib, ko'ziga "qum tiqilganda" allaqanday bir o'tni qaynatib tayyorlangan doridan bir ho'plam ichar, ko'zi yana ochilib, zehni ravshanlashardi. Bugun esa onasining so'zini qoldirmay, o'sha dorisidan ichmadi. Kelgan joyiga xatcho'p solib, kitobni tokchaga olib qo'ydi-da, o'rniga kirib yotdi.

Husayn shu bugun ertalab sahof bozorni[1] aylanib yurganda chodra ichidan qo'lini chiqarib, kitob ushlab turgan bir kampirga ko'zi tushib qolgan edi.

— Onajon, kitobingizni soturmisiz?

— Ha, juda yaxshi kitob.

Yigitcha uning qo'lidan kitobni olib, varaqlay boshladi. Bu — Forobiyning "Fasusi al-hikam" degan kitobi bo'lib, Arastuning "Moba'dat tabia" degan kitobiga yozgan sharhi edi. Husayn shu mahalgacha "Moba'dat tabia"ni bir necha marotaba o'qigan bo'lsa ham, sira tushunmagan edi. Mana endi uning kalitini topdi. Forobiy ulug' yunon hakimining juda chigal falsafiy mulohazalari mag'zini chaqib bergan edi.

* * *

Somoniylar shajarasining so'nggi butoqlaridan biri bo'lgan podsho Nuh binni Mansur kasalmand odam, Buxoroning mashhur tabiblari uni davolash bilan ovora edilar. Biroq hech birining bergan dori-darmoni tojdor bemorga kor qilmas, dardini yengillatmas edi.

[1] **Sahof bozori** — kitob bozori.

Saroy o'lik chiqqan uyga o'xshaydi. A'yonlar, saroy amaldorlari, soqchilar oyoq uchida yurardilar, bir-birlari bilan shivirlashib gaplashardilar.

Saroy vaziri Husaynning qo'lidan tutib qilichlarini yalang'ochlab yelkalariga qo'yib turgan soqchilar orasidan olib o'tdi va eng ichkaridagi bir xona oldiga olib borib to'xtatdi. Eshikning ikki tomonida chiroyli ikki turkman yigit soqchilik qilib turardi. Vazir barmog'i bilan shu yerda turishni buyurib, o'zi xona ichiga kirib ketdi. Oradan besh-o'n daqiqa o'tgach, eshik ochilib, yosh hakimni ichkariga taklif etdilar. Uzun, rang-barang oynali darchadan xira nur tushib turgan, shiftlari muzayyan, devorlari o'ymakor xonaga kirib, ibn Sino to'rdagi ipak to'shak ustida yostiqqa suyanib o'tirgan rangpar kishiga ta'zim qildi. So'ngra uning ishorasi bilan to'shak yoniga borib, cho'kka tushdi. Yosh hakimning dadil boqishidan, tip-tiniq nurli yuzidan, katta-katta ko'zlaridan kamtarligi va shu bilan birga, o'ziga ishonganligi bilinib turardi.

Nuh binni Mansur o'z huzurida ulug' iste'dod egasi bo'lgan bir hakim o'tirganini payqadi va uning sha'niga munosib muomala qilib hol-ahvol so'radi. Ibn Sino o'zini bardam tutib, uning savollariga shoshmay javob berdi. U podshoning kasali nima ekanligini tabiblardan eshitgan bo'lsa-da, o'z hamkasblarining odatiga muvofiq, keskin harakat bilan tojdor bemorning tomirini ushlab ko'rdi. U o'z oldida Movarounnahrning podshosi emas, balki oddiy kasal kishi yotgandek, uning sarg'aygan yuziga tikilar, tilini ko'rsatishini so'rar, podshoning sha'niga nomunosib savollar berardi (bir necha xil kasali bo'lgan binni Mansur "bosir" kasaliga ham mubtalo edi). Saroy vaziri podsho huzurida o'zini sokin va betakalluf tutgan hakimni birinchi marotaba ko'rishi edi.

Abu Ali podshoning javobini tinglab, peshanasini ushlaganicha o'ylab qoldi. Keyin achchiq ovqat, ichkilikdan parhez qilib, ko'proq shirguruch yeb, ho'l meva iste'mol qilishni tayinlab o'rnidan turdi.

— Zoti oliylari, faqirga ijozat bersinlar, kechqurun dori tayyorlab yuborgayman. Ko'proq tar meva iste'mol qilsinlar, ammo

Buxoro mevasi janoblariga zararlidir. Mevani Samarqanddin keltirib yesinlar, — ziyrak tabib o'zining xulq-atvori saroy vazirida noshoyista ta'sir qoldirganini payqagan edi. — Agar hurmat shartlarini joyiga keltirmagan bo'lsam, afv etgaylar.

Binni Mansur bilinar-bilinmas jilmayish bilan undan xafa bo'lmaganini bildirgandek bo'ldi. Yosh hakim ta'zim qilib, orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Bir haftadan keyin saroyga kelgan ibn Sino dori-darmonlari bemorga yaxshi ta'sir qilganini ko'rdi. Rangi tozargan Nuh binni Mansur uni ochiq chehra bilan qarshi oldi va yosh tabibdan behad minnatdor bo'lib, nima tilasa berishga tayyor ekanini bildirdi. Yosh tabib uning oldiga tiz cho'kib, imkon xorijida bo'lgan bir narsani so'ragandek past tovush bilan:

— Menga saroy kitobxonasida mutolaa qilmoqqa ijozat bersalar bas, — dedi. — Pul kerak emas.

— Barakalla! Umrimda puldan ilm-urfonni yuqori qo'yaturgan odamni birinchi ko'rishim, — podsho iljayib uning iltimosini ajon-u dil qabul qilganini izhor etdi. So'ngra saroy vaziriga qarab dedi: — Kitobdorga aytib qo'ying, Husaynga har kun kitobxonada mashg'ulot o'tkazmoqqa ijozat berdim.

Vazir indamay bosh egib qo'ydi.

* * *

X asrda butun O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonda tengi bo'lmagan Buxoro kutubxonasida qadimgi Yunoniston, Hindiston hukamolarining arab tiliga tarjima qilingan asarlari saqlanardi.

Oppoq soqoli ko'ksiga tushgan kitobdor ibn Sinoni mamnunlik bilan qarshi olib, o'z qo'l ostidagi boyliklar bilan tanishtirib chiqdi. Har bir hujrada bir fanga doir kitoblar saqlanar, qator-qator sandiqlar kitob bilan liq to'la edi. Kitobdor har bir hujraning qulfini ochib, bunda qanday kitoblar borligini aytar edi. U sandiq ochib nodir qo'lyozma asarlarni ko'rsatar ekan, ibn Sinoning ko'zlari chaqnab ketar edi.

— Qadrdon ota, men endi sizga har kun mehmon bo'lg'ayman, — dedi u hayajonlanib.

— Mamnuniyat bilan, kitobxonaning to'ri sizniki. Janoblariga hech bir buxorolikning qo'li tegmagan kitoblarni topib bergayman.

* * *

Jome peshtoqi ostidagi marmar supa ustida ikki kishi gaplashib turardi. Ularning biri — mosh-guruch soqolli, boshiga misqoli salla o'ragan o'rta yoshli kishi. Ikkinchisi esa oppoq soqoli ko'kragiga tushgan, quyuq qoshlari qordek oqargan chol. Uning peshanasi tirishgan, ko'zlari o'qrayib qaraydi.

— Taqsir, qarigan chog'ingizda dunyoning g'amini yeb na qilursiz? — dedi o'rta yoshli kishi. — Hamma ishni bizga qo'yavering, o'z joningizning rohatidan bo'lak narsani o'ylamang.

— Xo'p gapirasiz-da, mullo Sadriddin, dunyoning buzilib ketayotganini ko'rganingdan keyin ko'ngil qanday tinch bo'lsin. Axir, ko'rib turibsiz, yoshlar qariyalarni hurmat qilmay qo'ydi, o'rtadan sharm-hayo ko'tarildi, — har bir davrning miyasi aynib qolgan chollariga xos shikoyatdan so'ng Mag'oqiattoron masjidining imomi chuqur xo'rsinib qo'ydi.

— Madrasalarda ilmi hol[1] o'gay o'g'il holatiga tushib qoldi. Yoshlar masoil diniya emas, hikmat, mantiq, ilmi riyoziy va hokazolarga qiziqadurlar. Lavhlari ustida Qur'on emas, mashoyixlarning kitoblari emas, balki majusiy olimlarning kitoblarini ko'rasiz. Afsuski, saroy ahlida ham dinga rag'bat qolmadi. Saroy kitobxonasi yoshlarning miyasini zaharlaydurgan makonga aylandi. Koshki edi unga o't tushib, kuli ko'kka sovurilsa...

— Sabr qilsinlar, taqsirim, hammasi siz aytgandek bo'lg'usidir. Sharqdan kelmoqda bo'lgan to'fon Nuhning taxt-saltanatini olib ketajakdir. Qoraburg'oxon boshliq ko'chmanchilar o'rdusi hozir Samarqand bo'sag'asida. Qoraxoniylar yaqindagina dini islomni qabul qilganliklari uchun dinga qattiq berilganlar, somoniylarning esa e'tiqodi susaygan. Ko'chmanchilar garchi o'z jinsimizdan bo'lmasalar ham, e'tiqod jihatidan bizga yaqindirlar.

— Iloyo, ularning qo'li baland bo'lsin.

[1] **Ilmi hol** — diniy ilmlarning bir oqimi.

Shu paytda kitobxonadan xushnud bo'lib qaytayotgan ibn Sino bu ikki mutaassib din peshvosiga duch kelib qolib, qo'ng'iroqday tovush bilan:

— Marhabo, to'tiy mullo! — deb salom berdi.

— Marhabo! — deb javob qaytardi mulla Sadriddin. — Ha, mulla, yo'l bo'lsin?

— Uyga.

— Eshitdik, sizga kitobxona eshigi ochilibdur.

— Ha, ilm toliblari uchun ma'rifat eshigi doim ochiq.

— Kitobxona — ibodatxona-yu majusiy olimlar siz uchun rahnamo bo'lib qoldi, shekilli.

— Ilmni Chin-Mochinga borib o'rgansang ham joizdir, deganlar Rasuli akram. Kitobxona men uchun muqaddas joydur. Kitob haqiqatni o'rganmoq va tabiat sirlarini anglamoqqa yordam beradur.

— Menimcha, majusiy olimlarning yozgan kitoblari kishi ko'nglida shubha ilonini uyg'otib, e'tiqodni susaytirsa kerak...

— Men uchun shubhadek mustahkam qo'rg'on yo'q, to'tiy mullo, chunki u johilligi tufayli o'zini dono hisoblagan shaxslar makridan saqlaydur, — dedi yosh olim mullaning so'zini bo'lib.

Mulla Sadriddin uning gapiga yaxshi tushunolmay, labini burushtirib qo'ydi.

— Eng oldin ilmi holni o'rganib, e'tiqodingizni mustahkamlab oling, ilmi qolni keyin o'rgansangiz ham bo'ladur, aks holda, kofir bo'lib ketmoq hech gap emas.

— Ba'zi nodonlar dono kishilarni kofir deb hisoblaydurlar.

— Tavba, bu mahmadonaning gapini qarang. Besh-o'n kitobni o'qib, o'zini dono deb bilur. Iloyo, kitobxonaga o't tushib ketsin, sen juvonmarg bo'l! — dedi Mag'oqiattoron domla imomi.

— Men o'n-o'n besh kitob emas, yuzlab kitobni o'qib, mazmunini miyamga joylab oldim, — dedi ibn Sino boshini g'oz ko'tarib. — Mabodo kitobxonaga o't tushib ketgudek bo'lsa, undagi kitoblarni qaytadan yozib, sandiqlarni yana to'ldirmoqqa qodirdurman.

Ibn Sino bosh egib mullalar bilan xayrlashdi-da, yana yo'lga tushdi. Nariroq borgandan keyin jahl ustida aytgan gaplariga pushaymon bo'ldi: "Yoshlik g'ururi hali boshimdan ketmaganga

o'xshaydi, — deb g'ijindi u. — Menga maqtanishni kim qo'yibdi! Yuzta kitob o'qigan bilan olim bo'lib qoladimi kishi? Tavba, minba'd bunday qiziqqon bo'lmaslik kerak. Hozirgi zamonda tiling qanchalik o'tkir bo'lsa, shunchalik keskir qilich bilan kesiladi!"

Mulla Sadriddin yosh hakimning orqasidan qarab sukutga ketdi. Keyin boshini ko'tarib, domla imomdan:

— Shumtakaning: "Mabodo kitobxonaga o't tushib ketsa..." deganini eshitdingiz-a? — deb so'radi.

— Ha, bir emas, ikki qulog'im bilan eshitdim.

— Agar o'shal majusiylar kitoblari yig'ilgan makonga o't tushib ketsa-yu sizni guvohlikka chaqirtirsalar, eshitganingizni tasdiqlashdan bosh tortmaysizmi?

— Yo'q.

— Bo'ldi, qolgan ishni menga qo'yib bering!

Oradan ko'p o'tmay, somoniylar tarixida ketma-ket ikki fojiali voqea ro'y berdi. Qorabug'roxon boshchiligida sharqdan bosib kelayotgan ko'chmanchilar Samarqand yaqinida Ayach boshchiligidagi qo'shinni tor-mor keltirib, o'zini asir qilib oldilar va Samarqandni ishg'ol etib, yurishni davom ettirdilar. Nuh binni Mansur tomonidan yuborilgan sipohsolar[1] Foiq xiyonat qilib, dushman tomoniga o'tdi. Shahar aholisi Buxoro devorlari ostiga kelib qolgan istilochilar bilan jang qila boshladi.

Ibn Sino o'qishini yig'ishtirib qo'yib, boshqa jarrohlar qatorida qilich zarbidan, o'q zahmidan azob tortayotgan jangchilarga yordam berishga kirishdi. Arkning ro'parasidagi ko'hna saroy yaradorlarga to'lib ketgandi. Yosh hakim kechgacha qilich yarasiga qov qo'yib, malham surtish, badanga sanchilgan o'qni olib, yarasini bog'lab qo'yish bilan ovora bo'ldi. U horib-charchab dam olish uchun o'tirmoqchi bo'lganda, soniga o'q sanchilib qolgan bir kosib yigitni olib keldilar. Ibn Sino yechib tashlagan qonli yaktagini yana kiyib, qo'lida nashtar bilan yaradorning tepasiga keldi. O'qning uchi chiqib qolsa, uni sug'urib olish qiyin emasdi, ammo uchi chiqmay qolgan o'qni olish amrimahol.

Ibn Sino o'ylanqirab turib dedi:

— Behush dori berib, yorib olishga to'g'ri keladur.

[1] **Sipohsolar** — askarboshi.

— Yo'q, — dedi rangi sarg'ayib ketgan bo'lsa-da, o'zini bardam tutishga uringan yarador. — Qirqqa chidagan qirq birga ham chidagay.

— Barakalla, azamat yigit ekansiz. Sizga azob bermay, chiqarib olg'ayman. Meni tanirsiz-a?

— Ha, amirni davolagan atoqli hakimsiz. Sizga ishonadurmen.

— Juda soz, — dedi ibn Sino uning qanshariga qattiq tikilib turib. — O'qni xuddi xamirdan qil sug'urgandek sug'urib olgaymen, sezmay ham qolursiz.

Yosh hakim uning son go'shtini ikki pallaga ajratib o'qni oldi, so'ngra malham qo'yib, yopishtirdi-da, tikib, bog'lab qo'ydi. Tashrih vaqtida tishini tishiga bosib yotgan yigitdan sado chiqmadi.

— Barakalla, azamat ekansiz, koshki edi hamma sizdek mard bo'lsa!

Yosh hakim yigitga kulib boqdi-da, qo'lining qonini yuvib, dam olgani ketdi.

* * *

Sipohsolar Foiqning xiyonati qimmatga tushgan edi. Muntazam qo'shindan ajrab, zaiflashib qolgan Buxoro sonsiz-sanoqsiz ko'chmanchilar tomonidan bosib olindi. Qorabug'roxon shaharni ishg'ol etib, saroydagi boyliklarni qo'lga kiritdi, o'z askarlariga bozorni talatdi, ko'p imoratlarga o't tushib ketdi, 922-yil may oyida achchiq tutun shaharni o'rab oldi. O'z mol-dunyosini saqlab qolmoqchi bo'lganda qilich yeb yiqilgan kishilarning faryodi, asir qilib olib ketilayotgan ayollarning dodi, quturgan dushman askarlarining suroni quloqlarni qomatga keltirardi. Uch oy ahvol shu zaylda davom etdi.

Ibn Sino esa alamini kitobdan olar, yarim tungacha o'tirib mutolaa qilar, yozar edi. Bir kun kechasi yotgisi kelib, ko'ziga qum tiqila boshlaganda uyqu qochiradigan dorisini ichib, hovliga tushdi. Odati bo'yicha, osmonga qarab, Hulkar yulduzi qayerga kelganini bilmoqchi bo'ldi, shu payt Registon tomon qizarib, osmonga uchqunlar sachrab turganini sezdi. O'qtin-o'qtin olovning qip-qizil tillari qorong'i osmonni yalar, uzoqdan qiy-chuv ovozlar

eshitilardi. Yosh hakimning yuragi bir falokatni sezgandek dukullab urib ketdi. Darrov kavush-mahsisini, choponini kiyib, onasini uyg'otdi.

— Onajon, Registon maydoni yaqinida bir uyga o't ketganga o'xshaydur, borib bilib kelay, qo'limdan kelganicha o't o'chirishga yordam beray.

— E, qo'ysang-chi, o'g'lim. Sensiz ham o't o'chiruvchilar topilib qolar.

— Yo'q, onajon. Bormasam bo'lmaydur. Uyqum ham uchib ketdi, — yosh yigit ko'ngliga kelgan shubhani onasiga aytishdan ham qo'rqardi: "Bordi-yu, agar... yo'q, yo'q, bu mumkin emas. Necha yuz yillab to'plangan ilm-fan xazinasining kuli ko'kka sovurilishi mumkin emas".

Sitorabonu uning aftiga qarab ijozat bermaslikning iloji yo'qligini angladi.

— Mayli, borsang bora qol, ammo kechikma...

Ibn Sino halloslab Registon maydoniga kelganda ko'nglini ezayotgan shubha haqiqat bo'lib chiqqanini angladi. Yuzlab kishilar qo'lma-qo'l chelak uzatib maydon o'rtasidagi hovuzdan olingan suv bilan kitobxonaga tushgan o'tni o'chirishga urinar edilar. Madrasa talabalarining, tevarak-atrofdagi mahalla ahlining jonbozligiga qaramay, yong'in borgan sari kuchayar, qimmatli kitoblarni ajdahodek yutayotgan alanga quturib, hujra eshigidan tutun aralash chiqib turardi. Chelaklab sepilgan suv unga kor qilmas, aksincha, moydek ta'sir qilayotgandek edi. Ba'zilar mehnatlari bekorga ketayotganini ko'rib, qo'llarini qo'ltiqqa urdilar. Odamlar orasida asrlardan beri to'plangan boylikning kulga aylanib, osmonga uchishidan zavqlanib iljayayotgan sallali kishilarni ko'rish mumkin edi.

Ibn Sino boshda chelaklab suv tashib, o't o'chirayotganlarga qarashib turdi. Keyin ko'pchilikning hafsalasi pir bo'lganini ko'rib, g'azabiga chidolmay, olov chiqib turgan bir hujraga o'zini urdi. Bunda tibga doir kitoblar saqlanardi. Odamlar uni tutib qolmadilar. Bir necha daqiqadan keyin, etagining yonayotganiga parvo qilmay, bir necha kitobni quchoqlab olib chiqdi. Odamlar yugurib borib, uni chopon bilan o'rab oldilar, bo'lmasa ustidagi

kiyimi bilan o'zi ham yonib ketishi turgan gap edi. Ibn Sino yana o'zini o'tga urmoqchi edi, bir necha qo'l uni mahkam ushlab qoldi. Shu orada allakim: "Hoy yigitcha, hushingizni yig'ib oling. Ortiq urinishning foydasi yo'q!" — dedi. Yosh hakim alanglab, tovush eshitilgan tarafga qaradi, chap tomonida ko'zlari cho'kkan keksa kitobdor turardi.

— Bu qanday falokat, qanday mudhish falokat! — dedi ibn Sino yig'lamoqdan beri bo'lib.

Chol xo'rsinib qo'ydi:

— Ha, baxtsizlik, ammo bilib qo'yingki, dunyoviy ilm dushmanlari ma'rifat chirog'ini o'chirolmaydilar. Ular ota-bobolardan qolgan nodir kitoblarni yondirib, kulga aylantirib yuborsalar-da, zakovat nurini so'ndirolmaydilar.

Shuncha urinib yong'inni so'ndirolmagan odamlar birin-ketin uy-uylariga jo'nashdi. Olovning ozig'i kamaygan sari hovuri pasayardi. To'da-to'da kullar ustini qoplagan tutun kuyib shakli qolgan qog'oz parchalari bilan shamolda asta tebranarkan, qurum isi har yoqqa taralardi.

Ibn Sino xuddi yaqin bir kishisini ko'mib, qabristondan qaytgan kishidek boshini quyi solib, yarim-yorti kuygan bir necha kitobni qo'ltiqlagan holda uyiga jo'nadi...

Oradan ikki oycha vaqt o'tdi. Shu vaqtgacha o'zini qo'yarga joy topolmay yurgan ibn Sino bir kuni uyiga xursand bo'lib keldi.

— Suyunchi bering, onajon. Qorabug'roxon qo'shini Buxoroni tashlab chiqib ketmoqda. Qo'liga yarog' olgan Buxoro xalqi turkmanlar bilan birlikda ularni haydab chiqarmoqda, talab olingan mollarini qaytarib olmoqda.

Karmana tomon chekinayotgan istilochilarning orqada qolgan qismi bilan buxoroliklar o'rtasida bo'layotgan jangning suroni uzoqdan sal-pal eshitilib turardi. Sitorabonuning rangi o'chib:

— Oxiri baxayr bo'lsin! — deb qo'ydi.

Bir necha kundan keyin "tayyorga ayyor" bo'lib Amul (Chorjo'y)dan Nuh binni Mansur Buxoroga kirib keldi. Hayot yana avvalgi iziga tushgandek edi. Yana savdogarlar do'konlarini ochib, kosiblar dastgohlarini yurgizib yubordilar. Biroq vazirlar o'rtasida-

gi nifoq, ayrim viloyat hokimlarining isyoni, ko'chmanchilarning hujumi somoniylar sulolasi qurgan imoratni kundan kunga yemirmoqda edi. Keksa Nuh vazirlarini bir-biri bilan yarashtirolmay, mamlakatda tinchlik o'rnatolmay, dog'-hasratda o'lib ketdi. Uning o'g'li Abdulhoris Mansur ham bebosh vazirlar, isyonchi hokimlarni jilovlay olmadi. Qorabug'roxonning o'g'li Nasrga qarshi yuborilgan sarkarda Yanoltakin uning tomoniga o'tib ketdi. Somoniylar davlati xuddi ichi qurtlagan olmadek uzilib, yana istilochilar qo'liga tushdi[1].

Buxoro ko'chmanchilar qo'liga o'tgandan keyin mutaassib mullolarning dasti daroz bo'lib, falsafa va dunyoviy ilm-fan ahllari quvg'in ostiga tushdi. Ibn Sino qora quzg'unlar uyasiga aylangan shaharni tark etib, o'ziga ma'rifatparvar bir hokim, homiy izlash to'g'risida o'ylay boshladi. Lekin uning otasi vafot etib, onasi beva qolgan, uni tashlab ketishga ko'zi qiymas edi. Sochlariga oq oralab, ko'zlarining atrofini ajin bosgan Sitorabonu o'g'lining qanday ahvolga tushib qolganini, nima uchun peshanasini tirishtirib yurganini yaxshi bilar edi. Bir kuni kechki ovqatdan keyin sharbat ichib, dam olib o'tirganlarida, rangi biroz siniqqan Husaynga qarab:

— O'g'lim, nima to'g'risida bosh qotirayotganingni bilib turibman, — dedi xo'rsinib. — O'z shahring o'zingga torlik qilib qoldi. Xorazmlik qo'shnimiz Abu Bakr bobo xotiniga: "Husayn zudlik bilan Buxorodan chiqib ketsin, mullolar uni kofir deb e'lon qilib, boshini yeyishlari mumkin, chiqib ayt", — debdur. Shu gapni eshitdim-u, kechasi bilan uxlay olmay chiqdim. Abu Bakr Barakiy o'qimishli odam, ulamolarning sirri asroridan boxabar, bir narsani bilmay gapirmaydur. Jon bolam, boshim omon bo'lsin desang, shahardan chiqib ket, o'zingga tinchgina bir joy top. Menga xat yozib tursang, shuning o'zi kifoya, sening eson-omon yurganingni bilib, tinchgina umr kechiraman.

Onasining gapi qay tomonga og'ishni bilmay turgan tarozuning bir pallasiga qo'yilgan toshdek ta'sir ko'rsatdi. Husayn qat'iy qarorga kelib, qaddini ko'tardi-da:

[1] Qo'rabug'roxonning o'g'li 999-yil 25-oktabr, dushanba kuni Buxoroga kirib keldi.

— Mayli, sizning aytganingiz bo'lsin. Bul yerda qolsam, bir kun meni kofirga chiqarib, oyog'imga bolta uradurlar. Men erkin o'ylab, erkin yashashga o'rganib qolganman. Menga oq fotiha bering, safar otini egarlab yo'lga chiqay! Siz ham tinch bo'ling, men ham.

— Qayerga borsang ham Bir-u bor seni o'z panohida asrasin, ishlaringga rivoj berib, falokatlardan seni asrasin... Ammo xat yozib turishni unutma!

Ibn Sino onasi bilan xayrlashar ekan, tokchadan bir kitobni olib o'pdi-da, uni peshanasiga tegizib, so'ngra onasining qo'liga tutqazdi. Bu — Forobiyning "Fasusi al-hikam" degan kitobi edi. — Onajon, shu kitobni biror serijtihod tolibul ilmga sovg'a qilarsiz.

— Xo'p. Sening bosh-ko'zingdan sadaqa bo'lsin bul kitob. Xayr, qayerda bo'lsang ham savdogarlardan xat berib yuborib, sihat-salomatligingni bildirib tur.

Ibn Sino orqasiga qarashdan qo'rqib, darvozadan chiqdi-da, Gurganj tomon yo'l oldi.

XORAZM BO'SAG'ASIDA

Abu Ali Gurganj tomon yo'l olgan karvon bilan birga ko'mko'k dalalar, qo'ylar o'tlab yurgan sarg'imtir cho'llar, qotib qolgan dengiz to'lqinlariga o'xshagan qumtepalar oshib, Xorazm poytaxtiga yetib keldi, karvonsaroyga tushib, nimqorong'i hujrada dam oldi. Ertasiga yuvinib-taranib, egniga olacha ipak to'nni kiyib oldi-da, xuddi fuqaho qonunshunoslardek sallasining pechini tomog'ining tagidan o'tkazib, o'ng yelkasiga tashladi.

Xorazmshohning vaziri, qonunshunos olim Abdulhusayn as-Suhayliy muqovalangan qalin va uzun daftarlarini ko'rib chiqayotganda mulozimi ta'zim bilan kirib, buxorolik mashhur tabib Abu Ali ibn Sino uning huzuriga kirmoqchi ekanini bildirdi. Suhayliy daftarlarini yig'ishtirib:

— Shunday ulug' odam eshik oldida uzoq kutib qolmasin, ayting, kiraversin, — dedi sallasining pechini o'ng yelkasiga tashlab.

Yuzi cho'l shamolidan biroz qoraygan, qotma, sog'lom gavdali, qirra burun Abu Ali eshikdan kirib salom berdi.

— Vaalaykum assalom. Fozil va olim kishilar to'plangan poytaxtimizga qadam qo'yishingiz bilan sizni qutlaymiz, — dedi vazir arab tilida. — Bayt ul-hikmat sandig'idagi javohirlarga qimmatbaho dur-u gavharning kelib qo'shilishidan behad mamnunmiz...

Yosh olim uning tumtaroqli nutqiga sabr bilan quloq solib:

— Siz kabi ulug' odam mendek faqir va haqir musofirni mamnunlik bilan kutib olgani uchun boshim osmonga yetdi, — dedi sof arab tilida. — Riyozat bo'yicha tengi yo'q olim Abu Nasr Iroq, ilmi hayatda qadimgi yunon olimlari darajasiga erishgan Abu Rayhon Beruniy, mashhur tabib Abulxayr Xammor, faylasuf Abu Sahl Masihiy va boshqalar qatoriga kelib qo'shilganim uchun o'zimni baxtiyor hisoblayman...

— Juda soz. Men farmon beraman, shahar hokimi siz uchun yaxshi bir uyni jihozlab bergay, — dedi vazir suhbat oxirida. — Bugun dam oling, ertaga juma kuni olimlar majlisida uchrashurmiz.

Abu Ali hammadan burun xristian dinidagi kamtar, xushmuomala Masihiy bilan do'stlashib oldi. Ikkovi ham Arastuning "Mo ba'dat tabia" degan asarini yod bilar, yunon falsafasi to'g'risidagi fikrlari bir-biriga mos kelar edi. Ilmi hayatda Batlimus darajasiga erishgan tabiatshunos olim Beruniy esa o'z qadrini biladigan, to'g'riso'z, mag'rur odam edi. Ibn Sino o'zidan yetti yosh katta bo'lgan bu olimni hurmat qilar, ba'zan uning uyiga borib, o'tkazayotgan tajribalarini diqqat bilan kuzatar edi.

Bir kuni u qiziq manzaraga duch keldi. Endi o'ttizga kirgan bo'lsa ham, soqol qo'yib yuborgan, barvasta, keng peshanali Beruniy qo'lidagi shishani oftobga tutib uni ko'zdan kechirayotgan edi. Eshikdan salom berib kirgan Abu Alini ko'rib xursand bo'ldi-da:

— Kel, kel, mana buni tomosha qil, — dedi u alik olishni ham unutib. — Ichiga suv to'ldirilgan yumaloq shishani quyoshga to'g'rilab bunday aylantirsak, u nurni bir nuqtaga to'playdur, agar suv to'kib tashlansa, ichiga kirib olgan havo ziyoni bir yerga to'plashga qodir emas.

Ibn Sino uning gapini tasdiqlab shunday dedi:

— Siz tabiat sirlarini o'rganmoq uchun tinmay tajriba o'tkazasiz, hatto dam olish vaqtida ham. Bugun qo'lingizdagi shishani ko'rib, bir narsa xotiramga keldi. Bir risolangizda siz, ustodi avval Arastuning, Yer yuzida bo'shliq yo'q, degan da'vosini rad etgansiz. Shu fikringizni tajriba bilan isbot etgansiz...

— Biz hammamiz ul zotning shogirdlarimiz, ammo dunyoda xatodan xoli bo'lgan zot yo'q, mana ko'r!

Beruniy suvini to'kib tashlab, shisha ichidagi havoni so'rib oldi-da, darhol bosh barmog'i bilan uning og'zini berkitdi va suvga to'nkarib boshmaldog'ini tortib oldi, suv asta-sekin ko'tarilib shishani to'ldira boshladi.

— Ko'rdingmi? Shisha ichida bo'shliq paydo bo'lgani uchungina suv ko'tarilib kirib oldi. Bundan chiqdi, Yer yuzida ham, koinotda ham bo'shliq bo'lishini inkor etib bo'lmas ekan...

— Siz shisha ichidagi havoni so'rayotganingizda ichidagi havo harakatga kelib, shishani isitgan, qo'lingizning issig'i ham unga o'tgan. Haroratdan shisha kengaygani uchungina ichiga suv kirgan bo'lishi mumkin.

— Bu gapingni tajriba bilan rad eta olurman, — dedi Beruniy qizishib va shishadagi suvni tosga to'kib tashlab, uning og'zidan puflay boshladi, keyin to'nkarib suvga tiqdi.

— Ko'rdingmi? Men puflaganimda shisha ichidagi havo harakatga kelib uni isitgan va kengaytirgan bo'lishi kerak, ammo ichiga suv kirmadi-ku! Besh asr, balki, ming yildan so'ng, ehtimol, olimlar bo'shliqda tajriba o'tkazib, yangi narsalar ixtiro etarlar...

— Unday bo'lsa, samovotning xaritasini chizgan Batlimusdan ham xatolar topgandirsiz, — dedi Beruniy haqli ekanligini ko'rib negadir ranjigan yosh olim kinoya aralash.

— Xatoga yo'l qo'ymagan olim bo'lishi imkoniyat xorijida. Masalan, sen o'zing ilmi tib sohasida benazirsan, aytish mumkinki, Jolinus darajasiga erishding, ammo menga yozgan xatlaringda ayon bo'ldiki, Jurjon shahrining uzunligi va kengligini belgilashda xatoga yo'l qo'ygansan. — U qo'liga qalam va qog'oz olib o'zining haqli ekanligini isbot qildi.

Somoniylar saroyida katta obro' qozongan, izzat-nafsi kuchli Abu Ali hali tabiat va falakiyot sohasida erisha olmagan nuqtalari borligini bilib qizarib ketdi. "Bu sohada Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarga yetib olish uchun ko'p ishlashim kerak ekan", — deb o'yladi u.

U Bayt ul-hikmatdagi yig'ilishlarga borib, munozaralarga aralashib turardi.

Xorazmshoh Abul Abbos olimlar majlislariga qatnashib turar, u to'rga solingan gilam ustida chordana qurib, allomalarning bir-birlari bilan tortishuvlarini zavq bilan tomosha qilar edi. Yuvosh, irodasiz, o'z jilovini vaziri qo'liga berib qo'ygan bu hukmdor ba'zan Bayt ul-hikmatga may ichib kelar, munozara qizib ketganda xuddi qo'chqor urishtirayotgan ishqibozlardek hayajonlanib ketar edi.

Bir kuni olimlar, biz ko'rib turgan yulduzlardan boshqa olam va oftob bormi, to'rt unsur: tuproq, suv, havo va otash hamma joyda bir xilmi, degan mavzuda munozara boshlagan paytlarida devon vaziri kelib shohga ta'zim qildi-da, past ovoz bilan unga bir nima dedi, so'ngra naycha qilib o'ralgan qog'ozni unga uzatdi. Olimlar gapdan to'xtab sergaklanib qoldilar. Abul Abbos nomani ochib o'qidi-da, rangi o'chib ketdi, o'zgargan ovoz bilan:

— Sulton Mahmud G'aznaviy hazratlarining elchilari Abul Fazl Hasan binni Mekoil hozir Gurganj ostonasiga yetib kelibdur, — dedi, so'ngra bu sovuq xabarni keltirgan vazirga yuzlandi. — Elchi janoblari horib-charchab kelgan bo'lsalar kerak, bugun dam olsinlar, ertaga qabul qilurmiz. Qo'y so'yib, ul kishini yaxshilab ziyofat qilinglar, ko'nglini ovlanglar!

Vazir ta'zim qilib chiqib ketgandan keyin olimlarga qarab so'zini davom ettirdi:

— Men gapni cho'zib o'tirmay, xullasini aytib qo'ya qolay, — dedi xo'rsinib. — Sulton o'z nomasida, Gurganjda olim va fozil kimsalar, falon ibn falonlar to'plangan ekanlar, ular o'z ixtiyorlari bilan bizning huzurimizga yetib kelsinlar, biz ham ular suhbatidan bahramand bo'laylik, deb yozibdur. O'zlaringizga ma'lum, Xuroson va Hindistonni zabt etgan Mahmud G'aznaviyning ishlari avjida, zamona podsholari u bilan hisoblashib ish tutadurlar, shul sababdan men uning so'zini yerda qoldirolmayman!

Yonma-yon o'tirgan Abu Ali va Abu Sahl bir-birlariga qarab, boshlarini sarak-sarak qilishdi, keyin o'rinlaridan turib Xorazmshohga ta'zim qilishdi.

— Ey, zoti oliy, — deb gap boshladi qaltiragan ovoz bilan keksa Masihiy. — Men sizning dargohingizga kelib panoh topdim, noz-u ne'matlaringizni yeb, izzat-hurmat ko'rdim, ulug' olimlar bilan suhbatdosh bo'lib, rohat qildim. Endi menga ruxsat etsalar, sulton Mahmud huzuriga bormay, boshim og'gan tomonga ketsam. O'zlariga ma'lum, men musulmon emas, nasroniyman[1].

Abul Abbos uning gapini tasdiqlaganday bosh egib qo'ydi.

— Ey, hikmat ahlining pushti panohi, — deb gap boshladi ibn Sino ta'zim qilib. — Kaminani ham G'azna shahriga borishdan ozod etsangiz. Men ilmi hikmat dushmanlari bo'lgan Buxoro mullolari dastidan qochib Xorazmga kelgan edim, endi mutaassib ulamolarning homiysi bo'lgan Sulton Mahmud huzuriga borishni istamasman.

— Ahvollaringiz menga ma'lum, uzringiz o'rinli, — dedi Abul Abbos sabr bilan uning so'zini oxirigacha tinglab. — Maslahatim shulki, men sultonning elchisini qabul qilmasimdan burun ikkingiz ham yashirinsangiz va tong qorong'isida safar otini qamchilasangiz.

— Iltifotingiz uchun mingdan ming rahmat. Endi bizga ijozat bersalar, yo'l hozirligini ko'rsak, beinsof ovchining to'riga ilinmasdan burun qanot qoqib qolsak, — dedi ibn Sino ta'zim qilib.

— Boringlar, asorat halqasi bo'yningizga tushmasdan burun parvoz qilinglar, qayerga borsangiz ham, boshingiz omon, saodat eshiklari sizlarga ochiq bo'lsin, — dedi Abul Abbos ularga oq yo'l tilab.

[1] **Nasroniy** — xristian.

Ular safar anjomlarini hozirlab, tun qorong'isida shahar tashqarisidagi bir dehqonning uyiga borib yotdilar, tong yorishmasdan burun Suhayliy yuborgan bir yo'lboshlovchi bilan yo'lga tushdilar. Dalalar sukunat og'ushida, tun shamoli jo'xorilarning boshlarini asta egib, yo'lovchilarga salom bering, deb shivirlar edi.

Ular otlarini haydab, kun chiqishigacha o'n besh farsah yo'l bosib, bir quduq boshiga borib yetdilar. Bu yerda nonushta qilib dam olganlaridan keyin idishlarini suvga to'ldirib yana yo'lga tushdilar.

Mahmud G'aznaviydek zolimning tuzog'iga ilinmay parvoz qilgan ikki olim tepalaridan uchib o'tayotgan qushlardek o'zlarini erkin sezar, boshiga katta cho'girma, egniga qalin chakmon kiygan barvasta yo'lboshlovchi orqasidan otlarini tez-tez haydab borar edilar. Biroz yurganlaridan keyin kun ko'tarilib, hamma yoqni qizdira boshladi. Ba'zan aldamchi sarob xuddi sehrgarlar kabi uzoqdan tiniq ko'llar, ko'm-ko'k daraxtzorlarni namoyon qilib, yo'lovchilarni gangitar edi.

Ot ustida munkib kelayotgan Masihiy quruqshagan lablarini yalab:

— Bunday issiqda yo'l yurishga majolim yo'q, biror joyda kechgacha dam olaylik, — dedi.

— Hov anovi tepaning ort tomonida shirin quduq bor, — dedi yo'lboshlovchi qamchisi bilan uzoqlarni ko'rsatib.

Bir soatdan oshiq yo'l yurib, u aytgan joyga yetib borganlaridan keyin yo'lovchilar egardan tushib otlarini tushovlashdi, saksovul va xashak bilan berkitilib, ustiga qum tortib qo'yilgan quduqni ochib, qovg'ada suv olishdi. Saksovullardan omonat chayla yasab, ustiga chakmonlarini tashlashdi-da, nonushta qilib, uxlagani yotishdi.

Kun botgandan keyin ufqda chalqanchasiga tushib yotgan oyni, yulduzlarning holatini ko'rib ibn Sinoning rangi oqarib ketdi:

— Samoviy jismlarning ahvoli yaqin orada havo aynib, falokat yuz berishidan dalolat berayotir, — dedi u sheriklariga.

Safarlarining to'rtinchi kuni ertalab qum sahrosini sukunat bosib, osmonda pirillab uchib yurgan to'rg'aylar ham, yerda sudralib yurgan kaltakesaklar ham g'oyib bo'lishdi. Ko'p o'tmay, qattiq shamol turib, yer-u osmonni chang-to'zon qopladi, olamni qorong'ilik bosdi. Yo'lovchilar shamolni to'sib turgan qumtepaning orqasiga o'tib, otlarining jilovini ushlagan holda, ustlariga chakmonlarini yopib, mukka tushib yotdilar. Oradan ikki soat o'tmay, qum bo'roni birdan to'xtab, hamma yoqni og'ir sukunat bosdi, yo'lovchilar bosh ko'tarib, ustlaridagi chakmonlarini qoqishdi. Qum bo'roni yo'lni ko'mib yuborgan, yo'lboshchi hamrohlaridan battarroq yo'l bilmaydigan kishiga aylanib qolgan, u sheriklarini qayoqqa boshlab ketayotganini bilmas edi. Kun ko'tarilgan sari tomoqlar qaqrar, otliqlar bo'g'zi ingichka charm idishlarini og'izlariga tutib, bir qultum suv ichar, zo'rg'a qum kechayotgan otlarini asta qamchilab qo'yar edilar. Suvlari tamom bo'lgandan keyin ular nima qilishlarini bilmay gangib qoldilar, quduqlarning ustini qum bosgan, ularni topib bo'lmas, hayot manbai qurigan edi.

— Meni shu yerga... tashlab ketinglar, — deb ingradi egar ustida o'tirishga majoli qolmay otning bo'ynini quchoqlab olgan Masihiy. — Qazoga rozi bo'lishdan... boshqa iloj yo'q, sizlar... bir iloj qilib... joningizni saqlab qolinglar.

Yuzi oriqlab qorayib ketgan, ko'zlari javdiragan Abu Ali otdan zo'rg'a tushdi, yo'lboshlovchining yordami bilan cholni otdan ko'tarib olib, qumga yotqizishdi...

* * *

Xurosonga ketayotgan karvonboshi yo'ldan ancha uzoqda, qumtepa tagida cho'zilib yotgan uch kishini ko'rib to'xtadi-da, tuyakashlariga bir nima dedi. Ular yugurib borib, behush odamlarning ikkitasi chala o'lik, uchinchisi jonsiz ekanligini payqadilar.

— Mana bularning yuzlari va ko'kraklariga suv sepinglar, og'izlariga suv tomizinglar, — dedi ular oldiga yetib kelgan karvonboshi.

Avval Abu Ali, keyin yo'lboshlovchi ko'zlarini ochib, o'rinlaridan turib o'tirishdi.

— Manavi hamrohingiz qazo qilibdur, — dedi qop-qora yuzli, cho'tir tuyakash bir chekkada qimir etmay yotgan Masihiyni ko'rsatib.

— A? Ko'ksiga, yuziga suv purkab, silkitib ko'rmadingizmi?

— Hammasini qildik, joni uzilgan.

Ibn Sino sudralib borib, hamrohining tomirini ushladi-da, tuyakashning gapi to'g'ri ekanligini bilib, yuragi urib ketdi.

Ular Abu Sahlni kiyim-boshi bilan qumga ko'mdilar-da, qabri ustida bir daqiqa qo'l qovushtirib turdilar.

Masihiy ibn Sinoning Xorazmda orttirgan eng yaqin do'stlaridan biri edi. Ikkovlari bahor paytlarida cho'lga chiqib, dorivor giyohlar terar, qadimgi yunon hakimlari to'g'risida suhbatlashib, vaqtning qanday o'tganini bilmay qolar edilar.

Ulug' olim va tajribali tabib bo'lgan Abu Sahl musulmon bo'lmagani uchun umrini darbadarlikda o'tkazib, Gurganjdagina boshpana topgan edi. Taqdir buni ham ko'p ko'rib, uni tinchgina uy-joyidan dashti biyobonga haydadi, bir qultum suvga zor qilib, tashnalikda o'ldirdi...

Abivard shahriga yetib borganlaridan keyin Gurganjdan birga kelgan yo'lboshlovchi orqaga qaytdi. Ibn Sino esa karvonsaroyda bir necha kun dam olib o'ziga kelgandan so'ng Tus shahri tomon yo'l oldi.

DARD VA DARMON

I

Saroybon qotma yuzli, qora soqol, ko'zlari katta-katta bir yigitni ikkinchi qavatdagi tor bir hujraga joylashtirar ekan, uning qayerdanligini, ismini, kasbini so'radi.

— Shu bugun Nishopurdan keldim, otim Husayn, o'zim tabibman, — deb qisqacha javob qildi mehmon yelkasidan xurjunini olib. Uning oftob va shamoldan qoraygan yuzi, kirtaygan ko'zlari darbadar hayot kechirganidan dalolat berib turar edi.

— Yaxshi kasbingiz bor ekan, — dedi saroybon kulib, — ammo bizning shaharda tabib ko'p, kasal oz, zeroki Jurjon shahridek

havosi musaffo, suvi toza poytaxt topolmaysiz olamda. Shaharni kesib o'tgan Jurjonhayot daryosining suvi va atrofdagi mevazorlarning havosi shifobaxsh. Bul yerga kelgan kasal sog'ayib ketadur.

— Gapingiz rost bo'lsa kerak, — deb tasdiqladi musofir. — Tog'larining cho'qqisidagi qorlar yarqirab ko'zni qamashtiradur, atrofdagi bog'larda esa anjir, xurmo, zaytun, uzum pishib yotmoqda, ajabki bul yerda sovuq yurtlar mevasi bo'lg'on olma, olxo'ri ham yaxshi hosil berar ekan. Jurjon kabi ajoyib shahar ko'rmadim olamda.

O'z yurtining vatanparvari bo'lgan saroybon uning gapidan xursand bo'lib:

— Aqlli, zukko odamga o'xshaysiz, bul yerda xor bo'lmaysiz, bizning shahri azimga zo'r bir tabib ko'chib keldi, deb odamlarga darak solaman, — dedi.

Ikki kundan keyin qoshlari oqarib ketgan, ko'zlari kirtaygan bir nuroniy mo'ysafid yosh tabibning hujrasiga kirib, u bilan salomlashgandan keyin:

— Bizning hovliga tashrif buyursalar, o'g'lim bemor, — dedi.

— O'g'lingiz? Kasali nima?

— Aqldan ozgan, ikki hafta bo'ldi, gap-so'zining tayini yo'q. "Men ho'kizman, bo'g'izlang!" — deydur. Nima qilishimni bilmay qoldim. Duoxonlarga o'qitib ham ko'rdim, bo'lmadi, umidlarim puchga chiqdi.

— Noumid bo'lmang, ota. Dard bor yerda davo ham bor.

— Aytganingiz kelsin. Zora qadamingiz qutlug' bo'lib, sog'ayib ketsa.

— Bo'lmasa bunday qilsak: hozir eshigingizni aytsangiz, men bir soatdan so'ng borsam. Ammo meni qanday qiyofada ko'rsangiz ham taajjublanmang va ishimga xalal bermang!

— Xo'p, nima qilsangiz ham, o'g'limning es-hushini joyiga keltirib qo'ysangiz bas.

Oradan bir soat o'tgandan keyin chol darvozani ochib, hayratda qoldi. Ro'parasida vajohatidan odam qo'rqadigan bir qassob turar, ko'kragida charmdan tikilgan eski peshband, belida qayroq o'rnida ishlatiladigan po'lat musat-katmon, qo'lida o'tkir pichoq. Chol uni zo'rg'a tanidi. Boyagi tabib ro'parasida turardi.

— Qani so'yiladurgan ho'kiz? Yetaklab olib keling! — deb shang'illadi "qassob" ichkariga kirgandan keyin.

Chol yuzini qop-qora soqol bosgan, ko'zlari bejo, qotmadan kelgan yigitni boshlab keldi. "Qassob" pichoqni tashlab, epchillik bilan yigitni yerga yiqitdi-da, uni yonboshlatib, qo'l-oyog'ini arqon bilan bog'ladi va pichoqni qayray boshladi. Keyin chap tizzasi bilan yerda qimir etmay yotgan yigitning yelkasini bosib turib, semizmikan, deganday, o'ng qo'li bilan uning sonini, belini paypaslab ko'rdi. Chol bechora nima bo'layotganini tushunolmay, turgan joyida qotib qolgan, ikki ko'zi xursandligidan og'zi qulog'iga yetgan o'g'lida edi.

— Voy-bo'y, ho'kizingiz juda oriq ekan-ku! — dedi "qassob" o'rnidan turib, — meni Husayn qassob deydilar. Umrimda bunday oriq molni so'ygan emasman. Eng oldin ho'kizingizni ikki-uch hafta boqing, buzoqligida ona sutiga to'ymagan ko'rinadur, sut ichiring, semirtiring, keyin kelib bo'g'izlayman. Hozir bunday oriq molni so'yishdan hazar qilaman, — deb u "ho'kiz"ning qo'l-oyog'ini yechdi-da, oyog'i bilan turtib, uni turg'azib yubordi. "Qassob"ning qiliqlaridan qo'rqib, yuragi po'killab turgan ota sho'rlik yengil nafas olib, o'g'lini yetaklaganicha uyiga olib kirib ketdi.

— O'g'lingizni sigir suti bilan, jo'ja xo'roz sho'rvasi bilan boqing. Ovqatiga mana bu dorini qo'shib berib turing, — dedi tabib qaytib chiqqan chol bilan xayrlashar ekan, qog'ozga o'rog'lik xabdorini qo'liga berib. — Ho'kizman, desa indamang, devonaga e'tiroz bildirib bo'lmaydur. "Xo'p" deng-u, ishingizni bitiravering.

Oradan ikki-uch hafta o'tgandan keyin avvalgiga qaraganda ancha tetiklashib qolgan chol yosh tabibning hujrasiga kelib, salom berib, uni ahvoldan xabardor qildi.

— Ming qatla shukurki, o'g'lim sog'ayib qoldi. Yangi sog'ilgan sut va sizning dorilaringiz sharofati bilan es-hushi joyiga keldi. Ishtahasi joyida. Eri tuzalib qolganini bilib, kelinim ham qaytib keldi. Ertaga biznikiga boring, — dedi u xursand bo'lib.

— Albatta, boraman. Iloyo, sog'ayib ketgani rost bo'lsin. Fahrimcha, bundan keyin, men ho'kizman, deb aytmaydur, qariganda aytmasa... — deb mutoyiba qildi tabib.

— Qariganlarida soppa-sog' odamlar ham o'zlarining ho'kiz ekanliklarini payqab qoladurlar, — deb hazilga hazil bilan javob qildi chol.

II

Jurjon hukumatining hukmdori Qobusning jiyani — yoshgina yigit noma'lum bir dardga chalinib qolgan, u kechalari mijja qoqmas, ovqat yemas, hech bir tabib uning nima kasal bilan og'riganini aniqlay olmas edi.

Bir kuni hukmdor saroy vazirini chaqirib shunday dedi:

— Eshitishimcha, Obivardmi, Nishopurmi, qayerdandir noma'lum bir tabib shahrimizga ko'chib kelib, dardiga iloj topolmagan bemorlarni davolayotgan emish. Yaqindagina hech bir tabib tuzata olmagan bir telbani davolabdur. O'shal tabibni toptirib kelib, jiyanimiz Abdulvohidni ko'rsating, shoyad mushkuli oson bo'lsa...

— Bosh ustiga, — dedi kulohiga oq salla o'ragan kimxob chaponli vazir ta'zim qilib, orqasi bilan yurib chiqib ketar ekan.

O'sha kuniyoq kimligini yashirib yurgan mashhur tabibni saroyning bir burchagidagi hujrada yotgan yigitning huzuriga boshlab keldilar.

— Assalomu... alaykum, — deb pichirladi bemor yigit, ingichka jiyakli banoras to'n kiygan, qotma yuzli tabibni ko'rib, boshini arang ko'tarar ekan.

— Vaalaykum... qimirlamay yota bering, — tabib uning yonига tiz cho'kib, tomirini ushladi. Yigitning hech bir a'zosida kasallik yo'q edi. "Ko'rinishdan juda hassos, terisi yupqa, ko'ngilchan yigitga o'xshaydur, — deb o'yladi u qorachadan kelgan, quralay ko'z, chiroyli yigitga tikilib. — Uning a'zoyi badani zaif bo'lsa ham, sog'lom. Ehtimol, ishq-muhabbatning ipak tolasi uning nozik qo'l-oyog'ini kishanlagan, lekin u negadir sirini hech kimga aytmaydi". Abu Ali muhabbat haykaltaroshi o'zining pichoqchasi bilan yigitning qalbiga qaysi jononaning nomini o'yib yozganini o'qimoqchi bo'ldi. Bemorning mulozimini chaqirib, Jurjon shahrining hamma guzarlari va mahallalarining nomini biladigan

bir kishini topib kelishni buyurdi. Devonxonada shahar boj-xirojiga mutasaddi bo'lgan bir amaldorni topib keltirdilar. Tabib u bilan bosh qimirlatib salomlashdi-da, bemorning tomirini ushlab turib:

— Shahringizdagi barcha mahalla va guzarlarning nomini birma-bir sanab chiqing, — deb iltimos qildi. O'z izzatini yaxshi biladigan, qo'ng'ir soqol, ko'k shoyi choponli bu amaldor shoshmasdan birin-ketin guzar va mahallalarning nomini tilga ola boshladi. "So'zangaron" guzari zikr etilishi bilan bemorning bir maromda urayotgan tomiri qattiq urib, nafas olishi tezlashdi. Tabib uning tomiridan qo'lini olib, o'rnidan turdi, biror soatlardan keyin qaytib kelishini aytib, qo'ng'ir soqol amaldor bilan hovliga tushdi.

— So'zangaron guzaridagi barcha xonadon boshliqlari va ularning oila a'zolari nomini biladurgan bir odam topib berolmaysizmi?

— So'zangaron oqsoqoli Shamsuddin o'z guzaridagilarning yetti yasharidan tortib yetmish yasharigacha nom-banom bilur. Men aytaman, biror soat ichida huzuringizda bo'lg'ay, — dedi amaldor.

Oradan bir soatcha vaqt o'tgandan keyin soch-soqoliga oq oralagan bo'lsa-da, olifta, ko'k belbog'li, kichkina oq sallali, ko'zlari chaqchaygan bir kishini boshlab keldilar. Tabib bemorning tomirini ushlab turib: "Mahallangizdagi oila boshliqlarining nomini birma-bir tilga oling", — dedi.

"Aloiddin" degan zotning nomi tilga olinishi bilan yigitning tomiri tez-tez urib ketdi.

— Endi Aloiddin akaning oila a'zolarini nom-banom sanab chiqing, — dedi tabib.

Chol-u kampir, bolalarning nomlaridan keyin "Rohila" degan qizning oti zikr etilganda bemor yigitning tomiri sanab bo'lmaslik darajada urib, o'zi hushidan ketib qoldi. Bemorning yuziga suv sepib, hushi joyiga keltirilgandan keyin noma'lum tabib hovliga tushdi. Uni kutib turgan saroy farroshi:

— Zoti oliylari sizni kutmoqdalar, — dedi va uni boshlab salomxona darvozasi oldiga olib keldi. Naqshinkor darvozaning ikki yonida ikki qurolli posbon shamdek qotib turardi. Biroz turib ichkaridan saroy vaziri chiqdi-da, tabibni qo'lidan ushlab ichkariga olib kirib ketdi.

Hazar dengizining[1] janubidagi kichik bir viloyatning hukmdori bo'lgan Qobus Vushmagir o'zini ulug' bir mamlakatning podshohidek tutar, o'ng qo'lining mushtini tizzasiga tirab, sakkiz qirrali oltin taxt ustida gerdayib o'tirardi.

Noma'lum tabib ichkari kirib, o'n qadamcha berida ta'zim qilgandan so'ng bosh ko'tardi. Botayotgan quyosh nurida shohning tojidagi gavhar va javohirlar yarqirab ko'zni qamashtirardi.

Qobus salomga alik olib, tabassum-la hol-ahvol so'rashib, jiyanining nima kasal bilan og'riganini so'radi.

— Abdulvohidning a'zoyi badanida kasallik alomatlarini topmadim, ichki a'zolari sog'...

— Bo'lmasa, uning dardi nima?

— Muhabbat! Uning qo'l-oyog'i sevgining zanjiri bilan bog'langan, bu kishanni yigitning xayolini o'g'irlab qochgan qizgina yecha oladur.

— Koshki edi ul qizning ota-onasi kimligini, otini bilsak! Bu mumkin emas...

— Men tomirining urishidan qizning kimligini, otini bilib oldim...

Hayratlanish podsholar uchun uncha yarashmasa-da, Qobusning og'zi ochilib, ko'zlari qinidan chiqib ketayozdi.

— Jiyaningizni So'zangaron guzaridagi kosib Aloidinning qizi Rohilaga uylantirib qo'ysangiz, sog'ayib ketgusidir.

— Nauzanbilloh... Bu karomat-ku, — dedi hukmdor tilga kirib. — Qaysi yo'l bilan bildingiz sho'rlik yigitning ko'nglidagi maxfiy sirini?

Noma'lum tabib, qanday qilib yigitning qulflog'liq ko'ngliga yo'l topganini batafsil gapirib berdi.

— Ofarin, ofarin! Tomirning urishidan yolg'iz ichki kasallarni emas, balki yurak sirlarini ham bilsa bo'lar ekan. Ammo buning uchun sehrgar tabib, ulug' olim, tabiat va tabiat tashqarisidagi sirlardan voqif bo'lish kerak. Men sizning shartingiz ustida o'ylab ko'rishim lozim. Faqir bir kosibning qizi asilzoda yigitga mu-

[1] **Hazar dengizi** — Kaspiy dengizi.

nosibmikan? Siz tabibi hoziqsiz, ishq-muhabbat zanjirlarini eritib yuboraturgan bir doru topib bera olmaysizmi?

— Yo'q, — dedi tabib. — Agar o'shal qizga uylantirmasangiz, jiyaningizdan ayrilgaysiz, kasali jigariga o'tsa davolash yo'li berkilgay.

Qobus bosh barmog'ini tishlab, chuqur o'yga botdi. "Abdulvohidni keyin asilzodalardan birining qiziga uylantirib qo'yarmiz", — deb o'yladi.

— Bo'lmasa o'shal kosibning zotini surishtirib ko'raylik. Halolzodalardan bo'lsa, qiziga sovchi yuboramiz, — dedi u ovoz chiqarib.

Ikki kundan keyin saroyga kelgan tabib yigitning enagasi qiznikiga sovchi bo'lib borib, kosib Aloiddinning roziligini olib kelganini, yigitning sog'ayib, oyoqqa turganini eshitib xursand bo'ldi.

Jurjon hukmdori esa noma'lum tabibga haftada bir-ikki kun saroyga kelib, o'z suhbatidan uni bahramand qilishni so'radi. Tabib ta'zim qilib, podshoning iltifotidan xursand ekanligini bildirdi.

Vaqt xuddi Jurjon daryosi ustidagi ko'pikday shoshmay oqib o'ta bordi, noma'lum tabib esa bu shaharda erkin hayot kechirib, kasalmand odamlarning dardini aritib yuraverdi. Bir kuni u odatbo'yicha saroyga kelib, hukmdorning qo'lida maktub, yuzida tashvish borligini ko'rib, hayratda qoldi.

— Men ko'pdan buyon kimligingizni payqagan bo'lsam ham, sir boy bermay yurar edim, — dedi Qobus xiyol kulimsirab. — Siz buxorolik ulug' hakimi hoziq, olim va fozil Abu Ali ibn Sinodursiz. Endi buni hech kimdan yashirmasangiz ham bo'ladur. Bugun G'azna shahridan bir xat bilan suratingiz kelib yetdi. Mahmud G'aznaviy, ushbu surat egasi, ya'ni ibn Sino qayerda bo'lsa, darhol bizning huzurimizga yuborilsin, degan mazmunda bir maktub yo'llabdur. Ammo siz qo'rqmang, sizdek ulug' hakimni G'azna shahriga jo'natadurgan odam yo'q. Jurjon shahrida tabobat va ilmi hikmat bobidagi ishlaringizni davom ettira bering.

— Iltifotingiz uchun tashakkur. Men, albatta, begunoh odamlarni qo'rquvga solishni o'ziga hunar deb bilgan podsho huzuriga bormoqni istamayman, hozircha shu yerda qolish niyatidaman...

III

Jurjon shahrida ibn Sinoning muxlislari ko'p edi. Ular har juma kuni allomaning uyiga kelib, uning suhbatidan bahramand bo'lar edilar. Xususan, Abu Ubayd nomli bir yigit Sinoga haddan tashqari ixlosmand bo'lib, uning xizmatini qilib yurar, mantiq va ilmi hikmatdan dars olar edi.

Ilm-fan shaydosi bo'lgan, uzoqdan, hozirgi Afg'onistonning shimolidagi Juzjon shahridan kelgan bu yigit allomaning eng iste'dodli shogirdi va ishonchli muhiblaridan biri edi. Shunday sadoqatli ilm muxlislari qurshovida yashagani uchun ibn Sino bu shaharda o'zining musofir ekanligini sezmas edi. Biroq bu osoyishta — tinch hayot uzoq davom etmadi, shodlik quyoshini g'am-tashvish bulutlari qoplay boshladi.

U Buxoroga ketayotgan savdogarlardan onasiga maktublar yo'llab, sog'-salomatligini bildirib turar edi. So'nggi maktub uning qalbiga tikandek qadalib, yurak-bag'rini qonga to'ldirdi. Inisi Mahmud volidayi mehribonlarining vafot etganini bildirib, uning ta'ziyasini batamom o'tkazgandan keyin Buxorodan chiqib ketishini yozgan edi. Bu ham yetmagandek, taqdir uning yuragiga yana o'z nayzasini sanchib oldi. Bir kuni tong qorong'isida birov ko'cha eshigini qattiq taqillatib, uni cho'chitib yubordi.

Yarim kechagacha ishlab charchagan ibn Sino cho'chib uyg'onib ketdi-da, choponini kiyib hovliga tushdi, ichkaridan zanjirlab qo'yilgan darvozani ochdi. Ro'parasida ko'zlari javdiragan shogirdi Abu Ubayd turar edi.

U salom berishni ham unutib, harsillab:

— Falokat yuz berdi... Ichkariga kiraylik... Keyin aytib bergayman, — dedi. U kafshini poyma-poy kiygan, ustida otasining choponi halpillab turardi.

Ular mehmonxonaga kirib, to'rdagi ko'rpachaga o'tirganlaridan keyin nafasini rostlab olgan Abu Ubayd shu kecha a'yonlar o'z odamlari bilan saroyga bostirib kirib, Qobus Vushmagirni hibsga olganlari, uni zindonga tashlab, o'g'li Manuchehrni taxtga o'tkazganlarini birma-bir so'zlab berdi.

— Yomon ish bo'libdur, — dedi uyqusi qochib, rangi o'chib ketgan alloma. — Ular shahzoda bilan til biriktirgan bo'lishlari kerak. Kim bilur? Manuchehr otasidek mustaqil, o'z aytganida turadigan odam emas, sulton Mahmudning nog'orasiga o'ynag'usidur.

— Bas, ahvol shul ekan, tezroq bul yerdan jo'nab qolmoq kerak. Lekin hozir emas... keyinroq. Darhol shahardan chiqib ketsangiz, a'yonlar ko'nglida shubha ilonini uyg'otursiz. Hozircha mening uyimga ko'chib o'ting, keyin bir gap bo'lar.

— Rost aytasiz, bir kattaning so'ziga kir, bir kichikning, — dedi ustod o'zidan besh-olti yosh kichik bo'lgan sodiq shogirdiga qarab. — Yuring, bo'lmasa. Buyumlarim, kitoblarimni xizmatkorim kechqurun olib borar... Ehtiyotkorlik qo'rqoqlik emas...

Tong yorishmasdan burun ibn Sino shogirdining uyiga ko'chib kelib, ko'ngli tinchigandan so'ng sodir bo'lgan hodisalar to'g'risida shoshmay fikr yurita boshladi.

— Mana, me'yoridan oshgan qattiqqo'llikning oqibati, — dedi u Abu Ubaydga qarab. — Qobus olim va shoirlarga homiy bo'lsada, sipoh va a'yonlarga nisbatan shafqatsiz edi, kichik bir gunohlari uchun ularga qattiq jazo berar, avfni o'ziga ayb deb bilar edi. Ba'zan oqil odamlar ham adolatsiz bo'lar ekan, qiziq...

— To'g'ri, ayni zamonda Qobus Shamsilmaoliy to'g'riso'z, aytganida turadigan jasoratli podshoh edi. Mahmud G'aznaviydek dasti daroz hukmdorni ham nazar-pisand qilmas edi-ya! Ul zolim, ibn Sinoni mening huzurimga yubor, deganida, taklifini rad etib, sizni o'z yonida olib qoldi-ku!

— Albatta, uning yaxshiligini unutmayman. Gurganjda olimlar doirasida o'zimni baxtiyor sezar edim. Jurjonda esa sog'-salomatligim mustahkamlandi, ilmi hikmat va tibbiyot bilan shug'ullanishga imkon topdim.

— Buxoroda-chi?

— Buxoroda mutaassib mullolarning dastlari daroz, agar Xorazmga qarab parvoz qilmasam, qanotlarimni kesar edilar.

Ertalabki nonushta vaqtida ustod bilan shogird u yoqdan-bu yoqdan gaplashib o'tirishdi. Qora soqolli, qirra burun, xushsurat, endi o'ttiz ikki yoshga qadam qo'ygan allomaning so'zlariga uning sodiq shogirdi zavq bilan quloq solib o'tirar edi.

— Men uchun ozodlik, erkin fikr yuritish buyuk baxt, podsholar, a'yon va akobirlar chizib bergan yo'ldan chetga chiqmaslik ulug' baxtsizlik. Men "Gah!" deganda qo'lga qo'nadurgan qush emasman. Ojiz odamlargina o'z qismatlariga ko'nikib ketgaylar. Yovuzlikka adolat to'nini kiygizgan Mahmud G'aznaviyning ovchilari yetib kelmasdan burun bul yerdan jo'nab ketmoq kerak.

— Unday bo'lsa, men kechqurun karvonsaroyga boray, qofilasolar bugun-erta tuyalarning boshlarini qay tomonga burmoqchilar, bilib kelay...

— Juda soz, bu issiqqina uyada yotishim xatarli, — dedi ibn Sino sabrsizlik bilan soqolini qashib. — Sayyodlar ovchi qushlarni uyalaridan tutib olib ketadurlar. Afsuski, Jurjon kabi xushmanzara, havosi toza, iqlimi mo'tadil yerni tark etmakka majburman.

Kechqurun ma'yus holda karvonsaroydan qaytib kelgan Abu Ubayd:

— Tong-la savdogar Abdullo binni Ja'farning karvoni Mozandaronga jo'namoqchi. Men karvonboshi bilan kelishib qo'ydim. Sizni o'zi bilan olib ketishga rozi bo'ldi, — dedi. — Ammo Mozandaronning havosi og'ir, rutubatli, bilmadim, sizga yoqmas.

— Yoqmasa yana qaytib kelgayman. Balki, ul vaqtgacha zamona tinchib, hayot yana avvalgi iziga tushib ketar.

— Omin! — dedi shogird jon-dili bilan.

* * *

Vaqt aravasi shaldirab, omadi kelishmagan ahli mehnatni maiaqlab ketaverdi. Qish o'tib, tikanli gullarni chekkasiga taqqan bahor ham yetib keldi.

Abu Ubayd xat-xabar kutib bezovta bo'lar, Hazar dengizi bo'yidagi seryomg'ir, o'rmonlari vahshiy hayvonlar bilan to'lgan o'lkada ustodimning holi nima kechdi ekan, deb tashvish tortar edi. Yoz ham o'tdi, bir kuni el yotar mahalda Abu Ubaydning ko'cha eshigiga o'tqazilgan mis halqani allakim qattiq taqillatdi. Uning yuragi gupullab urib ketib, yugurganicha ko'cha eshigini ochdi.

Mast ayolday ko'zini suzib turgan kulcha yuzli, oy yorug'ida rangi o'chgan ustodini ko'rib, shogirdning tili tutilib qoldi.

— Eson-omon yuribsizmi? — deb so'radi ibn Sino zaif ovoz bilan.

— Ha... Xudoga ming qatla shukur, tinchlik, — dedi shogirdi uning qo'lini olib.

Seryomg'ir, rutubatli Mozandaron ibn Sinoning sihatiga futur yetkazgan, quvvatdan ketkazgan edi. U bir necha kun Jurjonda, shogirdining uyida yotib, dam oldi, o'zini davoladi. Sog'lig'i tiklangandan so'ng ko'chaga chiqmay "Avsati Jurjoniy" nomli asarini yozdi. Ilmning mahbusi bo'lgan bu odam mehnat bilan g'amlarini unutar edi.

Agar Jurjon o'lkasida yana bir xunuk hodisa yuz bermasa, olim bu ixtiyoriy mahbuslikdan qutulmas edi. Bir kuni Abu Ubayd Qobusning o'g'li Manuchehr Mahmud nomiga xutba o'qitib, rasman uning hokimlari qatoriga o'tgani to'g'risida xabar olib keldi.

— Endi bul yerda turmoq men uchun xatarlidir, chunki sultonga itoat etgan Manuchehr unga yoqish uchun meni ushlab oldiga yuboradur, — dedi ibn Sino qo'lyozmalarini yig'ishtirib. — Afsuski, bul zamonda zulm-vahshat rivojda, ilm ahllari ranj-u uqubatda. Sayyodlar yetib kelmasdan burun parvoz qilmoq kerak.

— Qay yerga? — deb so'radi shogirdi bezovtalanib.

— Ray shahriga, sulton Mahmudga itoat etmagan tadbirkor malika Saidaning poytaxtiga. Manuchehr kabi yuzta erkakdan Saida kabi bitta oqila ayol ming marotaba yaxshiroq. Uning qanoti ostidagina jon saqlay olaman.

— Men sizga hamroh bo'lib borgayman. Maqsadim — sizning yoningizda yurib, ilmi mantiq o'rganishdir.

Ustodining indamaganini ko'rgach, "sukut alomati rizo", deb o'yladi shogirdi xursand bo'lib.

SAVDOYI SHAHZODA

Ray — tepasidan doim dud chiqib turadigan Dimovand tog'i etagida joylashgan qadimiy shahar[1]. Odamlarning e'tiqodicha, bu tog' afsonaviy shoh Zuhokning qabri emish. Ustod bilan shogird

[1] O'sha vaqtda kichkina qishloq bo'lgan Tehronning sharqi-janubidagi bu shaharni keyin mo'g'ullar buzib tashladilar.

ohi osmonga chiqib turgan tog' etagidagi bu ajoyib shaharga kelib erkin nafas oldilar, o'rtasidan sharqirab soy oqib turgan Rud bozorida ovqatlanib olgach, tog' etagidagi Taborak qal'asiga ko'tarilib, pastda yaslanib yotgan uchburchak shaklidagi shaharni tomosha qildilar.

Kechqurun karvonsaroyning ikkinchi qavatidagi hujrada dam olib o'tirganlarida Abu Ubayd:

— Malika Saidaning huzuri oliyalariga qachon borursiz? — deb so'rab qoldi.

— Hech qachon, — dedi ibn Sino boshini baland ko'tarib. — Kerak bo'lib qolsam, o'zi meni chaqirtirib olar. Hech vaqt hukmdorlar huzuriga bosh egib borgan banda emasman. Nuh binni Mansur Somoniy ham, Qobus Shamsilmaoliy ham kerak bo'lib qolganimda mulozimlaridan birini yuborib, meni o'z huzurlariga chorlagan edilar...

Juzjoniy hukmdorlar oldiga yalinib borishni o'ziga or deb bilgan ustodiga zavq bilan qarab: "Olim degan shunday mag'rur va ilmining qadriga yetadigan bo'lishi kerak, lekin u kambag'alroq bir betob odam oldiga kelsa, bosh egib uning tomirini ko'radi, haq ham olmaydi, qiziq!" — deb o'ylar edi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, Buxoroyi sharifdan bir tabibi hoziq kelibdur, Rud bozoridagi karvonsaroyda istiqomat qilar emish, degan ovoza shaharga tarqaldi. Bemorlar birin-ketin kelib shifo topa boshladilar. Bir kuni peshanasi tirishgan oriq, o'rta yoshli kishi kelib, ibn Sinoga ta'zim qildi-da:

— Bizning kulbayi vayronamizga tashrif etsangiz... Inim betob, — dedi.

— Nega yetaklab kela qolmadingiz? O'zi yura olurmi?

— Yurish ham gapmi? Qornini changallab uyoqdan buyoqqa yugurib: "Ichimga ilon kirgan, jigar-bag'rimni yemoqda", — deb baqiradur. Uni ko'chaga olib chiqib bo'lurmu?

Ibn Sino o'ylab turdi-da:

— Mayli, borsam bora qolay, qani yuring, — dedi.

Qing'ir-qiyshiq uy-ayvonlar bilan qurshalgan supuruqsiz hovlida soch-soqoli o'sib ketgan, ko'zlari javdiragan bir yigit qornini ushlab yurardi. U eshikdan dadil qadam tashlab kirgan olacha

to'nli, ko'zlari o'tkir tabibi hoziqni ko'rib to'xtab qoldi. Ibn Sino bemorning oldiga bordi-da, unga tikilib turib:

— Uyga kirib, o'rningizga yoting, — deb buyruq berdi. Bemor itoatkorlik bilan eshigi lang ochiq nimqorong'i xonaga kirib, yig'ishtirib qo'yilmagan to'shak ustiga cho'zildi.

— Rost, ichingizda ilon bor ekan, — dedi tabibi hoziq uning qornini ushlab ko'rib. — Jigaringizning bir chekkasini kemirgan. Tong-la kelib ilonni tiriklayin tushirgayman. Bugun bir kosa sut ichib yoting!

Ko'chaga chiqqanlarida ibn Sino uy egasiga yuzlanib:

— Eng oldin tirik bir ilon toping, tog'oraga sut hozirlang, keyin meni boshlab kelasiz, — dedi.

Ertasiga choshgoh paytida bemorning akasi kelib, ibn Sinoni uyiga boshlab olib ketdi.

Sut to'ldirilgan tog'orani uyning o'rtasiga qo'yib, bemorni uning oldiga tiz cho'ktirdilar, ibn Sino uning ko'zini ro'mol bilan bog'lab, boshini egib turdi-da:

— Barmog'ingizni tomog'ingizga tiqib, tog'orachaga qayt qiling, — deb buyurdi.

Bemor tabibning aytganini qilib qattiq o'qchigan edi, uning akasi to'rva ichidagi ilonni tog'oradagi sutga qo'yib yubordi-da: "Tushdi, tushdi!" — deb baqirdi. Shu payt ibn Sino bemorning ko'ziga bog'langan ro'molini yechib oldi.

— Ana, ko'ring, ichingizni kemirayotgan mori zahrinokni!

Bemor sut ichida suzib yurgan ilonni ko'rgach, qo'rquv aralash shodlik bilan:

— Darhol o'ldiring uni, bo'lmasa yana ichimga kirib ketgay, — dedi entikib.

Ilonni darhol qisqich bilan qisib olib, hovliga olib chiqib maqaladilar.

— Qanday hiyla ishlatib iningizni davolaganimizni unga aytmang, — dedi ibn Sino uni ko'chagacha kuzatib chiqqan uy egasiga. — Yo'qsa, uning ichida yana ilon paydo bo'lib, jigarini kemira boshlagay.

— Xo'p, men uydagilarga pishiqtirib qo'yaman, bul gap hech qachon inimning qulog'iga yetmagay.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, shaharda buxorolik tabib falonchining ichiga kirib ketgan ilonni tiriklayin tushirgan emish, degan ovoza tarqaldi. Bu gap malika Saidaning ham qulog'iga yetib bordi.

* * *

Ray, Hamadon, Isfaxon va Ko'histonning hukmdori Faxruddavla yigirma bir yil hukm surib, vafot etgandan keyin taxti uning balog'atga yetmagan o'g'li Majduddavlaga qoldi. Davlat ishlarini uning onasi Saida boshqara boshladi. Fuqaro ham undan rozi, a'yon va kubarolar ham xursand edilar. Shu orada ko'p mamlakatlarni bosib olgan sulton Mahmud kunlardan bir kun Saidaning huzuriga elchisini yuborib, uning nomidan xutba o'qitib, xiroj to'lab turishni talab qildi, Saida uning elchisiga shunday dedi: "Erim tirikligida men, Mahmud G'aznaviy kelib yurtimizni bosib olmasaydi, deb qo'rqar edim, endi qo'rqmayman. Yo u yengadi, yoki men. Men zafar qozonsam, butun dunyo, ilgari yuz podshoni yenggan Mahmud xotin kishidan yengilibdur, deydi, agar u g'olib kelsa, shunday ulug' podsho xotin kishini yengib, fatxnoma yozdiribdur, deb ta'na qilg'ay. Bu — sulton uchun shon-shavkat emas, shu sababdan hukmdoringiz men bilan jang qilmaydur!".

Bu javob Mahmud G'aznaviyning izzat-nafsiga qattiq tegdi va Saida tirikligida uning yurtiga dahl qilmadi. Saida mamlakatni bexavotir idora qilaverdi, biroq uzoqqa bormay, boshqa bir tashvish uni kemira boshladi. O'g'li Majduddavla balog'at yoshiga yetgandan keyin ham es-hushini yig'ishtirib olmadi. Bo'yi cho'zilib mo'ylabi sabza urgan bo'lsa-da, uning bolaligi qolmadi.

Majduddavla ovqatni tanlab yer, doimo kanizaklar bilan quvlashib o'ynab yurar, davlat ishlariga qiziqmas edi. Ikki-uch yildan keyin o'yin-kulgi, bemehnat hayot, shohona maishat ko'ngliga ura boshladi. Sozanda-yu navozandalarning ham savti unga yoqmas, xushro'y raqqosalar ham o'yin tushib uni ovuta olmas edilar. Shahzoda yakka o'zi saroy bog'ini aylanadigan, o'zi bilan o'zi gaplashadigan bo'lib qoldi.

Onayizor: "Bolam, nega muncha yurasan, o'tirib dam olsang-chi", — desa, u: "O'tirgandan yotgan yaxshi, yotgandan o'lgan yaxshi, demak, istaysizmi-yo'qmi, rostdan ham hayotdan o'lim afzal", — deb valdirar edi. Chaqirilgan tabiblar, shahzoda molixulyo[1] kasaliga yo'liqmish, deb uni turli-tuman dorilar bilan davolay boshladilar. Biroq hech qanday dori-darmon unga kor qilmadi. Saida ibn Sinoning daragini eshitib, jilovdorini yasog'liq ot bilan u istiqomat qilgan karvonsaroyga yubordi. Shahzodaning kasalidan xabardor bo'lgan ulug' hakim saroydan taklifnoma kelishini kutar edi. Shu sababdan ikkilanmay yaltiroq to'nli yosh mulozimni yaxshi qarshi oldi, egniga buxorocha olacha to'nini, boshiga ko'k sallasini o'rab, otga mindi va oldiga tushib tez-tez yurib ketayotgan jilovdor orqasidan otini haydab keta berdi. Tog' etagidagi saroyning naqshinkor katta darvozasidan kimxob va parcha to'nli mulozim, a'yon va akobirlar gerdayib kirib, chiqib turar edilar. Ulug' hakim darvoza oldida egardan tushib, otni posbonga berdi, shu payt yaltiroq to'nli bir kibor ta'zim qilib, uni ichkariga boshladi.

Salomxonada fil suyagidan ishlangan bezakli taxtda qimmatbaho libosiga dur-u gavhar qadalgan malika viqor bilan o'tirar edi. Yetti qadam berida to'xtab ta'zim qilgan ibn Sinoga kulimsirab:

— Xush kelibsiz, safo kelibsiz, sizdek ulug' hakimning poy taxtimizga tashrif buyurishidan behad xursandman, — dedi. Tumtaroqli gaplardan keyin u o'z dardini izhor qila boshladi. — Bizni bul g'amdan qutqaring, o'zingiz ham marhamatimizdan bahramand bo'lg'aysiz.

Oltmishga borib qolgan bo'lsa-da, husnini uncha yo'qotmagan, quloqlari va tomog'ini kashmiriy ro'mol bilan o'rab olgan yo'g'on gavdali malikaga qarab:

— E, saodatli malikayi zamon, — dedi qo'lini ko'ksiga qo'ygan ibn Sino, — noumid bo'lmang. Dard bor yerda davo ham bor, tadorikini qilurmiz, inshoollo, shahzoda shifo topib, chirog'ingiz avvalgidan ham ravshanroq yona boshlar...

[1] **Molixulyo** — melanxoliya.

Qabul marosimi tugagandan so'ng tabib bemorni ko'rish istagini bildirdi.

Majduddavla mo'ylab qo'ygan, uzun bo'yli, oriq, peshanasi tirishgan, sustkash yigit edi. U shifokor bilan istar-istamas so'rashib, savollariga to'ng'illab javob berdi. Ibn Sino ham takallufni yig'ishtirib qo'ydi, uni to'shakka yotqizdi-da, tomirini ushladi, bejo ko'zlariga tikilib, tilini chiqarishni buyurdi, qorniga panjasini qo'yib urib ko'rdi. Keyin uni o'rnidan turg'azib, qo'liga dori berdi, erta bilan yangi sog'ilgan sut ichib turishni tavsiya etdi.

Biroq shahzoda sut ichishni ham, dori iste'mol qilishni ham istamas edi. Oradan bir necha kun o'tgandan keyin ibn Sino malika huzuriga kirib, shahzodani dori-darmonlar bilan tuzatib bo'lmasligini aytdi.

— Sizdek hokimi hoziqdan bul gapni kutmagan edim, nahotki bir iloj topolmasangiz? — dedi malika qovog'ini solib. — Borgan sari safrosi qo'zib, yoboniy odamga o'xshab ketayotir ul. O'zini osib o'ldirmasaydi, deb qo'rqaman.

— Molixulyo kasaliga duchor bo'lgan kishini davolashning yana bir usuli bor. Unga ajalning dahshatli basharasini uzoqdan ko'rsatib qo'ymoq kerak, shundagina ul hayot gulshanining go'zalligini his eta boshlar...

— Agar shul gapni sizdan boshqa odamdan eshitsam, omon qo'ymas edim, — dedi Saida ko'zlarini chaqnatib. — Tezroq, ayting, qanday usul qo'llamoqchisiz?

Ibn Sino kechasi bilan o'ylab chiqqan narsalarini gapirib bergan edi, malikaning rangi o'chib ketib:

— Yo'q, — deb yubordi, — agar qo'rqib yuragi qinidan chiqib ketsa-ya? Oqibatini o'yladingizmi?

— Shahzoda qo'rqoq yigitlardan emas. Eshitishimcha, kurash tushish, musht urishni yaxshi bilar ekan. Xavotir olmang, ul janobning bir tuki to'kilsa, men javobgar.

— Agar boshqa iloj topolmagan bo'lsangiz, na qilurmiz, — malika iljayib qo'ydi. — Axir, bul masxarabozlik-ku. Siz hech tabibning aqliga kelmaydurgan kulgili usullarni o'ylab topibsiz. Na qilsangiz mayli, sizga ijozat.

* * *

Bir kuni kech paytida Majduddavla odati bo'yicha tog' yon-bag'ridagi saroy bog'ida yakka o'zi sayr qilib, hayotning jirkanch va bebaqoligi, o'limning abadiyligi to'g'risida xayol surib yurar edi. U yuqoriga ko'tarilib, barglari katta-katta, sershox eman daraxti oldida to'xtadi, qaysi bir shoxiga arqon tashlab, o'zimni ossam ekan, deb o'ylayotgan mahalda qayoqdandir bir yigit orqasidan kelib qo'lini qayirdi, uning sherigi — yuzi niqobli pakana yigit ro'parasidan kelib, shahzodaning bo'yniga sirtmoq tashladi-da, arqonning uchini torta boshladi.

— Tezroq bo'l... O'ldirib qo'lidagi gavhar ko'zli uzugini olgaymiz, belidagi oltin kamarini ham... — dedi g'o'ldirab sherigi.

Dodlab yordamga chaqirishga shahzodaning izzat-nafsi yo'l qo'ymas edi. U bir ijirg'anib qo'lini chiqarib oldi-da, oldinga tashlanib, arqon uchini tortib turgan yigitni bir tepib yiqitdi, bo'yinidagi sirtmoqni olib tashlab, uning sherigiga tashlandi.

Bir daqiqalik olishuvdan keyin "qaroqchilar" arang qochib qutulishdi.

Majduddavla harsillab, jiyagi so'kilgan olacha ipak to'nini to'g'riladi-da, changini qoqib orqaga qaytdi. Qo'rquv aralash g'azabdan dag'-dag' titrar, soqchisiz, qurolsiz sayrga chiqqaniga o'kinar edi. Ko'shkiga qaytib kelgandan keyin kiyim-boshini almashtirib, yuvinib oldi-yu, xonayi xosiga kirib qars urdi. Ikki bukilib kelgan mulozimiga g'alat ovoz bilan:

— Sharobdorga ayt, bir piyola may keltirsin! — deb buyruq berdi. Ikki qultum sharobi nobdan keyin hayot uning ko'ziga kamalakdek rang-barang va go'zal ko'rina boshladi.

O'g'lining sarguzashtidan xabardor bo'lgan Saida uning ko'zlarida hayot shami porlab, yuzi yorishganini ko'rgach, behad xursand bo'ldi, lekin hech narsa bo'lmagandek, sipolikni qo'ldan bermay, boshini baland ko'tarib qovog'i solig'ligicha yuraverdi.

Saidaning o'g'lini davolab obro' qozongan ibn Sinoga ilm-u fan ishlari bilan shug'ullanish uchun imkoniyat eshiklari keng ochildi. Dardiga shifo topgan odamlar har qadamda unga minnatdorchilik bildirar, bu esa uning kuchiga kuch qo'shar edi. Shunga qaramay, u mag'rurlanib ketmas, kamtarlikni qo'ldan bermas edi.

Bir kuni Abu Ubayd ustodining xonasiga kirganda, u har kundagidek xontaxta yonida o'tirib, bir narsalarni yozayotgan edi.

— E, Juzjoniy, yaxshi keldingiz, — dedi u salomga alik olib, ishini davom ettirar ekan, — hozir men sizni o'ylab turgan edim. Inim Mahmudga maktub yozayotirman. O'zingizga ma'lum, dunyoviy ilm-u fan bilan shug'ullanuvchi olimlar, jumladan bizning qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlar Buxorodan ketib qolganlar. Inim ona shahrida musofirga o'xshab qolgan bo'lsa kerak. Na qilur ul yerda bo'ynini qisib yurib! Kelsin bizning huzurimizga, rohat ko'rsin!

— Rost aytasiz, sizdek og'asi turgan shaharga kelib rohat ko'rsin. Xatni yozib bo'lib menga bering, ertaga Buxoroga ketayotgan tanish bir savdogardan berib yuboray.

— Xuddi ko'nglimdagi gapni aytdingiz, niyatimiz bir joydan chiqdi. Men hozir... tamomlab, tumor qilib o'rayman-da, qo'lingizga tutqazaman.

Juzjoniy ustodining birdaniga ikki ishni qila olishiga, u bilan gaplashib turib, xat yozayotganiga taajjublanib qarab qoldi. Keyin maktubni olib, xursand bo'lganicha ko'chaga chiqib ketdi.

* * *

— Buxorodan chiqib kelganim uchun ming qatla shukur, — dedi Mahmud og'asiga nafasini yaqinlashtirib. — Ona yurtimiz bid'at tuzog'iga ilinib qoldi. Har qadamda mullolar mening ismoiliya mazhabida ekanligimni yuzimga solib: "Og'ang kofir, sen shia mazhabidagi murdor kishidirsan!" — deb dag'dag'a qilur edilar. Ruhimda adovat urug'lari tomir yoyib kelayotganida, g'azabimni yutib Buxorodan chiqib ketdim. Bul yerga kelib erkinlikning lazzatini his etayotirman.

Dasturxonga fotiha o'qilib, mehmonlar chiqib ketganlaridan keyin aka-uka yolg'iz qolib, hasratlashib o'tirar edilar.

— Qayerda bo'lsang ham, tilingni tiyib yur, hamma bilan totuv yashab bo'lmaydur, — dedi ibn Sino ukasiga tikilib.

— Mendan xavotir olmang, og'a, achchig'-chuchukni totib, ko'zim ochilib qolgan. Taqdirga tan berib, hayotning sinovlariga bardosh bermoqqa o'rganib qolganman.

Mahmud gapga chechan bo'lsa ham, ilm-fanning hech bir sohasida chuqur ma'lumoti yo'q, g'ayratsiz bo'lgani uchun miyasiga qadalgan bilim urug'lari o'sib, sermahsul daraxtga aylanmagan edi. Shunday bo'lsa ham, ibn Sino inisini sevar, hozir uning iliq nafasi yuragiga to'plangan g'am-g'ussalarni uchirib ketganday bo'lar edi.

HAMADON SAFARI

I

Ray shahri tog' yonbag'riga joylashgan, iqlimi mo'tadil go'zal shahar, lekin ba'zan bodi sabo shimol tomondan esganda, Dimovand cho'qqisidan chiqib turgan dud shaharga tarqalib havoni buzib, hammani bezovta qilar edi. Xuddi shuningdek, Mahmud G'aznaviy hukm surgan saltanat sahrosidan esa boshlagan sovuq shamol kattadan kichikni sarosimaga solib qo'ydi.

Bir kun ibn Sino o'z uyida xontaxta yonida ishlab o'tirgan paytda saroy xizmatkori kelib ta'zim qildi-da:

— Malikayi oliyshon sizni o'z huzurlariga chorlayotirlar, — dedi.

"Nima hodisa yuz berdi ekan? Nega bemahalda unga kerak bo'lib qoldim?" — deb o'yladi olim o'rnidan turar ekan. Darhol qimmatbaho yo'l-yo'l choponini kiyib, boshiga ko'k sallasini o'radi-da, ko'chaga chiqdi. Eshik oldida malikaning jilovdori egarlog'liq arabiy otni ko'ndalang qilib turardi.

— Xizmatlariga tayyorman, ey malikayi zamon, — dedi Abu Ali salomxonaga kirib, ta'zim-tavoze qoidalarini bajo keltirgandan so'ng.

Saida gapni cho'zib o'tirmay, darhol maqsadga ko'chdi. Sulton Mahmud G'aznaviy vakilini yuborib, undan o'z nomiga xutba o'qitishni, boj-xiroj to'lab turishni talab etayotganini bayon etib:

— Zolimning qo'liga tushmaslik uchun tinchroq bir yerga borib, boshpana topganingiz ma'qul, — dedi. — Janobingizdan ko'p yaxshiliklar ko'rdim, shul sababdan sizni axtartirib yurgan sulton

qo'liga tushishingizni istamayman. Darhol otlanib, Hamadon sari yo'l oling. Men ul diyorning hukmdori — katta o'g'lim Shamsuddavlaga xat yozib beray. Aminmanki, sizni ul bajon-u dil qabul qilib olg'ay.

II

Tong paytida ustod bilan shogird yuklarini ot-eshaklarga ortib yo'lga tushishdi. Ray bilan Hamadon orasi tog'li yo'l, dovonlar uncha baland emas, yo'l qish va erta bahor paytidagina xatarli bo'lib, qor ko'chkilari yo'lovchilarni bosib qoladi, lekin yoz oylari ot va eshaklar ustlaridagi yuklari bilan bu dovonlardan qiynalmay oshib o'taveradilar.

Yo'lovchilar uch kundan keyin Ko'shkak dovoni ostiga borib yetishdi, ot-eshaklar ustidan yuklarini tushirib, ularni o'tga qo'yib yuborishdi-da, sharaqlab oqib yotgan soy bo'yiga, serbarg eman daraxti soyasiga joy solishdi. Biroz o'tirib dam olganlaridan keyin Abu Ubayd bilan Mahmud ovqat pishirish uchun emanzorga o'tin tergani ketishdi. Oradan o'n-o'n besh daqiqa o'tmay, bir quchoq shox-shabba ko'tarib kelayotganda umrida uchratmagan bir narsani ko'rgan kishiday ko'zlarini katta ochib, turgan joyida qotib qoldi. O'ttiz besh yoshga qadam qo'ygan, ilm-ma'rifat cho'qqisini egallagan baobro' ustodi xuddi yosh boladay o'z soyasi bilan olishayotgan edi. U orqasini oftobga o'girib, bo'yi o'zi bilan teng ko'lankasiga birdan tashlanar, o'ng qo'li bilan uning bo'ynidan bo'g'ib olishga urinar edi, lekin qo'li soyasining bo'yiniga emas, beliga borib tushardi. Keyin qomatini rostlab so'l qo'li bilan shu harakatni takrorlar edi. Besh-olti marotaba urinib, nafasini rostladi-da, suv bo'yidagi terakni goh o'ng oyog'i bilan, goh so'l oyog'i bilan tepa boshladi. So'ngra lattaga o'ralgan ikkita juvoldizni yerdan olib, ikkalasini terakka sanchdi va zudlik bilan o'ng tomondagisini so'l qo'li bilan, so'l tomondagisini o'ng qo'li bilan sug'urib oldi. Shu zaylda juvoldizlarning joyini tez-tez almashtirib turdi. Bu mashqlardan so'ng chuqur-chuqur nafas oldi-da, ikki oyog'ini birlashtirib turib, olg'a bir qadam, orqaga bir qadam tashlab sakray boshladi.

"E, badantarbiya! Tez-tez yurish, nayza otish, kurash, musht urish kabi mashqlar to'g'risida menga gapirgan edilar, — deb o'yladi Abu Ubayd, — lekin soya bilan olishish, juvoldiz sanchish to'g'risida og'iz ochmagan edilar-ku! Bu yangi mashq turlarini keyin o'ylab topgan bo'lsalar kerak".

Abu Ali esa nafasini rostlab, eman daraxti ostidan sharaqlab oqayotgan soyda yuvina boshladi. Abu Ubayd quchog'idagi o'tinni yerga qo'yib, toshlardan o'choq yasadi-da, ustiga dekcha o'rnatdi.

Mahmud esa shamshod, qayin, chinor daraxtlari bilan qoplangan, o'rtasidan soy oqib o'tgan vodiyning go'zalligiga mahliyo bo'lib, o'tin terishni ham unutib qo'ydi. Havo muattar, oftob nurida tovlanayotgan rang-barang gullar ustida kapalaklar aylanib yurar, tog' asalarilari ularning bolini so'rar, daraxtlar esa bir-birlari bilan shivirlashib, asta bosh chayqab qo'yar edilar.

Uzoqda tizza bo'yi o't ichida turgan kiyik atrofini tomosha qilayotgan odamga shubha bilan qarab burun kataklarini kerdi-da, pishqirib daraxtlar orasiga kirib ketdi. "Qo'limda o'q-yoy bo'lganda ham otmas edim bu go'zal jonivorni, — deb o'yladi Mahmud kiyikka zavq bilan qarab. — O'zining qisqa umrini shu xushmanzara vodiyda tinchgina o'tkazsin, erkinlikdan mahrum bo'lmasin".

U ozroq o'tin terib hamrohlari yoniga kelganda dekchada sho'rva biqirlab qaynayotgan edi.

III

Hamadon Rayga nisbatan kichikroq shahar bo'lsa ham, karvonsaroylari ko'p, savdo-sotiq, hunarmandchilik taraqqiy qilgan shahar. U baland qo'rg'on bilan o'ralgan bo'lib, ichkariga to'rtta temir darvozadan kirilar edi.

Ibn Sino, Abu Ubayd, Mahmud shaharning o'rtasidan oqib o'tadigan Murodbeksoy qirg'og'idagi katta karvonsaroyga tushishdi, ulovlarni sayisga topshirib, yuklarini hujraga joylaganlaridan keyin soyga tushib yuz-qo'llarini yuvishdi.

— Bahavo, salqin shahar ekan. Saraton oyida ham odam terlamaydi-ya! — dedi Abu Ubayd belbog'i bilan qoracha, yumaloq yuzini artar ekan.

— Ha, — dedi ustod, belbog'ini bog'lab turib. — Rayga nisbatan bul shahar ancha baland yerga joylashgan, tevarak-atrofi tog', iqlimi mo'tadil.

— Shamsuddavla diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor, o'zini ma'rifat homiysi deb bilgan hukmdor ekan, iloyim, bu yerda omadimiz kelsin.

— Baxt-saodatning ham vaqti-soati bor. Urinavergan kishi bir kun emas, bir kun maqsadiga erishgay.

— Omin, — dedi shogird jon-dili bilan.

Shamsuddavla yoshligida xususiy muallimlardan arab tilini yaxshi o'rganib olgan, ilmi hikmatdan xabardor, g'ayratli hukmdor edi. Lekin izzat-nafsi haddan tashqari kuchli bo'lgani uchun ozgina o'tkir gapni ko'tara olmas, asabiyligi tufayli me'da kasaliga yo'liqib, ovqat hazm qilolmaydigan bo'lib qolgan edi. Tabiblar uni tuzata olmay, boshlari qotib turgan paytda ibn Sinodek tabibi hoziqning o'z oyog'i bilan kelishi yaxshilik alomati deb topishdi.

Saroy vaziri ibn Sinoni salomxonaga boshlab olib kirishidan oldin qabul tartibi bilan tanishtirib:

— Fuqaro zoti oliylari huzurlariga kirganlarida yetti qadam berida to'xtab, yer o'padurlar, ammo oliy martabali a'yonlar, olimlar yerga bosh qo'yishdan ozod qilinganlar, — dedi.

"Eronning bir parcha yerida hukmron bo'lgan zot o'zini somoniylardek katta tutar ekan", — deb o'yladi ibn Sino bu gapni eshitib va tap tortmay salomxonaga kirib ta'zim qildi. Qimmatbaho javohirlar bilan bezatilgan taxt ustida qotmadan kelgan, rangi biroz siniqqan zar choponli hukmdor viqor bilan o'tirardi. Xonaning ikki tomonida kimxob, shohi, atlas to'nlar kiyib, bellariga oltin, kumush kamar bog'lagan a'yonlar qo'l qovushtirib turar edilar.

Shamsuddavla Buxoro olachasidan to'n kiygan, qirra burun Abu Aliga bir tikilib, salomga alik oldi-da, uni o'z poytaxtida ko'rganligidan mamnun ekanligini aytdi.

Besh-olti daqiqali tantanali qabul marosimi tugagandan keyin o'zini ko'rsatish uchun uni o'z hujrayi xosiga taklif etdi. Ibn Sino

betakalluflik bilan hukmdorni oddiy bemordek to'shakka yotqizib, tomirini ushlab, bosh chayqadi, keyin qorniga qo'lini qo'yib, ustidan urib ko'rdi-da, o'rnidan turg'izdi.

— Eng oldin a'zoyi badaningiz chiqitlarini tahlil qilib, kasalingiz nima ekanligini keyin aytaman, — dedi.

Ertasiga u Shamsuddavlaning qulanj degan dardga mubtalo bo'lganligini, ya'ni ichagida yara paydo bo'lganligini aytib, sharob ichish va qalampir bilan qovurilgan go'sht yeyish mumkin emasligini uqtirdi va turli giyohlarning urug'idan tayyorlangan bir shisha dori tayyorlab kelganligini ma'lum qildi.

IV

Kundan kunga sog'ayib, tetiklanib borayotgan hukmdor bo'sh vaqtlarida alloma bilan turli mavzularda suhbatlashib o'tirar, uning har tomonlama, chuqur ma'lumot egasi ekanligini ko'rib, hayron qolar edi. Bir kuni u gapni aylantirib, davlat arboblarining qanday xususiyatlarga ega bo'lishi to'g'risida savol berdi.

— Har qanday odam ham vazir yoki hokim bo'lolmaydur, — deb javob qildi ibn Sino. — Hukumat arboblari sog'lom, rostgo'y, so'zga usta, irodali bo'lishlari kerak. Yolg'onchi, firibgar, pul yig'ish payida yurgan poraxo'r amaldorlarni ishdan bo'shatib yuborib, o'rinlariga fazilatli, zulmga va boylik orttirishga nafrat bilan qarovchi odamlarni topib qo'ymoq lozim.

Keyin u qishloq aholisining yukini yengillatish, shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish to'g'risidagi fikrlarini bayon qildi.

Shamsuddavla moliya ishlarini tartibga solish, mustavfiy-hisobchilarning ishlarini tergab turish, poraxo'r amaldorlarni ishdan chetlatib, o'rinlariga halol odamlarni qo'yish to'g'risida xayol surardi. Uzoq mulohazalardan so'ng u ibn Sinodek ilmi hisobni yaxshi biladigan, halol, boylik orttirish niyatida bo'lmagan shaxsni xojayi buzruk — vazir qilib olishga ahd qildi.

Abu Ali ham mamlakatni idora qilish to'g'risidagi g'oyalarini hayotga tatbiq qilmoqchi edi, shu sababdan Shamsuddavlaning taklifini darrov qabul qildi.

* * *

Sipohsolar Tojulmulk shahar tashqarisidagi bog'iga eng yaqin do'stlari, muovinlari, shayxulislom va hokazolarni taklif etgan edi. Suyuq-quyuq ovqatdan so'ng dasturxonga fotiha o'qilgach, yuzko'zini soqol bosgan ot yuzli uy egasi chap ko'zini qisib mehmonlarga shunday dedi:

— Tokaygacha chidab turgaymiz yangi vazirning zulm va taaddiylariga! Zodagon amaldorlarni, bizning yor-birodarlarimizni ishdan bo'shatib, o'rinlariga tagi past mullabachchalar, umri kitob ustida o'tgan olimlarni qo'ymoqda, uch oydan beri askarlar maosh olmaydilar, xazinadagi pul ariq va koriz qazish, ko'prik solishga sarflanayotir, saroyda bizning so'zimiz o'tmay qoldi. Zoti oliyni ul buxorolik jodugarning fusunlaridan qutqarib olmoq kerak...

Uning uzundan uzoq nutqiga sabrsizlik bilan quloq solayotgan shayxulislom mosh-guruch soqolini chimdib:

— Abu Alining qilgan ishlari shariatga ham muvofiq emas, — dedi. — Ul shia mazhabidagi qishloq ahlining yukini yengil qilib, zamindorlarning daromad manbalarini quritmoqda... Eshitishimcha, Abu Alining otasi shia va qarmatlarga yaqin bo'lgan ismoiliylar mazhabida ekan.

— Ana ko'rdingizmi! — deb ko'zlarini o'ynatdi muftiy, — bas, shundog' ekan, ani ishdan chetlatishni zoti oliydan talab etmoq kerak...

Shu majlisda o'tirgan yoshgina bir zobit — shaharning eng mo'tabar kishilaridan biri — Abu Saidning jiyani ibn Sinoni ogohlantirib, uni falokatdan qutqarish kerakligini ko'ngliga tugib qo'ydi. Bir necha oy avval otasi betob bo'lib qolganda tabibi hoziq uni davolab, joniga oro kirgan edi.

V

Ertalabki ziyofat vaqtida Shamsuddavla mulozimlariga qarab:

— Abu Ali har kuni biz bilan nonushta qilguvchi edi, negadir shul mahalgacha daragi yo'q, — dedi-da, bir mulozimiga yuzlanib amr qildi: — Farroshni yuboring, tabibimizni darhol chorlab kelsin.

Jiyakli olabayroq shohi to'n kiygan ko'k sallali mulozim bosh egib ko'chaga chiqib ketdi-yu, birozdan so'ng qaytib kelib:

— Saroyni behisob askarlar o'rab olgan, hech kimni kiritmayotirlar, — dedi.

— Yolg'on! — dedi rangi quv o'chgan hukmdor mulozimiga qarab.

— Rost! — dedi gurs-gurs qadam tashlab kirgan qurolli sipohsolar, — mulozimingiz Mir Atoullo yolg'on aytmadi. Butun lashkar va sipohiylar isyon tug'ini ko'tarib huzuringizga keldi. Janoblarini soxta yo'lga boshlagan vazir Abu Alini ishdan bo'shatib yuborib, jazosini berishni talab eturmiz.

To'rda zarbof to'shak ustida o'tirgan Shamsuddavla bo'zarib:

— Hoy, nonko'r! — deb baqirdi. — Sen bizning marhamatimizga sazovor bo'lding, ne'matlarimizni yeding. Iltifotimiz soyasida behisob davlat va mulk orttirding. Endi itoat ipini uzib, yuzimizga oyoq qo'ymoqchimisan?

— E, zoti oliy, — dedi Tojulmulk qo'l qovushtirib. — Men janoblarining sodiq qulidurman, sadoqat iplarini uzganim yo'q. Biz xojayi buzruk lavozimini egallagan firibgar Abu Aliga qarshi qurol ko'tardik. Uning taaddisi shul darajaga yetdikim, biz jonimizdan to'yib, isyon tug'ini ko'tarishga majbur bo'ldik. Ul sehrgarni bizning qo'limizga topshiring, jazosini beraylik...

Ziyofatda o'tirganlar xuddi til biriktirganday sipohsolarning gaplarini tasdiqlab, ibn Sinoni darhol ishdan bo'shatib yuborishni talab etdilar. Hamma akobir va amaldorlar, lashkarboshilarning bir yoqadan bosh chiqarganlarini ko'rib hukmdor shashtidan tushdi. U chuqur mulohazaga botgan kishidek, chap qo'li bilan tirishgan peshanasini changallaganicha o'yga toldi. Atrofini o'rab olgan isyonchilar uning oqarib ketgan cho'zinchoq yuziga qarab, nima hukm chiqarishini kutib turdilar.

"Hozircha isyon tug'ini ko'tarib kelgan bu beboshlarning gapiga ko'nishdan boshqa iloj yo'q. Keyin oralariga nifoq solib, yana ularni jilovlab olarman", — deb o'yladi u va yonidagi kotibiga yuzlanib:

— Abu Ali ibn Sinoni xojayi buzruklik mansabidan bo'shatib, o'rniga Abu Ja'far Muhammadni tayinlaganimiz to'g'risida farmoni oliy hozirlang! — deb buyruq berdi. A'yonlar yengil nafas olib, bir-birlariga kulib qarab qo'ydilar.

* * *

Abu Ubayd ustodining qo'lyozmalarini ro'molga tugib turgan paytda sovut kiygan bir zobit kirib:

— Hoy Abu Ali, yaxshilikcha taslim bo'ling! — deb do'rilladi.

— Uyda yo'qlar, erta bilan chiqib ketganlaricha qaytib kelganlari yo'q, — deb javob qildi rangi o'chib ketgan Abu Ubayd.

— Yolg'on aytasan, bir yerda yashirinib yotgandir ustoding.

Uning askarlari hamma xonalarni titkilab uy egasini topolmadilar.

— Qayga ketdi, ayt, — deb o'dag'ayladi zobit, hamon o'z ishi bilan mashg'ul bo'lgan sodiq shogirdning tepasiga kelib.

Shu payt narigi xonadan bir-birlari bilan olishayotgan odamlarning shov-shuvi: "Mana, bu yerda ekan, ushladik", — degan ovozi eshitildi. Xonama-xona allomani izlab yurgan askarlar o'rnidan turayotgan Mahmudni Abu Ali deb o'ylab, qo'liga kishan solmoqchi bo'ldilar. Xonaga yugurib kirgan zobit bilan Abu Ubayd ko'zlari qinidan chiqib ketayozgan, mushtini do'laytirgan Mahmudni ko'rdilar.

— O'zingizni bosing, g'azab qo'ziganda uni jilovlab olmagan kishining boshiga falokat keladur, — dedi Abu Ubayd unga yolvorib. So'ngra u yoq-bu yoqlarini titkilayotgan askarlarga qarab so'zida davom etdi: — Sizlar adashibsizlar, bul kishi Shayx ur-rais emas, ularning inilaridir..

— Rost, — deb uning so'zini tasdiqladi zobit. — Bu odam Abu Alining inisi Mahmuddur, men tanimayman, ammo shakl-shamoili og'asinikiga o'xshaydur. Shu sababdan adashgan bo'lsangiz kerak. — U Abu Ubaydga yuzlanib o'dag'ayladi: — Shayx ur-rais qayerda, ayt!

— Bilmayman!

— Aytmasangizlar, uyingizni g'orat qilurmiz!

Uning amri bilan askarlar allomaning uyidagi qimmatbaho gilamlar, tilla, kumush asboblar, idish-tovoqlarni yig'ishtirib ola boshladilar.

Tong paytida Hamadonning eng mo'tabar ulamolaridan Abu Said Nohiyning bir xizmatkori ibn Sinoning uyiga kelib, voqeadan xabardor qilgan va uni xo'jasining uyiga boshlab kelgan edi. Yoshi yetmishdan oshgan Abu Said allomani eski qadrdon do'stidek qabul qilib, unga uyidan alohida xona ajratib berdi. U hukmdorlar ta'qibi ostidagi bu begunoh ulug' odamni o'z himoyasi ostiga olganidan behad xursand bo'lar, bo'sh vaqtlarida u bilan suhbatlashib o'tirar edi.

Ibn Sino "Kitobi ash-shifo" nomli buyuk asarini shu yerda tugatish niyatida edi. Bir hisobda shu mo'tabar odamning uyida berkinib yotganidan, ishlash uchun imkoniyat topganidan u xursand, uy egasi esa mehmonning ishlab charchamaganiga hayron bo'lar edi.

Zavq-shavq bilan ishlagan hakimi hoziq vaqtning qanday o'tganini bilmas, kasali kundan kunga kuchayib borayotgan Shamsuddavlaga esa oradan o'tgan bir yil asrdek tuyular edi. U faqat ulug' tabibi hoziqqa ishonar, shu sababdan boshqa tabiblarning bergan dori-darmonlari unga kor qilmas edi.

— Abu Alini toping, bo'lmasa bu dardi bedavodan o'laman, — dedi u qornini changallab.

Saroy amaldorlari vahimaga tushib, ibn Sinoni axtara boshladilar. Abu Ubayd bilan Mahmud shahardan chiqib ketgan edilar.

Bir kuni Abu Said mehmonini ahvoldan xabardor qilib:

— Sizni uyma-uy axtarayotirlar, agar mening uyimdan topsalar, ishim xarob, — deb qoldi.

— Janoblaridan shuncha yaxshilik ko'rdim, endi yomonlik qilmay, o'z oyog'im bilan o'shal dargohga boray, — dedi alloma o'rnidan turib.

VI

Ibn Sino kiyinib, boshiga ko'k sallasini o'radi-da, dadil qadam tashlaganicha ko'chaga chiqib saroy tomon yo'l oldi. Darvozabon ham, ichkaridan chiqib kelayotgan kimxob, shoyi to'nli mulozimlar ham uni ko'rgach, salom berishni unutib, turgan joylarida qotib qoldilar. Ibn Sino ular bilan salomlashib, hol-ahvol so'rashdi.

— Bemor tuzalgisi kelsa, tabib o'z oyog'i bilan kelur, — dedi hujrayi xosda zarbof to'shak ustida o'tirgan hukmdor, saroy vaziri bilan birga kirib ta'zim qilgan ibn Sinoga. — Qani, o'tirsinlar. Avvalo shuni aytayki, sizga nisbatan adolatsizlik qildik. Mana, endi yo'l qo'yilgan xatolarning fojiasini boshimizdan kechirmoqdamiz. Shul sababdan sizdan uzr so'raymiz. Siz taqdirning sinovlariga bardosh berib kelgan mard odamsiz. Keling, o'tgan ishlarni unuting, marhamatimizdan foydalanib, yangi va yangi kitoblar yozing, ma'rifat urug'larini soching.

Ibn Sino ta'zim qilib uning uzrini qabul qilganini bildirdi-da, yaqinroq borib tomirini ushlab ko'rdi.

"U endi qirq yoshga qadam qo'ygan bo'lsa ham, chakkalari oqarib, ko'zlarining atrofini ajin bosipti, — deb o'yladi Shamsuddavla. — Berkinib yotgan joyida jonini ayamay ishlagan bo'lsa kerak, lekin ruhi so'nmagan, ko'zlarida g'ayrat, aql-zakovat nuri porlab turibdi".

Tabibi hoziq esa rangi sarg'ayib ketgan bemorga tikilib: "Arzimagan narsaga xunob bo'lish, ichkilikni me'yoridan oshiq ichish natijasi bu", — deb o'yladi va o'z fikrlarini yotig'i bilan bayon qildi.

— Rost, — deb uning gapini tasdiqladi Shamsuddavla. — O'zingizga ma'lum, boshimga og'ir kunlar tushdi, dunyoning tashvishlarini unutish uchun mayga yopishib oldim. Siz yonimda bo'lsangiz, inshoolloh, menga shifo eshigini ochib berursiz.

Yonida qomatini tik tutib o'tirgan keng peshanali hakimning vajohatiga qarab, uning qo'lidan davo topishiga ishonch hosil qildi. Oradan bir hafta o'tmay, saroy ahli hukmdorning rangi tozarib, o'zi tetiklashib qolganini ko'rgach, yoqalarini ushlab: "Bul tabibda bir gap bor, u jodugar", — deyishardi.

Bir kuni ibn Sino hukmdorni ko'rgani borganda:

— Yana mamlakat jilovini qo'lga oling, yana xojayi buzruk bo'ling, — dedi u.

— Kishi bir ishni ikki marotaba sinamasligi kerak, — dedi ibn Sino sochlariga oq oralagan hukmdorga tik qarab.

— Qo'rqmang. Men nobop amaldorlarni ishdan chetlatib, o'rinlariga boshqa birovlarni qo'ydim. Saroy vaziri ham, bosh

mustavfiy — xazinador ham sizga xayrixoh odamlar. Tojulmulkni qo'limga o'rgatib oldim, Tojulislomning qishlog'ini olib berganimdan so'ng, ul nafsi buzuq mullo bo'lgan ayiqdek qo'limni yalaydurgan bo'lib qoldi. Siz undan qo'rqmang. Mavqeyimni mustahkamlab olganman, men bilan maslahatlashib ehtiyotkorlik bilan ish olib borsangiz, falokatga yo'liqmagaysiz!

"Xiyonat qilmasligimni, xizmatim uchun yer-mulk talab qilmasligimni u yaxshi biladi. Shu sababdan menga qattiq yopishib olgan", — deb o'yladi ibn Sino.

— Janoblarining takliflarini qabul etmoqdan boshqa chora yo'q, — dedi u vazirlik lavozimini qabul qilishga rozilik berib.

VII

Alloma qurol kuchi bilan emas, savdo-sotiq, hunarmandchilik va ziroatchilikni rivojlantirish orqali mamlakatni boyitish kerak, degan aqidasiga rioya qilar edi. Qo'ni-qo'shnilarga hujum qilib, o'lja olish payida yurgan askarboshilarga uning bu siyosati qo'l kelmas edi.

"Bu holda askarlarning nima keragi bor? Agar qilich-qalqon ishga yaramasa, jangchilar ularni hujraga osib qo'yib, qo'llariga shaqildoq va dovul olishlari kerak ekan-da! Bo'lmagan gap! Agar boyib ketgan qo'shni amirlarga hujum qilib o'lja olib turilmasa, askarlar ham, sarkardalar ham jang rusumini unutib qo'yadurlar-ku", — deb po'ng'illar edilar sarkardalar. Ular turli vositalar bilan hukmdorni o'z yo'llariga solishga urina boshladilar.

Bir kuni Shamsuddavla ibn Sinoga:

— Menga hozircha ellik ming dinor pul kerak bo'lib qoldi, — dedi e'tirozga yo'l qo'ymaydigan ohangda.

— Sizning har bir farmoningizni bajo keltirmakka tayyorman, — dedi hukmdorga e'tiroz qilishga haddi sig'magan vazir. — Ul holda shifoxona va madrasa qurilishini to'xtatib qo'ymoq kerak.

— Mayli! Bekor ishga chaqirilgan dehqonlar o'z joylariga jo'natilsin, ustalar dam olsinlar.

"Shuncha mablag' nimaga kerak bo'lib qoldi?" — degandek, ibn Sino uning ajin bosgan oppoq yuziga qarab qoldi.

Shamsuddavla allomaning ko'nglidagi gapni topib, qovog'ini soldi.

— Ko'pdan buyon muhoraba bo'lmagani uchun qilichlar zanglab, askarlar jangovarlik xislatini yo'qotmoqdalar. Olingan ma'lumotlarga ko'ra qo'shnimiz Kirmonshoh viloyatidagi Torim shahri amirning xazinasi tillo va kumush bilan to'lgan emish. Bir hamla bilan ham boylik orttirgan, ham sizning sulhparvarlik siyosatingizga qarshi bo'lgan sipohiylarni tobe' qilgan bo'lurmiz.

— Podshohning amri vojib, — dedi alloma siyqasi chiqqan eski gapni ishlatishga majbur bo'lib.

* * *

Shamsuddavla tishidan tirnog'igacha qurollangan qo'shin oldida gijinglab ketayotgan arabiy otining jilovini tortib borar, orqasidan saf tortib kelayotgan otlarning kishnashini, o'lja talab lashkarning g'ovurini eshitib ko'ngli ko'tarilar edi.

Tushga yaqin etagidan buloqlar qaynab chiqib turgan serdaraxt tog' yonbag'riga lashkargoh qurildi. O'rtaga tikilgan ipak chodir ichida dam olib o'tirgan hukmdor bir tovoq yaxna go'sht keltirgan mulozimiga iljayib:

— Eng avval yurakka quvvat, belga mador bag'ishlaydurgan sharob-nobdan keltir, — dedi.

Uning sog'lig'iga posbon bo'lgan tabibi hoziq poytaxtda qolgan, endi u ko'nglining ko'chasiga kelgan hirslardan o'zini tiyolmas edi. G'alaba qozonishga qattiq ishongan lashkarboshilar ham unga taassub qilib, xursandchilikka berildilar. Holbuki, Torim amiri o'zining xufyalari orqali dushmanning qo'shin tortib kelayotganidan xabar topib, tayyorgarlik ko'rib qo'ygan, tog' etagidagi qulay bir joyga lashkargoh qurib yovning kelishini kutar edi.

Erta bilan uning askarlari ufqdan bosh ko'tarib chiqqan oftobga orqalarini o'girib saf tortdilar. Karnay-surnaylar askarlarning ruhlarini ko'tarib mardlik ko'rsatishga da'vat etar edi.

Shovqin-suron bilan nayzalarini otlarining qulog'iga qo'yib, oyoqlarini uzangilarga tirab uchib kelayotgan Hamadon suvoriylarining oldingi safi avvaldan qazib, ustiga shox-shabba tashlangan xandaqlarga qulab tusha boshladilar. Yiqilgan otlarning

kishnashi, mayib bo'lgan otliqlarning ingrashi eshitildi. Ikkinchi, uchinchi qatordagi suvoriylar otlarining boshlarini yon tomonga burdilar, ularning saflari aralashib ketdi. Asosiy kuchlar to'qnashmasdan burun ro'y bergan bu hodisa hujumchilar uchun yomon alomat edi. Ikki tomonning piyoda askarlari urushib turgan paytda Torim suvoriylari yon tomondan bostirib kelib qolishdi. Hamadon qo'shini pala-partish chekina boshladi.

Mag'lubiyat xanjari ko'ksiga sanchilgan Shamsuddavlaning egar ustida o'tirishga ham quvvati qolmagan edi. U otini mulozimiga topshirib, shakli tobutga o'xshagan taxtiravonga chiqib oldi, to'rt barzangi yigit uni ko'tarib jarlar, jilg'alar, tepalar orqali poytaxt tomon yo'l oldilar. Yonida bo'lgan tabiblar uni o'lim changalidan qutqarishga harakat qilib ko'rdilar, biroq ularning urinishlari bekor ketdi. Shamsuddavla Hamadonga yetmasdan yo'lda qazo qildi. Uni dafn etishdan oldin a'yon va akobirlar to'planib, shahzoda Samouddavlani taxtga o'tirg'izib, boshiga toj kiygizdilar.

QAMOQDA

I

Taxtda kerilib o'tirgan, chertsa betidan qon tomadigan *lo'ppi* yuzli yosh hukmdor ibn Sinoning qo'lidan arizasini olib o'qidi-da, qovog'ini solib:

— Iste'folarini qabul etmayman, borib vazifangizni bajaaring, — dedi.

— Yalinib-yolvorib so'rayman: meni bul og'ir vazifadan *ozod* etsinlar. "Al-qonuni fit-tib" nomli asarimni tamomlash niyatidaman.

— Yaxshilikni bilmas ekansiz, — dedi Samouddavla so'zini o'tkaza olmagandan keyin. — Hamadon shahrida iste'dodli davlat arboblari qurib qolgani yo'q. Boring, chala qolgan ishingizni bitiring!

Alloma chiqib ketgandan keyin hukmdor Tojulmulkni chaqirtirdi.

— Afsuski, shunday tajribali odam sizga xizmat qilmoqdan bosh tortibdur, — dedi mag'lubiyatdan keyin chap ko'zi yumilib qolgan sipohsolar uning gapini eshitib. — Rost, o'zi halol, serg'ayrat odam, shul qadar ziyrakki, mustavfiy-hisobchilarning daftarlarini bir ko'zdan kechirishdan xatolarini topadur, ammo keyingi vaqtlarda ilmiga mag'rur bo'lib kibr-u havo hosil qildi, ulug'larni nazar-pisand qilmay qo'ydi. Lekin bir asp yurish bilan uni mot qilish qiyin emas. Podshohning amrini vojib deb bilmagan odamning qay ahvolga tushuvini o'z ko'zi bilan ko'rsin!

Oradan ikki hafta o'tar-o'tmas u hukmdorning huzuriga kirib ta'zim qildi-da:

— Mana Abu Alining xiyonatini isbotlovchi dalil, — dedi naycha qilib o'ralgan nomani uzatib.

Zardo'z choponi yaltirab turgan Samouddavla uni qo'lga olib:

— Mazmunini aytib bera qoling, ochib o'qib o'tirishga toqatim yo'q, — dedi sabrsizlik bilan.

— Abu Alining uyida ayyor bir qul bor, bizning xizmatimizda, — deb hikoya qila ketdi ot yuzli sipohsolar miyig'ida kulib. — Hojasining uyiga kim kelib, kim ketib turgani, nimalar haqida so'zlashganlari to'g'risida bizga ma'lumot berib turadur. U bir kuni hojasining noma'lum bir odamga noma topshirib, kechasi uni Isfaxonga jo'natganidan bizni xabardor qildi. Men darhol chapdast suvoriylarimdan ikki nafarini orqasidan yugurtirdim. Ular yarim tunda choparning orqasidan yetib borib, qo'lidan shul nomani olib izlariga qaytubdirlar...

Tojulmulk nafasini rostlab oldi-da, unga savol nazari bilan qarab qolgan hukmdorga ta'zim qilib, so'zini davom ettirdi:

— Ma'lum bo'ldiki, Abu Ali Hamadonda ishlash uchun imkon yo'qligidan shikoyat qilib, Alouddavladan boshpana so'rabdur.

— Jinoyatni jazosiz qoldirib bo'lmaydur. Uzoq muddat vazir bo'lib, ichki ahvolimizdan xabardor bo'lgan bir shaxs dushmanimiz bilan aloqa bog'lamoqchi bo'ladur-ku, biz qarab tururmizmi? Abu Alini zanjirband qilib, shahar qal'asiga jo'nating. Bir-ikki yil zindonda yotsa, shira bosgan ko'zlari ochilar...

— Bosh ustiga, — dedi sipohsolar orqasi bilan yurib chiqib ketar ekan.

II

Hamadon shahri tashqarisidagi qal'aning boshlig'i Yaqzon — yoshi qaytgan, sochlari oqargan bo'lsa-da, bardam, tetik chol edi. Allomaning qo'llariga kishan solib olib kelganlarida ko'pni ko'rgan bu irodali odam dovdirab, nima deyishini bilmay qoldi. Marhum hukmdorning vaziri, tevarak-atrofga nomi ketgan ulug' tabibi hoziqni bu ahvolda ko'rishini xayoliga keltirmagan edi u. Allomaga beixtiyor ta'zim qilib, uni boshlab kelgan qurolli chokar qo'lidan qog'ozni oldi-da, qovog'ini solib:

— Senga javob, — dedi Yaqzon, so'ngra oliymaqom mahbusning bilagidagi kishanni yechib olib, unga hayrat aralash qaradi. — Sizni shul ahvolda ko'rib hayratda qoldim. Podsholarga yaqin bo'lishning xatarli ekanligi to'g'risidagi maqol yana bir marotaba tasdiqlandi. Ertaga boshiga nima tushishini hech kim bilmaydur. Hammamiz taqdirning qo'lida o'yinchoqmiz. Hay, mayli, bugundan boshlab men sizning xizmatingizdaman. Yuring men bilan, sizga bir hujra ko'rsatay.

U ibn Sinoni boshlab, darichasi kun yurishi tomonga qaragan kattagina bir xonaga olib kirdi.

— Sizga ko'rpa-to'shak keltirib beradurlar. Kunduz kunlari qal'a hovlisida istaganingizcha istirohat qilishingiz mumkin.

— Menga bir xontaxta va po'stak ham kerak. Shu xonada ertadan kechgacha o'ltirib ishlayman. Asarim "Al-qonuni fit-tib"ni shul yerda tamomlamoq niyatidaman. Ertaga shogirdim menga qog'oz, qalam-dovot keltirgusidur.

— Marhamat, siz shul qadar ulug' bir ishni tugallamoqchi bo'lsangiz, men hech narsamni ayamayman.

Zanjirband bo'lib qal'aga jo'natilganda dunyo ko'ziga qorong'i bo'lib ketgan Abu Ali qal'adorning og'zidan bu gapni eshitib biroz o'ziga keldi.

Ertasiga Mahmud bilan birga kelgan Abu Ubayd darvozaxonada ustodi qo'liga buyumlarni berdi-yu, o'pkasi to'lib ketib, yig'lab yubordi.

— Nega xafa bo'layotirsiz, Juzjoniy, — dedi alloma kulimsirab. — Nodon hukmdorga vazir bo'lgandan dono bir zindonchining qo'lida mahbus bo'lgan ming marotaba a'lo. Ul yerda vaqtim ig'vogarlar makoni bo'lgan serg'avg'o saroyda o'tar edi, bu yer osuda, ishlarimni oxiriga yetkazish uchun imkoniyat bor.

— Bizni yupatish uchun shul gaplarni aytayotirsiz, og'a, — dedi Mahmud xo'rsinib. — Axir, bu xo'rlik-ku! Bul musibatdan qutulishning hech iloji yo'qmi?

— Taqdir bilan olishib bo'lmaydur, inim, — dedi ibn Sino mayin ovoz bilan. — Mardlik har qanday sinovlarga bardosh berish demakdir. Zamon doim o'zgarib turadur, hatto inson fe'li ham. Sen mardlik ko'rsatmoqchi bo'lib, boshimizga bir falokat keltirma. Sabr qil, tasodif bo'roni baxt keltirishi mumkin.

Mahmud uf tortib qo'ydi. Birpas u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirganlaridan keyin xayrlashib chiqib ketishdi.

Yaqzon ibn Sinoning tinmasdan ishlaganiga hayron qolar: "Nega muncha jon koyitmasa, kechalari ham sham yoqib mehnat qiladi-ya!" — deb o'ylar edi. Alloma erta bilan xontaxta yoniga o'tirib kun tikka kelguncha ishlar, tushlikdan keyin tashqariga chiqib, o'rmonzor tog'lardan oqib kelgan toza havodan to'yib-to'yib nafas olar edi. Ba'zan qal'ador bunday vaqtlarda uning yoniga kelib suhbatlashardi.

Bir kuni u:

— Hech kitob o'qib o'tirganingizni ko'rmadim, yozganingiz yozgan, qayerdan qaynab chiqadur shuncha gaplar? — deb so'rab qoldi.

— Qadimgi yunon hakimlarining asarlarini o'qiyverib yod qilib olganman, — dedi ibn Sino kirtaygan ko'zlari bilan kulimsirab. — Dori-darmonlar, giyohlarning nomlari xotiramga mixlanib qolgan.

— Koshki edi sizdagi hofiza quvvatning o'ndan biri menda bo'lsa! — deb xitob qildi qal'ador. — Ming-minglab bilim manbalaridan durdonalar olib chiqasiz. Siz odam bolasi qo'lidan kelmaydurgan ishlarni qilmoqqa muhtadirsiz. Xudo besh yuz yilda bir marta sizdek zakovat egasini yaratishga qodir bo'lsa kerak!

Ibn Sino o'z iste'dodi oldida tiz cho'kkan odamlarni ko'p uchratgan edi-yu, bunday mutaassib muxlisga duch kelmagan edi. U ishlab charchagan paytlarida o'zini chalg'itib orom olish uchun badiiy qissa va hikoyalar yozar, falsafiy fikrlarini badiiy vositalar

bilan ifoda qilishga urinardi. Bir kuni Yaqzon uning hujradan jilmayib chiqqanini ko'rib dedi:

— Ajoyib bir asar yozib xursand bo'lganga o'xshaysiz.

— Topdingiz, sizga bag'ishlab bir qissa yozdim. Nomingiz meni ilhomlantirdi. O'zingiz bilasiz. Yaqzon — uyg'oq demak. Kishi bedor mahalidagina o'zini tirik hisoblashi mumkin, uyqu o'lim bilan barobardur. Qissaning nomi "Hay, binni Yaqzon — Uyg'oq o'g'li — tirik". Quloq soling.

U hikoyani o'qir ekan, qal'adorning peshanasi tirishar, hech nima tushunmagani ko'zga tashlanib turar edi.

— Rostini aytsam, bul hikoyaning mag'zini chaqa olmadim. O'ng tomondagi yomon do'st kim bo'ldi-yu, so'l tomondagisi kim? Nega ular kishini yo'ldan uradurlar? Sayohat, qorong'ilik, chashma nimaning ramzi? Bularning majoziy ma'nosi bo'lsa kerak?

— Topdingiz, o'ng tomondagi qabih oshno — qahr-u g'azab, so'l tomondagisi — shahvat, old tomondagisi — ezmalik, bema'ni xayolparastlik. Ularga yo'l qo'yilsa, kishi xarob bo'ladur. Aql o'zining dushmanlari bo'lgan bu yaramas oshnolarni jilovlab turishi, ularga erk bermasligi kerak. Sayohat — ilm, qutb tomondagi qorong'ilik — nodonlik, chashma esa ilmning ramzi.

— Endi tushundim. Hikoyani menga bering, uyda diqqat bilan o'qib chiqib, tubiga yetay.

— Unday bo'lsa, manavi qissalarni ham o'qib chiqing, keyin o'z mulohazalaringizni aytarsiz, — dedi alloma yonida turgan bir dasta qog'ozni juzvdonga — charmdan yasalgan jildga joylab unga uzatar ekan.

Qal'ador xursand bo'lib juzvdonni qo'ltiqlaganicha chiqib ketdi.

* * *

Kecha-yu kunduz aqliy mehnat bilan mashg'ul bo'lgan alloma vaqtning qanday tez o'tayotganini sezmas edi. Oftob necha marotaba qal'a ustidan o'tib g'arbga botganini, oy necha karra yangi bo'lganini hisoblab o'tirishga vaqti yo'q, fikri-zikri ulug' asarini tezroq tamomlash bilan band edi. Bir kuni u tushlikdan keyin dam

olgani tashqariga chiqqanida uzoqdan nog'ora ovozi va hayqiriqlarni eshitib hayron qoldi. Qal'adagi askarlarning bir qismi o'q otish, bir qismi nayza sanchishni mashq qilayotgan edilar.

— Nima gap? — deb so'radi ibn Sino yonidan shoshib-pishib o'tib ketayotgan askarboshidan.

— Xabarlari yo'qmi? Isfaxon lashkari ustimizga bostirib kelgan. Tog' yonbag'rida jang bo'layotir. Xudo zafar bersa, yosh hukmdorimiz Allouddavla ustidan zafar qozong'aylar.

Ibn Sino bu voqeaning nima bilan tugashini fahmlab, shoshganicha hujrasiga qaytdi-da, qo'lyozmalarini tartibga solib ro'molga bog'ladi. Endi o'tirib ishlashga qo'li bormas, yuragi ozodlikdan darak berib turar edi.

* * *

Qorong'i tushganida mag'lubiyatga uchragan Samouddavla bir qism askari bilan qal'aga kirib berkinib oldi. Uning rangi o'chgan, qoni qochgan, chehrasida g'azab aralash umidsizlik ifodasi ko'zga tashlanib turar, qo'li oltin kamariga osilgan kumush dastali qilichining qinida, harsillab nafas olar edi.

— Yursinlar, xonamga kirib orom olsinlar, — dedi qal'ador ta'zim qilib. — Noumid bo'lmang, omad qushi yana qaytib kelib, boshingizga qo'nar...

— Tojulmulk qayda qoldi? Asir tushdimi yoinki juftagini rostladimikan? — dedi ko'zlarini javdiratib, mag'lub bo'lgan hukmdor.

— Bilmadim, ul bema'ni va aqli noqis odamdan har narsani kutish mumkin. Torim amiri bilan bo'lgan jangda layoqatsizligini bir marotaba ko'rsatgan edi. Bugun qanday sarkarda ekanligi ma'lum bo'ldi.

— Men yoshlik qilib ulug' xatoga yo'l qo'ydim, unga ishondim. Hay, mayli, otgan o'qni qaytarib bo'lmaydur, hali ham bo'lsa shul berk qal'ada dushmanga qarshilik ko'rsatib, hujumga o'tamiz. Shoyad omadimiz o'ngidan kelsa...

Yaqzon oqargan boshini quyi solib:

— Bizda bir oyga yetar-yetmas ozuqa bor, xolos. O'n-o'n besh kun jang qilib, keyin Alouddavla bilan muzokara boshlasak! Agar

siz janoblarini taxtingizda qoldirib, ma'lum miqdorda boj-xiroj bilan qanoatlansa... — dedi.

Samouddavla qal'adorning uzundan uzoq gapiga diqqat bilan quloq solib, nihoyat, uning maslahatiga kirishga majbur bo'ldi, keyin gapni boshqa yoqqa burib, tashvishlarini unutishga urindi:

— Shayx ur-raisga nisbatan adolatsizlik qildim. Shunday ulug' odamni zanjirband qilib qamatib qo'ydim-a! — dedi xo'rsinib. — Ul kishini erta bilan ozod qilib yuboring, qilgan ishimdan afsuslanayotganimni ham ayting.

— Bosh ustiga, — dedi qal'ador xursand bo'lib.

BAXT VA MUSIBAT

Yaqzon ibn Sinoga bir chokarini hamroh qilib, qal'adan chiqarib yubordi.

Hamadon Alouddavla qo'liga o'tgan, shahar osoyishta, Samouddavla esa qolgan-qutgan askarlari bilan qal'ada berkinib yotar edi.

Alloma shaharga kirib, soy bo'yidagi dang'illama bir uy oldiga kelib to'xtadi. Chokarning yelkasidagi xurjunni olib, qo'liga bir tanga qistirdi-da, unga javob berib yubordi. U uzoqlashib ko'zdan g'oyib bo'lgandan so'ng darvozaning halqasini ushlab taqillatdi. Tashqarisidagi gulzori atrofida aylanib yurgan Abu Said Nohiy asta yurib kelib, darbozaning o'ng tabaqasidagi kichkina eshikni ochdi-yu, oppoq soqol bilan qurshalgan yuzi yorishib ketdi.

— E, keling, keling, qadamlariga hasanot, — dedi u salomga alik olgandan keyin. — Men sizdan xavotir olib yurgan edim. Haytovur, sog'-salomat ekansiz.

— Ming qatla shukur. Ba'zan musibat ham kishini baxt-omad eshigi oldiga olib kelib qo'yar ekan. Ozodlikda to'xtab qolgan ishim qamoqda yurishib ketdi, — dedi alloma xurjundagi qo'lyozmalarga ishora qilib.

— Buni qarang-a, oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug', deb bekorga aytmagan ekanlar. Qani, ichkariga!

Ibn Sino bir necha kun bu mehmondo'st, xushfe'l odamning uyida yotib, yana qo'liga qalam oldi, asarining chala qolgan yerlarini to'ldirdi. Bir kuni kechqurun uy egasi yangilik topib keldi.

— Inshoolloh, urushdan qutuldik, — dedi u kulimsirab. — Ikkala hukmdor yarash bitimi tuzubdurlar. Boj-xiroj to'lab turish sharti bilan Samouddavla o'z o'rnida qoldirilibdur.

— Undog' bo'lsa, men Hamadonda qolmayman, — dedi ibn Sino xontaxta ustidan qo'lyozmasini yig'ishtirib juzvdonga solar ekan. — Mehmondo'stligingiz uchun rahmat, endi menga javob bersalar. Kalxatning changaliga tushmaslik uchun qanot qoqib uchib ketsam.

Abu Said uni olib qololmasligiga ko'zi yetgandan keyin ijozat berdi. Alloma uyiga borib, hamma narsa joyida ekanligini ko'rgach, xotirjam bo'lib shogirdi va ukasi bilan yo'l hozirligini ko'ra boshladi.

— Ishqilib, safarimiz bexatar, omadimiz o'ngidan kelsin, Xudodan so'raganim shul, — dedi ustodi bilan yonma-yon ketayotgan Abu Ubayd otining jilovini asta siltab.

Ular past-baland dovonlardan o'tib, tezoqar soylardan kechib, Arab Iroqi bilan Xuroson o'rtasidagi katta qal'a bo'lgan Isfaxonga yetib kelishdi. Shahar darvozasidan kirishlari bilan Alouddavlaning mulozimlari ularni tantana bilan kutib oldilar. Kimxob chopon kiygan, chambar soqolli bir a'yon baland ovoz bilan:

— Xush kelibsiz, safo kelibsiz, ey olimlarning sardori! Qadamlariga hasanot, — deb allomani qutladi. Hukmdorning bir chokari ibn Sinoga zar yoqali zarbof to'n kiygizib, kumush yuganli arabiy otni ko'ndalang qildi.

* * *

Qop-qora soqolini qomatiga yarashadigan qilib qirqtirgan o'rta yoshli, to'la yuzli Alouddavla taxt oldida yoyilgan gilam ustida o'tirar, chap tomoniga tiz cho'kkan allomaga ko'z qirini tashlab qo'yib, unga ketma-ket savol berardi, davlatni boshqarish to'g'risidagi fikrlarini bilmoqchi bo'lar, uning gaplarini eshitib ma'quldaganday, bosh irg'ab qo'yar edi.

— Bizning poytaxtimizga qadam ranjida qilganingiz yaxshi bo'ldi, — dedi u ko'ksini ko'tarib. — Siz saroyimizning bezagi bo'lasiz, atrofingizga ilmi hikmatdan xabardor yoshlarni to'playsiz. Haftada bir yig'ilib diniy, ilmiy masalalar yuzasidan muboha-sa va munozara o'tkazsak, siz bul ishga bosh bo'lsangiz.

— Ayni muddao. Munozaralar vaqtida ko'p mushkul tugunlar yechilib, noaniq masalalar hal etilgay, — dedi alloma boshini ko'tarib.

Shundan keyin saroyda har juma kuni olimlar to'planib suhbat o'tkazadigan bo'ldilar. Ko'pincha, Abu Ubayd "Kitobi ash-shifo"dan bir bobni o'qir, unga diqqat bilan quloq solib o'tirgan some'lar tushunmagan yerlarni so'rar edilar. Ibn Sino savollarga javob berib, qiyin masalalarni ham osongina tushuntirar edi. Shundan keyin munozara boshlanar edi.

Olimlarning nima to'g'risida mubohasa qilayotganlarini bilishga qiziqib qolgan muftiy Xoja Idris hukmdorning ruxsati bilan shunday majlislarning birida ishtirok etdi. Abu Ubayd kitobdan bir bobni o'qib, nafasini rostlagandan keyin har yoqdan savollar yog'ila boshladi.

— Ayo, ey, Shayx ur-rais, — deb ibn Sinoga murojaat etdi oppoq soqolli, o'ng ko'zi qizargan, qorni katta muftiy. — Siz, moddiy dunyo abadiy, ul to'rt unsur, ya'ni tuproq, suv, havo va olovdan iboratdur, ular samoviy jismlar, oftob va yulduzlar ta'siri ostida bir-birlari bilan qo'shiladurlar, ajraladurlar debsiz-u, lekin bul ishlar Xudo amri bilan bo'lishini aytmabsiz.

Zar choponli Alouddavlaning o'ng tomonida o'tirgan ibn Sino muftiyning gaplariga quloq solib: "Meni kofir deb e'lon qilmasa edi bu mutaassib mullo", — deb o'yladi.

— Men buni inkor etmayman, — dedi o'ng ko'zi yoshlanib turgan raqibiga tikilib. — Men koinot, ya'ni moddiy dunyo nuri ilohiydan paydo bo'lgan, ul azaliy va abadiydur, deb aytganman. Moddiy olam sababiyat qonuniga binoan o'zgarib, taraqqiy etib boraveradur.

U qomatini tik tutib, some'larning ko'zlariga bir-bir qarab, ishonch bilan gapirar edi. Nutqini tamomlaganda ko'pchilik barayariga uning fikrlari to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

Hukmdor ham allomaga xayrixohlik bilan quloq solayotganini ko'rib, muftiyning nafasi ichiga tushib ketdi.

Majlis tamom bo'lib, hamma tarqalgandan keyin ko'cha tomon yo'l olgan Xoja Idris yonidagi malla to'nli mulozimiga o'girilib:

— Ibn Sinoning ta'limoti shariatga xilofdur, — dedi negadir ovozini pasaytirib. — Bizning aqidamizga binoan, Xudoyi taolo: "Kun!", ya'ni "Paydo bo'l!" — degandan so'ng koinot vujudga kelgan. Abu Ali esa Yaratuvchi ham, yaratiluvchi ham azaliy va abadiy deb, ikkinchisini birinchisidan ustun qo'ymoqchi bo'ladur. Afsuski, hukmdor ham uning so'zlarini ma'qullamoqda. Shul sababdan men sukut saqladim. Keyinchalik ulamolar Abu Alining ta'limoti dini islomga nomuvofiq ekanligini isbot qilib bergusidirlar. Hozircha jim yurgan yaxshi.

* * *

Bir kuni ibn Sino uyga kechikibroq keldi, oshpazi tayyorlagan ovqatdan ikki-uch qoshiq olib, kosani surib qo'ydi-da, bir piyola sharob keltirishni buyurdi. Abu Ubayd devondan horib charchab kelgan ustodi yoniga o'tirib, unga savol nazari bilan qaradi.

— Nimani so'ramoqchi bo'lganingizni bilib turibman, — dedi ibn Sino kirtaygan ko'zlarini unga tikib. — "Ishlaringiz qalay, hukmdorning taklifini qabul qildingizmi?" deb so'ramoqchisiz. Bunga ham "ha", ham "yo'q" deb javob berishim mumkin. Aloudda vla haddan tashqari mag'rur va izzat-nafsi kuchli hukmdor. Shu sababdan, hozircha maslahatchi sifatida ish boshlab, vaziringiz bilan devon mustafiylarining ishlarini tekshirib chiqsak, deb iltimos qildim. "Mayli, eng keragi xazina ishlarini tartibga solishdir, keyin bir gap bo'lar", — deb javob qildi Alouddavla. Shunday qilib, ehtiyotkorlik bilan vazirlik mansabidan voz kechdim.

— Yaxshi qilibsiz. Shu bilan birga, hasad ahlining qo'llaridan qurollarini tortib olibsiz, — dedi Juzjoniy xursand bo'lib.

Ibn Sino har kuni sahar turib yangi boshlagan asarini tezroq tugallashga urinar, nonushtadan keyin devonga borib, hukumat ishlari bilan shug'ullanardi. U g'alamis mustafiy-hisobchilarning daftarlarini ko'rib, jo'rttaga yo'l qo'ygan xatolarini darrov topar,

ularga nisbatan qattiq chora ko'rar edi. Bir-ikki yil ichida davlat ishlari tartibga tushdi. Alouddavla bundan juda xursand edi.

Alloma ba'zan o'z ishlariga qattiq berilib ketib, saroy urf-odatlariga rioya qilish, hukmdorga nisbatan izzat-hurmat qoidalarini bajo keltirishni unutib qo'yar edi. Bir kuni butun diqqatini bir yerga to'plab "Donishnoma" degan asarini yozayotgan vaqtda hukmdorning yaqin mulozimlaridan biri salom berib kirdi-da, qo'lidagi zarbof bo'g'chani ko'rsatib:

— Zoti shohonalari janoblariga qimmatbaho sovg'alar yubordilar, — dedi.

Alloma o'ng qo'lida qalam, boshi bilan narigi xonaga ishora qildi:

— Xizmatkorimga berib keting, keyin ochib ko'rarman, hozir vaqtim yo'q!

Lab-dahani so'ljayib ketgan mulozim: "Shoshmay tur, bu gapingni gazak oldirib oliy hazratning quloqlariga yetkazmasam, men ham yurgan ekanman", — deb ont ichib, chiqib ketdi.

Kun botgandan keyin ibn Sino umrida hech ko'rmagan notanish bir kishi uning uyiga pusib kirib:

— Darhol Isfahondan jo'nab keting, — dedi past ovoz bilan. — Alouddavla hazratlari g'azabga kelganlar. "Mening tuhfamni nazar-pisand qilmagan odam o'limga loyiq", — deb aytdilar. Hozir cho'bdorlar kelib, sizni olib ketgusidurlar, darhol qoching!

Podshoning sovg'asini ochib ko'rishga ulgurmagan alloma boshi xavf ostida qolganini payqab, qochishga hozirlik ko'rdi. Eggiga xizmatkorining to'nini kiyib, qo'liga aso oldi-da, shahardan chiqib ketdi. Yo'lda savdogarlar karvoniga qo'shilib, shimol tomon yo'l oldi.

YANGI SHOGIRD

U bir vaqtlar osuda hayot kechirgan Ray shahriga yetib kelgandan keyin karvonsaroyda dam olib o'ziga keldi, nonushtadan so'ng, ul-bul xarid qilgani bozor tomon yo'l oldi. Attorlik rastasiga kiraverishda taxta ustiga dori-darmonlarini yoyib, o'z mollarini

maqtab sotayotgan yosh bir yigit uning diqqatini jalb qildi. U: "Kelib qoling, Halila, pirpirdaroz, taboshiri a'lo dorilari menda bor, Ray shahrida menga teng kelaturgan tabib yo'q!" — deb vaysar edi. Odamlar birin-ketin kelib, o'zlarini ko'rsatar, undan dori olib ketar edilar. Birozdan keyin chodraga o'ralgan bir juvon yosh tabibning oldiga kelib bir nima dedi.

— Siz yosh ekansiz, men ham. Bilagingizni ushlab tomir ko'rish men uchun nojoiz, — dedi tabib qora ko'zlarini suzib. — Qari-qartang bo'lganimda ham mayli edi. Siz mundog' qiling, mana bu ipning uchini bilak tomiringiz ustiga bog'lang, men uning bir uchini ushlab, tebranishidan dardingizni topaman.

Yosh juvon chodra orasidan oppoq qo'lini chiqarib uning aytganini qildi. Taxta ustida chordana qurib o'tirgan yigit ipning uchini ushlab turib, qoshlarini chimirdi-da:

— Bugun ertalab qatiq ichibsiz, — dedi. — Uyingiz ham chuqurlikda ekan, zax ekan. Qoringizga suv to'planibdur. Mana bu dorining bir qoshig'ini yarim piyola suvga eritib, har kuni bir marotaba ichib tursangiz, tuzalib ketasiz.

— Rost aytdingiz, — dedi yosh ayol yigitning qo'lidan dorini olib. — Bugun ertalab qatiq ichgan edim, zax uyda turaman. Na qilay, boshqa uyga ko'chib o'tishning iloji yo'q.

Tabibning "karomati"dan taajjublangan alloma uning oldiga borib:

— Bemorning bugun qatiq ichgani, uning soylikda turishini qanday bildingiz? — deb so'radi.

— Uyimga borib mehmonim bo'lsangiz, shul savolga javob bergayman. Shakli shamoyilingizdan janoblarini tanidim. Siz buxorolik mashhur tabibi hoziq Abu Ali ibn Sinodursiz. Isfahon hukmdori dastidan qochib kelganingizni eshitgan edim.

Alloma bu yigitning har narsadan xabardorligi, hushyorligiga qoyil qolib, uning gapini tasdiqladi va taklifini qabul qildi.

— Yosh ayol chodra ichidan qo'lini chiqarib, bilagiga ipning uchini bog'layotganda yahudiylarga xos qimmatbaho matodan ko'ylak kiyganini va etagiga qatiq yuqqanini ko'rib qoldim, — dedi yigit dasturxonga fotiha o'qilgandan keyin. — Musaviylar Ray shahrining chetidagi chuqurlikda yashaydurlar. Ipning tebra-

nishidan uning kasalini, albatta, aniqlay olmadim. Meni kechiring, ustoz, bu bemorlarni aldab pulini olish uchun ishlatilgan nayrang edi.

— Ilmi tib aldamchilik va pul topish vositasi emas. Tabib bemorning mazhabi, millatiga qaramay, uning kasalini topishi va yo'qolgan sog'lig'ini tiklash ustida bosh qotirishi kerak. O'shal ayolga nima dori berdingiz?

— Maydalangan oqbo'r, uning me'daga zarari yo'qdur.

— Ikkinchi bunday qilmang. Eng oldin nazariy va amaliy ilmi tibni yaxshilab o'rganib oling.

— Mening ham maqsadim shul. Sizning xizmatingizda bo'lib, dori-darmon tayyorlashda yordamlashsam, hunaringizni o'rgansam...

Allomaga xuddi shunday zehnli, chaqqon bir yordamchi yetishmas edi. U ko'zlari o'ynab turgan yigitga qarab: "Boshidan yoshlik g'ururi ketmagan yigitga o'xshaydi, — deb o'yladi. — Ilm-u fan uni bamisoli aravaga qo'shilgan otdek yuvosh qilib qo'yar. Eng muhimi — farosatli ekan".

Oradan ko'p vaqt o'tmay, ibn Sinoning qayerdaligidan xabar topgan Alouddavla uning huzuriga bir mulozimni yuborib afv so'radi va yana poytaxtiga qaytib kelishini iltimos qildi. Alloma yangi shogirdi bilan Isfahon sari ravona bo'ldi.

UMR DAFTARINING SO'NGGI SAHIFASI

Ibn Sino poytaxtga yetib kelgach, Alouddavla uni izzat-hurmat bilan qarshi olib, qimmatbaho sovg'alar peshkash qildi. Alloma ham hech gap o'tmagandek, qochib yurgan mahalda yozgan asari "Donishnoma"ni unga bag'ishladi va hukmdorning yaqin maslahatchisi sifatida ishini davom ettirdi.

Ba'zan bahor seryomg'ir kelgan yillari tog'lardan hayqirib oqib tusha boshlagan sellar tinch oqib kelgan daryoni quturtirib yuboradi, daryo qirg'oqdan chiqib, ekinzorlarni payhon, qishloqlarni vayron qila boshlaydi.

Malika Saida vafot etgach[1], Mahmud G'aznaviy Ray shahrini bosib olib, uni o'g'li Mas'udga sovg'a qildi-yu, Hamadon, Isfahon shaharlari, arab Iroqini fath etishni uning zimmasiga yukladi. Shu vaqtdan boshlab ibn Sinoning ham tinchligi buzilib, hayoti xuddi to'lqin ustidagi qayiqdek chayqalib oqib ketaverdi.

Mas'ud Isfahonni jang bilan ishg'ol qilgandan keyin, bojxiroj to'lab turib, juma namozida xutbani otasi nomiga o'qitish sharti bilan Alouddavlani o'z o'rnida qoldirdi. Biroq Mahmud G'aznaviy olamdan o'tgach, Isfahon hukmdori bir silkinib, yelkasidan itoat yukini irg'itib tashladi-da, kuch to'plab, qo'ldan ketgan yerlarini qaytarib ola boshladi. Uning umri safarlarda o'tdi, goh g'alaba qozonib, goh mag'lubiyatga uchradi. Ibn Sino ham uning maslahatchisi sifatida ketidan ergashib yurishga majbur edi. Bu darbadar notinch hayot uning sog'lig'iga futur yetkazdi. Alouddavla Isfahon bilan Huziston o'rtasidagi Izzaj shahrini olganda, poytaxtda qolgan maslahatgo'yi ibn Sinoga odam yuborib, darhol huzuriga yetib kelishni buyurgan edi. Qulunj kasali xuruj qilib, mazasi qochib yurgan alloma uning so'zini yerda qoldirolmay safarga otlandi, yo'lda dardi zo'rayib, oshqozonida sanchiq paydo bo'ldi. Hukmdorning huzuriga yetib keldi-yu, ko'rpa-to'shak qilib yotib oldi.

Tokchalari ganchkor qilib ishlangan sernaqsh uyning darichalaridan iliq shabboda kirib turar edi. Rangi sarg'ayib, burni avvalgidan ham ingichkalashib ketgan alloma ingrab, atrofida parvona bo'lib aylanib yurgan shogirdi — yosh tabibga qanday qilib karafs urug'idan dori tayyorlash kerakligini uqtirardi.

— Bajon-u dil, xuddi aytganingizdek qilib dori tayyorlab beraman, Xudo xohlasa, tuzalib ketasiz, — deb javob qildi ingichka belini shoyi belbog' bilan bog'lab olgan epchil shogird ko'zlarini o'ynatib, ammo ichida: "Endi yotgan joyingizdan turolmaysiz, boyligingiz, sog'liq uchun foydali oltin, kumush va piyolalar, gilamlar bizga qoladi, — deb o'ylar edi. Alloma har ehtimolga qarshi, yonida uzukning ko'zidek gavharlarni olib yuradi, degan gap uning qulog'iga chalingan edi. — Tezroq o'lsa — hammasiga

[1] Bizning yil hisobimiz bo'yicha 1028-yil.

men ega bo'laman". U ko'zini yumib mudroqqa ketgan ustodiga qo'rqa-pisa qarab qo'ydi-da, uning aytganiga qaraganda karafs urug'idan to'rt hissa ko'p solib dori tayyorladi.

— Voy o'ldim... yurak-bag'rim yonayotir... — deb ingradi bemor ichiga yuborilgan o'tkir dorining azobiga chiday olmay. — Endi menga moshdek taryokni... iliq suvga eritib ichiring... Zora og'rig'i bosilsa...

— Xizmatlariga doim tayyorman, — dedi yosh tabib no'xotdek afyunni iliq suvda eritib, ichirib yuborgandan keyin.

"Yettinchi osmonga chiqib ketadi", — deb o'yladi u ustodi sal kulimsirab uyquga ketgandan keyin. U biroz sabr qilib turdi-da, hushidan ketgan bemorning lippasiga tikilgan moshdek-moshdek gavharlarni olib yonchig'iga soldi...

O'z maslahatchisining holi og'irlashib qolganidan xabar topgan Alouddavla uni Hamadon shahriga olib borib, biror tabibi hoziqqa ko'rsatishga ahd qildi. Bu kichik shaharda tuzukroq tabib yo'q edi. Siri ochilib qolishdan qo'rqqan yosh tabib ustodining qimmatbaho buyumlari va asboblarini Isfaxonga olib borib, Mahmud bilan Abu Ubaydni ahvoldan xabardor qilish bahonasi bilan jo'nab qoldi va izini yo'qotish uchun Ray shahri tomon yo'l oldi.

Ibn Sino esa Hamadonga yetib kelgandan keyin o'zini yengil seza boshladi. U yotgan joyida xayolan umr daftarini bir-bir varaqlar, oltin suvi bilan yozilgan sahifalar ko'z oldidan o'tganda, jilmayib qo'yar edi. Ba'zan mutaassib mullolar, zolim hukmdorlar, ma'rifat dushmanlarining taaddilarini eslab yuragi siqilib ketar edi-da, tepasida turgan keksa tabibga yalinib: "Menga taryokni eritib ichiring", — der edi...

U o'zini tetik seza boshlagani uchun vahimaga tushib: "O'lim eshik orqasida poylab turgan bo'lsa kerak, sham o'chish oldidan "lop" etib yonib, birdan so'nadi-ku", — deb o'yladi va yotgan joyidan sudralib borib, xontaxta yoniga o'tirdi va qo'liga qalam olib, vasiyatnoma yoza boshladi. Oxirgi tilagi uning xizmatida bo'lgan barcha erkak va ayol qullarni ozod etib, ularni bir-ikki yillik mablag' bilan ta'minlash ekanligini bildirib, vasiyatnomaga nuqta qo'ydi-da, ko'ngli ko'tarilib, joyiga borib yotdi.

...428-sanaiy hijriya, ramazon oyi birinchi juma kuni[1], kechki payt. Hamadon shahri xuddi bezovta qilingan arining inidek g'uvullaydi. Ko'chalar tiqilinch. Oq mato bilan o'ralgan tobut ko'cha o'rtasidan lopillab o'tib bormoqda. Ko'zlari qizargan odamlar navbat bilan tobutning shotisini yelkalariga qo'yib, tez-tez qadam tashlab ketmoqdalar. Oldinda ibn Sinoning shogirdlari, xizmatkorlari va oddiy yalangoyoq odamlar qatorida bosh egib ketayotgan zar to'nli shahzodalar, kiborlar ham bor.

— Butun shahar oyoqqa qalqibdur. Kim ekan ul qazo qilgan? — deb so'radi kiyim-boshidan qishloqi ekanligi ko'zga tashlangan bo'z choponli bir kishi yonida hassa tayanib, qaltirab turgan cholдan.

— Shaharga hozir kelgan ko'rinursiz. Bo'lmasa boshimizga qanday og'ir kulfat tushganini bilgan bo'lur edingiz, — dedi mo'ysafid. — Shu bugun ertalab ulug' tabib Abu Ali ibn Sino olamdan o'tdilar. Quvvatim bo'lsa, men ham shul odamlar qatorida bo'lar edim.

— Oh, shundoqmi, — deya bo'z choponli tobut orqasidan yugurdi...

O'TROR

I

615-yil savr[2] oyining boshlarida ertalab ikki otliq tevaragi baland paxsa devor bilan o'ralgan chorbog'ning darvozasi oldiga kelib egardan tushdi. Darvozaning ikki tavaqasi lang ochiq. Darvozabon eshik yonida turardi. Egniga movutdan kalta yenglі tugmador[3], oyog'iga upuka etik kiygan, ikki yuzi qip-qizil, g'o'labirdan kelgan suvoriy otini yetaklaganicha eran-qaran darvozadan kirdi. Uning yonida kumush dastali qilich, belida o'q-yoy va yettita o'q solingan sadoq osig'liq. Ikkinchi otliq — yoshi yigirma bir-yigirma ikkilarda bo'lgan novchagina yigit, qirchang'i

[1] 1057-yil 24-iyun.

[2] Hijriy 615-yil savr oyi boshlari milodiy 1216-yil apreliga to'g'ri keladi.

[3] **Tugmador** — kamzul.

otini yetaklab, uning orqasidan ergashdi. Miyiqlari sabz urgan, do'rdoq lablari iljayib turgan bu yigitning yelkasiga yamoq tushgan, ko'hna etigining poshnasi mayishgan.

Eshik yonida turgan darvozabon birinchi otliqqa hurmat bilan salom berdi-da, ikkinchi otliqqa istehzo bilan qarab jilmayib qo'ydi. Shu payt ichkaridan bo'z yaktak kiygan oriqqina bir xizmatkor yugurib chiqib, mehmonlarning otini yetaklaganicha otxonaga olib kirib ketdi.

Bog'dagi meva daraxtlari gullagan, havodan bol isi anqiydi. Bahor daraxtlarni yosh kelinlardek bezatib, ustlariga oq, qizil ko'ylak kiygizgan, kokillariga gulob sepgan. Kishining yoshligini eslatuvchi muattar daraxtlar atrofida shirinlikka o'ch arilar g'o'ng'illashib uchib yurishardi.

Besaranjom chumchuqlar yasangan-tusangan daraxtlarning gullarini cho'qib-cho'qib uzib tashlamoqda, ular ustida qaldirg'ochlar charx urib valfajri o'qiydi.

Chorbog'ning qoq o'rtasiga qurilgan baland shiypon zinalaridan o'rta yoshli, miqtidan kelgan, qiyiq ko'zli bir kishi tushib kelayotibdi. U ham go'yo hozir urushga ketayotgandek qurollangan, yonida kumush dastali qilich, belida sadoq, qo'lida o'q-yoy. Birinchi mehmon uni ko'rishi bilanoq o'n qadamcha berida to'xtab, indamay, o'ng qo'lining kaftini ochib, boshi uzra ko'tardi-da, uning uchini yerga tegizib ta'zim qildi. Rangi o'chib ketgan yosh yigit ham sherigiga taqlid qilib, qo'l uchini yerga tegizib, keyin qaddini rostladi. Bog' egasi ularning ta'zimiga bosh silkish bilan javob qildi-da, hol-ahvol so'rashgandan keyin qisqacha so'radi.

— Ha, Qulnazar, ne xabar?

— Ming qatla shukrkim, soyayi davlatlarida eson-omon yuribdirmiz. Yurt tinch, aholi duoyi jonlarini qilib yotibdurlar, — dedi kelgan yuzboshi. — Janoblariga bir xushxabar keltirdim.

— Qani, eshitaylik, — dedi qo'rg'on egasi miyig'ida kulib.

— Ulug' elchi Bahoiddin Roziy Chin-Mochindan qaytayotgan ermishlar. Chopar kelib, tong-la O'trorda bo'ladurlar, — deb xabar qildi.

— Durust, durust, — deb qo'ydi Inolchiq beparvolik bilan. Uning qotmadan kelgan qoracha yuzi jiddiy, hech bir mushagi

qimirlamas edi. U qip-qizarib yerga qarab turgan yosh yigitga savol nazari bilan tikilgancha qoldi.

— Bu yigit — Temirtosh. Men janoblariga aytib erdim, — dedi yuzboshi Qulnazar. — Mana, endi xizmatingizga o'z oyog'i birla keldi.

O'tror shahri hokimi Inolchiq o'ziga epchil bir navkar topib berishni yuzboshi Qulnazardan iltimos qilgandi. Urug' oqsoqollaridan bo'lgan bu odam oddiy xalqdan chiqqan navkarlarning sadoqatli, o'z vazifasini bajon-u dil bajaradigan, mard bo'lishini yaxshi bilardi. Inolchiq Temirtoshning uzun qo'llariga, yirik panjasiga, sal bukchaygan gavdasiga qarab: "Agar tarbiyat qilinsa, yaxshi qilichboz chiqadi, — deb o'yladi. — Lekin tomoqdan qisilib o'sgan yigitga o'xshaydi, boqsa odam bo'ladi". Temirtosh esa hokimning qora soqoliga, baquvvat bo'yniga, kiyimi ostidan bilinib turgan mushaklariga qarab, "Moy bilan go'shtni ko'p yeb, iligi to'lgan", deb o'yladi.

— O'q otmoq, ot minmoqni bilurmusen? — deb so'radi hokim u bilan so'rashib bo'lgandan keyin.

— Ha, o'qni yaxshi otib, otni yaxshi minurmen.

Inolchiq sadog'idan o'q-yoyini va bitta o'qini olib unga tutqazdi-da, yuz qadamcha naridagi yosh terakni ko'rsatib:

— Mergan bo'lsang, o'shal og'ochni qorag'a olib otg'il, — dedi-da, o'zini chetga olib turdi.

Temirtosh o'qni yoy ustiga qo'yib, yo'g'onligi odamning sonidek keladigan terakka qaradi. So'ngra og'ir o'q-yoyni arang tortib otdi. O'q terakka borib sanchildi, ikki yoniga pat qadalgan dumi zag'izg'onning dumidek likillab turaverdi.

— Ofarin, — dedi Qulnazar yuzboshi. — Yaxshi mergan bo'lsang-da, kuching yo'q erkan.

U belidan o'q-yoyni olib, uzoq poylab o'tirmay, kamon tortib qo'yib yuborgan edi, o'q o'sha terakni teshib o'tdi. Temirtosh qoyil qolib:

— Balli, kuch-quvvatdan bergan ekan, — deb yubordi.

— Nima, sen yuzboshi Qulnazarxo'ja hamma kuchini qorniga to'plag'on deb o'ylabmi erding? — dedi u katta qornini ko'rsatib. — Hamma kuch bilakda. Istasang, kuchdan qarz berib turay.

Hazil-mutoyibaga uncha hushi bo'lmagan Inolchiqqa yuzboshining gapi yoqmadi, shekilli, qoshini chimirib:

— Bul yigitni xizmatga olurmen, — dedi Qulnazarning bir tuki yo'q qip-qizil basharasiga qarab. — Siz bu yigitni o'z bo'lgingizga olib, ot minmoq, qilich urmoqni o'rgating.

— Bosh ustiga, — deb ta'zim qildi yuzboshi, so'ngra ko'zlari chaqnab ketgan Temirtoshga burilib gapira ketdi: — Qilichni shunday urmoq kerakdurkim, yerga sanchib qo'yilgan qamishning tagi qimir etmasun, kesilgan uchi qavatiga tushib, sanchilib qolsun. Seni shunday o'rgaturmen.

— Sog' bo'ling, og'a. Men yaxshilikni unutaturg'on yigitlardin ermasmen.

Inolchiq bu soddadil yigitning chin yurakdan chiqarib aytgan gapiga miyig'ida kulib qo'ydi-da:

— Qani, shiyponga marhamat, so'ylashaylik, — dedi.

II

Temirtosh o'trorlik bir uzangisoz hunarmandning bitta-yu bitta o'g'li edi. Otasi faqirgina kosib bo'lgani uchun yoshligida uylana olmay, yoshi qaytgandan keyin o'ziga o'xshagan bir kambag'al bog'dorning qiziga uylangan, qirq beshga kirganda Temirtoshni ko'rgan edi. O'g'il yetti yoshga kirganda otasi soch-soqoliga oq oralagan, tishlari tushib ketgan chol bo'lib qoldi. Temirtosh onasi bilan galma-gal damni bosib o'choqdagi olovni qizitar edi. Otasi katta sandonning yonidagi chuqurga tushib, bir juft temirni olovga tiqib qo'yardi. Temir qizargach, uni uzun ombur bilan o'choqdan olib, sandon ustiga qo'yar, o'ng qo'lidagi cho'kich bilan temirni ura-ura cho'zardi. Temirtosh har vaqt ko'zini yumganda terlab ketgan, yuzlari bujur, cho'kich urayotgan otasi ko'rinib ketardi.

Yosh bola dam bosib charchaganda, onasi:

— Bor, o'g'lim, dalaga chiqib o'ynab kel, — deb, o'zi dam bosishga o'tirardi.

Temirtosh kichkina o'q-yoyini olib, o'rtoqlarini boshlab dalaga chiqib ketar, ular bilan o'q otishardi. Kimning o'qi o'zsa, orqada qolgan hamma o'qlar o'shaniki bo'lardi. Temirtosh aksari sheriklarining hamma o'qlarini yutib olardi, keyin xomush bo'lib shaharga qaytayotgan sheriklariga o'qlarini ulashib berardi.

U o'q yasashga juda usta edi. Qo'li bo'sh mahallarda ayvon ustuniga bog'lab quritib qo'ygan adil sambittol novdalarini yo'nib uchini chiqarar, kesib tayyorlab qo'yilgan tovuq patini dumiga yopishtirardi.

Shundan boshqa uning yana bir ermagi bor edi. Yoz paytida kechqurunlari qo'shnilari bo'lmish Bug'rohojining xizmatkori bilan otlarni anhorga oborib sug'orar, cho'miltirardi. Yaydoq otning ustiga minib olib, oyog'i bilan niqtardi-da, uni suvning o'rtasiga tushirardi. Ot quloqlarini dikkaytirib bir tekis suzib ketganda, bir qo'li bilan uning yolidan ushlab, bir qo'li bilan bo'yniga qoqib-qoqib qo'yardi. Hamma yog'i shalabbo holda uyiga qaytgach, o'zida yo'q xursand bo'lib, otlarni qanday cho'miltirganini zavqlanib ota-onasiga so'zlab berardi. Ba'zan otasidan:

— Menga qachon ot olib berursiz? — deb so'rardi.

— Katta bo'l-chi, nasib qilsa yaxshi bir tulpor olib bergaymen, — deb va'da qilardi otasi.

Biroq Temirtoshning peshanasiga ot bitmagan ekan, ko'p o'tmay, otasi bir kuni to'satdan o'lib qoldi. Bug'rohojidan qarz ko'tarib otasini ko'mishdi, ta'ziyasini o'tkazishdi. Otadan yetim qolgan sho'rpeshana bola onasi bilan shaharning chekkasidagi bog'dor tog'asining hovlisiga ko'chib bordi. Tog'asi yozda bog'iga ko'chib chiqardi.

Qarindoshlarining maslahati bilan Temirtoshni Abdumajid usta degan uzangisozga shogirdlikka berishdi. Abdumajid ustaning olov do'konida ikki xalfa, ikki-uch shogird ishlardi. Uch to'rt oy xizmatkorlik qilib yurgandan keyin Temirtosh damgarlik qildi. Bir yil o'tgach, olov yonida turib bosqon bilan qizigan temirni ura boshladi. Shundan so'ng ustadan haftasiga besh-olti yarmoq[1] oladigan bo'ldi. Payshanba kuni kechqurun tog'asinikiga onasini ko'rgani borar, juma kuni dam olib, shanba kuni tongotarda yana ustanikiga qaytardi. Faqat onasi oldidagina u o'zini baxtli sezardi.

[1] **Yarmoq** *(yormoq)* — pul, tanga, oltin.

Tog'asinikiga kelgan kuni kechqurun bog'dagi supachada yotar, hammadan erta turib, qushlarning sayrashiga quloq solardi. Juma kuni o'zi singari yalangoyoq, juldurvoqi qo'shni bolalarni ergashtirib, keng dalaga olib chiqar, ular bilan o'q otishardi. Yoshi o'n olti-o'n yettiga kirganda ham, qo'shnilarning masxara qilishiga qaramay, o'q otib mashq qilishini qo'ymasdi. Shu yaqin orada bog'i bo'lgan Qulnazar yuzboshi uni ko'rib yurardi. U Temirtoshning otga, o'q otishga ishqibozligini bilib, uni ko'z ostiga olib qo'ygan edi. Bir kuni Temirtoshni dalada uchratib:

— Bir sarkardaga navkar kerak, borurmisan? — deb so'rab qoldi.

— Jonim birlan, — deb javob qildi Temirtosh o'ylab-netib o'tirmay.

U qattiqqo'l ustaning qo'lida ishlab, o'z mehnati birlan uni boyitishni istamasdi. Ammo o'z boshiga olov do'koni ochish uchun unda na uy, na mablag' bor edi!

Qulnazarxoja bilan uchrashgandan keyin Temirtoshning hayoti boshqa izga tushib ketdi.

III

O'tror shahri XII va XIII asr boshida O'rta Osiyoning sharqiy shimol chegarasidagi eng yirik shaharlardan biri edi. Shahardan to'rt-besh chaqirim nariroqda Sirdaryoga quyiladigan Ars suvi O'tror vohasini sug'orib, gullatgan edi. Bu viloyatda yashovchi mehnatkash va jafokash xalq Arsdan anhorlar chiqarib, biydek dashtni bog'-bo'stonga, bug'doyzorlarga aylantirgan edi. Sharq tomondan bu obod yerlarga ko'chmanchilar bostirib kelganda dehqonlar omochni tashlab, qo'llariga qilich olar, Movarounnahrni, ya'ni Sirdaryo bilan Amudaryo o'rtasidagi jannatdek o'lkani ko'ksilari bilan to'sib, bosqinchilarni uloqtirib tashlashardi. O'tror Movarounnahrning qalqoni edi. Hatto XIII asr boshlarida bostirib kelgan qoraxitoylar ham uzoq janglardan keyin uloqtirib tashlandi. Shundan so'ng yana O'tror shahri orqali Sharqiy Turkistonga katta savdogarlar karvoni o'ta boshladi.

O'tror — buyuk savdo va hunarmandchilik markazi. Shaharga yaqinlashgan kishi darvozalardan kirib-chiqib turgan karvon

tuyalarining jangir-junguri, bo'kirishi, bozorlarning g'ovuri, misgarlik, temirchilik, chilangarlik rastalarining taraqa-turug'ini eshitar, shahar madrasalarining oftobda jimjima qilgan peshtoqlarini ko'rib, ko'zi qamashar edi.

Gir atrofi qo'rg'on bilan o'ralgan O'tror shahrining o'rtasida, sahni o'n uch-o'n to'rt tanob keladigan to'rt burchakli baland tepa ustiga qal'a qurilgandi. Bu ichki qal'a xom g'isht devor bilan o'ralgan bo'lib, unga uch darvozadan kirilardi. Qal'a devorlari ich tomondan uncha baland bo'lmasa ham, tashqi tomondan balandligi qariyb yigirma-yigirma besh gaz kelardi. Qal'aning to'rt burchagiga baland minoralar qurilgan bo'lib, shinaklaridan tevarak-atrofni o'qqa tutish oson edi. Bu yerda amaldorlar, sarkardalar, askarlar turishardi.

Inolchiq Xitoydan qaytib kelayotgan Xorazm elchisi Bahoiddin Roziy sharafiga ziyofat bermoqda. Ichki qal'aning o'rtasiga qurilgan to'rt ustunli sernaqsh xona ziyofat uchun hozirlangan, devor taglariga shoyi ko'rpachalar solingan, dasturxonlar yozilgan. To'r tomondagi zarbof to'shakda Inolchiq bilan elchi, so'l tomonda sarkardalar, o'ng tomonda elchining ikkita yordamchisi, devon boshlig'i Badriddinxoja, shahar qozisi, amaldorlar, savdogarlar o'tirishardi. Mehmonlar bellarini mahkam tang'ib olgan ko'k sallali yosh ayoqchilar qo'lidan qadahni olib sharob ichib, kumush tovoqlarda ustma-ust keltirib turilgan qovurmalar, g'oz, o'rdak kaboblarni tamaddi qilishardi. Hammalarining betlari qizarib, ko'zlari chaqnagan, lablari iljayadi.

Bugun Qulnazar yuzboshi qo'l ostidagi bo'linma saroyda navbatchilik qiladi. Ziyofatda eng quyidagi o'rinlardan birini ishg'ol qilgan yuzboshi o'qtin-o'qtin tashqari chiqib, joy-joylarga qo'yilgan soqchilarni tekshirib keladi.

Jo'ngina matodan yangi tugmador kiygan Temirtosh ziyofat bo'layotgan xona eshigi yonida qotib turadi. U ko'z o'ngida bo'layotgan hamma narsalarga beparvoday ko'rinsa ham, uning miyasini shu mahalgacha aqliga kelmagan fikrlar kavlaydi: "Shu yerda o'tirgan o'n choqli zarbof choponli mehmonning ko'ngil-xushligi uchun yuztacha odam ovora. Oshpazlar, xizmatkorlar, bakovullar, ayoqchilar bu yeb-ichayotgan bir necha odamga xiz-

mat qilib ulgura olmaydi. Mana, bakovul ichiga qiyma tiqilgan kakliklarni olib o'tyapti. Bay-bay, muncha hidi yaxshi-ya, — deb o'ylaydi u og'zining suvi kelib. Navbatchilikka turishdan oldin u serqatiq go'ja ichib, qornini to'yg'azib olgan bo'lsa-da, buxorolik oshpaz Abulmakorim pishirgan ovqatlarga ko'ngli sust ketadi. — Ana tandir kabob. Muncha ovqatni ko'p yeyishmasa. Shuncha ovqat bilan bir mahalla kosibni to'yg'izish mumkin. Bularning qorni meshmi, nima balo? Shunday fikrlar xayolidan o'tarkan, uning ikki qulog'i suhbatda edi. Barvasta, cho'zinchoq yuzi cho'l shamolidan qorayib ketgan elchi ajoyib-g'aroyib voqealardan hikoya qilardi.

Bahoiddin Roziy Xitoyga yetib borganda Pekin shahrini Chingizxon bosib olgan ekan[1]. Elchi Pekin shahri darvozasi oldida tog'dek uyulib yotgan o'liklarni ko'ribdi. Sasib-bijib ketgan murdalarni ko'mishga odam yo'q, Chingizxon poytaxt hunarmandlari — kosiblari, ustalarni tirik qoldirib, boshqa barcha aholini qilichdan o'tkazgan ekan. Shahar maydonlarida ustma-ust uyulgan qonli, yalang'och xotinlar, bolalarning murdalari dahshatli manzara kasb etarkan. Shahar sasib ketgan, turli yuqumli xastaliklar tarqalgan ekan. Shaharni bosib olgan mo'g'ullar ham vabodan qirilayotgan ekanlar. Ammo elchi ziyofat vaqtida bunday narsalar to'g'risida gapirishni noo'rin deb bildi. Elchilik lavozimi hozir ko'pchilik ichida Chingizxonning qabih ishlari to'g'risida gapirishga yo'l qo'ymas edi. Shuning uchun u bu gap o'rniga qoonning[2] ziyofatlari, saroy oldida bo'lgan mushakbozlik, xitoy raqqosalari to'g'risida hikoya qila ketdi.

Xushbo'y musallaslar sipqaraverib quloqlari qizib qolgan sardorlardan biri miyig'ida kulib dedi:

— Chin-Mochinning qizlari ko'rkli bo'ladur, deb eshitamiz, rostmi?

— Ha, ko'rkli va iffatli bo'ladurlar, — deb gapida davom etdi elchi. — Mo'g'ullar shaharga bostirib kirganlarida xitoy qizlari mo'g'ul yigitlari ilkiga tushmaslik uchun yonib turgan uylar ichiga o'zlarini urganlarini, nomuslarini saqlamoq uchun o'zlarini

[1] Chingizxon Pekinni 1215-yili bosib olgan.

[2] **Qoon** — xoqon, ya'ni Chingizxon.

o'tga tashlaganlarini o'z ko'zim bilan ko'rdim. — Elchi dahshatli voqealarni gapirdi-yu, tilini tishlab qoldi. U ko'rgan-kechirgan voqealarga o'zining munosabatini bunday ravshan ifoda etib, xitoylarga xayrixohligini bildirib qo'yganidan pushaymon bo'ldi. "Me'yoridan ko'proq ichib qo'ydim, chog'i", deb o'yladi u qovog'ini solib. Ayoqchi uzatgan qadahni olmay, boshi og'rib turganini bahona qilib, uzrini aytdi. Shu paytda quyida o'tirgan mashshoqlar mungli bir kuyni chalib yubordilar. Hamma jimib qoldi.

Ziyofat tugab, mehmonlar tarqalgandan keyin, elchi Inolchiq bilan yolg'iz qolib, uzoq gaplashdi. U Chingizxon va mo'g'ul qo'shini to'g'risida batafsil ma'lumot berib, ko'rgan dahshatli voqealarini birma-bir hikoya qilib berdi.

Ertasi kuni hokim amaldorlar bilan elchini shahar tashqarisigacha kuzatib qo'ydi. Bahoiddin Roziy yuzlarcha tuyaga mollarni ortgan xorazmlik, sharqiy turkistonlik savdogarlar hamrohligida Gurganjga yo'l oldi.

IV

Chingizxonning elchisi Mahmud Yolvoch Buxoroga ilk bahorda yetib keldi[1], chunki Xorazmshoh Muhammad shu yerda edi.

O'rta yoshli, qipchoqdan ko'ra turkmanga ko'proq o'xshagan Xorazmshoh Buxoro arkida, ziynatli, serustun salomxonaning to'ridagi sakkiz qirrali oltin taxt ustida viqor bilan o'tirganicha, ta'zim qilib turgan elchilardan hol-ahvol so'rardi. Soqoli qorakuyadek qop-qora Mahmud Yolvoch qora ko'zlarini sultonga tikib, o'rtada qo'l qovushtirganicha turardi, yordamchilari savdogar Yusuf bilan Alixo'ja uning ikki tomonida ta'zim qilganlaricha qotib qolganlar.

— Safarlari bexatar bo'ldimi? Yo'lda ko'p mashaqqat chekmay yetib keldilarmi?

— Ming qatla shukrki, poy ostonalarig'a sog'-salomat yetib kelduk. Alalxusus, davlatingiz chegarasidin o'tganimizdan so'ng safarimiz bemashaqqat, yo'l bexatar bo'ldi.

[1] Mahmud Yolvoch (Yalavoch) Buxoroga 1218-yili yetib kelgan.

U Xorazmshoh oldida egasini topib olgan ovchi itday yaltoqlanar, shirin so'z bilan uni ilondek avramoqchi bo'lar edi.

Xorazmshoh Chingizxon elchilari oldida o'zining ulug' davlat podshohi ekanini ko'rsatish uchun egniga og'ir zar choponini kiyib, simobiy sallasining peshanasiga o'n ikki misqolli olmos qadab, qo'llariga qo'sha-qo'sha yoqut ko'zli tilla uzuklar taqib olgan. U kulimsirab elchi yordamchilarining ism va laqablarini, qayerlik ekanliklarini so'radi. Shohning so'l tomonidagi turgan sarkardalar, o'ng tomonidagi vazirlar, amaldorlar, din peshvolaridan ba'zilari elchi Yusufning o'trorlik, Alixo'janing buxorolik ekanini bilib tong qoldilar, ko'plarning yuzida nafrat va g'azab alomati paydo bo'ldi. Taxtning orqasida turgan saroy soqchilari boshlig'i Temur Malik g'ijinib: "Mahmud Yolvoch xorazmlik, anovi o'trorlik, bunisi buxorolik. Shunday bo'la turib, begona podshoning xizmatiga kiribdurlar, bu ham ozlik qilganidek, uning elchisi bo'lib kelibdurlar, bu qandog' surbetlik!" deb o'ylar va mushtini qisar edi. Bu yerda hozir bo'lganlarning ham xayoliga shu fikr kelgan edi. Elchilar ko'pchilikning kayfiyatini sezgandek, qizarib yerga qarab ta'zim qilib turishar edi.

Mahmud Yolvoch Chingizxonning yorlig'ini sultonning o'z qo'liga topshirgandan keyin sukut qilib turdi. Sulton marhamat qilib, o'ng qo'lini uning yelkasiga tegizib qo'ydi, elchi esa orqasi bilan yurib, joyiga borib turdi.

Saroy bitikchisi — belbog'iga qalamdon qistirgan, ko'k salla o'ragan yigit Chingizxonning fors tilida yozdirgan yorlig'ini o'qib eshittirdi. Yorliqda mo'g'ul qooni Xorazmshohni "O'g'lim" deb atagan va Mo'g'uliston bilan Turkiston mamlakati o'rtasida do'stlik munosabati o'rnatishni, savdo-sotiq bitimi tuzishni taklif qilgan edi. Qoon sultonni "O'g'lim" deb atagani uchun ko'plarning jahli chiqdi, shohning ham rangi o'chib ketdi.

Yorliq o'qilgandan so'ng saroy vaziri Chingizxonning yuborgan sovg'alarini e'lon qildi. Bu vaqtda sultonning oldidan qoon yuborgan sovg'alarni — tuya junidan to'qilgan jo'ra-jo'ra qimmatbaho matolar, Xitoy shoyisi, yosh kiyik muguzlari, bog'lam bog'lam suvsar terilar, noyob yashilrang yada toshi va boshqa narsalarni olib o'ta boshladilar. Eng so'ng to'rt barzangi yigit

tuya bo'ynidek keladigan tillani olib o'tganlarida, hamma qoonning saxiyligiga hayron qoldi. "O'g'lim", deb atagani uchun jahli chiqqan sulton ham buni ko'rib, jahlidan tushdi.

Qabul marosimi tugagach, elchilar sharafiga katta ziyofat berildi.

Kechasi sulton Chingizxonning bosh elchisi Mahmud Yolvochni huzuriga taklif qildi. Tun qorong'isida maxfiy suratda chaqirtirilganidan xavotir olgan elchi rangi o'chgan holda saroy vaziri orqasidan ergashib, shohning "hujrayi xos"i eshigi oldida to'xtadi-da, nafasini rostladi. Oltin eshik oldida sultonning shaxsiy mulozimi Qoracha Hojib elchidan ko'zini uzmay qaqqayib turar edi. Birozdan keyin vazir hujradan chiqdi-da, elchining qo'lidan ushlab, ichkari olib kirdi. Zar to'shak ustida o'tirgan sulton biroz qimirlab qo'yib, o'z yonidan joy ko'rsatdi. Sulton bilan bir to'shakda o'tirish har bir elchiga muyassar bo'lmaydigan ehtirom edi.

Elchi tiz cho'kib, chap qo'li bilan shoyi to'pining etaklarini tizzasi ostiga qistirib qo'ydi. Gir atrofi qop-qora jingalak soqol bilan o'ralgan yuzi za'farondek sarg'ayib, qalin lablari dir-dir titradi.

Sulton muloyimlik bilan bola-chaqasining sog'lig'i, savdo-sotiq ishlari qanday borayotganini surishtirdi. Elchi tinchlanib javob berdi.

— Ming qatla shukr, hammalari soyayi davlatingizda eson-omon yuribdurlar, ishlarim, alhamdulillo, kundan kun rivoj topmoqda...

— Durust, durust. Sizni o'zimizga yaqin olib, suhbatlashgim kelib edi, — dedi sulton tomog'ining osti qirilgan, yumshoq, chanbar soqolini silab. —Har qalay, siz o'z odamimizdursiz. Shul yerda tug'ilib o'sgansiz. Taqdir taqozosi birla do'stimiz Chingizxondin elchi bo'lib kelibdursiz, ammo bilurmenkim, musulmon bo'lg'oningiz sababli ko'nglingiz bizga moyil. O'zingiz ul yerda, ammo dilingiz bul yerda...

— Oriy, rost aytadurlar, — dedi pul uchun, mol-dunyo uchun dinini ham, elini ham qoonga allaqachon sotib yuborgan elchi tilyog'lamalik qilib. — Ko'nglim sizga moyil bo'lmay, kimga moyil bo'lsin. Axir, shuhratingiz olamni tutgan. Butun Turon-u Eron, Hind-Afg'on, Sharqiy Turkiston sizga tobe, xalqlari soyayi dav-

latingizda baxtiyor, poyqadamingiz teggan yer saodat nuri birla munavvar. Sizdek shoh uchun xizmat qilmoq har kimarsa uchun baxt-saodat...

Sulton elchining xushomad bilan aytgan tumtaroqli so'zlariga quloq solib erib ketdi. U tabassumini yashirolmay, ichi barqut bilan sirilgan qutichalardagi gavhar, zabarjad, yoqut toshlarini elchi oldiga surib qo'ydi.

— Podsholarning in'omini qabul aylamoq farzdur, — dedi ko'zlari chaqnab ketgan elchi. U gavharni ko'zi bilan chamalab: "To'rt-besh misqol kelar", deb o'yladi.

Sulton gapni aylantirib, Mahmud Yolvochni mo'g'ul qo'shini to'g'risida maxfiy ma'lumotlar yuborib turishga ko'ndirmoqchi bo'ldi. Mahmud ikkilangan kishidek, biroz sukut qilib, yerga qarab qoldi. Holbuki, u ikkilanib o'tirmay, dadil ish qiladigan odam edi. Shu topda u Chingizxonning ilonnikidek hech pirpiramaydigan, odamga tik qaraydigan ayyorona targ'il ko'zini ko'rgandek bo'ldi, uning: "Hoy, Mahmud, sen sulton nima desa xo'p deyaver, josuslikni taklif etsa — qabul qilaver, qo'rqma", degan so'zlarini eshitganday bo'ldi. Chingiz mo'g'ul qo'shini to'g'risida qanday ma'lumot berishni, ya'ni ustalik bilan Xorazmshohni chalg'itishni ham o'rgatgan, kaltabin sultonning elchini josus qilib olish niyatiga tushishini nazarda tutib, tegishli choralarni ko'rib qo'ygan edi.

— Sizdek ulug' podshoh menga xizmat taklif etadurlar-u, men yo'q deymanmu, xizmat kamari belimda, sadoqat nuri dilimda, na amringiz bo'lsa, buyuravering, — dedi Mahmud qat'iy ohangda.

Sulton qars urgan edi, belbog'iga qalamdon, qo'ltig'iga naqshli charm juzvdon qistirgan yosh bitikchi ta'zim qilib kirdi-da, ostona oldida o'tirdi. U Yolvochning mo'g'ul askarlarining soni, joylashgan yerlari to'g'risida aytgan gaplarini yozib oldi...

Oradan bir hafta o'tgach, Yolvoch sulton bilan savdo bitimi tuzib, Mo'g'uliston sari yo'l oldi. U Xorazmshohdek podshoni aldab, qoon uchun Xorazm davlatining ichki ishlari to'g'risida qimmatbaho ma'lumotlar olib, eson-omon ketayotganidan xursand edi. Xorazm va Buxoro savdogarlari, amaldorlari o'rtasida muxlislari ko'p bo'lgan Yolvoch saroydagi kelishmovchiliklar, mamlakatning ahvoli, qo'shin to'g'risida ko'p ma'lumot to'plagan edi.

Sulton juda ustalik bilan asp yurish qilgan shatranjbozdek xursand. Holbuki, Temur Malik, Shahobiddin Xivagiy, Inolchiq singari oldinni ko'radigan arboblar sotqin Mahmud Yolvochni xoin sifatida jazolash o'rniga sovg'a-salomlar bilan jo'natilishidan norozi, tilyog'lama elchi sultonni laqillatib ketganini fahmlagan edilar. Yolg'iz sultonninggina bunga aqli yetmasdi.

V

Har tarafdan azon tovushi eshitilardi. O'tror shahridagi masjidi jome muazzini ketidan barcha mahallalarning so'filari chuvullashib, yo'g'on-ingichka ovoz bilan qavmlarni xufton namoziga da'vat eta boshladilar.

Osmonda charaqlagan katta-kichik, xira-yorug' yulduzlar boylarning uylarida yongan sham va qandillarga, kambag'allarning uyida miltillagan chiroqlarga o'xshardi. Ko'chalarda eldan burun xufton namoziga ketayotgan taqvodorlardan boshqa hech zog' yo'q. Hamma yoq suv quygandek jimjit. Ammo kesak devorlarning orasiga berkingan chirildoqlar yuz ming yillardan beri takrorlab kelgan ashulalarini qichqirib kuylaydi.

Boshiga simobiy salla, egniga banoras to'n kiygan bir otliq shaharning So'fi darvozasi yaqinidagi katta bir darvoza oldida egardan tushdi-da, jilovni o'z xizmatkoriga tutqazdi. Jikkakkina ko'sa chol xo'jasining oldiga tushib, shaharning narigi burchidan yugurib kelgan edi. U harsillab otning jilovidan ushlagan holda, yolini to'g'rilay boshladi. Xojasi esa katta mis halqani ushlab, taqillatmoqchi bo'lib turganda shu hovli yaqinidagi masjidning muazzini xunuk ovoz bilan azon ayta boshladi. Kishi darhol halqani qo'yib yuborib, darvoza yonidagi supachaga o'tirdi. So'fi azon aytib bo'lgandan keyin, gavhar toshli uzuk taqqan qo'lini ochib duo o'qidi-da, yuz-ko'zini siypadi, so'ngra o'rnidan turib, darvozani uch marta qoqdi. Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas zanjirlarning shiqirlab tushgani eshitildi. So'ngra darvozaning so'l tavaqasidagi kichkina eshik g'ijirlab ochildi. Qiyofasidan shu qo'raning xizmatkori ekani bilinib turgan bir chol fonusni boshi baravar ko'tardi. Ichiga bir yarmoqli sham yoqilgan fonusning xira sarg'ish nuri

o'rta yoshli mehmonning yo'g'on va savlatli gavdasini, lunji osilgan qip-qizil yuzi, quyuq qoshlarini yoritdi. Xizmatkor uni tanib, darhol orqasiga bir qadam tashladi-yu, rangi o'chib ta'zim qildi:

— Kelsinlar, taqsirim, kelsinlar.

— Xojang uydami? — dedi mehmon.

— Uydalar.

Mehmon o'z xizmatkoriga javob berib yubordi-da, boshini engashtirib kichik eshikdan ichkari kirdi. Ro'paradagi mehmonxona darchalaridan hovli sahniga yorug' tushib turardi. Mehmonxonada — darcha yonidagi pastakkina xontaxta yonida yuzi yumaloq, soch-soqoli oqargan, mo'ylovi va qoshlari qora bir chol ingichka, uzun daftarchaga allanarsalarni yozib o'tirardi. Beshta mum sham yoqilgan qandil mehmonxonani nurga g'arq qilgan edi.

Uy egasi hovliga tikilib qaradi. Mehmonxona tomon kelayotgan ikki kishining qorasini ko'rib, xontaxta ustidagi daftar bilan qalam-dovotni yig'ishtirib, tokchaga qo'ydi. Shu payt mehmon dahlizga kirib, baland poshnali sag'ri kavushini yechdi. Eshik oldida o'zini qarshi olgan mezbonga ikki qo'lini berib ko'rishdi.

— Keling, Badriddinxoja, sog'-salomatgina yuribdursizmu?

— Ming qatla shukr, o'zlari bardammilar? Assalomu alaykum! Qutluqqadamdin xat kelib turadurmu? Otamurodjon eson-omonmu?

Xushomadgo'y mehmon Bug'rohojining o'g'illari, nevaralarining sog'-salomatligini qayta-qayta so'rardi.

Shunday yo'g'on, barvasta kishining ingichka ovoz bilan gapirishi juda g'alati tuyulardi.

Mehmon bilan mezbon mehmonxonaga kirib, to'rga solingan ko'rpachaga o'tirishdi-da, yuzlariga fotiha tortishdi, yana hol-ahvol so'rashishdi. Bu vaqtda xizmatkor chol darhol dasturxon yozib, dahlizdan yasog'liq barkash olib kirdi.

Sirtiga turli afsonaviy qush va hayvonlarning suratlari solingan chinni qo'ralar, idish-oyoqlar, Samarqand ustalari gul solib ishlagan mis ko'zalar, barkashlar tokchalarga tizilgan, anordek qip-qizil turkman gilamlari oyoq ostiga to'shalgan, kashmir ustalari to'qigan harir pardalar darchalarga tutilgan. Tokchalar va piramonlarning zihlari ganchdan qabartma qilib ishlangan.

Bu xonadagi anjom va ashyolar uy egasining turli mamlakatlar bilan savdo-sotiq qilib turishidan darak berib turardi.

Bug'rohoji O'tror shahrining eng boy savdogarlaridan biri. Uning savdo karvonlari Suriya bilan Xitoy o'rtasida qatnab turadi. Gumashtalari Damashq po'lati, Iroq matolari, zeb-ziynat asboblari, billurdan yasalgan idishlari, oynalarini Xitoy va Sharqiy Turkistonga, Xitoy ustalari to'qigan matolarni G'arbga oborib sotadi. Bug'rohoji yetmishga borib qolgan bo'lsa ham, ikki yuzi qip-qizil, o'zi tetik, ko'zlari o'ynab turadi. Ikki xotini bo'lgan bu chol sharm-hayoni unutib, yaqinginada yosh bir qizga uylandi.

Yoshi o'ttiz beshlarga borib qolgan qora soqol mehmon — Badriddin binni Tojiddin Inolchiqning ma'muriy ishlar bo'yicha yordamchisi edi. Shundoq ulug' martaba egasi bo'lgan bu odam boy oldida ikki bukilib ta'zim qilib o'tirar, savollariga kulib javob qilardi.

— Yana ne xabarlar bor? — deb so'radi mezbon iljayib.

— Xabarlar ko'p. Mahmud Yolvochdin so'ng qoon hazratlari yana to'rt yuz ellik kishilik elchilar karvoni yuborayotgan ermishlar. Janobingizning tag'oyivachchalari Umarxoja bosh elchi bo'lib kelayotgan emish.

— Qoon birla sulton nega muncha inoq bo'lib qoldi, a? Bir gap bormu? Go'yo mehribon aka-ukadek, bir-biriga in'om yuborib turadurlar.

— Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur, deb aytmish ona tulki bolalariga shudgordag'i qopqonga qo'yilgan quyruqni ko'rsatib, — dedi Badriddinxoja ingichka ovoz bilan. — Qoonning sovg'alari baayni shudgordag'i quyruq kabidir. Sultoning onasi Turkon xotun aqli qisqa o'g'lini harchand ogohlantirsa dog'i, o'g'li qopqondagi quyruq sari intilmoqda...

— Qorchiq Turkon aqlli xotun, — dedi uy egasi suhbatdoshining so'zini og'zidan olib. — Yaxshiki sulton onasini davlat ishlaridan chetlashtirmish. Sulton saroyina nifoq kirdi. Bu ham bo'lsa siz birla bizning baxtimiz.

— Oriy, rost aytadurlar, xojam, — dedi mehmon yaltoqlanib. — Qayu uyga nifoq kirsa, buzmog'uncha qo'ymas. Mo'g'u-

listondin oqib kelayotgan sel shahar va qishloqlarni vayron, dalalarni payhon etaturg'on ko'rinadur.

— Qo'rqmang, Badriddin, siz birla bizning qo'rg'onimiz shunday baland yerdaki, alarni hech qanday to'fon buzolmaydur.

Chetdan turib quloq solgan kishi ularning nima to'g'risida gaplashayotganlarini anglay olmas edi. Mehmon bilan mezbon oxirigacha aytilmagan qisqa bir gap, bir imo-ishora bilan bir-birlarini tushunib olar, bu ularning ko'pdan buyon do'st va fikrdosh ekanini ko'rsatardi.

Xoja Badriddinning otasi Tojiddin bir necha yil O'tror shahrining qozisi bo'lib kelgan nufuzli bir zot edi. O'trorni qoraxitoylar bosib olganda, Tojiddin dushman tomoniga o'tib, ularga bajon-u dil xizmat qilgan edi. Sulton O'trorni qaytib olganda, xiyonatchi qozining bo'yniga qilich urdirdi[1]. Keyinchalik sulton shahar savdogarlari va shariat peshvolarining ko'ngli uchun sobiq qozining o'g'li Badriddinni sohibi devon qilib belgiladi. Sulton Badriddinning boshini silab, unga ko'p yaxshiliklar qildi, biroq qozivachcha o'zining qori ketsa ham muzi ketmas ko'nglida kek saqlab yurardi. U bilan har safar uchrashganda yuragida bitib qolay degan yarani Bug'rohoji yangilar, uni qasos olishga undar edi.

— Sulton Muhammadning davlati bamisoli ustunlari chirigan ko'hna bir imorat turur. Bul imoratning tezroq qulag'ani yaxshi. Tuzalmay turg'an bemorning o'lgani — uy ichidagilarning tingani yaxshi, — dedi Bug'rohoji tishlarini g'ijirlatib. — Sulton xuddi tog' ustindagi torgina so'qmoqdan ketayotgan kishiga o'xshaydur. Qo'lidagi lo'ttibozlik langari jonini saqlab keladur.

Darhaqiqat, Xorazmshohning davlat kemasini qurt yeb, chiritib qo'ygan edi. Sulton qipchoq oqsuyaklari bilan turkman beklari o'rtasidagi nizo olovini so'ndirish o'rniga, unga moy sepib, gurullatib yuborardi. Goh ota urug'i bo'lgan turkmanlarga yon bosib, o'zini ularga xayrixoh qilib ko'rsatar, goh ona urug'i — qipchoqlar tomoniga o'tib ketardi. Bu siyosat turkman beklari bilan qipchoq xonlari o'rtasidagi ziddiyatni borgan sari kuchaytirar, sulton bu nizolardan foydalanib o'z hukmronligini mustahkamlamoqchi

[1] O'tror qozisi Tojiddin 1210-yilda o'ldirilgan edi.

bo'lardi. Sultonning onasi Turkon xotun esa Dashti Qipchoqdan o'z qarindoshlarini chaqirib, ularga mansablar berar, turkmanlarni chetlashtirishga urinardi.

Xoja Badriddin saroy nizolari haqida Bug'rohojiga batafsil gapirib berdi-da, so'zining oxirida:

— Inolchiq Yolvochning sovg'a-salomlar bilan qaytarib yuborilganini eshitib bisyor xafa bo'ldi, agar men sulton o'rnida bo'lsam, bu josusning bo'yniga qilich urdirardim, deganini o'z qulog'im birla eshitdim, — dedi.

Bug'rohoji bu gapni eshitib, o'ylanqirab qoldi. Ichida: "Umar-xoja boshliq bo'lib kelayotgan elchilar karvonining taqdiri nima bo'ladi? — deb o'yladi. — Agar ixtiyor Inolchiqning qo'lida bo'lsa, elchilarni omon qoldirmaydi, ammo sulton bunga yo'l qo'ymas. Qadimdan "elchiga o'lim yo'q", degan gap bor-ku. Hech kim shu mahalgacha elchining joniga qasd qilgan emas".

Uy egasi bu sertashvish fikrlardan o'zini chalg'itish uchun gapni boshqa yoqqa burib yubordi.

— Taxmin etaylikkim, sulton butun askarlarini bir yerga to'pladi va Inolchiq kabi bir kimarsani alarga bosh qilib qo'ydi, ul taqdirda Chingizxonni mag'lub etmagi mumkinmi?

— Albatta. Sultonda askar ko'p. Ammo, baxtimizga, sulton butun cherikni bir yerga to'plag'oni qo'rqadur. "To'plasam, qipchoqlar meni taxtdan tushirib, o'rnimg'a Qutbiddinni o'tirgizadurlar", deb o'ylaydur. Lashkarini bir yerga to'plamoqqa biz ham yo'l qo'ymaymiz, — shuni deb Badriddin qo'ynidan to'rt buklab taxlangan bir qog'oz chiqardi-da, mezbonga uzatdi. Bug'rohoji xatni yoruqqa solib o'qiy boshladi:

"Ulug' qoon, Mo'g'uliston va Chin-Mochinning buyuk hukmdori Chingizxon hazratlariga salomi benihoyadin so'ng bandalari Inolchiq va Temur Malik bosh urib arz qilamizkim, podshohimiz sulton Muhammadning kosib, dehqon va alalxusus tijorat ahliga zulm-taaddisi kundan kun oshmoqda, shul sababdin barcha ulusni o'ziga dushman qilib olmoqda. Bizlar ham bul zulm imoratini qulatib, siz kabi ulug' xonning taxti rayosatiga kirmoqqa ahd qildik. Agar lashkar tortib kelsalar, o'z hukmimizdagi O'tror va Xo'jand qal'alarining darvozalarini ochib bermoqqa tayyormiz..."

Uy egasi bu nomani o'qidi-da, hayron bo'lib, savol nazari bilan Badriddinga qaradi.

— Bul maktubni izohsiz anglab bo'lmaydur, — dedi mehmon kulimsirab va suhbatdoshining savolini kutmay, tushuntira ketdi. — Buni ko'chirtirib va ostiga Inolchiq va Temir Malik muhrini bosib, o'z nomimdin yozilg'on maktub birla qoon janoblariga yubortirurmen...

Uy egasi ustalik bilan yozilgan bu qalbaki hujjatni qo'lida aylantirib kulib yubordi:

— Ofarin, siz ulug' podsholarga vazirlikka munosib a'yon ekansiz, ofarin[1].

O'tror shahridagi fitnachilarning boshliqlari bo'lgan bu ikki zot yarim kechagacha o'tirib, uzoq suhbat qilishdi.

VI

So'fi darvozasidan kirayotgan qator-qator tuyalarning bo'kirishi, misgarlar, temirchilarning taraqa-turuqi, bozor ahlining g'ovuri bir-biriga qo'shilib, quloqlarni qomatga keltirardi. Darvozadan birvarakayiga besh yuz tuya, savdogarlar, elchilar, tuyakashlar bo'lib to'rt yuz ellik kishi o'tdi. Eng so'nggi nortuyaning bo'yniga osilgan katta qo'ng'iroqning darang-durungi Chingizxon elchilarining yetib kelganini hammaga e'lon qilar edi.

Ulgurji, chakana savdogarlar, attorlar, bazzozlar, mo'ynado'zlar karvon kelib tushgan saroylar atrofida uymalashib qoldilar, chunki Xitoydan kelgan savdogarlarda ular uchun kerakli mollar topilardi.

Odatda, Xitoydan, Sharqiy Turkistondan Rumga va Rusga boradigan savdogarlar O'trorda to'xtab, yo'l xarji uchun mollarining bir qismini sotib ketar edilar. Bunday vaqtlarda attorlar doriga ishlatiladigan jenshen va ichidagi qoni qotmagan yosh kiyik muguzi, mushk-ifor; mo'ynado'zlar esa suvsar, tulki teri;

[1] "Turkon xotunning qarindoshlari bo'lgan sarkardalarga nisbatan sultonda ishonchsizlik tug'dirish uchun Chingizxon o'trorlik Badriddin maslahatidan foydalandi. Bu sarkardalar nomidan Chingizxonga maktub yozilib, maxfiy ravishda sultonning qo'liga topshirildi". Hamdulloh Qazviniy "Tarixi guzida".

bazzozlar — ipak jujun, tovar; zargarlar — oltin, kumush xarid qilar edilar. Karvonsaroylarda niyati buzuq, shubhali odamlar ham pashshaxo'rda bo'lardi. Savdogarlar bir joydan ikkinchi joyga yolg'iz foydali mollar emas, turli mish-mish xabarlarni ham olib kelishardi.

Kechqurun, usti yopiq rastalarda harakat to'xtab, shahar suv quygandek jimjit bo'lib qolgan paytda Inolchiq o'zining mehmonxonasida pakanagina, qorni katta, mittiko'z bir odam bilan qarama-qarshi o'tirardi. Bu kishi bazzozlar rastasining oqsoqoli bo'lib, uning har tabaqa kishilardan oshna-og'aynilari bor, shahardagi hamma voqealardan xabardor edi. Hozir u Inolchiqning mo'g'ul elchilari va savdogarlari to'g'risida bergan savollariga hazil aralash javob qaytarardi.

— Ha, ko'plari shu yerlik savdogarlar... Namuna uchun bir xitoyni ham ergashtirib kelibdurlar. A? To'rt yuz ellik kishi... go'yo shaharni jang-u jadalsiz ishg'ol qildilar.

Bazzozning bu gapi Inolchiqqa yoqmadi, shekilli, peshanasini tirishtirib savdogarlar keltirgan mollarning xilini, son-sanog'ini surishtirdi. Bir kun ichida talay ma'lumot to'plagan bu bitko'z odam o'zining aniq javoblari bilan hokimni qanoatlantirdi. Gapining oxirida bazzoz:

— Alar bu yerda ba'zi bir mollarini sotib, evaziga ba'zi ma'lumotlarni olib ketmoqdalar, chog'i, — dedi kulimsirab.

— A? Qanday ma'lumotlar?

— Masalan, O'tror qal'asidagi askarlarning soni, shu yerlik savdogarlarning kayfiyati haqidagi ma'lumotlar va hokazo.

— Hah-ha! Tag'in nimalarni so'rab-surishtirayotirlar?

— Ko'p nimarsalarni. Savdogarlar orasida mening Faxriddin otlig' buxorolik oshnam ham bor. Ul, kosib va bozor ahliga Inolchiq tomg'a[1] soldimi, xalq bundin rozimi-norozimi, deb ko'p surishtirdi. Mening o'tgan hafta Binoket borib kelganimni bilib, ul qal'aning mustahkamligi, askar ahvolotini bilmoqchi bo'ldi...

Inolchiqning rangi oqarib, mushtlari qisildi. Buni ko'rib bazzozning kapalagi uchib ketdi.

[1] **Tomg'a** *(tamg'a)* — tashqaridan keltiriladigan mollar uchun olinadigan boj.

— Amin bo'lingkim, mening bergan javoblarim davlatimizga zarracha ham zarar yetkazmaydur, zeroki...

— Men sizni yaxshi bilurmen. Bul xususda xavotir olmang. Siz aqlli va sadoqatli odamsiz. Xo'sh, boshqa savdogarlar-chi?

— Boshqalari ham karvonsaroyga kelgan allaqanday shubhali kishilar birla pichir-pichir qilib turganlarini ko'rdim.

Inolchiq o'rnidan turib ketdi-da, tishlarini g'ijirlatib, uyoqdan buyoqqa yura boshladi. Mehmon ham o'rnidan turib, qo'l qovushtirganicha qotib qoldi.

— Hozircha sizga javob, bergan ma'lumotlaringiz uchun rahmat, — dedi uy egasi o'zini bosib olib.

Bazzoz chiqib ketgandan keyin Inolchiq tashqari chiqib, boshyalang holda hovlida aylana boshladi. Mohir sarkarda, jasur va irodali jangchi bo'lgan Inolchiqda davlat arbobiga yarashmaydigan qiziqqonlik, sabrsizlik xislati bor edi. U hozir ham shoshib-pishib o'zicha bir qarorga keldi-yu, qal'adagi sardorlarni o'z oldiga chaqirtirdi...

* * *

To'rt ustunli, devorlariga ov va urush manzaralari solingan salomxonada yetti savdogar — Chingizxonning elchilari shahar hokimining chiqishini sabrsizlik bilan kutar edilar. Ularning orasida boshiga uchi ingichka taqiya qo'ndirgan bir mo'g'ul ham bor edi. Egnidagi shoyi chopon tagidan sassiq hid anqirdi (oqar suvga tushib yuvinish mo'g'ullar dinida man etilgan). Yuvinib-tarab yurishni yaxshi ko'radigan boy savdogarlar badbo'y hiddan ko'ngillari ag'darilib, zo'rg'a chidab turardilar.

Buyuk elchi Umarxo'ja O'troriy tizzasi ustiga Chingizxon tomonidan berilgan oltin taxtakachni qo'yib, devonda o'tirardi. Bu oltin taxtakach uning oliy mansab egasi ekanligini ko'rsatar, Chingizning qo'li yetgan joyda elchining daxlsizligini ta'min etardi. Uning o'ng tomonida Faxriddin Buxoriy, chap tomonida Najmiddin Dehlaviy, Miragiy, Aminiddin Hiraviy gerdayishib o'tirishardi. Oradan bir soat o'tgandan so'ng yoqasiga va etagiga kumush uqa tutilgan, tillado'zi chopon kiygan, simobiy sallasiga ikki misqolli olmos qadagan hokim o'zining bek va amaldorlari

qurshovida tantana bilan asta yurib, salomxonaga kirib keldi. Uning belidagi tilla kamariga kumush qinli, oltin sopli Isfahon qilichi taqilgandi. O'sha vaqtning odatiga muvofiq, podsho va hokimlar ajnabiy mamlakatlardan kelgan elchilar oldiga eng qimmatbaho liboslar kiyib chiqib, boyliklarini ko'z-ko'z qilar, shu bilan dushman elchilari oldida o'zlarining buyuk, qudratli davlatning vakili ekanini ko'rsatmoqchi bo'lar edilar. Inolchiq ham dushmani deb bilgan qoon elchilari oldida o'zini yerga urmaslikka harakat qilgan, o'ng va so'ldagi amaldor va beklar ham shohona liboslarda edilar.

Hokimning qoshlari chimirilgan, qiyofasi jiddiy edi. Ikki bukilib ta'zim qilgan elchilarga u bosh qimirlatib javob qildi-da, asta yurib zarhal kursiga o'tirdi, biroq elchilarni o'tirishga taklif etmadi, odatga xilof ravishda Chingizxonning sog'lig'ini ham so'ramadi, elchilarning aziyat chekmay yetib kelganliklari to'g'risida ham savol bermadi. Elchilar sarosimaga tushib, bir necha vaqtgacha lom-mim deyolmay, tayyorlab qo'ygan nutqlarini ham eslaridan chiqarib qo'ydilar. Nihoyat, Umarxoja o'zini tutib oldi-da, oqara boshlagan cho'qqi soqolini siypab, so'l ko'zini qisib, gap boshladi:

— Mashriqning ulug' qooni Chingizxon hazratlari Mag'rib podshohi sulton Muhammad Aloiddin hazratlariga o'z muhabbatlarini izhor aylamoq uchun biz faqir-u haqirlarni elchi qilib yubordilar. Qoon hazratlaridin sulton janoblariga ko'pdan ko'p salom barobarinda behad shohona in'omlar olib bormoqdamiz. Qoon hazratlari sulton janoblarini o'g'il o'rnida ko'radurlar va ul janobg'a do'stlik ilkini uzatadurlar...

Inolchiq Umarxojaning tumtaroqli so'ziga quloq solarkan, safrosi qaynar, uni so'kib yuborishdan o'zini bazo'r tutib turardi.

Umarxojadan so'ng savdogar Najmiddin so'z boshladi:

— Qoon janoblari sizga ko'pdan ko'p salom bilan qimmatbaho sovg'alar ham yubordilar (shu payt uning mulozimi kattagina kimxob bo'g'chani o'rtaga olib kelib qo'ydi). Inolchiq hazratlari sovg'amiz bilan bizning duoyi salomimizni ham qabul qilg'aylar, deb umid qilurmiz.

Chingizxondan katta vakolat olgan bu elchilar o'zlarini haddan tashqari mag'rur tutar edilar. Inolchiqning rasmiy nomi G'oyirxon ekanini yaxshi bilgan Najmiddin uni atayin Inolchiq deb kamsitmoqchi bo'lgan edi. Hokimning ko'zlari o'tday chaqnab, lunjida yong'oqdek bir narsa nari borib beri kela boshladi.

— Xoqoni binni Xoqon Iskandari soniy — sulton Muhammad Xorazmshoh hazratlari (sultonning nomi tilga olinganda, uning hurmati uchun beklar va amaldorlar o'rinlaridan turib qo'l qovushtirdilar) qanday qilib majusiy Chingizxonning o'g'li bo'lsin, — dedi Inolchiq davlat arbobiga munosib bo'lmagan qiziqqonlik bilan. — Sulton Muhammad Aloiddin hazratlari yoshda Chingizdan kichik bo'lsalar dog'i davlatlari andin farovon, dastlari andin uzun, lashkari andin bisyorroq va kuchliroqdir (ranglari o'chib, qo'l qovushtirib turgan amaldorlar "shunday" deganday bosh egib qo'ydilar). Bu bir, ikkilamchi, siz elchilar O'tror shahar hokimining unvonini bilmog'ingiz zarur erdi...

Najmiddin Dehlaviy uncha-muncha do'qdan qo'rqadigan odam emasdi. U nafasi ichiga tushib, dokadek oqarib ketgan Umarxojaga bir qarab qo'ydi-yu, qoonning obro'sini saqlash o'rniga uning lom-mim demay qaqqayib turishini ko'rib, g'azabga keldi.

— Ulug' qoonni majusiy deb va Chingiz deb kamsitmoqqa qanday jur'at qildingiz! — dedi u, tulkining ko'ziga o'xshash sarg'ish ko'zlarini Inolchiqqa tikib. — Qoonning shuhrati ro'yi zaminga yoyilg'on, agar istasalar, ilklarining bir ishorasi bilan podsholarni taxti tojidan mahrum eta bilurlar.

Mag'rur savdogarning bu gapi Inolchiqning qonini qaynatdi:

— Bachchag'ar, tagi past, kimning huzurida turganingni unutdingmi? O'zing kimdursan? Kasb-koring savdogarlik — itning hunari! O'taketgan beadablik qilding! Tiz bukib, oldimda tavba qil, itvachcha!..

Safrosi qaynab ketgan Inolchiqning og'zidan poyma-poy haqorat so'zlari otilib chiqar, nima deyayotganini o'zi ham bilmas edi.

Savdogar ko'zlarini suzib istehzo bilan kulimsirab qarab turardi. Ehtiyotkor Umarxoja ish pachava bo'lganini anglab, hokimni tinchitishga urinib ko'rdi:

— G'oyirxon janoblari, huzuri oliyingizda beadablik qilg'on sherigimizning gunohidan o'ting. Alalxusus...

— Sen sotqin, so'zga aralashmasang yaxshiroq bo'lur edi, — dedi Inolchiq battar tutaqib. — Sen o'trorlik savdogarsen. Chingizdan elchi bo'lib kelmoqqa qanday haqqing bor? Buxorolik Faxriddinning elchi bo'lib kelmoqqa nima haqqi bor? Majusiy podsho xizmatiga kirib, endi o'z vatandoshlaring yuziga oyoq qo'yturgan bo'ldingmi? — Shunday deb yonida turgan mingboshi Qulnazarga qarab buyruq berdi: — Yog'iy[1] tomonina o'tib, o'z podshohina xiyonat qilg'on bu josuslarni darhol hibs etib, zindonga soling! Mol-mulklari esa xazina foydasiga musodara etilsin! Anovi mo'g'ulni qo'yib yuboring!

Shu zahoti elchilar orqasida qurolli sipohiylar paydo bo'ldi.

— Qadimdin elchiga o'lim yo'q, degan maqol bor. Qayu mamlakat tarixida bu kabi hodisa sodir bo'lg'on? Biz elchilarni zindon solmoqqa haqqi-huquqingiz yo'q.

— Josuslar! Qayu bet bilan o'zingizni elchi deb ataysiz? Siz elchi emas, balki yov xizmatina kirgan sotqin vatandoshlarimizdursiz. Siz yanglig' xoinlarni vatandosh demoqqa og'zim bormaydur.

Inolchiq shuni deb, savdogarlarni olib chiqib ketishni buyurdi:

— Bular bilan aytishib o'tirmoqqa fursatimiz yo'q. Ko'zimdan yo'qoting manhus basharalarini!

— Inolchiq, o'z boshingga Allohning balosini chorlamoqdasen? — deb baqirdi Najmiddin sipohiylar oldiga tushib, eshikdan chiqar ekan.

Beklar va amaldorlar boshlarini egib, juda tez ro'y bergan bu voqeaning qanday oqibatlarga olib borishi to'g'risida bosh qotirishar edi.

Qulnazarxoja mahbuslarni zindonchi qo'liga topshirib, uyiga qaytar ekan: "Eshitgan quloqqa yomon, — deb o'yladi siyrak soqolini chimdib, quv ko'zlarini qisib. — Elchilarni qamadi, deb yomonotliqqa qolaturgan bo'ldik. Albatta, alarni Xorazm-

[1] **Yog'iy** — dushman.

ga o'tkazib yuborsak, xato qilg'on bo'lur edik. Bu sotqinlar ko'p narsani bilib, Chingizxon uchun qimmatli ma'lumotlar olib ketgan bo'lur edilar. Lekin bu ishni ustalik bilan qilmoq kerak edi-da. Men Inolchiq o'rnida bo'lsam, alarni Qizilqumda "qaroqchilar"ga talatar, boshlarini kestirar edim, so'ngra Chingizxondan afv so'rab, shu savdogarlardan o'lja tushirgan molning yarmini anga sovg'a qilib yuborar edim. Ammo Inolchiq quvlik-shumlikni, riyokorlikni bilmayturgan cho'rtkesar odam, askarchasiga harakat qiladur. Hay, attang, otilgan o'qni qaytarib bo'lmaydi-da! Ammo Chingizxon Mashriqdagi barcha katta-kichik o'lkalarni olib bo'lg'och, baribir bizga chovut soladur. Inolchiq Mag'rib sari kelayotgan yovvoyi mo'g'ul otiga bir qamchi urdi-yu, uning yurishini tezlashtirdi, xolos".

Qulnazardan boshqa hamma amaldor va askarboshilar ham uy-uylariga qaytayotganlarida xayollarini taxminan shunday qarama-qarshi fikrlar band qilgan edi.

VII

Ertasi kuni shahar hokimi Inolchiq Temirtoshni oldiga chaqirtirib, shunday dedi:

— Mana bul nomani Gurganjga zud eltgaysen va uni sulton hazratlarining o'z ilklariga bergaysen. Mana bu yorliq sening nomingga yozilg'on. Yo'lda kimga ko'rsatsang, istagan narsangni berur. Inonurmankim, kerakli narsadin ortig'ini olmaysen... Qulnazar senga yo'l bilguvchi bir askar bergay. Bir soatdan so'ng yo'lda bo'lasen!

— Bosh ustina, — dedi Temirtosh qisqagina qilib. U ortiqcha gapni yoqtirmasdi.

Bu vaqtda o'nboshilik martabasiga erishgan Temirtosh yetilgan, gavdasi to'lishgan baquvvat yigit edi.

U endi to'rt yil avvalgidek bo'sh-bayov Temirtosh emasdi. Ilgarigi tortinchoqligidan asar qolmagan.

Inolchiq buyruq berarkan, uning ko'zlariga tikka qarab, gapiga diqqat bilan quloq solib turardi.

Oradan bir soat o'tar-o'tmas Temirtosh chap yuzi chandiqli, bir ko'zi ko'r, badqovoq, kamgap bir askar hamrohligida yo'lga chiqdi. O'zi bilan ikki juft ko'ylak-ishton, bir xalta qurut, bir xalta tolqon, suv uchun mesh olgan edi.

Yo'l uzoq, safar xatarli. Oldinda suvsiz, bepoyon Qizilqum sahrosi, tashnalik balosi kutib yotadi. Biroq shunga qaramay, uning dimog'i chog', yosh yuragi sevinchini ichiga sig'dirolmaydi. U ot ustida silkinib, qamchisini o'ynatib borayotib, xirgoyi qiladi, badqovoq hamrohining jahlini chiqaradi. U har qancha xursand bo'lsa arziydi. Chunki uni bir oy ilgari hamsoyalari bo'lgan bir kosib-bog'dorning qiziga unashtirib qo'yganlar. Hamsoyaning qaddi niholdek, yuzlari qirmizi olma, ko'zlari charosdek chevar qizi Temirtoshga juda yoqadi.

O'sha vaqtning odatiga ko'ra, kuyov bo'ladigan yigit qallig'i bilan ko'rishib yurardi. Yigit qizning yangasiga sovg'alar olib, qorong'i tushganda qallig'ining uyiga borar, u bilan gaplashib o'tirib, yarim kechada qaytar edi. Qizning ota-onasi o'zlarini ko'rmaslikka solib, yoshlarning suhbatlariga xalal bermas edilar.

Temirtosh ham qallig'i Minglioyning yangasiga kecha ikkita iroqi sovun, upa-elik olib, yangi ro'molchaga qand-qurs tugib, qosh qorayganda borgan edi.

Yanga uning qo'lidan tugunchani oldi-da, qiz bilan yigitni tashqaridagi hujrada yolg'iz qoldirib, ichkari kirib ketdi. Minglioy taxmondan ko'rpacha olib, namat ustiga solar ekan:

— Nechun o'tgan kun kelmading? — dedi o'pka qilib.

— Qo'lim tegmadi. Chin-Mochindan kelgan "mehmonlar"ni kutish birla ovora edik. Emdi bir oygacha ko'risha olmaymiz.

— Nechun? — qizning yumaloq yuzidagi ginaxonlik alomati tashvish bilan almashindi.

— Gurganj ketayotirmen, — dedi yigit ko'rpachaga o'tirib. So'ngra qaylig'ining qo'lidan tortib yoniga o'tirg'izdi.

— Bir bahona topib, bormay qo'ya qol-da.

— Bo'lmaydi. Hokimdan buyruq olg'onmen. Yo'q desam, xizmatdin bo'shatib yuborgusidur. Hazil gapmi, har yili oshligimni berib turadur.

— Mayli... Oy borib, omon qayt. Ammo yo'lda qizlarga qarama. Xorazm qizlari ko'rkli bo'ladur, deb eshitamen. Toki seni birortasi o'zig'a rom qilib olmagay, — Minglioy sochlari mayda o'rilgan boshini yigitning boshiga qo'yib yig'ladi.

— Yig'lama, sendin o'zgaga sevgi ko'zi-la boqsam, ko'zim teshilsin, — dedi Temirtosh qaylig'ining boshini silab.

Ular u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirib, vaqt yarim kecha bo'lib qolganini sezmay qolishdi. Bu vaqtda yarim kechada yurish taqiq qilingani uchun yigit yotib qolishga majbur bo'ldi. Yangasi chiqib ularga o'rin solib berdi-da, indamay ichkari kirib ketdi. Temirtosh yechinmay, o'zi bilan qaylig'i orasiga qilichini qo'yib, o'rniga yotdi. Sevgilisi shivirlab gapirganda, yuziga uning iliq nafasi kelib turarkan, o'zini behad baxtiyor his etardi. Biroq halol yigit bo'lganidan hali nikohiga kirmagan qallig'iga qo'l tegizishni nomardlik, nomussizlik deb bilardi.

U Minglioy bilan gaplashib yotib saharga yaqin mizg'ib oldi. Tong otar-otmas o'g'ridek biqinib qallig'inikidan chiqib ketdi.

Kechasi juda ham kam uxlagan bo'lsa-da, hozir o'zini qushdek yengil his etar, shodligini yuragiga sig'dirolmay xirgoyi qilardi:

Qushlar sayrar, chechaklar kular,
Bodi sabo boshimni silar,
Sonduvochim, qayda bo'lsam-da,
Ko'nglim sen-la ovunmoq tilar.

Shaftoli, uzum, nok, olma pishgan bog'-bo'stonlar ustida qaldirg'ochlar charx urib sayrardi, chetlariga tol, teraklar o'tqazilgan paykallar ustida, oltin boshoqlari osilgan bug'doyzorlar ustida qurquldaklar qurqullab parvoz qilardi.

Otliqlar bog' ko'chalar, paykallar, bedazorlarni orqada qoldirib, Sirdaryo bo'yiga keldilar, daryo suvi kamaygan, qirg'oqlari ochilib qolgan edi. Ular kechik yer topib, daryodan ot suzdirib o'tishdi. Sirning narigi betidagi Chordara vohasi juda chiroyli manzara kasb etgan edi. Quyosh nuriga cho'mgan ko'm-ko'k bedazorlar, oltin bug'doyzorlar ustida havo jimirlar edi. Ba'zan quyoshni to'sib, gala-gala chug'urchuqlar uchib o'tardi.

Temirtoshning ruhi yengil, kayfi chog'. Hatto uning bir ko'zli kamgap hamrohining ham chiroyi ochiq. Biroq qum sahrosiga kirishlari bilan kayflari o'zgara boshladi. Malla to'nli sahro ustida to'rg'aylar ipga osib qo'yilgandek, chirillab yig'lardi. Ot tuyoqlari ostidan qizil qanot chigirtkalar uchib ketar, katta-katta kaltakesaklar qochib, saksovullarning xunuk tanasiga yopishib olardi.

Bu ko'ngilsiz manzara Temirtoshning musaffo yuragini xira qilar, xayolini qora fikrlar bulutiga chulg'ar edi. Bir mahal kunchiqish tomondan, chang-to'zon bilan xas-cho'pni chirpirak qilib, quyun bostirib kela boshladi. Yo'lovchilar quyun o'tib ketguncha yuzlarini berkitib, teskari qarab turdilar. "Ildizi chirib qolgan sho'ra o'tlar, shuvoqlarning osmonda o'ynashini qara, tomir otgan yantoq, bo'tako'z, isiriq yerni quchoqlab olib, jonini saqlab qolyapti", deb o'yladi Temirtosh.

Yuz-ko'zlari, ust-boshlarini chang-to'zon bosgan yo'lovchilar quyunlarni, kunduzgi garmsel, tungi ayozni pisand qilmay ketaverdilar. Ular yo'ldagi sho'r quduqlardan meshlarini to'ldirib olib, kecha-yu kunduz yo'l bosar, Gurganjga yetib olishga shoshilar edilar.

Oradan bir oy o'tgach, cho'l shamoli va oftobdan yuzi qorayib, ko'zlari kirtayib qolgan Temirtosh O'trorga Xorazmshohning javobini olib keldi. Sulton Inolchiqning fikrini to'g'ri topgan, sotqin savdogarlarning mollarini musodara qilib, o'zlarini qatl etishga rozilik bergan edi.

VIII

Ko'klam payti. Ikki kun bosib yog'gan yomg'ir va uning ketidan ko'ringan quyosh o'tlarning qulog'idan tortib chiqargan, hamma yoq ko'm-ko'k, bahor cho'lga bepoyon gulli yashil palos yozib tashlagan. Havoda qanotlarini pirillatib to'rg'aylar sayraydi, qaldirg'ochlar o'qdek uchib yuradi, daryo bo'yidagi butalar orasida bulbullar fig'on qiladi.

Sirdaryo bo'yidagi xushmanzara yerga o'nlab o'tovlar qurilgan. Ba'zi o'tovlardan o'lan ovozi, ba'zilaridan gurung, qahqaha

sadolari eshitilib turadi. Usti guldor oq namat bilan qoplangan bir o'tov ko'zga yaqqol tashlanadi. Lekin bundan na kulgi va na o'lan sadosi eshitiladi. Bundagilar atrofdagilarning xursandchiligiga qo'shilmay, jiddiy suhbat bilan mashg'ul. O'tovning to'r tomonidagi kimxob to'shak ustida ikki kishi chordana qurib, asta gurunglashib qimiz ichishadi, ularning o'ng va so'l tomonlarida mulozimlari hurmat saqlab o'tirishadi, quyiroqda boshiga oq dokadan sallacha o'ragan oq yuz, qorasoch chiroyli kelinchak — Inolchiqning to'qoli yonidagi meshni chayqatib-chayqatib, zarang kosalarga qimiz quyadi, ikki qo'llab qo'noqlarga uzatadi. Mehmonlar qimiz ichib, oldilaridagi dasturxon ustiga tizilgan kumush tovoqlardan yaxna go'sht, g'oz kabobidan tamaddi qiladilar.

To'rda o'tirganlardan biri — yaqindagina Gurganjdan kelgan bir tuman otliq askarning sardori Qoracha Hojib. Inolchiq uning sharafiga shaharda bir necha kun ziyofat berdi, endi Sir bo'yiga olib chiqib sayr-tomosha qildirayotir. Maqsadi — Qoracha Hojibni yaqindan tanib, uning qanaqaligini bilib olmoq.

Chingizxonning elchilari o'ldirilgandan keyin har ikki tomon urushga hozirlana boshladi. Xorazmshoh, har bir shahar, har bir qo'rg'on o'zini o'zi mudofaa qilsin, deb buyruq berdi. Sulton o'zining shaxsiy mulozimi Qoracha Hojibga o'n ming otliq askar berib, O'trorga jo'natdi. Saroy soqchilarining sardori Temur Malikni ham bir necha ming askar bilan Xo'jandga yubordi, Inolchiq, Temur Malik singari aqlli sardorlar lashkarning har tarafga tarqatib yuborilishi mamlakat uchun xavf-xatarli ekanini yaxshi bilar, lekin churq etisha olmas, chunki toshyurak sultonning so'zini ikki qilolmas edilar. Sultonning siyosatidan norozi bo'lgan, unga qarshi gapirgan kishining umri qisqa bo'lar edi.

Hozir Inolchiq mehmonning ko'nglini olish uchun uyoqdan-buyoqdan gapirib o'tirar, lekin yuragi g'ash, ichini it tirnar edi: "Hozir o'yin-kulgining paytimi? Chingizxon Tang'udni, Sharqiy Turkistonni oldi, bizga chovut solishga tayyorlanayotir, biz esa g'aflatdamiz", deb o'ylardi u barvasta Qoracha Hojibning xushchaqchaq, tovoqdek yuziga qarab.

Hojib egnida asl movutdan tikilgan yengil kalta tugmador kamzul, oyog'ida baland poshnali upuka etik. U chertsa qon tomadigan qip-qizil yuzini burishtirib, ko'zlarini istehzo bilan qisib, hamsuhbatiga quloq solar, ahyonda bir bema'ni iljayish yuzini yoritib yuborardi. Gerdayib o'tirishi, boshini ko'tarib, shoshmasdan gapirishi uning mag'rur va o'ziga bino qo'ygan odam ekanligini ko'rsatardi. Kechalarini bedor o'tkazadigan kishidek ko'zlari kirtaygan, peshanasini ajin bosgan Inolchiq esa qiyiq ko'zlarini yaltiratib, qoraxitoylar bilan qilgan janglari to'g'risida hikoya qilardi. U Qoracha Hojib singari og'ir va sipo emas, iroda va g'ayrat barq urib turgan chehrasida g'urur va kibr-havodan asar yo'q, hayajon bilan qizishib gapirar edi.

— Talas bo'yidagi jang tavorix sahifasida mangu qolgusidur. G'animning o'ttiz mingdan ortiq lashkari daryo bo'yida turar edi. Bizning lashkar naqqoralar chalib, saf tortib boraverdi. Men jeyba kiyib, otlarg'a kejim solib, bir tuman otliq nayzaboz cherik birla g'animning o'ng qo'lidan orqasina o'tib oldim. G'animni o'rtaga olib andoq savadimkim, u qochgali joy topolmay qoldi. Qoraxitoy sarosima bo'lib, tog'ga qochdi, necha ming askari bizning otlar oyog'i ostida poymol bo'ldi... — Inolchiq shunday hayajon bilan so'zlar ediki, hamsuhbatlari uning gapiga mahliyo bo'lib, urush manzarasini o'z ko'zlari bilan ko'rayotgandek jimib qoldilar. Hokim o'z hikoyasini tamomlab, chuqur xo'rsindi-da, sekin gapira ketdi:

— Mana, endi mo'g'ul badbaxt ustimizga lashkar tortib kelayotir. Agar biz bor kuchimizni Sir bo'yiga yig'nasak, Chingizning qo'shinlarini to'zitib yuborur erdik. Bizda cherik ko'p, qurolyarog' mo'l, tajribali sarkardalar bisyor. Afsuski, biz bu kuchlarni bir yerga to'plamay, aksincha, tarqatib yuborayotirmiz.

Inolchiq saroy vaziri Shahobiddin Xivagiyning sulton huzuridagi kengashda aytgan gaplarini takrorlayotgan edi. Kengashda sulton saroy vazirining fikriga quloq solmagan edi, har qaysi qal'a o'z boshiga urush qilsin, mo'g'ul qo'shinlari tarqalib ketgach, ularni yengish oson bo'ladi, deb o'ylardi. Qoracha Hojib ham shu keyingi taklifni quvvatlab gapirgan a'yonlardan biri edi.

— Men sulton hazratlarining har bir qarorlari xatodan xolidir, deb bilurman, — dedi Qoracha Hojib burun kataklarini kerib. — Shuni bilib qo'yingki, mo'g'ul qoonning qo'shini chinakam savashni hali ko'rgani yo'q. Qani, mo'g'ul biz birla chopqilashib ko'rsin... Ko'rsatib qo'yajakmiz. Xorazmshoh cheriki shu topgacha hech kimarsadan yengilgani yo'q va yengilmaydur.

— Oriy, — dedi Inolchiq qovog'ini solib. — Agar biz g'aflat uyqusida yotmay, savashga yaxshi tayyorlansak, mo'g'ulning barcha tishini qoqib olg'aymiz.

— Qayg'urma, G'oyirxon. Birinchi savashdayoq mo'g'ul qo'shinlarini to'zg'itib yuborg'usimizdur, — dedi Hojib ko'kragini kerib.

Inolchiq bu odamning yengiltakligiga, asossiz mag'rurlanishiga, bolalarcha mulohaza yurgizishiga hayron qoldi. Maqtanchoq kishilar jiddiy bir to'sqinlikka uchraganda suvga tushgan nondek bo'kib, bo'shashib qolishini o'z umrida ko'p ko'rgan.

Sayr-tomosha va o'yin-kulgi uchun chaqirilgan joyda bunday so'zlar o'rinsiz ekanini Inolchiq payqab qoldi. Sultonning bema'ni qaroridan xafa bo'lgan shahar hokimi, soddadillik qilib, o'z fikrini ochiqchasiga aytib qo'ygani uchun ko'p afsuslandi. Tag'in kimning oldida? So'z uqtirib bo'lmaydigan nodon va aravani quruq opqochadigan kishi oldida-ya! Xayf-e! So'z mavzusini o'zgartirish uchun:

— Qoracha o'lanni yaxshi aytadur, deb eshitgan erdim, qani, Oysuluv bilan aytishib ko'r-chi, — dedi.

Mushtini soniga tirab o'tirgan Hojibning tovoqdek yuzi yorishib ketdi, bir kosa qimizni bo'shatib, Oysuluvga uzatarkan, tovushini barala qo'yib boshlab yubordi:

Sirdaryodan o'rdak uchar bo'ynin cho'zib,
Menga boqar bir nozanin ko'zin suzib.
G'oyirxonning qo'ylari ko'p, yilqisi ko'p,
Yaylovlarda xixilanib yurar to'p-to'p.
Behisobdir sigir, novvos, nortuyasi,
Hammasidan yaxshi ekan oq biyasi.

U keyingi so'zlarni aytar ekan, Oysuluvga qarab, ko'z qisib qo'ydi. Bema'ni o'xshatishdan jahli chiqqan Oysuluv kosani yana to'ldirib, Hojibga uzatar ekan, qora sochli kichkinagina chiroyli boshini chayqatib javob aytdi:

Hasad qilma sen birovning ahvoliga,
Ko'z tikmagin Inolchiqning haloliga.
O'lan aytsang, bilib aytgil, yolg'on dema,
Yuvoshdir deb oq biyadan tepki yema.

O'tovdagilar Oysuluvning javobiga qoyil bo'lib, kulib yuborishdilar. Bu go'zal xotin raqibining har bir haziliga mohir qilichboz kabi ustalik bilan javob berib, uning har bir zarbini rad etar edi. Inolchiq esa tili qilichdek o'tkir xotinining qo'ng'iroqdek tovushini, oqilona javoblarini eshitib zavqlanar, tomog'idan beixtiyor chiqib ketgan qiyqiriqlar bilan xotiniga dalda berardi.

Bora-bora Qoracha Hojib aljib ketdi, hazillari qo'pollashdi. "Oq biya" so'zini payrov qilib, odob chegarasidan chiqa boshladi. Biroq Oysuluv ham bo'sh kelmay, ustalik bilan unga javob qaytarar, o'tov atrofiga yig'ilgan odamlarni kuldirardi. Hammaning ko'zi ikki beti naqsh olmaday qizargan Oysuluvda edi. U yangi-yangi so'zlar, o'xshatishlar topib, raqibini devorga taqab qo'ydi. Nihoyat, Hojib yengilganiga tan berib, qulluq qildi.

Shu ravishda ziyofat xursandchilik va o'yin-kulgi bilan tugadi.

IX

Shahar va tevarak-atrofdagi ovullarning aholisi O'tror qo'rg'onining shikast-rextini tuzatish va qo'rg'on atrofidagi xandaqlarni tozalash, chuqurlashtirish uchun safarbar qilindi. Zamindorlar, savdogarlar, boylar qo'lida ezilgan xalq yana mo'g'ullarga yem bo'lishni istamasdi. Mehnat ahli yaqindagina qoraxitoylar zulmidan ozod bo'lgan, chet el bosqinchilarining qipchoq xonlaridan ham yovuz ekanini bilardi. Qoraxitoylar bilan olib borilgan janglarda qo'rg'onga ancha shikast yetkazilgan, ba'zi joylari qulab tushgan edi. Bularni tuzatmay turib, shaharni himoya qilish mumkin emasdi. Aholining bir qismi qamal vaqtida shaharni suv

bilan ta'min qiladigan hovuzlarni tozalay boshladi. Shahar ichi ari inidek g'uvullar, har yoqda yelkasiga ketmon qo'ygan yoki belkurak ko'tarib ishga ketayotgan kishilar ko'zga chalinardi. Shahar ustini bulutdek qoplagan chang-to'zon yozgi oftob nurida tilla zarralaridek tovlanar, daraxt barglariga, gul shoxlariga, odamlarning yuziga o'tirardi. Xalq o'z ona shahrini mustahkamlash uchun jonini ayamay jonbozlik ko'rsatayotgan mahalda mardikor yollab, o'zlarini og'ir mehnatdan qutqarib qolgan savdogarlar tilla-kumushlarini, javohirlarini xumchaga solib, yerga ko'mish bilan ovora edilar.

Sunbula[1] oyining o'n beshiga kelib, shahar dushmanga davomli qarshilik ko'rsatishga tayyor bo'ldi: qo'rg'onning shikast-rextlari tuzatildi, tozalangan xandaqlar, shahar ichidagi hovuzlar suv bilan, shahar omborlari g'alla bilan to'ldirildi. Tevarak-atrofdagi dehqonlar shoshilib, arpa-bug'doyini o'rib oldi, yanchib, ot-aravalarda shaharga tashiy boshladi.

Uzangisozlar va temirchilar so'nggi marta shahar yaqinidagi Arslon bobo mozoriga sayilga chiqishgan edi. Ular mozor boshida beshta qo'yni so'yib, bittasini shayxlarga ehson etishdi-da, to'rttasini doshqozonga bosib qovurma pishirishdi.

Qator teraklar ko'lankasiga solingan uzun ko'rpachalar ustida chordana qurib ovqat yeyishar ekan, hunarmandlar mamlakat chegarasiga yaqinlashib kelayotgan mo'g'ullar to'g'risida, mamlakatni himoya qilish to'g'risida gaplashib o'tirishardi. Xayollarini band qilgan qora fikrlardan o'zlarini chalg'itish uchun gap mavzusini o'zgartirishga harchand urinsalar-da, yana gap aylanib kelib, ko'ngillarini g'ash qilgan o'sha mavzuga taqalardi. El ustiga falokat quyuni bostirib kelayotgan mahalda boshqa narsa ko'ngilga sig'armidi?

— Axiylar[2], keling endi, kun sayin yovuqlashib kelayotgan g'animni daf etmoq choralari to'g'risida so'ylashib olayiq, — deb gap boshladi axiylar oqsoqoli Abdulmajid usta oqargan quyuq qoshlarini chimirib. — Bovujud O'tror qo'rg'oni berk va mustahkam bo'lsa dog'i, mo'g'uldek g'animni daf etmoq oson ish ermas.

[1] **Sunbula** — avgust.
[2] **Axiylar** — birodarlar.

Agar ulus, xususan, biz hunarmandlar lashkarga ko'mak bermasak, ish xarob bo'lgusidir. Kuni kecha hokim janoblari hunarmandlar oqsoqollarini huzurlariga chorlab, shul xususda maslahat so'radilar. Har bir kasb egasi o'z yo'li birla qo'shinga ko'mak bermoqqa va'da etdi. Men sizning nomingizdan, biz o'q, nayza, qilich-qalqon, jeyba-sovut yasaymiz, yaroq birla qo'shinni ta'min etgaymiz, deb so'z berdim...

Oqsoqol shoshmasdan, to'xtab-to'xtab uzoq gapirdi. Hunarmandlarning ba'zilari uning gapiga xayrixohlik bilan quloq solar: "Oriy, rost aytadilar, ko'maklashurmiz", deb uning gapini ma'qullar, ba'zilari peshanalarini tirishtirib, yer chizib o'tirardilar. Qorachadan kelgan, oriq, badjahl bir hunarmand ora-chora po'ng'illab qo'yardi.

Gapini tugatgandan keyin oqsoqol kaftining orqasi bilan ko'kragiga tushgan mosh-guruch soqolini ostidan ko'tarib, uchini tishlab, miyig'ida kulib qo'ydi-da, po'ng'illab o'tirgan kishiga qaradi:

— Boyqadam, siz bir nima demoqchisiz, chog'i? Ayting, qulog'imiz sizda.

— Aytaturgan gapim shulki, biz shu chog'gacha qipchoq beklariga tomg'a to'lab, alarni semirtirib keldik. Endilikda alarning o'zlari yovni daf etsinlar.

— Mo'g'ul beklari kelib, teringni tiriklayin shilib olsa maylimi? — deb uning gapini bo'ldi yonidagi bir chol.

— Hozir esa qipchoq beklari shilib olayotirlar.

— Qipchoq beklari pulingni olsa, mo'g'ul joningni oladur.

— Mo'g'ul kelib, o'zimizni qul qilib olsa, xotun, ushog'imizni bozorga chiqarib sotsa yaxshimi?

— Bo'lmasa, qipchoqlarga xojalar o'zlari ko'maklashsinlar, chumolini ot qilib urushga chiqsinlar, — dedi allakim.

Quyiroqda o'tirgan yosh-yalanglar bu gapni eshitib, qiqirlab kulib yubordilar.

Oqsoqol jahl bilan:

— Bas, safsatani to'xtating! — deb o'shqirdi. — So'zimga quloq osinglar, axiylar, — deb gap boshladi yana hamma jim bo'lgandan keyin. — Boyqadamning xafa bo'lmoqqa haq-

qi bor. Qoraxitoylar quvilg'ondin so'ng shahar mahkamasi biz hunarmandlarni boj bilan qisib qo'ydi. Biz bir necha bor hokim janoblariga arz qildik, boshda quloq solmadilar, axiyri boj-xiroj miqdorini ozaytirdilar. Qadim zamondan beri biz hunarmandlar tomg'a, ya'ni boj-xiroj lafzini eshitmagan erdik. Va lekin shuni bilib qo'yinglarki, mo'g'ul kelsa, boj birlangina qutula olmaysiz...

Oqsoqol mo'g'ullar xalqning boshiga nimalar solishini xuddi o'z ko'zi bilan ko'rgandek so'zlab berdi. Hammani vahima bosdi.

— G'anim qo'lida xor-zor bo'lmoqni istamagan har bir musulmon yarog'-aslaha yasamog'i darkor, biz qo'limizg'a cho'kich, bolg'a, yosh-yalanglarimiz qurol olsinlar, avval dushmanni daf etayik, keyin o'z xo'jalarimiz birla so'zlashabiz, — dedi oqsoqol gapini tamomlab.

— Rost aytasiz, qipchoq beklari bizning kuch-g'ayratimizni ham bilib qo'ysinlar. Hunarmand yoshlar qo'lida yarog' bo'lsa, oqsuyaklarning tili qisqaroq bo'lur, — dedi bir chol oqsoqolning gapini ma'qullab.

Sunbula oyining so'nggi kunlaridan birida Temirtosh boshlig'idan ruxsat olib, onasini shaharga ko'chirib kelish uchun bog'ga jo'nadi. Yo'lda bog' ko'chalarini changitib, dehqonlar shaharga ko'chayotgan edilar.

Jiyron ot ustida quyib qo'ygandek o'tirgan xushqomat Temirtoshga qarab hammaning havasi kelardi. Bu yigit yoshlik chog'ida orzu qilib yurgan narsasiga erishgan: endi uning o'z oti bor, kechqurun uni otxonaga olib kirib bog'lagandan keyin duxobadek mayin burun kataklarini paypaslab, suvlig'ini chiqaradi, sovugandan keyin egarni olib, ustiga yopiq tashlaydi-yu, sug'orib yem beradi, keyin bo'yniga asta qoqib qo'yadi. Uning nazarida bundan yuqori baxt bo'lishi mumkin emasdi. Biroq u shu baxtga erishgan paytda yurt ustida falokat boyqushi qanot qoqa boshladi. Kambag'alning baxti shu-da, og'zi oshga yetganda burni qonaydi.

Hozir uning ko'ngli g'ash, yuragiga qil sig'masdi. Jiyron ot boshini chayqab, bilqillagan ko'cha tuprog'ini changitib ketar

ekan, yetmishga borib qolgan mushtipar onasini o'ylardi: "Chorbog'ni tashlab, shaharga ko'chib tushishga qanday ko'ndirsam ekan, axir ota meros oshyonni tark etib ketish osonmi?"

Temirtosh kichkinagina chorbog'iga kirganda, olmalarning qizarib pishganini, so'ridagi uzumning yetilganini ko'rib, yuragi battar g'ash bo'ldi: "Nahotki jannatdek bog'larimizni tashlab, qal'aga berkinib olsak! Bu nomardlik-ku, axir! G'anim ustiga arslonlardek yopirilib bormasdan, kalamushlardek inga berkinib olish er kishining ishi emas-ku. Nima qilaylik, sultonning amri bu!" Shu mahalgacha nomini hurmat bilan tilga olgan sultonni u hozir ichida barcha qatori eng behayo so'zlar bilan so'kardi. Biroq ayvonga orqasini o'girib, malla joynamoz ustida tasbeh o'girayotgan onasining bukchaygan, ushoqqina gavdasini ko'rganda hamma narsani unutib yubordi, ko'ngli yumshab, qalbi mehr-muhabbat bilan to'ldi. Kampir ot pishqirig'ini eshitib, o'girilib qaradi. O'rnidan turaman deb, ko'ylagining etagini bosib oldi-yu, gandiraklab ketdi. O'g'li yugurib borib uni suyab qolmaganda, yiqilib tushar edi.

— Kel, o'g'lim, tani-joning sog'mi? Nega kecha kelmading? — dedi u jilmayib.

— Ish ko'p. Shaharni mustahkamlayotirmiz.

Temirtosh mumkin bo'lganicha sodda til bilan mamlakat ahvolini tushuntirishga harakat qildi.

— Bog'-rog'larni tashlab, xotin kishilardek qo'rg'on ichina berkinib olurmisiz? — deb so'radi kampir istehzo bilan.

— Sultonning amri shu! — dedi Temirtosh qip-qizarib.

— Xudo olsin sultonni! — kampir o'zini tutolmay vaysab ketdi. — Yuragida o'ti bo'lsa, na'ra tortib yov ustina yurmaydurmi? Nahotki iniga yoshurinib, o'z fuqarosining bog'-rog'larini g'animga oyoq osti qildirib qo'ysa!

Temirtosh onasining gapiga quloq solib jilmayar, "Ancha qarib qolgan bo'lsa-da, kampir voqeani ko'p a'yonlarga qaraganda to'g'ri tushunibdi", deb o'ylardi. Bog'ni tashlab, shaharga ko'chib tushish zarurligini aytganda kampirning jahli chiqdi.

— Nechun bog'ni tashlab ketar ekanmen! — dedi jahl bilan. — Hech qayerga ketmagaymen, o'ligim shu yerdan chiqsin.

Temirtosh uh tortib, o'rnidan turdi-da, bog'ga kirdi. "Onam hech qachon bu yerni tashlab shaharga ketmaydi. Bog'idan, o'sgan tuprog'idan ajralsa o'ladi. Bu chorbog'ni obod qilaman, deb bobom o'lib ketdi, har bir qarich yer to'kilgan ter, ko'z yoshlari bilan sug'orilgan... Bordi-yu kampirni tashlab ketsam, mo'g'ullar unga shikast yetkazmasmikin? Bu yerda uni qoldirish xatarli. Yana bir marta yalinib ko'ray, zora ko'nsa!"

Ammo kampir o'z so'zida qattiq turib oldi, o'g'lining yalinib-yolvorishi uning qarigan asablariga zarracha ta'sir qilmadi.

— Tavakkal o'ziga, — dedi tamshanib kampir. — Sen mendan xavotir olma. Yaratgan egamga astoydil iltijo qilsam, bu kulbayi vatanim temir qo'rg'ong'a aylanur, dushman menga hech nima qila bilmas.

— Mo'g'ul ablah berahm deb eshitadurmen, sizga shikast yetkazmasaydi, deb qo'rqamen, — dedi Temirtosh onasining oq sochlarini silab.

— Menga hech narsa bo'lmaydur, — dedi kampir o'ziga ishongan holda, — sen o'ldiradur deysan, kampirni o'ldirib shoxi chiqadurmu mo'g'ulning, axir o'shal kofirlarning ham onasi bordir.

Kampirning bu dalili unga kuchli ta'sir qildi. "Darvoqe, kampirni o'ldirib nima manfaat ko'radi mo'g'ul? Yaxshisi, uni shu yerda qoldirib, ovqatini g'amlab ketay. Zo'rlab olib ketib bo'lmaydi", dedi o'zicha, lekin shu zahoti yuragi bir narsani sezgandek, shig'etib ketdi.

X

Mingboshi Qulnazarxoja o'z bo'lugi bilan darvozadan chiqib sharq tomon yo'l oldi. Qarshidagi bog'lar ustida ko'tarilib kelayotgan oftob suvoriylarning boshlaridagi yaltiroq dubulg'alarda, egnilaridagi sovutlarda aks etib, ko'zlarini qamashtirar edi. Tuyoqlar ostidan havoga ko'tarilgan chang-to'zon otlarning burniga kirib pishqirtirardi.

Yaqindagina yuzboshilik martabasiga ko'tarilgan Temirtosh mingboshining yonida otini yo'rttirib borar, homiysining so'zlariga diqqat bilan quloq solardi.

— G'anim qochishga tushganda sen qizishib ketib, orqasidin behuda quvaberma, pistirmaga yo'liqasen. Qoraxitoylar qochib yurib urishar edilar, mo'g'ullar dog'i shular urug'idin. Qush uyasida ko'rganini qilur, deydilar.

Temirtosh urush oldida o'z boshlig'ining shunchalik vazmin va xotirjam bo'lganiga hayron qolardi. O'zining esa yuragi gupullab urar, asabiylashar, yuragi siqilardi.

Bo'linma bog' ko'chalardan o'tib, keng dalaga chiqqandan keyin lashkarlar yoyilib ketdi. Temirtosh o'z bo'lugining oldiga tushib oldi. Kecha darakchilar g'animning sharq tomondan kelayotgan ilg'ori yaqinlashib qolganini xabar qilgan edilar. Inolchiq darvozalarni berkitib olishdan oldin dushman bilan bellashib ko'rmoqchi bo'ldi.

Temirtosh o'z boshlig'i bilan burgutdek qanotini kergan qo'shinning o'rtasida borar edi. Ko'p o'tmay, oldinga yuborilgan yigitlar harsillab ot choptirib keldilar, g'animning oldingi qismiga duch kelib, arang qochib qutulganlarini aytdilar. Qulnazar mingboshi otini qamchilab haydab ketdi. Otliqlar uning orqasidan qolmay, saf-basaf yo'rttirib boraverdilar. Dushman suvoriylari ko'rinishi bilan o'rtadan Qulnazar boshliq bir guruh otliq ajralib chiqib, qilich yalang'ochlagan holda dushman ustiga ot qo'ydi. O'ng va so'l qanot kamonday egilib, dushmanni ikki biqinidan siqib bora boshladi. Mo'g'ullar ikki-uch daqiqa jang qilgandan keyin orqalariga qaramay qochdilar.

Temirtosh hali jangga kirganicha yo'q edi. Qulnazarxoja mo'g'ullarni quvlamasdan orqaga qaytishga buyruq berdi. Jangda o'lgan mo'g'ullardan o'n-o'n beshtasining kallasini kestirib, qoplarga soldirib oldi. Shu mahalgacha urushni ko'rmagan Temirtosh qonga belangan bu badbashara kallalarni ko'rganda eti jimirlashib, ko'ngli bir xil bo'lib ketdi. Uning ijirg'anganini ko'rib, mingboshi miyig'ida kuldi-da:

— Ko'ngling ag'darilayotganga o'xshaydur, — dedi. — Bosh-da shundog' bo'ladur, so'ng o'rganib ketgaysen.

O'trorliklardan o'n to'rttasi o'lgan, besh-oltitasi yarador bo'lgan edi. Yaradorlarning yarasini bog'lab, o'liklarni pishqirgan otlariga ortib, qal'aga qaytib kirishdi.

* * *

Kuz kirishi bilan Chingizxon bir necha yuz ming otliq va piyoda askardan iborat katta qo'shinini boshlab, O'trorga yetib keldi[1]. Mo'g'ullar shaharni jang rusumiga muvofiq qamal qilishga kirishishdi. Avvalo, ariqlarni berkitib, shaharga suv kirgizmay qo'yishdi. Manjaniqlardan tinmay tosh otib, katta yoylardan o'q yog'dirishdi, shu paytda beldorlar qo'rg'on atrofidagi xandaqlarni to'ldira boshladilar.

Qorluqlar, uyg'urlar va boshqa xalqlar ham mo'g'ullarga ergashib kelishgan edi. Mo'g'ullar xandaq to'ldirish kabi eng og'ir va xatarli ishlarni shularga qildirar, o'ljaning esa juda oz qismini berar edilar. Qo'rg'on himoyachilari do'ldek yog'ayotgan tosh va o'qlardan saqlanish uchun o'zlarini panaga olgan paytlarida uyg'ur va qorluq beldorlar xandaqning anchagina qismini to'ldirib tashladilar.

Ularning bir qismi shahar atrofidagi teraklarni kesib kelib, uzun shotilar tayyorlashga kirishdi. Mo'g'ullar qo'rg'on mudofaachilarini chalg'itish uchun darvozalar oldida suron ko'tarib, yolg'ondaqa hujumga o'tar, bu vaqtda xandaqlar to'ldirilgan joylardan yonma-yon ikki kishi sig'adigan katta shotilarni qo'yib, piyodalar qo'rg'on tepasiga asta chiqishga urinar edilar. Mo'g'ullar tevarak-atrofdan haydab keltirgan asirlarni shotidan chiqishga majbur qilishardi. Sho'rlik asirlar ikki olov orasida qolgan: yuqoriga chiqmay desalar, mo'g'ullar orqalaridan sanchadi, chiqay desalar, mudofaachilarning o'q va nayzasiga sanchiladilar.

Biroq mo'g'ullarning bu urinishi har safar muvaffaqiyatsizlikka uchrar, chunki hushyor mudofaachilar dushman qayerdan hujum qilsa, shu yerda hozir bo'lib, ularni narvon-parvonlari bilan pastga qulatib tushirib yuborar edilar. Shahar kosiblarining o'g'illari ham qurollanib olgan, askar safida turib, qo'rg'onni himoya qilishardi. Ba'zan Qulnazar mingboshi goh u darvozadan, goh bu darvozadan otliq askarlari bilan chiqib, mo'g'ullar bilan chopqilashar, ularni qo'rg'on tagidan qochirar, qo'rg'onni toshbo'ron qilayotgan asboblarini buzib, zudlik bilan yana qo'rg'onga kirib ketar edi.

Mo'g'ul sarkardalari qattiq mudofaa qilinayotgan, oziq-ovqat va suv serob bo'lgan bu mustahkam qo'rg'onni bir hamla bilan olishga ko'zlari yetmagandan keyin, uni uzoq qamal qilishga qaror qildilar.

[1] Chingizxon O'trorga 1219-yilning sentabrida yetib keldi.

XI

Chingizxon o'z chodirini darvozayi So'fiy qarshisidagi tepalik ustiga qurgan edi. Qo'rg'ondan turib otilgan o'q va toshlar yetmaydigan bu tepalikning tegrasiga xandaq qazilgan, atrofi tuproq devor bilan o'ralgan. Tepaning qoq o'rtasiga oltin eshikli sariq ipak chodir qurilgan. Bu qoonning chodiri, u jahongirning to'rt o'g'li va no'yonlarining chodirlari bilan qurshalgan edi.

Kech payti... Shabada atrofdagi bog'lardan pishib yetilgan mevalarning xushbo'y hidini olib kelmoqda.

Chingizxon chetlari ko'tarilib qo'yilgan chodirida to'rt o'g'li va mashhur no'yonlari bilan kengash qilardi. To'rdagi zar to'shak ustiga qoon shoyi jildli bolishga tirsagini qo'ygan holda Jaba no'yonga o'tkir ko'zlarini tikib, uning so'zlariga diqqat bilan quloq solardi. Bu vaqtda oltmish to'rt yoshga kirgan qoon novcha, uzun soqolli tetikkina chol edi. Yonoqlari turtib chiqqan emas, yuzi ko'sa mo'g'ullarning yuziga o'xshamasdi. Hozir u tajribali sarkardasining xo'ppasemiz, bir tuki yo'q basharasiga qarab, olmos ko'zli uzuk taqilgan barmoqlari bilan qizil soqolini siypab qo'yardi. Chap tomondagi hurmatli o'rinni uning to'rt o'g'li: Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy, Tuli ishg'ol etishgan, o'ng tomonida mashhur sarkarda Jaba no'yon, Uloq no'yon, bir ko'zli Subutoy bahodir, Saktu tiz cho'kkan holda o'tirardilar. Jaba no'yon bundan buyongi xatti-harakat to'g'risidagi o'z fikrini bayon qilmoqda edi.

— Turkiston viloyatida O'tror qo'rg'onidek berk va mustahkam qo'rg'on yo'q, — der edi u qoshlarini chimirib. — Uch kundan buyon butun kuch-quvvatimizni sarf etib, bir ish chiqaza olmadik. Bu yanglig' berk qo'rg'onlarni bir hamlada olib bo'lmay-

dur. Qal'a xalqi jangovar, yoshlari o'q otishning mashqini olgan. Bulardan tashqari, taxminimcha, Inolchiqning ellik mingdan ortiq lashkari bor...

— Ellik sakkiz ming, — deb luqma tashladi Chingizxon.

Jaba no'yon gapdan to'xtab, bosh egib qo'ydi-da, so'zini davom ettirdi.

— Oriy, shundog'. Qal'a ichida askar va xalq ko'p. Hozir alar kuchli qarshilik ko'rsatadur, lekin besh-olti oydin so'ng ozuq-ovqatlari tamom bo'lgach, qay ahvolga tushishlari ma'lum. Bu qo'rg'onni qamal qilib, ishg'ol etmoq uchun bu yerda yuz ming yayov va otliq askar qoldirsak... Jo'ji birlan Chig'atoy janob-lari bul ishga bosh bo'lsalar, Saktu bir qism askar birlan Sirdaryo bo'yidagi qal'alarni zabt etmoq uchun yuborilsa, qolg'on qo'shin qoon janoblari va ulug' no'yon Tulixon boshchiligida Qizilqum orqali Buxoro va Samarqand ustiga yursalar...

— O'trorni men bilan O'qtoyga qoldirib keta bering, boshqa-lar ko'magiga muhtoj emasmiz, — deb no'yonning gapini bo'ldi Chig'atoy. Katta akasi Jo'jini ko'rarga uning ko'zi yo'q edi. Chig'atoyning mushuknikidek yum-yumaloq yuzi bo'rtib, sarg'ish ko'zlari chaqnardi. Undan yuqoriroqda o'tirgan yuzi cho'zin-choq, boshi kichkina Jo'ji ukasining gapini eshitib qip-qizarib ketdi, chunki bu gap unga qattiq botgan edi. Chig'atoyga tegizib, bir-ikki so'z aytish uchun og'zini juftlab turgan edi, Chingizxon Chig'atoyga o'qrayib qarab:

— Bas qil, ulug' no'yon gapirayotganda ne qilasen so'zini bo'lib! — deb o'shqirdi. Jo'ji og'ziga kelgan achchiq-achchiq gaplarni aytmaganiga xursand bo'ldi. Rangi qum-quv o'chgan Chig'atoy tiz cho'kib, otasidan kechirim so'radi. Hammaning na-fasi ichiga tushib ketdi.

Yoshi qirqlardan oshgan Jo'ji o'zini mustaqil tutar, ukalari singari otasiga yaltoqlanavermasdi. U otasining o'limini, butun hokimiyatni qo'lga olish paytini sabrsizlik bilan kutardi: "Otam suyukli kenja o'g'li Tulini o'z taxtiga o'tqazib ketsa kerak. Lekin bu nimjon va irodasiz inimni "gah" deganda qo'limga qo'nadigan qilib olaman, hamma hokimiyatni qo'lga kiritaman, xushchaq-chaq, oqko'ngil O'qtoy esa mening chizig'imdan chiqmaydi.

Ammo Chig'atoyni bir yoqli qilishga to'g'ri keladi. Bu to'g'rida keyin o'ylab ko'raman", der edi ichida.

Tulkidek ayyor, ilondek hushyor bo'lgan Chingizxon sipo-garchilik bilan qoshini chimirib o'tirgan to'ng'ich o'g'liga qarab, uning yuzidan ko'nglidagi qora fikrlarni o'qigandek bo'ldi. Shu-ning uchun unga noxushlik bilan bir nazar tashlab qo'ydi-da, ruxsat so'rab so'zini davom ettirayotgan Jaba no'yonga tikildi. No'yondan keyin so'zlaganlar uning fikrini quvvatlab, qo'shimcha tarzda ba'zi bir mulohazalarini o'rtaga tashladilar. So'ngra Chin-gizxon tirsagini yostiqdan olib, qaddini rostladi-da, qizil soqolini siypab asta gap boshladi:

— Har bir so'zimni isirg'a yanglig' quloqlaringizga taqib olin-giz, har vaqt biz dushmanning emas, dushman bizning irodamizga bo'ysunib kelgan. Baxt qushi doim bizga yor. Xorazmshohning qarori bilan bo'linib-bo'linib ketgan bu ulug' o'lka xalqini o'z irodamizga bo'ysundurmoq u qadar mushkul emas. Ammo bu yerning odamlari jangovar, sarkardalari tajribali. Bilishimcha, sul-tonning uch sheryurak sarkardasi bor. Alarning biri — Jaloliddin Manguberdi, ikkinchisi — Xo'jand hokimi Temur Malik, uchin-chisi — O'tror hokimi, Turkon xotunning jiyani Inolchiqdir. Sul-ton bilan Manguberdiga qarshi Tuli bilan Jaba no'yonni olib o'zim borurmen. Inolchiqni bir yoqlik qilmoq uchun bu yerda Chig'atoy bilan O'qtoyni qoldirurmiz. Temur Malik bilan bel olishgani Uloq no'yon bilan Saktuni yuborgaymiz. Jo'ji esa Jand, Binokent, Yangikentni qamal qilib olsin...

Chingizxon O'rta Osiyo shaharlari, qal'alari, mashhur sarkar-dalar, qo'shin haqida anchagina ma'lumot to'plagan edi. U uyqu-siz kechalarda tuzib qo'ygan rejalarini bayon qilar ekan, o'g'illari va no'yonlarini o'z zakovati, xotirasining kuchi bilan hayratda qoldirardi.

Kengash tamom bo'lgach, Chingizxon oyoqlarining chigilini yozish uchun o'rnidan turib tashqariga chiqdi. O'g'illari va beklari ham asta qo'zg'alib, churq etmay uning orqasidan ergashdilar. Chodirlardan o'n besh qadamcha narida, ikki yoqdan temir zanjir-ga tortib bog'lab qo'yilgan yo'lbars oldida o'n bir-o'n ikki yashar bola turar, qo'lidagi uzun tayoqni yo'lbarsning tumshug'iga nuqib

jig'iga tegardi, yo'lbars esa o'tkir tishlarini irjaytirib, ko'zlarini qisib irillardi. Oldingi oyog'i bilan tayoqni ushlamoqchi bo'lganda, bola yonidagi qurolli yigitga qarab, qah-qah urib kulardi.

Chingizxon bola oldiga kelib, qo'lidan ushladi-da, uni nariroqqa olib ketdi. Bola — uning suyukli nevarasi, Jo'jining o'g'li Botu edi. Qoon nevarasini jasur qilib o'stirishga harakat qilar, uning yo'lbars bilan o'ynashayotganini ko'rganda jahli chiqish u yoqda tursin, aksincha, xursand bo'lgan edi. U cho'zinchoq oq yuzli, ko'zlari qiyiq nevarasini asta yetaklab ketar ekan:

— O'tror shahri ichinda bundan ham zo'r bir yo'lbars bor, to'rt yuz ellik elchining boshini yegan, — dedi.— Chig'atoy bilan O'qtoy amaking o'shal yo'lbarsni tutib, zanjirga bog'lab kelturg'aylar.

Botuning ko'zlari chaqnab ketdi:

— Rostdanmi? Zo'r yo'lbarsmi, a? Bobo, ayting, uni tezroq tutib kelsinlar...

— Ul — ikki oyoqli yo'lbars. Oti G'oyirxon. Chig'atoy amaking ani tutib keltirsa, zanjirband qilib ming ohangga solgaymiz. Endi borib o'yna, mening ishim boshimdan oshib yotibdi.

Oradan uch kun o'tgach, Chingizxon Chig'atoy va O'qtoyga yuz ming askar qoldirib, o'zi suyukli o'g'li Tuli va ulug' no'yon Jaba bilan Qizilqum sahrosi orqali Buxoro ustiga lashkar tortdi... Qo'shinning bir qismi Uloq no'yon boshliq Xo'jandga, bir qismi Jo'ji boshchiligi ostida Yangikent, Binokent tomon jo'nab ketdi. O'tror qal'asi ostiga oqib kelgan loyqa daryo to'rt tarmoqqa ajralib ketgan edi.

Mo'g'ullar O'trorni uzoq qamal qilib, tinkasini quritishga jazm qilganlaridan keyin qal'a tagidan uzoqroqqa ketib, uni temir halqadek o'rab oldilar. Chig'atoy askarlariga navbatma-navbat o'z bola-chaqalari oldiga borib, bir-ikki kun ular oldida tunab kelishga ruxsat berdi. Mo'g'ullarning bola-chaqalari ho'kiz va tuyalar qo'shilgan uzun soyabon aravalarga tushib, qo'shin orqasidan kelmoqda edilar. Bo'ydoq cheriklar esa o'nta-o'nta bo'lib, tevarak-atrofdagi egalari tashlab ketgan bog'larga borar, asaldek shirin mevalar bilan qorinlarini va xurjunlarini to'ldirib, kechqurun o'rdugohga qaytar edilar.

O'nboshi Tuqchor boshliq bir guruh cherik bog' ko'chalarda sanqib yurib, yangi qurilgan darvoza oldida to'xtadi. Paxsa devor ustidan g'arq pishgan shaftoli va olxo'rilar ko'chaga mo'ralab turardi. Bir mo'g'ul darvozani itargan edi, ochilmadi. Cheriklar darvozani buzib, bog'ga kirdilar. Yangi solingan ayvonchada Temirtoshning onasi malla joynamoz ustida o'tirib, tasbeh o'girardi. Kampir ismi a'zamni tilga olib takror-takror duo o'qir ekan, qo'rg'oncham endi temir qo'rg'onga aylandi, hech bir yov bu yerga kirolmaydi, deb o'ylar edi. Mo'g'ullar balo-qazodek qo'rg'onchaga bostirib kirgach, kampir boshi tepasida turgan sochlari o'siq, xo'ppasemiz basharalarni ko'rdi. Boshda ularni ya'juj-ma'juj deb o'ylab, salovat o'qidi. Biroq bu bilan ham ularni daf qilolmadi.

Mo'g'ullar orasida yerli xalqning tilini biladigan qorliq yigit bor edi. O'sha yigit kampirga xunuk, cho'tir yuzini o'girib, xotinlarnikidek ingichka ovoz bilan:

— Qorchiq, senga qo'noq bo'p keldik. Berkitib qo'yg'on bo-vursoqlaringni olib chiq, — dedi.

Sochlari paxtadek oqarib ketgan kampir ko'zlarini katta ochib, ag'rayib qarab qoldi. Qorliq yigit o'z buyrug'ini takrorlagandan keyin kampir o'rnidan turdi-da, chaqirilmagan qo'noqlarni ichida qarg'ay-qarg'ay, hujraga kirib ketdi. "Agar aytganlarini qilmasam, sandig'imni buzib, to'qochlarimni bitta qo'ymay olib ketadilar, noilojman", deb o'yladi kampir. Hayal o'tmay, katta mis barkashga besh-o'nta to'qoch, bir hovuch bo'g'irsoq, osib qo'ygan uzumidan ikki-uch boshini solib, uni yengi bilan ushlagan holda keltirib, "qo'noqlar" oldiga asta qo'ydi. So'ngra yana joynamoz ustiga o'tirib, tasbehini aylantira ketdi. Ammo fikri-zikri parishon bo'lgani uchun "tahlil"ni davom ettirolmadi. Oqar suvda cho'milishni zo'r gunoh deb bilgan mo'g'ullardan sassiq hid kelib turar, kampirning ko'ngli ag'darilib, o'qchigisi kelardi.

Uzumni non bilan qo'shib chapillatib chaynagan askarlarga u nafrat bilan qarab, ichida ularga o'lim tilardi. Birozdan so'ng, qorliq yigitdan:

— Bu tusingni yegurlar qoydin kelgan, betlari muncha sovuq, o'zlari muncha sassiq? — deb so'radi.

— Ena, alar mo'g'ul, — deb javob qildi yigit non chaynab. — Chingizxonning cheriklari.

— Sen biz kabi so'ylaysen, o'zimizning urug' odamiga o'xshaysen, alar orasida ne qilib yuribsen?

— Men — qorliq urug'idin, — dedi yigit uzumning urug'ini yerga tufurib, — bizning xonimiz Arslonxon Chingiz birla O't-rorni qamal qilib yotir.

— Baloga giriftor bo'lg'ay Arslonxon, — dedi kampir titrab-qaqshab, — nahotki mo'g'ul xizmatiga kirib, o'z vatandoshlariga tig' ko'tarsa. Ilohi, podshohing jahannam qa'riga ketgay!

Kampirning baxtiga qorliq yigit hech narsa tushunmadi. Qorliq musulmon emasdi, u arabiy, forsiy so'zlar aralashtirib gapirilgan gapni anglay olmasdi.

"Qo'noqlar" barkashni quritib, bog' ichiga kirib ketishdi. Uzumlarning sarasini yeb, to'rvalarini to'ldira boshladilar. Kampir ham orqalaridan ergashib bog'ga kirdi. Uning g'azabi qaynab-toshib tursa-da, tishini tishiga bosib yurdi. Ayniqsa, oltinday sarg'ayib, oftobda billurdek tovlangan husaynilarni uza boshlaganlarida kampirning qovurg'asi qayishib ketdi. "O'g'lim sho'rlik shahar qo'rg'onida bir gujum uzumga zor bo'lib o'tirganda, bu quzg'unlar o'g'limning mehnati bilan yetilgan uzumlarni yeb rohat qilayaptilar", degan fikr xayolidan yalt etib o'tib, bag'rini o'rtab yubordi. Tashna bo'lib o'tirgan o'g'lini eslaganda, xo'rligi kelib ko'zlaridan tirqirab yosh oqib ketdi.

Boldek shirin uzumni yeb, hordiqlari tarqagan va bilaklaridagi kuchga kuch qo'shilgan mo'g'ul yigitlari to'qlikka sho'xlik qila boshladilar. Qilichlarining damini, bilaklarining kuchini bir-birlariga ko'z-ko'z qilish uchun yosh meva daraxtlarini kesishga tutindilar. Meva daraxtlarining qanday mehnat bilan o'stirilganini bilmagan, tekin tomoq yeyishga odatlanib qolgan ablahlar bu bo'ston qanday yetishtirildi, deb sira o'ylamas edilar.

Novchadan kelgan, qo'llari uzun Tuqchor qilich urishda sheriklaridan o'ta ekanini ko'z-ko'z qilar, yo'g'on-yo'g'on shoxlarni qisqa bir zarb bilan kesib tashlardi. U bilakdan yo'g'onroq bir olxo'rini ko'rsatib, qorliq yigitga:

— Qani, kuchingni ko'rsat-chi, — dedi.

Qorliq tirjayib, qilichini sug'urib kelayotgan edi, kampir yugurib kelib, daraxtni to'sdi. Bu olxo'ri daraxtiga bultur g'aynolu ulangan bo'lib, endi avjiga kirib kelayotgan edi. Umrlarida bir tup daraxt o'tqazmagan mo'g'ullarning ahmoqona mashqini ko'rganda kampirning yuragi alangalanib ketgan edi. O'z bolasidek parvarish qilib o'stirayotgan bu daraxtchani kesish uvol emasmi! U orqasi bilan daraxtchaga suyanib, uni ko'ksi bilan to'sib turarkan, ko'zlarida g'azab o'ti chaqnadi.

— Insof, diyonat bormi sizlarda? — dedi kampir titrab.

Tuqchor sheriklariga qarab dedi:

— Shu og'ochni kampir bilan qavatiga chovub tashlasam ne bersiz?

Uning hazilkash bir sherigi:

— Oning oqargan kallasini berurmiz, — dedi.

Tuqchor kampirga yaqin kelib, kulib boqdi-da, birdan cho'qqaydi, shu ondayoq qilich havoda vizillab, kampirning boshini olxo'ri daraxti bilan kesib ketdi.

— Qotirding, — dedi hazilkash mo'g'ul, — endi bilsam, bu qorchiq yetmish yildan buyon o'z boshini sen uchun ko'tarib yurgan ekan. — So'ng oyog'i ostidagi oppoq sochlari qonga belangan kallani ko'rsatib: — Endi manovi tarvuzni to'rvangga solib ol, — deb kulib qo'ydi.

— Shu tarvuzni senga siylov qildim, — dedi Tuqchor qilichining qonini kampirning ko'ylagiga artib.

Mo'g'ullar bir-birlari bilan hazillashib, qo'rg'onchaga kirdilar-da, kampirning sandig'ini titkilab, bo'g'irsoqlari, to'qochlari bilan to'rvalarini to'ldirdilar, bisotidagi kiyimlari, tobutim ustiga yopilar, deb qo'ygan mursaklarini oldilar, ayvon to'ridagi malla joynamozni yirtib, oyoqlariga paytava qildilar.

XII

Mo'g'ullar tevarak-atrofdagi bog'larning uzumlarini chug'urchiqdek talab, maza qilib yotganlarida, qamalda qolganlar bir shingil uzum, bir dona olmaga zor edilar. Ular qo'rg'on tepasidan uzoqdagi bog'larga qarab, ko'ngillari sust ketar, og'izlarining suvi

kelar edi. Bir necha tavakkalchi yigit hokimdan beruxsat yarim kechada darvozadan chiqib, yaqin oradagi bog'lardan uzum, olma olib kelmoqchi bo'lishdi. Ular qoplarini to'ldirib, terilariga sig'may, olma-uzum olib kelayotganlarida mo'g'ullar ushlab oldilar-da, quloq-burunlarini kesib, o'zlarini qo'yib yubordilar.

Shundan keyin ishning ketini o'ylamaydigan tavakkalchilarning hafsalalari pir bo'lib, ikkinchi marta bu ishni qilmaydigan bo'lishdi. Ammo qo'rg'on ichida g'alla, suv hali mo'l-ko'l edi. Himoyachilar juda ko'p qo'y va qoramolni qo'rg'on ichiga haydab kirgan, sovuq tushishi bilan ularni so'yib, tuzlab, islab olishgan, askarlar ham oziq-ovqat, sur go'sht bilan yaxshi ta'minlangan edilar. Biroq otliq askarlarning yem-xashaklari borgan sari kamayib, yuraklarga g'ulg'ula sola boshladi. Mo'g'ullar dastlabki hujum vaqtida ichiga neft solingan ko'vachalar va yonib turgan o'qlarni otib, bir talay pichan g'aramlarini yondirib yuborgan edilar. Shundan keyin himoyachilar xashak va bedani ehtiyot qilib saqlaydigan bo'ldilar.

Bir vaqtlar Abdumajid usta qo'lida xalfalik qilgan Qutluqxoja uzangisozlardan tuzilgan askariy qismga boshchilik qilardi.

O'z vaqtida u barvasta, xushchaqchaq, yurakli yigit edi, yoshligida o'z mahallasidagi bolalarga bosh bo'lib, ularni qo'shni mahalla bolalariga qarshi "urush"ga olib borar, har vaqt burni qonab, peshanasi g'urra bo'lib qaytardi. Yuzboshi saylash kerak bo'lganda, uzangisozlar, bu mansabga Qutluqxoja munosib, degan edilar. Biroq yoshi o'ttizdan oshgan bo'lsa ham quyulmagan, yoshlik g'ururi boshidan ketmagan edi.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng Qutluqxojaning xushchaqchaqligi yo'qolib, yuragiga qil sig'maydigan bo'lib qoldi. Mamlakat boshiga kelgan falokatni u o'z boshiga tushgan falokat deb bilar, yuragini ezib turgan g'amdan o'zini hech chalg'ita olmas edi. Ovunish uchun boshqa vosita topolmay, zo'r berib o'chini maydan olar edi. Bora-bora ichmasa turolmaydigan bo'lib qoldi. Ba'zi bir g'alamis yigitlar uni uylariga chorlab, musallas quyib berishardi-da, navbatchilikdan qutulib, uylariga jo'nab qolishar va shundan so'ng haftalab g'oyib bo'lib ketishar edi. Qo'rg'onning Qutluqxoja qismi

turgan joyida ba'zan sakson-to'qson kishi o'rniga sakkiz-to'qqiz yigit qolar edi, boshqalar bozorlarda sanqib yurar, uylaridan beri kelmas edilar.

Mo'g'ullar hujumni to'xtatib qo'yganlaridan keyin qo'rg'on himoyachilari beg'am bo'lib qolishgan edi. Qutluqxoja esa uzzukun mast bo'lib yurardi. Agarda ichishga may topilmay qolsa, yigitlaridan mehmon qilishni talab etar yoki musallas topdirib kelar edi.

Bir kun So'fi darvozasi ustida Qoracha Hojib, Temirtosh, Qutluqxoja uchovlon dushman jabhasini ko'zdan kechirib turishgan edi. Uzoqdagi bedazorda bir guruh piyoda mo'g'ul askari qo'rg'on tomon kelaverdi. Qo'rg'on ustidagilar o'q-yoylarini shaylab, ularning yaqinlashishini kutib turdilar.

— Shoshmanglar, men yigitlarim birla darvozadan chiqib alar birla savashurmen, — dedi Qutluqxoja Temirtoshga yaqinlashib. Uning og'zidan gurkirab may hidi kelardi.

— Qo'y, shu niyatingdan kech, — dedi Temirtosh xo'mrayib. — Yaxshisi, alarni shu yerdan turib o'qqa tutgaymiz. Darvozadan chiqib savashmoqning luzumi yo'qdir.

— Biz ham yovga mard ekanligimizni ko'rsatib qo'yaylik-da. Yuragi dov bermaganlar shunda qola bersin, ammo biz chiqurmiz.

— O'q va qilich zaxmi va zarbini ko'rmagan yigitning maqtanishini qarang, — dedi Temirtosh Hojibga istehzo bilan.

— Mayli, chiqib savashib ko'rsin, — dedi Hojib beparvolik bilan.

So'fi darvozasi Qoracha Hojibning buljori bo'lib, Qutluqxoja qo'l ostidagi qism unga tobe edi.

Darvozabon otning kallasidek keladigan burama qulfga uzun kalitni solib anchagacha buradi-da, darvozani ochdi.

Ellik-oltmishtacha yigit o'qlarini yoy ustiga qo'yib boraverdilar. Kech kuz bo'lsa ham, yupun kiyingan yigitlar yengil qadam tashlab, mo'g'ullarga yaqinlashaverdilar. Yuz qadamcha qolganda baravariga o'q uzdilar, mo'g'ullardan uch-to'rt kishi yiqildi. Mo'g'ullar ham o'q otib, o'trorlikdan uch-to'rttasini qulatdilar-da, orqalariga qaramay qochdilar. Qizishib ketgan

hunarmandlar, dushmanning hiylasini payqamay, ularni quva ketdilar.

Qo'rg'on tepasida turgan Temirtosh tipirchilab qoldi.

— Voy, tentaklar-ey, hozir pistirmaga duch keladurlar!

— Voy, ahmoqlar, to'g'ri o'limning og'zina kirib ketayotganlarini payqamaydurlar, — dedi kulib Hojib.

Temirtosh shoshib pastga tushdi-da, darvoza yaqinidagi karvonsaroyda turgan otliq askarlar oldiga bordi. O'z bo'lugidagi yigitlarni otlantirib, darvozadan chiqdi. Askarlarning oldiga tushib olib, qilichini yalang'ochladi. Shu payt Qutluqxoja yigitlari ustiga bir guruh suvoriy mo'g'ul ot qo'yib kelayotgan edi. Temirtosh otning boshini qo'yib yubordi. Ot jang hidini payqab, qattiq kishnadi-da, qulog'ini chimirib, o'qdek uchib ketdi. Mo'g'ullar uzangisozlarni qurshab, ularga hamla qila boshladilar. Temirtosh yaqindagi bir mo'g'ulni mo'ljalga olib, o'ng tomonidan ot soldi, yetib borib uning chap yelkasiga qilich urdi, mo'g'ul ikki nimta bo'lib, otning oyog'i ostiga tushdi.

Temirtoshning askarlari kamonday egilib, mo'g'ullarni chap tomondan o'rab, chopqilay boshladilar. Mo'g'ullar biroz chopqilashib, otlarining boshini orqaga burdilar. Temirtosh ularni quvmasdan, darhol chekinishga buyruq berdi. Ko'zlari moshdek ochilgan uzangisoz yigitlar yaradorlar va o'lganlarni ko'tarib, shosha-pisha darvoza tomon yugurdilar. Qutluqxoja boshidan qilich yeb o'lgan, bosh suyagi ikki palla bo'lgan edi.

XIII

Tashqarida qor bo'ralab yog'ib turar, ammo Bug'rohojining darchasi qiya ochiq, mehmonxonasi issiq, uyning to'rt burchagiga qo'yilgan to'rt manqalda hidsiz saksovul ko'mir bozillab yotar, mehmon bilan mezbon dasturxon atrofida o'tirardi. Hoji qo'lidagi qalamtaroshi bilan olma artib, mehmon oldidagi likopchaga palaxsa-palaxsa qilib to'g'rab qo'yardi. Olmaning xushbo'y hidi mehmonxonani to'ldirib yuborgan edi.

— Hay, hay, bo'stonlarning hidi kelib ketdi, — dedi Badriddin-xoja bir bo'lak oppoq olmani og'ziga solib. — Tangrining qudratiga aql bovar qilmaydi.

— Yerto'lada olma ko'p, tortinmay olavering.

— Bu yanglig' noz-ne'matning hozir bahosi yo'q, oltunga topolmaysen. Mening sandiqdagi olmalarim tamom bo'ldi.

Gap aylanib bozordagi narx-navo ustiga ko'chdi. Hoja arpa-bug'doyning narxi oshib, tilla-kumushning qadri tushib ketganini gapirdi:

— Hademay elda qahatchilik bo'lgay, — dedi qalamtaroshini yonchig'iga solar ekan. — Anga yeturkim, faqir va miskinlar it-eshak go'shtin yegaylar.

— O'tror qal'asi ichida ozuqa ko'p. Cheriklar ham bir yillik oshlig'ini g'amlab olgan, — dedi Badriddin go'yo oziq-ovqatning ko'pligidan norozi kishiday tumtayib.

Mezbon qip-qizil yuzini o'rab olgan oppoq chanbar soqolini silab, o'ylanib qoldi.

— Qamal cho'zilib ketsa, qoon qo'shini oshliqsiz qolur, — dedi u tashvishlanib. — Har nima qilib bo'lsa-da, Hojibni tezroq qo'lga olib, taslim bo'lmoqqa da'vat etmoq lozim.

— Hojib kuni kecha kaminadan ikki yuz oltun qarz so'ragan erdi, ertaga berurmen deb va'da qildim, — dedi Badriddin qora miyiqlari ostida kulib.

— Qancha tilasa bering, mening hisobimdan beravering.

— Albatta, amringizni bajo keltirurmen, — dedi xoja bosh egib. — Kecha Hojib mening uyimda mehmon edi. Gap ustida shu mahalgacha hech kimarsaga aytmagan, hatto Inolchiqdin ham pinhon tutgan bir sirini menga aytdi. Inolchiq o'ldirtirgan elchilar orasida Hojibning tog'ayvachchasi Berdiniyoz Xivagiy ham bor erkan.

— E, Xivagiy aning qardoshi erkanmu? Qiziq! Ammo-lekin bu shundog' bir kashfiyotki, andin foydalanmoq zarur.

— Men aning yuragiga o't solib qo'ydim. Qonga qon olmoq ham farz, ham qarzdur, deganimda, aning ko'zlari yonib ketdi. Bilishimcha, o'zi kaltafahmroq yigitga o'xshaydur.

— Qancha kaltafahm bo'lsa, biz uchun shuncha yaxshidur, — deb uning gapini bo'ldi mezbon. — Qo'lga qo'ndirib olmoq osonroq bo'lur.

— Kaltafahmligini andin bildimki, bu yerga qoon lashkari yetib kelmasdin uch kun burun ikki yuz oltunga bozordan ikki cherkas qizni sotib olmish. Falokat quyuni kelayotganda qayu aqli odam bul ishni qilur? O'zi Gurganjdan ikki mulozimi, uch xizmatkori, oshpazi, bakovulini olib kelmish. Qamal vaqtida bularni boqib yotmoq osonmu?

— Mayli, qo'yavering. Agar ani o'z izmimizga solsak, navkarchokarlari va joriyalarini boqmoqqa ko'maklashurmiz, — dedi Hoji miyig'ida kulib.

— Yana qiziq bir gap bor, — dedi mehmon muhim bir narsani aytayotgandek shipshib. — Munajjim Abdusafiy o'z do'stlariga: "Hozir Mirrix yulduzi g'arb soridir, g'arbdin urush qilg'onlar g'olib bo'lur", deb aytibdur. Savdogarlar orasida aning so'zi shoye bo'lmish.

— Bu yaxshi gap. Imkoni boricha ani xalq orasida tarqatmoq lozim.

Bug'rohoji aytgandek, qo'rg'onni qamab yotgan mo'g'ullarning ahvoli kundan kun og'irlashardi. Ular uch oy ichida tevarak-atrof qishloqlardagi g'allani yeb, sigir-qo'ylarini so'yib tamomladilar. Mo'g'ullar o'rdugohida oziq-ovqat, yem-xashak tanqis bo'lib qoldi. To'g'ri, Ars va Sir daryolarida baliq mo'l, qirg'oqlardagi to'qaylarda ilvasin ko'p edi. Biroq mo'g'ullar baliq va ov qushining go'shtini yemas, ularni makruh deb hisoblar edilar.

Chig'atoy o'z askaridan ko'ra shahar ichidagi xiyonatchilarga ko'p umid bog'lar edi. Bug'rohojining odamlari uning xatlarini o'qqa o'rab, belgili joyga otar edilar. Mo'g'ullar bu xatlardan shahar ichida bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lib turardilar.

Temirtosh ba'zan o'z yigitlari bilan darvozadan chiqib, dushmanga tashlanar, goho mo'g'ullardan asir ham olib qaytar edi. Dushmanning niyatidan xabardor bo'lib turish uchun asir olish kerak-da. Mo'g'ullar ham shaharga kirolmay qolgan mo'tabar odamlardan bir nechtasini garov tariqasida ushlab turishardi.

O'sha mahal odatiga muvofiq, har ikki tomon asirlarni o'z odamlariga alishtirib olar edilar.

Alishtirilganlar orasida Temirtoshning bog' qo'shnisi — savdogar Buzrukxoja ham bor edi. Shahar darvozasi yonida Temirtosh u bilan salomlashib:

— Qanday qilib mo'g'ul ilkiga tushib qoldingiz? — deb so'radi.

— Sotiq-savdo qilayin deb Xo'jand borgan edim, — deb gapga tushib ketdi oppoq soqoli kir bo'lib ketgan rangpar savdogar. — Bag'oyat foyda ko'rdim, vale kech qoldim. Mo'g'ullar mendin oldinroq bu yerga kelib yetibdurlar. O'z bog'imda berkinib yotdim, ammo qutulib bo'lmadi, yog'iy ilkiga tushdim. Meni o'ldirmoqchi bo'ldilar. "Yarmog'im bor, oltun bergayman", dedim. "O'trorda oltuning bormu?" dedilar, "Bor", dedim. Meni o'ldirmadilar, izzat-hurmat birla soqladilar. Yarmog'i, kuch-quvvati yo'q odamlarni mo'g'ul o'ldirdi...

Ko'pdan beri tanish-bilishlarini uchratmagan savdogar tinmay gapirar, ko'nglini bo'shatishga shoshilardi. Biroq Temirtoshning xayoli parishon, savdogarning gaplari u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketar edi. Uning es-hushi onasida, onasini bog'da qoldirib kelgani uchun doim pushaymon yer: "O'z holiga qo'ymay, shaharga olib kirsam bo'lar ekan", deb xafa bo'lardi.

— Mening kampir onam dunyoda bormu? — deb so'radi u yuragini hovuchlab.

Savdogar ikkilanib turib:

— O'lim barchaning boshida bor, o'g'lim, — dedi. — Badbaxt mo'g'ul kampirni chopib tashladi. Men janozasini o'qib, yerga berdim.

Keyingi so'zlar Temirtoshning qulog'iga kirmadi. U sochlarini yulqib yig'lay boshladi. Savdogar uh tortib, sheriklariga yetib olish uchun yugurdi.

Shu kundan boshlab Temirtosh kamgap bo'lib, yuragi toshga aylandi. U o'z yigitlarini boshlab kechalari darvozadan chiqib mo'g'ullar bilan chopqilashar, asir olib kelib, qisqacha so'roq qilardi. Javob berishni istamagan mo'g'ullarni ayamay chopib tashlayverardi.

XIV

Inolchiq qabulxonasida munajjim Abdusafiyni sabrsizlik bilan kutardi.

Uch oy ichida hokimning ko'zlari kirtayib, rangi ketib qolgan. U ba'zan tong otguncha qo'rg'on tepasida aylanib, navbatchilarga ko'z-quloq bo'lib yurar edi. O'qtin-o'qtin qo'shin sardorlari va jang ko'rgan oddiy askarlarni, shahar ulug'lari, hunarmand oqsoqollarni to'plab kengash o'tkazardi. Bugun shu xonada katta kengash o'tkazilgan, har darvoza va minora, qo'rg'on qismlari sardorlarining ma'ruzasi tinglangan, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatilgan, buljor ahli o'rtasida qattiq intizom va tartib o'rnatish haqida gapirilgan edi. U hozir ham o'zini kengashda o'tirgandek his etib, ba'zi muhim masalalar ustida bosh qotirar: "Hay attang, xotirdin faromush bo'libdir", deb qo'yar edi.

"Asli shahar yigitlariga bir kishini bosh qilib qo'yilsa, yaxshi bo'lar edi, — deb o'ylardi u. — Bu ishga Temirtoshday kishi munosib. O'zi hunarmandlardan chiqqan, ularning tilini biladi, bir yog'i qattiqqo'l yigit, hunarmand yigitlar o'rtasida tartib joriy qilib, beboshlarni jilovlab ola biladi".

Mulozim kelib munajjimning kutib turganini aytgach, xayoli tarqalib o'ziga keldi-da, qilich osgan kamarini to'g'rilab qo'ydi.

Eshikdan tishlari tushib, lablari ichiga kirib ketgan, kampirdahan, zag'cha ko'z bir chol kirib, ta'zim qildi. Inolchiq o'rnidan turib, u bilan qo'l berib ko'risharkan:

— E, keling, munajjimboshi, sog'-salomat yuribdirsizmu? Ko'pdan buyon ko'rmoqqa mushtoqmiz, — dedi haddan ziyod sertakalluflik bilan.

— Alhamdilillo, soyayi davlatlarida... sog'-salomat yuribdurmiz, duoyi jonlarini qilib...

— Salomat bo'lg'aylar. Qani, marhamat, to'rga chiqsinlar.

Dasturxon ustida u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirdilar. Munajjim tinchib, o'zini bosib olgandan keyin Inolchiq to'satdan:

— Mirrix yulduzi bu ayyomda g'arb soridur, — deb qoldi. — Kimiki g'arb tomondin urush qilsa, g'olib bo'lur, — dedi shum-

nafas munajjimga ko'zini qattiq tikib. Abdusafiy uning ko'zidagi ifodani, toshdek qotib qolgan yuzini ko'rib kapalagi uchib ketdi. "Mening gaplarim hokimning qulog'iga yetibdi. Xalqni sarosimaga solganim uchun meni jazolaydiganga o'xshaydi. Hozir jallodni chaqirib qolsa ajab emas, yo Rabbiy!" dedi ichida.

— Albatta, hm, — deb tomog'ini qirib qo'ydi u murdadek oqarib ketgan yuzini Inolchiqqa o'girib. — Albatta... Masalan... Mirrix osmonning g'arbiy ufqida... albatta, mo'g'ullar yengilgusidur, — U dag'-dag' titrar, tili kalimaga kelmas edi.

— Bu so'zingiz hikmatlidur, — deb uni tinchitmoqchi bo'ldi hokim. — Rost aytdingiz. Mirrix g'arb soridur...

Munajjim hokimning qo'lidan bir piyola sharob ichgandan keyin o'zini bosib oldi. Xayrlashib chiqib ketayotganda hokimning bir mulozimi unga yangi tulki po'stin kiygizib qo'ydi.

— Janoblariga arzimas sovg'amiz, — dedi Inolchiq kulimsirab. — Duoyi jonimizni qilib, kiyib yursinlar.

— Mingdan ming rahmat. Boshim osmonga yetdi, sizning har bir so'zingizni qulog'imga isirg'adek taqib oldim.

Shu voqeadan keyin xalq orasida, yulduzlar g'alabadan bashorat beribdi, munajjim shundog' aytibdurlar, degan xushxabarlar tarqala boshladi.

* * *

Kechga yaqin Inolchiq Qoracha Hojib bilan birga qo'rg'on tepasida aylanib yurardi. Ikkovlari po'stinga o'ralib olgan, shimol tomondan sovuq yel esib turar edi. G'arb tomonga og'ib, sovuq nurlarini sochayotgan quyosh yorug'ida mo'g'ullar yasov tortayotgan edilar.

Ular borgan sari ko'payib borar, yasovning bir uchi ufqqa borib taqalganday ko'rinardi. Mo'g'ullar orasida boshlangan harakat qo'rg'on tepasidagilarning diqqatini jalb etdi. Uzoqdan turib qaragan kishi ular yuz ellik mingtacha bordir, deb gumon qilishi mumkin edi. Aslini surishtirilsa, Chig'atoy buyrug'i bilan mo'g'ullar namatdan o'n minglab "odam" yasab, ularni otlarga mindirgan edilar. Yasovdagi cheriklarning qariyb yarmini shu namat askarlar tashkil qilardi. Bu — g'animni qo'rqitish, lashkarlarni ko'p

qilib ko'rsatish, yuragiga vahima solish uchun ishlatiladigan nay-
ranglarning biri edi.

Mo'g'ul saflari oldida ikki otliq paydo bo'lgach, ular shun-
day qattiq suron ko'tardilarki, yer-ko'k larzaga kelganday
bo'ldi. Bu suron qo'rqoq, qarorsiz bo'lgan kishilarninggina
yuragiga g'ulg'ula solardi, ammo u Inolchiqqa hujumga da'vat
qiluvchi burg'u ovozidek eshitildi. Biroq u mo'g'ullarning bu
nayrangini bilmagani uchun: "Rostdan ham mo'g'ullar behisob
ekan, — deb o'ylardi. — Shunchalik katta qo'shinni bu yerda
band qilib turishning o'zi katta gap. Son-sanoqsiz qo'shin biz
bilan ovora bo'lib tursa, sulton bilan Manguberdi Movaroun-
nahr va Shimoliy Eronda talay qo'shin to'plash imkoniyatiga
ega bo'lardi. Dushmanni shu yerda mumkin qadar uzoqroq
band qilib turish, uning safini siyraklashtirish bizning bur-
chimiz. Har bir odamning boshida bir o'lim bor, bas, shunday
ekan, mardlik bilan o'lish kerak".

Mo'g'ullarning suroni Qoracha Hojibning xayolxonasida bun-
ga zid bo'lgan fikrlarni uyg'otdi: "O'ho'... Mo'g'ulning lashkari
son-sanoqsiz, kuch-qudrati benihoya ekan-ku! Shunday katta
qo'shinga qarshi urushib bo'ladimi? Bizni ular chuvalchangdek
ezib tashlaydilar. Bas, shunday ekan, qarshilik ko'rsatishning nima
ma'nosi bor?"

Shu payt tutun chiqarib sasib kelayotgan yondiruvchi o'q ular-
ning oyog'i ostiga kelib tushdi. Inolchiq upuka etigining poshnasi
bilan yona boshlagan o'qni ezg'ilab o'chirdi.

Ko'p o'tmay, qo'rg'on tagidagi uy ustiga piligi sasib kelayot-
gan kuvacha tushib yorildi-da, ichidagi nefti har yoqqa sochilib
yona boshladi, tomdagi pichanni o't oldi. Uy egasi — soqoli op-
poq chol o'tni arang o'chirdi.

— Mo'g'ul zang'ar tek yotmay, xitoydin ko'p narsa o'rgangan
ekan, — dedi Inolchiq o'ylanqirab. — Biz esa quruq lof urib yur-
gan ekanmiz.

— Rost, — deb Hojib uning gapini tasdiqladi. — Mo'g'ul biz-
din kuchli, cheriki biznikidan ko'p erkan.

— Ko'p bo'lsa dog'i urushamiz, oz bo'lsa dog'i! Qul bo'lib
yashamoqdin o'lgan yaxshi.

"Bu mutaassib odamga so'z uqtirib bo'lmaydi. O'lsa ham
taslim bo'lmaydi, o'zi ham nobud bo'ladi, bizni ham juvonmarg
qiladi", deb o'yladi Hojib bosh chayqab.

Oradan ko'p o'tmay, mo'g'ullar qo'rg'onni toshbo'ron qilish-
ga kirishdilar, uzoqqa otadigan og'ir kamonlardan o'qlar yog'ila
boshladi. Toshlarning qo'rg'on kunguralariga tegib gumburlashi,
sarosimadan foydalanib darvoza ostiga kelib qolgan mo'g'ullarning
dahshatli suroni, nog'oralarning taraqlashi, karnaylarning g'at-g'ati
havoni larzaga keltirdi. Qo'rg'on himoyachilariga mo'g'ullarning
jang rusumi tanish bo'lib qolgan edi. Ular darvoza tagiga to'planib,
himoyachilarni chalg'itishlarini, pusib yotgan hujumchilar boshqa
joyda qo'rg'on tepasiga chiqib olishga urinishlarini bilar edilar. Shu
sababdan, hamma joyda mudofaachilar mo'g'ullar hujumini qay-
tarishga shaylanib turdilar. Ba'zi joylarda qo'rg'on tepasiga chiqib
olgan mo'g'ullar bilan qo'l jangi boshlandi, har ikki tomondan bir
talay odam o'ldi. Mo'g'ullarning bir qismi pastga qulatib tushirildi.
Biroq darvozalar oldida suron to'xtamadi.

Inolchiq pastga tushib, darvoza oldiga keldi. Shu payt uning
oldiga rangi za'faron, yuz-ko'zi chang, kiyimlariga tuproq teggan
bir yigit kelib, salom berdi-da, hovliqib:

— Yer ostidan dukurlagan ovoz eshitdik, — dedi. — Bozor
boshi tomonidin.

— A? Dukurlagan ovozlar? Buni qarang-a? Shu narsani
xotirdan faromush etibman. Hoy, Temirtosh, bu yoqqa!

Darvoza oldida yigitlari bilan turgan Temirtosh uning oldiga
chopib keldi.

— Darhol darvozalar yaqinidagi mahallalarda navbatchilik
qilayotgan yigitlarga xabar qil, uxlamasinlar, sergak bo'lib tursin-
lar! Sen o'zing yigitlaringni boshlab, shahar aylanib yur. Qayerda
ko'rsichqon ko'rinsa, o'ldiraveringlar!

Inolchiq darvozalar yaqinida chuqur yerto'lalar qazdirib, u
yerga navbatchilar qo'ygan edi. Bularning vazifasi doim quloq
solib o'tirish, agar yer ostidan biror ovoz eshitilsa, chiqib darhol
xabar berishdan iborat edi. Mo'g'ullar aksari yer ostidan naqib
(lahim) qazib, shaharga kirib olar, o'z askarlariga darvozani
ochib berar edilar. Xitoy ustalari beldorlarga ishboshilik qilar,

qo'llaridagi qiblanamoga[1] qarab, qayoqqa qarab qazishni ko'rsatib turar edilar...

Darvoza yaqinidagi bozor maydonida yigirma chog'lik qurolli yigit katta to'nkani yoqib, uning atrofida isinib o'tirishardi. O'n to'rt kunlik oy osmonda jilmayib turar, yangi yog'gan qor tomlarda ko'kish tusga kirib tovlanardi. Chitirlab yongan olovning qizil shu'lalari yigitlarning betlarida, o'tga tutilgan kaftlarida aks etar, ularning og'zidan chiqqan bug' esa gulxandan ko'tarilgan tutun bilan qo'shilib ko'kka yuksalardi. Qalin kiyinib, yonlariga qilich osgan, soqollari qop-qora bo'lib chiqqan hunarmand yigitlar har vaqt yoshlarni qiziqtirgan mavzu ustida: qizlar, qalliq o'yini, yangi uylangan yigitning rohati to'g'risida gaplashib o'tirar edilar. Faqat o'rta yoshli, mosh-guruch soqolli odam — ularning o'nboshisi suhbatga aralashmas, go'yo: "Mayli, gapiraveringlar, mening yoshimga yetib, to'rtta bolali bo'lgandan keyin boshqacha sayraydigan bo'lib qolasanlar", degandek miyig'ida kulib qo'yar edi.

Shu payt ulardan yuz qadamcha narida, maydonning qorong'i burchagida katta o'raning og'zidek keladigan joy qimirlab o'pirilib tusha boshladi, keyin o'ra paydo bo'ldi. Oldin aft-angori sarg'ayib ketgan bir mo'g'ul alanglab, har yoqqa qaradi-da, keyin boshini ichkari tortdi. To'lin oy bulut orqasiga yashirinib oldi, atrofni qorong'ilik bosdi. Mo'g'ul askarlari birin-ketin naqibdan chiqa boshlashdi, qilichlarini qo'lga olib, gulxan atrofida bamaylixotir o'tirgan yigitlar tomon pusib kelaverishdi. Shu payt oy bulutlar orasidan chiqib, tevarak-atrofni yoritib yubordi, mo'g'ullar esa yer bag'irlab yotib olishdi. Gulxan yonida o'tirgan o'nboshi bir narsani sezganday orqasiga o'girilib qaradi-yu, yigirma qadamcha narida ilondek sudralib kelayotgan mo'g'ullarni ko'rib, qilichni qinidan oldi, g'alati ovoz bilan:

— Turinglar, yov keldi, qilich yalang'ochlang! — deb baqirdi.

Yigitlarning ba'zilari shoshib, nima qilishlarini bilmay qoldilar, hushyorroqlari qilich yoki kistanlarini[2] ko'targan holda suron ko'tarib yov ustiga yopirildilar. Bulutlarga yastangan oy bir-biriga pala-partish qilich solayotgan, urushayotgan, bo'g'ishayotgan

[1] **Qiblanamo** — kompas.

[2] **Kistan** — temir cho'qmor.

odamlarni hayrat bilan tomosha qilayotganday edi. Borgan sari ko'payayotgan mo'g'ullar birpasda besh-o'n kishini yer tishlatib qo'ydilar. Hech narsadan xabari bo'lmagan mahalla aholisi ko'chaga chiqib, nima qilishini bilmay turar, xotinlar dod-voy qilardi. Hamma, mo'g'ullar darvozalardan shaharga kiribdi, deb o'ylagan edi.

Temirtosh shovqin-suronni eshitib, qilich yalang'ochladi-da, bo'lugini ergashtirib, jang bo'layotgan yerga ot choptirib keldi. Uning yigitlari mo'g'ullarni o'rab olib, boshlarida qilich o'ynata boshladilar. O'rtada qolgan o'n chog'lik kosib yigitlar ham o'zlarini o'nglab olib, sarosimaga tushgan mo'g'ullarni urib yiqita berdilar.

Bu orada mahalla aholisi naqibning og'zini topib, u yerdan bosh chiqargan mo'g'ullarni urib yiqitaverishdi. Bir taqachi chol gulxan qaladi-da, uyidan katta bir temirchi damini olib chiqib, naqibning ichiga tutun yubordi.

— Mo'g'ul badbaxt endi bo'g'ilib o'ladi, — deb kuldi u xirillab. Biroq ayyor mo'g'ullar dud yo'lini to'sgan bo'lsalar kerak, tutun qaytib chiqa boshladi.

Otliqlar va hunarmand yigitlar mo'g'ullarni birpasda qirib tashlashdi, faqat bittasigina omon qolgan, u orqasini devorga tirab, uzun qilichi bilan o'zini himoya qilar edi. Temirtosh otdan tushib, uning oldiga keldi. Aftidan, yuzboshiga o'xshagan bu novcha mo'g'ulga tikilib, o'ng qo'lining mushtini biqiniga tiraganicha qop-qora soqolini chimdib turib:

— Kel, qilichbozlik qilaylik, — dedi.

Uning ko'zlaridan nafrat va adovat uchqunlari sachrar edi. Qilichbozlikda tengi bo'lmagan Temirtosh birinchi to'qnashishdayoq raqibining kuchli va chapdast ekanini payqadi. Biroq mo'g'ullarga qarshi yuragida yongan adovat o'ti uning kuchiga kuch qo'shar edi. U har safar birorta mo'g'ulni chopib o'ldirganda: "Ehtimol, onamni o'ldirgan shu ablahdir", deb o'ylar, yuragidagi alam o'tining tafti pasaygandek bo'lardi. Novcha, qo'llari uzun mo'g'ul yigitga birinchi qarashdayoq: "Onamni shu ablah o'ldirgan chiqar", degan fikr Temirtoshning xayolidan o'tdi.

Yuzboshi tisarilib turib, Temirtoshning boshiga qilich soldi. Temirtosh ustalik bilan bu zarbani daf etib, qilichining uchi bilan uning yuzini yaraladi, mo'g'ulning yuz-ko'zi qonga bo'yaldi. Mo'g'ul xuddi yaralangan yo'lbarsdek ingrab, tishlarini g'ichirlatib, raqibi ustiga tashlandi. Dunyoda o'ch olishdan boshqa narsani unutgan Temirtosh o'zini bosib olib, safrosi qaynab ketganidan yanglish harakat qilayotgan dushmanini devorga tirab qo'ydi. Tevarak-atrofini o'rab olgan yigitlar qiyqirishib, tomoqlaridan turli tovushlar chiqarib, uni olqishlardilar. Har gal Temirtosh mo'g'ulning zarbasini ustalik bilan qaytarganda, do'stlari yengillanib nafas olishardi. Sheriklarining xayrixoh nazarlari Temirtoshning yuragiga dalda berar, ammo bu ma'naviy kuch mo'g'ulning yuragini bo'shashtirar, ruhidagi olovni so'ndirardi. Temirtosh qulay payt topib turib, bir zarba bilan raqibining qo'lidagi qilichini yerga tushirib yubordi-da, do'stlarining olqishlari ostida uning kallasini shartta tanidan judo qildi.

Bu vaqtda mahalla aholisi hovuzdan ko'za-ko'za suv keltirib, naqibga quyaverdi, mo'g'ullarni u yerdan qochirib yubordi.

XV

Qish qartayib, o'z o'rnini bahorga tashlab ketgisi kelmay, zahrini sochar, ayniqsa, kechalari quturib, kunduz kuni sal-pal erigan yerni muzlatib chiqardi. Sovuq ochlik bilan birgalashib, kambag'al-bechoralarning yostig'ini quritar, butun boshli uylarini huvullatib qo'yar edi.

Savdogarlar, qallob odamlar yerda yotib mog'or hidi urib qolgan ortiqcha don-dunlarini, hatto hovuzlaridagi sarg'ayib qolgan suvlarini kosalab sotar, xalqning boshiga tushgan falokatdan foydalanib, davlat orttirar edilar.

Temirtosh bu ochko'z, qallob odamlarni ko'rganda qoni qaynab ketar, ularni chopib tashlagisi kelardi: "Biz jon berib, jon olayotganimizda bu odamlar donlarini marvaridga, qurtlagan suvlarini kumushga aylantirayotirlar, bo'yniga qilich urish kerak bularning!" deb g'ijinardi. Biroq unda hech qanday huquq yo'q, tirsagini tishlashga og'zi yetmas edi.

Bir kuni qal'a burchidan turib, boshlig'i Qulnazar bilan birga dushman jabhasini ko'zdan kechirayotganda:

— Tashqaridagi yovdin ichkaridagi dushman xatarliroq, — deb qoldi. — Mo'g'ullarning ne ish qilayotganini ko'rib turamiz, ammo ichimizdagi yovning ne ish qilayotganini bilmaymiz.

— Rost aytasen, — dedi Qulnazar unga o'girilib.— Molning olasi tashida, odamning olasi ichida, deb bekorga aytmagonlar. Sendan yashiraturgan sirim yo'q: Hojibdin gumonim bor. Zohirda bizga sodiq ko'rinsa-da, dog'i qo'ynida tosh olib yuraturganga o'xshaydur. Sen mayda qalloblarni, savdogarlarni aytasen. Alarni hozircha qo'yib tur, avval ilonning boshini yanch, dumi likillay bersa-da, ko'p zarar yetkazolmaydur.

— Qoracha Hojibning xiyonat ko'chasiga kirganini qaydin bildingiz?

— Men, bildim, deb aytgonim yo'q. Gumonim bor, dedim. Aning oyoq tashlashidin shubhalanamen. Kechalari qayerlargadir borib, kimlar birla og'iz o'pishib yurgonini bilurmen...

— Andoq bo'lsa, hokim janoblariga bul haqda xabar bermoq lozim...

Izg'irinda uniqib ketgan, tomog'i qo'shdan chiqqan ho'kizning bo'ynidek burishib, osilib-osilib tushgan Qulnazar horg'in ko'zlarini ko'tarib, Temirtoshga qaradi:

— Bu fikr mening ham aqlimga kelgan erdi, ammo urinib bir ish chiqara bilmadim...

Bundan ikki kun ilgari Qulnazar mingboshi hokimning oldiga borib, o'ziga tegishli buljorda ishlar qanday ketayotganidan hisob bergandan keyin Qoracha Hojib to'g'risidagi shubhalarini unga aytgan edi.

— Mening odamlarim Hojibning Bug'rohoji evina tun qorong'isida borib, bir necha bor mehmon bo'lib kelganini aytdilar. Niyati yaxshi bo'lsa, qorong'ida, kishi bilmas birovnikiga boradurmu? Qo'rqomenki hojinikida xiyonat o'rmaguchlari xiyonat to'rin to'qib, bizlarni domlarig'a ilintirmoqchilar...

Qulnazar Qoracha Hojib va Bug'rohoji to'g'risida eshitgan, bilganlarini gapirib xiyonatning oldini olish uchun biror tadbir ko'rishni hokimdan iltimos qildi.

Sultondan madad kelmagani uchun xunobi oshib yurgan Inolchiq Qulnazarga kirtaygan ko'zlari bilan qattiq tikilib, ichida: "Tashqi dushman yetmaganidek, endi sarkardalar o'rtasida ichki nizolar boshlanadigan ko'rinadi, — deb o'yladi. — Bu odam rostdan ham bir narsaning daragini bildimi yoki Hojibga qarshi ig'vo qilib, uning o'rnini egallamoqchimi? Yo'g'-e, Qulnazar sof ko'ngil odam, ammo uyqusizlik va mag'lubiyatlar uning asablarini bo'shashtirib, har narsaga shubha ko'zi bilan qaraydigan qilib qo'ygan. Rost, Hojibdan har narsa kutsa bo'ladi, lekin shuncha jang-jadal qilib, bir talay dushmanning qonini to'kdi, endi taslim bo'lsa, mo'g'ullar uning boshini silamasligini yaxshi biladi".

— Bul ishni menga qo'yib bering, siz o'z vazifangizni bajarmoqdan boshqa narsani o'ylamang, — dedi u nihoyat.

Qovog'i osilib ketgan Qulnazar o'rnidan turib, ta'zim qildi-da, boshini quyi solganicha orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

Temirtosh uning hikoyasini eshitib tutaqdi:

— Birinchi ko'rishdayoq xo'ppasemiz, bir tuki yo'q, lablari qalin Hojibni yoqtirmog'on erdim. Andin har narsa kutsa bo'ladur. Menga ruxsat bering, otish-tutish vaqtida bir o'q birla ani jo-bajo qilay!

— Yo'q, emdi fursat o'tdi, — deb xo'rsindi Qulnazar. — Hojibni o'ldirsang, mendin ko'radurlar. Asli Inolchiq oldiga bormay, shul ishni o'zimiz bartaraf qilsak bo'lar erkan. Attang! Nachora, o'tgan ishga salavot!

XVI

Chig'atoy bilan O'qtoy issiq o'tovning to'rida to'rtburchak kimxob to'shak ustida o'tirib, Chingizxon yuborgan choparning hikoyasini tinglashardi. O'rtadagi katta manqalda issiq saksovul ko'mir lang'illab yonib turar, pakanagina, chertsa ikki betidan qon tomadigan yuzboshi eshik oldida turib, Buxoroning ishg'ol qilinishi[1], qo'lga kiritilgan hisobsiz o'ljalar to'g'risida og'iz ko'pirtirib gapirardi.

[1] Buxoro 1220-yil fevral oyida ishg'ol qilingan edi.

— Otlarimizni machitlarga bog'lab qo'yib, Buxoroni uch kun taladik. Cheriklarimizning qo'yni-qo'nji to'ldi, — der edi u buxorolik bir savdogarning ustidan shilib olgan suvsar po'stinining oldini ochib qo'yib. So'ngra kepchikday yuzi tirjayib turgan xushchaqchaq O'qtoyga qarab: — Oltin-kumush, yana qimmatbaho buyumlar... — deb gapira boshlagan edi, Chig'atoy sabrsizlik bilan uning so'zini bo'ldi:

— Menga qara, oltin-kumushlarni inimizga keyin so'ylab berarsan. Sen Buxoro urushidan gapir.

— U yerda ikki ming chog'liq cherik bor erkan. Urush ko'pga bormadi, lekin shahar kosiblari qattiq savashdi, anchagina sheriklarimizni o'ldirdi. Ha, aytmoqchi, Buxoro olingach, Xorazm shohi o'z ulusi va qo'shinini tashlab, Amu bo'yiga qochibdur. Hozir Kelifda chiqar. Ha, aytgandek...

— Hoy, menga qara, — dedi Chig'atoy sarg'ish ko'zlarini chaqnatib. Ichida: "Otam shunday ahmoq bir odamni nega chopar qilib yuboribdi?" deb o'yladi. — Bu tomonga kelayotganda otamiz, ulug' qoon nima dedilar?

— Ulug' qoon: "Suv bir yerda uzoq turib qolsa sasiydir, cherik harakatsiz yotsa buziladur", deb aytdilar, — dedi yuzboshi tirjayib. Bu gapning ma'nosiga tushunmagani uning aftidan bilinib turardi. Chig'atoy boshini quyi solib o'yga toldi. Chingizxon shu chopar orqali yuborgan maktubida ham zud harakat qilishni, bir oyga qoldirmay O'trorni ishg'ol etib, Samarqandga yetib kelishni buyurgan edi.

Besh oydan beri shu yerda turib qolganidan, yuz mingga yaqin askar bilan bir ish chiqarolmaganidan o'zi ham xafa edi. Ammo shu bugun ertalab Bug'rohojidan olingan maktub uning ruhini ko'tardi.

"Qoracha Hojibni taslim bo'lmoqqa ko'ndirdik, — deb yozgan edi Bug'rohoji. — Hojib, agar bir tuman otliq askarimni o'z ixtiyorimda qoldirsalar, qoon qo'shini safida xizmat qilmoqqa tayyormen, deb aytdi. Men sizning nomingizdin aning shartlarini qabul qildim. Har holda, shu hafta ichida So'fi darvozadin chiqib taslim bo'lsa ajab emas".

Xoin o'z xatini: "Qoon qo'shinlarig'a Ollodin madad tilab yotibmiz, tez kunda diydor ko'rishmoqni nasib va ro'ziy qilsin!" deb tugatgan edi.

Darhaqiqat, oradan uch kun o'tgach, O'tror tarixida eng dahshatli bir voqea yuz berdi.

G'ira-shira tong qorong'isida darvoza yaqinidagi maydonda sovut ustidan po'stin kiyib olgan Hojib bir necha mulozimi bilan turardi. U o'zini har vaqtdagidek sokin tutishga urinib, ot ustida viqor bilan o'tirar, lekin yonidagi mulozimi Qutlimurod Hojibning rangi o'chib, quyi jag'i titrayotganini payqadi. Rostdan ham Hojib o'zini suvga tashlash uchun yalang'ochlangan kishidek his etardi. Yalang'ochlandingmi, albatta, o'zingni suvga tashlashing kerak, bo'lmasa boshqalar seni itarib tushirib yuboradi.

Hojib Gurganjdan kelgan bir tuman askarning, xususan, mingboshilar va yuzboshilarning o'ziga sodiqligini yaxshi bilardi. Shu vajdan u qo'rqmay, shu bugun taslim bo'lishga ularni ko'ndirgan edi.

Oradan ko'p o'tmay, darvoza yaqinidagi saroylardan ming otliq askar chiqib, katta maydonda saf tortdi. Yaqin o'rtadagi qo'ralardan otliqlar chiqaverdilar.

Darvozaning ikki tavaqasi lang ochilgach, suvoriylar odatga xilof ravishda, otlarini sekin-asta yurgizib, dalaga chiqa boshladilar. Askarlarning ko'pchiligi taajjublanib, bir-birlariga qarab, lablarini jiyirib qo'yar, chunki darvozadan ot choptirib chiqib, g'anim bilan chopqilashamiz, deb o'ylagan edilar.

Darvoza tagida shaylanib turgan mo'g'ul qo'shini qipchoqlarni o'z oralaridan indamay o'tkazib yubordi, so'ngra to'g'onni buzib ketgan suvdek tez sur'at bilan shahar ichiga oqib kira boshladi.

Dushman shahar ichiga kirib olgandan keyin qo'rg'on tepasidagi askarlar (qo'shinning asosiy qismi qo'rg'on tepasida edi) ikki olov o'rtasida qolib, hech nima qilolmadi. Ular ustiga ham tashqaridan, ham ichkaridan o'q yog'ila boshladi.

Shu paytda shahar aylanib yurgan Temirtosh yuzta askari bilan darhol ichki qal'aga boradigan katta ko'chaning og'zini to'sdi-da, qarshisidan bostirib kelayotgan mo'g'ullarga o'q yog'dirib, ularni tutdek to'ka boshladi. Biroq mo'g'ul otliqlari

yon ko'chalardan orqasiga o'tib, ularni o'rab oldi-yu, qilichlarini ishga soldi. Qurshovda qolganlar kamondan o'q otib, o'zlarini himoya qilmoqchi bo'ldilar, sadoqlari bo'shab qolgach, qilichlarini yalang'ochlab chopqilasha boshladilar. Dahshatli qo'l jangi bir necha daqiqa davom etdi. Temirtosh boshliq yuz yigitning hech biri dushmanga taslim bo'lmay, oxirgi nafasigacha urushib halok bo'ldi...

Bolalik chog'da shu katta ko'chani changitib o'ynab yurgan Temirtosh o'z qoniga belanib, uning tuprog'iga yuzini qo'yib yotib qoldi.

Janub darvozasi Qulnazarxojaning buljori edi. Shahar ichida mo'g'ullarning paydo bo'lganini eshitgach, u o'z askarlarini to'plab, ichki qal'a tomon ot surdi. Biroq Bug'rohojiga sotilgan mulozimlardan biri orqasidan o'q uzib, uni ham qulatdi. Boshliqsiz qolgan askarlar har yoqqa to'zib ketishdi. Mo'g'ullar bu darvozaning qulfini bolta bilan urib ochdilar. Bu yoqdan ham mo'g'ullar toshqin suvidek oqib kiraverdi.

Inolchiq uch ming askari bilan ichki qal'aga kirib, darvozalarni berkitib oldi, himoyasiz qolgan shahar ichida esa qirg'in boshlandi. Mo'g'ullar podaga kirgan bo'rilardek quturib, yashirinishga uringan odamlarni o'ldirar, qamish bilan yopilgan tomlarga o't qo'yar, xalqni talar edilar.

* * *

Qoracha Hojib askarlari darvozadan ancha uzoqlashgandan keyin ularni mo'g'ullar halqadek o'rab olib, Hojibning o'zini Chig'atoyning oldiga olib ketdilar, eng oldin lopillab yonib turgan ikki gulxan orasidan o'tkazib, "ins-jins"dan xalos qilganlaridan keyin, uni ikki mo'g'ul yigiti ikki qo'lidan ushlaganicha ziynatli oq o'tovga olib kirdi. To'rdagi to'shak ustida mushuk yuzli, targ'il ko'zli Chig'atoy tumtayib, qovog'ini solib o'tirar, barkashday yuzi yarqiragan O'qtoy esa uzun mo'ylovlarini burab, tirjayardi.

Hojib eshik oldida o'ng tizzasini yerga uch marta tegizib o'rnidan turdi-da, ta'zim qilganicha qotib qoldi. Chig'atoy esa o'ng qo'lining mushtini tizzasiga tirab, ko'zlarini qisib boqdi:

— Qoracha Hojib degani senmusen?

— Oriy, men zoti oliylari qoshiga taslim bo'lish shartlari to'g'risida muzokara olib borgani keldim.

O'qtoy uning gapini eshitib, qah-qahlab kulib yubordi.

— Biz muzokara olib bormoq uchun emas, buyruq bermoq uchun bu yurtga kelganmiz, — dedi Chig'atoy keskin.

— Men ham qoonga xizmat qilmoq niyatidamen.

— Xo'sh, ayt-chi, nechun sultoningga xiyonat qilib, biz tomonga o'tding?

— Lashkari son-sanoqsiz qoonga xizmat qilmoqni omadi ketgan sulton xizmatidan afzal ko'rganim uchun.

— Sulton Muhammad senga baland martaba berib, yer-suv, mol-u dunyo in'om qildi, andin hech yomonliq ko'rmading. Rostmi?

— Oriy rost, — dedi Hojib shivirlab.

— Bas, anga, sultonga xiyonat qilmoqning sababi nedur?

— Qoonning omadi andin ustun, ilki uzun bo'lg'oni uchun.

— Faraz etaylik, seni xizmatga oldik. Mabodo, boshqa bir podshoning omadi balandroq kelsa, sen qoonga xiyonat qilib, aning xizmatiga o'tgaymusen?

Hojib o'ng'aysizlanib:

— Dunyoda qoondan omadliroq podsho bo'lmaydur, — deb g'udrandi.

— O'z podshosiga xiyonat qilgan kishi begona podshoga sodiq bo'lolmaydur, — dedi Chig'atoy ko'zlarini chaqnatib. — Ko'zimdan yo'qoting buning nahs basharasini.

— Oborib O'trorga hokim qilib qo'ying, — dedi O'qtoy kulib.

Hojibni o'tovga olib kirib ketganlarida, bir mo'g'ul sarkardasi uning qo'shiniga: "Otdan tushinglar", deb buyruq berdi.

— Nega endi? Biz o'z bo'lugimiz bilan qoonga xizmat qilmoqchimiz.

— Sizlarni hech kim bir-biringizdan ayirmoqchi ermas. Hozir Chig'atoy janoblari chiqib siz birla so'ylashurlar. Siz ot ustida qurol bilan, u kishi oyoq ustida tursa yaxshi bo'lmas, — dedi mo'g'ul sarkardasi.

Qipchoqlar istar-istamas otdan tushishdi, mo'g'ullar ularning otlarini yetaklab olib ketaverishdi.

— Endi qurollaringizni ham bir yerga qo'ying.

Otdan tushib bo'shashib qolgan askarlar qurollarini belgilangan joyga qo'yib, bir chekkaga chiqib turdilar. Mo'g'ullar qurolsiz askarlarning kiyimlari, sovutlarini yechib oldilar, ustlariga ot qo'yib chopa boshladilar. Hojib o'tovdan chiqqach, shu dahshatli manzarani ko'rdi-yu, tizzalari qaltirab, dunyo ko'ziga tor ko'rinib ketdi. Yonidagi yigitlardan biri ro'paradan qilich o'ynatib ustiga kelaverdi, ikkinchi mo'g'ul esa orqadan kelib, kallasini sapchadek uzib tashladi.

Shahar ichi achchiq tutun hidiga to'lgan, yonayotgan qamish tomlarning alangasi osmonga ko'tarilar edi. Mo'g'ullar xalqni dahshatga solish uchun uylarga neft sepib o't qo'yar edilar. Hamma yoqni dodlagan ayollar, chinqirgan bolalarning tovushi bosib ketgan edi. O'tror shahri bunyod bo'lgandan beri bunday qirg'inni, bunday xunrezlikni, bunday yong'inni ko'rmagan edi.

Temirtoshning qallig'i Minglioy mo'g'ul yigitlarining diqqatini jalb qilmaslik uchun yangasining maslahati bilan eski kiyimkiyib, yuzining u yer-bu yeriga qorakuya surtib qo'ydi. Biroq na iuldur kiyim, na qorakuya payvasta qoshlar, loladek yuzlarning go'zalligini yashirolmasdi. Afsuski, yangasi uni panaroq joyga yashirishga ulgurolmadi, ularning uylariga ikkita mo'g'ul yigiti bostirib kirdi. Ayollar nima qilishlarini bilmay, turgan joylarida qotib qolishdi. Qisqa bo'yli, ko'zlari qisiq bir mo'g'ul to'g'ri kelib qizni qo'lidan ushladi-da, yuzini yorug'ga solib ko'rib:

— Mana bu go'zalni qara, yuziga qora surtib, bizni aldamoqchi bo'libdi-ya, — dedi.

Shu payt Minglioy mo'g'ulning qo'lini tishlab oldi-yu, chopib narvondan tomga chiqib ketdi, ikkinchi yigit uning ketidan yugurgan edi, qizning yangasi oyog'iga yopishdi, chap qo'li qonab ketgan pakana yigit ijirg'anib, o'ng qo'li bilan qilichini qinidan sug'urib oldi-da, yerda yotgan ayolni chopib tashladi. Minglioy esa qo'shnilarining yonib turgan tomiga o'tdi. Birozdan keyin olov ichida qolgan qizning chinqirig'i eshitildi-yu, so'ng jimib qoldi...

Mo'g'ullar talab olgan buyumlarini boshliqlari ko'rsatgan joyga uyib tashlayverdilar. Kumush yo oltin bilaguzuk yoki uzuk singa

gari narsalarni ham boshliqlaridan yashirishdan qo'rqqan cheriklar qo'llariga tushgan hamma qimmatbaho buyumlarni ularga topshirardilar.

Oradan uch kun o'tgach, o'lja taqsimlandi. Uning yarmi qoon bilan o'g'illariga ajratildi. Bir qismi boshliqlar o'rtasida, ularning mansablariga yarasha teng taqsimlandi. O'ljaning o'ndan birigina oddiy cheriklarga ulashib berildi. Oddiy cheriklarning xalqdan tortib olib ustlariga kiygan kiyimlari, poyabzallari yoki qo'lga kiritgan egar-jabduq, uy-ro'zg'or asboblariga boshliqlar tegmadilar. Uy-ro'zg'or asboblari oddiy cheriklarning qo'shin orqasida ergashib kelayotgan oilalariga kerak edi.

Mo'g'ul jarchilari: "Kimki yashirinsa, o'ldiramiz, hamma ko'chaga chiqsin", deb ko'chama-ko'cha baqirib yurishdi, shuning uchun hamma, Chig'atoyning buyrug'iga binoan, shahar tashqarisiga chiqdi. Mo'g'ullar ular orasidan o'z qo'shinlari uchun kerakli qurolsozlar, uzangisozlar, taqachilar, temirchilar, aravasozlar, to'quvchilar va boshqa kasb egalarini bir chekkaga ajratdilar. Bug'rohoji bilan Badriddin katta savdogarlar bilan ruhoniylarni o'limdan qutqarib qolishdi. Boylar o'zlarining bola-chaqalari, yaqin odamlarini mo'g'ullardan tilla barobarig'a sotib olishdi. Qolgan hamma erkaklar va bolalar qilichdan o'tkazildi.

Xotin-qizlar boshqa yerga to'plangan edi. Mo'g'ullar o'zlariga yoqqan ayollarni tanlab, qolganlarining kiyim-boshlarini yechib olishdi. Qip-yalang'och ayollar uyalganlaridan yerga kirib ketgudek bo'lib, qo'llari bilan ko'kraklarini, sonlarini to'sib turishar, yoshroqlari turtinib-surtinib, to'daning o'rtasiga kirib olishga urinishardi. Bir chekkada turgan novcha ayol mo'g'ullarga qarab:

— O'ldirsalaring tezroq o'ldiringlar, juvonmarglar! — deb baqirdi.

— Bu sharmandalikdan o'lgan yaxshi!

— Yer yutkurlar, nima qilib irjayib turibsizlar. Huv, ko'zlaring teshilsin!

— Benomus battollar! — degan g'azabnok tovushlar eshitildi ayollar orasidan.

Otliqlar qilichlarini yalang'ochlab, qiy-chuv ko'targan ayollarni chopa boshladilar.

So'ng har qaysi kasb egalarini alohida-alohida guruhlarga ajratib, ularni Samarqandga qarab haydadilar.

Hunarmandlar oppoq bo'lib uyilib yotgan ayollar yonidan o'tayotganlarida, allakim:

— Ablahlar, ayollarni yalang'ochlab chopib tashlabdurlar-a! — deb yubordi.

Abdumajid usta:

— Axiylar, shahid bo'lgan opa-singillarimizning yalang'och badanlariga qaramanglar, alarning hurmati uchun ko'zingizni yumib o'tinglar, — dedi-da, shivirlab duo o'qib, yuziga fotiha tortdi. Kosiblar ham duvullab yosh oqib turgan yuzlarini qadoqli qo'llari bilan siypadilar. Allakim ho'ngrab yig'lab yubordi. Shu mahalgacha ko'zlariga yosh olmagan erkaklar ham yoshlarini tutib turolmadilar. Ustaning yonida ketayotgan yoshgina bir yigit — uning shogirdi piqillab:

— Usta, bu kundan o'lgan yaxshiroq erdi, — dedi.

— O'lish uchun oshiqma, hali yoshsen, ozodlikka chiqib yana yaxshi kunlarni ko'rarsen.

— Onam o'ldi, qallig'imni mo'g'ullar tortib oldi, endi yorug' dunyo ko'zimga ko'rinmaydur. Vollohi, o'zimni o'ldirurmen. Bir...

— O'lim har kimarsaning boshida bor, — dedi usta uning gapini bo'lib. — Ammo kishi bir martabagina berilgan hayotdan o'zini xalos etmoqqa haqqi yo'q. Yashamoq payti kelganda g'animdan o'ch olmoq zarur, — usta sekin gapirar, hayajonga kelgan sobiq shogirdini tinchitishga urinardi.

Kiyimlari eskirgan, ranglari bir holatda kosiblar boshlarini egib, asta qadam tashlab borar edilar.

"Xayr, jonajon O'tror, kindigimiz qoni to'kilgan qutli o'lka! Biz seni asray olmadik, yovuz dushman qo'liga berib qo'ydik. Yovvoyi mo'g'ul seni oyoqosti qilib, bag'ringni chok-chok etadi. Maktab-madrasalaringni, hammomlaringni otxonaga, ekinzorlaringni o'tloqqa aylantiradi, ammo bu zulmi vahshat uzoqqa bormas. Xalq o'z kuchini to'plab, axir bir kun dushmanni uloqtirib tashlar, bo'sh qolgan dalalarni yashnatib, shaharni yana tiklar.

Biz ketyapmiz, alvido, ona shahar! Bizga nasib qilmasa, bolalarimiz qaytib kelib, seni ozod qiladilar!"

Boshlarini quyi solib ketayotgan g'amboda kishilarning ko'ngillaridan shunday fikrlar o'tar edi.

XVII

Shahar ichidagi qal'a o'z himoyachilaridan o'n-o'n besh hissa ortiq dushman bilan yana bir oy olishdi. Mo'g'ullar mangiqlardan tinmay tosh otib qal'a devorlarini, burchlarini yemirar, g'altakli chorpoyalarni g'ildiratib kelib, qo'rg'onni buzar, qamaldagilar esa jon-jahdlari bilan ularning hujumini qaytarib turar edilar. Lekin borgan sari ularning safi kamayib borardi.

Qal'a, bamisoli, dengiz o'rtasida buyuk oroldan ajralib qolgan qoyatoshga o'xshardi. Mo'g'ul qo'shini bo'ronda quturgan dengiz kabi hayqirib, o'zini bu qoyatoshga urar, lekin uni yemirolmay, har safar qonli izlar qoldirib, orqaga chekinardi. Ammo dengiz o'rtasida qolgan qoya qanday metin bo'lmasin, to'lqinlar zarbi bilan axir bir kun nurab tushadi. Xuddi shu singari, bir oylik muttasil hujum natijasida kunguralari, burchlari o'pirilgan qo'rg'on dengiz to'lqinlari singari sanoqsiz bo'lgan mo'g'ul askarlarining zarbidan yiqildi. Qal'aning ko'chalarida yakkama-yakka jang boshlandi. Omon qolgan mudofaachilar tomlarga chiqib olib, g'animni o'qqa tutdilar. Inolchiq tiriklayin qo'lga tushishni istamay, xotini Oysuluv bilan ikki oshyonali saroy tomiga chiqib olib, o'q ota boshladi. Orqalaridagi ko'priklarga o't qo'yib, dushman bilan oxirgi nafasgacha urushishni qasd qilgan jangchilargina shunday sovuqqonlik bilan urushadilar. Inolchiq ham bir vaqtlar Chingizning elchilarini o'ldirtirib, o'z ixtiyori bilan chekinadigan hamma ko'priklariga o't qo'ygan, uning uchun qahramonlarcha o'lishdan bo'lak najot yo'li qolmagan edi.

Chig'atoy esa Inolchiqni tiriklayin ushlab olishni buyurdi. Shu vajdan uning cheriklari o'q otishni to'xtatib qo'yib, tomga chiqib olishga urindilar, Inolchiq bir necha marta tom labiga qo'yilgan shotilarni tepib tushirib yubordi. Uning sadog'idagi o'qi sob bo'lganini ko'rgan O'qtoy tom tagiga kelib:

— Hoy azamat, botirligingga tan berdik. Kel endi, taslim bo'lib qo'ya qol. Seni o'ldirmaymiz, otamiz ulug' qoonga tortiq qilib oboramiz, — deb baqirdi.

Inolchiq javob o'rniga oyog'i tagida yotgan bir g'ishtni olib uloqtirdi. Agar O'qtoy darhol o'zini orqaga olmasa, boshi majaqlangan bo'lur edi.

— Voy ablah-e, oz bo'lmasa boshimni yer edi-ya, — deb kuldi O'qtoy.

Shu payt ikkinchi g'isht tomga shoti qo'yayotgan bir mo'g'ulning kallasini yordi.

Uzun sochini beliga tang'ib olgan Oysuluv tom ustiga yotqizilgan g'ishtlarni ko'chirib, eriga tutqazardi. Ko'zlari o't sochib, yuzlari lovullab yonayotgan bu ayol shu topda go'zallik, mardlik va sadoqat timsoli edi. Buni ko'rib, O'qtoyning zavqi kelib ketdi:

— Mundoq suluv va botir ayolni umrimda ko'rmagan edim. Tiriklayin qo'lga tushirsam, xotin qilib olamen, — dedi iljayib.

Birozdan keyin cheriklar besh-oltita narvon keltirib tomga tashdilar, charchab, boshi aylangan Inolchiq qay tomonga tosh otishni bilmay qoldi. Oysuluv tomga chiqib olgan haybatli badbashara bir mo'g'ulning chopib kelayotganini ko'rib, o'zini ko'chaning narigi betida yonib turgan tom ustiga tashladi...

To'rtta barvasta yigit chopib kelib Inolchiqqa yopishgan edi, u bir silkinib ikkitasini tomdan uloqtirib yubordi. Narvondan chiqib ulgurgan mo'g'ullardan yana to'rttasi kelib, Inolchiq ustiga tashlandi-yu, qo'l-oyog'ini bog'lab tomdan tushirdi.

— Oyog'ini yechib, turg'izib qo'ying, — dedi O'qtoy Inolchiqqa hurmat ko'zi bilan qarab.

Navkarlari Inolchiqning oyog'idagi arqonni yechib, turg'azib qo'ydilar. O'qtoy qaddini rostlab, atrofga g'azabli nazar tashlayotgan qo'li bog'liq bahodirning ko'kragiga sekin urib qo'yib, cheriklariga:

— Botirlikni mana shulardan o'rganing. Biz yurakli odamlarni o'ldirmaymiz, jasorat har kimga muyassar bo'lavermaydi, — dedi.

Mo'g'ullar Inolchiqqa ham hayrat, ham hurmat bilan qarab qoldilar.

* * *

Chingizxon Samarqanddagi Ko'ksaroyning naqshinkor salomxonasida oltin taxt ustida Chig'atoy bilan o'tirar, beliga qalamdon qistirgan ko'k sallali bitikchi Xoja Ismoil pastroqda chordana qurib, chap tizzasidagi juzvdon ustiga qo'yilgan qog'ozga qoonning farmonini yozar edi.

— Yoz, Jaba no'yon va Subutoy bahodir uch tuman cherik bilan Turshiz tomon qochgan sulton Muhammadni quvib borib, tiriklayin qo'lga tushirsinlar, so'ngra Tabriz ila Ganjaga o'tib, Darband orqali Dashti Qipchoqqa, andin Rus yerlariga ot qo'ysinlar...

Bitikchi Chingizxonning farmonini yozib bitirgach, qog'ozni naycha qilib o'radi-da, sallasiga qistirib o'rnidan turdi va qoonning ruxsati bilan chiqib ketdi.

Chingizxon bu ishni bitirgandan keyin kayfi chog' bo'lib, mushuknikidek targ'il ko'zlarini qisdi-da, qizg'ish soqolini siypab o'yga toldi. So'ngra qars urib eshik og'asini chaqirib:

— O'tror hokimini kiriting, — dedi.

Ikki qurolli navkar Inolchiqni ikki qo'lidan ushlab, salomxonaga olib kirdi va qoondan o'n qadamcha berida to'xtadi. Ko'zlari kirtayib, rangi ketib qolgan Inolchiq keng ko'kragini kerib, jahongirga tikilganicha qotib qoldi. Uning yenglari ostida do'ppaygan mushaklari bilinib turar, yuzining go'shtlari lip-lip uchardi.

Qoon ro'parasida turgan mag'rur kishining kimligini bilsa-da, Chig'atoyga o'girilib:

— Bu kim? — deb so'radi jo'rttaga. — E, Inolchiqmi? Savdogarlarimizni o'ldirib, molini talagan Inolchiq shu ekan-da. Haha! — Chingizxon o'zining shaxsiy dushmani bilan ko'z urishtirib qoldi. Inolchiq ko'zini yummay baqrayib qarab turardi, buni ko'rgach, Chingizxonning safrosi qaynab ketdi, lekin o'zini bosib olib: "O'ch olishdan oldin bu nufuzli odamdan foydalanib qolish kerak. Qasos olish hech qachon qochmaydi", deb o'yladi. Inolchiq esa yer ostidan qarab, uning fikrlarini peshanasidan uqishga harakat qilardi. Chingizxon boshini ko'tarib:

— Menga qara, bahodir, — dedi.— Sen bizga ko'p ziyon-zahmat yetkazding, elchilarimni o'ldirding. O'trorni qamal qilgan cheriklarimdan o'n mingini qirib tashlading. Bu qilmishlaring uchun boshqa bir hukmdor tiriklayin teringni shilib oldurtirgan bo'lur edi. Lekin men gunohingdan o'tdim. Sen dog'i eski xusumatlarni unutib, mening xizmatimga kir. Senga tuman og'asi degan unvon berayin. Men birla Gurganj borib, aholisini taslim bo'lmoqqa...

— Men o'z ulusimga xiyonat qilmasmen, — dedi Inolchiq uning gapini cho'rt kesib. — Dushman xizmatiga kirmasmen!

— Senga oltin va kumushlar in'om etayin...

— Oltining-da kerakmas, kumushing-da. Meni sotqun ola bilmassen!

Qoon uning gaplariga emas, so'zini bo'lib qo'yganiga jahli chiqdi. G'azablanganini bildirmaslik uchun o'ng qo'lining kafti bilan yuzini siypadi-da, o'zini qo'lga olib:

— Mening so'zim hech qachon yerda qolgan ermas, senga atagan in'omimni qabul qilgaysen, — dedi. Keyin qars urib eshik og'asini chaqirdi-da: — Do'stimiz Inolchiq uchun atab qo'ygan kumushlarni olib kirsinlar, — deb ko'zini qisdi.

Eshik og'asi orqasi bilan yurib chiqib ketgach, o'rtaga dahshatli sukunat cho'kdi. Birozdan keyin Chingizxonning ishorasi bilan eshik yonida haykaldek qotib turgan ikki yigit Inolchiqni yiqitib, qo'l-oyog'ini bog'lashdi, o'ng yonboshiga yotqizib, bosib turishdi. Qizil to'n kiygan bir mo'g'ul qo'lida xokandoz bilan kirib, eritilgan kumushni Inolchiqning chap qulog'iga quyib yubordi...

SHIROQ

(hikoya)

Yoz boshlanib, Yaksart bo'yidagi cho'llarda o'tlar qovjiray boshladi. Bu yerlarda yashovchi shak qabilalari sero't yaylovlarga ko'chish taraddudiga tushishdi. Yangi yerlarga ko'chish chorvachilar uchun bir bayramdek edi. Ular bahor mavsumida yashab o'rganib qolgan yerlarini tashlab ketish oldidan bir-birlarinikiga qo'noq bo'lib borar, dorivor o'tlarni yeb semirgan biyalarning sutidan tayyorlangan o'tkir qimizlarni ichib mast bo'lgan yigitlar qizlar bilan lapar aytishar, vaqtichog'lik qilishardi.

Biroq bu safar odamlarning ko'ngliga qil sig'mas, o'tovlardan na qo'shiq tovushi va na qizlarning xushchaqchaq kulgisi eshitilardi.

Baland bir yerga qurilgan katta oq o'tovni egnilariga yarg'oq teridan kamzul, boshlariga uchi ingichka, uzun qalpoq kiygan qurolli soqchilar qo'riqlab turardilar.

O'tov ichida esa shak qabilalarining oqsoqollari kengash qurib o'tirardilar. To'rga solingan ayiq terisi ustida chordona qurgan Rustak oqsoqollariga vaziyatni tushuntirardi:

— Eron shohi Darayavush[1] O'kuzdan kechib, So'g'diyani bosib oldi. Eroniylar el-yurtni talab, erkaklarni qul, xotinlarni asir qilib olib ketayotirlar. Endi navbat bizga keldi. Darakchilarimiz shohning biz tomonga Ronosbat boshchiligidagi katta bir qo'shinni yubormoqchi bo'lganligidan darak berayotirlar...

Rustak — soch-soqoli oqargan, biroz munkayib, cho'kib qolgan suyakdor chol. U bir vaqtlar keng yag'rinli, baland bo'yli pahlavon edi. Yakkama-yakka janglarda shak urug'ining dushmanlaridan ko'p bahodirlarni yer tishlatgan, uning nomi So'g'diyada ham, Eronda ham mashhur edi.

Hozir u shaklar va so'g'diyaliklarning ashaddiy dushmani bo'lgan Eron shohi va uning qora niyatlari to'g'risida gapirar ekan, g'azabdan nafasi tiqilar, ko'zlari o't sochar edi. U gapni tugatib, dushmanni daf etmoq uchun qanday choralar ko'rish kerakligi to'g'risida o'z fikrlarini aytishni urug' oqsoqollaridan so'radi.

— Qo'lidan ish kelmaydigan chollar, kampirlar, bolalik xotinlarni qo'y va yilqilar bilan uzoq cho'llarga yuborib, qolgan er va ayollarning barini qurollantirsak va dushman bilan bir tomchi qonimiz qolguncha urushsak, — deb gap boshladi urug' oqsoqollaridan Saksfar. U oltmishga borib qolgan bo'lsa-da, yoshlardek ikki beti qip-qizil, serg'ayrat va tavakkalchi odam edi. — Urush kulfati benomuslik mashaqqatidan yaxshiroq. Zolim Eron shohiga qul bo'lgandan ko'ra jang maydonida o'lgan afzal...

Rustak uning uzundan uzoq gapini sabr bilan tinglab, boshini quyi solgancha o'ylanib qoldi.

— Jangda mardlarcha o'lmoq oson gap, lekin dushmanni yanchib tashlab, undan qasos olmoq qiyin. Biz mardlik ko'rsatib, nomimizni qoldirish to'g'risida emas, balki el-yurtimizning erkini qanday saqlab qolish to'g'risida o'ylamog'imiz kerak, — dedi u qiziqqon Saksfarga qarab.

Oqsoqollar mum tishlagandek miq etmay o'tirar edilar. Ko'p mamlakatlarni bosib olib, jang maydonlarida ko'p tajriba orttirgan, yaxshi qurollangan Eron qo'shini bilan urushmoq juda qiyin ekanligi ularga ayon edi.

Boshliqlar bu mushkul muammoni yechish uchun bosh qotirib o'tirganlarida, o'tov eshigi oldida turgan qurolli yigit Shiroq degan bir cho'ponning kirishga ijozat so'rayotganini bildirdi.

— Shiroq? — deb qoshini chimirdi Rustak. — Kim u?

— Shiroq — bizning urug'dan. Butun umri cho'ponlik bilan o'tgan, — dedi Saksfar. — O'zi juda farosatli, dono, dostonchi chol. Eski chaldivorlardan chayon ushlab, o'zini chaqtiradi. Og'riq sezmaydi. Aytishlaricha, yoshligida ilon uni chaqib olganda allaqanday giyohlarni surtib, tuzalib ketgan emish. O'shandan beri ilon-chayondan qo'rqmaydi.

[1] **Darayavush** *(Doro I)* — Eron shohi (miloddan avvalgi 522–486-yillar). Miloddan avvalgi 522–521-yillarda So'g'diyani istilo qilgan edi.

— Andog‘ bo‘lsa, chaqir buyoqqa o‘sha cholni.

Eshikdan yoshi oltmishdan oshgan, tetikkina, barvasta bir chol kirib, ta’zim qildi.

— Ijozat bersanglar, men ham qatoringizga o‘tirib, o‘z fikrimni aytsam. Nima to‘g‘rida gaplashayotganingizni bilaman.

— O‘tir, o‘tir, gapingga quloq solamiz, — dedi Rustak.

— Eron shohining askarlari Yaksart ostidagi qum donalaridan ham ko‘p, ularni jangga chorlab, yengish mahol. Shunday bir hiyla topmoq kerakki, dushmanning oyog‘i toyib, halokat jarig‘a qulab tushsin.

— Qani, ayt, qanday hiyla o‘ylab topding? — deb so‘radi Rustak.

— Buni faqat senga aytaman. Oqsoqollar o‘tovingni tark etsinlar.

Rustak bu gapni eshitib aftlari burushib ketgan oqsoqollarga bir qarab oldi-da:

— Nima, sen shu ulug‘ zotlarga inonmaysanmi? — deb so‘radi.

— Inonaman, ular el g‘amini yeydigan halol odamlar, o‘lsalar ham dushmanga sir boy bermaydurlar. Ammo ularning yaqin do‘stlari, inilari, o‘g‘illari, xotinlari bor. Men aytgan gaplarni beixtiyor ularga aytib qo‘yishlari mumkin. U yog‘i ma’lum, el og‘ziga elak tutib bo‘lmaydur. Oqsoqollar meni kechirsinlar...

Urug‘ boshliqlari birin-ketin o‘rinlaridan turib chiqib keta boshladilar.

Oq o‘tovdan nariroqda cho‘qqayib o‘tirgan oddiy ko‘chmanchilar Shiroqni yaxshi tanir, uning qo‘biz chalib aytgan dostonlarini ko‘p marotaba tinglagan, o‘zi ham dostonlarda madh etilgan sheryurak odamlardan biri ekanligini bilar edilar.

Oradan ancha vaqt o‘tgandan keyin Shiroq o‘tovdan chiqdi. Uni ko‘rgach, ko‘chmanchilar dahshatga tushib o‘rinlaridan sakrab turib ketdilar. Keksa cho‘pon kesilgan ikki qulog‘i va burniga kuydirilgan namat bosib, sizib oqayotgan qonni to‘xtatishga harakat qilardi. Kutilmagan bu fojiadan g‘azablangan odamlar uning atrofini o‘rab oldilar va ustma-ust savol yog‘dira boshladilar:

— Quloq-burningni nega kesdilar?

— Sen sho‘rlik nima gunoh qilib eding?

Rangi murdadek oqarib ketgan Shiroq tishini tishiga qo‘yib, o‘zini bardam tutishga urinar, urug‘doshlarining savollariga javob bermasdi. Uni bir joyga o‘tqazib, kuydirilgan namat bilan qonini to‘xtatdilar. Cholning sahro shamoli va cho‘l quyoshidan qoraygan yuzida g‘azab alomati yo‘q edi. U o‘ziga kelgach, o‘rnidan turdi-da, kunbotish tomonga qarab ketdi. Hang-mang bo‘lgan kishilar uning orqasidan qaraganlaricha qotib qoldilar.

Dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanuvchi so‘g‘d xalqini itoatga keltirgan Eron shohi Yaksartning so‘l qirg‘og‘idagi ko‘chmanchilar ustiga yurish oldidan dam olmoqda. U yetti paxsa devor bilan o‘ralgan bog‘ o‘rtasidagi baland shiyponda o‘z a’yonlari bilan may ichib, shakarguftorlik qilib o‘tirardi.

Mulozimlardan biri shiypon yoniga kelib ta’zim qildi-da, quloq-burni yo‘q g‘alati bir chol shoh huzuriga kirishga izn so‘rayotganini bildirdi. Doro surishtirib, kelgan odamning shak qabilasidan ekanligini bilgach:

— Mayli, kirsin, — dedi.

Ikki qurolli mulozim boshlab kelgan Shiroq shohdan o‘n besh qadamcha berida to‘xtadi-da, yer o‘pdi va o‘rnidan turib, ta’zim qilganicha qotib qoldi.

Doro baland bo‘yli, qushburun, chiroyli odam edi. Uning ponaga o‘xshagan soqoli ko‘kragiga tushgan va mayin taralgan. Ustidagi to‘q qizil zarrin to‘ni yiltirar, qo‘lidagi uzun aso dastasiga qadalgan qimmatbaho toshlar qorong‘i kechadagi yulduzlardek charaqlar edi. Tosh qo‘g‘irchoqqa o‘xshagan ikki mulozim uni sekin-sekin yelpib turardi.

Doro kamon qoshlarini chimirib, baland ovoz bilan:

— Hoy odam, o‘zing kimsan, oting nima va qaysi urug‘dansan? — deb so‘radi.

— Otim Shiroq, o‘zim shak urug‘idanman, — javob qildi chol.

— Kelib mening istirohatimni buzmoqdan maqsading nadir?

— Maqsadim mulozamat kamarin belga bog‘lab, umrimni siz shahanshoh xizmatida o‘tkazmoqdir. Janoblariga xayrixoh bo‘lganim tufayli qabiladoshlarimdan qattiq sitam ko‘rdim. Ular-

ga men: "Eron shohi bilan urushaman, deb chiranmang, sizlarni bir hamlada zer-u zabar qilgay, yaxshisi, itoat kamarini bog'lab borib, ul zoti bobarakotning etaklaridan o'ping", dedim. Bu gapdan xabar topgan hukmdorimiz Rustak g'azabga mindi va mening quloq-burnimni kestirdi. Men endi sizning yordamingiz bilan undan o'chimni olmoqchiman. Agar ijozati oliy bo'lsa, yengilmas qo'shiningizni yolg'iz podachilar biladigan so'qmoqlar bilan shak lashkarlarining orqasidan olib chiqar edim, keyin ularni qilich damidan o'tkazmoq qiyin emas...

Shiroqning gapini eshitib, Doro o'yga toldi. Agar jangovar shak qabilalari shu yo'sinda yakson qilinsa, O'kuz bilan Yaksart o'rtasidagi serunum yerlarni bosib olgan Eron lashkarlarining bexatarligi ta'min etilgan bo'ladi. Ammo bu keksa cho'ponni bir sinab ko'rmoq kerak.

Shiroq shohning ishonchsizlik ko'zi bilan qarayotganini fahmlab, o'z so'zining to'g'riligini isbot qilishga kirishdi:

— Axir, quloq-burnimning yaqindagina kesilgani ko'rinib turibdi-ku! Biznikilar bekorga o'z urug'lariga bunday sitam yetkazmaydurlar.

U o'ylab qo'ygan dalillarini keltirib, uzundan uzoq gapirdi va o'zining Eron shohiga sodiqligini, shaklarga dushman ekanligini isbot qilishga tirishdi, so'zining oxirida quyosh tangrisini shafe keltirib ont ichdi.

Doro sarkardalari bilan maslahatlashib, shaklar ustiga qo'shin yuborishga, Shiroqni esa yo'l boshlovchi qilib olishga qaror berdi.

Eron askarlari yo'l boshlovchining maslahati bilan yetti kunlik suv, oziq-ovqat va yem-xashak olib yo'lga chiqdilar va daryoning chap qirg'og'idagi qum sahrolaridan borib shaklarga orqa tomondan hujum qilmoqchi bo'ldilar.

Dastlabki kunlar yo'l uncha mashaqqatli bo'lmadi. Cho'l o'tlari endi qovjirab kelayotgan bo'lsa ham, onda-sonda buloqlar atrofida ko'm-ko'k o'tloqlar uchrab turardi. Bora-bora cho'l sahroga aylandi, odamlar va otlarning suvga ehtiyoji osha bordi. Afsonaviy otlarning taqalariga o'xshab uyulib qolgan qumtepalardan oshib yoki chetlab o'tish oson emas edi. Qora terga

tushib hansiragan otlar oyoqlarini qumdan arang tortib olib, boshlarini quyi solganlaricha bitta-bitta qadam tashlab borardi. Sahroning berahm quyoshi yomon niyatda kelayotgan bu qurolli odamlarning boshidan olov sochar, ichlarini kuydirib, tashnalikdan lablarini qovjiratar, qumlar ustida jimirlab turgan qaynoq havo o'pkalarini yondirardi.

Lashkarboshilarning toqatlari toq bo'lib, shaklar lashkargohiga qancha masofa qolganini Shiroqdan surishtira boshladilar. U esa manzilga yaqinlashib qolganliklarini va yana ikki kun yurish kerakligini aytib, boshliqlarni yupatardi. Biroq sermashaqqat safarning yettinchi kuni ham shaklardan darak topmadilar. Hamma yoq dasht-biyobon, odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadi. Suv, oziq-ovqat, yem-xashak tamom bo'lgan, oriqlab ketgan otlar yer iskab suv qidiradi, qovjiragan lablari shishib ketgan odamlar bir qultum suv uchun bir yillik umrlaridan kechishga tayyor!

Shiroqni o'rtaga olib: "Bizni qayerga boshlab kelding, ablah!" — deb qisti-bastiga oldilar. Askarboshilardan biri uni yoqasidan ushlab siltadi va haqorat qila boshladi. Shiroq yoqasini uning qo'lidan qutqarib, namat qalpog'ini boshidan oldi-da, serajin va keng peshanasidagi terini artdi. Uning qovjiragan lablari istehzoli tabassumdan yorishib, qiyiq ko'zlarida o't chaqnab ketdi. Atrofini qurshab olgan g'azabli chehralarga mag'rur qarab turib, qalpog'ini yerga bir urdi-da, qah-qahlab kulib yubordi:

— Men yengdim, Doro qo'shinini bir o'zim yengdim! — dedi u qichqirib. — Sizlarni aldab sahroning qoq o'rtasiga olib keldim, — qo'li bilan kunchiqish va kunbotish tomonni ko'rsatdi. — Buyog'i ham yetti kunlik yo'l, buyog'i ham. Istagan tomoningizga boravering! Mening go'rim shu yerda, — deb oyog'i ostini ko'rsatdi.

U o'z murodiga yetgani uchun muqaddas otash va suv xudosiga shukur qilib, allaqanday bir duoni o'qidi. Darhaqiqat, u o'z elini qullikdan qutqarib qolish uchun jonidan kechgan, yovuz dushmanni hiyla tuzog'iga ilintirish uchun ming turli azob-uqubatni bo'yniga olgan edi. Mana endi u niyatiga yetdi, dushman askarini halokat jari yoqasiga boshlab keldi. Endi dushman nima qilsa qilaversin!

U Rustakning huzuriga kirganida shunday degan edi:

— Agar mening bola-chaqam va nevaralarimni unutmasang, o'z shirin jonimdan kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim. Dushmanni daf qilmoq uchun bir hiyla o'ylab topdim. Umrim oxirlab qoldi, axir bu dunyodan ketmoq kerak. Men el-yurt uchun o'limning shirin sharbatini ichmoqqa qaror qildim... Gapimga quloq sol...

Hukmdor uning gapini oxirigacha tinglab, fikrini ma'qullagan edi. Shunda u yonidan o'tkir pichog'ini olib, o'z quloq-burnini kesgan va go'yo o'z eliga xiyonat qilgan bo'lib, dushman orasiga kirgan edi...

G'azabdan ko'zlari olayib, aft-basharasi bujmayib xunuk bo'lib ketgan Eron sarkardalari Shiroqni o'rab olib, uni ura boshladilar. Sarkarda Ronosbat dabdalasi chiqqan Shiroqni ular qo'lidan qutqarib, bir chetga olib chiqdi-da, suv ichirdi, so'ngra chodiriga olib kirib, uni yaxshilikcha yo'lga solmoqchi bo'ldi. Endi Eron sarkardasi shaklar ustiga yurish qilib, ularni tor-mor etishni xayolidan chiqarib tashlagan, u faqat qo'shinini halokatdan qutqarib qolishni o'ylardi va shunday dedi:

— Agar sen sahro quduqlari va chashmalarini bizga ko'rsatsang, gunohingdan kechib, So'g'diyada istagan qishloqlardan birini senga in'om qilardik.

— O'z elimning dushmanlariga yordam uchun cho'zadigan qo'limni kesib tashlaganim ma'qul, — dedi u gapni qisqa qilib.

Halokat yoqasida qolgan eroniylar achchiqlariga chiday olmay fidokor cho'ponni chopib, qiyma-qiyma qilib tashladilar.

SAID AHMAD

Said Ahmad... Bu nomni o'zbek kitobxoniga tanishtirishga, ta'rif-u tavsiflashga ehtiyoj sezmaymiz. Chunki bugungi kunda birorta o'zbek xonadoni yo'qki, Said Ahmad kitoblari kirib bormagan bo'lsin. Adibimizning o'tkir mushohadaga boy romanlari, teran qissalari, ajoyib sahna asarlari-yu ichakuzdi hangomalari uzoq yillardan buyon xalqimiz dilidan joy olib kelmoqda.

Luqmon Bo'rixon

MEHRIBON

Poyezd Toshkentga yaqinlashgan sari Qunduzxonning yuragi qattiqroq ura boshladi. Bundan ikki yil avval shu stansiyadan unga oq yo'l tilab qolgan ona endi yo'q. U o'tgan yili bahorda tug'uruqxonada o'lgan. Qizning nazarida, ona perronda hamon ro'mol silkib turgandek edi.

Poyezd stansiyaga kirib keldi. Perron to'la odam. Hamma vagon eshigiga qarab yuguradi. Ular orasida faqat ona, Qunduzxonning onasi yo'q, xolosiz chamadonchasini ko'tarib vagondan tushdi, odamlar orasidan turtina-turtina chetga chiqib, dadasini qidira boshladi. "Telegramma yetib kelmaganmikin" deb dilidan o'tkazdi Qunduzxon. Yo'q. Dadasi odamlar orasida ko'rinmadi. Onasi bo'lsa, albatta, chiqar edi. Gul tutib kutib olardi. Qizning atrofga javdirab turgan ko'zlari xomush yerga boqdi. Qiz ko'ngli o'ksidi.

Ne-ne orzu-umidlar bilan o'stirgan farzandining balog'at yoshini ko'rolmagan onalar, farzandlik qarzini o'tolmay armonda qolganlar qalbini tirnab kelgan dard-u alamini ifoda qilib bo'larmidi.

Atrofni quvnoq kulgiga to'ldirgan mana shu odamlar orasidan Qunduzxon bundan ikki yil avval yo'qotgan onasining mehribon munis siymosini qidiradi. Qani u, ko'zi yorib, bir parcha etda o'z istiqbolini ko'rolgan va unga baxt tilagan ona! Yoshlik yillari uning sochlarini mayda qilib o'rib qo'yadigan mehribon qo'llar qani? U endi abadiyan yo'qlikka ketdi.

Qunduzxon bo'shashib chamadonchasiga o'tirdi. Iyagini kaftiga tirab, bir nuqtaga tikilganicha xayolga toldi.

Ona o'ldi. Tug'uruqxona doyasining qo'lida yig'lab turgan chaqaloq hali ko'z ochmay ona sutidan, visolidan begona bo'ldi. U kunlari Qunduzxon Moskvada o'qishda edi. Bu qayg'uli xabarni qiziga qanday qilib bildirishni bilmagan ota uzoq vaqt sukut saqladi. Oxiri yozishga majbur bo'ldi.

Qunduzxon o'zini har qancha tutishga urinmasin, og'ir yo'qotishning azobi uni qiynar, ezar edi. Yozgi imtihonlar boshlandi, bir fandan yiqildi. Qayta topshirish uchun yoz bo'yi tayyorlandi. Yana o'qish boshlanib, Toshkentga kelolmay qoldi. Uni faqat singlisi, hali na onasini va na opasini ko'rmagan chaqaloqning ahvoli qiynar edi. "Onasiz holi nima kechdi ekan?" Qunduzxon faqat shu haqda o'ylardi.

Qunduzxon bosh ko'tarib atrofga qaradi, odamlar allaqachon tarqab ketgan, uni to'rt sutka yo'l bosib olib kelgan poyezd bir zumda bo'shab qolgan. Gazeta kioskasi oldida sochiga oq oralagan, o'rta yoshlardagi bir xotin unga qarab turardi.

— Siz Qunduzxon emasmisiz? Darrov tanidim, suratingizga o'xshar ekansiz. — Xotin tez-tez yurib kelib, u bilan quchoqlashib ko'rishdi. Hali o'zini o'nglab olmagan Qunduzxon bu xotinning bag'rida ko'pdan unutilgan o'z onasining isini tuydi.

Bir eslab ko'ring! Onalarda qandaydir bir is bo'ladi. Bolalik yillarimizda ona bag'rida erkalanib yotarkanmiz, dimog'imizga o'rnashib qolgan o'sha ona isini katta bo'lganimizda ham unutolmaymiz.

— Dadangiz zarur bir ish bilan idorada band bo'lib qoldilar. O'zim chiqdim.

Qunduzxon bir so'z demadi. Bu xotin kim, nima uchun u Qunduzxonni kutgani chiqdi. Bu haqida o'ylab ham ko'rmadi. Ona isidan mast bo'lgan qiz itoat bilan uning ketidan shahar maydonchasiga chiqdi.

Havo ochiq, kuz oftobi tillarang yaproqlar ustida chaqnar, tiniq osmonda kumushdek yaltirab kaptarlar uchardi. Mashina asfalt yo'ldan tekis suzib, kuz shamoli to'kkan barglarni ikki tomonga uchirib borardi. Mashina oynasidan baland, xushqomat imoratlar

lip-lip o'tib turibdi. Ko'chalar gavjum, tug'ilib o'sgan, go'daklik yillarining eng beozor kunlari o'tgan "Sharq" kinoteatri oldidan o'tarkan, Qunduzxonning ko'z oldida yana o'sha munis-mehribon onaning yoqimli siymosi gavdalandi.

Mashina kurant ro'parasidagi uch qavatli bino oldida to'xtadi. Xotin chamadonni qo'liga olib yerga tushdi-da, Qunduzga yo'l berdi. Katta darvoza oldidagi sahnda o'rtoqlari bilan o'ynab yurgan ikki yoshlardagi qizcha yugurib kelib xotinga tashlandi.

— Taniyapsizmi? — xotin Qunduzga o'girildi. — Singlingiz Lolaxon. Qunduzxon qizning ko'ziga qaradi-yu, unda o'z onasining ko'zini ko'rdi. Yuragi urib ketdi. Qizchani ko'tarib bag'riga bosdi. Lola yotsirab o'zini chetga tortdi va xotinga qarab talpindi.

— Voy, opanglar-ku, Moskvadagi opanglar-ku, — dedi xotin Lolani bag'riga bosib.

Lola ko'zlarini katta-katta ochib Qunduzga qaradi.

— Menga nima olib keldingiz?

— Sengami, ancha narsa olib keldim.

— Uxlaydigan qo'g'irchoq ham olib keldingizmi?

Qunduz javob o'rniga uning yuzidan o'pdi.

Uyga kirishdi. Xotin ichkari xonaga kirib yo'l-yo'l xalat kiyib chiqdi-da, stol ustiga yoyib qo'yilgan dasturxonni ochib yubordi.

— Qunduzxon, avval bir dushga tushib olasizmi-a?

— Mayli, — Qunduzxon go'yo sehrlangandek javob berdi.

Vaqt juda tez o'tardi. U dushdan chiqib artinayotganda ham "bu xotin kim, nega muncha mehribonchilik qiladi?" degan savol miyasidan nari ketmasdi. Xotin kirdi, qo'lidagi xitoy shohisidan tikilgan xalatni uning yelkasiga tashlar ekan, qo'shib qo'ydi:

— Razmeringizni bilmadim. Kengroq bo'lsa tuzatib berarman.

Shu payt Lolaxon hali yengi o'rnatilmagan ko'ylakni etagidan sudrab kirdi.

— Opa-chi, opa, ayam menga ko'ylak tikib berdilar. Judayam ko'ylagim ko'p. Qizil ko'ylagimni ko'rsataymi?

Xotin yugurib kelib uning qo'lidan ko'ylakni oldi.

— Voy, qizim tushmagur-e, hali bitgani yo'q-ku.

Qunduzxon turgan yerida qotib qoldi. Singlisining "ayam", bu xotinning "qizim" deyishi uning qulog'iga o'qdek qadaldi. Demak, demak, u...

Qunduz yuzini panjalari bilan berkitib, ichkari uyga yugurdi, o'zini karavotga tashlab, yig'lab yubordi. Uning ko'zi oldida yana ona gavdalandi. U qiziga xomush termilar, nimadir demoqchi bo'lgandek lablarini juftlab turardi. Qunduz ko'z yoshlaridan ho'l bo'lib ketgan yostiqni surib qo'yib, o'ng yonboshiga ag'darilgan edi, devorda, zarhal ramkadan kulib qarab turgan onasining suratiga ko'zi tushdi.

Eshikdan mo'ralab turgan Lola hayronlikda ko'zini pirpiratib, orqasiga qaytdi.

— Aya-chi, aya, opam yig'layaptilar.

Xotin xomush o'tirib qoldi. Elektr choynagining jo'mragidan parillab bug' ko'tarilar, to'lqini adashgan radiopriyomnik muttasil xirillar edi.

— Siz ham yig'layapsizmi? — Lola xotinning yelkasiga osildi. Xotin qizchani tizzasiga o'tqazib, uning boshini siladi.

— Boshingiz og'riyaptimi?

— Ha, qizim, boshim og'riyapti.

Xotin mashaqqat bilan o'rnidan turdi-da, asta-sekin yurib Qunduzxon o'tirgan uyga kirdi. Qunduzxon hamon onasining suratiga termilib, xomush o'tirardi. Xotin ham suratga qaradi.

"Qani edi, o'z bolalaringga o'zing bosh bo'lsayding, baxtini ko'rsayding. Men sening baxtingga sherik bo'lmoqchi emasdim... Sening yo'qligingni bildirmasam, bolalaring ayozda sovqotmasa, kiri yuvuqsiz, qozoni osiqsiz qolmasa, deyman. Ularni o'zing niyat qilgandek tarbiya qilsam, deyman. Bayramlarda, to'y-u tomoshalarda o'ksinmasa, yetimligi bilinmasa, deyman..."

Xotin ro'molining uchi bilan ko'z yoshlarini artib oldi-da, qo'lini Qunduzxonning yelkasiga qo'ydi.

— Hammasiga tushunaman. Og'ir, juda og'ir. Biroq menga ham...

O'zganing farzandiga ona bo'lishdek og'ir ish yo'qligini bilaman.

Xotin yuragini to'lqinlatib turgan fikrlarni aytish uchun so'z topolmadi. Xo'rsindi.

Darhaqiqat, ona o'z bolasini sho'xlik qilganda urishadi, vaqti kelganda jazo beradi. Ammo o'zganing bolasiga shundoq qilib bo'ladimi?! Ularga onalik qobiliyatining eng nozik vositalari bilan yondashmoq kerak.

O'gay onalar haqida el og'ziga tushgan turli-tuman latifalar, chidab bo'lmas ta'nalar tushunchamizga yelimdek yopishib qolgan. Bu munosabatlar hamon ular xizmatini kamsitib keladi.

Qunduzxon kechki ovqat vaqtida ham xomush o'tirdi. Yechinib o'rniga yotarkan, tomog'ini bo'g'ib kelayotgan alam va iztirobni qaytarmoqchi bo'lib harchand urinsa ham bo'lmadi. Begona xotinni ona deb atashga tili bormas, bunga uni mutlaqo huquqsiz deb bilardi.

Qo'shni xonada chiroq o'chdi. Devordagi soat o'n bir marta zang urdi. Xotin hamon uxlolmay, uy ichida kuymalanib yurardi. Lolaning ijirg'anib yig'lagan ovozi eshitildi. Yana chiroq yondi.

— Voy, qizim, isitmang bor-ku. — Bu xotinning ovozi edi.

Qunduz shoshib, yostiqdan bosh ko'tarib, quloq soldi. Shkaf eshikchasi g'iyqillab ochildi. Oyoq tovushi. Lola hamon ingrardi.

Qunduz qiya ochiq eshikdan qo'shni xonaga qaradi. Xotin Lolaning qo'ltig'iga qo'ygan termometrni olib chiroqqa solib qaradi-da, uni bir silkib stol ustiga qo'ydi. Lolaning karavotchasiga engashib, uning ko'z milklarini yirib ko'rdi va uni ko'tarib, uyning u boshidan bu boshiga yura boshladi.

Qunduz o'rniga kelib yotdi. O'zganing farzandida o'ziga nisbatan farzandlik hissini qo'zg'atolgan xotinga yuragining allaqayerida muhabbat uchquni yilt etib ketganini sezmay qoldi.

Ko'zini uyqu bosdi.

Dadasi ishdan kech qaytdi. U ish kiyimini yechib, bolalarini uyg'otib yubormaslik uchun oyoq uchida yurib Lolaning karavoti tepasiga kelib engashdi.

— Qunduzxon keldi.

— A?! — u xotinining ko'ziga qaradi.

Uning bu qarashida uch ma'no bor edi. Biri, ko'pdan sog'ingan qizini ko'rishga shoshilish, ikkinchisi, sevgan onasidan ajralgan qizning iztirobli holatini ko'rishga yuragi dov bermaslik, uchinchisi o'gay onaga bo'lgan munosabatda biron ko'ngilsizlik bo'lmaganmikin degan shubha edi.

— Uxlayapti, — dedi xotin u yotoq eshigini ochayotganida, — bezovta qilmay qo'ya qoling, charchab kelgan, uxlasin.

U ovoz chiqarmay bir yo'talib oldi-da, ichkari kirdi. Stol ustidagi ko'k abajurli chiroqdan Qunduzxonning yuziga havoyi bir nur tushib turardi. "Onasining o'zi, ko'zi ham, yuz tuzilishlari ham xuddi onasi..." deya dilidan o'tkazdi ota.

Er-xotin allavaqtgacha uxlayolmadi. Er tez-tez papiros chekar, xotin esa Lolaning tepasidan nari ketmasdi.

Qunduzxon uyg'onganda, dadasi katta toshoyna oldida yuziga sovun ko'pigini surib, soqol olayotgan edi. U apil-tapil kiyinib dadasining oldiga chiqdi.

Ota oynadan qizining aksini ko'rishi bilan qo'lidagi buyumlarini tashlab, uni bag'riga bosdi.

Qunduz, go'yo shu ikki yil ichida hech qanday voqea bo'lmagandek, o'zini quvnoq tutdi.

— Qizim, dadangdan xafa emasmisan?

— Nega xafa bo'lay, juda to'g'ri qilgansiz...

Ular stol atrofiga o'tirishdi. Dasturxonda xonaki pecheniylar, atirgulnusxa tort va turli xil mevalar bor edi.

— Ayang sening kelishingga uch kundan beri tayyorlanadi.

Ayang so'zi Qunduzxonning qulog'iga g'alatiroq eshitildi. Lekin ota oldida o'zini tutdi. Sezdirmadi.

— Ishga ketadigan vaqtim bo'lib qoldi, ayang Lolani doktorga olib ketgan edi, sen biroz dam ol, hozir kelib qolar.

Ota tez-tez kiyinib, uydan chiqdi. Qunduzxon yolg'iz qoldi. U biroz xayol surib turgach, ichkari uyga kirib, garderobni ochdi. Kichik ilgakchalarda Lolaning tekis dazmollangan ko'ylaklari, kichik uyga kirdi, unda Lolaning o'yinchoqlari. Xonalarning hammasi ozoda, deraza pardalari oppoq, uy anjomlari yiltirardi. Hamma yoqda didli, mehribon xotinning qo'li sezilib turardi.

Qunduzxon yo'qotgan onasini yana topgandek bo'ldi, bu xotinda o'z onasini — uning mehr-u muhabbatini ko'rdi.

Narigi uydan Lolaning ovozi eshitildi. Qunduzxon yugurib chiqdi.

Xotin qo'lidagi buyumlarni stolga qo'yayotgan edi.

— Dadangiz ketib qoldilarmi?

— Hozir ketdilar. Lola tuzukmi, ayajon?

Xotin turgan yerida dong qotib qoldi. Qunduz uni ayajon deb atadi, u yo yanglish eshitdimi?! U xursandligidan entikdi. Bu so'z uning yuragiga iliqqina borib tegdi. Ona ko'ngli tog'dek ko'tarildi. U baxtdan entika-entika Qunduzxonning boshini silar, erkalardi.

Qunduz uning og'ushida ona isidan mast bo'lib ko'zlarini yumdi.

1955-yil

MUHABBATNING TUG'ILISHI

Kecha juda oydin edi. Azamat teraklarning yaproqlari kumush astarlarini oyga tutib, orom uyqusiga ketishgan. Faqat ariqlardagi tinmagur suvlargina qo'ng'iroq chalib sapchishadi, qirg'oqlardagi giyohlarning barglarini tortqilab, ularni uzoqlarga olib ketmoqchi bo'lishadi. Uyalarida mudragan qushlar esa uyqusirab patirlab qo'yishadi.

Shu orom va farog'atga to'la saraton tunida bog' ko'chadan bir qiz bilan bir yigit keladi. Ularning soyalari oldinga cho'zilgan, xuddi shu soyani bosib olmoqchi bo'ladilar-u, yetolmaydilar. Ba'zan ularning bu uzun soyalari daraxt soyalariga qo'shilib ketadi-da, yana paydo bo'ladi.

Ular anhor ko'prigi ustida to'xtashdi. Ikkovining soyasi ko'prik ustiga ko'ndalang tushib yotib oldi.

— Qachon ketasan? — bu qizning ovozi edi.

— Hozir ketaman! — dedi yigit bir qadam orqaga tisarilib. Uning soyasi ko'prikdan oshib, suv betiga tushdi. Oyning suv jimiridagi chaqini o'chdi.

— Yo'q, Mirzacho'lga qachon ketasan, deyapman.

— Biron haftadan keyin ketsam kerak, — dedi yigit beparvolik bilan. Endi u yana oldinga cho'zildi. Suv jilvasida yana oyning kumush tangasi chaqnadi. — O'zi uying qayoqda? Yetay deb qoldikmi?

Qiz orqasini o'girib oldi.

— O'n yil birga o'qib, haligacha uyimni ko'rmagansan-a, qo'y-e. — Uning ovozida qandaydir o'pkami, ta'nami, nimadir bor edi.

Ular bir necha daqiqa so'zsiz turib qolishdi. Qiz ko'prik panjarasiga bag'rini berib, suv oqib ketayotgan tomonga qarab turardi. Suv shaloplab sohilga uriladi, orqaga qaytmoqchi bo'ladi, ammo oqim kuchi uni quyiga, tunning sir-u sehriga to'lgan qo'yniga olib ketadi.

— Sovqotdim, — dedi qiz titragan tovush bilan.

— Uyingga keta qol bo'lmasa, — dedi yigit unga rahmi kelib.

Qiz keskin burilib yigitga qaradi. Qaradi-yu, uning ko'ziga tikilib indamay qoldi. U vujudida, qalbida nimalar bo'layotganini bilmasdi. Uning goh yig'lagisi, goh kulgisi, goh butun kechani ostin-ustun qilib qo'shiq aytgisi kelardi.

— Ketaman, xayr, — dedi yigit unga qo'lini uzatib, uning ham qo'li titrardi. Yigit bir necha qadam nari ketdi. To'xtadi. Orqasiga o'girildi, nimadir demoqchi bo'ldi. Deyolmadi. U ham sharaqlab qaytgan anbarga qaradi. Shamol esdi. Terak barglari shitirladi. Allaqayda buzoq uyqusirab ma'radi. Kimdir, juda olisda qo'shiq aytdi. Yana tindi. Yigit qaytib keldi-da, qizning bilagidan ushlab qattiq siqdi. Uning sochlarini qo'llariga o'rab entikdi. Keyin tez burilib, uzun soyasini orqasiga ergashtirib kecha qo'yniga kirib yo'q bo'ldi.

Qiz u bilan xayrlashganini, bilagini ushlaganini, sochlarini qo'llariga o'raganini sezmadi. Faqat olisdan tosh yo'lda ko'ndalang tushib, bir ko'rinib yo'q bo'lgan soyasinigina eslab qoldi, xolos. Qiz ham o'z soyasini oldinga tashlab, tosh yotqizilgan ko'chada asta-sekin yurib ketdi.

Bu qiz xuddi shu bugun o'ninchini bitirib, balog'at guvohnomasini oldi. Maktab hovlisida hali ham chiroqlar yonib turibdi. Xayrlashuv ziyofatiga kelgan hamsinflar hali tarqalishgancha yo'q. Hovlini to'ldirib tansa tushishyapti, qo'shiq aytishyapti. Tong otishi bilan ular har tomonga tarqab ketishadi. Ulardan faqat birga oldirilgan suratgina yodgor qoladi, xolos!

Shundaymikin?

Do'stlik-chi, o'n yillik xotiralar-chi, birga kechirgan achchiq-chuchuk kunlar-chi, har kuni bir necha bor darsga chaqirgan qo'ng'iroq tovushi-chi, ota-onadek mehribon o'qituvchilar-chi... Hammasi eng shirin xotira bo'lib yodda qoladi. Mana shu aziz nurga, ohangga to'lgan beg'ubor xotiralar orasidan bo'y cho'zib, qad ko'tarib, hammadan oldinda, hammadan baland bo'lib Omonning qiyofasi ko'rinadi. Nega?

Bu savolga qiz javob topolmasdi. Javob ham izlab ko'rmasdi. Shu oydin kechada hamma narsa uning xotiridan ko'tarildi-yu, birgina Omonning yuzi, ko'zi, gavdasi, butun borlig'i bilan paydo bo'ldi.

U tosh yo'ldan bitta-bitta bosib shu yigit haqida o'ylab borardi.

Omon sinfdoshlar ichida eng sho'x, eng urishqoq bola edi. U qizlar bilan chiqisholmas, ularga kun bermas edi. Yoniga biron qiz o'tirib qolsa, zarda bilan boshqa partaga o'tib ketardi. Pardoz qilgan qizlarni juda yomon ko'rardi. Bir kun Sanobar degan qiz yuziga upa surib kelganda uning qo'lini qayirib, dastro'moli bilan yuzidagi upani artib tashlagan edi. Qizlar ham uni xushlamas, ming xil laqab qo'yib chaqirishardi.

Imtihonning dastlabki kunlari edi. Omon sinfda hech kim yo'qligini bilib eshikni zichlab berkitdi-da, g'ayritabiiy bir tovush bilan dedi:

— Aziza, o'ninchini bitirganimizdan keyin menga tegasanmi?

Shunda Aziza jahl ustida uning yuziga bir shapaloq urdi-da, yig'lab chiqib ketdi. Bu sirni ularning ikkovidan bo'lak hech kim bilmay qoldi. Omon shundan keyin qizga ro'baro' kelishdan qo'rqib, o'zini chetga olib yurdi.

Kunlar o'tishi bilan Aziza o'sha voqeani tez-tez eslaydigan va har vaqt eslaganda yuragining allaqayeri jiz etib ketadigan bo'lib qoldi. Har gal maktab hovlisiga kirishi bilan kimnidir, nimanidir jonsarak bo'lib qidirardi. Uning sho'x, quvnoq kulgilari kamroq eshitiladigan bo'lib qoldi. Hamisha chaqnab turadigan ko'zlarida bilib bo'lmaydigan ichki bir dardining ifodasi sezilib turardi. Omon ham uni zimdan kuzatar, ko'zi ko'ziga tushganda birdan tund bo'lib qolardi. Imtihonlar tugab, birov ishga, birov o'qishga ketadigan bo'ldi.

Aziza qo'yib bersa, ixtiyorini Omonning qo'liga topshirishga tayyor edi. Bugungi xayrlashuv kechasida Omon Mirzacho'lga, MTSga ketishini aytdi. Hamma uning bu qarorini chapak chalib qarshi olganda Aziza bir seskanib ketgan edi. Tansa boshlandi. Aziza Omonni chetga chaqirib, undan uyiga kuzatib qo'yishni so'radi. Omon unga javob berish o'rniga:

— Bay-bay-bay. Muncha atirga belanmasang. Rosa gupullab ketyapti-ku, — dedi.

Azizaning "O tentak, hammasi sen uchun" deb yuborishiga oz qoldi.

"Kel, kuzatib qo'ya qol" deb yolvordi unga.

Shovqin to'la maktab hovlisini ortda qoldirib, ular ikkovlashib bog' ko'cha tomonga yo'l olishdi. Oy nuri bog'-u rog'larga oppoq nur sochib turgan shu sokin saraton tunida ularning ikkovi jimgina kelisharkan, na unisidan, na bunisidan sado chiqardi. Bu jimlikni Omon buzdi.

— O'sha be'mani gapimni esingdan chiqaz, Aziza. — U shunday dedi-yu, bu kamgap, lekin nihoyatda ajib bir his-u hayajonga to'lgan qiz oldi-da o'zini ko'rsatish uchun azim teraknimi, anhor bo'yidagi shoxlari tarvaqaylab ketgan tolnimi ildizi bilan ko'tarib osmonga otgisi keldi.

Qiz ham uning bu holatini sezib turardi.

— Qanaqa bema'ni gap, esimda yo'q, — dedi qiz o'sha "bema'ni" gapni yana eshitgisi kelib.

Omon til chaynadi.

— Ha, sinfda ikkovimiz yolg'iz qolganda bir gap aytgan edim-ku.

— Ha, — dedi Aziza cho'zib. — O'sha gapni bordi-yu esimdan chiqazmasam-chi?

Omon yurishdan to'xtadi.

— Unaqa bo'lsa, bu yuzimga ham yana ur, shunday qilsang yaxshi bo'ladi, seni kuzatmay qaytib keta qolaman.

Aziza nima deyishini bilmay gangib qoldi:

— U vaqtda yosh bola edik.

— Nega yosh bola bo'larkanmiz. O'n besh kun bo'ldi, xolos. Darrov katta bo'lib qolibmiz-da. — Omon shu gapni aytdi-yu,

sharaqlab kulib yubordi. Tol butog'ida mudragan musicha cho'chib ketdi.

— Bo'lmasam-chi, mana, — dedi Aziza, shu bugun bundan yarim soatcha oldin qo'liga teggan yetuklik attestatini baland ko'tardi, balog'at guvohnomasining zar yozuvlari oy nurida yaltirab ketdi. — Mana, katta odam bo'lib qolganimizning guvohi. Endi meni yolg'iz tashlab uyingga ketib qolmaysanmi?

— Yo'q, — dedi Omon uning bilagidan ushlab.

Azizaning badani dirillab ketdi. Darrov qo'lini tortib oldi.

— O'shanda yuzimga yomon urgansan-a.

— Aytdim-ku, u paytda yosh bola edik. Endi katta odamniz.

— Endi o'sha gapni aytsam urmaysanmi?

— Gap bilan uraman, — dedi Aziza. — Yo'q, urmayman, nahotki seni ursam?! Seni uradiganning qo'li sinsin.

Omon mast odamga o'xshab kalovlab qoldi. Ketma-ket uch marta qoqildi. Tolning kallagiga boshini urib olib, do'ppisini tushirib yubordi. Osmonga qarab barkashdek oy balandlab ketganini endi bildi. Xo'rsindi, gapi gapiga qovushmay, qayoqdagi keraksiz gaplarni aljiy boshladi. Uning bu holatini qiz sezib turardi...

Hozir u tosh yo'ldan bitta-bitta bosib yolg'iz kelarkan, Omon haqida, o'zi haqida, yuragini o'rtayotgan allanimalar haqida o'ylab borardi.

Ona uni kuta-kuta chiroqni o'chirmay, supa o'rtasida allaqachon uxlab qolgandi. Qiz gulzor chetidagi o'sha supaga o'tirdi. Engashib rayhonning bir shoxini sindirdi-da, dimog'iga olib keldi. Rayhon isi uni chinakamiga mast qilgan edi. Uning negadir o'kirib-o'kirib yig'lagisi kelardi. Gullar orasiga kirib, chalqancha yotib, qimirlamay oyga qarab to u botib ketguncha qarab yotgisi, shu gullarning hammasini birma-bir yuziga surtgisi, oyning oq ipak tolasidek ko'rinmas nurlariga chirmashib, huv o'sha yulduz to'la osmonga chiqqisi, butun olamga yetgudek ovoz bilan qo'shiq aytgisi kelardi.

Ona supa o'rtasida shirin uyquda yotardi.

E g'ofil ona, ko'zingni och, qizingning yuragiga quloq sol. Uning qalbiga muhabbat keldi.

1959-yil

KO'ZLARINGDA O'T BOR EDI

Zinapoyaning boshida oq xalatli ayol ko'rinishi bilan Mutal shoshib o'rnidan turadi. Undan biron gap chiqmagandan keyin bo'shashib yana joyiga o'tiradi. U shu taxlit uch soatdan beri o'tiribdi. Shahar allaqachon uxlagan. Ammo bu yerda kirdi-chiqdi. Telefon dam o'tmay jingillaydi. "Tez yordam" mashinasi tinimsiz kelib-ketib turadi. Rangi bo'zargan, ko'zlari besaranjom ayollarni nosilkalarda yuqoriga olib chiqib turishibdi. Kutib turganlarning ko'zida tashvish bor. Ichkaridan ham quvontiradigan, ham hayajonga soladigan xabarlar chiqadi. Mutal ham o'z baxtini o'sha joydan kutib o'tiribdi.

Zinada keksagina hamshira xotin ko'rindi. Hamma baravar o'rnidan turdi. U o'tirganlar orasidan kimnidir qidirardi. Oxiri, ko'zi Mutalga tushishi bilan yuzida bir chiroyli tabassum paydo bo'ldi.

— Holva muborak bo'lsin, inim. Xotining to'tidek qiz tug'di.

Mutalning yuragi qinidan chiqib ketayozdi. U rost aytyaptimi? Axir, Mutal qirq olti yillik umrining yigirma sakkiz yilini shunday qutlug' xabar eshitish orzusida kechirdi. Nihoyat, nihoyat niyatiga yetdi. Hamshira xotin aldamayotganmikin? Rostmikin? Tushimmi, o'ngimmi? Yo'g'-e...

Mutal esankirab qolgan edi. Atrofida nimalar bo'lyapti, kimlar bor, o'zi qayerda o'tiribdi, bilmasdi. O'zidan o'zi dovdirab hovliga chiqib ketganini bilmay qoldi. U tug'uruqxona darvozasiga yetganidagina, shunday yaxshi xabar olib chiqqan hamshiraga rahmat aytmagani, suyunchi bermaganini bilib qoldi. Shoshib orqasiga qaytdi. Hamshira yo'q edi. Uning ismini bilmaganidan, hali ko'p kelaman-ku, ko'nglidan chiqarib yuboraman, deb o'ziga taskin berib yo'liga qaytdi.

Ko'cha jimjit. Har zamon asfalt yo'lni yoritib mashinalar o'tib qoladi. Negadir ular Mutalning oldiga yetay deb qolganda signal berishadi. Ular xuddi uni tabriklayotganga o'xshashadi. Sonsiz chiroqlar jimirlab ko'zni qamashtiradi. Daraxt shoxlari shabadada silkinib, yerdagi soyalarini u yoqdan bu yoqqa otib o'ynashadi. Havo toza, musaffo.

Tramvay-trolleybuslar yotgan. Uy hali uzoq. Mutal ko'chaning qoq o'rtasida borardi. Dunyoda hozir undan baxtli odam yo'q. Ashula aytgisi, uchragan odamga shu topda qiz ko'rganini birpasda gapirib tashlagisi keladi. Xuddi uning yonginasidan bir yuk mashinasi vag'illab o'tib ketdi.

Nariroq borib shart to'xtadi-yu, shofyor kabinadan bosh chiqarib, jahl bilan so'kindi. Mutal unga parvo qilmadi. Ammo birdan hushyor tortib ketdi. Boyagi quvonchlari qayoqqadir g'oyib bo'ldi, bir zumda yuragini muz bosgandek sovib qoldi.

— Men ham odam bo'ldimmi? Rostdan ham baxtlimanmi? Shumi baxt?

Bu fikr yashin tezligida kallasini parmalab kirib, mahkam o'tirib oldi.

Endi Mutal behush qadam tashlardi. Boya yeldek uchib ketayotgan odam, endi shoshilmasdi. Qayoqqa shoshadi, yigirma besh yillik hamrohi, do'sti, eng aziz kishisi bu xabarni eshitsa nima bo'ladi? Bu xabar uni qon yig'latmaydimi? Ilgarilari ham Mutal shu to'g'rida o'ylaganida, yuragi orqaga tortib ketar, o'yini oxiriga yetkazishdan qo'rqardi. Bola ko'rish orzusida yigirma besh yil orziqib yashagan bo'lsa, bu yog'idagi niyati ro'yobga chiqayotgan uch yilida bu ezgu niyati, ko'pincha, dahshatli o'ylar bilan aralashib ketardi.

Mutalning hayotidagi bu kattakon voqea E'tiborxonning qulog'iga yetmay qolmaydi. Undan keyin nima bo'ladi? E'tiborxonning holi nima kechadi? Ana shunisi yomon! Uning qiynalganini ko'rish, ko'zida yosh, chehrasida g'am ko'rish Mutalni iztirobga soladi. U yigirma besh yil E'tiborxonni avaylab keldi.

E'tiborxon Mutalning avvalgi xotini edi. Tug'madi.

Mutalning nazarida, dunyoda hech qanday er-xotin ulardek birbirini sevolmasdi. Bu hurmat, bu muhabbat, bu mehr-oqibat...

Mutalning hali esida, ularning to'yi ming to'qqiz yuz o'ttiz to'rtinchi yilning avgustida bo'lgan edi. To shu kungacha bir-birlarini sen deyishga tillari bormagan. Hamisha "siz"lab gapirishardi. Qo'ni-qo'shnilar ularning uyidan biron marta qattiq ovoz eshitishmagan. Uylari bo'lsa, hamma vaqt yaraqlardi. Kelgan mehmonlar ularga havas qilib ketishardi-yu, uylariga yetmay, shu bechoralarga Xudo bittagina farzand bermadi-da, deb qo'yishardi.

Yillar o'taverdi. Ular hamon bir-birlarining qosh-qovog'iga qarab, kunlarni yillarga ulab yashayverishdi. Mutal qachondir bola ko'rishiga ishonardi. Uning ishonchi E'tiborni qiynardi. Erining siqilayotganini bilib turardi. Ko'chadan bola o'tsa ko'zi o'ynashini, mehmonga borishsa bolalarning o'yiniga qo'shilib ketishini E'tibor sezmasmidi, sezardi. Xotinlar ziyrak bo'lishadi, uydagi konfetlarni ko'chadagi bolalarga tashib tamom qilishini bilmaydi, deysizmi? Bilardi.

Urush boshlandi. E'tibor to'rt yil yo'liga ko'z tikib Mutalni kutdi. Keldi. Yana o'sha jim, osuda hayot. Urushdan avval qanaqa yashashgan bo'lsa, undan keyin ham o'zgarishsiz bir xil umr boshlandi. Mutal bolasiz o'tishga rozi edi-ku, ammo E'tiborsiz yashashga rozi bo'lolmasdi. U E'tiborga shunchalar o'rganib qolgan, o'zini, hatto E'tiborsiz tasavvur ham qilolmasdi. Ammo E'tibor erining qo'lida bola ko'rishni shunday orzu qilardiki, birgina bola uchun, Mutalning birgina quvonchi uchun jonini ham berishdan qaytmasdi. Qo'lida bola ko'rib o'lsam, to'yimiz bo'lgan yillardagi Mutalning ko'zlarida chaqnagan o'tni yana bir ko'rsam, bu dunyodan bearmon ketardim, deb o'ylardi.

Kunlar, yillar o'taverardi. Er-xotin hamon samimiy, hamon birbiriga oqibatli. Bir burda non bir-birisiz tomog'idan o'tmaydi, uy hamon ozoda, saranjom, jimjit.

Shu xilda yigirma to'rt yil umr o'tib ketdi. Na bolasizlik, na odamlarning kishi bilmas ilmoqli ta'nalari ularning orasiga sovuqchilik sololmasdi.

Mutal tanish-bilishlar bilan uchrashib qolganda odatdagicha, undan bola-chaqalarning salomatligini so'rashardi. Mutal dovdirab nima deyishini bilmay, tayinsizroq bir gap aytib qutulib ketmoqchi bo'lardi-yu, ammo, odatda, shu gaplardan keyin keladigan: kattasi nechaga kirdi, degan so'roqdan keyin, qiynalib-qiynalib javob berishga majbur bo'lardi:

— Bolamiz yo'q. Shundoq...

So'ragan odamning xijolatligini aytmaysizmi.

Mutal tanishlar bilan to'qnash kelishdan bezillab qolgandi.

Bu gaplarni E'tibor sezmasdi, deysizmi, sezardi. Sezardi-yu, ich-ichidan ezilib ketardi. Erining ko'ziga qarolmay, xomush bo'lib qolardi.

Yana bir yil o'tdi. Mutal qariy boshladi. E'tiborning nazarida, ilgarigi chaqnab turgan ko'zlaridagi o't yo'qolayotganga, o'zi sal narsaga charchab qolayotganga o'xshayverdi. Bir kun Mutal ishdan kelib hovlida gulqaychi bilan olma shoxlarini butab yurganda, E'tibor ayvonda chuchvara tugib o'tirgan edi. Birdan, bexosdan ko'zi erining bo'yniga tushib qoldi. Iyaklarining tagi g'ijimlanib qolgandek ko'rindi. O'rnidan turib, beixtiyor oldiga bordi. Faqat iyagida emas, ko'z chetlarida, peshanasida ham ajin. Birdan E'tiborning yuragini vahm bosib ketdi. Qaribdi, qaribdi. Sochi ikki chakkasidan oqara boshlabdi, qaribdi, qaribdi...

Hali oftob o'chmagan, gullar qiyg'och ochilib turgan iyul kuni ularning yigirma besh yillik ahil umriga yakun yasadi.

E'tiborning niyati buzildi. Ketish kerak, shu qadrdon, dunyodagi yaxshi odamlarning eng yaxshisini tashlab ketish kerak. Qandoq qilib?

Mana shunisi qiyin edi. Shunday ketish kerakki, ko'z yoshi to'kilmasin. Kelgan yig'ini kulgi bilan, xandon kulgi bilan yengish kerak.

E'tibor boshqa yo'l topolmadi. Mutalni baxtli qilishning birdan bir yo'li shu edi. O'sha kecha E'tibor mijja qoqmadi. Yana boshqa tadbirlar ham qidirib chiqdi. Eng so'nggi tadbir, Mutalning ko'nglini o'zidan sovitish, bezor qilish bo'ldi.

O'shanda dam olish kuni edi. Kechgacha E'tibor bo'lar-bo'lmasga bahona topib, erini qiynayverdi. Qo'pol gapirdi, jig'iga tegdi, ko'ngil qoldiradigan sovuq gaplardan ham toymadi. Mutal og'irlik qilib uning ko'nglini olishga urindi. E'tibor sovimadi. Axir toqati toq bo'lgan Mutal qizishmay, yotig'i bilan so'radi:

— Sizga nima bo'ldi, E'tibor? Juda qiynavordingiz-ku?!

— Ketaman!

Mutal gangib qoldi. Nima qilishini bilmay, xotinining ko'ziga qarab, angraygancha qoldi.

— Ketaman, yashamayman siz bilan.

E'tibor shu gapni aytdi-yu, titrab ketdi, ammo buni eriga sezdirmadi. Ich-ichidan toshib chiqqan xo'rsinishni kuch bilan bosib

qaytardi. Angrayib qolgan erining ko'ziga qaramay, uyga kirib ketdi- da, birpasdan keyin chamadon, tuguncha ko'tarib chiqdi.

— E'tibor, ketmang, meni tashlab ketmang, men nima qilaman... Mutalning ko'zlari xiralashib bir gandiraklab oldi. Darmonsizlanib ayvonning labiga o'tirib qoldi.

E'tibor yugurib borib qo'ltig'idan ko'targisi, peshanasidan, o'sha sochi oqarib kelayotgan chakkalaridan silagisi, yuzini yuziga ishqab ovutgisi keldi. Lekin bunday qilmadi. O'zini tutdi. Yuragi yig'lardi-yu, chidardi. Bu — qahramonlik edi, katta qahramonlik edi. U o'zini hamon dadil tutib, erining oldiga bordi:

— Bilasanmi, — bu erini birinchi marta senlashi edi, — senga xiyonat qildim. Buning uchun o'zimni kechirolmayman. Sen ham kechirmaysan. Xiyonat qilgan xotin erining uyida turishga, u bilan birga yashashga haqsiz. Buning uchun, bilaman, meni kechirolmaysan.

E'tibor bu bahonani beixtiyor topdi. Bu — zo'r bahona. Hech qanday er xiyonat qilgan xotinni kechirolmaydi. Butun umrini bol-u pardek pokiza o'tkazgan xotin, xiyonat u yoqda tursin, begona erkakni xayoliga keltirmagan xotin o'zini o'zi eng pastkashlar qatoriga qo'yib o'tiribdi. Nima uchun? Kim uchun? Buni E'tiborning o'zi bilardi.

E'tibor ostonaga yetib qoldi. O'girildi:

— Meni kechirolmaysan, kechirolmaysan. Ko'zingga qarab, shafqatingni kutib yashashga toqatim yo'q. Kuniga ming martalab o'zimni qarg'ab yashashga toqatim yo'q. Seni harom qilishga haqqim yo'q. Ketay, ketay...

E'tiborning tovushi bo'g'ilib, gapirolmay qoldi, shart burildi-yu, chiqdi-ketdi.

Mutal yolg'iz qoldi. Bir kun kutdi, ikki kun, bir oy, bir yil kutdi, xotinidan darak bo'lmadi.

Oradan bir yarim yil o'tib, E'tibordan xat keldi. Xatda u endi sira qaytib kelmasligini, o'sha yo'ldan "urgan" kishi bilan turmush qurmoqchi ekanini aytibdi. Mutal yig'ladi. Xo'rligi kelib, o'tkazgan yigirma besh yillik umriga achinib yig'ladi. Mutal yolg'izlikda so'la boshladi. Ajinlari ko'paydi, chakkasidagi oq tolalar manglayiga o'rmalab qoldi. Kuyib-yonib ado bo'lay dedi.

Ko'pchilik uylan, yolg'izlik yomon, deb nasihat qildi. Mutal yotib qolay dedi. Oxiri, do'stlari kichkinagina to'ycha qilib o'zi bilan birga ishlaydigan bir qari qizga uylantirib qo'yishdi. Hamon E'tibordan darak yo'q. U bevafoning qayerdaligini hech kim bilmasdi.

Mutal tug'uruqxonadan kelarkan, mana shularni esladi. Esladi-yu, siqilib ketdi.

— Uning bola ko'rganini E'tibor eshitsa nima qilarkin? O'zini o'zi bir nima qilib qo'ymasmikin? Yo sevinarmikin? Sevinmaydi, u xiyonatchi!

Uning ko'ziga goh tug'uruqxonada yotgan chaqalog'i, goh uydan qahr-u g'azab bilan chiqib ketayotgan E'tibor ko'rinardi.

Oradan to'rt kun o'tdi. Mutalning xotini bilan qizi hali tug'uruqxonada. O'zi bo'lsa, tinmay uy yig'ishtiradi, keldi-ketdi uchun tayyorgarlik ko'radi.

Birdan eshik taqillab qoldi. Pochtachi. Posilka olib kelibdi. Kimdan? Kimdanligi noma'lum. Mutal shoshilmay yashikni ochdi. Chaqaloqqa ko'ylak, fartuk, qalpoqcha... Kimdan bu? Mutal yashikning u yoq-bu yog'ini titkilay boshladi. Xat. Shoshib oldi, shoshib o'qiy boshladi:

"Hurmatli Mutal aka! Meni kechiring. Eshitdim. Eshitib qay ahvolga tushganimni tushuntirib berolmayman. Mening bittagina niyatim — qo'lingizda bola ko'rish edi. Shu niyatimga yetdim. O'tgan kuni ko'chada sizni ko'rib qoldim. Ko'zlaringizda o't yonib turibdi. Bundan yigirma yil avval ko'zlaringiz shunday edi. Ko'rib, hayron bo'ldim. Bilsam, ota bo'libsiz. Bu qanday baxt, bu qanday baxt! Sevinchdan yuragim yorilay dedi. Yotib uxlolmadim. Tong otguncha ko'rgan kunlarimizni eslab chiqdim. Qandoq totuv yashadik! Qandoq mehribon edik bir-birimizga! Sizni qanchalik yaxshi ko'rardim! Qandoq ayardim, shamolni ham ravo ko'rmasdim. Kechalari sizga baxt, salomatlik tilab chiqardim. Sizdek pok odamga munosib xotin bo'lish uchun qo'limdan nima kelsa, vijdonim nimani buyursa — hammasini qildim. Bilsangiz, uydan ketishim, o'zimga o'zim tuhmat qilib, o'zimni o'zim buzuq deb ataganim ham sizga baxt tilashim edi. Endi ochig'ini aytay, umrimda xiyonat yo'liga kirmaganman. Agar o'zimni buzuq demaganimda,

siz meni uydan har qandoq qilib ham chiqazmasdingiz. Ketdim, yaxshi bo'ldi, siz baxt topdingiz, bolalik bo'ldingiz. Niyatim ham shu edi.

Agar men ketmaganimda sizga bu baxt qayoqda edi? Endi ko'nglim tinchidi. Niyatimga yetdim. Baxt muborak bo'lsin!

Yangi kelin paytlarimda yaxshi niyat qilib, bola ko'rsak kiydirarman deb ko'ylakchalar, qalpoqchalar tikkan edim. Ezilasiz deb sizdan yashirib tikkan edim. Menga ona bo'lish nasib bo'lmadi. Iltimos, shularni chaqaloqqa kiydiring.

Shu paytgacha shaharda edim, yaxshilik xabarini eshitib, tamoman xotirjam bo'ldim. Ertaga butunlay ketaman. Kim biladi, qayta uchrasholamizmi, yo'qmi?

Uydan chiqib ketayotganimda yetkazgan ozorlarim uchun afv eting. Sizga hamisha ehtirom bilan: E'tibor otli xotin"

Xatga Mutalning ko'z yoshlari to'kildi. *1959-yil*

TO'LQINLAR

Qishloq yo'liga burilganimda adir orqasidan qovun tilimidek oppoq oy ko'tarildi. Gullab yotgan o'riklar xira pardaga burkandi. Yo'l chetidan yangi nish urgan sarimsoq hidi keldi. Kovakni tark etgan ko'klam elchisi qurilladi. To'nkarilib qolgan tilla qo'ng'iz juda yaqinda dizillab-dizillab jim bo'ldi.

Ko'klam nafasi gurkirab turgan mana shu yo'llardan yurmaganimga o'n sakkiz yil bo'lgan. Bu orada qancha suvlar oqib ketdi... Qancha voqealar bo'lib o'tdi...

Yigitlar frontda jon olib, jon berayotgan og'ir kunlar edi. Dala ishlari ayollarga qolib ketgan, hammasi tajang, hammasi asabiy edi. Ularning intizor ko'zlari front yo'lida, qo'llari mehnatda, frontchilarni zoriqtirmaslik, dushmanni tezroq yakson qilish uchun tinimsiz ishlar edilar. Stalingrad ostonalaridagi janglarda dushmanning uchta tankini yondirgan qahramon O'sarboy Omonboyev oilasi haqida ocherk yozish uchun xuddi shu yo'ldan yurib qishloqqa kelgan edim.

Qishloq ancha fayzsiz bo'lib qolgan, yo'llar o'ydim-chuqur, ish hayvonlarining tinkasi qurigan, yemga yolchimagan sigirlar sutdan qolgan edi. Ayollar durustgina kiyinishmas, pardoz-andoz ko'ngillariga sig'masdi. Kimning qanaqaligi bilinib qolgan o'sha paytlarda urushga chap berib bormay qolgan erkak zoti ko'zlariga balo bo'lib ko'rinardi.

O'sarboyning xotini Jo'raxon eri frontga ketgan ayollardan bri- gada tuzib, yuqori hosil olishda butun oblastga ovoza bo'lgan yigirma besh yoshlardagi qora qosh, lo'ppi yuz, ko'krakdor, polvon ayol edi. O'sarboy qahramon unvoni olgan kunning ertasiga-yoq kelganimda bir voqeaning ustidan chiqqan edim. Jo'raxonning brigadasi ishlayotgan katta yo'l chetidagi terakka qizil etik kiygan xotinchalish bir yigit belidan hali kudungi buzilmagan sakkiztepki atlas bilan bog'lab qo'yilgan edi. Uning atrofini o'rab olgan xotinlar goh hiring-hiring kulishar, goh uni qarg'ashardi. Birov yigitning yuziga upa suradi, birov qoshiga o'sma qo'yadi.

Jo'raxon ikki qo'lini beliga qo'yib unga do'q urardi.

— Shunaqami? Urug'likka qolganmisiz? Bu xotinlarning erlari frontda o'q tagida yuribdi-ya, shularga ko'z olaytirdingmi? Ha, nomard! Hoy, Zebi, labiga qizil surt! Ishdan qaytishda shu ahvolda guzarga olib chiqamiz. Xaloyiq ko'rsin. Basharasiga tupursin. Qani, ish-ishingga jo'na hammang!

Xotinlar yigitni shu ahvolda qoldirib, chopiqqa tushib ketishdi. Shiyponga chiqayotganimizda Jo'raxondan bu yigitning gunohini surishtirdim.

— Zebiga aylanishib qopti. Shunday suqsurday eri borki, ko'rganning ko'zi tegadi. Tirnog'iga arzimaydi bu hebbim. Tushlikda Norin bo'yiga kel, sakkiztepki atlas sovg'a qilaman debdi. Ushlab oldik.

Jo'raxon bu gaplarni shunday g'azab bilan aytardiki, ko'zlari chaqnab, peshanalari tirishib ketardi.

— O'ziniyam shundog' do'pposladikki, qo'yib bersam xotinlar o'ldirib qo'yishadigan, zo'rg'a ajratib oldim. Eri omon-eson qaytib kelguncha birontasining ham sha'niga yomon gap yuqtirmayman. Issiqmi, sovuqmi hammamiz birga baham ko'ramiz, qaysi birining eridan xat-xabar uzoqsa, baravariga yupatamiz. Birga yig'laymiz,

birga kulamiz. Shuning uchun ham ishning og'irligi uncha bilinmay ketadi. Axir, bu bechoralarga ham qiyin, avji o'ynab-kuladigan payti...

To kolxoz mehmonxonasiga yetib borgunimcha mana shu voqea esimga tushdi. Hozir Jo'raxon ancha qarib qolgandir? O'sarboy urushdan eson-omon qaytib keldimikin?

Mehmonxona qorovuli hali suv quyilmagan hovuz oldida samovarga tarasha solayotgan edi. U yoshi yetmishlarga borib qolgan dilkash chol ekan, alla-pallagacha u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirdik. Gap orasida O'sarboyni surishtirdim.

— Omon-eson keldi. Hozir partkomimiz shu. Juda rejali, yaxshi bola. Bechora ish bilan ovunadi. Bo'lmasa allaqachon g'am yeb qo'yar edi uni. Shu vaqtgacha uylanmadi. Qandoq qilib ham uylanadi...

Cholning gaplariga tushunolmadim. U nima degani? Yo Jo'raxon uning kelishini kutmay, turmush qilib ketganmi, shundoq yigitning yuziga oyoq tirab-a?! Nahotki butun kolxoz ayollarini ko'z qorachig'idek asragan dono xotin unga bevafolik qilgan bo'lsa? Ishonmayman!

— Nima bo'ldi? Jo'raxon...

Nima deyishimni bilmay g'o'ldiradim. Chol boshini sarak-sarak qilib uh tortdi:

— Boyoqish Jo'raxon O'sarboy kelmasdan olti oy burun qazo qilgan edi...

Ikkovimiz ancha vaqtgacha jimib qoldik. Gullab yotgan shafto-li shoxiga osilgan elektr lampasiga o'zini urayotgan yorqanotlar dasturxon ustiga to'kiladi. Hovuz chetidan aylanib o'tgan sement ariqda to'lib oqayotgan bo'tana suv qirg'oqqa shaloplab uriladi. Chol choynakni etagiga o'rab, bag'riga bosganicha hamon jim edi. Ko'nglim allanechuk bo'lib ketdi. Jo'raxon haqida undan boshqa gap so'ramadim. So'rashga jur'at qilolmadim ham.

— Shunaqa, o'g'lim. Jo'raxon tenggi yo'q asl xotin edi. Xotinkishining qo'lidan shuncha ish kelishiga ana o'shanda ishonganmiz. Jamoa bamisoli bir xonadon-u, Jo'raxon uning onaxoni bo'ldi-qo'ydi. Qani, biron kishi uning yo'rig'idan chiqsa-chi. Kuni bilan dala kezadi, kechalari uyma-uy yurib, a'zolarning tirik-

chiligidan xabar oladi. Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi, deganlari rost ekan. Takasaltanglik qiladiganlarga ham qattiq gapirmadi. O'zi o'sha paytda hamma ham bir og'iz yaxshi gapning gadosi edi-da. Birini qizim dedi, birini singlim dedi. Ishqilib, hammani shirin so'z bilan ishga soldi. O'sarboydan surunkasiga yetti oy xat kelmay qo'ydi. Jo'raxonning yuzi kuladi-yu, ichi yig'laydi. Umri qisqa ekan, xatini ham, o'zini ham ko'rmay o'lib ketdi, boyoqish. Odamzodni ish ovutadi, bo'lmasa g'am yeb qo'yadi. O'sarboyga qarab turib ichim achishadi.

Urushni qarg'ayman. Nima qilsin, iloji qancha!

Chol gapini tugatib, ichkari kirib ketdi. So'rida gilam ustiga tanga-tanga bo'lib to'kilgan shaftoli gullariga qarab xayol suraman. Meni bu yerga boshlab kelgan narsa Jo'raxon haqida kitob yozish niyati edi. Urush yillari frontga madadkor bo'lgan ayollar haqida kitob yozmoqchi bo'lganimda, dastavval xotiramga Jo'raxon kelgan edi. Bu asl xotin haqida bironta kitob yozilmay turiboq, uning ajoyib hayoti dostonga aylanib ketganini ko'rdim. Uning jonli, hech qachon o'lmaydigan barhayot umri ko'z oldimdan hayajonli roman sahifalaridek birma-bir o'tardi.

— Mehmon, endi yoting, charchab kelgansiz, xo'roz ham ikkini chaqirdi. Baribir yotib uxlayolmadim. Ochiq derazadan oyning yarim o'rog'i mo'ralab, terakzor orqasiga botib ketdi. Kech shabadasi uy ichiga dimoqqa xush keladigan allaqanday giyohlarning isini olib keladi. Shaftolizorda sa'vaning goh fig'onli nolasi, goh shiddatkor chaqchaqi tinmaydi. Juda uzoqda, sokin kechaning tinchini buzib daryo shovullaydi.

Ertalab qorovul chol uyg'otganda kun yoyilib qolgan edi. Uzoq-yaqindan traktor shovqini eshitiladi. Qushlarning chug'urchug'uri avjda. Chol dasturxon qoqqan joyda musichalar ushoq talashib patillashadi. Tiniq osmonda bu qaynoq, farog'atli maskanni qo'riqlayotgandek laylak aylanadi. Uning oppoq qanotlari quyosh tig'ida dam qilichdek yaltirab, dam oq ipakdek tovlanadi.

— Hozir O'sarboy kelib qoladi. Ertalab shu yerda nonushta qilib, keyin dala aylanadi, — dedi chol yelib-yugurib choy damlarkan.

Sal fursat o'tmay, ikki kishi keldi. Ulardan qaysi biri O'sarboy ekanini darrov payqab oldim.

U hali yoshi ellikka bormay yuzini ajin bosgan, jikkakkina bir kishi edi. O'ng qo'lining bosh barmog'i sarg'ayganidan maxorka chekishini bilib olish qiyin emasdi. Nonushta paytida Jo'raxon haqida kitob yozmoqchiligimni aytdim. Jo'raxon nomini tilga olishim bilanoq O'sarboy yangilangan dardini yashirishga urinib, cholning qo'lidan choynakni olib, o'zi quya boshladi. Ko'zini yashirish, nima bilandir alaxsish uchun shunday qilayotgani sezilib turardi.

— Mayli, — dedi u oftobda jo'jalarini qanoti ostiga olib, hurpayib yotgan tovuqqa tikilib, — juda xursand bo'lamiz.

— Avval Jo'raxon opaning qabrlarini bir ziyorat qilsam degan edim...

O'sarboy g'alati holga tushdi. Uning bu holati, ko'z qarashlari, rangining goh bo'zarib, goh oqarishi Toshkentda bo'lgan bir voqeani eslatib qo'ydi. Tramvayda besh yoshlardagi bir bola yonimga o'tirib qolib, undan qayoqqa ketyapsan, deb so'ragan nimda, uydan detdomga ketyapman, degan edi. Ota-onang yo'qmi, deb so'radim. Bor, deb javob berdi bola. Bo'lmasa, dadang ham, onang ham seni yomon ko'rishar ekan-da, detdomga berishibdi, dedim. O'shanda bolaning ko'zi olazarak bo'lib qolgan, xuddi O'sarboyning holiga tushib, qiynalgan edi. Keyin u qiynala-qiynala past ovoz bilan "dadamlarning ham, oyimlarning ham ko'zlari ko'r" degan edi. Juda hijolat chekkan edim, shu murg'ak bola qalbini tirnab yotgan alamli faryodini tiliga chiqarishga majbur qilganim uchun hali-hali o'zimni kechirolmasdim. Yana nima qilib qo'ydim? Nahotki O'sarboyning ham ichida shunga o'xshash tilga chiqsa tilni, dilda qolsa dilni kuydiradigan faryodi bo'lsa?! Nima qilib qo'ydim?..

O'rtaga juda ham sovuq jimlik cho'kdi. Chol bir yutinib oldi. O'sarboy o'rnidan turib, hovuz bo'yiga borib maxorka o'radi. Cholning yupqa labi titrab, zo'rg'a: "Jo'raxonning qabri yo'q. U suvga cho'kib ketgan..." deya oldi.

Tushga yaqin chol bilan ikkovlon piyoda daryo tomon ketdik. Yo'lda u Jo'raxonning halokatini aytib bordi.

— O‘shanda adirdan sel kelgan edi. Chorvalar hali tog‘ga jo‘natilmagan, shu daryo chetidagi sayhonda o‘tlab yurgan edi. Sel juda xunuk keldi. Ko‘p daraxtni, uylarni nobud qildi. Qo‘y-qo‘zilarni oqizib keta boshladi. Suvda mol bilan echki durust suzar ekan. Qo‘y jonivor dumbasidan cho‘kib, o‘zini eplolmay qolarkan. Hamma oyoqqa turdi. Jo‘raxon jon olib, jon berib o‘zini suvga otar, hali qo‘y, hali qo‘zini oyog‘idan sudrab chiqardi. Kechasi, birov-birovni ko‘rmaydi. Yomg‘ir savalab turibdi. Birdan cho‘pon ota suvning o‘rtasida goh ko‘rinib, goh cho‘kib, qo‘l silkita boshladi. Jo‘raxon o‘sha tomonga suzib ketdi. Chaqmoq nurida daryo o‘rtasida uning ko‘ylagini bir ko‘rib qolganimni bilaman, xolos. Yana chaqmoq chaqqanda daryo betida hech narsa ko‘rinmay qoldi. To‘lqin cho‘pon otani narigi qirg‘oqqa irg‘itib tashlabdi. Bir haftagacha qayiq bilan Jo‘raxonning jasadini qidirdik. Topilmadi... Hammamizni dog‘i hasratda qoldirib ketdi.

Adir oshishimiz bilanoq, daryo shamoli esdi. Qirg‘oqqa yaqin kelganimizda xarsang ustida maxorka chekib o‘tirgan O‘sarboyni ko‘rdim. Uning gavdasi kichrayib, yuzidagi ajinlari ko‘payib ketganga o‘xshadi. Hech birimizdan sado chiqmasdi.

Daryo juda sokin. Jo‘raxon azim daryoga aylangan-u, mehnati singgan, peshana teri to‘kilgan dalalar atrofida javlon urib aylanardi. U yuzlab irmoqlardan qon tomiridek oqib, kishilarga, maysagiyohlarga hayot suvi olib kelardi.

Adirdan terib kelgan lolalarni to‘lqinlar ustiga sochdim.

Daryo shovullar, tiniq, beg‘ubor ko‘kda qushlar javlon urib uchishardi.

1960-yil

O‘N SAKKIZ YOSHING

Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakkiz yoshindadir,
O‘n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadir.
Navoiy

O‘n sakkizga kirgan odamning ko‘ziga olam jilva qiladi. Kamalakning yetti rangidan yetmish ming rang yasaydi. Echkining

yoqimsiz ma’rashi ham qulog‘iga bulbul navosi bo‘lib kiradi. Yulduzlarga qo‘li yetadi, tubsiz ummonlar tizzasidan keladi.

O‘n sakkizga kirmabsiz, dunyoga kelmabsiz!

Mana, o‘n sakkizga kirganlardan biri kattakon terak tagida xayolchan turibdi. U hali shu yoshga yetib og‘ziga ichkilik degan narsani olmagan. Ammo qip-qizil mast. Ovozi do‘rillaydi, husnbuzar toshgan yuzlarida bir chiroyli xayol izlari bor. Mana shu bolaning o‘n sakkizga kirganiga bugun roppa-rosa to‘rt oy bo‘ldi. Shu yoshga kirdi-yu, shunaqa xayolchan, bo‘lar-bo‘lmasga xo‘rsinadigan, kechasi oyga qarab o‘zicha she’r to‘qiydigan bo‘lib qoldi.

Keksalar! Siz ham shu yoshingizni eslang!

Qishda sarimsoqpiyoz yegan odamning og‘zidan ko‘klam jalasi quyib o‘tgan terakzorning isi keladi. Siz ham bolaligingizni eslasangiz unutilgan muhabbat yana tug‘yonga keladi. Mana shu xo‘rsinib turgan, yuziga husnbuzar toshgan yigit sizsiz, shu sizning o‘n sakkiz yoshingiz.

Yigitcha xo‘rsinib turgan ko‘chaning bu betida baland imorat bor. Ikkinchi qavatning balkonida yaqinda o‘n sakkizga kirgan bir qiz kaftini iyagiga tirab o‘tiribdi. O‘zi uncha chiroyli emas, ammo o‘n sakkizga kirgan qizning xunugi bo‘lmaydi, buni bilasiz. Bechora qiz kelin ayasining pardoz qutisini titkilab yo‘lakda yuziga upa surtayotganida akasi kelib qolib bir tarsaki yeganidan, yonidan bir juft kino bileti chiqib qolib gap topib berolmay dovdiraganidan uning necha yoshga kirganini bilib turgandirsiz. Bunaqa ish o‘n sakkizga kirgan qiz bolaning qo‘lidan keladi.

E, ayajonlar! Ko‘chadan kuyovnavkar o‘tsa qavib turgan ko‘rpangizni supada qoldirib devordan qaraydigan buvijonlar, ha, nima, o‘n sakkizga kirmay hatlab o‘tib ketmagandirsiz. Kulmang, o‘zlaringiz ham xuddi shunaqa bo‘lgansiz. Yig‘lagansiz, kulgansiz, xo‘rsingansiz, do‘rillagan ovoz eshitganingizda yuragingizda ot o‘ynagan.

Yo‘l o‘rtasida ezmalanib gaplashib kelayotgan ikki keksa o‘tib ketgandan keyin, yigit jadal yurib balkon tagiga keldi. Uning sharpasini sezgan qiz barmog‘ini lablari ustiga ko‘ndalang qo‘yib qoshlarini kerdi-da, chiroqni o‘chirib g‘oyib bo‘ldi. Zum o‘tmay, u yigit oldida paydo bo‘ldi. Hamma yoqni atir hidi tutib ketdi.

Ikkovi indashmay yo'l yoqalab ketaverishdi. Anhor tomonga burilishayotganda qiz majnuntolning osilib yotgan novdasidan barglarni qisimida sidirib oldi-da, yigitning ustidan sochib yubordi. Yigit undan qasdini olmoqchi bo'lib intilgan edi, qochdi. Ko'prikka yetmay yigit uni tutib, bag'riga bosib, o'pib-o'pib oldi. Qiz uning quchog'idan yulqinib chiqib, katta xarsangga o'tirib qoldi.

— Shunaqasan-da, Anvar, — dedi qiz undan o'pkalagandek kulib.

Anvar unga yaqin kelishga yuragi dov bermay sal nariroqda hansirab turardi.

— Bo'ldi, endi, — dedi qiz jiddiy ohangda. — Endi nima qilamiz. Juda boshim qotdi-ku. Aytdim-ku, sen bilan mendan kinoartisti chiqmaydi, deb.

Anvar qo'l siltadi.

— Ko'risholmaydi, rejissorining gapini qara, ilm kerak, deydi. Nima o'ninchini bekorga bitirib qo'yibmizmi? Rolni bersin-u, o'ynaganimizni tomosha qilaversin. Mayli, kimligimni ularga ko'rsatib qo'yaman. Qurilishga boraman. Sen nima qilasan? Senga nima, sendan artist chiqadi. Sal kunda xizmat ko'rsatgan artist Umidaxonim Boltayeva bo'lib ketasan.

Umida sharaqlab kulib yubordi.

— E, omon bo'l-e, bo'lmadi. Arizamning ustiga bo'lmaydi, degan rezolutsiya qo'yib qaytib berishdi. Xayr, alvido, kino ekrani! To'qimachilik kombinatiga ishga kiraman. O'sha yerda havaskorlar to'garagidan o'sib chiqaman.

Ular goh kuyinib, goh kulishib ancha paytgacha anhor yoqalab aylanib yurishdi.

Anvar bilan Umida bir partada o'n yil yonma-yon o'tirib o'qishdi. Shu o'n yil ichida ozmuncha xayol surishmadi. Anvar kuniga bir kasb tanlardi. Goh uchuvchi, goh mashhur artist, goh diplomat bo'lib dunyo kezardi. Mana bugun hammasi chippakka chiqdi-ketdi. Umida bo'lsa qaysi jurnalda kinoartistlarning surati chiqsa qirqib olar, hind qizlariga o'xshayman, deb ikki qoshining o'rtasiga xol qo'yib, kapron sharfga piston qadab kunora suratga tushardi. Uni ham kinoga olishmadi.

Beqaror, beqo'nim yoshlik ularni ne ko'ylarga solmadi.

Bu kecha ham ularning maslahati pishmadi. Ertaga yana shu yerda uchrashishga ahd qilib ajralishdi. Yana o'sha ko'cha betidagi balkonning chirog'i yondi. Yana o'sha xayolchan o'tirish...

Anvar bo'lsa mast odamdek kalovlab sanqib uyiga qaytdi. O'rniga yotib ko'zi ilinmadi. Umidaning yuzi ekranda kattakon bo'lib ko'rinaverdi. U go'yo bu yoqqa kel, deb uni ekranga chaqirayotganga o'xshayverdi. Oxiri xayoli tushga ulanib ketdi.

Ikkovi o'ynagan rangli kino qo'yilayotgan emish. Zalda o'tirganlar bir ekrandagi Anvarga, bir zalda o'tirgan Anvarga qarab qanday baxtli odam ekan-a, deyishayotgan emish. Kino tugagandan keyin ularning har ikkovini ham tomoshabinlar o'rab olib chapak chalisharmish. Bir tomoshabin xuddi uning qulog'i tagida juda ham qattiq chapak chalar emish. Anvar uyg'onib ketib qarasa, u yotgan karavotning bosh tomoniga qo'nib olgan xo'roz qanot qoqib endi qichqiraman, deb turgan ekan.

Anvar tushni bo'lgan xo'rozning oyog'idan ushlab uloqtirdi. Baribir xo'roz ariq labida turib uni masxara qilgandek yana qichqirib yubordi.

To'kilgan olmalarni terib yurgan ichkuyov pochchasi piching qildi:

— Yotaverasizmi, xalq artisti. Boshingizga oftob kelib qoldi-ku, ishlar nima bo'ldi? Qabul qilishmaganga o'xshaydi. Yaxshisi, yuring men bilan, ekspeditsiyaga olib ketay. Ikki yil mening partiyamda ishlab, keyin institutga kirasiz.

Anvar pochchasining ishini yomon ko'rardi. Shu ham ish bo'ldimi, cho'l-u biyobonlarda tuproq kovlab, eski imoratlarning qoldig'ini topish. Bu ishda qahramon bo'lish qiyin. Bo'lsa pochchasi bo'lardi. Ming yil oldingi tangalarni, ko'zachalarni topgan. Nimasi qiziq! Kosmonavt bo'lsa boshqa gap. Bir marta osmonga chiqib orbitani aylansa bo'ldi, yerga tushishi bilan Oltin Yulduz tayyor. Ammo kosmonavt bo'lish uchun matematikani, fizikani yaxshi bilish kerak. Anvar har ikkalasidan ham zo'rg'a uchga ilingan. Undan tashqari, Anvarning bo'yi uzun, novcha. Kabinaga sig'maydi, sig'ganda ham ikki bukilib o'tirish kerak.

Bola bechora ming xil o'ylar bilan tentib qurilish maydoniga kelib qolibdi. Hamma yoq chang, shovqin. Samosvallar u yoqdan bu yoqqa vag'illab o'tib turibdi. Sharaqlatib shag'al to'kadi, qayerdadir qaldirab beton qoradigan mashina aylanadi. Birpasdayoq Anvarning boshi aylanib ketdi. Kimdir: "Qoch, e, bola", — dedi. Anvar o'girilib qarasa, sement devorni xartumida ko'tarayotgan bahaybat kranning tagiga kelib qolgan ekan. U chetga chiqib kran boshqarayotgan kishining harakatlarini kuzatib turdi. Kran xartumi devorni havolatib oborib uchinchi qavat tomining qirg'og'iga qo'ndirdi. Devor qo'ngan joyda elektr payvandlari chaqnadi. Anvar angrayganicha turib qoldi. Kranchi Anvarga qarab nimadir dedi. Anvar u nima deyotganini tushunmadi. U ikki barmog'ini labiga qo'yib nafasini ichiga tortib ko'rsatdi-da, nimanidir unga irg'itdi. Keyin u do'ng orqasidagi avtolavkani ko'rsatdi. Anvar u tashlagan narsani olib qarasa "Belomor"ning pachkasiga o'rab tashlangan pul ekan. Anvar darrov tushundi-yu, papiros olgani do'konga qarab chopdi. U qaytib kelganda kranchi yana bitta devorni qo'ndirib bo'lgan ekan. Anvar unga papirosni ko'rsatgan edi, u bu yoqqa chiq, deb imladi. Anvar shoshib temir pillapoyalarga tarmashib chiqa boshladi.

Kran pastdan uncha baland ko'rinmagan edi. U to kranchining oldiga chiqqunicha naq qora terga botib ketdi. Birdan muzdek shamol esib uning bahri dilini ochib yubordi. Papirosni egasiga berib atrofga qaradi. Hamma yoq ko'rinib turibdi. Shahar chetidagi imoratlar xuddi tuman orasidan ko'rinayotganga o'xshaydi. Hamma yoq imorat, imorat. Uzoqda ko'm-ko'k daraxtlar orqasidan Komsomol ko'li oynadek bo'lib yaltirab turibdi. Kranning qoq belida Anvarning shundoq tagginasida bir gala kaptar pildirab uchadi.

Kranchi papirosni o't oldirib bir-ikki marta to'yib-to'yib tortdi-da, Anvarga qaradi.

— Rahmat, akasi, zap ish qilding-da, juda xumor bo'lib turgan edim. Anvar unga ma'noli iljayib qo'ydi.

— O'qiysanmi, ishlaysanmi? — dedi kranchi pastga, xartum ilgagiga sement qorishmasi solingan temir tosni ilayotganlardan ko'z uzmay.

— Ishlamayman ham, o'qimayman ham. O'qishni bitirdim, endi ishlamoqchiman.

— Menga shogird tushmaysanmi? — dedi u qorishmani to'rtinchi qavati bitmagan bino tepasidan aylantirib o'tib yangi poydevor qo'yayotganlarning oldiga tushirarkan.

Anvar nima deyishni bilmay o'ylanib qoldi.

— Yo kosmonavt bo'lmoqchimisan? Hozir hamma yoshlar kosmonavt bo'lishni mo'ljallashyapti. Ke, sen bilan biz o'sha kosmonavtlarga uy quraylik, nima deysan!

Anvar mundoq qarasa, kranchilik ham g'alati ishga o'xshaydi. Birdan unda kranchi bo'lish orzusi tug'ildi. Yoshlik shunaqa bo'ladi. To bir kasbning boshini tutguncha o'zini u yoqdan bu yoqqa uraveradi. O'n sakkiz yosh ana shu beqarorlikning marrasi — oxiri bo'ladi.

— Rost aytyapman, shogird tushsang, sal kunda kranchi qilib qo'yaman. Mana shu kran ikkovimizniki bo'ladi. Bilasanmi, bu kran bilan respublikani aylanib chiqqanman. Bu yog'iga ikkovimiz ishlaymiz. Qarab tursam, yaxshi bolaga o'xshaysan. Xo'sh, nima deysan?

Anvar "bo'pti" deb yuborganini bilmay qoldi. Tamom! Anvarning bolaligi bitdi!

— Hali obedda kontoraga birga boramiz, o'sha yerda ishni bitkazamiz. Hozir uyingga borib hujjatlaringni olib kel. Ana, endi menga xalaqit berma. Texnika xavfsizligining inspektori ko'rib qolsa boshim baloga qoladi.

Anvar pildiraganicha pastga tushib ketdi. Yana o'sha anhor bo'yi.

Yana o'sha sichqon teshgan elakdek oy. Yulduzlar kuygan qozon tagidek jimir-jimir qilib turishibdi. Anhor shaloplab qirg'oqqa sapchiydi. Oy aksini maydalab oqizib ketmoqchi, majnuntol novdalariga osilib bir dam to'xtamoqchi bo'ladi-yu, eplolmaydi. Xarsangtosh ustida oyog'ini suvga botirib Umida o'tiribdi. Anvar hovliqib-hovliqib gapiradi.

— Bilasanmi, bilasanmi, dunyoda kranchilikdek qoyil ish yo'q. Shundoq tepasiga chiqib qarasang, dunyoning narigi chekkasi ham ko'rinadi. Men o'sha yerdan turib sizlarning tomlaringizni

ko'rdim. Ko'llar, bog'lar, imoratlar... Bitta samolyot xuddi-xuddi oyog'imning tagidan o'tib ketdi.

Umida ko'zlarini katta-katta ochib unga qarab turibdi. Choy qog'ozini burdalab tashlagandek oy tangalari suv betida milt-milt oqadi. Katta ko'prik ustidan o'tayotgan mashina chiroqlarining aksi xuddi suvga bir sho'ng'ib olgandek narigi qirg'oqqa yetmay so'nadi.

Qiz yigitning gaplariga chidamay ketdi.

— Kombinatga borganmisan, o'zing. Kombinatning qanaqaligini bilasanmi, o'zing. Voy bo'... Men tengi qiz bir yuz o'n ikkita dastgohni yurityapti. Qirq ming odam ishlaydi. Kranni gapirasan-a. Kraning nima bo'pti, bu dastgohlarning oldida. Kombinatda bir yilda chiqadigan matoni yer shariga o'rasang yerning ochiq joyi qolmaydi. Kranlaring-u jamiki qurilishlaringni o'rab tashlaydi.

Anvar ham bo'sh kelmadi. U kranchini maqtayverib oxiri gap topolmay qoldi. Ammo Umida kombinatda ko'rganlarini gapirib tugatolmasdi.

Anvar mundoq qarasa, Umida labiga qizil surtganga o'xshaydi. Tikilib ko'rsa, rost.

— Bu nima, yangi kalishning ichidek qip-qizil qilib.

Umida piq etib kulib yubordi. Uning bu kulgisidan: sen uchun, sen uchun tentak, degan ma'no barq urib turardi.

Shu kecha ularning xayoliga kinoartist bo'lish degan gap kelmadi. Har ikkovi ham yangidan tanlagan kasblarini tildan qo'ymasdilar.

O'n sakkiz yosh shunaqa bo'ladi. Go'daklik xayollari yaratgan orzularini tumandek tarqatib, yangi orzular yaratadi. Yaratadi-yu, uni haqiqatga aylantiradi.

Ajab emas, endi bu ikki o'smir kino ekranlarida artist bo'lib emas, artistlar bular bo'lib ko'rinsa.

O'n sakkizga kirmabsiz, dunyoga kelmabsiz!

1965-yil

ZUMRAD

Azizaning bu yerga kelganiga endi bir hafta bo'ldi. U yo'lga chiqayotganida, o'zim ham bir dam olib kelarman, deb o'ylagan edi. Dam olish qayoqda, vaqtida ovqat yeyishga ham qo'l tegmaydi.

Bunda ikki yuzdan ortiq bola dam oladi. Biri cho'milib shamollasa, boshqasi parmanchak teraman deb oyoq-qo'lini timdalatib keladi. Bularning hammasi vrachga tashvish. Ayniqsa, futbol degan narsaga bolalarning o'chligini aytmaysizmi. Ishqilib, kunigani-tepishgan.

Bolalar-ku, mayligaya, kuniga savat-savat narsa tashib, uzoqyaqindan keladigan ota-onalarning xarxashasini aytmaysizmi!

Aziza ovqat olib kelgan ota-onalarni lager ichiga kiritilmaslik masalasida boshliq bilan bir necha marta urishib ham oldi.

— Bunaqada bolalar dam olish u yoqda qolib, qaytaga kasal orttirib ketishadi-ku.

Uning bu gapiga boshliq yelka qisib, chorasizligini bildirdi.

— Qandoq qilamiz, eng kamida sakson kilometr yo'l bosib kelsa-yu, bolasini ko'rolmay ketsa, yaxshimas-da, doktor.

Albatta, boshliqning gapida ham jon bor. Ammo Aziza ularning dardga chalinib qolish xavfidan bezovta. Mana, eshik oldida velosiped ruliga savat ilgan o'rta yashar bir kishi hansirab turibdi. Aziza uni lager ichiga kiritmadi. Hozir derazadan unga qarab turarkan, birdan rahmi keldi.

Bechora sakson kilometrli tog' yo'lidan velosipedda kelibdi. Yana shuncha yo'l bosib qaytib ketishi kerak. Terga botib ketibdi. Uning ahvolini ko'rib chidab turolmadi. Oldiga chiqdi:

— Nima qilardingiz, axir, bola sizni ko'rib uyiga ketgisi keladi.

Bu ovqatlarni ham chakki olib kelibsiz.

U xijolat chekkandek javdirab qaradi.

— Endi singlim, shu bittagina bolamiz... Onasi yig'lab esi ketyapti.

Men-ku chidayapman...

Azizaning ham bolasi birgina. Bordi-yu, u ham olisda bo'lsa qay ahvolga tusharkin, ehtimol, bundan ham uzoq yo'lni piyoda bosib kelarmidi. Birdan Azizaning ko'ngli yumshab, jilmaydi.

— Mayli, bitta shart, opkelgan ovqatlarni bermaysiz. O'zi bilan bemalol to'yib gaplasha qoling.

Aziza uni boshlab ichkariga olib kirdi-da, bolani chaqirib kelish uchun odam yubordi.

Ichkaridan bolalarning qiy-chuvi eshitilib turibdi. Trusichan qora-qura bolalar u yoqdan bu yoqqa bir-birini quvlashib yurishipti. Tanasiga ohak surtilgan daraxtlar orasidan chodirlar, fanerdan qirqib ishlangan fil, tuya, sherlar ko'rinib turibdi.

Ko'zlari qisiqqina qizcha xuddi eshik tagida boyagi kishining tizzasiga o'tirib olib nimalardir deb javrayapti. Dadasi unga qarab yayrab iljayadi. Uning basharasi xuddi erib ketayotganga o'xshaydi. Sertomir qo'llari bilan qizchaning sochini silaydi, tinmay peshanasidan o'padi.

Aziza unga qarab o'tirib juda zavqlanib ketdi. Derazaga bag'rini berib, undan ko'z uzolmay qoldi. Dadasi qizga ikki plitka shokolad berdi. Qiz doktorxona tomonga bir qarab oldi-da, shoshib ro'molchasiga o'rab, orqasiga berkitdi. Aziza uning qilig'idan iljayib qo'ydi.

Eshik taqilladi. Aziza to o'girilib qaraguncha, eshik ochilib, o'ttiz besh yoshlardagi bir juvon kirdi.

— Doktor, mumkinmi? — ayol qimtinib unga yaqinlashdi.

— Nima gap, tinchlikmi?

— Tinchlik, o'g'lim ikki-uch kundan beri bot-bot isitmalab qo'yadi.

Nimaligini bilolmayapman. Bir ko'rib qo'ying, baraka topkur.

Aziza bu juvonning shu atrofda yashaydiganlardan ekanini darrov bildi.

— Ambulatoriyaga bormadingizmi? Axir, men lagerdagi bolalarga qarayman.

Juvon bir muddat indamay turib qoldi-da, yalingan ohangda dedi:

— O'zingiz ko'rib qo'ya qoling. Uyimiz uncha uzoq emas. Ambulatoriyaga borish qiyin, o'n ikki kilometr yurish kerak.

Aziza noiloj qoldi, kiyinib, u bilan boshlashib tashqariga chiqdi.

Boyagi kishi hamon qizchasining boshini silab o'tirar edi.

— Doktor, kelasi gal oyisini olib kelsam, maylimi, — dedi u Azizaga o'girilib. Aziza kulib bosh irg'ab qo'ydi.

... Juvon oldinda so'qmoqdan yo'l boshlab borardi. Aziza uning orqasidan qarab borarkan, bu juvonni qayda ko'rganman, deb o'ylardi.

So'qmoq yuqoriga ko'tarila boshladi. Juvon oyoq izi tushaverib tekislanib ketgan kattakon xarsangga chiqib Azizaga qo'l uzatdi.

Shunda Aziza uning ikki qoshi orasidagi juda ham kelishgan chiziqqa ko'zi tushdi. Endi tanidi. Bu bir vaqtlar o'z raqslari bilan tomoshabinlarni maftun qilgan Zumrad edi. Nima bo'ldi? Bu tomonlarda u nima qilib yuribdi? O'sha davrdagi qiyofasidan ikki qoshining orasidagi chiroyli chizig'-u kulganda yoyilib ketadigan o'ng betidagi kuldirgichi qolipti, xolos. Rostdan o'shamikin?

Juvon uni qo'lidan tortib, oldinga o'tkazib oldi.

— Yo'q, yo'q, men ketingizda yuraman. Qomatingiz juda chiroyli ekan, tamosha qilib ketaman.

Juvon xandon tashlab kulib yubordi. Uning oppoq sadafdek tishlari yuzlarini yashnatib yubordi.

Bo'ldi. Bu o'sha Zumradning o'zi. Azizaning ko'ziga bundan besh yillar oldin Zumradning televizordagi o'yini ko'rinib ketdi. O'sha o'yin uning oxirgi o'yini bo'lsa kerak. Shundan keyin Zumrad butunlay ko'rinmay ketgandi.

O'sha paytlarda Aziza medinstitutni endigina bitirib, aspirantura harakatida edi. U aspiranturaga kira olmadi. Bekorga ikki oy umri o'tib ketdi. Ministrlikning taqsimotidan ham tushib qoldi. Uning ustiga, Hakimjonning kimligi ma'lum bo'ldi. Ikki yil qalbida e'zozlangan muhabbat hislari uni aldadi. Hakimjon u bilan hamkurs, kelishgan, qora qosh, qora ko'z yigit edi. Bir-birlarini yaxshi ko'rishardi. Institutni bitirib, to'y qilishmoqchi edi. Diplomlar qo'lga teggandan keyin Hakimjon butunlay boshqa odam bo'ldi-qo'ydi. Qo'lida vrachlik diplomi bo'la turib, eski kasbini qilib, allaqaysi poliklinikaga tish texnigi bo'lib joylashib oldi. Aziza ko'p o'ylardi. O'ylagan sari Hakimjon undan nari ketardi.

U ertangi kunini ko'z oldiga keltirishga urinardi. Ammo ertasi Hakimjonsiz bo'lib ko'rinardi.

Nimalar bo'lyapti, deb o'zidan so'rayolmasdi Aziza. Ammo shu xayollar orasida Hakimjonning qop-qora ko'zlari bir yalt etardi-yu, uning qalbini bir dam yoritib, butun vujudiga hokim bo'lib olardi.

Aziza o'yladi, o'yladi, bu o'ylarning oxiri shu bo'ldiki, qanchalik qiyin bo'lmasin, uni yurakdan sidirib tashlash kerak, degan xulosaga keldi.

Hakimjon endi u bilan juda beparvo gaplashar, hissiz, hayajonsiz, o'lik gaplar bilan uning vaqtini olardi. Shunday uchrashuvlarning birida Aziza unga endi uchrashmaylik, yo'limiz boshqa-boshqaga o'xshaydi, dedi.

Bu gap Hakimjonga uncha malol kelmadi. Go'yo bu gapni u ko'pdan kutayotgandek:

— Ixtiyor o'zingda, ammo bilib qo'y, bir kun pushaymon bo'lib yurma, — dedi.

Aziza uning yuziga tik qaradi:

— Hech qachon!

Ana shundan keyin oralarida hech narsa qolmadi. To'rt oydan keyin uning uylanganini eshitgan Aziza bir seskangandek bo'ldi. Shu paytgacha yuragining bir chetida Hakimjon o'chayotgan cho'g'dek goh yilt etib, goh so'nib turardi. Endi bu cho'g'ning yuzini butunlay kul bosgandek bo'ldi. Ammo biron bahona bo'lib birinchi muhabbat esiga kelganda, Aziza bekor ketgan hislariga achinardi-yu, Hakimjonning ko'zlari olovdek chaqnab, vujudining bir chetini jiz etib kuydirib qo'yardi.

U kunlar o'tib ketdi. Aziza chinakam muhabbatini topgan, shu muhabbat hislari bilan endi u baxtiyor edi.

Zumradning sadaf tishlari Azizani bir nafas bo'lsa ham bolalik ko'chalariga sudragandek bo'ldi.

Tepalikka chiqquncha Aziza charchab qoldi. Ikkovlari ko'katga o'tirishdi. U juvonning atrofini ajin o'ray boshlagan ko'zlaridan ko'zini uzmasdi.

Qanday chiroyli qiz edi-ya. Husn ham shunchalik tez tugarkanmi?

Bir vaqtlar husni, san'ati bilan hammani lol qilgan qiz qandaydir ayanch bir ahvolda Azizaning qarshisida o'tirardi. Uning egnida rangi o'chib, gullari bilib bo'lmaydigan holga kelgan krepdeshin ko'ylak, oyog'ida allaqachon modadan qolgan qora tufli, boshida durracha.

Qandoq kiyinardi-ya! Studentlar yotog'idagi qizlar faqat uning kiyimlarini gapirishardi, gazetadan andaza qirqib, jo'n matolardan unikiga o'xshagan ko'ylak tikishardi.

Juvon o'rnidan turdi. G'irillab esayotgan shabada ko'ylaklarini tortqilab, etaklarini beliga o'rab tashladi. Hali ham uning qomati o'shanday nozik, allaqanday yoshlik tarovatini ufurib turardi.

Yo'lga tushishdi. Pastliklardagi archazor orasidan dam olish uylarining korpuslari, baland cho'qqilarda erigan shamdek osilib qolgan qor uyumlari ko'rinib turardi. Pastda asfalt tasmasidan yugurgan qizil, ko'k avtobuslar bolalarning o'yinchog'idek bo'lib ko'zga tashlanardi.

Ular so'qmoqdan oshib, kenggina yo'lga chiqib olishdi. Sal o'tmay, tog' qishlog'ining obodgina guzari ko'rindi.

— Yetdik, — dedi u. — Hu, anovi qayrog'ochning tagi bizniki.

Guzarda bir-ikki magazin, choyxona, avtobus stansiyasi, sartaroshxona bor edi.

— Shoshmang, — dedi Aziza to'xtab. — Sizdan bir narsani so'ramoqchi edim, siz Zumradxon emasmisiz?

U bosh irg'ab qo'ydi. Ammo bu savol ko'ngliga og'irroq botdimi, yo biror ko'ngilsiz voqeani eslatib qo'ydimi, jadal yurib oldinga o'tib oldi-da, unga qaramay dedi:

— Ha, o'sha Zumradman. Mana, keldik.

Uning ovozida qandaydir alamli titrash bor edi.

Bir tavaqali eshikdan kenggina hovliga kirishdi. Uy bilan ayvon poydevori tog' qishloqlariga xos xarsangdan ko'tarilgan bo'lib, devorning narigi tomoniga qarab o'sgan keksa tutning ildizlari ochilib yotardi. Aziza tomirini sel yuvib ketgan bo'lsa kerak, deb o'yladi.

Tandirga o't qalayotgan kampir tutayotgan kosovining uchini ariqqa tiqib, chetga tashladi-da, ularning istiqboliga chiqdi.

— Keldingizmi, aylanay. Erkinjon endi uxladi.

Ayvondagi kichkinagina pashshaxonada bola uxlardi. Aziza pashshaxonaning chetini ko'tarib, bolaning peshanasini ushlab ko'rdi: sal isitmasi bor.

Bolaning yuz tuzilishlari, qop-qora qoshlari uning ko'ksiga nayzadek sanchilgandek bo'ldi. Kim bu? Bu kimning bolasi?

Zumrad tut tagidagi salqin supaga joy qilib bo'lgan edi. Aziza hardamxayollik bilan supaga keldi. U Zumradning qandaydir mahzun qiyofasiga tikilar ekan, hayajonini yashirolmadi.

— Menga qarang, bu yerlarda nima qilib yuribsiz. Axir, siz poytaxt yigitlarining orzusi edingiz. Nima bo'ldi?

Zumrad ko'zlarini bir nuqtaga tikib turib qoldi. Kipriklari orasida nimadir milt-milt qilib turardi. U ko'zini yashirdi-da, durrachasining uchi bilan artib oldi. Zo'r bilan iljaydi.

— Peshana ekan. Taqdir o'yini kimlarni sarson qilmagan.

Kampir tandirdan uzilgan bir savat nonni supa chetiga qo'yib ketdi. Zumrad cho'g' ushlagandek chaqqonlik bilan to'rtta kulchani dasturxonga olib qo'ydi.

— Ayting, Zumrad, nima bo'ldi? — deya yana savolini takrorladi Aziza. Choy ustida Zumrad boshidan o'tganlarini gapirib berdi:

— Hamma balo bitta oziq tishim og'rishidan boshlangan. Indoneziyadan kelgan mehmonlarga konsert berishimiz kerak edi. O'sha kuni ertalab tursam, tishim zirqirab og'riyapti. Bir kun avval parkda muzqaymoq yegan edim. Og'riq zo'rayganidan zo'rayib, bir yoq yuzim piyoladek shishib chiqipti. Nima qilishimni bilmayman. Poliklinikaga qarab chopdim. Yoshgina, kelishgan gina tish doktori jag'imni ochib qarab, shish paytida sug'urib bo'lmaydi, deb dori surib qo'ydi. Og'riq azobida uyimga ketyapman-u, doktorning qop-qora qoshlari xayolimdan ketmaydi. Kechqurun bo'ladigan konsert ham ko'zimga ko'rinmay, ko'rpaga burkanib yotib oldim. Hali ham doktorning qosh-ko'zi shundoqqina ko'rinib turibdi. Yana oldiga bordim. Yana dori qo'yib, yana ertaga keling, dedi. Hozir esimda yo'q, tishimni sug'urgandan oldinmi parkka bordik. Shu-shu bo'ldi-yu, har kuni uchrashadigan bo'lib qoldik. U har konsertimizga kelardi. Oldingi qatorga o'tirib, mening chiqishimni kutardi. Men o'shanda faqat unga o'ynab

berayotgandek butun kuchimni, san'atimni sarf qilib o'ynardim. Tomoshadan keyin birga ketardik. Uyimgacha kuzatib qo'yardi. Bir kuni sahnada o'ynab turibman-u, zaldan uni qidiraman. Yo'q. Kelmapti. Bunaqa odati yo'q edi-ku, deb tashvish qilaman. Qanday qilib o'yinni tamom qilganimni bilmadim. Sahna orqasidan chiqib kelayotsam, chiroylikkina bir qiz ro'molga o'ralib turibdi. To'xtadim.

Qiz botinqiramay oldimga keldi-da, titroq tovushda dedi:

— Baxtimga g'ov bo'lmang. Hakimjon akamni men sevaman.

Avvaliga hech narsa tushunmadim. Keyin birdan badanim muzlab qolgandek bo'ldi.

O'sha kuni uyga qandoq yetib borganimni bilmayman. Ertangi konsertda birinchi raqsni juda ham yomon o'ynadim. Bir-ikki odam irimiga chapak chalgandek bo'ldi. Bir mahal qarasam, ikkinchi qatorning chetrog'ida Hakimjon o'tiribdi. Bilmadim, qayerdan kuch paydo bo'ldi. Bir o'ynab ketdim. Chapak ustiga chapak. To'rt marta o'ynatishdi. Chiqib ketayotganimda Hakimjon yo'limni to'sdi. Indamay o'tib ketaverdim. Bir nima deyishga tilim yo'q. Uni ham haydagim, ham chaqirgim keladi. O'zimni qo'lga olib, endi uchrashmaylik, sizni boshqa odam sevarkan, dedim. Hakimjon xandon tashlab kuladi. Hadeb, voy tentak qiz-e, voy ahmoq qiz-e, deb hiringlayverdi. Ana shundan keyin turmush qurdik. Boshida yaxshi yashadik. Keyin meni teatrga yubormay qo'ydi, chidadim. Uni jonimdan ham yaxshi ko'rardim. Nima desa tayyor edim. U ko'p ishlar, ko'p pul topardi. Bir bola ko'rdim. Erim har yoz shu Osmasoyda do'kon ochadi. Atrofda dam olish uylari ko'p bo'lganidan tish oldirib, tish soldiradiganlarning keti uzilmaydi.

Tish soldirish bahonasi bilan bir juvonga ilakishib qoldi. Har kecha do'konda qolib uning tishini kovlaydi. Axiri, u bilan ketdi. Bitta bolam bilan yo'l poylab o'tiribman. Kim biladi, birovning baxtiga chang solganim uchun taqdir meni jazolayaptimi? Yolg'izlik jonimga tegdi. Men muhabbatga o'zimni qurbon qilmoqchi edim. Yo'q, bo'lmadi. Qars ikki qo'ldan chiqar ekan. Endi yana teatrga qaytmoqchiman...

Bola uyg'onib, onasini chaqirdi. Zumrad shoshib zinadan tushdi-yu, ayvonga qarab chopdi. Chopayotganida sochlarining to'lqin

urishi biram chiroyli, biram o'ziga yarashiqli. Aziza piyoladagi choyni dasturxonga qo'yib, uning ketidan bordi.

Bola ko'zini ochgan. Zumrad tepasida mehr bilan unga qarab turardi.

Aziza bolaning ko'zlarini ko'rdi. Ha, o'sha Hakimjonning ko'zlari.

— Ana, doktor opang dori beradilar, tuzalib ketasan, qo'zim.

Aziza bolaning tomog'iga choy qoshiqning orqasini tiqib, tanglayini qaradi, ko'z milklarini ochib ko'rdi.

— Tashvish qilmang, shamollapti. Dori yozib beraman, tuzalib qoladi.

— Ertadan kechgacha cho'milgani-cho'milgan. Bilasiz-ku, tog'dan muzdek qor suvi keladi, unga cho'milib bo'ladimi...

Zumrad Azizani guzargacha kuzatib chiqdi.

Kech kirib, quyosh cho'qqidan hatlab o'tib, endi yonbag'irlarda gunafsharang soyalar qolgandi.

Aziza sokin tog' so'qmog'idan ketarkan, o'ylardi. O'ylardi-yu, o'yi chuvalib, uni olislarga sudrab ketardi.

U yoshligini, birinchi muhabbatini o'ylaganda, eslaganda hamisha o'sha dilga mahkam o'rnashib olgan muhabbat hislari bag'riga chaqirardi. Hakimjonning olovdek yonib turgan ko'zlari bir dam ko'ksini boshqatdan kuydirib o'tardi. Shu bir oniy xotira uni entiktirardi.

Endi-chi?

Aziza bag'riga chaqirayotgan birinchi muhabbat bilan hozir yuzma-yuz turibdi. U ko'zlarda endi o't yo'q, ular sharmsizlik oynasi, yo'q, yo'q, nursiz bir shisha sinig'i bo'lib ko'rinyapti unga.

Agar Aziza o'shanda muhabbatning aldamchi hislariga berilganda, o'z irodasini qo'liga ololmaganda, u ana shu aldangan ayoldan ham avval qurbon bo'lardi.

Aziza shuni esladi-yu, birdan seskanib ketdi. Qadami tezlashdi.

Zumrad-chi?

Bir vaqtlar sahnada yulduz bo'lib porlagan bu san'atkor endi ojiz bir ayolga aylanibdi.

U shu ahvolda qolarmikin? Chinakam zumrad porlashi kerak.

Sonsiz projektorlarning nurida u hali ko'p ixlosmandlarning ko'zini o'ynatishi kerak. Chinakam zumrad bo'lib jilvalanishi kerak.

Aziza shunday xayollar bilan bitta-bitta bosib ketarkan, pastda, asfaltga chiqaverishdagi yolg'izoyoq yo'lda velosiped minib ketayotgan kishini ko'rmasdi. U kishi hali past-baland tog' yo'lidan shu ahvolda allaqancha yo'l bosishi kerak.

Quyosh butunlay botib ketdi. Osmon-u falakda suzib yurgan ko'rpadek uvada bulutgina qip-qizil cho'g' bo'lib yonardi.

1965-yil

LAYLAK KELDI

Kampir samovar qo'yaman deb hovliga chiqsa, nog'ora tovushi eshitilgandek bo'ldi. Beixtiyor osmonga qaradi.

Chorbog' etagidagi oq terak uchida hurpaygan savat uyada laylak turibdi, u oftob chiqayotgan tarafga qarab, tomog'ini taqillatyapti.

— Ha, jonivor, keldingmi? — dedi kampir.

Kampir birdan bo'shashib ketdi. Qanday qilib choy damlaganini, nevarasining loy bo'lib ketgan shimini qanday cho'tkalaganini bilmaydi. Uning xayoli juda uzoqlarga ketib qolgan. Nevarasi portfelini ko'tarib chiqib ketganda ham har kungidek orqasidan ostonagacha bormadi, u daraxtzor oralab maktab tomonga ketguncha kuzatib qolmadi. Ayvon dahaniga bedarmon cho'kkanicha qimirlamay o'tirib qoldi.

Laylak hamon mungli nog'orasini taraqlatadi.

Kampir bu laylakni tanirdi. Laylak ham unga o'xshash yolg'iz. Juftini qor quyunlari orasida yo'qotgan. Ikki alamzada, ikki hijronzada bir haftacha mana shu uyda dardlashishgan. Birga yig'lashgan...

...Urushning oxirgi yili, erta ko'klam edi. Hali bahor kelmay, kunlar isib ketgan, dov-daraxt bemahal kurtak ochib qo'ygan, dehqon bir tomchi yomg'irga zor kunlar.

Laylak keldi.

Laylak qanotida ko'klam olib keladi, deyishardi. Uning bemahal nog'orasi ko'klam kelganiga odamlarni ishontirib qo'ygandi.

O'sha kezlari Umrixon huvullab qolgan uy ostonasida o'tirib goh yig'lardi, goh olisda jon olib, jon berayotgan o'g'lining, eri-ning duoyi jonini qilardi.

Laylak kelgan kunning ertasi kechga borib, havo aynidi. Umrixon bir kun avval sandalni yig'ib tashlagan, hovlidagi o'choqni suvab, ayvonga joy qilgandi. Kech payti qo'zg'algan izg'irin uni yana uyga haydadi.

Tashqarida izg'irin uvullaydi, daraxt novdalarini ayqash-uyqash qilib, ochiq qolgan eshikni g'ichirlatadi.

Izg'irin qor boshlab keldi. Sal o'tmay, tom-toshlar oqardi.

U yettinchi chiroqni oldiga qo'yib, erining to'nini yelkasiga tashlaganicha qunishib o'tirardi. Eshik g'ichirladi. Avvaliga u shamol eshikni ochgandir, deb o'yladi. Keyin beixtiyor o'girildi.

Yarim ochiq eshikdan laylakning boshi ko'rindi. Umrixon nimaligini bilmay seskandi. Qimirlamay, tikilgancha turaverdi.

Shamol eshikdan qor uchirib kirdi. Laylak cho'chib uy ichkarisiga qochdi, lapanglaganicha uy burchagiga borib qunishib oldi. Umrixon hayron edi. U ham laylakdek qimirlamay o'tiraverdi. Ammo tashqarida shamol har xuruj qilganda, har gal qor eshikdan yopirilib kirganda laylak joyidan nari surilar, ko'zlari besaranjom bo'lardi.

Umrixon o'rnidan turib, eshikni zichlab berkitib keldi. Yelkasidagi choponini uning ustiga yopmoqchi edi, laylak yotsirab o'rnidan turib ketdi.

— Qo'rqma, jonivor, qo'rqma. Sovqotibsan, kel, isitib qo'yay. — Laylak taxmon tagiga borib, burchakka suqilib oldi. Umrixon uning ustiga chopon yopdi. Yelkada ancha ilib qolgan chopon issig'i unga xush yoqdi, shekilli, bo'ynini, iyagini ko'rpacha ustiga uzunasi qo'yib, ko'zlarini mo'ltiratganicha yotaverdi.

Umrixon ham joyiga borib o'tirdi. U tizzasini quchoqlaganicha unga tikilarkan, bir necha daqiqada dunyoni xayolan kezib chiqdi. Urush bo'layotgan joylarga bordi. Olovlar ichiga kirdi. O'g'lini ham, erini ham topolmadi. Nazarida, u ham shu laylakdek mungli, kimsasizdek bo'lib qoldi.

Yog'i tugab, piligi so'xta bo'lgan chiroq asta-asta xiralashib, bir po'p etdi-yu, o'chdi.

Umrixon qorong'ida timirskilanib joy soldi, yana alla-pallagacha u yonboshidan bu yonboshiga ag'darilib yotdi.

Ertalab ko'zini ochsa, deraza oynalari qirov boylabdi. Laylak hamon qimirlamay iyagini ko'rpachaga qo'yganicha ko'zlarini javdiratib yotibdi.

Umrixon tashqariga chiqdi. Qor tingan.

Hamma yoq oppoq. Kurtak yozib qolgan tol novdalari egilib yerga tegay deb turipti. O'rik shoxidan ayvon ustuniga tortilgan kir arqoni yo'g'onlashib ketibdi. Obdastada qolgan suv muzlabdi.

Birdan Umrixonning ko'zi qordagi izlarga tushdi. Kimningdir tovug'i hovlida tong otguncha kezibdi. Qorda aylanma izlar, goh sudralgan, goh yurgan.

Iz oxiri Umrixon kecha suvagan va o't yoqib suv qaynatgan o'choq oldiga borib to'xtagan.

Umrixon o'choq oldiga bordi. Qarasa, bir laylak o'choqdan boshini chiqazib qotib qopti.

U bu sirning ma'nosiga yetdi. Bu uydagi laylakning jufti. Kecha savat uyada ikkovlashib ko'klamni chaqirishayotgan edi. Sovuq izg'irin uyalaridan quvgan. Qorong'ida bir-birini yo'qotganlar.

Qushlar juda sezgir jonivor bo'ladi. Juftining shu hovliga kirgan izini sezgan-u, sovuqda karaxt bo'lib izini yo'qotgan. Kechasi bilan boshpana, issiq joy qidirib, qor kechgan. Oxiri, hali kunduzgi o'tning tafti ketmagan o'choqqa bosh suqib, shu joyda muzlab qolgan...

Umrixon beixtiyor terak uchiga qaradi. Savat uya ham qorda hurpayib qopti. U o'ylab o'tirmay oshxonadan ketmonni oldi-yu, laylakning murdasini avaylab ko'targanicha chorbog'ga kirdi. Devor tagini kovlab, muzlagan laylak ustiga tuproq tortdi. Keyin ezilib, ko'zlari namli, motamsaro bir holda uyga kirdi.

Laylak hamon joyidan qimirlamasdi. Eshik ochilganda u boshini ko'tarib, umid bilan yalt etib qaradi. Kim biladi, u juftini kutayotgandir.

To qor erib, yana kunlar isib ketguncha Umrixon unga andarmon bo'lib turdi. Shu orada Umrixonning boshiga qora kun

tushdi. Pochtachi eshik qoqdi. Uning betiga qaramay xat berdi-yu, shoshgancha ketdi. Qoraxat. Umrixon urushda shahid bo'lganlar uyiga kelgan qoraxatlarni ko'raverib qanaqaligini bilib qolgan edi. Birpasda ko'z oldi qorong'ilashdi-yu, ostonaga o'tirib qoldi. Xayoliga hech narsa kelmas, o'zi esa hech narsani ko'rmas edi.

Shu ko'yi u qancha o'tirganini bilmadi. Bir mahal xotirasi o'rniga kelganday bo'ldi-yu, dod deb yubordi.

Kimdan, qaysi biridan, o'g'lidanmi, eridanmi?

O'qdek otilib o'rnidan turdi. Ro'moli o'tirgan joyida qoldi. U to'xtamay yugurardi. Yugurganida sochlari to'zg'ib ketdi. Yo'lda uchragan odamlar uning ahvolini ko'rib to'xtatishar, orqasidan qarab qolishardi. Oxiri u pochtachini quvib yetdi. Yelkasiga osilib, ko'ylagini yirtib yubordi. U negadir bu shumxabarni mana shu odam olib kelgan deb o'ylardi. Shu topda u faqat shuni bilardi: pochtachi yo erini, yo o'g'lini o'ldirgan.

Odam to'plandi. Ular pochtachini Umrixonning changalidan ajratib olishdi. Xotinlar Umrixonni suyab, uyiga olib kelib qo'yishdi. Shu kuni u eridan judo bo'lgan edi.

Uyning bir burchida laylak, bir burchida Umrixon qimirlamay o'tirishardi. Umr bo'yi shu alpozda o'tirib bo'lmaydi-ku. Umr bo'yi ko'zyosh to'kib bo'lmaydi-ku! Shu alpozda bir umr o'tiraversa, shol bo'ladi, shu alpozda tinmay ko'zyosh to'kaversa, odam bolasi ko'r bo'ladi-ku!..

Oftob charaqlab ketdi. Umrixon ham o'rnidan turdi. Derazalardan uyga yana ko'klam shabadasi kirdi.

Bir-biriga o'rganib qolgan ikki alamzada hovliga chiqishdi. Laylak qanotlarini kerib bir intildi-yu, beg'ubor osmonga ko'tarildi. Umrixon uning terak uchiga qarab intilganini kuzatib turdi. Laylak uyasiga qo'nmadi, yana qaytdi, chorbog' tepasidan, uy tepasidan aylandi, olislarga qarab ketdi, yana qaytdi. U juftini izlardi. Kuni bilan u goh uyaga qo'nar, goh qanot qoqib allaqayerga qarab uchib ketardi. Kech kirib savat uyada yana uning nog'orasi taraqladi. Endi u avvalgidek sho'x kuylamasdi, uning nog'orasi mungli edi...

Ko'p o'tmay, shaharlarga o't qo'ygan, odam qonini daryo qilib oqizgan urush tugadi.

Hamma yoq chinakam ko'klam libosida edi o'sha kun. Tomlarda lolaqizg'aldoq gulxani yonardi. Bolalarning qo'li qulupnay suvidan qizil, qizlar qulog'iga qo'shaloq gilosdan isirg'a taqilgan edi.

Qishloq ko'chalari gavjum. Xonadonlarda ko'pdan unutilgan patefon tovushi. Kelinchaklarning yuziga rang kirdi.

Umrixonning hovlisidagi ariq bo'yida ikki tup gulsapsar ochildi. Yigitlar kelishyapti.

Terak uchida laylak nog'ora chaladi. U kimni kutayotganikin? Umrixonning ham bag'ri to'ldi. O'g'li qaytdi.

Yana bahor keldi. Mana shu bahor Umrixon kelin ko'rdi. To'yda kuni bilan chorbog' tepasida laylak nog'ora chaldi.

Ammo Umrixon nevara ko'rganda ko'pdan qadrdon bo'lib qolgan laylak kelmadi. Uyasi huvullab qoldi. Umrixon bo'sh uyaga ma'yus tikilib, o'yga toldi. Kim biladi, laylak qaydadir hijron dardida olamdan o'tgandir. Shu-da, qachondir o'lmoq bor. Ammo hijron dardida o'lib ketishni o'ylasang, dunyo ko'zingga qorong'i bo'lib ketadi. Yaxshiyam zurriyot bor. Ana shular baxti uchun yashaging keladi. Ayni shular ilinji odamzodni, butun jonidorni yashashga chaqiradi.

Hademay huvullab qolgan uyaga ikki laylakcha keldi. Kim biladi, ular balki o'sha laylakning bolalaridir. Harqalay, uya bo'shab qolgani yo'q-ku!

Yillar o'tib ketdi. Hamma narsani Umrixon unutdi. Nevarasining sho'xligi uydan hijron alamlarini quvib chiqardi. Bolaning yigit bo'lishini, safga qo'shilishini kutib entikadi. Ayniqsa, kunduzlari uyga bola to'lib ketadi. Ularning shovqini, kulgisi, gap-so'zlari Umrixonning yuzlaridagi ajinlarini yozib yuborgandek bo'ladi.

Tezroq nevaraginamning to'yini ko'rsam, deydi. Yashagisi keladi.

Ammo har bahor laylak kelganda, chorbog' tepasida uning nog'orasini eshitganda yuragi ezilib ketadi. Bu tovush unga eridan kelgan qoraxatni, yarim qorong'i uyda ikki hijronzadaning tovushsiz yig'lagan kunlarini eslatib qo'yadi.

Bugun yana laylak keldi. U qanotida ko'klam olib keldi. Ko'cha tarafdan maktabga o'tayotgan bolalarning tovushi eshitilyap-

ti. "Laylak keldi, yoz bo'ldi..." Bu nevarasining ovozi. Bu ovoz olamdagi barcha tovushlarni bosib ketgandek bo'ldi. Go'yo butun dunyodagi odam bolasi tomga chiqib, shu bolaning sevinch to'la tovushiga quloq solayotgandek...

1969-yil

SUVLAR OQIB KETDI

Onasi Murodjonning tushiga kiribdi.

Texnikum yotog'ida bolasining karavotiga o'tirib tugun yechayotganmish. Tog'oradan qora chillaki olib, tumbochka ustiga qo'yib dermish:

— Ol, bolam, atayin senga ilinib olib keldim... Og'zing tegib qolsin, dedim. Chumchuq o'lgur qo'ymayapti.

Poshshaqiz yonboshiga ag'darildi. Murodjon uyg'onib ketdi.

U shiftga boqqanicha o'y o'ylab yotaverdi. Qorong'i kecha qa'riga tikilib, ko'rgan kunlarini, bolaligini qidirardi. Qayerdadir qo'l soatning zaif chiqillashi, koridor devoridagi elektr schotchigining bemor ingrashidek nolasi, divanda kulcha bo'lib yotgan mushukning yoqimsiz g'urullashi eshitilib turibdi.

Murodjon uzilgan tushini ulash niyatida yana ko'zini yumdi. Uyqu ham kelmadi, tush ham ko'rmadi. Ko'pdan yo'qotgan onasi bir on paydo bo'lganicha abadiyat qa'ridan qayta yuz ko'rsatmadi. Murodjon onasini poylab uzoq yotdi. Oxiri ko'zini ochib, yonboshiga qaradi. Xotinining yelkasidan ko'rpa tushib ketgan. Ich kiyimlarining qavat-qavat kapron tasmalari oppoq yelkasidan bilagiga tushib qolgan, kuragidagi kecha banka qo'ydirganda qolgan jigarrang izlar bemalol ko'rinib turibdi. Marvarid o'ramidagi sariq ipak tugunchasiga bir dona dur ilinib qolibdi.

Murodjonning xotini Poshshaqiz nihoyatda chiroyli edi. Zulukdek qora qoshlar, ilondek to'lg'angan taqim o'par sochlar, tikilgan joyni kuydiradigandek ko'zlar Murodjonning bolaligiga, osoyishiga o't qo'ygan edi.

Murodjon yotaverib qon bo'lib ketdi. Asta ko'rpadan sug'urilib, qorong'ida timirskilanib shippagini topdi-yu, narigi uyga oyoq uchida chiqib ketdi.

Aksiga olgandek, qandildagi lampochka ko'kimtir chaqindek bir yilt etdi-yu, kuyib qoldi. Ko'zi qorong'iga o'rganib, asta-sekin ko'radigan bo'ldi, nazarida, uy yorishganga o'xshab, jihozlar g'ira-shira ko'rina boshladi.

U uy ichida kezarkan, onasining tirik qiyofasini xotirida tiklamoqchi, unga yana bir to'yib olmoqchi edi. Ammo ona hadeganda uning ko'zi o'ngiga kelavermadi.

Murodjon deraza oldiga kelib, hovliga qaradi. Ayvon shiftidagi lampochka hovlini oydindek yoritib turardi. To'p etib yerga shaftoli tushdi. Qaydandir paydo bo'lgan mushuk borib uni hidladi-yu, hafsalasi pir bo'lib, orqasiga qaytdi. Tok so'ri tepasidan musicha tuxumi tushib, chil-chil sindi. Yana boyagi mushuk paydo bo'ldi, tuxum singan yerni yalab oldi, keyin maza qilib kerishdi-da, tandir tepasiga koptokdek sakrab chiqib ketdi. Sal o'tmay, devordan sho'r tuproq to'kildi.

Shunda birdan Murodjonning ko'ziga onasi ko'rindi.

Onasi tandir oldida qo'liga yengcha kiyib, loladek qip-qizil kulcha betiga suv sepyapti. Tandirdan chiqayotgan yallig' uning ham betlarini qizartirib yuborgan. U, sochlarim kuymasin, deb peshanabog'ini qoshlari aralash tang'igan, uzun satin ko'ylagining etagini lippa urib olgan.

— Bolam, anchadan beri yopgan non yemagandirsan, beri kel, issiqqina yeb ol.

Ona shunday dedi-yu, qorong'ilikka singib ketdi.

Murodjon seskandi. Ichidan allaqanday o't kelib tomog'iga qadaldi.

Issiq qo'l yelkasiga teggandagina o'ziga keldi. Orqasida yelkasida xalat tashlagan Poshshaqiz turardi.

— Sizga nima bo'ldi? Qaysi yashshamagur jononingiz esingizga tushib ketdi?

Murodjon unga shunday bir qaradiki, Poshshaqiz xuddi begona erkak oldida turgandek, to'zg'ib ketgan sochlari bilan ko'krakla-rini berkitdi.

— Obbo, bu qanaqasi, qoq yarim kechasi xo'rsinib yurish...

Murodjon indamay nari ketdi. Maykachan hovliga tushib, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. U go'yo mana shu hovlidan, yerdan, qorong'ilik ichidan bolaligini, beozor, anduhsiz go'dakligini

qidirayotgandek edi. Poshshaqiz deraza oldida unga ancha qarab turdi-da, kaftining orqasini og'ziga tutib ikki marta yaxshilab esnab, yotog'iga kirib ketdi. Tinch, jonli-jonsiz farahli uyquga ketgan sokin kechada kezarkan, Murodjon birdan bolaligiga ro'para keldi.

Eshiklari oldida o'sgan kattakon, tanlari bujmayib ketgan tut tagidagi tegirmon toshiga onasi har kuni ertalab ikki ko'zadan suv olib chiqib qo'yardi. Yo'lovchilar shu suvdan ichib, bolang katta bo'lsin, umridan baraka topsin, deb onasini duo qilishardi.

Go'dakligidan esida qolgani shu. Keyin bo'yi cho'zilib qolganda onasi taxi buzilmagan baxmal ko'rpani buzib, unga to'n tikib bergani, kiydirib maktabga yuborgani ham esida. O'shanda onasi maktab ostonasiga yetmay, yo'l o'rtasida qarab qolgandi.

Murodjon ishga yaragudek bo'lguncha ona yer chopdi, tom shuvadi, devor urdi, qor kuradi, birovlarning ko'rpasini qavidi, tinim nimaligini bilmadi, ammo bolasini zoriqtirmadi.

U umrini shu bolasiga bag'ishladi. Er qilmay o'tdi.

Bolam odam bo'lsin, kamolini ko'ray, yurtga qo'shay, to'ylarida charchay, keyin bolalarini boqay, dedi.

Nihoyat, u o'g'lini Toshkentga, texnikumga yetaklab keldi. O'qishga joylab qaytib ketdi. Ona har oyda bir kelishni tark qilmas, topgan-tutganini bolasining qo'liga tutqazib, yana piyoda Parkentga qarab ketardi. Murodjon o'qirdi. Zehni o'tkir bola muallimlariga yoqib qoldi. Yillar o'tdi. Institut, urush qiyinchiliklari boshlandi. Ammo ona oyda bir kelishni tark qilmasdi. Har kelganida bolasining betiga soatlab tikilib o'tirardi. Ozib qolganini, rangi so'lganini ko'rib, ich-ichidan kuyib ketardi.

Aspirantura yillari boshlandi. Murodjon ancha o'zini tutib olgan.

Onasining uzoq yo'l bosib kelishini xohlamasdi. O'zi borib kelardi.

Dissertatsiya yoqlaydigan kuni onasi bir savat non yopib keldi. Murodjon ming xijolat bilan onasi qarshisida turardi. Ona uning ham quvonch, ham xijolat to'la ko'zlariga tikilib, o'g'lining ko'nglida nima gaplar borligini darrov fahmladi.

— Qani, bir ko'ray, — dedi ona.

Murod pillapoya oldida turgan nihoyatda chiroyli qizni chaqirdi. Bu Poshshaqiz edi. Ona bo'lg'usi kelinining peshanasidan o'pib yig'ladi.

Dissertatsiya himoyasidan keyin onani ziyofatga olib ketishdi. Uni to'rga o'tqazib qo'yib, ko'p chiroyli, ko'p ma'noli gaplar aytishdi. Onasiga rahmat, deyishdi. Bu onaning butun chekkan aziyatlariga to'langan haq, berilgan mukofot edi. Bu onaning eng baxtli kuni edi.

U qishlog'iga yurib emas, uchib ketdi.

Shundan keyin ona o'g'lining to'yiga keldi. To'y kelinnikida bo'layotgan edi. Katta hovli yasatilgan. Dasturxonda odamning jonidan boshqa hamma narsa bor. Ammo onaga hech kim parvo qilmadi. U shu paytda o'rdak tuxumini ochgan tovuqqa o'xshardi. To'y oxirlab qolganda asta o'rnidan turdi-yu, o'g'lining oldiga borib, peshanasidan o'pdi. Cho'ntagidan bir poy tilla bilaguzugini olib kelinining bilagiga soldi.

— Taqib yuring, qaynonam rahmatlikdan qolgan.

Shunday deb Poshshaqizning ham peshanasidan o'pdi-yu, ko'zyoshini ichiga yutib, to'ydan chiqib ketdi.

Murodjon bir haftadan keyin borib, "olib ketay" deb yalindi, ona ko'nmadi.

— Nima qilasan, bolam. Tinch bo'lsang bo'lgani. Shu kunlaringni ko'ray, deb niyat qilgan edim, ko'rdim.

Murodjon baribir uni qo'yarda-qo'ymay olib keldi. O'n kun ham turolmadi ona.

Murodjon ishdan kelsa, onasi kiyimlarini tugib, ayvon dahanida o'tiribdi.

— Ha, oyijon, nima bo'ldi? — dedi hayron bo'lib.

— Ketay, bolam, shaharlaringda turolmayapman. Qishloqqa o'rganib qolganman.

Poshshaqiz gapga aralashmadi. "Qoling" ham demadi, "keting" ham demadi. Murodjon qaynona bilan kelin orasida biron gap o'tganini darrov bildi.

Onaning butunlay kelgani Poshshaqizga yoqmagandi. Qaynonasiga koridordagi divanga joy qilib berganda, Murodjonning yurak-bag'ri ezilib ketgandi. Lekin og'iz yorib biron gap aytolma-

di. Vaqtida aytilmagan kerakli gap ertasiga jo'n gapga aylanadi. Shundoq bo'ldi. Onasining koridorda, oyoq ostida yotishi borabora oddiy narsaga aylanganini Murodjon sezmadi.

Ona o'g'linikiga qaytib kelmadi. Murodjon borib turdi. Ro'zg'orini qilib berdi. Otasidan qolgan uy norab tamom bo'lay deb qolgan ekan, boshqatdan tiklab berdi. Ammo ona "xotining undoq xotining bundoq" deb og'iz ochmadi. "Ha, endi qo'sha qaringlar, o'zlaringdan ko'payinglar" deb duo qildi.

Poshshaqiz hamma gapni ichiga tashlab yurgan ekan, bir kun kelib yorildi.

— Qanaqa erkaksan? Uylanganingdan keyin ro'zg'orga qaragin-da, topganingni onangga tashiyverasanmi?!

Bu Poshshaqizning o'z erini birinchi senlashi edi. Murodjon nima qilishini, nima deyishini bilmay qoldi. Tilga biron og'iz bo'lsa ham gap kelmadi. Turib-turib uyga kirib ketdi.

Shu kundan boshlab ularning turmushi darz ketdi. Dam olish kunlari Poshshaqiz ataylab unga ish topib qo'yadi, ko'chaga chiqarmasdi. Murodjon esa, bugun dam olish kuni, onam ko'chaga qarab o'tirgandir, deb bezovtalanardi.

Murodjon ikki oycha onasining oldiga borolmadi. Bir dam olish kuni jahl bilan chiqib ketdi-yu, qishloqqa jo'nadi. Xotini cho'ntagini qoqlab qo'ygan ekan, quruqdan quruq kirib bordi. Shundoq kelganiga boshqa bahona aylgan edi, kampir ko'zyosh qildi.

— Bolam, qo'lingga emas, diydoringga qarayman. O'zingni ko'rsam bo'ldi. Mayli, bolam, ro'zg'oring achchiq bo'lmasin. Sen kelolmasang ham, ishxonangga borib, uzoqdan o'zingni ko'rib turibman. Qandoq qilay, peshanamda bittaginamsan.

Murodjonning vujudini titroq bosdi. Lablarigacha ko'kardi. Ona uning holatini ko'rib qo'rqib ketdi.

— Tur, bolam, tur. Xotining kutib o'tirganini bilasanmi? Ona uni katta yo'lgacha kuzatib qo'ydi.

Oradan bir oycha o'tib ketdi. Murodjon ishdan qaytib, achchiqqina choyga mahtal bo'lib turgan edi. Poshshaqiz yoniga kelib o'tirdi. Yelkasini uning yelkasiga ishqab dedi:

— Jon Murod aka, jo-on Murod aka, aspirant qizlaringizga aytting, kelib derazalarimni yuvib bersin.

Murodjon sapchib o'rnidan turdi.

— Bu qanaqa gap! Aspirantlar konsultatsiya olgani keladi, sizga dastyorlik qilishga emas. Kelgan aspirant bolalarga devor urdiribsiz, qizlarga kir yuvdiribsiz. Uyat emasmi? Ertaga institutda qandoq bosh ko'tarib yuraman?

Poshshaqiz ensasi qotib, indamay ketayotgan edi, Murodjon dedi:

— Bitta choy damlab bering, yuragim kuyib ketdi.

Poshshaqiz orqasiga qaramay, javob qildi:

— Ana gaz, ana choynak, o'zingiz damlab ichavering!

Murodjon jahl bilan o'rnidan turdi. Stoldagi choynakni olayotgan edi, yaltiroq stol dog' bo'lmasin, deb choynak tagiga buklab qo'yilgan qog'ozga ko'zi tushdi. Beixtiyor olib ochdi. Telegramma ekan, o'qidi:

"Murodjon uka, oyingning mazasi yo'q. G'animatga o'xshaydi. Tez yetib kel. Dilingda armon bo'lib qolmasin".

Murodjonning vujudini qaltiroq bosdi. Ko'z oldida kattakon doira paydo bo'lib, gir-gir aylanaverdi:

— Qachon keldi bu telegramma?

Murodjon o'zining ovozini uzoqdan eshitayotganga o'xshardi.

— O'tgan kuni kelgan edi.

— Nega menga aytmadingiz?

— Esimdan chiqib qopti, — dedi Poshshaqiz.

Murodjon nima qilganini bilmaydi. Qo'lidagi choynakni xotiniga oldi. Poshshaqiz chap berib qolgan edi, choynak burchakdagi televizorga borib tegdi. Devorlarga shama sachradi.

U uydan o'qdek otilib chiqdi. Shu chiqib ketganicha ikki oydan keyin ozib, ranglari sarg'ayib, sochlarida ikki-uch oq tola bilan kirib keldi. U uyga, o'z xonasiga kirib ketganicha ertasiga ham chiqmadi. Poshshaqiz derazadan qaradi, Murodjon goh peshonasiga shapillatib urar, goh divanda ko'zlarini yumib qimirlamay yotardi. Poshshaqizning onasi, eringning oldiga kir, degan edi, ranglari oqarib ketdi.

— Voy, o'likdan qo'rqaman...

Qaynona kuyovining oldiga kirdi. Ahvolini ko'rib, nima bo'lganini darrov payqadi. Betahorat bo'lsa ham, qudasining arvohiga Qur'on o'qigandek bo'ldi.

Poshshaqiz kirdi. Erining peshanasidan silab yupatmoqchi bo'ldi.

Ammo Murodjon uning qo'lini olib tashladi. Ingradi: "Yetolmadim, yetolmadim, borguncha begonalar onamni ko'mib qo'yishgan ekan".

Oradan besh yil o'tdi.

Murodjon fan doktori bo'ldi. Onasi niyat qilgan kunlar keldi. U baxtli edi-yu, ammo bu baxtning bir cheti kemtik edi.

Murodjon doktorlik himoyasidan uch kun oldin onasining qabriga marmartosh olib bordi. Qaynoq qalb so'zlari bitilgan marmar lavha g'aribgina qabr tepasida qoldi.

Yoshlik — sho'rlik yillari suvdek qirg'oqlarga sapchib oqib ketdi. Hamisha omonat bo'lgan onalarimiz o'zlari to'ymagan bu yorug' dunyoni bizga tashlab ketishdi.

Birov ona duosini olib qoldi. Birov dog'i-hasratda...

Bugun Murodjonning tushiga onasi kiribdi. Yotoqxonada bo'lasining karavotiga omonatgina o'tirib, tugun yechayotganmish...

1970-yil, aprel

IQBOL CHIROQLARI

Daryo shamolidan seskangan otning badani dirillab ketdi. Jilovni bo'sh qo'yib yubordim.

Chakmonini yelkasiga tashlab, qumg'on tagiga o't qalayotgan paromchi chol ot dukurini eshitib o'rnidan turdi:

— Keling, mehmon, yo'l bo'lsin?

— GESga o'tmoqchi edim.

Chol soqolini tutamlab daryoga qaradi:

— Suv quturib kelyapti, paromni chirpirak qilib olib ketadi.

— Yo'g'-e, ishim jadalroq edi-ku, a!

— Ertalabgacha sabr qiling. Hozir choy qaynaydi, chaqchaqlashib tong ottiramiz.

Noiloj otdan egarni olib, suvlig'ini chiqardim-da, yovvoyi jiydaga bog'ladim.

Chol vaqirlab qaynab turgan qumg'onga ko'k choy solib durladi. Budkaga kirdik. Budkaning ichi anchagina keng edi. Uning

bir tomonida arqon karavot, ikkinchi tomonida esa taxtasi randalanmagan qo'polgina skameyka. Devorga gazeta va jurnallardan yirtib olingan turli suratlar yopishtirilgan. Chol toshchiroqning piligini ko'tarar ekan, menga qaramay so'radi:

— Qorin qalay, mehmon?

— Qo'shqo'noqda ovqatlanarman degan umid bilan yo'lga chiqa bergan edim.

Chol mening javobimni kutmay deraza oldiga qo'yilgan oyog'i ayri stolcha ustiga belbog'ini yozib, qoziqdagi tugundan non va qand olib qo'ydi.

— Choyni maydalab turing, savatdan xabar olib kelay.

Chol chiqib ketdi. Piyolaga choy quyib, devordagi suratlarni tomosha qila boshladim. Allaqaysi bir jurnaldan yirtib olingan bir surat menga juda tanish tuyuldi, fonarni suratga yaqinroq olib bordim. Egniga kombinezon kiyib, qo'liga elektrosvarka shitini ushlab turgan payvandchi qizning kulib turgan yuzi menga juda tanish edi. Bu bir vaqtlar meni, shoirona qilib aytganda, o'ziga asir qilgan Iqbol edi.

Chol kirdi.

— Baliq ilinmabdi. Suv notinch-da. Baliqlar yuzaga chiqmaydi.

Chol bilan anchagacha u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirdik. Soatga qaradim, birdan oshibdi.

— Uyqungiz keldiyov, joy qilib beraman, dam oling. Chol belanchakka o'xshash arqon karavotga ko'rpacha yozib, choponini bukiab yostiq qilib berdi-da, fonarni ko'tarib chiqib ketdi. Yechinib yonboshladim. Fikr-u xayolim Iqbolda edi.

Xayol meni Iqbol bilan o'tkazgan kunlarga yetakladi. Ko'z oldimga tog' qoyalari, daryo to'lqinlari, agarnat GES binosi keldi.

Chol qorong'ida tiniirskilanib nimadir olib chiqib ketdi. Daryoning narigi qirg'og'ida chaqin chaqdi. Uning ko'kimtir pistoqi shu'lasi osmonda suxib yurgan pastak bulutlarni ham yoritdi. Ozroq vaqt o'tgach, boyagi chaqin tez-tez takrorlanaverdi. Turib derazadan o'sha tomonga qaradim. Gulxan yonida to'r yamab o'tirgan chol menga o'girildi.

— Uxlamadingizmi, mehmon, shu'laga qarayapsizmi? Qo'shqo'noqda GES qurishyapti. Bu elektrpayvandning shu'lasi.

Iqbol ham o'sha vaqtda GESda payvandchi edi. Daryo bo'yidagi tosh uyim derazasiga ham xuddi shunaqa shu'la tushib, menga uyqu bermasdi. Kuni bilan tosh qo'porib, tong otguncha Iqbol haqida o'ylardim.

Kechqurunlari ikkovimiz cho'lga chiqib ketib, osmonda astasekin ko'z ochayotgan sahro yulduzlariga tikilib o'tirardik. Atrofimizda o't-o'lanlar silkinar, chigirtkalar chirillar edi. Shunday kechalarning birida Iqbolga yuragimdagi gaplarni aytdim. U jim o'tirib hammasini tingladi. Hali oy ko'tarilmagani uchun uning yuzida, ko'zida qanday o'zgarishlar bo'layotganini bilolmadim. U javob bermadi. Yonma-yon yurib tungi smena ishlab turgan uchastkaga qarab yo'l oldik. Qizlar zemlankasi oldiga yetganimizda, u qo'limni odatdagidan ko'ra qattiqroq qisib xayrlashdi. Yo, balki, menga shunaqa tuyuldimi, hali-hali bilolmayman.

Oradan uch kun o'tgach, Iqbol tungi smenaga ishga o'tdi. U GESning azamat peshtoqlarida temir parchalarini bir-biriga payvand qilar, elektrod tayoqchasidan chaqnagan uchqun pastga qarab go'yo nurli tomchi bo'lib to'kilar, uning shu'lasi cho'lning olis-olislarigacha yoritardi.

Kuni bilan bosh to'g'onda tosh qo'porib charchashimga qaramay, cho'l oralab to'rt kilometrlik yo'lni piyoda bosib, GES qurilishiga borardim. Yo'lni Iqbol chaqnatgan ko'kimtir nur yoritib turardi. Temir shotiga tirmashib Iqbol ishlayotgan betonli devorga ko'tarilardim-da, uning yonida o'tirib, chaqnagan nurdan yoshlangan ko'zlarimni kepkam bilan to'sardim. Iqbol juda chaqqon ishlardi. Prorab "xalaqit berasan" deb necha marta meni devordan quvib tushirar, men esa yana tirmashib chiqaverardim. Shu devor ustida, cho'l shabadasi uning sochlarini to'zg'itib turgan bir paytda, ko'zni oluvchi ko'kimtir nur orasida birinchi bor uning yuzidan o'pib olganman. Iqbol arazlagandek menga yer ostidan g'alati qilib bir qaradi-yu, yana elektrodni temir parchasi ustiga qo'ydi. Uchqun chaqnadi, uning qo'li bilinar-bilinmas titraganini sezdim. Hali-hali bilolmayman, uning vujudidagi bu titroq g'azabdanmi yo hayajondanmi... Shu kundan boshlab Iqbol xayolchan bo'lib qoldi. Mendan o'zini olib qochar, uchrashgan onlarimizda yuzimga tik qaray olmas edi.

Ekskavator mashinistiga yordamchi bo'lib oldim. Ishlar ko'payib qoldi. Kechasi kursga qatnayman, kunduz ekskavator boshqaraman, shu kunlar Iqboldan ancha uzoqlashib qoldim.

Uchastka agitpunktida kurs mashg'uloti bo'layotganda feldsher xotin meni imlab chaqirdi. Chiqdim. U qo'limga bir qog'oz tutqazdi. Shoshib o'qidim. Unda shu gaplar yozilgan edi.

"...Kasalxonadaman, vaqtingiz bo'lsa bir kelib ketsangiz. Iqbol".

Kasalxonaga yugurdim. Kasallardan surishtirdim. Meni palataga olib kirishdi. Bu yerda oq xalat kiygan, yuz-ko'zi doka bilan tang'ib tashlangan bir ayoldan boshqa hech kim yo'q edi.

— Mana, Iqbol! — dedi hamshira.

Oq doka orasidan mening nomimni aytgan ovoz chiqdi. Bu Iqbolning ovozi edi.

— Iqbol! Nima bo'ldi?!

Iqbol yangi yo'lga kirgan bolalardek devorni ushlab turmoqchi bo'ldi.

Tez borib uning qo'lidan ushladim. Karavot qirg'og'iga o'tirdik.

— Elektrod uchquni ko'zimga sachradi.

Iqbolning ovozi titradi. Uning boshini siladim.

— Meni deraza oldiga olib boring, — yalinish ohangida dedi Iqbol. Uning aytganini qildim.

— Havo ochiqmi? — deya so'radi u.

— Havo ochiq, yulduzlar chaqnayapti, — dedim.

U uzoq jim turib qoldi. Derazadan qo'lini chiqazib go'yo yomg'ir yog'yaptimi, yo'qmi, bilmoqchi bo'lgandek panjalarini yoydi.

Svarka apparatida chaqnagan nur Iqbolning yuziga chulg'angan oq dokalarni ham ko'kimtir tusga kiritgan edi.

— Nahot, umrbod ko'r bo'lib qolsam-a?

Vrach meni haydab chiqarguncha uning oldidan jilmadim.

Oradan bir hafta o'tgach, Iqbolni Toshkentdagi ko'z klinikasiga olib ketishdi. Men esa armiyaga jo'nab ketdim.

So'nggi bor Iqbol bilan uchrashgan kunim hali esimdan chiqmaydi. Armiyaga jo'nash oldidan uning holidan xabar olgani Toshkentga tushdim.

Erta kuz edi. Klinika hovlisidagi daraxtlarning bargi sarg'aygan, keksa dub barglarigina ko'k edi.

Iqbolning bilagidan ushlab, gulzor chetidagi skameykaga olib keldim. O'tirdik. Iqbol timirskilab qo'limni topdi-da, uzoq jim turib, keyin xo'rsinib qo'ydi.

— Ketyapman deng... Ketish oldida sizni o'z ko'zim bilan ko'rolmadim. Qani endi, ko'zim ochila qolsa-yu, bir ko'rsam. Harbiy formada qanaqa ekansiz.

— Ko'zingiz ochiladi, — dedim unga ruh beruvchi ohangda.

— Professor ham shunday dedi, balki ko'nglimni ko'tarish uchun aytgandir.

Men unga professor bilan gaplashganimni, u menga ham xuddi shunday deganini aytdim.

— Juda kutilmagan hodisa bo'ldi-da, shunday usta payvandchi, nahotki beparvolik qilib, ko'zga uchqun sachratib olsangiz.

Iqbol qo'limni yana mahkamroq qisdi. U cho'lda, oydin kechada birga yashashni taklif qilganimda javob o'rniga qo'limni xuddi shunday qisgan edi.

— Bilasizmi, o'sha kuni qo'lim va ko'zim ishda edi-yu... U gapirolmay entikdi.

Juda g'alati bo'lib ketdim. Ayni zamonda ko'ngilni ham shodlantiruvchi, ham ezuvchi bu gapdan gangib qoldim.

— Iqbol!.. — gapimni tugatolmay sapchib o'rnimdan turib ketdim.

Nima qilishimni bilmay turgan yerimda serrayib qoldim.

— Ko'zim ochiladi, — dedi Iqbol ishonch bilan. — Yana ko'rishamiz. Faqat tezroq ko'zim ochilsa-yu, bog'larni, maysalarni, odamlarni ko'rsam. Hayotning, tabiatning qanchalar chiroyli ekanini endi yaxshiroq sezdim. Chunki hozir ularni ko'z bilan emas, yuragim bilan ko'rib turibman. Cho'llarda chaqnagan chiroqlarni ko'ryapman. Tezroq, tezroq ko'zim ochilsa. Ko'zlarimga tang'ilgan dokalarni yirtib tashlab, hayotga qarasam deyman.

— Ko'zingiz ochiladi. Albatta, ochiladi, yana uchrashamiz, birga turmush qilamiz. Ana o'shanda siz cho'llarda kombinezon kiyib yurmaysiz. Mening uyimda, xuddi malikalardek yasanib, shohona hayot...

Iqbol qo'lini shart tortib oldi. Nazarimda, ko'ngilsiz bir voqea esiga tushib qolgandek seskanib ketdi. Yo menga shunday tuyuldimikin? Hali-hali bilolmayman.

Shu kuni Iqbol bilan qosh qoraygunchа gaplashib o'tirdim. U menga oq yo'l tiladi. "Kutaman, Samad aka" dedi-yu, muomalasi sal sovuqroq ko'rindi, bu gap yurakdan emas, shunchaki aytilgangа o'xshadi. Ketdim. Ko'z oldimda Iqbolning oq dokaga chulg'angan qiyofasi qoldi...

Oradan besh yil o'tdi. Shu orada unga yozgan o'nlab xatlarimga javob ololmadim. Oxiri Iqbolning izini yo'qotdim. Mana, daryo suvi shovullagan oydin kechada, paromchining budkasida uning suratiga termilib o'tiribman. Olisda Iqbolni eslatuvchi yashil nur chaqnab turibdi. Uning o'tkir nuri deraza oynasidan o'tib uy devoridagi suratlarni ham goho lip-lip yoritib qo'yadi. Iqbol hayot ekan. Nima uchun shuncha xatlarimga javob bermadi? Axir, men unga biron yomon gap aytmagandim-ku.

Uning suratiga termilib birga kechirgan kunlarimizni, bir-birimizga aytgan iliq-issiq gaplarimizni so'zma-so'z xotirladim. Biroq aytilgan gaplarda bironta ham nojo'yasi yo'q edi.

Qani endi uchrashsak. O'sha vaqtda aytganimdek, malikalardek...

Esladim! Iqbolning izzat-nafsiga, g'ashiga teggan narsa endi ayon bo'ldi. Qiziq, kishi o'zining xatosini sezishi shunchalar qiyinmi? Nechun shu paytgacha bu narsa yodimga tushmadi? Nega? Gugurt chaqib Iqbolning suratiga qaradim. Uning hozirgi holati men tasavvur qilgan malikadan ming marta afzal edi. O'z baxtini o'zi yarata oladigan kishi o'zgadan baxt kutmaydi. Iqbolni mendan sovutgan narsa ham mening shu bir og'iz nojo'ya gapim edi. Gugurt cho'pi oxirigacha yonib qo'limni kuydirdi.

Demak, Iqbol hayot, uning ko'zlari avvalgidek ravshan. Biroq u hozir qayerda! Er qilganmikin? Kim ekan u baxtli yigit? Mumkin emas! Ishonmayman.

Qani endi, uni hozir shu topda ko'rsam, o'sha ko'kimtir nur ichida bir ko'rsam. Hu o'sha cho'llarda chaqnagan ko'kimtir chaqin shu'lasida u haqida xayol sursam... Yoshlikni, biz ishlagan o'sha azamat qurilishlarni eslasam, birga orzu qilganimizcha yashasak...

Qaydasan, qaydasan, Iqbol?!

Asta-sekin tong yorisha boshladi. Kiyinib tashqariga chiqqanimda chol parom ketida eshkak burib, daryoning qoq o'rtasida narigi qirg'oqqa qarab ketardi.

Otni egarladim. Ustiga ikkita yuk mashinasini ortgan parom ortga qaytdi. Cholning oppoq soqollari shamolda silkinar, yenglari bilagigacha shimarilgan baquvvat qo'llari eshkakni epchillik bilan boshqarib kelardi.

Tuni bilan chaqin chaqqan tomondan endi quyosh ko'tarildi. Kechasi kumushdek tovlangan daryo suvi sarg'imtir tusga kirgan edi.

Paromdagi mashinalar qirg'oqqa chiqib, shag'al bostirilgan yo'ldan motorlarini gurullatib ketishdi.

— Ota, bir iltimosim bor edi, aytsam, xo'p deysizmi?

— So'rang, bolam.

Cholni budkaga boshlab kirdim-da, devordagi suratni menga berishini so'radim.

— E, mendan so'rab nima qilasiz, o'zidan so'rang-da.

— O'zini besh yildan beri topolmayman.

— Mendan so'rab qo'ya qolmabsiz-da.

— Taniysizmi?! Hozir qayerda u?!

— Qiziqsizmi? O'z qizimdek bo'lib qolgan bir kishini tanimay jinni bo'pmanmi? Kechasi bilan Qo'shqo'noqda chaqmoq chaqib chiqqan o'sha siz qidirgan Iqbol-da. Bu atrofdagilar kechasi shunaqa chaqmoq chaqishi bilan darrov: "Iqbol chirog'i yondi" deyishadi, soatingiz necha? Yetti bo'ldimi, hozir o'zi ishdan qaytib qoladi. Mana shu paromda uyga o'tadi. Qani, uyga olib ketay.

— Er qilgani yo'qmi? — deya shoshib so'radim undan. Chol qo'l siltadi.

— Nazarimda, erga chiqmoqchi emasga o'xshaydi. Ne-ne yigitlar kishi qo'ydi. Ko'nmaydi. Xotin-xalajning gapiga qaraganda, allaqaysi GESda ishlaganda bir yigitga ko'ngil bergan emish. Yigit bevafolik qilganmish, unday desam, kimni kutadi?! Xullas, bu to'g'rida bir nima deyish qiyin...

Chol mendan so'ramay otning egarini olib suvlug'ini bo'shatib qo'ydi. Men to'ngakka xotirjam o'tirib papiros cheka boshladim.

Daryo hamon shovullar, chol suv o'rtasida to'lqinlar bilan olishib, quyosh chiqayotgan qirg'oqqa tomon intilar edi.

1956-yil

RAHMAT, AZIZLARIM

Buvaydadan avtobusga chiqishim bilanoq, Muazzamga ko'zim tushib qoldi. U tirsagini derazaga qo'yib xayol surib borardi. Boshida rangi ko'tarilgan sarg'ish kosinka, egnida oddiygina shtapel ko'ylak. Sochini nari-beri o'rib orqasiga tashlab qo'yaqolgan. Muazzamni hech shu ahvolda ko'rmagan edim. U studentlar ichida eng yaxshi modalarni tanlab kiyardi, sochini bo'lsa kuniga har xil turmaklamasa ko'ngli joyiga tushmasdi. Uning o'ndan ortiq sumkachalari bo'lguchi edi. Hozir u og'ziga qog'oz yopib ip bilan bog'langan shisha banka, kastrulka, olma solingan to'r savatni tizzasiga qo'yib o'tiribdi. Muazzam shu ahvolda ham chiroyli edi.

Uning yoniga borishni ham, bormaslikni ham bilmay, ikkilanib turib qoldim. Axir, ko'rmaganimga ikki yildan oshdi. Uning ustiga Muazzam meni jinidan yomon ko'rardi. Studentlikda har ish o'tadi, hozir o'sha ishlarni o'ylasam, badanimdan sovuq ter chiqib ketadi.

Kursdoshlarimiz orasida Muazzamning ishqida kuymagani yo'q desam mubolag'a bo'lmas. Men-ku jinnidan battar edim. Shu uchun kuniga soqol qirardim, yuvilaverib asli rangi qanaqaligi bilinmay ketgan shimimga kuniga dazmol bosardim. Ammo u menga qaramasdi. Men bo'lsam hadeb atrofida aylanishaverardim. Keyin bilsam, u frontdan duduq bo'lib kelgan Odil degan bola bilan kinoga borib yurar ekan. Juda diqqatim oshib ketdi. Shu bevafo dunyoda yashab nima qildim, deb o'zimni pichoqlamoqchi ham bo'ldim. Oxirgi marta o'zimga kuch yig'ib, yotog'ining eshigini shartta ochib kirdim-u, bilagidan ushlab:

— Muazzam, seni yaxshi ko'raman, sensiz yashayolmayman, dedim. U sharaqlab kuldi.

— Mensiz bemalol yashayverasiz, — dedi Muazzam ko'zini baqraytirib turib.

— O'zimni osib qo'yaman, — dedim. Bilmadim o'shanda bu gapni baqirib aytdimmi yo pichirlab aytdimmi, esimda yo'q. Muazzam battar ermak qilib kuldi.

— Osolmaysiz, jon shirin. Agar osadigan bo'lsangiz, sport zalida arqon bor, o'sha yoqqa kirib osing!

Ko'zimga qon to'lib ketdi. Yotoq eshigini taraqlatib yopdim-u, sport zaliga yugurdim. Darhaqiqat, arqon bor ekan. Olib bir uchini bog'laydigan joy qidirayotganimda hushim joyiga keldi. Shoshma, o'zimni osishga-ku osaman. Undan keyin nima bo'ladi? Osilib yotgan o'ligimni ko'rganlar ham, osilib o'lganimni eshitganlar ham, "ahmoq ekan" deydi-ku. Albatta, shunday deydi. O'zimni o'ldirib bo'pman! Men hali unga ko'rsatib qo'yaman.

Ammo nima qilib unga ko'rsatib qo'yishni o'ylab-o'ylab topolmadim. O'qishlar tugab, har qayoqqa tarqab ketdik hamki, unga ko'rsatib qo'yolmadim. Bolalarning aytishiga qaraganda, uning ko'ziga ko'rinmay qolgan paytlarimda, ulardan meni so'rarkan, ular ko'rmadik deyishsa, Xudo rahmat qilsin, yaxshi bola edi, deb kularkan. Eshitib battar jahlim chiqardi.

Bu gaplarga ham ikki yil bo'pti. Vaqtning tez o'tishini qarang! Mana, Muazzam bilan bir avtobusda o'tiribmiz. Uning ilgarigi oliftaliklari qolmagan ko'rinadi. Nima bo'ldi? Nahotki shunday tam-tam qiz darrov boshqacha bo'lib qolgan bo'lsa? Yo erga teggan bo'lsa, eri mundayroq odam chiqib qoldimikin? To'rvadagi narsalarni qayoqqa olib ketyapti? Boshiga biron kulfat tushdimikin? Balki, unga narsa olib ketayotgandir? Sabrim chidamadi. Eski ginalarni unutib, oldiga borib o'tirdim. U meni ko'rishi bilan ko'pdan yo'qotgan kishisini topib olgandek ko'zlari yashnab ketdi. Shu mahal dilimdan bir gap o'tdi. Uning bu qarashini o'zimcha yo'yib, nega senga tegmadim, senga tegganimda bu ahvolga tushmasdim, degan ma'noni anglabman. Ko'rishdik, hol-ahvol so'rashdik. Ishlarimni so'radi. Uylanganimni, xotinim vrach ekanini aytdim. U bilinar-bilinmas kulib qo'ygandek bo'ldi. Men undan ortiqcha gap so'ramadim. Nimani ham so'rayman. Ahvoli ma'lum bo'lib turibdi-ku. Turmushi yaxshi emasligi, erdan baxtsiz bo'lgani kiyim-boshidan, rangi ro'yidan bilinib turibdi.

Qo'qonda avtobusdan tushdik. Bekatda meni kutib turgan haydovchim rosa eshitadiganini eshitdi. G'ildirakdan chiqazib yuborganini aytsa ham, quloq solmay so'kaverdim. Muazzamga o'zimning kimligimni ko'rsatib qo'yish uchun atayin shunday qildim. Mashinaga chiqa turib, Muazzamga qo'l uchini berib xayrlashmoqchi bo'lgandim, u gapim bor, ketmay turing, deb qoldi.

Aha, dedim ichimda, menga yetkazgan ozorlaringning qasdini olyapman, deb ich-ichimdan sevinib ketdim.

— Sizni ko'rib qolganim yaxshi bo'ldi. Yuring, bir joyga borib kelamiz. Haydovchiga javob berib yuboravering!

Rozi bo'ldim. Ikkovlashib piyoda ketdik.

— Yo'ldan qoldirganim uchun xafa bo'lmaysiz-da. Atayin shunday qildim. Odiljonni ko'rib kelasiz.

Yurishdan to'xtab qoldim. O'sha o'zim yomon ko'radigan Odilning oldiga boramanmi? Kallamni shartta kesib tashlasa ham bormasman.

— Yuravering, yuravering, sizni ko'rsa sevinib ketadi.

U qo'limdan ushlab sudradi. Beixtiyor yurib ketdim. Ancha joygacha indamay bordik. Muazzam yo'l chetida osilib turgan tol novdasidan ko'm-ko'k barglarini qisimlab sidirib oldi-da, ma'yus gapira boshladi.

— Bilaman, meni yomon ko'rasiz. Odiljonni bo'lsa ko'rarga ko'zingiz yo'q. Hech bo'lmasa birga o'qiganimizning hurmati bordir. Bilasizmi, xafa bo'lmang-u, sizni hali ham uncha xush ko'rmayman. Ko'ngil xushlamagan har bir odam dushman emas-ku!

Hayronman, nima demoqchi, nima qilmoqchi?

Shunaqa tushunib bo'lmaydigan xayollar bilan shahar kasalxonasi yaqiniga kelib qolibmiz.

— Shu yerda birpas kutib tura turing. Hozir chiqaman.

U shunday dedi-yu, shoshib kasalxona darvozasiga kirib ketdi. Ancha hayallab qoldi. Poylab o'tirib, zerikib ketdim. Bu yerda men nima qilib o'tiribman, deb o'zimdan so'rayman. Meni yomon ko'radigan odamning ketidan nima qilib ergashib yuribman? Keta qolaymi? Shu o'tirishda Muazzamning meni xo'rlaganlari ko'zimga ko'rinaverdi. O'rnimdan turdim. Endi ketmoqchi bo'lib turgan

edim, Muazzam chiqib qoldi. Uning ko'zlari qizargan, boshidagi kosinkasi sirg'alib yelkasiga tushib qolgan edi. U oldimga kelib nimadir demoqchi bo'ldi-yu, gapirolmay birdan ho'ngrab yig'lab yubordi. Nima deyishimni, nima qilishimni bilmay serrayib turib qoldim. Boya Odilning oldiga olib boraman degan edi. Demak, Odil kasalxonada. Nima bo'ldi? Tinchlikmikan? Odilning tanasida yorilgan bombaning parchasi bor, davolatmay yuribdi, deyishardi. Dardi o'shadir?

— Ketmoqchimisiz? Ketmang! — dedi Muazzam yalingan ohangda. — Ketib qolsangiz kim menga hamdam bo'ladi?

— Nima bo'ldi? Ayt?

Muazzam entikdi, jiqqa yosh to'la ko'zlarini javdiratib qaradi.

— Ertaga Odiljonning oyog'ini kesishmoqchi.

Titrab ketdim. Bugun Muazzamni ko'rganimdan beri kallamga kelgan qasos olish niyati, maqtanish, unga o'zimni ko'rsatib qo'yish niyatlarim birdan qayoqqadir uchib ketdi-yu, vujudimga hokimlik qilayotgan o'sha tuyg'ular o'rnini shafqat, odamiylik, hamdardlik egallab oldi.

— Oldiga kiring, yupating, darmon bo'ling. Kursdoshini ko'rib tanasiga quvvat kiradi. Yo'q demang!

Nahotki yo'q desam. Nahotki birgina boqishim, yonida bir dam turishim o'limni yengish uchun kuch bo'lsa-yu, yo'q desam. Men ham odamman.

Vrachlar meni Odilning oldiga kiritishmadi. Charchagan, operatsiya oldidan dam olsin, deyishdi. O'tirib xat yozdim. Qiziq-qiziq gaplardan yozdim. Universitetda qilgan qiziq-qiziq ishlarimizni, o'sha paytda aytgan latifalarimizni yozib kiritdim. Xat tagiga imzo qo'ydim. O'qib yurgan paytimizda devoriy gazetaga burnimni katta qilib urib chiqishgan edi. Esimda turgan ekan, xuddi o'shanday qilib surat chizib qo'ydim. O'zimga juda o'xshaydi.

Xatni olib, albatta, xursand bo'ladi. Bilaman. Bunaqa paytlarda bemorning xayolidagi dahshatli o'ylarni qochirish uchun shunday qilish kerak. Kulgi dahshatni quvadi. O'limni yengadi!

Muazzam bilan yana Buvaydaga qaytdim. Uni yolg'iz qoldirgim kelmadi. Men ketsam, u qandoq qilib tong ottiradi? Shunday paytlarda yonida odam bo'lsa, tirgovich bo'ladi.

U telefon stansiyasining orqasidagi kichkinagina hovlida turar ekan. Uy egasi — keksagina xotin bizni ko'rishi bilan tashvishlanib ayvonga tushdi. Muazzamning ko'zlari qizarganidan qo'rqib ketdi, shekilli, menga savol nazari bilan qaradi.

— Tinchlikmi, Odiljonning ahvoli qalay?

Yaxshi gap bilan kampirni tinchlantirdim. Muazzam uyga kirib ketgancha qaytib chiqmadi. Uning uyida chiroq ham yonmadi. Kampir menga supaga joy qilib berdi. Yechinmay yonboshladim. Chelakda muzlagan suvdek nursizgina oy ko'tarildi. Kampir hamon g'imirsib, nimalardir qilib yuribdi. U mening uxlamaganimni bilib oldimga keldi.

— Yashirmang, mehmon, Odiljonning ahvoli qalay? — dedi u shivirlab.

— Ertaga oyog'ini kesishmoqchi, — dedim xo'rsinib.

Kampir qimirlamay turib qoldi. Oy orqa tomondaligidan uning yuzi ko'rinmas, faqat sochlari kumushdek yiltirardi. U shu ko'yi ancha turib qolgandan keyin birdan tizzasiga urib oh urdi.

— Voy oydekkina bola-ya, voy shundoq guldek yigit-a! Voy esiz bola. Urushga qiron kelsin, urushni yer yutsin! Bu qirg'in kelgurdan yigirma yildayam qutulmasak...

— Sekin, sekin, aya! Nima qilasiz Muazzamning yuragiga vahima solib. Mana ko'rarsiz, ko'rmagandek bo'lib ketadi.

Kampir boshini sarak-sarak qilib, ayvonga qarab ketdi.

Uxlayolmadim. Xayol ming yoqqa olib ketadi. U yoqqa ag'darilaman, bu yoqqa ag'darilaman, ko'zim ilinmaydi. Bilib yotibman. Muazzam ham shu ahvolda. U dunyoda eng yaqin kishisi halokat yoqasida turgan shu daqiqalarda uning tanasiga jon bo'lib kirishga tayyor. U eri bilan baravar o'lim yo'lini to'sayotibdi. To'shakda yotgan bemor hayot uchun yolg'iz o'zi kurashmayotganini bilib turibdi. Do'st mehri, yor muhabbati har qanday ofatni daf qila olishini bilib turibdi.

Muz parchasidek oyni oppoq tong nafasi eritib yubordi-yu, azim teraklar uchidagi yaproqlar alvondek yaltiradi. Shu tarovatli tong payti kursdoshimga umr tiladim:

— Yashashing kerak! Hali oldingda uzoq umr yo'li bor, hayotda hali haqqing ko'p, hayot jomini umring oxirigacha sipqor, azizim!

Yana kasalxona ostonasidamiz. Bu gal Muazzam bilan ik kovimizga oq xalat kiydirib ichkariga boshlashdi.

Uzun koridordan oyoq uchida entikib, entikib boryapmiz Odilni tezroq ko'ra qolsam, operatsiyaga yotishi oldidan bir-ikki qiziq-qiziq gaplar aytib ruhini ko'tarsam deyman.

Palataga kirdik. Burchakdagi karavotda Odil ko'kka boqib yotibdi. U nimanidir o'ylab, har zamon iljayib qo'yadi. Oxiri odam sharpasini sezib, boshini biz tomonga burdi-da, birdan ko'zlari yashnab ketdi.

Muazzam ildam yurib, uning tepasiga keldi. Hayajonini yashirib uning hol-ahvolini so'radi. Odil horg'in-xasta tovushda javob berdi.

— Burunboyning xati menga jon berdi. Suratini ko'rib, bir kulaman, xatini o'qib, bir kulaman. Oyog'imni qirtillatib kesishyapti hamki, kulgim qistaydi.

U menga qarab mamnunlik bilan iljaydi. Demak, shu kechayoq oyog'ini kesishibdi.

— Rahmat, Burunboy...

Muazzamning ko'zlaridan duv etib yosh to'kilib ketdi.

— Xafa bo'lma, Muazzam, omon qoldim-ku! Sizlar bo'lmasanglar o'lib ketadigan narsa edim. Operatsiyani ko'taradigan holim yo'q edi.

Vrach, bemorni charchatib qo'yasizlar deb, bizni chiqazib yubordi. Tashqarida oftob yashnagandan yashnab ketgan. Tiniq beg'ubor osmonda bir gala kaptar nurga cho'milayotgandek goh sho'ng'iydi, goh parlariga qo'ngan nurni to'kib yubormoqchidek qanotlarini tinimsiz silkitadi.

Yana avtobus bekatida to'xtadik. Muazzam chiroyli bir tabassum bilan qo'l berib xayrlashdi.

— Rahmat!

Boshimdan zar sochsalar, oyoqlarim ostiga poyandoz yozsalar, nurdan ko'ylak tikib kiydirsalar, baridan kechardim-u, shu bir og'iz so'z bilan qolardim.

Inson ko'ksidan toshib chiqqan, uning qalbida eng ezgu hislari-tuyg'ulari toblagan samimiy tashakkuridan qimmatliroq mukofot bormi odam bolasiga!

Bugun men o'zimni tanidim. Bunga siz sababchisiz, azizlarim!

1958-yil

ONAJONLAR

Bugun uch kun bo'ldi, kampirdan darak yo'q. Unga juda o'rganib qolgan edik. Har gal u sutmi, shaftolimi olib kelganida, baragimizga kirib, u yoq-bu yoqni sinchiklab qarardi-da, koyishga tushib ketardi. Idishlarimiz yuvuqsiz, o'rinlarimiz yig'ishtirilmay qolganini u kelgandagina sezardik... To'g'risi, uning koyishlari bizga yoqardi. Uning tovushini eshitganda har kim qishloqda qolgan o'z onasini eslab ketardi.

U ketganda kuni bilan jaziramada ishlab charchashimga qaramay, uyimni, onamni, ukalarimni o'ylab, ancha vaqtgacha uxlayolmay yotardim. Saraton oftobi qovjiratgan sahro giyohlari kech shabadada allaqanday hid chiqarib, butun cho'l bo'ylab aylanib yurardi. Osmon to'la yulduz. Oy tepaga kelib, qimirlamay turib oladi. Daryo shovullaydi. To'g'on tepasida elektrpayvand chaqin chaqadi. Uning o'qdek yugurik ko'kimtir nuri tepamdan o'tib, cho'l qo'yniga kirib ketadi.

Bu manzara, bu hislarni, ko'pincha, sezmay qolardim. Kampir kelib-ketgan kunlardagina shunaqa hislar vujudimni qamrab oladi. Olamni ko'rayotgandek bo'laman. Shu sokin oqshomda qayerdadir, juda olisda jang ketayotganini, o't chaqinlari orasida kampirning o'g'li goh emaklab, goh yugurib oldinga intilayotganini ko'rib turgandek bo'laman.

Oramizda onalik mehriga to'ymagan yetim bolalar ham bor edi. Ular kampir kelganda atrofida girdikapalak bo'lishardi. Topgan-tutganlarini oldiga to'kib solishardi. Shunday bo'lsa ham, u koyishdan tinmasdi. Hadeb bizni urishaverardi. Bilaman, onalar shunaqa bo'ladi.

Bolani, hatto u bola-chaqalik bo'lganda ham koyiyverishadi.

Kim bilsin, u ham yolg'izlikdan o'rtanib, dilini yozish uchun oldimizga kelayotgandir. Kim bilsin, u bizni ko'rganda o'g'lini ko'rgandek bo'lar.

Uch kun bo'ldi uni ko'rmaganimizga. Bugun ish zo'r bo'ldi. Kuni bilan zavoddan qaynoq sement tashidim. Mashinamning kabinasi jaziramada dazmoldek qizib ketdi. Horib-charchab kelarkanman, kampir to'g'on ustida meni kutib turardi.

— Ne'matdan xat, o'qib ber, bolam.

Uning qo'lidan uchburchak xatni olib, tabelchining budkasiga boshladim. Naryadchi qiz kursisini bo'shatib berdi. Xatni o'qiyotganimda kampir ikki qo'lini tizzasiga tirab, jimgina quloq solib o'tirdi.

O'g'li sog'-salomatligini aytib, yaralanib gospitalga tushib qolganini, yaqinda uyiga butunlay javob tegishini aytgan edi. Kampirning ko'zlari besaranjom bo'lib qoldi. Qo'limdan xatni olib orqa-o'ngini ag'darib qaradi.

— Hammasini o'qidingmi? Biron joyini tashlab ketmadingmi? Qayeridan yaralanganini o'qib bermading-ku!

Xatda Ne'mat qayeridan yaralanganini aytmagan edi. Kampir tashvishda qoldi. Xat bilan bo'lib, budkaga qizlar kirishganini, ular jim turib suhbatimizga quloq solishayotganini bilmay qolibmiz.

Qizlar kampirni alaxsitish uchun birdan chuvullab yuborishdi.

— Xolajon, o'g'lingiz kelganda meni kelin qilasizmi? Kampir unga qarab kulib yubordi.

— Senimi? Ahvolingni qara, soching paxmoq, burning puchuq.

— Ho, — dedi gap qotgan qiz, — yaxshilab qarang, pardoz qilsam oydek kelin bo'laman.

Hammamiz qotib-qotib kulishdik. Kampir birdan qizlarni koyib ketdi.

— O'zlaringga qarasangiz bo'lmaydimi, qiz bola degan o'ziga qarab turadi. Uyimga keling, qatiq ivitib qo'yganman, bosh-moshlaringni yuvib olasanlar. O'smam ham otquloq bo'lib yotibdi.

Kampir ketdi. U ketdi-yu, qizlarning kulgilarini ham o'zi bilan olib ketgandek bo'ldi. Birdaniga hammasining uyi, onasi, onasining beozor koyishlari esiga tushib ketdi. Qoziqda dazmollangancha qolib ketgan atlas ko'ylakdan tortib, ko'ngilni rom qilgan yigitigacha, ariq bo'yidagi oshrayhondan tortib, bolamning nasibasi deb yedirmay, ariga talatmay onalari saqlab qo'ygan so'ridagi uzumgacha shu onda budka ichiga kelib qolgandek bo'ldi.

Shu-shu bo'ldi-yu, kampir baragimizga kelmay qo'ydi. Uni goh katta yo'lda, dasturxonga tugilgan paxtani boshiga qo'yib, goh chelakda ohak olib ketayotganini ko'rib qolardik.

Bilib turibmiz. U o'g'lining kelishiga tayyorlanayotibdi.

Uning uyi bosh to'g'on tushayotgan do'ngning nariyog'idagi o'rikzorda edi. Hovlisidagi bir tup azamat sadaqayrag'och uzoqdan ko'rinib turadi. Eri daryoda qayiqchilik qilgan. Islohot yillari erini dushmanlar daryoga cho'ktirib yuborishgan. Bitta-yu bitta o'g'li frontga ketgan. Huvullab qolgan katta hovlida bir o'zi yashaydi. Kechqurunlari eshigi oldidagi supada hassasini yerga tirab, o'g'lining yo'liga ko'z tutib o'tiradi. Qorong'i tushgandagina kirib, alla-pallagacha uxlamay, tiq etsa eshikka qarab yotadi. Diqqati oshib, dili qorong'i bo'lib ketgan kezlarda chelakni shaftoliga to'ldirib, yotog'imizga kelib qoladi. Bizni koyib-koyib, taftini bosib ketadi.

O'zingiz bilasiz, nimaiki yangi gap chiqsa, avval shofyor xalqi biladi. Boshlig'imizning mashinasini haydaydigan hamkasbim bir gap aytib qoldi. Ertadan daryoning eski yo'li to'silarmish. Suv ko'tarilganda o'rikzorni suv bosarmish. Uch-to'rt kundan keyin o'sha yerda yashaydiganlar ko'chirilarmish.

Shu gapni eshitdim-u, yuragim jiz etib ketdi. Demak, kampir ham boshqa yoqqa ko'chiriladi. Axir, u o'g'lining kelishiga uy oqlab, devor-toshlarini tuzatayotgan edi-ku!

Oshnamning aytgani keldi. Garajda majlis bo'lib, bizni o'rikzorliklarni ko'chirishga ajratishdi. Kampirni ko'chirishni o'zim so'rab oldim.

Erta bilan ming xijolatda mashinamni kampirning uyiga olib bordim.

Kampir supada ikki tizzasiga qo'lini tirab o'tirardi. Bosh ko'tarib menga qaramadi. Atrofga razm soldim. Imorati ancha nurab qolgan bo'lsa ham, devorlari oqlanib, deraza oynalari artilib, top-toza qilib qo'yilgan edi. Hovli supurilgan. Ariq bo'yida atirgul, qashqargul ochilib yotibdi. Devor yonidagi ikki tup shaftolining shoxlari egilgan. Supadan daryo, to'g'ondagi kranlar ko'rinib turibdi. Hovli ichi jimjit. Motorlarning shovqini eshitilmaydi.

Ilgarigi vaqtlarda xotinlar bazm qilishganda, erkaklar eshitmasin deb deraza oldilariga suv to'la chelaklarni terib qo'yishardi, deb eshitardim. Demak, suv ovozni to'sar ekan-da. Bo'lmasa quloqni bitiradigan motor tovushlari eshitilmasmidi. Kampir boshini ko'tarmay, "keldingmi?" dedi.

Nima deyishimni bilmay serrayib turib qoldim.

— Yo'q, uyimga achinmayman. Hukumatdan ayaydigan joyim yo'q. Odamlar jonini ayamayapti-ku, shu kulbaga hukumatdan pul olamanmi?! Men shunaqa tanti xotinman. Faqat Ne'matginam kelganda meni topolmay sarson bo'lmasmikin, deyman.

Yuragim to'lqinlanib ketdi. Kampir tizzasiga tiralib o'rnidan turdi:

— Yuklarni tugib qo'yganman. Mashinangga olib chiqaver. Menda nima ham bor, deysan. Kelinga atagan bisotimdan boshqa narsam yo'q. Sigirni ertaga o'zim yetaklab ketaman...

Yuklarni tashib bo'lgunimcha kampir hassasiga tayanib, sadaqayrag'ochga tikilib turaverdi. Mashina joyidan qo'zg'alganda uning o'pkasi to'lib xo'rsindi. Yig'larmikin degan edim. Yig'lamadi. Qayrilib orqasiga qaramadi ham. Ammo men bir kiprik qoqsam tamom. Ko'zlarimdan yosh oqaman deb turibdi.

Axir bu xotin shu kulbada ellik yil umr kechirib, ne kunlarni ko'rmagan. Ochligiga ham, to'qligiga ham, baxtiga ham, baxtsizligiga ham guvoh bo'lgan uy, uning alamli kunlarini sir qilib saqlagan devorlar qoldi.

To sement zavodi posyolkasiga yetgunimizcha undan sado chiqmadi. Yangi qurilgan, yonida chorbog'chasi bor uyga ko'chlarni tushirdik. Kampir uylarini aylanib, chorbog'ni kezib chiqdi. Uning yuzidan, ko'zidan yangi joyning yoqqan-yoqmaganligini bilib bo'lmasdi.

Ketayotganimizda kampir, meni yolg'izlatma, Ne'matim kelguncha shu yerda tura qol, o'g'limdek bo'lib qolding, Ne'matimga qiyomatlik aka bo'l, deb yalindi. Ikki kundan keyin ko'chib kelaman, deb yupatdim. Yo'lda o'zimdan o'zim koyindim. Axir, nega ikki kundan keyin dedim, bugunoq kelaman desam bo'lmasmidi!

Nazarimda, kampir notanish uyda g'arib bo'lib o'tirgandek, men yo'g'imda yum-yum yig'layotgandek tuyulardi. To'g'onga ko'tarilganimda ko'zlarim beixtiyor o'rikzordagi sadaqayrag'ochga tushaverdi. Ishimni tugatdim-u, ko'rpa-to'shagimni ko'tarib, kampirning uyiga qarab ketdim. U eshik oldidagi xarsangga o'tirganicha zavod quvuridan chiqayotgan tutunga qarab xayol surardi.

Uyga kirdik. Hali bo'yoq hidlari kelib turgan ayvonda ancha vaqtgacha gaplashib o'tirdik. Kampir samovar qo'yib keldi. Yigitlar daryodan baliq tutishgan ekan, ikkitasini berishgan edi, yuvib, tozalab keldim. Kampir baliq yemasligini aytdi. Baliq tozalangancha qoldi. Non-choy qilib qo'ya qoldik.

Kampir joy solib berdi. Chiroqni o'chirib, ichkari uyga kirib ketayotganida to'xtab, baliq yemasligining sababini aytib berdi.

— Rahmatlik otang shu daryoga cho'kib ketgan. Kim biladi, uni shu baliqlar yeganmi...

Uning ovozi titradi. Qorong'i bo'lganidan yuzini ko'rolmasdim, yig'layotgandek bo'ldi. Qattiq charchagan bo'lishimga qaramay, uxlay olmadim. Kampir juda barvaqt uyg'onib, hovli supurdi, samovar qo'ydi. Xuddi o'z uyimda, o'z onam oldida yurgandek rohat qilardim. Ishga ketayotganda kampir ertaroq qayt, sang'ib yurma, ovqating sovib qoladi, deb ta'kidladi.

O'sha kuni ish juda ko'p bo'ldi. Butun samosvallar tosh tashishga qo'yilgan edi. Daryoning eski yo'li to'silyapti. Tinmay ko'prikdan tosh tashlab turibmiz. Daryo quturadi. Toshlar ustidan sapchib, eski yo'liga otiladi.

Suv axir bo'yin egdi. U tosh to'siqlardan o'tolmay, mayda to'lqinlarni zarda bilan orqaga silkitdi. Ikki kun deganda daryo butunlay to'silib, suv ko'tarila boshladi. To'g'on darvozalaridan faqat bittasigina ochiq. Suv o'rikzor tomonga o'rmalay boshladi. To'g'on tepasida odam ko'p. To qosh qoraygunча olomon tarqamadi. Bir mahal qarasam, yonimda kampir turibdi. U qorong'ida arang ko'rinib turgan sadaqayrag'ochdan ko'zini uzmasdi. Oxiri qorong'ida o'rikzor ko'rinmay ketdi. Ertalab kampir men bilan yana to'g'onga keldi. O'rikzor endi butunlay suv ostida qolib ketgan edi. Faqat sadaqayrag'ochning uchi ko'rinib turardi. Kampir o'sha yoqqa tikilib turib:

— Otang rahmatlik ekkan edi, — deb xo'rsinib qo'ydi.

Garajdan mashina olib chiqib kelayotganimda do'kon oldida bir to'da odam o'ralashib turganini ko'rib qoldim. Yana kelib qarasam, kampir yerda yotibdi. Bir xotin yuziga suv sepyapti. Kabinadan sapchib tushdim.

Ne'matdan kelgan xatni qorovul olib qo'ygan ekan. Ochib kampirga o'qib beribdi. Xatda Ne'mat gospitalda oyog'ini kesib tashlashganini aytibdi. Kampir hushidan ketib qolibdi.

Uni kabinaga chiqarib, uyga olib ketdim. Ertasiga ham, indiniga ham ishga chiqolmadim. Kampirning ahvoli og'ir edi. U bir oydan ortiq yostiqdan bosh ko'tarmadi. Faqat bir gapni aytardi:

— Bolam, bolaginam. O'z qo'ling bilan tuproqqa qo'y. To'yingni ham ko'ra olmadim, hech bo'lmasa diydoringni bir ko'ray...

Yo'q, o'g'lining diydorini ko'rish unga nasib bo'lmadi. O'g'liga ilhaq bo'lib ko'z yumdi. Uni dafn qilishga anchagina odam yig'ilgan edi. Bolasining o'rniga bola bo'lib, tobutining oldiga tushdim. Yo'l-yo'lakay yot, begona kishilar marosimga qo'shilaverdi. Kanal qaziyotganlar ishni to'xtatib, tobutni yelkama-yelka o'tkazib borishardi.

Katta yo'lga chiqqanimizda bir harbiy yigit yuk xaltasini yerga qo'yib, oqsoqlana-oqsoqlana tobutning bir qanotini yelkasiga oldi. O'n qadam ham yurmay oyog'i qaltirab chetga chiqdi. Nihoyat, marosim orqasidan ancha vaqtgacha qarab turdi-da, xaltasini olib, to'g'on tarafga jadal yurib ketdi.

Qaytib kelganimizda o'sha harbiy yigitni uyda ko'rib hayron bo'ldik. U yog'och oyog'ini chiqazib, ayvon labidagi ustunga boshini tirab, qimirlamay o'tirardi. Endi bildim: bu Ne'mat edi. U onasining boshqa uyga ko'chganini bilmay, o'rikzorga borgan. Boya kimning tobutini ko'targanini ham bilmay qolgan...

Har gal yo'lim shu tomonlarga tushganda, poyezd to'g'onga yaqinlashishi bilan vagon oynasini ochib, o'sha o'rikzorga qarayman. Suv betiga chiqib, barg yozishdan tinmagan sadaqay-rag'ochning ko'm-ko'k uchlariga tikilaman. Bu yashil novdalar menga juda ko'p voqealarni eslatib qo'yadi. Nazarimda, daryoga cho'kkan qahramon ota suvdan bosh chiqazib, atrofda chaqnagan sonsiz chiroqlarga qarayotgandek, azamat to'g'ondan quyilayotgan sharshara tovushiga quloq solayotgandek bo'ladi. Suv jimjimalariga oq to'shini urib uchayotgan qaldirg'ochlar, orqasida ayri iz qoldirib suzayotgan viqorli oppoq g'ozlar menga o'sha suronli yillarda hammaga mehrini barobar sochgan munis ona

chehrasini, uning oppoq paxtadek sochlarini eslatadi. Front yo'liga ilhaq tikilgan ko'zlarini eslatadi. Qaynoq onalik tuyg'ulariga to'ymagan bolani fikran qidiraman. Qaysi jabhada ekan u?

Shunday otaning, shunday onaning bolasi hayotda o'z o'rnini topib olganiga ishonaman. Nazarimda, u oldinda, hammaning oldida shitob bilan olg'a ketayotgandek.

Xabar ber, xabar ber, qaydasan, uka!

1961-yil

POYQADAM

— Voy qudamdan aylanay, ana kelishadi, mana kelishadi, deb ikki ko'zim ko'chada bo'ldi-ya, to'y qandoq o'tganiniyam bilmadim. Voy bo'ylaringizga tasadduq. Xush kelibsizlar. Hoy, Nigoraxonni uyg'otinglar. Dadalari bilan oyilari kelishdi. — Vahobjon bilan Manzurani quda ana shunday so'zlar bilan kutib oldi.

Quda yoshi ellikdan oshgan bo'lsa ham, yuzidan pardoz arimagan jikkakkina xotin edi. Uning yuzlari xuddi sharbati siqib olingan anor po'stiga o'xshab ketardi. Qo'lidagi qo'sha-qo'sha uzuklar, bo'ynidagi har biri no'xatdek keladigan dur marjonlari, egnidagi yoshiga yarashmagan gulli krepdeshin ko'ylagi uni alaqanday bachkana qilib ko'rsatar edi.

Vahobjon atrofga nazar tashladi. Katta hovlining boshidan oyog'igacha qo'yilgan stollardan hali dasturxon yig'ilmagan, gullar orasida bo'shagan shishalar, to'yda xizmat qilib charchagan kishilar so'rilarda yechinmay yotib qolishgan, yero'choq oldida dasta-dasta yuvuqsiz laganlar yotardi. Hatto daraxt shoxlariga ilingan lampochkalar hali yoqig'lik turardi.

Quda aya so'rida yechinmay uxlab yotgan kishining oyog'idan silkib uyg'otdi.

— Turing, hoy turing, qudalaringiz kelishdi.

Qora soqol bir kishi yostiqdan bosh ko'tarib atrofga alangladi. U Vahobjonlarni ko'rib iya, iya, deb o'rnidan turarkan, ko'rpacha qatlarini titkilab nimanidir qidirardi.

— Hojar, tishimni ko'rmadingmi?

— Yo'g'-a, qayoqqa qo'ygandingiz? Avval qudalaringiz bilan ko'rishib oling, keyin qidirarsiz.

Chol ildam yurib Vahobjonlar bilan quyuq ko'rishdi. Yo'l boshlab uyga olib kirdi.

— Qani, qani, o'tirishsinlar, o'tirishsinlar, obbo quda-yey, ko'p kutdik. Juda ko'p kutdik. To'yga yetib kelolmadinglar-da. Hay mayli, sizlarga boshqa to'y qilib beramiz endi. Hoy, Hojar, dasturxon keltir, keliningni uyg'ot, o'g'lingni uyg'ot, qaynata, qaynanalari bilan tanishib qo'ysin.

Chol uzr aytib tavoze bilan yuvingani chiqib ketdi. Er-xotin uy jihozlariga mahliyo bo'lib indamay o'tirishardi.

Ular kirgan uy mehmonxona bo'lsa kerak, nihoyatda serhasham edi. To'rda pianino, burchakda kurant soat, devorda ham, yerda ham, divan ustida ham gilam. Shiftda billur qandil. Javonlarda xitoy chinnilari, televizor ustida har xil chinni o'yinchoqlar. Derazalarga ham to'r, ham baxmal parda tutilgan.

Vahobjonning esi og'ib qoldi. Butun umrini mehnat bilan o't-kazgan, ro'zg'orini bir me'yorda olib borgan Vahobjonga bu hashamlar allanechuk ko'rinib ketdi. Er-xotindan sado chiqmasdi. Manzura kaftini iyagiga tiraganicha xayol surardi.

Nigora ularning bittagina bolasi. Vahobjon tug'ilib o'sgan qishlog'i Ganjiravonda o'ttiz yildan beri o'qituvchilik qiladi. Butun Ganjiravondagi kishilarning yarmidan ko'pini shu Vahobjon o'qitgan. U qizini Toshkentga o'qishga yuborayotganda ne ne umidlar qilgan edi. O'qisa, institutni bitirib o'ziga o'xshab o'qituvchi bo'lsa, shu Ganjiravonga kelib otasining ishini davom ettirsa. Kuyovi ham o'qituvchi bo'lsa. Muallimlik qanday yaxshi hunar. Qizi tushmagur nima qilib qo'ydi. Bir og'iz na otaning, na onaning roziligini olmay o'zboshimchalik qilib qo'yibdi. Kuyov nima ish qilsaykin? O'qiganmikin? Ilmi bormikin? Biron hunarning boshini tutganmikin? O'zi axloqlikkina bolamikin?

Ichkariga o'qdek otilib Nigora kirdi. U onasining bo'yniga osilib, u yuzidan, bu yuzidan cho'pillatib o'pa boshladi. Dadasining yelkasiga osilib erkalandi. Ko'pdan sog'intirgan bola ota-onaning yuragidagi gina-kudratni bir dam bo'lsa ham nari quvib yubordi.

Nigora baxtiyor edi. Uning egnida yashnab turgan nikoh liboslari o'ziga biram yarashibdiki.

Nigora chiroyli qiz edi. Ota-ona topganlarini shu qizga sarflashardi. Ayniqsa, u bo'yga yetib, qomati to'lisha boshlagan paytlarda kiyinib ko'chaga chiqqanda Ganjiravon yigitlari esdan og'ib qolishardi. Uning qo'shiqlari, uning jarangdor kulgilari, bo'yi-basti, keksa tollar soya tashlagan anhor bo'ylarida xayolchan kezishlari Ganjiravonga biram yarashardi, biram yarashardi. Qishloq yigitlari atayin tegajog'lik qilib uning oldidan "Men seni ko'rdim yana Ganjiravon ko'chasida", deb qo'shiq aytib o'tishardi. Nigora ham ularning hazillariga hazil bilan javob qaytarardi. Nigora tug'ilib o'sgan qishlog'ining shaydo yigitlarini hasratda qoldirib kimni topdiykin? Ona ana shu to'g'risida o'ylardi.

Kuyov kirdi. U nihoyatda chiroyli, qora qosh, gavdasi quyilgandek, qirraburun, jingalak soch yigit edi. Egnidagi tugmasi chala qadalgan yo'l-yo'l yashil pijamasi o'ziga juda yarashib tushgan edi. U odob bilan qayin otasiga, qayin onasiga salom berdi. Keyin ularni narigi uyga taklif qildi.

Vahobjon bilan Manzura beixtiyor o'rinlaridan turishdi. Ular bu zinadan tushib, u zinaga ko'tarilishar ekan, Vahobjonda kuyovga allaqanday mehr uyg'ongandek bo'ldi. Ammo bu tuyg'u yasatilgan uyga kirishganda o'zi ham ma'nosiga tushunib yetmagan allaqanday hislar bilan aralashib ketgandek bo'ldi. Nigoraning uyi boyagi uy hashamidan o'n chandon afzal edi. Vahobjon oltmish yoshga kirgan bo'lsa, shu olis umr davomida ko'rish u yoqda turSin, xayoliga ham keltirmagan buyumlar bor edi bu uyda. Hatto derazalarning yuqoridagi ko'zlariga rangli shishalar solingan edi.

Nigoraning yuzida, ko'zida: erim yoqdimi, degan ma'no porlab turardi. Tashqarida qayin otaning zardali tovushi eshitilardi. Kuyov kulib derazadan hovliga qaradi.

— Kechirasizlar, boboyning yasama tishlari yo'qolib qolibdi, topolmay xunob bo'lyaptilar, — u Nigoraga yuzlandi, — ish bo'lmasa choy olib kelmaysizmi?

Nigora chiqib ketdi. Kuyov kecha to'yning juda yaxshi o'tganligi, araqning o'zidan yetmish shisha ketganini, mehmonlar ka-

bobga to'yib qolib mantiga qaramaganlari, mast bo'lmagan odam qolmaganini gapirardi.

— Bizning boboy ham mast bo'lib qolganlaridan bilavering to'yning qanaqa bo'lganini. Axir, u kishini uncha-munchaga mast qilib bo'lmaydi-ya.

Vahobjonga bu uydagi buyumlardan tortib odamlarigacha begona, kuyov bo'lsa ko'ziga allaqanday bachkana, yoqimsiz bo'lib ko'rindi. Qani endi vaqt o'tmagan, to'y bo'lmagan bo'lganda u, albatta, qizining qo'lidan yetaklab chiqib ketardi. Nachora, bo'lar ish bo'lgan. Undan tashqari, o'z yo'lini o'zi topadigan yoshga yetgan qizining taqdiriga u qanday qilib hokimlik qila oladi.

Ikki shisha konyak ko'tarib quda kirdi. Uning egnida yangi to'n, boshida to'rt karjli surmarang do'ppi.

— Endi, quda aybga buyurmaysiz-da, bolalarimizning baxtli bo'lishiga andek tanavvul qilamiz-da! Ikromjon, rumkalarni ol. Endi sen ichma. Kechagiga o'xshab dovdirab yurma.

Derazadan isitilgan manti uzatishdi. Vahobjon ichmadi. Otabola bir shishani bo'shatishgandan keyin Vahobjon uzr so'rab o'rnidan turdi.

— Meni aybga buyurmanglar, qiladigan ishlarim bor edi. Onasi, mayli, qolsin. Ertaga bir xabar olarman.

Kayf qilib olgan quda uncha qarshilik ko'rsatmadi, kuyovning ko'zlari suzilib hadeganda tilla tishini ko'rsatib iljayaverdi. Ammo quda aya yalinib esi ketdi.

Vahobjon tashqariga chiqib to'yib nafas olgandek bo'ldi. Salgina o't ketganda bolasi qolib o'zini qutqargan kishining ahvolini eslatar edi.

Vahobjon shu kuni kechgacha shahar ko'chalarida tentib yurdi. Mehmonxonaga kirib yotib yotolmadi, o'tirib o'tirolmadi. Yana ko'chaga chiqdi. Kech kirdi. Fontan atrofi odamlar bilan gavjum bo'ldi. Bola yetaklagan juvonlar, hassasiga tayangan keksalar shaftoli tomchilarning salqinida beozor sayr qilishardi. Hamma shodon-xorlaydi. Faqat Vahobjon tajang. Shahar chiroqlari siyraklashdi, fontan atrofi bo'shab qoldi. Oxiri ko'kka intilgan toshqin fontan

ham asta-sekin yerga singgandek tindi. Vahobjon mashaqqat bilan o'rnidan turib mehmonxonaga yo'l oldi.

Qattiq uxlab qolgan ekan, telefon tovushi uyg'otib yubordi. Boshqa nomer adashib tushib qolibdi. U qayta yotolmadi. Soatiga qarasa, alla-palla bo'lib qolibdi. Ko'chaga chiqdi. Qizinikiga borishga yuragi betlamay, mehmonxona ostonasida kunini kech qildi.

Qosh qoraygan mahalda Manzura keldi. U ham ma'yus edi. Er-xotin bir-biriga biron gap bilan ozor yetkazib qo'ymaslik uchun sun'iy iljayish bilan ichkariga kirishdi.

— Nigora qalay, xafa emasmi? — dedi Vahobjon.

— Binoyidek o'ynab-kulib yuribdi. Nega bormadingiz, xayrlashib ham kelmadingiz.

Vahobjon gap topolmay gardanini qashib qo'ydi.

— Biletni ertangi poyezdga olaveraymi, yo bir-ikki kun turasanmi? — dedi Vahobjon. — Agar xo'p desang, shaharning u yoq-bu yog'ini ko'rsatay.

Manzura qizini tashlab ketishga ko'ngli bo'lmay, yuragining bir cheti uzilib qolayotgandek bo'lib turgan edi.

— Mayli, o'zingiz bilasiz, — deya uning o'ziga tashladi.

Bugun Vahobjon o'zi o'qitgan ganjiravonlik vrach bolani uchratgan edi. U uyiga taklif qilgan. Vahobjon vaqt bo'lsa, albatta, borishini aytgan edi. Shu topda va'dasi esiga tushdi.

Shu kecha na er, na xotin qudalaridan gap ochmadi. Ammo tong otguncha to'lg'anib chiqdi. Ertalab ular endi nonushtaga tayyorlanib turishganda kimdir eshikni bezovta taqillatdi. Vahobjon shoshib ochsa, notanish bir kishi ko'zlari besaranjom bo'lib turibdi.

— Tez borarmishsizlar. Darrov, darrov... — u shunday dedi-yu, shoshilganicha ketib qoldi.

Er-xotin nima gapligiga tushunolmay apil-tapil yo'lga tushishdi.

Nigoraning hovlisi suv quygandek jimjit. Hovlidagi so'rida chol peshanasini ushlaganicha qimirlamay o'tiribdi. Vahobjonning yuragini birdan vahm bosdi, Nigoraga bir gap bo'lmadimikin! U otilganicha uyga intildi. Ichkaridan chiqib kelayotgan qudasi Ho-

jar unga sovuq nazar tashlab o'tib ketdi. Nigora uyning o'rtasida qimirlamay turardi. U oyoq tovushini eshitib o'girildi, dadasini ko'rib ho'ngrab yig'lab yubordi. Manzura kirdi.

— Peshanam qursin, toleyim qursin!

— Nima bo'ldi? — dedi Manzura hayajon bilan.

— Ikromjon akamni qamoqqa olib ketishdi. Hamma narsani xatlab ketishdi.

Hojar derazadan bosh suqdi:

— Kelinning oyog'i "qutlug'" keldi-da! Ha, qadami "yoqdi".

Vahobjon beixtiyor o'tirib qoldi. Atrofga g'amgin nazar tashladi. Uy jihozlari ko'ziga sovuq ko'rinib ketdi. Bu buyumlarning hammasi xatlangan, hammasining egasi boshqa, bular yurtning rizqidan yulib olingan narsalar. Bu uyda shu bitta Nigoragina halol edi. Yo'q, u ham o'g'irlangan, o'zi ham, baxti ham o'g'irlangan.

— Xafa bo'lma, qizim, — dedi Vahobjon, — ilojimiz qancha, begunoh bo'lsa chiqib qolar. Sabr qil.

Chol kirdi:

— Quda, bu ishning shundoq bo'lishini kim biluvdi, deysiz. Chaquvdan bo'ldi. Yomon odam ko'p. Bor bo'lsang ko'rolmaydi, yo'q bo'lsang berolmaydi. Endi bundoq qilsak. — U yonidan buklog'liq qog'oz chiqarib Nigoraga uzatdi. — Shu ro'yxatdagi narsalarni otamnikidan olib kelganman, o'zimniki deb sudga ariza yozsangiz.

Vahobjon qizning qo'lidan qog'ozni oldi. Ro'yxatda taxminan yangi pulda o'n besh ming so'mlik buyum yozilgan edi.

— Yo'q, — dedi qat'iy ohangda Vahobjon. — Bunaqa ishga qo'l urmaydi Nigora.

Chol boshini sarak-sarak qildi.

— O'zlaringizga qiyin bo'ladi, mayli, mayli.

Hojar derazadan bosh suqdi:

— Ko'nishmayaptimi? Bu tagi past qishloqilardan yaxshilik chiqadimi? Aylanay qudalar, xo'p deb qo'ya qolsanglar olam guliston bo'ladi-ya!

— Qo'ying, jinoyatlaringizga bizni sherik qilmanglar.

— Umid bilan quda bo'lgandik, mayli o'zlaring bilasizlar.

Nigora, hatto rozi bo'lishga ham tayyor turganda, kampir yana gapga suqildi:

— Aylanay Nigoraxon, bu yer ham o'z uyingiz, bizni unutvormay tez-tez kelib turasiz-a!

Nigoraning ko'zlari yalt etib ochilib ketdi. Kelinlik liboslari muzga aylanib badanini sovutib yuborgandek bo'ldi. Ko'zlariga g'azab to'lib atrofga javdirab boqdi-yu, shaxt yurib narigi uyga chiqib ketdi. Birozdan keyin u o'z onasi tikkan o'sha oq krepdeshin ko'ylagini kiyib, studentlik chamadonchasini ko'tarib chiqdi. Dadasiga ma'yus boqib dedi:

— Meni kechiring, dadajon. O'zini o'zi o'g'riga tutqazib bergan, baxtini ham, o'zini ham o'g'irlatgan qizingizni kechiring.

Nigoraning ko'zidan yosh chiqmadi. U dadil gapirar edi.

Vahobjon bilan Manzura qizini bundan uch kun avval chiqib ketgan yotog'ida qoldirib, yana Ganjiravonga qaytib kelishdi. Nigora uyiga endi ilgarigidek tez-tez xat yozmas, to'g'risi, nima deb yozishini bilmasdi. Yozganda ham sog'-salomatman deyishdan nariga o'tmasdi. Oradan uch oy o'tganda Nigoradan to'rt varaq xat keldi. Xatda u Ikromning katta jinoyatchi ekanligi sudda ochilgani, o'zi o'n yilga kesilib, uy-joylari musodara qilinganini yozgan edi. Xatning oxirida u: ertaga davlat imtihonlari tugab, diplom qo'limga tegadi. Ganjiravonga qaytib borishga endi yuzim chidamaydi, Xorazmga yo'llanma berishlarini so'radim. Iltimosimni qaytarmasalar kerak, depti.

Manzura: "Jon bolam, dadang qarib qoldi, bir hafta bo'ldi, pensiyaga chiqdi, Ganjiravonga kel, dadang o'rniga o'zing o'qituvchi bo'l. Jon bolam, yo'q dema", deb xat yozdi.

Nigora kelarmikin? Kelsa, Ganjiravon ko'chalarida to'da-to'da maktab bolalarini ergashtirib yursa, qandoq yarashadi unga. Kelarmikin?

Ammo onaning xati Nigoraga yetmadi. U o'g'irlangan baxtini izlab vagon oynasidan qum barxanlariga tikilib ketmoqda edi.

1957-yil

Ozoda ishdan chiqib, tramvayga o'tirmay, yangi barg yozgan serdaraxt, gavjum ko'chadan uyiga qaytdi.

Hamma yoqda bahor nafasi gurkiraydi. Devor osha ko'chaga engashgan o'rik shoxlaridan yo'llarga tanga-tanga gullar to'kilgan. Jildirab oqayotgan ariqlar betida ham o'rik gullari oqadi.

Ozodaning bu ko'chadan yurmaganiga besh yil bo'ldi: bu ko'cha daraxt va jildiragan ariqlar uning eng xushnud kunlari — ko'ngliga muhabbat olovi tushgan, hayotga birinchi bor qadam tashlagan, birinchi bor homiladorlikni tuygan onlarining guvohi.

Uni bu ko'chadan qayta yurishga majbur qilgan narsa na muhabbat xotiralari va na bahor manzaralari bo'ldi. Ozoda bu ko'chaga burilganida butunlay boshqa, o'zi ham ma'nosiga tushunib yetmagan qandaydir g'ayritabiiy bir kuch uning vujudida hokim edi. U qaysi ko'chada ketayotibdi, bu ko'cha unga tanishmi, yo'qmi — bu haqda o'ylamasdi.

Hozir u uyga qaytadi. Eri Homidjon ishdan qaytgandir. U xotinini har kungidek ochiq chehra bilan kutib oladi. O, uning ko'zlari naqadar chiroyli. Mana shu uch yillik birga kechirgan hayotda Ozoda uning ko'zlariga necha bor termilgan, uzun kipriklar orasida chaqnab turgan qora ko'zlar Ozodaga olam-jahon baxt-rohat bag'ishladi. Mana hozir ham u Ozodaning yo'liga ko'z tikib o'tiribdi.

Mana shu mehr-u muhabbat to'la ko'zlarga boqish *Ozoda* uchun qanchalar og'ir. Keyingi kunlarda erining mehr-u muhabbat to'la ko'zlarida so'lg'inlik, pinhoniy iztirobning ta'siri sezilib qoldi. Ozoda bu dardni biladi. Biroq u erini yupatishga, *mana shu* ma'yus ko'zlarga tik boqishga qodir emas. O'z hayotida birinchi bor o'yinqaroqlik, yengiltaklik bilan qo'l urgan jinoyati uni besh yildan beri alam girdobiga sudraydi. Qani endi u shu ishni qilmagan bo'lsa edi. Atrofda mavj urgan ko'klam nihollari, *quvnoq* kulgilar uning ko'ngliga boshqacharoq ta'sir ko'rsatgan bo'lar midi.

Stolbalarda chiroqlar yondi. Derazasi ko'chaga qaragan uylardan trotuarning har yer-har yeriga oq choyshab yozgandek, *oq*

poq nur tushib turibdi. Orqa ko'chadan guvullab o'tayotgan tramvay dugasida chaqnagan nur baland imoratlarning peshtoqlarida bir yalt etib, yana so'nadi.

Ozoda o'rik gullarini bosib asta-asta qadam tashlab ketar ekan, fikran erining ma'yus ko'zlariga duch keldi. U beixtiyor seskanib yerga qaradi. Bu seskanish unga o'z qilmishini — bugungi iztirobning boisini esga soldi. Ortda qolgan ko'ngilsiz xotiralarga nazar solmoq qanchalar qiyin va ko'ngilsiz...

Ko'ngliga birinchi bor muhabbat olovi tushgan kunlar qanday yaxshi edi-ya. Kechalari ko'kka termilib Murodjon haqida xayol surardi. Ertagi kunni, Murod bilan uchrashuv onlarini orziqib orziqib kutardi. ZAGS ostonasidagi entikishlar, to'y, qadahlarning jaranglashi, mashshoqlarning xonishi va nihoyat, birga kechirgan shirin va osuda kunlar...

Murod tog' ekspeditsiyasidan soqollari o'sib, qorayib, ozib qaytardi. Ozoda erining qaytishiga hovlining burchidagi hammomni qizdirib, soqol oladigan buyumlarni katta toshoyna oldiga terib, kiyimlarini dazmollab qo'yar, to u hammomdan chiqquncha stol ustini yasatib, hatto u yaxshi ko'radigan "Marsala" vinosini havorang billur grafinga quyib qo'yishni ham unutmasdi.

Mana shunday qaytishlarning birida Murod xotinini ma'yus ko'rdi. Hammom ham qizitilmagan, stol ham yasatilmagan edi.

— Nima bo'ldi? — Murod uning jiyaklari qizargan ko'zlariga termildi.

Ozoda javob bermay, ichkari uyga kirib ketdi. Murod ham uning ketidan kirdi.

— Gapirsangiz-chi, nima bo'ldi?!

Ozoda yoshli ko'zlarini yumib javob berdi:

— Homiladorman.

Murod mast kishidek dovdirab qoldi.

— Rostmi?! — Murod uni bag'riga bosib, dast ko'tarib oldida, uyni ikki marta aylantirib chiqdi. Uning ko'zlari porlar, yuragi sevinchdan gupullab urardi. — Nega xafa bo'lasan?

Bu uning birinchi bor xotinini sen deb atashi edi. Bo'lajak farzand Ozodani unga shunchalik yaqinlashtirib qo'ygan ediki, go'yo u Ozoda, Ozoda esa Murod bo'lib bir-biriga aralashib ketgandek edi.

— Nega yig'laysan? Axir...

Murod sevinchi ichiga sig'may, telbalardek gapi gapiga qovushmay qoldi.

— Yo'q! — dedi Ozoda, — istamayman. Hali yoshman, halitdan bolani boshimga uramanmi? — U yig'i aralash sekin gapirdi: — Kuningiz tog'-u toshda o'tsa, uyda bola boqib o'tiramanmi?

— Istasang, qishloqdan ayamni olib kelay, istasang, singlim kelib tursin, dissertatsiyamni bitkazib olay...

Ozoda eriga shunday o'qrayib qaradiki, uning bu qarashida Murodga nisbatan nafrat va g'azab ifodasi bor edi.

Zeb-u ziynat, o'yin-kulgiga o'rgangan xotin uchun bola oyoqning kishani bo'lib tuyulardi.

Ozoda chinakam go'zal edi. U modani, tansani, teatr va sayillarni sevardi. Bo'lajak bola hali dunyoga kelmay turib uni ana shu rohatlardan begona qilib qo'yayotgandek edi.

Murod bo'shashib stulga o'tirib qoldi. U boshini panjalari orasiga olib uzoq o'yladi. Oxiri o'rnidan turib papiros chekdi-da, qo'lini orqasiga qilib, uyning u boshidan bu boshiga yura boshladi. Divanning bir chekkasida o'tirib piq-piq yig'layotgan xotinining tepasiga kelib uzoq o'ylab turdi. Keyin uning yoniga cho'qqaydi-da, boshini silab, ichki dard bilan gapira boshladi:

— Ozoda, durustroq o'ylab ko'r.

— O'ylab qaradim, oldirib tashlayman.

— Nima?!

— Ha.

— Birinchi bola. Mumkin emas, umrbod mayib bo'lib qolasan-a!

— Mayli... Nima bo'lsa bo'lsin.

— Shundaymi?!

Murod g'azabdan sapchib o'rnidan turdi. Musht bilan stol qirg'og'iga urgan edi, stakanlar jiringlab sakrab ketdi. Bilagidagi sekundomerli oltin soatning oynasi chil-chil bo'ldi.

Uy ichi suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Ochiq fortochkadan kirgan shamol to'r pardani silkitdi, halqa-halqa bo'lib muallaq suzib yurgan papiros tutunlarini to'zg'itib yubordi.

Murod xotinining qarshisiga kelib tiz cho'kdi:

— Ozoda, unday qilma. Nima qilsang qil, faqat bu ishni qilma. Umrbod oyog'ing ostida sudralib yurishga roziman, bunday qila ko'rma.

— Gap bitta. Yosh umrimni bola boqish bilan o'tkazmayman.

— Hali shundaymi?! — Murodning ko'zlarida o't chaqnab ketdi. — Hali shundaymi?! Unday bo'lsa... — U gapini tugatolmadi.

Ozoda uning ko'zlariga dadil qaradi:

— Gap shu. Xohlasangiz shu. Bo'lmasa ketaman.

— Keyin pushaymon bo'lasan, Ozoda. Ozoda bosh chayqadi.

— Unday bo'lsa sen bilan...

— Yashay olmayman, demoqchisiz, shundaymi?

— Axir, o'zing o'yla.

Er-xotin uzoq vaqt bir-biriga so'zsiz qarab qolishdi. Ozoda o'rnidan turib, narigi uyga kirib ketdi. U kiyinib, chamadon ko'tarib chiqqanda ham Murod hamon tiz cho'kkancha turardi. U ko'chaga chiqib, to'y-tomoshalar bilan kirib kelgan, yoshlikning eng beozor, baxtli kunlarini o'tkazgan uy darvozasiga o'girilib bir qaradi-yu, dadil yurib ketdi...

Murod u ketgach, uch marta uning uyiga bordi, yolvordi, bo'lmadi. Oxiri bolani oldirib tashlagandan keyin yuragining bir parchasini uzib tashlagandek undan umidini uzdi. Singlisini uyda qoldirib, uzoq muddatli ekspeditsiyaga jo'nab ketdi.

Vrachlar Ozodaga endi tug'maysan, deyishdi. U bunga ham parvo qilmadi. Oradan ikki yil o'tdi... U Homidjon degan o'qituvchiga turmushga chiqdi.

Ozoda mana shu bahor oqshomida elektr nurlarida tovlanib turgan o'rik gullariga termilib kelar ekan, o'z hayoti va o'tmishini xotirladi. Bu uning umrida birinchi bor o'z o'tmishiga chuqurroq nazar tashlashi va bu haqda birinchi bor o'ziga hisob berishi edi. Xo'rsindi. Oqar suvlar oqib ketdi. Endi uni o'z yo'lidan qayta oqizib bo'lmasligini angladi. Jinoyat, jinoyat, deya lablari beixtiyor pichirladi. U shunday xayollar bilan kelar ekan, qulog'iga g'alati ovoz eshitildi. To'xtab atrofga alangladi. Ko'chaning narigi betidagi uyning ochiq derazasidan xotin kishining allasi eshitilardi. Ozoda atrofga alangladi. Bu uy uning birinchi uyi edi. U beix-

tiyor ko'chaning u betiga o'tib, yaxshiroq qaradi: ha, bu uning birinchi uyi — Murodjonnnig uyi edi. Qandaydir sehrli bir kuch uni bu ostonaga yetaklagan edi. "Balki, uy daftarida ustiga chiziq tortilgan ismim hali ham turgan bo'lsa kerak" deb dilidan o'tkazdi u. Derazadan uy jihozlarini kuzatdi. Hamma narsa o'z joyida. Faqat shiftga belanchak osilgan, xolos. Yoshgina bir juvon belanchakni tebratib, alla aytyapti. Uning yuzida onalik baxti aks etib turibdi. U mayin tovush bilan alla aytar, bu allada uning orzu-umidlari, bolasiga baxt, ulug' istiqbol tilashlari ifodalanar edi... Murod o'sha, Ozoda o'z qo'li bilan qo'ygan oyna oldida turibdi.

Murod deraza oldiga kelib, chamandek ochilib ketgan akatsiya gulini qo'li bilan selpib, panjalarini hidladi. Akatsiya hidi Ozodaning ham dimog'iga urildi. Murodning ko'ziga elektr nuri tushib turgani uchun uni ko'rmasdi.

Bu yorug' uyning derazasi xuddi kino ekraniga o'xshardi. Murod shu ekranda butun borlig'i bilan ko'rinib turardi.

"Sochiga oq oralab qopti-ya", — deb dilidan o'tkazdi Ozoda.

Murodning qoshi ustiga tushib turgan, hozir oq oralab qolgan qora sochlarini Ozoda juda ko'p silagan.

Ozodaning ko'zlarida yosh yiltiradi. O'z baxtini o'zi kaltak olib quvlagan xotin o'zini o'zi tahqirlab achchiq-achchiq yig'lardi. Uning yosh to'la ko'zlariga bundan besh yil oldingi Murod ko'rindi.

Tiz cho'kib yolvorgan edi-ya. Umrbod mayib bo'lib qolasan, degan edi-ya. Mana endi... O'zimni baxtdan olib qochdim... Meni hech kim kechirmaydi. O'zimni o'zim ham kechirmayman.

Murod deraza pardasini tushirdi.

Ozodaning ko'zi oldida porlab turgan yorug' uy xira parda orqasiga yashirindi.

U yoqdan bu yoqqa yengil uchib turgan belanchakning soyasi to'r pardaga tushib jimirlar, xotinning mayin ovoz bilan aytayotgan allasi eshitilardi.

Ozoda zo'r qiyinchilik bilan derazadan uzoqlashdi. Oy havolanib azim teraklar ustiga ko'tarildi.

1956-yil

OFTOB OYIM

Vatanni sevmoqni, yurt otasiga sadoqatni yaponlardan o'rganish kerak.

Maqsud Shayxzoda

Kechadan beri lagerimizdagi yaponlar g'imirlab qolishdi. yettinchi barak oldida to'planishib, qandaydir jiddiy bir gapni qizishib muhokama qilishardi. Yerosi Dyun degan yapon yigiti rassomlik ustaxonamni supurib-sidirib yurardi. Dyunning yurak o'ynog'i kasali borligidan uni shaxtada ishlashga olib chiqishmasdi. Ba'zi-ba'zida, jahli chiqqan paytlarda yurak kasali xuruj qilib qolardi. Boshliqlar uni menga bo'yoq qorib beradigan qilib qo'yishgan edi. Men Dyundan, nima gap, tez-tez to'planadigan bo'lib qoldinglar, deb so'radim.

— Tovarish Ahmed, yurtimizga ketadigan bo'lib qoldik, — dedi u ichiga sig'magan quvonchini yashirolmay.

Uni dil-dildan tabrikladim.

— Boshliqlar shunday deb aytishdimi? — deb so'radim.

— Qayoqda! Ular bu xabarni bizdan ikki-uch kun keyin eshitishadi. Uning gapi rost edi. Umuman, qamoqxonalarda ko'zga ko'rinmas, qo'l bilan ushlab bo'lmas "telegraf" ishlardi. Moskvada, hatto Siyosiy Byuroda mahbuslarga aloqador biror gap bo'lsa, o'sha kuniyoq jamiki lagerlarga yetib borardi.

Lager boshlig'ining o'rinbosari kapitan Gusak, moy bo'yoqda ishlab ber, deb onasining suratini tashlab ketgan edi. Bugun tush paytida suratni olgani keldi. Undan yaponlar yurtlariga ketadigan bo'ldimi, deb so'radim.

U hayron bo'ldi.

— Bunaqa gap yo'q. Bu mahbuslarning o'zlaridan chiqqan galdagi "parasha" bo'lsa kerak, — deb javob qildi.

"Parasha" — bu qamoqxona kameralariga qo'yiladigan hojatchelagi.

Tarqaladigan har xil bo'lar-bo'lmas gaplarni shunday deb atashadi.

Baribir, lager "telegrafi" aniq ishlardi. Biz Stalin o'lganini boshliqlarimizdan ikki kun oldin eshitganmiz. Beriyaning qamal-

ganini, Molotov bilan Kaganovichning Siyosiy Byuro tarkibidan chiqarilganini o'sha kuniyoq eshitgan edik.

Dyun ustaxonani shoshib-pishib yig'ishtirardi-yu, yettinchi barak oldida to'plangan hamyurtlari davrasiga chopardi. Lagerimizdagi o'ttiz to'rt nafar yaponning hammasi o'sha yerda. Bundan kirxonada ishlaydigan Sudze degan yapon yigit mustasno. Sudze hamyurtlariga qo'shilmas, kirxona zinasida boshini egib o'tirib, xayol surardi. Yaponlar Sudzeni saflariga qo'shishmasdi. U yaponlarga xos bo'lmagan baland bo'yli, xuddi sirkdagi polvonlarga o'xshagan, muskullari bo'rtib chiqqan, juda baquvvat yigit edi. Boshqa yaponlar lagerimizda Sudze deb atalgan yapon borligini bilmagandek, unga e'tibor berishmasdi. Sudze esa har tong hali quyosh ko'tarilmay kirxona tomida paydo bo'lardi. Shaxtalardan chiqarib tashlangan tog'-tog' rudalar orqasidan quyosh chiqquncha haykaldek qotib turar, yuziga oftob urilishi bilan ikki qo'lini baland ko'tarib, quyoshga nimalardir deb iltijolar qilardi.

Dyunning quvonchi cheksiz edi. Bir gapirib, o'n kulardi. U o'n bir yildan beri begona mamlakat qamoqxonalarida sarson-sargardon kezardi. Shu o'tgan o'n bir yil ona yurti, tug'ilgan diyori Yaponiya xayoli bilan yashaydi.

— Xayriyat, qonim yurtimga to'kiladigan bo'ldi, — dedi u allaqanday quvonch bilan.

— Jinni bo'ldingmi, yurtimga qaytay, uylanib, bola-chaqali bo'lay, boshqalardek bearmon yashab yuray deb niyat qilmaysanmi, ahmoq! — dedim unga.

Dyun boshini tebratdi.

— Tovarish Ahmed, — dedi u ruscha bilishini namoyish qilayotgandek g'urur bilan, — bilasanmi, men samurayman. Samuraylar dushmanga tirik asir tushmasligi kerak. Asir tushish xavfi tug'ilgandayoq o'zini xarakiri qilishi shart. Ya'ni o'zini o'zi chavaqlab o'ldirishi kerak. Men xarakiri qilishga ulgurmaganman — Vatanimdan qon qarzdorman.

Men Dyunni doimo yuzi kulib turadigan, bolalardek beg'ubor, uncha-muncha hazillarni ko'ngliga olmaydigan, musichadek bezozor odam, deb o'ylardim. Ichida shuncha gap borligini, yuragini

qonli armon o'rtayotganini bilmasdim. Yerosi Dyun ko'z oldimda yuksalib, o'n bir yil Vatanidan olisda, cho'llarda, o'rmonlarda sarson-sargardon kezib, Yaponiyaning buyuk muhabbatini dilida ardoqlab kelgan, har kuni bittadan quyosh tug'adigan Vatani oldidagi burchini, bir daqiqa bo'lsin, unutmagan beqiyos insonga aylangan edi.

Dyunning Iosiro degan hamyurti ba'zan ustaxonaga kelib uzoq gaplashib o'tirardi. Rus askarlari uni asirlikka olgan paytda hali tili chiqmagan egizak qizaloqlari bo'lgan. U qizlarim katta bo'lib qolgandir, tirikmikan, deb yig'lardi.

Yaponlarga munosabat o'zgarib qoldi. Ularni ishga olib chiqmay qo'yishdi, hatto alohida ovqat pishirib beradigan bo'lishdi. Ammo Dyun qadrdonligimiz uchun hamon ustaxonada ishlab yuribdi. Yaponlarni boshqa, kichikroq barakka o'tkazishdi. Kechqurun zang chalinganda baraklarga mahbuslar sanab kiritilgandan keyin ustidan qulflab qo'yishadi. Yaponlarning baragi qulflanmaydigan bo'ldi.

Bu ishlarning Sudzega aloqasi yo'qdek edi. U hamon kirxonada ishlar, zinapoyada o'tirib, o'y o'ylardi. Alohida pishirilgan ovqat unga berilmasdi.

Negadir o'sha paytlarda lagerda choy o'rniga kofe berishardi. Hatto oshxona yonidagi bostirmada qop-qop kofe qalashib yotardi. Kofe jonimizga tegib, bir qultum qora choyga zor bo'lgandik. Shahardan gazeta olib kelishga borganimda magazindan bir quti gruzin choyi sotib olgandim. Dyun tunuka choynakka achchiqqina qilib damlab keldi. Hovlida skameykada o'tirib choyxo'rlik qilmoqchi bo'ldik. Mahbuslar uyquda. Faqat Vatan sog'inchi uyqu bermagan yaponlar to'da-to'da bo'lib, oy nuriga g'arq bo'lgan lager sahnida jimgina aylanib yurishibdi.

Dyun bilan ikkimiz u yoq-bu yoqdan gaplashib, choy ichib o'tirardik. Bizning bu suhbatlarimiz ham g'animatdek edi. U Vataniga ketadi. Albatta, bundan keyin u bilan diydor ko'rishol-maymiz. Har qalay, besh-olti yillik qadrdonlik bir-birimizga yaqin qilib qo'ygandi.

Ana shu sokin, oydin kechada Dyundan so'radim:

— Menga qara, Dyun, nega Sudzeni yomon ko'rasizlar? Nega uni davraga qo'shmaysizlar?

Yerosi Dyun indamadi. Oy nuriga ters o'tirgani uchun uning yuzida, ko'zida qanday ifoda aks etayotganini bilmasdim. So'rog'imga javob berish niyati yo'qqa o'xshardi. U uzoq o'ylab o'tirgandan keyin:

— Yana bitta choy damlab kelaymi, bunisi sovib qopti, — dedi.

— Yo'q, — dedim, — gapimga javob ber.

Yerosi o'rnidan turib, u yoq-bu yoqqa yurdi. Keyin joyiga kelib o'tirdi-da, gapira boshladi:

— Buni tushuntirish qiyin. Yaponiyani, yaponni, urf-odatlarimizni bilmagan odamga buni tushuntirish qiyin. Mana, endi ajralishib ketadigan paytimiz keldi. Bu Dyun kim edi, Sudze kim edi, degan jumboq ko'nglingda qolib ketmasligi uchun aytaman. Sen bir marta meni haqorat qilganing haligacha dilimni o'rtaydi.

Uni nima deb haqorat qilganimni eslay olmadim.

— Ayt, agar shunday qilgan bo'lsam, sendan astoydil uzr so'rayman.

— Yapon ayollari buzuq bo'ladi, — degansan. Shunda alamlarimni ichimga yutib, javob bermaganman. O'shanda yapon portlarida geyshalar matroslarni yo'ldan uradi, — deganding. E-e, oshnam, bu gaping mutlaqo noto'g'ri. Bunaqa gap uchun seni o'ldirishim kerak edi. Unday qilmaganman.

To'g'ri, shunday gap bo'lgan edi. O'shanda Dyunning tishlari g'ichirlab ketgan, qoshlari chimirilib, xuddi hamlaga tayyor turgan sherga o'xshash bir ahvolga tushgan edi. Lekin indamay o'rnidan turib, barakka kirib ketgandi. Uch kun yurak xuruji tutib, ustaxonaga kelmay qo'ygandi.

— Tovarish Ahmed, boya aytdim-ku, Yaponiyaga bormagan odam yaponlar to'g'risida aniq bir gap aytolmaydi. Ekilgan har bir tup daraxt, yo'lga yotqizilgan har bitta tosh, qurilgan har bitta imorat Yaponiya manfaati uchun xizmat qilishi kerak. Har bir qimirlagan jonda, odamlarning muomalasida, yurish-turishida Yaponiya manfaati yashaydi. Sen o'sha buzuq deb aytgan geyshalar Yaponiyaning porloq kelajagi uchun xizmat qiladigan buyuk vatanparvar ayollardir...

— Shoshma, Dyun, bunaqa balandparvoz gaplarni qo'y. Sal pastroq tushib gapir.

— Xo'p, — dedi u, — mayli, qizishmay gapira qolay. Geyshalar sen o'ylaganchalik axloqsiz ayollar emas. Nihoyatda nazokatli, yoqimtoy, bilimdon ayollardir. Ular maxsus maktablarda ta'lim olgan, suhbati shirin, yapon qo'shiqlarini xonish qiladigan, qadim zamonlardan bizga yetib kelgan ajoyib raqslarni mahorat bilan ijro qiladigan, tarix haqida gapirganda tinglovchiga o'tmishni tiriltirib beradigan, tengsiz pazanda, tabobat sirlaridan ogoh va shu bilan birga, beqiyos go'zal ayollardir. Ular suhbatidan bir marta bahramand bo'lgan xorijliklar bir umr bu shirin onlarni unuta olmaydilar. Yerosi Dyun sovib qolgan choydan ho'pladi. Biroz tin olib, gapini davom ettirdi:

— Ana endi Sudze to'g'risida gapiray. Yo'lda yotgan kichkinagina tosh yoki bir qarashda nazarga tushmaydigan biror ro'zg'or buyumi to'g'risida gapirish uchun, avvalo, butun Yaponiya to'g'risida gapirish kerak. Bizda hamma narsa bir-biri bilan uzviy bog'liq, ularda butun Yaponiya yashirinib yotadi. Sudze to'g'risida gapirish uchun shuncha gaplarni aytdim. Shunday qilmasam, hech narsani tushunmasding, tovarish Ahmed. Sudzeni geysha tug'gan deyishardi, u otasini ko'rmagan. Portimizga Portugaliyadan yuk ko'p kelardi. Baland bo'yli, baquvvat matroslar kemadan ruda tushirishardi. Sudzening cho'yandan quyilgandek baquvvat gavdasi xuddi ana o'shalarga o'xshab ketadi. E'tibor berganmisan, Sudzening qoshlari burgutning qanotiga o'xshaydi. Bunaqa qoshli dengizchilarni Portugaliya kemalarida ko'rganman.

Sudze maxsus enagalar, maxsus tarbiyachilar, bilimdon o'qituvchilar tarbiyasida, imperator ardog'ida voyaga yetdi. Eng yaxshi kiyimlarni kiydi. Eng lazzatli taomlarni yedi. Chunki u Kamikadzelikka qabul qilingan edi. Kamikadze — bu "o'q odam" degani. Mamlakat xavf ostida qolgan paytlarda Kamikadzelar bir kishi sig'adigan va dahshatli bomba joylangan samolyotda dushman istehkomi tomon uchiriladi. Samolyotga faqat uchib borishgagina yetadigan yonilg'i quyiladi. Agar uchuvchi qo'rqoqlik qilib ortga qaytmoqchi bo'lsa, qaytishga yonilg'i yo'q. Kamikadze dushmanning qurol-yarog' omboriga urilib, o'zi ham portlab ketib

shi shart. Ammo Sudze so'nggi burchini ado etishdan bosh tortdi. Qo'rqoqlik qildi. Bilasanmi, tovarish Ahmed, Kamikadze burchini o'tamasa, uni urmaydilar, so'kmaydilar, sud qilmaydilar. Bo'yniga xuddi riksha aravasining g'ildiragidek qulf-kalitli g'ildirak kiydirib qo'yadilar (Riksha — bu xachir yoki eshak o'rniga odam qo'shiladigan aravacha). Bo'yniga g'ildirak osilgan odamga hech kim suv bermaydi, ovqat bermaydi. Yerdan biror nima topib yey desa, yo ariqdan suv olib ichay desa, qo'li yetmaydi. Yotay desa, g'ildirakka bo'ynidan osilib qolib, nafas ololmaydi. Biror uyga kiray desa, eshikka sig'maydi. U faqat ariqqa tizzalab o'tirib, g'ildirak chetini qirg'oqqa ilintirib dam oladi. Bu g'ildirak faqat u o'lgandan keyingina bo'ynidan olinadi.

Sudzening onasi Maniko xonim o'g'lining xoinligidan nomus qilib, ko'chaga chiqolmay, odamlarga qo'shilolmay qoldi. Bu orada Sudze ikki marta uyiga keldi. Kirolmadi. Eshikka g'ildirak sig'madi. Ozib-to'zib, soch-soqoli o'sib ketgan bolasining ayanchli ahvolini Maniko xonim boloxonada yig'lab kuzatib turardi. U bolasining oldiga chiqmadi, bo'yniga osilib yupatmadi. Sudze endi unga suyukli farzand emas, umumxalq la'natiga uchragan jirkanch bir kimsa edi. Oradan biron oy o'tib, Maniko xonim chodraga o'ralib, ibodatxonaga bordi. Muqaddas Budda poyiga qo'yilgan tilla barkashga ro'molchaga tugib kelgan oltin-javohirlarni, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan zirag-u bilaguzuklarini, jamiki taqinchoqlarini jaranglatib to'kadi. Tiz cho'kib, Buddaga tavba-tazarrular qiladi. Asta o'rnidan turib, ichkariga kirib ketadi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida Parijda bo'lib o'tgan *"Go'zallar tanlovi"*da Maniko xonim birinchi o'rinni egallab, toj kiygan edi. Fransuzlar uni "Oftob oyim" deb atashgandi. Hatto bir gazeta "Bugun quyosh Parij ufqidan ko'tarildi" deb yozgandi.

Tengsiz go'zal, benihoya dono, butun Yaponiyaning faxri bo'lishga arziydigan bir malak — Oftob oyim rohibalar libosini kiydi, rohat-farog'atdan kechib, monastirda qoldi.

Sudzening ahvoli og'ir edi. U o'lib o'lolmasdi, tirik qolishning aslo iloji yo'q edi. U samolyotda uchib borib, dushman istehkomiga urilib, portlab ketmaganiga ming-ming pushaymonlar

yerdi. Oxiri u o'zini dengizga tashlab cho'kib o'lishga qaror qildi. Dengiz shovullar, to'lqinlari qirg'oqqa sapchib, Sudzening tizzalariga urilardi. Dengizning qirg'oqqa yaqin joylari sayoz edi. U asta-sekin suvda kechib boraveradi. Suv tizzasidan kelardi. Keyin beliga chiqadi... Yopirilib kelgan to'lqin uni orqaga siltab, yana qirg'oqqa uloqtirib tashlamoqchi bo'ladi. To'lqin orqaga qaytishda uni dengiz ichkarisiga sudrab ketdi.

Sudze yerda yurganda bunchalik azobni ko'rmagandi. U tik holatda quloch otib suzolmasdi. G'ildirak esa uni cho'kib ketishga qo'ymasdi. Faqat bo'ynidangina g'ildirakka osilib turardi. To'lqin uni hali u yoqqa, hali bu yoqqa uloqtirar, har uloqtirganda bo'yni uzilib ketadiganga o'xshardi. Uning bu ahvolini olisroqdan kuzatib turgan odam, kimningdir kallasini uzib g'ildirak o'rtasiga qo'yishibdi, deb o'ylashi mumkin edi.

Bir hafta taom yemaganidan Sudze kuchdan, darmondan qolgan edi. Oxiri u hushidan ketdi. Uni rus dengizchilari katerga chiqarib olganlarini bilmadi. Matroslar g'ildirakni arralab, bo'ynidan olib tashlashdi. Uning o'zi esa ikki kundan keyin hushiga keldi...

Dyun uzoq gapirdi. Baxtsiz, sho'rpeshana mahbuslar dunyoning jami tashvishlarini unutib, barq urib uxlayotgan oromli saraton tunida Dyun bilan ikkimiz hech bir mamlakatga o'xshamagan buyuk Yaponiya to'g'risida dum-dumaloq oy ruda uyumlari orqasiga botib ketguncha gaplashib o'tirdik. Dyun vatani to'g'risida gapirmas, go'yo qo'shiq kuylayotgan, goh zavq-shavq bilan, goh faryod urib doston o'qiyotgandek edi.

Kunchiqar tomonda ufq oqarib qoldi. Mana shu oppoq ufq asta bo'zara boshlaganda Sudze tomga chiqadi.

— Bo'ldi endi, Dyun, borib yot. Jindek uxlab ol. Bo'lmasa, yuraging yana xuruj qiladi.

Dyun bosh chayqadi.

— Uxlayolmayman, yurtimga tezroq ketgim kelyapti.

Beriya otilgandan keyin "Troyka" qarori bilan qamalganlarning ba'zilariga zonadan tashqariga chiqib ishlashga ruxsat berilgan edi. Shunday imtiyoz menga ham berilgan. Bugun ertalab bo'yoq olish uchun shaharga ketgan edim. Qaytib zonaga kir-

sam, darvoza oldida yaponlar to'planib turishibdi. Dyun yugurib oldimga keldi.

— Tovarish, Ahmed, qayoqlarda yuribsan? Bizni bugun olib ketisharmish. Ko'risholmay qolamiz deb, tashvishlanib turgandim.

Atrofga qarayman. Hamma yapon mahbuslari shu yerda. Faqat Sudze yo'q. U tomda oftob nuriga belanib, kunchiqar tomonga qarab turibdi.

Shtabdan kelgan mayor Kuzin ro'yxat o'qiy boshladi. Nomi o'qilgan mahbus darvoza tomonga yurishi kerak. O'n bir yil tutqunlikda yashagan yaponlar shu topda ozodlik deb atalgan buyuk bir olamga qadam bosa boshladilar. Nihoyat, ro'yxatdan Dyunning nomi o'qildi.

— Xayr endi, tovarish Ahmed. Og'ir kunlarimda hamdard bo'lganing uchun, topgan bir burda noningni men bilan baham ko'rganing uchun, g'am-anduhga botgan damlarimga sherik bo'lganing uchun rahmat. Endi ko'risholmaymiz, xayr, omon bo'l!

U ko'zda shashqator yosh bilan darvoza tomon ketdi.

Ro'yxatdan Sudzening nomi chiqmadi. U kirxona tomida turib, yuz-ko'zlarida quvonch porlagan hamyurtlariga alam bilan qarab turardi.

Shtab oldiga kelib to'xtagan "ZIS-101" mashinasidan qora frak kiygan savlatli bir yapon tushdi. U Yaponiya elchixonasining xodimi edi. U ozodlikka chiqqan yaponlar bilan bir-bir qo'l olishib ko'rishdi. Nimalardir dedi. Yaponlar qarsak chalib, qiyqirib yuborishdi. Ular yig'lab, bir-birlarini tabriklashardi. Shu payt sherning o'kirishiga o'xshash bir ovoz ularni Sudze tik turgan kirxona tomiga qaratdi. Mahbuslikda o'n yildan ortiq ovoz chiqarmay zabun yashagan Sudze ichida yig'ilib qolgan hamma tovushlarini jamlab chiqarayotgandek edi.

— Kunchiqar Vatanim, mening Yaponiyam! Kechir, burchini o'tolmagan badbaxt o'g'lingni kechir! Kechir!..

Uning qo'lidagi dudama pichoq oftob tig'ida chaqnab ketdi. U pichoqni yalang'och tanasining chap biqiniga zarb bilan urib, o'ng biqini tomon tortdi. U og'riqni ham unutib, ikki oyog'i oralig'ida osilib qolgan ichak-chavoqlariga ham parvo qilmay, hamon xirqirab qichqirardi:

— Japan! Japan! Mening Vatanim Japan!

U shunday deya turib, tunuka tom qirg'og'iga yiqildi. O'zining qoni halqob bo'lib qolgan tom qirg'og'ida belidan osilib yotardi. U bir muddat tipirchilab turgandan keyin sirpanib yerga gursullab tushdi. Tarnovdan oqayotgan qaynoq qon endi uning ustiga sharillab quyilardi.

Bu mudhish manzaradan badanlarim muzlab ketgandek bo'ldi. Uni kuzatib turgan yaponlar yuzlarini ters o'girishmadi. Har qalay, Sudze sobiq bo'lsa hamki yapon edi. U umrining so'nggi daqiqasida yaponligini isbot qildi. U yapon bo'lib olamdan o'tdi. Japan, Japan, deb jon berdi.

Zonadan chiqqanimda yaponlar avtobus oldida to'planib turardilar.

Dyun olazarak bo'lib meni kutayotgan edi.

— Tovarish Ahmed, suratga tushaylik.

U shunday deb bo'yniga ikkita apparat osgan yapon fotomuxbirini boshlab keldi. Dyun, Iosiro uchovimiz yelkalarimizga qo'l tashlab suratga tushdik. Boshqalar allaqachon avtobusga chiqib bo'lgan. Ammo Dyun shoshilmasdi. Meni bag'ridan qo'yib yubor-gisi kelmasdi. Hiqillab yig'lardi.

Avtobus ikki marta signal bergandan keyingina meni bag'ridan qo'yib yubordi. U avtobusga chiqqandan keyin ham derazadan qo'l chiqarib, kaftlarini o'pib silkitardi.

U ketdi. Hijron azoblaridan, xo'rliklardan qutulib yurtiga ketdi.

Oradan oylar o'tdi. Biz yashayotgan qamoq-lagerga yuz minglab baxtiqaro mahbuslar kelib-ketgan. Bu mustahkam devorlar, tikanli simlar go'yo hech narsani ko'rmayotgandek gung-soqov edi. Biroq o'n yilning nari-berisida kelib-ketgan yapon mahbuslarini hech kim unutmasdi. Ularning ahilligidan, odobidan, sezgir-u topag'onligidan, bir ish qilsa, astoydil mehr bilan qilishidan gapirishardi. Ayniqsa, Dyunni ko'p gapirardik. Uning "L" ni "R" deb talaffuz qilishini eslardik. U "lager"ni "rager", litvalik rassom Alikni "ritovets Arik" deyishini eslab kulishardik.

Bir shumxabar ko'nglimizni vayron qilib yubordi. Olib ketilgan yaponlarning hammasini Imperatorning maxsus buyrug'i bilan

Vatan xoinlari sifatida dengizga cho'ktirib yuborishgan emish. Bu sovuq xabarga birov ishondi, birov "parasha" deb qo'ya qoldi.

O'sha voqealarning bo'lib o'tganiga roppa-rosa ellik yil bo'ldi. Yaqinda taqdir taqozosi bilan, to'g'rirog'i, "Kelinlar qo'zg'oloni" bahonasida olis Amerikaga — Atlantika okeanining nariyog'iga borish manglayimga bitilgan ekan, bordim. Nyu Yorkda orzu qilib yetib bo'lmas joylarni ko'rdim. Mashhur afsonaviy Brodvey shohko'chasini, Amerikaning timsoli bo'lib qolgan Ozodlik haykalini ko'rmoq nasib qildi. Ayniqsa, BMT qarorgohi oldida hilpirab turgan bayroqlar qatorida O'zbekiston bayrog'ini ko'rganimda mijjalarimga yosh qalqib chiqqanini sezmay qoldim.

O'zbekiston elchixonasi xodimlari, atayin Vashingtonga kelib muzeyni ko'rmay ketsangiz, keyin afsuslanib yurasiz, mashhur Vashington muzeyida buyuk bobomiz Alisher Navoiyning o'z qo'li bilan yozgan ikkita g'azali bor. Albatta, borib ko'ring deb, maslahat berishdi. O'sha kuniyoq bordim. Afsuslar bo'lsinki, muzeyning Qo'lyozmalar bo'limi berk. Maxsus mutaxassislar qo'lyozmalar holatini o'rganayotgan ekan. Afsus-nadomatlar bilan qaytib chiqdim. Muzeyda ko'rsa arziydigan millionlab eksponatlar bor. O'shalarni ko'rib qo'ya qolsam ham bo'lardi. Ammo, ochig'ini aytsam, Daho shoirimizning qo'lyozmasi oldida muqaddas Ka'ba toshini tavob etgandek buyuk e'tiqod bilan bosh egib turmoqchi edim. Niyatimga yetolmadim.

Boya shofyor bu yerda kamida ikki soat bo'lasiz, shoshilmay ko'ravering, men bir yarim soatlarda kelaman, degandi. Qayoqqa borishimni bilmay, muzey hovlisidagi gulzor yoqasiga qo'yilgan skameykaga omonatgina o'tirdim. Ertaga Amerika safarim poyoniga yetadi. Vashingtondan mashinada to'rt yuz kilometr yo'l bosib Nyu Yorkdagi Kennedi nomidagi aeroportga borishim kerak. U yog'i Toshkentgacha o'n besh yarim soat okean ustidan uchib o'taman. Elchixonaga borib safar tadorigini ko'rishim kerak. Aksiga olib, shofyor ham bir yarim soatdan keyin keladi. Uni kutishdan boshqa ilojim yo'q edi.

Skameykaning narigi boshida o'tirgan, yoshini aniqlab bo'lmaydigan bir yapon qariyasi menga qarab hadeb iljayadi. Ko'zini

oladi, yana qaraydi, iljayadi. Hayron bo'ldim, nega u bunaqa qilyapti. U surilib yonimga keldi.

— Viy, tovarish Ahmed?! — deb so'radi chala-chulpa rus tilida.

Hayron bo'ldim. Dunyoning narigi burchida meni taniydigan odam bor ekan, deb o'yladim.

— Rutfirro pomniti? — dedi u kulib.

Biz lagerda Dyun Yerosini "Rutfirro" deb atardik. Men Dyunga uchinchi barakdagi muqovachi Lutfulloni chaqirib kel, deb iltimos qilganimda u muqovachini topolmay, Rutfirro yo'q ekan, deb javob qilgan edi. Ana shundan keyin ba'zilar uni Rutfirro deb ataydigan bo'lishgandi. Buni notanish chol qayoqdan biladi ekan deb hayron bo'ldim.

— Tovarish Ahmed, bundan roppa-rosa qirq besh yil oldin, siz bilan qamoq-lagerda birga bo'lganmiz.

Esladim. Bu Dyunning eng yaqin do'sti Iosiro edi. Ammo lagerdan bo'shab ketgan yaponlarni Imperatorning maxsus buyrug'i bilan dengizga cho'ktirib yuborishgan deb eshitgan edim...

U tizzamga qo'lini qo'yib, Dyunni eslaysizmi, deb yana so'radi.

— Bu ajoyib, oliyjanob insonni unutib bo'ladimi? — dedim afsuslanib.

U paytda Iosiro o'ttiz yoshlarda edi.

U uylangan paytlarini, qaylig'i bilan ikki marta Kabuki teatriga borganini, mashhur aktyorlar ijro etgan rollarni xuddi tushida ko'rgan voqealarni aytib berayotgandek gapirardi. Aytgancha, uning egizak qizlari bor edi.

— Qizlaringiz bilan, xotiningiz bilan diydor ko'rishdingizmi? —deb so'radim.

— Bitta qizimni topdim. Xotinim bilan bir qizim atom nurlanishidan halok bo'lishgan ekan.

U hassasining uchi bilan yer chizib, uzoq turib qoldi.

— Men sizni ko'p eslayman. Esingizdami, ketar chog'imizda Dyun, siz uchovimiz suratga tushgan edik. O'sha suratni qora kunlarimizdan xotira deb saqlayman. Qizim shu muzeyning Yapon bo'limida ilmiy ish qilyapti. Kuyovim — diplomat. Elchixonada ishlaydi. Qizimning ketidan bu yoqlarga kelib qolganman. Ikki nevaram bilan ovunib yuraman...

Uning gapini bo'ldim:

— Sizlarni dengizga cho'ktirib yuborishgan, deb eshitgan edim...

— Yolg'on gap. Bu — "parasha" gap. Hammamiz sog'-omon yurtimizga yetib borganmiz!

— Dyun omonmi? Bola-chaqali bo'lib ketgandir? — deb so'radim undan yaxshi bir gap eshitish ilinjida.

— Dyun endi yo'q, — dedi Iosiro hasrat-nadomat bilan. — Kemada ketayotganimizda Dyunning yuragi ikki marta xuruj qildi. Vrachlar arang saqlab qolishdi. Kemamiz qirg'oqqa yetib borganda bizni kutib olish uchun Negate portiga chiqqanlarning son-sanog'i yo'q edi. O'zingiz bilasiz, Dyunning hech kimi yo'q, yetimxonada o'sgan. U kemadan tushib, hech narsaga qaramay, qirg'oq bo'ylab, to'lqinlar yuvaverib billurdek shaffof qilib qo'ygan qumlarni to'piq bo'yi bosib, ancha nari ketdi. Kurtkasini yechib uloqtirdi. Bukchayib o'tirdi-da, sho'r qumni o'pa boshladi. U bir bukchayganicha boshini, qaddini ko'tarmadi. To'lqinlar uning ustidan sapchib, ikki-uch metr o'tib ketdi. Dyunning gavdasi to'lqin ostida ko'rinmay ketdi. To'lqin orqaga qaytdi. Dyun tomonga yugurdim. Yetib borgunimcha, uni yana ikki marta to'lqin bosdi. Uni qo'ltig'idan ko'tarmoqchi bo'lgandim, eplolmadim. Dyun qadrdon yurtining billur qirg'og'ini o'pib, jon taslim qilgan edi. Labidan oqayotgan qonni qum shimib ketayotgandi.

Mendan narida gullab turgan sakura tagida qora chodirga o'ralib, bir rohiba odamlarga javdirab qarar, yum-yum yosh to'kardi.

U bir vaqtlar parijliklar husniga mahliyo bo'lib, "Oftob oyim" deb atagan tengsiz go'zal Maniko xonimga endi o'xshamasdi. Ko'zlaridan nur qochgan, archilgan shaftolidek pushti yuzlarini rang tark qilgan, farzand dog'i uni g'ijimlab tashlagan, afv qilinganlar orasida mening bolam ham bormikin, degan o'yda kelganga o'xshardi. Uning oldiga borolmadim, Dyun bilan ovora edim.

Dyunni o'z qo'lim bilan qabrga qo'ydim. Qabri boshiga bir tup sakura ko'chatini ekib qo'ydim. To bu tomonlarga kelgunimcha har bahor uning qabri boshiga borib uzoq o'tirardim. Sakura gullari to'kilib, pushti rangga o'ralgan qabr poyiga tiz cho'kib, birga kechirgan kunlarimizni ko'z oldimga keltiraman.

Men esam lagerda Dyun bilan so'nggi uchrashuvimni eslayman. O'shanda oy dum-dumaloq, oppoq edi. O'shanda Dyun Vatanimdan bir tomchi qon qarzdorman, degandi. Shu gapi uchun uni qattiq so'kkan edim. Qarang-a! U niyatiga yetibdi.

— Tovarish Ahmed, hozir kuyovimga telefon qilaman. Qamoqdan bo'shaganimizda Dyun bilan uchovimiz tushgan suratni olib keladi.

Iosiro yonidan uyali telefonni olib, kuyovi bilan gaplashdi.

...Odam bolasi tug'ilgan yurtiga o'xshaydimi? Bilmadim, men negadir shunaqa deb o'ylayman. Dyunning suratiga qarayman. U menga har kuni bitta oftob tug'adigan Yaponiyaga o'xshab ko'rinadi. Unga qaraganimda buyuk Yaponiyani ko'rib turganga o'xshayman.

Bodroqdek g'uj-g'uj gullagan sakura soyasida Dyun orom uyqusida yotibdi. Dengiz tomondan shamol esganda sakura gullari duv to'kiladi. Go'yo qabr ustiga pushti ko'rpa yopib ketgandek bo'ladi. Dyun okean dovullarining dolg'ali tovushlarini, chag'alaylarning qiyqiriqlarini eshitib yotibdi.

Dunyoning ishlari shunaqa ekan-da...

2001-yil 20-yanvar

MINNATDORLIK

"Xalq so'zi" gazetasining shu yil 26-yanvardagi sonida chop etilgan hurmatli adib Said Ahmadning "Oftob oyim" nomli hikoyasi menda juda katta taassurot qoldirdi.

Sobiq Sovet Ittifoqi hududida asir sifatida yashagan yaponlar haqida ularning o'zlari yozgan ko'plab asarlar, hikoya va xotira kitoblarini o'qiganman. Lekin yapon asirlari haqida chetdan turib yozgan muallif hikoyasini ilk bora o'qishimdir. Bu hikoyada insonning tuyg'ulari va ichki kechinmalari chuqur hissiyot bilan aks ettirilgan, shuningdek, unda hozirgi kunga kelib unutilayozgan an'analar ham yoritilgan.

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan buyon yarim asrdan ko'p vaqt o'tdi, bu urushning xotirasi bugungi yapon yoshlari orasida

asta-sekin unutilib borayotgan bir paytda Yaponiyadan olisda bo'lgan O'zbekistonda yapon asirlarining qismatini eslash meni chuqur ta'sirlantirdi. Yarim asrdan ko'p vaqt mobaynida ko'ngil qatida yapon asirlari xotirasini saqlab kelib, ular haqida ajoyib hikoya yozgan janob Said Ahmaddan bag'oyat minnatdorman.

Hozirgi vaqtda juda ko'p yaponlar O'zbekistonga sayyoh va tadbirkor sifatida kelmoqda, ikki tomonlama aloqalar kun sayin rivojlanmoqda va shu bois yarim asr muqaddam yuzaga kelgan do'stlik, ya'ni o'zbek va yapon o'g'lonining do'stligi hozirgi yapon va o'zbek xalqi orasidagi yaqin rishtalar darakchisi edi, deb bilaman.

O'zining butun bir sahifasini shu hikoyaga bag'ishlagan "Xalq so'zi" tahririyatiga o'z minnatdorchiligimni bildirmoqchiman.

Kyoko Nakayama,
Yaponiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi

SAROB

"Ota qarg'ishi misoli o'q — u oxiratda emas, shu dunyoning o'zida nishonga tegadi".

(Buxorolik 100 yil yashagan temirchi Usto Amin boboning o'gitlaridan)

Bugun lagerimizga yangi mahbuslarni olib kelishdi. Ko'rinishidan ularni yangi deb bo'lmasdi. Egnilaridagi kiyimlariga, yelka va tizzalaridagi raqamlariga qaraganda, ko'p yillardan beri lagerdan lagerga ko'chib yurgan daydi mahbuslar ekanini darrov payqash mumkin edi.

Odatda, yangi kelgan mahbuslarning oyog'ida yangi etik, yangi botinka, egnida ohori to'kilmagan kastum yo gimnastorka bo'lardi. Lagerimizning blatnoy — zo'ravonlari ularning egnidagi kiyimlarni ko'rishlari bilanoq o'zaro taqsimlab olardilar. Oradan biron hafta o'tib, o'sha kiyimlarni blatnoylarning egnida ko'rardik.

Bu galgi etapda kelganlar zo'ravonlarimizga yoqmadi. Har biri o'n-o'n besh yillab SSSRning jamiki lagerlarida yashab, qirriq bo'lib ketgan, nainki birovga o'z kiyimini beradigan, aksincha, birovlarnikini qiyqirtirib yechib oladigan, beti qattiq mahbuslar edi.

Soldatlar, lager nazoratchilari ularni bitta-bittalab sanab, yuvilaverib rangi unniqib ketgan kulrang kurtkalaridagi, shimlaridagi raqamlarni tekshirib o'tkaza boshladilar. Shunda mahbuslardan bittasi menga juda tanish tuyuldi. Uning g'amgin va lekin loqayd ko'zlari... Qayerda ko'rganman uni? Tanish, juda tanish!

Oldi tikanli sim bilan to'silgan barakda yangilarni bir necha kun karantinda saqlaydilar. Hozircha ularni boshqa mahbuslarga qo'shmaydilar. Ovqatni ham paqirda oborib beradilar.

Bahorning iliq-issiq kunlari edi. Yangilar yalang'och bo'lib, barak oldidagi maydonchada chalqancha yotib, badanlarini oftobga toblardilar. Ular Shimol lagerlarida oylab oftob ko'rmay, ranglari siniqqan kishilar edi. Ularni bir-ikki oygina yoz bo'ladigan, oftob esa tuman orasidan xuddi doka orqasiga yoqilgan shamdek xira ko'rinadigan, bizda bahor oftobi charaqlab turgan shu kezlarda ham qish bo'ronlari uvullab turgan joylardan olib kelishgan. Bu mahbuslar uchun Jezqozg'on eng yaxshi kurortlardan ham afzal edi. Yalang'och yotganlarning badanida igna sanchib yozilgan so'zlar, turli sharmsiz suratlar, birida "tug'gan onamni unutmayman" degan yozuv bo'lsa, boshqasining ko'kragida karta, ayol kishining rasmi bilan bir shisha aroq tasvirlangan. Tagida: "Mana shular bizni xarob qildi", degan yozuv bor. Deyarli ko'pchiligining ko'ksida yalang'och ayollarning turli holatdagi suratlari bor edi. Bu manzara qamoqxonadagi "rassom"larning asarlari namoyish qilinayotgan ko'rgazmaga o'xshardi.

Menga tanish tuyulgan mahbus esa negadir yechinmay, kiyim-boshi bilan oftobda yotardi.

Kim u? Ko'zimga juda issiq ko'rinyapti. Borib o'zidan so'rasammikan? Buning imkoni yo'q. Soqchilar, nazoratchilar ularga yaqin yo'latmaydi.

Mendan sal narida yoshi yetmishlardan oshgan, umrining o'n besh yildan ortig'ini lagerlarda o'tkazayotgan Olimjon domla ham ularga ma'yus qarab turibdi.

Domla g'alati odam edi. U hech kim bilan sirlashmasdi. Birovga na dardini aytardi, na quvonchini. Ko'pchilik uni orqavorotdan "indamas domla" deb atardi. U yaxshilikka ham, yomonlikka ham birdek loqayd edi. Ammo uning hozirgi holati boshqacha. Oftobda yalang'och yotganlarga qarab ichi yonib, kuyib o'rtanib ketayotgani shundoqqina bilinib turardi. Zimdan unga ko'z tashlayman. Uni hech qachon bunday alpozda ko'rmagandim. U yig'lardi. Ko'zlaridan oqqan yosh soqollariga tomardi. Domla qimirlamas, har kiprik qoqqanda mijjalarida to'planib qolgan yosh duv to'kilardi.

Nazoratchi kelib simto'siqning beri yog'ida to'planib qolgan tomoshabin mahbuslarga ketinglar, deb buyurdi. Mahbuslar nari ketishdi. Domla ham yoshli ko'zlarini kaftiga artib, boshini eggancha ketdi.

Men lagerda rassom edim. Bir vaqtlar rassomlik maktabida o'qiganim yashash, ishlash qiyin bo'lgan bu joylarda asqatdi. Vazifam — mahbuslarning kiyimlariga raqam yozish, jez konida ishlab qaytgan brigadalarning qancha ruda qazib chiqarganini katta-katta plakatlarda aks ettirish va ularni lagerning ko'rinarli joyiga ilib qo'yish edi.

Tushlikdan keyin ustaxonamga bosh nazoratchi bir qop kiyim olib keldi-da, shularga to kechki ovqatgacha raqam yozib, tayyor qilib qo'yishimni buyurdi.

Bu yangi kelganlarga beriladigan kiyimlar edi. Shimlarning chap tizzasidan yuqorisi, kurtkalarning yelkasidan pasti sovun qutisicha keladigan joyidan qaychida qiyib olingan. Ustidan oq latta taqib qo'yilgan edi. Agar mahbus raqam yozilgan lattani olib tashlab qochib ketsa, qidiruvchilar kiyimidagi qiyib olingan joyidan bilib oladilar. Shu lattalarga mahbuslarning raqamini yozishim kerak. Raqam oftobda ham, qor-yomg'irda ham o'chmaydigan qora lak bilan ("Kuzbass lak" bilan) yoziladi. Lak sovuqda toshdek qotib qoladi. Novvoyxonadan toshko'mir cho'g'ini kurakchada olib kelib, lak solingan bankani uning ustiga qo'ydim. Lak erigandan keyin boya nazoratchi berib ketgan ro'yxatga qarab, raqamlarni yozishga kirishdim. Raqam yoniga mahbusning ism-familiyasi qayd etib qo'yilgan edi. O'n yettinchi kurtkaga

raqam yozmoqchi bo'lib ro'yxatga qaradim-u, hayratdan yoqamni ushladim. "ee3781" raqami yoniga "Kimsanboy Yolqinov" deb yozib qo'yilgan edi. Ertalabdan beri xayolimdan ketmayotgan "kim u" degan jumboq yechilgan edi. Olisda qolgan beozor, sho'x, yerga ursa osmonga sakraydigan tizginsiz bolaligim, tezroq katta bo'lib, aziz va jonajon Vatanga xizmat qilish, "xalqlar dohiysi, ulug' va mehribon otamiz Stalinga sodiq bo'lish" orzusi yuraklarimizda jo'sh urgan qaynoq yoshligimiz ko'z o'ngimdan chaqmoqdek bir yalt etib o'tdi.

Kimsanboy! U bizning bolalardan chiqqan qahramonimiz edi. O'ttizinchi yillarda uning surati gazetalardan tushmasdi. Maktablarda, pioner uylarida, istirohat bog'larida, yoshlar lagerlarida odam bo'yi qilib chizilgan suratlari bir qarashda ko'zga tashlanadigan joylarga ilib qo'yilardi. Va surat tagiga: "Pioner! Qahramon Kimsanboy Olimjonovga salut berib o'tishni unutma!" deb yozib qo'yilardi. Butun O'zbekiston bolalari undan ibrat olishga, u ado etgan vatanparvarlik jasoratini takrorlashga qasamyod qilishardi.

Uning otasi Olimjon Rahmonov rayon maorif bo'limining mudiri edi. Tarix bilimdoni bo'lgan bu odamni rayondagi jami tarix o'qituvchilari ustoz deb atardilar. Hatto uyiga ham kelib, undan Turkiston tarixi bo'yicha bilmaganlarini so'rab bilib olardilar. Uning uyida kitob ko'p edi. Alohida bitta uydagi tokchalarga juda noyob kitoblar terib qo'yilgan edi. Domla bu kitoblarni birovlarga bermasdi. Zarur bo'lsa, shu yerga kelib o'qishgagina ruxsat berardi. Amir Temur, Mirzo Bobur, Narshaxiy, Forobiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Najmiddin Kubro, Al-Beruniy, Xoja Ahror, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning o'tgan asrlarda xattotlar tomonidan ko'chirilgan noyob qo'lyozmalarini Domla ko'z qorachig'idek asrardi. Kechalari yettinchi lampa yorug'ida tong otguncha mutolaa qilardi.

Ko'pincha, Domlaning uyiga keksa ziyolilar to'planib, tarixda o'tgan o'zbek mutafakkirlari to'g'risida suhbatlar qilishardi. Yig'ilganlar Olimjon domlaning bilimiga, bilag'onligiga qoyil qolardilar. Suhbat o'z-o'zidan ota-bobolari Shahrisabz barloslaridan bo'lgan buyuk shoir Mirzo Abdulqodir Bedilga borib taqalardi.

Bedilxonlik boshlanardi, ko'plashib Bedilning sir-u sehrga to'la g'azallarining mag'zini chaqishga kirishib ketardilar. Albatta, Olim domlaning talqinlari hammani lol qoldirardi. O'shanday suhbatlarning birida gap aylanib Fuzuliyning hitta g'azaliga borib qadaldi. Mehmonlardan birovi Fuzuliy ham o'zbeklar orasida Navoiy darajasida mashhur ekanini, uning ko'p g'azallari o'zbek hofizlari tomonidan qo'shiq qilib aytilishini gapirib qoldi.

— Domla, Fuzuliyning bir g'azali bor, mag'zini sira chaqolmadim. Ko'p bilimdonlardan so'raganimda tayinli bir javob bermadilar. Shu to'g'rida sizning fikringizni bilmoqchi edim.

Olimjon domla narigi xonadan Fuzuliyning devonini olib chiqdi. Ko'zoynak taqib, do'stining tishi o'tmagan o'sha g'azalni topdi. Chiroqqa solib, ikki-uch marta o'qidi.

— Xo'sh, qaysi joyiga tushunmadingiz? — deb so'radi do'stidan.

— Fuzuliy shunday deb yozadi: "G'amlarim shuncha ko'pki, tuyaning ustiga ortsam, zindonga tashlangan kofirlar ozod bo'ladi". Xo'sh, nima uchun ozod bo'ladi? Tushunmadim.

Domla o'ylanib qoldi. Darhaqiqat, tuyaning ustiga g'am yukini ortsa, nega kofirlar ozod bo'ladi? Domla ko'p o'yladi. Keyin boshini ko'tarib mehmonlarga qaradi.

— Gap bundoq. Bu sirning ma'nisiga yetish uchun Fuzuliy yashagan davrga murojaat qilish kerak. O'sha davrdagi rivoyatlarni, maqol-u matallarni, hatto qo'shiqlarni ham bilmoq kerak. Bir rivoyatda odamlar Allohdan, ey Tangrim, zindonda yotgan kofirlar qachon ozod qilinadi, deb so'rabdilar. Alloh, tuya ignaning teshigidan o'tgandagina kofirlar ozod qilinadi, deb javob qilgan ekan. Fuzuliy ana shu rivoyatni g'azaliga asos qilib olgan. Ya'ni: "Mening g'amlarim shunchalik ko'pki, tuyaning ustiga ortsam, ko'tarolmay, ozib, ipdek bo'lib qoladi". Ipdek ozib qolgan tuya ignaning teshigidan bemalol o'tishi mumkin. Demak, kofirlar zindondan ozod qilinadi.

Domlaning bu qadar bilimdonligiga qoyil qolishdi, tahsinlar o'qishdi.

Domlaning bo'yiga yetib qolgan egizak qizlari bor edi. Shu egizaklardan keyin ko'rgan bolalari tumadi. Bir yoshga to'lar-to'lmas vafot etaverdilar. U har gal oy-kuni yaqin qolgan xotinining do'ppayib qolgan qorniga qarab: "Kimsan, o'g'ilmisan, qizmisan?" — deb kulardi.

"Agar qiz bo'lsang, otingni Kimsanoy qo'yaman, o'g'il bo'lsang, Kimsanboy qo'yaman", — derdi shirin bir entikib. Xayriyat, o'g'il tug'ildi. Oti Kimsanboy bo'ldi. Shu bola o'n ikki yoshga kirdi. Beshinchi sinfda o'qiydi. Domla kitob titish bilan ovora. Tong otguncha o'tirib, nimalarnidir yozadi. Yozgan maqolalari "Maorif va o'qituvchi", "Madaniy inqilob" gazetalarida bot-bot bosilib turadi.

Kimsanboy maktabda faol pionerlardan. U she'rlarni ajib bir mahorat bilan deklamatsiya qiladi. Uni rayon, hatto viloyat miqyosida o'tadigan tantanali yig'inlarga, slotlarga, o'qituvchilarning konferensiyalariga chaqirib, she'rlar o'qitishadi. Olimjon domla unga, bolam, bunaqa havoyi ishlarga juda ham berilib ketma, yo'qalam qitirlatadi, Kimsanboy boshqa xonada har xil harakatlar qilib, baland ovoz bilan she'r deklamatsiya qiladi.

Bir kuni maktab direktori uni dars paytida idoraga chaqirtirdi. Direktorning kabinetida notanish odam o'tirardi.

— Bu o'rtoq sen bilan gaplashgani kelganlar. Sizlarni xoli qoldiraman, gaplashib olinglar, — deb direktor chiqib ketdi.

Notanish odam gapni nimadan boshlashni bilmay, birpas unga tikilib o'tirdi. Keyin portfelidan gazeta olib uning oldiga qo'ydi. Bu Moskvada chiqadigan "Pionerskaya pravda" gazetasi edi.

— Ikkinchi sahifadagi maqolani yaxshilab o'qib chiq, — dedi u, — suratga ham yaxshilab qara. Qahramon pioner Pavlik Morozov shu bo'ladi.

Kimsanboy o'rischani durust bilmasdi.

— Pavlik Morozovni xalq dushmanlari vahshiylarcha o'ldirishgan. U vatanga sodiq, zamondoshimiz. Uning otasi — xalq dushmani, Sho'ro tuzumini ag'darib tashlashni niyat qilgan. Pavlik o'sha dushmanning sirini fosh etadi. Hozir Sho'rolar jumhuriyatining hamma joyida Morozovchilik harakati boshlanib ketdi. Yosh vatanparvarlar ichki dushmanlarni fosh qilish uchun qasamyod qilmoqdalar. Sen ham shu harakatga qo'shilishing kerak.

Bu sening muqaddas burching. Biz aytgan ishlarni bajarsang, seni Butunittifoq pionerlarining "Artek" nomli lageriga yuboramiz. Faol pionerlarning Moskvada bo'ladigan slotida ham qatnashasan. O'sha yerda buyuk ustozimiz, dohiymiz Stalinni ko'rasan.

Kimsanboyning ko'zlari yashnab ketdi. "Muqaddas poytaxtimiz ulug' Moskvani, tirik dohiyni ko'rish, Qora dengiz sohilidagi jahon bolalari dam oladigan lagerda slimhsupaga ko'tarilib she'r o'qib bersa bormi!.." Kimsanboy shoshib qoldi.

— Men nima ish qilishim kerak?

— Avvalo, o'rtamizda bo'lib o'tgan bu suhbatni birovga aytmaslikka so'z berasan. Bundan keyingi suhbatlarimizni ham sir saqlaysan. — U shunday deya turib, portfelidan bir varaq qog'oz olib unga uzatdi. — Bunga imzo chekib ber. Avval o'qi, keyin imzo chek.

Qog'ozga shundoq so'zlar yozilgan edi:

"TILXAT. Menkim, Kimsanboy Olimjon o'g'li GPU xodimi M. Mansurov bilan bo'lgan suhbatimizni birovga aytmayman. Otam Olimjon Rahmonovning xatti-harakatlarini kuzatishga so'z beraman. Uyga keladigan mehmonlar bilan nimalar to'g'risida gaplashganini yozib beraman.

Agar bo'lib o'tgan gaplarni, olam haqida to'plangan ma'lumotlarni birovga aytsam, jinoyat kodeksining tegishli moddasi bo'yicha jazolanaman".

— O'qib bo'ldingmi? Endi imzo chek!

Kimsanboy o'ylab o'tirmay, tilxat ostiga imzo chekdi.

— Tilingga ehtiyot bo'l. Otang haqida yozib qo'ygan xatlarni har haftaning dushanba kunlari o'zim kelib, shu yerdan olib bertaman. Agar birovga aytsang, yo otangga bildirsang, xuddi Pavlik Morozovdek halok bo'lasan. Yanagi kelishimda, agar aytganlarimni uddalasang, viloyat pioner tashkiloti seni qo'l soati bilan mukofotlaydi, bildingmi?

GPU xodimi Mansurov har dushanba kuni maktabga kelar, Kimsanboy yozib qo'ygan ma'lumotlarni o'qib ko'rgach, boshqalardan yozdirardi.

— Kerakli gaplarni yozish kerak. Faktlarga siyosiy ous berishni o'rgan! Bobokalon dohiymiz Karl Marks: "Din — xalq uchun afyundir", — degan. Uyimizga kelgan mehmonlar Ahmad Yassaviy degan reaksion dindor shoirni ko'klarga ko'tarib maqtashdi. Xalqni asoratga soluvchi she'rlarini o'qishdi, deb yozish kerak. Alisher Navoiy "Xamsa"ni, "Chor devon"ni yozganida Pushkinning bobosi O'rtayer dengizining janubiy qirg'oqlarida chig'anoq terib yurardi. Mirzo Ulug'bek Samarqandda Rasadxona barpo etgan paytlarda o'rislar xoxollarning malayi edi, chipta kavush kiyib yurishardi, degan gaplarni aytishdi, deb yozgin!

— Bunaqa gaplarni endi sizdan eshitib turibman... Qandoq qilib yolg'onni yozaman?!

Birdan Mansurovning jahli chiqib ketdi.

— Yozavermaysanmi, tirrancha! Aytmagan bo'lishsa, endi aytishadi! Xalq dushmanlari hamma gaplarni birdan aytib qo'ya qolishmaydi. Ular nihoyatda pixini yorgan, niqoblangan yovlarimiz.

Kimsanboy bir hafta mobaynida jonini jabborga berib to'plangan ma'lumotlarni qaytadan, Mansurov aytgandek qilib yozdi. Tagiga imzo chekdi.

— Ha, balli! Mana shunaqa qilib yozish kerak. Mengа qara, viloyat pioner tashkiloti seni qo'l soati bilan mukofotlaydi. Ma, taqib ol! Ehhe, seni hali qancha mukofotlar kutyapti!

GPUning pioner tashkiloti nomidan bergan soatini Mansurov Kimsanboyning bilagiga taqib qo'ydi.

Kimsanboy o'zida yo'q shod edi. Ertaga bolalarning ko'zini o'ynatib taqib yuraman, deb quvonchini ichiga sig'dira olmay, Mansurovga minnatdorchilik bildirib, u bilan xayrlashdi. Mansurov ketar chog'ida:

"Qanaqa yozishni bilib olding-a?" deb eslatib qo'ydi.

Bu xil ma'lumot yozishlar uch oydan ortiq davom etdi. Bu orada "pioner tashkiloti" Kimsanboyni velosiped bilan ham mukofotladi. O'sha oyning oxirlariga borib Kimsanboy Butunittifoq pionerlari slotida qatnashish uchun Moskvaga ketdi. O'zbekistondan Kimsanboyga o'xshagan "Morozovchi"lardan yana o'n bir bola bor edi. Slot qatnashchilaridan o'n yetti nafar bola "Hurmat belgisi" ordeni bilan mukofotlandi. Ular orasida Kimsanboy Olimjonov ham bor edi. Kimsanboy Ittifoq oqsoqoli Kalinin qo'li-

dan orden olar ekan, prezidiumda qarsak chalayotganlar orasida "buyuk dohiy, xalqlar otasi Stalin"ga ko'zi tushdi. O'zini tutolmay bo'ngrab yubordi.

U Moskvadan qaytib kelganda dadasi yo'q edi. Olimjon domla bilan yana yetti o'qituvchi qamoqqa olingan ekan.

Ular nima gunoh qilgan ekanlar, deb hayron bo'lgan odamlar gazetada bosilgan "Maorifga uya qurgan quzg'unlar" nomli maqolani o'qiganlaridan keyin nima gapligini bildilar. Birov, buni qaranglar-a, domla tuppa-tuzuk odam edi, odamning otasi ichida, deganlari bejiz emas ekan, desa, yana birovi: "puxta niqoblangan, ayyor odam edi", deydi. "Qing'ir ishning qiyig'i qirq yildan keyin ham chiqadi, bushyor bo'lish kerak, bunaqalardan hali oramizda ko'p bo'lishi mumkin", deydiganlar ham bo'ldi. Dunyoning ishlari xo'p qiziq-da, ota — sotqin, bolasi — chin vatanparvar!

Kimsanboyni ikki marta tergovga chaqirib, otasi bilan yuzlashtirdilar. Olimjon domla bu ishlarda o'g'lining ham qo'li borligini bilmasdi. Yuzma-yuz paytida Kimsanboy aytgan gaplarni eshitib, yoqasini ushladi. Tergovchining: "Shu gaplar rostmi? Tasdiqlaysizmi?" degan so'rog'iga javob bermadi. Peshanasiga shapillatib urib: "E-e, attang, attang! — deya o'g'lining betiga qarab: — "Iloyo, juvonmarg bo'l! Umring xor-zorlikda o'tsin", — deb yuziga fotiha tortdi.

Moskvadan "Troyka" Olimjon domlani o'n besh yilga hukm qilgani to'g'risida qog'oz keldi.

Oradan sakkiz yil o'tdi. Kimsanboy yigirma yoshga to'ldi. 1942-yili armiya safiga chaqirildi. Qishloqlardan frontga ketayotganlarni tantanali kuzatish marosimiga yuzdan ortiq komsomol a'zolari to'plandi. Bo'lajak jangchilar nomidan "Hurmat belgisi" ordeni nishondori Kimsanboy Olimjonovga so'z berildi.

— Men hayot-mamot jangiga ketyapman. Xalq dushmanining o'g'li bo'lib emas, asl vatanparvar, dohiy Stalin farzandi bo'lib urushga kiraman. Bugundan boshlab familiyam Olimjonov emas, Yolqinov bo'ldi. Ko'ksimda buyuk Stalin bilan jangga kiraman! — U shunday deb ko'ylagi yoqasini yechib yubordi. Uning

ko'ksida igna sanchib ishlangan Stalinning surati bor edi. — Ulug' dohiy jangda menga madadkor bo'ladi, — deb so'zini tugatdi Kimsanboy.

Qarsaklar yangradi. Olqishlardan mast bo'lgan Kimsanboy ko'ksini ochganicha tantanavor iljayib turardi...

Shu tobda qamoqxonaning kulrang kurtkasiga "ee3781" raqamini yozar ekanman, ko'zlarimga ishonmay, raqam yonidagi familiyaga yana bir marta qaradim. Adashmabman. Unga "Kimsanboy Yolqinov" deb yozilgan edi.

Boya oftobda yotgan mahbuslarga qarab yum-yum yig'layotgan Olimjon domla — Kimsanboyning otasi. Kiyimini yechmay yotgan, boshi bir tomonga qiyshaygan mahbus — sobiq qahramon pioner Kimsanboy Olimjonov edi.

Olimjon domla o'g'lini tanidi. Ammo Kimsanboy otasini tanimadi.

Oradan besh-o'n kun o'tib yangi mahbuslar karantindan chiqdi. Ularni uchta-to'rttadan qilib baraklarga joylashtirishdi. Ochiq konda portlatilgan ruda xarsanglarini vagonchalarga ortadigan brigadalarga qo'shib yuborishdi.

Kimsanboy lagerning o'zida — "zona"da qoldirildi. Chunki uning o'ng qo'li sinib, qiyshiq bitib qolgan. Yurganda boshi u yoqqa og'ib ketaveradi. Ko'zi ham xiralashgan. Oldida turgan odam tuman orasidan ko'rinayotganga o'xshayveradi. Lekin eshitish qobiliyati juda kuchli.

Yangilar kelgandan keyin lagerdagi mahbuslar hayoti birdan o'zgarib ketgandek bo'ldi. Hayot hayot ekan-da. Mahbuslar har qanday azob-uqubatlar ichida ham, ertaga ularni dahshatli fojia kutayotganini sezganda ham, yashash tarzini o'zgartirmaydi. Og'ir, juda og'ir mehnatdan toliqib kelib, to'rt qoshiqqina suli bo'tqasini yeb olib, barakda o'ziga yechinmay yotib orom oladi. Nazoratchi mahbuslarni sanab, barakni ustidan qulflab qo'ygandan keyin bir damgina asil insonlikka qaytgandek bo'ladilar. Bu burak ularning daxlsiz vatani, uyi, hovlisi bo'lib tuyuladi. Bunda uyat, juda uyat latifalar aytiladi. Barak derazalari kulgidan zirillab ketadi. Bunda mahbuslar xayollariga erk beradilar. Boshlaridan o'tgan

voqealarni so'zlab beradilar. Aytayotgan sarguzashtlari, albatta, yolg'on gaplar. Hech kim yolg'on aytyapsan, demaydi. Yolg'on bo'lsa ham, qiziq bo'lsa, bas. Biri professorning o'g'liman, deb Bolshoy teatrning yosh bir raqqosasini yo'ldan urganini, juda ozg'in ekansan, deb ertalab uyidan haydab yuborganini xuddi rost gapdek hayajon bilan aytib beradi.

— Shu desangiz, — deb gap boshlaydi yana biri — SIBLAG-dalik paytimda juda badtarin, johil bir nachalnigimiz bo'lardi. Bir ko'zi shishadan edi. Jahl bilan stolni mushtlaganda shisha ko'zi otilib chiqib stolga, undan sakrab yerga tushardi. Shisha ko'zni ko'pchilik bo'lib izlab tuproqdan topib, yuvib berardik. Bir kuni ko'zi otilib yerga tushganda bildirmay bir tepgan edim, ruda olib ketayotgan transportyor lentasiga borib tushdi. Ruda bilan vagonga to'kildi. Buni hech kim sezmadi. O'sha kuni kech-gacha ellik kishi ko'zni qidirishdi. Topilmadi. Nachalnik yangi ko'z buyurtma qilish uchun Moskvaga ketdi. Bir oy yo'q bo'lib ketdi-yu, yangi ko'z bilan kelguncha otpuskaga chiqqandek yay-raganmiz, — deya g'urur bilan g'irt yolg'on hikoyasini kula-kula tugatadi.

Yana biri "Ogonyok" jurnalida bosilgan chiroyli bir yigitning suratini qiyib olib, mashhur kinoaktrisaga o'ldim-kuydim deb yozgan xatiga qo'shib jo'natganini, aktrisadan "ikkinchi bunaqa ahmoqlik qilmang, bu o'z erimning surati-ku" degan javob ol-ganini aytganda barak ichi, bomba portlagandek, kulgidan larzaga tushgandi.

Yangilar kelgandan keyin bu kulgilar, bu xil quvnoq suhbatlar barham topgandi. Bunga sabab — yangilar, asosan, "seksotlar", "stukachlar" edi ("seksotlar", "stukachlar" — mahbuslar to'g'ri-sida boshliqlarga yashirincha ma'lumot berib turadiganlar).

Yangi kelganlar ichidagi zo'ravonlar "mahalliy" zo'ravonlar-ning ko'zini ochirmay qo'ydi. Ular oshxonaga borib, ko'pchilik bilan ovqatlangani or qiladilar. Bizning zo'ravonlarimiz ularga ovqat tashib, qo'lini artishga sochiq tutib turadilar. Qarindoshlari-dan posilka olganlar quruq qo'l bilan qolaveradilar. Tug'gan onasi pishirib yuborgan tansiq shirinliklar ham o'sha zo'ravonlarning nasibasi bo'lib qolgandi.

Seksotlarni, stukachlarni bir lagerda uzoq ushlab turmasdilar. Ularning ayg'oqchiligi ochilib qolishi bilan boshqa lagerga jo'na-tardilar. Agar jo'natmasalar, mahbuslar ularni, albatta, o'ldirib yuborardilar. Kimsanboy ham faol seksotlardan edi. Vorkuta lagerida mahbuslar uni urib, ma'lumot yozadigan o'ng qo'lini tirsagidan sindirishgan edi. Balxash lagerida orqa miyasining pas-tiga, qoq ensasiga belkurakning sopi bilan urib, chuqurga tashlab ketishgan. Soqchilar uning dodlagan ovozini eshitib, chuqurdan chiqarib olishgan. Ana shundan keyin uning o'ng qo'li tirsagidan qotib, boshi goh o'ngga, goh chapga o'zidan o'zi burilib qola-digan, sog' qo'li bilan to'g'rilab, oldinga qaratib qo'ysa, boshi musichaning kallasidek old-orqasiga siltanib, borib-kelaveradigan bo'lib qolgandi.

Iyul oyining oxirlariga borib havo nihoyatda isib ketdi. Da-raxtsiz, giyohsiz, tuprog'iga mis kukuni aralashgan yer qizdirilgan tovadek bo'lib, kirza botinkaning tag charmidan o'tib, oyoqni kuy-dirardi. Mahbuslar baraklarning soya tomonlarida jon saqlashardi. Terdan shalabbo bo'lgan kurtkalarini toshlarga, qizigan tuproqqa yozib quritishardi. Ko'pchilikning kurtkasi yuvilaverib, raqamlari o'chib ketgandi. Shunday paytlarda menga ish ko'payardi. Kiyimi-da raqami o'chgan mahbuslarni soqchilar darvozadan chiqarish-mas, menga yuborishardi.

Olimjon domla oldimga kelib, orqa o'girib tizzaladi-da, yelka-sini tutdi. Yangilar kelgandan beri domla ozib ketdi. Yana besh-olti yosh qarigandek edi.

— Domla, yaxshi yuribsizmi? — dedim yelkasiga raqam yo-zarkanman.

— Xudoga shukur, o'lmagan qul yashayverarkan.

— Shu deyman, domla, yoshingiz ham bir joyga borib qoldi. Kattalarda insof yo'q-da. Sizni ishga chiqarmasalar ham bo'lardi.

Domla sergaklandi. Uning ko'nglidan, nega bunday deyapti, seksot emasmikan, degan xayol o'tdiyov!

— Juda unchalik qari emasman. Bergan nonini oqlab yurib-man.

Sut ichib og'zi kuygan odam qatiqni ham puflab ichadi, degan-dek, domlaning ham ko'p marta og'zi kuygan ko'rinadi.

Qamoqxonalarning "telegrafi" juda aniq ishlaydi. Qaysi lagerda qandoq voqea yuz bergani uch kunga qolmay hamma lagerlarga yetib boradi. Qaysi shahar turmasida kimlar yotgani, ular qaysi modda bilan ayblanayotganlari, ular orasida seksotlar borligini aniq biladilar. Yangilarning ko'pchiligi seksot ekani to'g'risidagi xabar o'sha kuniyoq kelgan edi. Olimjon domla uzoq yillardan beri qamoqda yashab, lager hayotining ming bir chiyrig'idan o'tib, pishib ketgan odam edi. Shuning uchun ham u birov bilan dardlashmas, o'z yog'iga o'zi qovrilib yuraverardi.

Mahbuslarni konvoylar ishga haydab ketgandan keyin uch ming kishilik lager bo'shab qoldi. Mening ertalabki xizmatim ham shu bilan tugadi.

Endi barakka ketmoqchi bo'lib turganimda, kallasini likillatib Kimsanboy keldi.

— Birodar, shu ortib qolgan lakni menga bersangiz.

— Lakni nima qilasiz? — dedim.

— Kerak. Yo'q demang.

— Mayli, oling, — dedim lak solingan tunuka bankani unga uzatib.

— Rahmat, — deya orqasiga burilar ekan, sog' qo'li bilan kallasini barak tomonga to'g'rilab qo'ydi-da, asta keta boshladi.

Ajab, Kimsanboy tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketibdi. Navqiron yoshida yuzlarini ajin qoplabdi. Ko'z kosalari chuqurlashgan, sochlari to'kilib, boshi yalang'ochlanib qolgandi. Ammo ko'zlari, ovozi o'sha-o'sha, bolaligidagidek edi. Kunlar chidab bo'lmas darajada isib ketgan bo'lishiga qaramay, u hamon tomog'igacha tugmalari qadalgan kurtkasini, terdan bijg'ib ketgan bo'lsa ham, yechmasdi. U har kuni ertalab qora lak olgani oldimga keladigan bo'ldi. Shunday kunlarning birida uning kimligini o'zimga aytdim.

— Otangiz sizga xo'p bilib ot qo'ygan ekan. Qarang, kimligingizni o'zingiz ham bilmaysiz.

Uning ko'zlari olazarak bo'lib qoldi. Qo'liga tiralib, o'rnidan turmoqchi bo'lgandi, chap qo'li kuchsizlik qilib, yana o'tirib qoldi.

— Kimsanboy, mendan yashirmay qo'yaqoling, — dedim bosiqlik bilan. — Ikkovimiz bitta qishloqning bolasimiz. Kimligingiz kaftimning chizig'idek ayon. — Siz Pavlik Morozovning sadoqatli izdoshisiz. O'z otangizni GPUga sotganingiz uchun "Hurmat belgisi" ordeni bilan mukofotlangan Kimsanboy Olimjonovsiz. Sizlarni frontga kuzatish marosimida qishloq komsomollariga: "Men ko'ksimda buyuk Stalin bilan jangga kiraman", — deb ko'kragingizdagi Stalin suratini minbarda turib ko'rsatganingizda men ham bor edim. Sizga qora lak nima uchun kerakligini bilaman. Stalinning suratini chaplash uchun kerak. Bunaqa qilishning endi foydasi yo'q. Saraton issig'ida terlagan badanga bo'yoq yopishmaydi. Ko'chib ketaveradi. Bundan tashqari... — deb unga zimdan nazar tashladim. Boshi o'ng tomonga burilib qolgandi. — Ko'ksingizda Stalin borligini zeklar allaqachon bilib olishgan.

Yakshanba kuni sizni yechintirib, ko'kragingizdagi qora lakni kerosin bilan, solyarka bilan, benzin bilan Stalinning surati ko'ringuncha ishqalamoqchilar. Ko'ksingizdagi Stalinni ming-minglab mahbuslarga ko'rsatishmoqchi. Sizga maslahat, xo'jayiningizga ayting, sizni yo vaqtincha qamab qo'ysin, yo boshqa lagerga jo'natib yuborsin.

Xoinni ogohlantirib to'g'ri ish qildimmi, bilmadim. Har holda, bir qishloqdan bo'lganimiz uchun shunday qildimmi, bilmayman.

Kimsanboyning kallasi chapdan o'ngga, o'ngdan chapga muttasil borib kelaverdi. Xuddi tutqanoq tutayotganga o'xshardi. U mashaqqat bilan o'rnidan turib, boshini barak tomonga to'g'rilab qo'ydi. Baribir boshi yon tomonga silkinaverganidan yo'lni ko'rolmay gandiraklay boshladi. Ikki marta yiqildi. Yana turdi. Ko'r odamday tusmollab yura boshladi. Unga ham rahmim keldi, ham undan jirkanib ketdim.

Ertasiga u qora lak olgani kelmadi. Tushlikka yaqin uchinchi barakda nimadir bo'ldi. O'sha tomonga sanitar yugurib o'tdi. Lager kasalxonasining jarrohi — katorjnik Shtokman va zambil ko'targan ikki sanitar izma-iz o'sha yoqqa yugurib ketishdi. Birozdan keyin zambilda qonga belangan Kimsanboyni kasalxonaga olib o'tishdi.

— Ko'ksiga pichoq sanchibdi, — dedi barak navbatchisi.

— Battar bo'lsin! Itga it o'limi. Mahbuslar baribir uni tirik qo'yishmasdi.

Kechqurun ishdan qaytgan Olimjon domla kasalxona baragi oldida u yoqdan bu yoqqa asabiy borib-kelib turibdi. Eshik oldida maxorka chekib turgan sanitardan:

— Ahvoli qalay? — deb so'radim.

— Bilmadim, hozircha bir nima deyish qiyin. Pichoq yuragiga bir santimetrcha kirgan.

Ertalab sanitar oldimga kelib:

— Bemor Yolqinov sizni so'rayapti, — dedi.

Kimsanboy ko'kka boqib yotibdi. Ora-sira ojizgina ingrab qo'yadi. Tepasiga borib, ahvolini so'radim. Uning hushi joyida edi. Faqat ko'p qon ketganidan juda holsiz, bemajol.

— Hamqishloq, yaqinda muddatingiz tugab uyga ketasiz, — dedi u past tovushda. — Iltimos, dadam qamoqdan qaytib kelgan bo'lsa, mening uzrimni yetkazing. Gunohini qoni bilan yuvdi, deb ayting.

U charchadimi, hartugul, ancha paytgacha indamay yotdi. Navbatchi sanitar, kerakli gapini ayta olmayapti, deb o'ylab, bizni xoli qoldirib chiqib ketdi.

— Bu dunyoning azoblaridan qutulishimga sanoqli soatlar qolgan. Sizdan o'tinib so'rayman, Shtokmanga ayting, jonim uzilishi bilan tanam sovimay, jasadim qotmay turib ko'ksimdagi Stalin suratini terim bilan shilib olsin. Fashistlarning konslagerida o'liklarning terisini shilishda Shtokman assistentlik qilgan. Qandoq shilishni yaxshi biladi. U dunyoga ham Stalin bilan ketmay. U bilan bitta qabrda yotgulik qilmasin.

Uning bu gaplari iltimos emas, vasiyat edi.

— Xotirjam bo'ling, albatta, unga aytaman, — deb va'da berdim.

Fashistlarning konslagerida Kimsanboy Yolqinov o'likxonaga qorovul bo'lgan deb eshitgan edim. O'lgan asirlarni tikanli sim bilan o'ralgan joyga sarjinga o'xshatib taxlab qo'yganlar. Qish chilasida o'liklar toshdek qotib, muzlab qoladi. Ularning og'izlaridagi tilla tishlarini olg'irlar qoqib ketmasin, deb qo'riqlashardi. Badanida yara-chaqasi yo'q o'liklarni ichkariga, issiqxonaga olib kirganlarida muz erib, murdalarning badani yumshab qoladi. Shundan keyin terisini shilish oson bo'ladi. Bu terilardan tannoz xonimlarga sumkachalar, tanga chaqa solinadigan hamyonchalar, qayishlar yasashardi. Ba'zan yorilgan barabanlarga ham qoplashar edi.

Kimsanboyning oldidan chiqib, jarroh Shtokmanning xonasiga kirdim. Yolqinovning vasiyatini unga aytdim. Shtokman bosh chayqadi.

— Buni, hatto xayolingizga ham keltirmang. Umrimda bunaqa ish qilmaganman. Ammo qilmagan ishimni zo'rlab bo'ynimga qo'yib, otuvga hukm qilishgandi. Keyin otuv hukmini yigirma yillik katorgaga almashtirishdi. Kechirasiz, yana boshqatdan otuvga hukm etilishni istamayman!

Shu bilan Shtokman gapni qisqa qildi-yu, meni xonasidan chiqarib yubordi. Ertalab borganimda sanitar Yolqinovning sahar paytida jon berganini aytdi. Ichkariga kirib murdani ko'rmoqchi bo'ldim. Ikki sanitar uning ustidagi choyshabni ochib, Stalinning suratini tomosha qilishayotgan ekan. Pichoq Stalinning chap ko'zidan sal pastrog'iga sanchilgan edi. "Dohiy"ning surati shu qadar mahorat bilan ishlangan ediki, xuddi tirikka o'xshab ko'rinardi. Ajab, o'lik tanada tirik Stalinning surati.

Mendan oldin Olimjon domla kelib, murdaga uzoq tikilib o'tirganini, o'pkasini bosolmay o'kirib yig'laganini aytib berishdi. Qaytib chiqqanimda domla eshik kesakisiga boshini tirab, holsiz bir alpozda turardi.

— Domla, bir musulmonning bolasi olamdan o'tdi, — dedim. — Shunga janoza o'qitsak bo'larmidi?

Domla indamadi. Uzoq sukutdan so'ng:

— Unga janoza lozim emas, — dedi. — Ko'kragida kofirning surati bor. Endi u bejanoza, bekafan ko'miladi.

U shunday dedi-yu, gandiraklab-gandiraklab, barak orqasiga o'tib ketdi.

"Dohiy" Stalinning jasadi tuproqqa ko'milmadi. Uning ichiga poxol tiqib, mavzoleyga — ustozi Lenin yoniga yotqizib qo'ydilar.

Bu yerda esa u bir xoinning badaniga yopishib, atigi bitta murda arang sig'adigan go'riga sherik bo'lib yotibdi.

Shu bilan ichimizdan chiqqan xoinning jirkanch umri yakun topdi.

1999-yil 17-iyun

TAQDIR, TAQDIR, MUNCHA SHAFQATSIZSAN?

("Ko'z yoshi tomgan hikoyalar" turkumidan)

Stalin o'lgan, Beriya otilgan, mahbuslarga munosabat bir qadar yumshagan paytlar. Avgust oyida lagerimizga Respublika Ichki ishlar vazirining o'rinbosari general Jaqsiliq Stepanov kelib, mahbuslar bilan suhbatlashdi. Qamoq ichidagi qamoq, ya'ni kechasi mahbuslar ustidan qulflab qo'yilgan baraklar derazalaridan temir panjaralar yaqin kunlarda olib tashlanishini aytdi. U Qozog'istonning Rossiya bilan chegaradosh Pavlodar viloyatida, Irtish daryosi bo'ylarida katta bo'lgan, ruslashib ketgan qozoq oilasida tug'ilgan edi. U yetkazgan xushxabardan quvongan mahbuslar qarsak chalib, minnatdorchiliklarini izhor qildilar.

— Yaxshi kunlarni kutinglar. Hammangizning tergov materiallaringiz Ittifoq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilyapti. Ular bizdan har biringiz to'g'ringizda fikr so'rashadi. Hozir yuzdan ortiq odam sizlarga xarakteristika yozish bilan band. Iltimos, tartibqoidani buzmanglar. O'zini yaxshi, intizomli tutganlar vaqtliroq erkinlikka chiqadilar. Har kim o'z mutaxassisligi bo'yicha ish ko'rsatishi kerak.

Norqobil degan zek o'rnidan turib, qo'lini ko'tardi. U asli termizlik bo'lib, Amudaryo portida qayiqchi bo'lib ishlagan. Vazifasi kemada kelgan yuklarning Afg'onistonga tegishlisini qayiqda narigi qirg'oqqa o'tkazib topshirish. U josuslikda ayblanib, o'n besh yil muddatga hukm qilingan. Ya'ni aybi — daryoning naryog'ida afg'on savdogaridan bir kastum bilan tufli sotib olgani. Chet ellik shubhali odam bilan aloqada bo'lgansan, deb ayblangan edi. Hozir u qirq yoshdan oshgan. Hamon muddat ustiga muddat oladi. Yigirma yillik qamoq uni professional mahbusga aylantirgan. U josus so'ziga ko'nikib ketgan. O'zini chinakam josus bo'lsam kerak, deb o'ylardi va bunga ishonardi. Norqobil, asosan, lager tarbiyasini olgan. U blatnoylar tilini mukammal egallagan. Ozodlik, erkinlik degan so'zlar endi uning uchun o'z ma'nosini yo'qotgan edi. U butunlay "lager o'g'li" bo'lib ketgan.

— Grajdanin general, siz hozir, har biringiz o'z mutaxassisligingizni ishga solib xizmat qiling, dedingiz. Menga topshiriq bering, o'z mutaxassisligim sohasida o'zimni oqlay.

General Stepanov uning so'zlarini eshitib, qiziqib so'radi:

— Mutaxassisligingiz qanday? Albatta, foydalanamiz.

— Shpionman, grajdanin general. Topshiriq bering, bajarmasam gad budu.

Mingga yaqin mahbus qarsillab kulib yubordi. General uning chala-chulpa o'rischa gaplari-yu so'kinishlaridan zavqlanib kulardi.

— Nega kulasizlar? Chego smeyetes gadi, ex vi podonki.

Uning blatnoy do'stlari esa:

— Vo dayot zaraza, shuruy, shuruy natsmen, — deya uni rag'batlantirishar edi.

General ketdi. Zeklarning ko'nglida allaqanday erkinlik uchquni qoldi.

Ellik uchinchi yilning qishi juda og'ir keldi. Har kuni shamol aralash qor bo'ralaydi. Yoningda turgan odamni ham ko'rolmaysan. Bunday paytlarda soqchilar soni ko'paytiriladi.

Qor tingan paytlarda tuman bosadi. Lager devorlaridagi kuchli projektorlar zona ichini yoritish u yoqda tursin, projektorning o'zi qog'ozga tomgan yog'dek arang ko'rinadi. Tumanda adashib qolgan mahbuslar yo'l topolmay, tikanli simlar bilan to'silgan devor yoniga borib qolishar, simga tegib ketganda trevoga zangi o'zidan o'zi chalinib, lager bo'ylab uzoq vaqt jaranglab turadi. Devor burchidagi vishkada soqchilar avtomatdan osmonga o'q uzadilar.

Mahbuslar yashaydigan o'n bir barakdan to oshxonagacha o'n bitta temir arqon tortiladi. Mahbuslar oshxonaga shu arqonni ushlab boradilar. Agar arqondan qo'llari chiqib ketsa, to tuman tarqaguncha yo'l topolmay sarson bo'lib yuraveradilar. Mahbuslar o'n bir barakdan tortilgan arqonlarni quyosh nuriga o'xshatishardi. Ba'zilar chumolilardek o'n bir joydan oshxona tomon o'rmalayotganlarga qarab: bu yerda hamma yo'llar kommunizmga olib boradi, deb piching qilishardi.

Tuman chog'lari mahbuslar qochmasdi. Qochganlarning qanchasi cho'lda muzlab, qashqir-u shoqollarga yem bo'lishgan.

Fayzsiz bunday qish oqshomlarida yuragi shundog'am g'amga to'lgan zeklar murdadek qimirlamay o'tiraverardilar.

Ishga olib chiqilgan mahbuslar to tuman tarqamaguncha olib kelinmasdi. Kon oldidagi atrofi tikanli sim bilan o'ralgan maydonchada qorga ko'milib, och-nahor o'tirib, tuman tarqashini kutardilar.

Zeklar yashaydigan baraklar qanchalik yoritilmasin, odamlar ko'ksini yoritolmasdi. Ular negadir qo'shni uyda o'lik yotgandek bir-birlari bilan shivirlab gaplashishardi.

Uzoq yillar qamoqlarda yashaganlar bu holga ko'nikib ketishgan edi. Ayniqsa, g'arbiy ukrainaliklar erkinlikdan tamoman umidlarini uzgan edilar. Shu topda ulardan biri nara (to'rt kishi yotishiga mo'ljallangan ikki qavatli so'ri) ustida chalqancha yotgancha shiftga tikilib "Divlyus ya na nebo" degan ukrainlarning eng sevgan g'amgin qo'shig'ini kuylayapti. Bu qo'shiqni tinglagan har qanday toshyurak odam ham yum-yum yosh to'kardi.

Odamzod qiziq bo'larkan-da! Shundoq azobli, ayanchli damlarda ham bir-birlari bilan jiqqamusht bo'lardilar.

Barakdagi kattakon bak suvga to'ldirib qo'yiladi. Uning pastidagi jo'mrakka bandi zanjirlangan va qulflangan krujka osib qo'yilgan. Ko'pincha, musulmon o'rta osiyoliklar, kavkazliklar, tatarlar shu bak oldida cho'kkalab tahorat oladilar.

Boshqa dindagilar, biz suv ichadigan idishni harom qilding, deb to'polon qiladilar. Mushtlashish boshlanadi. Soqchilar barakka kirib, qonga belangan janjalkashlarni ajratadilar. Bir-ikki zekni haydab opchiqib ketadilar.

Barak derazalaridagi panjaralarni olib tashlashga, barakni qulflamaslikka so'z bergan ichki ishlar vazirining o'rinbosari, general va'dasini bajarmadi. Mahbuslar kechqurun barakka kelishlari bilan nazoratchilar ularni sanab, ustlaridan qulflab qo'yishadi. Hamma hojat ishlari shu yerning o'zida bo'ladi.

Men o'sha paytda "Madaniy tarbiya" bo'limida rassom edim. Vazifam qaysi brigada qancha ruda qaziganini sahargacha katta-katta shitlarga yozib, zonaning ko'rinarli joyiga ilib qo'yish edi.

Sovuq shundoq zaptiga olgan dekabr kechasi edi. Oltinchi barakda qiy-chuv bo'lib qoldi. Mahbuslarning dod-voylarini eshitib,

o'sha tomonga yugurdim. Barakda yong'in bo'layotgan edi. Mahbuslar etik bilan tepib, oynalari sindirilgan derazalardan buralib-buralib qop-qora tutun chiqardi. O't ichida qolganlar yordam so'rab qichqirishardi.

Qor qalin yog'gan paytlarida mahbuslarga piyma (valenka — tagcharmi yo'q namat etik) berilardi. Ilashgan qor barakka kirganda erib, valenkalar jiqqa ho'l bo'lib ketardi. Mahbuslar ularni quritish uchun barak pechi ustiga qator terib qo'yardilar. Yong'in ana shu valenkalardan boshlangan edi.

Nazoratchi starshina Demyanov yonayotgan barakka qarab, maxorka tutatib turardi.

— Eshikni ochmaysanmi? — deya unga baqirdim.

— Haqqim yo'q. Maxsus buyruq bo'lmaguncha ocholmayman, — deya qat'iy javob qildi u.

— Yetmish ikki odam bo'g'ilib o'ladi-ku! Nahotki rahming kelmasa? Bu ishing uchun hali javob berasan, — dedim g'azab bilan.

— Men buyruqni bajaraman. Bu fashistlar kuysa kuyaversin, yonsa yonaversin. Barakdan yetmish ikkita kalla bilan bir yuz qirq to'rtta oyoq topilsa bo'lgani. U yog'i bilan, o'lik-tirigi bilan ishim yo'q.

Zona devoridagi soqchi bo'layotgan voqeani kuzatib turgan ekan. Telefonda shtabga xabar qilibdi. Zudlik bilan shtab navbatchisi yetib keldi. Demyanovga eshiklarni och, deb buyruq berdi.

Dadajon ham shu barakda yashardi. U bir yarim oydan beri to'shakka yotib qolgan, hassaga tayanib arang oshxonaga borib kelardi. Ko'pincha, hamyurtlari unga ovqatini keltirib berardilar.

Dadajonga nima bo'ldiykin, deb tashvishlana boshladim.

Barak eshigi o't o'chirish qoidalariga rioya qilinmay o'rnatilgan edi. Eshiklar ichkariga ochilardi. Bu barakni mahbuslarning o'zlari qurgandilar. Prorab qancha tayinlamasin, quloq solmagandilar. Yong'in chiqqanda yo yer qimirlagan paytda ichkaridagilar o'zlarini eshikka uradilar, shunda eshik yopilib qolib, ochishning iloji bo'lmaydi. Mahbuslar barakda o'zlari uchun o'zlari qopqon yasagan edilar. Bir soldat lom olib kelib eshikni buzdi. Ichkaridan tutunda holsizlanganlar biri-birini itarib tashqariga chiqa

boshladilar, to'lib oqayotgan anhor qirg'og'i o'pirilganday bo'ldi. Odamlar tinmay yo'talishar, o'qchishardi. Ular orasida Dadajon ko'rinmasdi. Deyarli hamma mahbuslar tashqariga chiqdi. Dadajon yo'q. Nazoratchi mahbuslarni bir-bir sanadi. Ularning soni yetmish bitta edi.

— Dadajon yo'q, ichkarida qolib ketibdi, — dedim. Batareya chiroq ushlagan to'rt soldat gaz niqob kiyib barakka, tutunlar orasiga kirib ketdi. Sal fursatdan keyin hushidan ketgan Dadajonni ko'tarib chiqishdi. Qalin qor bosgan yerga yotqizishdi. Shoshib bordim-u, bushlat bog'ichini yechib, ko'kragiga quloq tutdim. Yuragi urmasdi. Lekin tani hali issiq edi. Bilagini ko'tarib, tomirini ushlab ko'rdim. O'ttiz uch yil dukillab muttasil urib turgan yurak endi urishdan to'xtagan edi. Uning ochiq qolgan ko'zlariga qaradim. Tun qorong'isida ko'zlarida qanday ifoda qotib qolganini bilolmadim. Qaboqlarini kaftim bilan pastga qarab siladim. Yetdim, deganda yiqilgan Dadajonning bu dunyoga to'ymagan, erkinlik yo'liga intizor tikilgan ko'zlari endi bir umrga yumildi.

Garnizondan kapitan Rasulov yetib keldi. Qator yotqizib qo'yilgan, tinmay o'qchiyotgan o'ttiz besh choqli mahbusning boshiga borib, bir-bir qarab chiqdi. Dadajonning tepasiga kelib, uzoq tikilib qoldi.

Bosh vrach Shkarin holsiz yotganlarning hammasini sanitar zambarida kasalxonaga jo'nata boshladi.

Lager uyg'onib ketgan. Mahbuslar panjarali derazalardan bu tomonga jimgina qarab turishibdi.

Dadajonni zambarga yotqizishdi. Bir tomondan o'zim ko'tarishib o'likxonaga obordik.

Soat sakkizda barcha baraklarning eshigi ochildi.

Oltinchi barak lop etib yondi-yu, alanga ichida qoldi. Achimsiq tutun hidiga to'lgan lager ustida, tumanlar orqasidan tong yorishib kelardi.

Bir yurtning odami har qanday sharoitda ham bir-biriga qayishar ekan. Biron soatlar o'tib, kapitan Rasulov qog'ozga o'rog'liq bir narsa berib ketdi. Ochib qarasam, sakkiz metr oq surp. Dadajon uchun kafanlik edi bu. Hali ham tuman tarqagani yo'q. Ancha

baland ko'tarilib qolgan quyosh tuman pardasi orqasidan xuddi qizdirilgan chaqadek bo'zrayib ko'rinadi.

— Kafanlikni men olib kelganimni birov bilmagani durust, — dedi u yoq-bu yoqqa alanglab Rasulov. — Marhumning jasadini soat uchlarga tayyorlanglar.

To soat uchgacha marhum Dadajonni yuvib, kafanlab, janozasini o'qidik. Brichka aravada darvozadan olib chiqishdi. Vaxtada tunda eshiklarni ochmay, shuncha odamga shikast yetkazgan, Dadajonning o'limiga sabab bo'lgan nazoratchi starshina Demyanov turardi. Brichkani qo'riqlab borayotganlarga tanbeh berdi:

— Kafanni ochib qaranglar. Badaniga shtik sanchib ko'ringlar, mug'ombirlik qilayotgan bo'lmasin.

Rasulov:

— Tekshirib ko'rilgan, xotirjam bo'l, — deb javob qildi.

Uni dafn qilishga meni olib chiqishdi. Ana shunda Rasulovning millatga qayishishiga tan berdim. Go'r qazish, murdani ko'mish uchun buxorolik uchta soldatni yuborayotgan edi. Ulardan biri Qur'onni juda chiroyli tilovat qilar ekan.

Tuman tarqagan. Oftob qor bosgan oppoq cho'lda ko'zni qamashtiradi. Qabristonga kelganimizda generalning iti ko'milgan joyga qaradim. Juda chiroyli qilib gumbaz ko'tarilibdi. Befarzand general o'limi oldidan, "Mendan qolgan pullarni sarf qilib, sodiq itimga yodgorlik o'rnatinglar", deb vasiyat qilgan ekan. Yodgorlik yaqiniga bordim. Qora marmartoshga shunday so'zlar o'yib yozilgan:

"Mening sodiq va vafodor do'stim, o'ttiz yetti qochoq mahbusni tutib bergan va o'zi yovuz mahbus qo'lida halok bo'lgan Jek nomli itga minnatdor do'sti general mayor Maksim Mixaylovich Rechnikovdan".

Atrofga qarayman. Bu qabristonga akademik Tupolevning ishtirodli shogirdi, Mehnat qahramoni Dudinsov ko'milgan. SSSR xalq artisti Vera Kvitko, Valeriy Chkalovning samolyotini haydasha uchishga sinchkovlik bilan tayyorlaydigan aviatsiya mayori Stepanov, Buxoroda rishta kasalini tugatishda katta xizmat ko'rsatgan Rustam Azimzodalar shonsiz-sharafsiz ko'milgan. Ularning qabri qani? Allaqachon tep-tekis bo'lib ketgan. Birgina shu Jek

deb atalgan itga qo'yilgan savlatli yodgorlik qabristonni "obod" qilib turibdi.

Taqdir, taqdir, muncha qahring qattiq! Muncha shafqatsizsan! Shu buyuk zotlarni bitta it qatori ko'rmading-a!

Fayzsiz, qishda bo'ronlar uvullagan, yerdan bosh ko'targan giyohlarni saratonda qovjiratib tashlaydigan bu ayanchli, bu xunuk, bu sovuq qabristonga qarab ich-ichimdan faryod urardim.

Uch buxorolik azamat yigit lom bilan, belkurak bilan toshga aylanib ketgan zarang yerni kovlab qabr ochguncha terga pishib ketdilar. Jasad lahadga qo'yildi. Og'zi yassi tova tosh bilan bekitildi. Buxoroning Shofirkonidan xizmatga chaqirilgan Mir Arab madrasasining talabasi Istam Ahadov degan yoshgina yigit tilovat boshladi. Shag'al aralash tuproqni qabrga tashlay boshladik. Istamboy Qur'on o'qishning hadisini olgan ekan. Oyatlarni tiniq, yurakka to'ppa-to'g'ri borib qadaladigan ajib bir ohang bilan o'qirdi. Bir umr tilovat eshitilmagan bu qaqir cho'lda muallaq turib vijirlayotgan qushlar ham tepamizda chir aylanar edi. Ular ham qori bolaning ovozidan mast bo'lgan edilar.

Tilovat tugab, to'rtovimiz yuzimizga fotiha tortdik.

— Istamboy ukam, rahmat senga. Iltimos, shu yerda yotgan musulmon bandalarning ruhiga ham bir tilovat qilsang.

Istamboy boshladi. Boya tilovat paytida tepamizda chirqillab aylangan, endi esa sovuqdan jon saqlab, qalashib yotgan toshlar orasidagi xas-xashakdan yasalgan uyalarida hurpayib o'tirgan qushlar Istamboyning ovozini eshitib, yana tepamizga qaytib keldilar. Qanotlarini pirpiratib havoda jimgina muallaq qotib turardilar. Ular balandga ham chiqmas, pastga ham tushmas, allaqanday ko'rinmas ip bilan tepamizga osib qo'yilgandek tek qotgan edilar.

Ikki oyog'i bilan tumshug'i qip-qizil, boshida gunafsharang kokili bor bu qushlarning paydo bo'lganiga hali qirq yildan oshgani yo'q. Ularning asli nomi qanaqa, hech kim bilmaydi. Qozoqlar Beyisht qushi, qrim tatarlari Ridvon (rizvon) qushi, deb ataydilar.

Ular toshlar orasidagi inlariga cho'l giyohlarining urug'larini yozda g'amlab oladilar. Bo'ron turganda, yog'ingarchilik paytlarida haftalab inlaridan chiqmaydilar.

Odamlar ularning inlari og'ziga non ushoqlari, har xil dondunlarni sochib qo'yadilar.

Ufadagi Madrasayi oliyada tahsil olib qaytayotgan bir talaba qushlarning inlari oldiga tiz cho'kib, yig'lab Qur'on tilovat qilgan ekan. Uning gapiga qaraganda, bu qushlar oddiy qushlar emas, mana shu tep-tekis bo'lib ketgan qabrlardagi azob-uqubatlarda shahid bo'lgan begunoh insonlarning bir kalima tilovatga ilhaq bo'lib yotgan ruhlari emish.

Kimki Rizvon qushga ozor bersa, tuzalmas dardga mubtalo bo'larmish. Shu qabriston yonidan tunda o'tgan odamlarning aytishlaricha, qushlarning uyalaridan tong otguncha yig'i, oh-u faryodlar eshitilarmish. Lagerimizda Yer yuzida barmoq bilan sanasa bo'ladigan assira vavilonliklarning biri — Davidov degan yigit yashardi. Rizvon qushining bitta xo'rozi bilan bitta makiyonini qafasga solib olib kelgan edi. Yaqinda shu Bobil farzandi tutqanoq kasaliga uchrab olamdan o'tdi. Bobilliklarning yana bittasi dunyodan ketdi.

* * *

Istamboy qiroatni sog'ingan ekan. Armiya safiga chaqirilgandan beri komsomollarning zug'umiga uchramaslik uchun ovoz chiqarmay, ichida tilovat qilib yurarkan. Nazarimda, uning o'zi ham allaqanday ruhiy oziqlanayotgandek edi.

Gap-so'z bo'lishdan cho'chimay, bu dafn marosimiga yo'l ochib bergan hamyurtim, kapitan Rasulovga dil-dilimdan rahmatlar aytdim.

— Ukam, — dedim Istamboyga, — qo'lingni fotihaga och: shu Rasulov degan azamat inson haqiga bir duo qil!

Bu dunyoning g'amlaridan, ayriliqlaridan, adolatsizliklaridan u dunyoga faryod urib ketgan alamdoshim, hasratdoshim Dadajonni kimsasiz cho'l tuprog'iga topshirib qaytib kelyapmiz.

Qish kunlari bir tutam. Soat besh bo'lmayoq qorong'i tushgan. Zona devorlaridagi projektorlar yoqib qo'yilgan. Gurullab yonayotgan gulxan oldida mahbuslar tik turganlaricha goh qo'llarini, goh oyoqlarini o'tga tutib isinishardi.

Zonaga birov kirmas, birov chiqmasdi.

Hammaning og'zida bitta gap: "Starshina Demyanovga chora ko'rilsin, jinoiy javobgarlikka tortilsin".

Yong'in paytida barak eshiklarini ochmagan starshina Demyanov vaxtada po'stinga o'ralib, qorovullar bilan qaynoq choy ichib o'tiribdi. Uning basharasiga tuflagim keldi. Afsuski, buning sira iloji yo'q edi. U ozod grajdanin, men esa hamma huquqlardan mahrum qilingan mahbusman.

Bir pastkash, insonlik qiyofasini yo'qotgan, shafqatsiz, hissiz to'nka oldida ojiz-u notavon qolish naqadar alamli, naqadar o'kinchli!

Mahbuslar so'zlarida turishdi. Ertasiga ham ishga chiqishmadi. Mahbuslarga bosh-qosh bo'lgan Norqobilni kechasi soldatlar opchiqib ketishgan ekan. Ertalab zonaga iljayib kirib keldi. Operativ vakil undan mahbuslarni tinchitishni, ertaga ishga chiqishlarini tushuntirishni so'rapti. Agar shu topshiriqni bajarmasa, qo'zg'olon ko'tarishda ayblanishini aytibdi.

— Gapiga ko'ndingmi, durak? — deya ta'na qildi maxorka tutunidan mo'ylovlari sarg'ayib ketgan, ismi mutlaqo unli harfsiz yoziladigan Mkrtch degan armani chol.

— Meni kim deb o'ylayapsan? Bilib qo'y, ya ne seksot i ne durak.

Tushga yaqin lager boshlig'i zonaga kirdi. U baraklarni aylanib chiqqandan keyin orqasidan, boshliq nima qilarkin, deb ergashib yurgan mahbuslarga dedi:

— Bo'ldi endi. Ertadan ishga chiqinglar. Norqobil unga e'tiroz bildirdi:

— Poka starshina jazolanmas ekan, rabotat ne budem.

Lager boshlig'i podpolkovnik Samsonov biron tayinli gap aytishga ojiz edi.

— Kelinglar, ochiqchasiga gaplashaylik. Demyanov masalasida harbiy prokurorga murojaat qildik. U starshina qonun doirasida ish tutgan. Ustavni buzmagan, jazolab bo'lmaydi, deb javob qildi. Undan keyin harbiy tribunal bilan gaplashdik. Uning fikri boshqacha. Jazolash kerak. Odamlar halok bo'lishini kutib o'tirmay, shtabga yong'in to'g'risida zudlik bilan xabar qilishi kerak edi, deb javob qildi. U, albatta, sud qilinadi, degan fikrni aytdi.

Xotirjam bo'linglar, biz ham qarab turganimiz yo'q. Shuni yaxshi bilinglarki, Davlat xavfsizligi komiteti bilan Ichki ishlar vazirligi hech qachon mahbuslar fikrini tan olmaydi. Ishga chiqishdan boshqa ilojlaring yo'q.

— Barak eshiklari qachon ochiladi, — deb so'rashdi undan.

— Kutyapmiz. Yuqoridan alohida ruxsat kelishi kerak. Kutyapmiz.

Polkovnik chiqib ketganidan keyin Norqobil boshchiligida gulxan atrofida maslahat "majlisi" bo'ldi. To'rtinchi barakdan Dorfman degan yuristni chaqirib kelishdi. U erkinlikda Leningrad advokaturasida ishlagan, ko'p chigal sud jarayonlarida yutib chiqqan obro'li advokatlardan edi.

— Agar xafa bo'lmasanglar, gapning ochig'ini aytaman. Hozirgi urinishlaringiz hech qanday natija bermaydi. Mahbusning vazifasi — itoat qilish. Biron nimani da'vo qilishga mutlaqo haqqi yo'q. Chunki u grajdanlik huquqidan mahrum qilingan. Da'volaringizning birontasi inobatga olinmaydi. Vazifangiz — faqat va faqat bo'ysunish.

— Nima, biz qul chto li? — dedi norozi bo'lib Norqobil.

— Undan ham battar, — dedi Dorfman. — Bu qilayotgan ishimiz yaxshilik bilan tugasa-ku, mayli-ya, oqibati yomon bo'lishi, besh-olti kishining jazo muddatini oshirib qo'yishlari ham mumkin. Ana unda yomon bo'ladi.

Dorfman to'g'ri aytayotgan edi. Lagerda yuz yildan ortiq muddatga kesilganlardan anchagina bor edi. Lager ichki intizomini buzgan, yo biron jinoyat qilib, o'n-o'n besh yillab muddatini o'taganlariga qaramay, yana yigirma besh yildan jazo muddatini olganlar bor edi. Juk degan mahbus yigirma yettinchi yildan buyon muddat ustiga muddat o'tab keladi. Hozir uning jazo muddati bir yuz o'n to'rt yilga yetgan.

Dorfman — tajribali odam. Qonun-qoidalarni biladi. Uning gaplari to'g'ri edi. Maslahat bilan ertadan ishga chiqishga qaror qilindi. Ertalab vaxtada o'n yetti kishini to'xtatib qoldilar. O'n yetti kishining hammasi troyka qarori bilan har xil muddatga kesilganlar edi. Boshliq o'rinbosari hammamizni to'plab "Troyka" qarori bilan kesilganlarga yengillik berilganini, ular maxsus rux-

satnoma bilan tashqarida soqchisiz ishga borib kelishlari mumkinligini aytdi. Ana shu jazo muddati yengillatilganlar orasida men ham bor edim. Rasulov meni garnizon klubini bezatish uchun o'zi bilan olib ketdi.

— Qish og'ir kelyapti. Shaxtaga borsangiz, sovuqda qiynalib qolasiz. Endi issiqqina klubda soldatlar shavlasidan yeb, surat chizaverasiz. Uzoq ishlanadigan surat tanlang. Bahorga yetib olguncha ishlanadigan surat bo'lsin.

U oldimga bir dasta "Ogonyok" jurnalini tashladi. Jurnaldagi rangli suratlarni ko'rib, "Stalingrad panoramasi"ni tanladim. Unda yuzdan ortiq odam surati bor edi.

— Bu ish endi sizga muddatingizni o'tab bo'lguningizcha yetadi, — dedi Rasulov.

Ishga juda berilib ketgan edim. Orqamda kimdir turganini sezib, o'girilib qaradim. U bolalik o'rtog'im, birinchi sinfdan to to'qqizinchi sinfgacha birga o'qigan, juda ham qadrdon do'stim, mahalladoshim Hamid Azizov edi. U o'ninchini tugatgandan keyin Toshkent meditsina institutiga o'qishga kirgan, institutni bitirmay, frontga yuborilgan, qaytib kelgandan keyin yana o'qishni davom ettirgan edi.

Uni ko'rmaganimga ko'p yillar bo'lgan. Oradan shuncha vaqt o'tib, endi, juda noqulay vaziyatda ko'rishib turibmiz. U meditsina xizmati mayori, ko'ksi orden, medallar plankasi bilan to'la edi.

Bir-birimizga so'zsiz qarab turibmiz. Ko'z oldimda uning rangi oqara boshladi. Oxiri yuzidan qon qochib, bo'zga aylandi. Nima bo'ldi, tobi qochdimi... Yo'q, u hozir tirik "xalq dushmani"ni ko'rib, qo'rqib ketgan edi. To'g'risi, undan hazar qilayotgan edi.

— Iya, iya, — dedi u lablari titrab. Biroz turib yana iya, iya, dedi. — Men hozir... hozir...

U shunday orqasiga o'girildi-yu, yov quvlagandek, shitob bilan tashqariga chiqib ketdi. Shu ketganicha qaytib kelmadi.

Qish oyoqlab, bahor qadami eshitila boshlagan, tepalik joylarda qor erib, zanglagan yerda mis kukunlari xuddi yashil baxmal yopingandek ko'rina boshlagandi. "Stalingrad" panoramasi yarimlab qoldi.

Rasulov munkaygan rus kampirini ergashtirib keldi.

— Bu opa — marhum serjant Gavrushevning xotini. Eslaysizmi uni? Gavrushev lager qoshidagi o't o'chirish komandasining boshlig'i, yong'inga qarshi ogohlantiruvchi plakatlarga buyurtma berardi. "Chekilmasin! Ruxsat etilmagan joyda chekish mana bundoq oqibatlarga olib keladi", degan suratlar ishlab berardim. Uni duradgorlik kombinati, shaxtalar, benzin skladlari devorlariga mixlab qo'yardi. Bu plakatlar uchun u durustgina haq olar, bir qismini menga tashlab ketardi.

Gavrushev o'tgan yili qazo qilgan edi.

— Bitta iltimos bilan kepti. Yo'q demang.

Kampir ro'molchaga o'ralgan nimanidir menga uzatdi, ochib qaradim. Fotosurat. Nihoyatda mohir, professional fotochi olgan leytenant yigitning surati edi.

— Gavrushevning o'g'li. Praga ostonasida halok bo'lgan. Shuni moyli bo'yoq bilan ishlab bersangiz. To'rt kundan keyin o'g'lining tug'ilgan kuni ekan. Pominka qilmoqchi.

— Bo'pti, Gavrushevning hurmati, albatta, ishlab beraman, — dedim. Kampir qog'oz xaltadagi yigirmatacha tuxumni stol ustiga qo'ydi.

— Keragi yo'q, olib keting, — dedim qat'iy.

— Olavering, kampirning oltmishta tovug'i, sakkizta xo'rozi bor. Bozorda tuxum sotadi.

Portretni aytgan muddatda bitqazdim. Kampir keldi. Qo'ltig'ida nihoyatda chiroyli bir babaq xo'roz bor edi.

— E, qo'ying, olmayman. Men eringizdan ko'p yaxshiliklar ko'rganman.

Haq olsam, uyat bo'ladi-ya.

— E, bolam, — dedi u kulib. — Xo'rozim ko'payib ketyapti. Ularni nima qilaman. Tuxum qilmasa bu oliftalar kimga kerak? Baribir bozorga opchiqib sotvoraman. Yaxshisi, sen sho'rvaga bos bu g'o'daygan uxajorni...

Qo'ltig'imda xo'roz bilan zonaga keldim. Kutubxona oldidagi kichkina gulzor biqinida xo'roz uchun katak yasadim. U juda faol xo'rozlardan ekan. Tovuqlarini sog'indi, shekilli, ertalabgacha yetti-sakkiz marta qichqirdi. Uzoq-yaqindan boshqa xo'rozlar unga javob qaytarishdi. Tashqariga chiqsam, mahbuslar ham hovliga

chiqib, xo'roz qichqirishini eshitib o'tirishgan ekan. Shu birgina xo'roz ularga qadrdon qishloqlarini, oydin kechalarni eslatib, uyqularini qochirgan ekan.

Mahbuslar xo'rozni juda erkalatib yuborishdi. Uni katakdan chiqarib yuborishim bilan baraklar oldida mahbuslar tashlagan ushoqlarni terib yer, kechalari esa ularning uyqusini qochirib sahargacha qichqirardi.

Dushanba kuni kechqurun lager ola-to'polon bo'lib ketdi. Soat to'qqiz bo'ldi, haligacha sakkizinchi shaxtaga ishga chiqqan mahbuslar qaytib kelmayapti.

Boshliqlar, garnizon komandirlari zonada asabiy bir holatda bir-birlariga gap ma'qullardilar.

Qandaydir bir jiddiy, ko'ngilsiz voqea yuz berganga o'xshaydi. Zonaga qaytib kelganlarning hammasini safga tizishdi. Oshpazlarni ham, kasalxona vrachlari-yu sanitarlarini, novvoyxonadagilarni ham haydab chiqib, safga tizdilar. Shoshilmay, birma-bir sanadilar. Yana sanadilar. Yetti marta sanadilar. Bir mahbus kam chiqaverdi. Mahbuslarning hammasini bitta qoldirmay baraklarga tiqishdi. Eshik oldiga qo'yilgan soqchilar, nazoratchilar ularning ismi, familiyasini, raqamini yozib, bittalab chiqara boshladilar. Uch soat davom etgan bu "tadbir"dan keyin ro'yxatni shtabga opchiqib ketdilar. Shtabdagi ro'yxatga solishtirib, ikki soatdan ko'proq urinib, g'oyib bo'lgan mahbus Norqobil A'lamov degan shaxs ekani aniq bo'ldi.

Sakkizinchi shaxtadan brigadani kechasi soat ikkilarda olib kelishdi.

Lager boshlig'i ham o'sha tun uxlamadi. Papiros ustiga papiros chekadi. Tongga yaqin xo'rozimiz cho'zib-cho'zib qichqirdi. Uning tovushidan g'azabga kelgan boshliq yer tepib baqirdi.

— Xo'roz boqishga kim ruxsat berdi? Yo'qotinglar, hoziroq yo'qotinglar bu xo'rozni.

Demyanov quvib yurib xo'rozni tutib keldi. Boshliqning oyog'i ostida xo'rozning tanasini kirza etigi bilan bosib, bo'g'ziga pichoq tortib yubordi-yu, kiyimiga qon sachratmaslik uchun hali joni uzilmagan xo'rozni qo'yib yubordi. Xo'roz tapirlab, yerdan yarim metr balandlikka ikki-uch marta sapchib jon berdi.

Mahbuslarga uylarini, qishloqlarini, bola-chaqalarini eslatib har oqshom, har sahar qichqiradigan xo'roz ularning ko'zlari oldida qonga belanib jon berdi.

— Baribir qo'lga tushadi bu natsmen, — dedi Demyanov qo'liga sachragan qonni irkit dastro'moli bilan artarkan. — Bu cho'llardan bironta mahbus qochib qutulmagan.

Lekin Norqobil tutib bo'lmaydigan, qo'lga tushmaydigan bo'lib qochgan edi.

Konchilar posyolkasida mahbuslik muddatini o'tab bo'lgan, besh yil surgun jazosini o'tayotgan sobiq mahbuslar ham yasharbesh yil surgun jazosini o'tayotgan sobiq mahbuslar ham yasharbesh yil surgun jazosini o'tayotgan sobiq mahbuslar ham yasharbesh yil surgun jazosini o'tayotgan sobiq mahbuslar ham yasharbesh yil surgun jazosini o'tayotgan sobiq mahbuslar ham yasharbesh yil surgun jazosini o'tayotgan sobiq mahbuslar ham yasharbesh yil surgun jazosini o'tayotgan sobiq mahbuslar ham yashardilar. Ularga boshqa tomonlarga borib ishlashga ruxsat yo'q edi. Ular ham konda ishlashga majbur edilar. Ular orasida Norqobilning blatnoy do'stlari ko'p edi. Ular konga maxsus guvohnoma bilan kirib ishlardilar.

O'tgan seshanba kuni sakkizinchi shaxtada ishlaydigan sobiq blatnoy Norqobilning raqamlangan kiyimlarini kiyib, mahbuslar bilan zonaga keladi. U besh kun mahbuslar bilan ishga borib kelaveradi. U dushanba kuni ishga kelganda yashirib qo'ygan o'z kiyimlarini kiyib, ruxsatnomasi bilan shaxtadan chiqib ketadi.

Norqobil esa do'stlari tayyorlab qo'ygan grajdan kiyimi bilan, ular to'plab bergan anchagina pul bilan, surati yopishtirilgan, haqiqiyligiga hech kim shubha qilmaydigan qalbaki pasport bilan besh kun ichida Termizga yetib keladi. Puflab shishirilgan buzoq terisini minib, afg'on shamoli quturgandan quturib ko'z ochirmay yotgan tunda jiyanlari ko'magida Amudaryoda suzib, chegaradan o'tib ketadi.

Shu topda, uni tutamiz, qo'lga tushiramiz, jazosini beramiz, deb gapirayotganlarida u Afg'onistonning Hayraton qishlog'ida, cho'pon o'tovida ko'k choy ichib, o'rischa so'kinib o'tirar edi.

XOTIMA

Qamoqdan bo'shagan kunimdan bir hafta avval Demyanovning unvoni oshirildi. Zonaga pogonida bitta yulduz bilan kirib keldi.

Qadrdon Toshkentimga eson-omon yetib keldim. Vayron bo'lgan ro'zg'orimni tikladim. Farzand ko'rdim. Qator-qator kitoblarim chiqdi. "Xalq yozuvchisi" unvoniga sazovor bo'ldim.

Hovlida o'tirgan edim. Eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Chiqib eshikni ochdim. Ostonada bolalik "o'rtog'im" Hamid Azizov turardi. U bag'riga bosib ko'rishmoqchi bo'ldi. Orqaga chekindim. U juda noqulay ahvolda qoldi. Tutila-tutila to'y qilayotganini, to'yga taklifnoma olib kelganini aytdi. Xo'p, xayr dedim-u, eshikni bekitib, ichkariga kirib ketdim. U hayron-u lol, serrayguncha qoldi. U bergan taklif qog'ozini o'qimay, g'ijimlab, yo'lakdagi axlat chelagiga tashladim.

2000-yil, may

OT BILAN SUHBAT

Urgutda, adir tepasidagi Navro'z bayrami o'tkaziladigan yalanglikka chiqadigan tik so'qmoq yonboshida bir qabr bor. Andak to'xtab, unga e'tibor bering. Bu jangchi, qahramon otning qabri. U frontda yaralangan egasini olib ketayotgan sanitar vagoni orqasidan yugurib, poyezd tezlab ketganda yetolmay, yo'lda qolib ketgan. Necha oylab tog'-u toshlardan, daryolardan o'tib, cho'llarda sargardon bo'lib, oxiri Urgutni topib kelgan. Bu vafodor ot egasini ko'rish ilinjida oylab Samarqand vokzalidagi poyezdlarni boshdan oyoq aylanib chiqadi. O'ziga tanish sanitar vagonni topolmay, kelgusi poyezdni kutadi. Urgut bilan Samarqand oralig'ida qatnayverib, tuyoqlari yemirilib, yurishga imkon bermay qo'yadi. U oxiri qadrdon chavandoziga ilhaq bo'lib jon beradi.

1960-yilda konchilar to'g'risida biron nima yozish niyatida Ohangaronga bordim. Yuz metrcha chuqurlikdagi shaxtaga tushganimda g'aroyib voqeaga duch keldim. Bu voqea meni halihali larzaga soladi. Ilgari boshimga qora kunlar yog'ilganda Jezqozg'on mis konlari shaxtalarida ishlaganman. Yer qa'ridagi bunaqa hayot menga tanish edi. Boya aytganim — meni larzaga solgan narsa — ko'mir konida 17 yildan beri yorug'lik ko'rmay, toza havodan nafas olmay yashayotgan ot edi.

Bu ot qirq birinchi yili frontga jo'natiladi, ikki yil jang qiladi. Yaralangan otlar qatori "brak" qilinib, ko'mir konlari boshqarmasi ixtiyoriga yuboriladi. Shu tariqa u frontdosh do'stlari bilan Ohangaronga kelib qoladi. O'sha paytlarda elektr quvvatining yetishmasligi tufayli texnikani ishlatib bo'lmasdi. Elektr quvvati faqat shaxta ichini yoritish va havoni tozalovchi ventilatorni aylantirishga zo'rg'a yetardi. Otlar yer tagiga tushirildi. Ko'mir ortilgan vagonchalarni tortish shular zimmasiga tushdi. Yarasi bitib, asl holiga kelgan ot isyon ko'tarib, yuk tortmay qo'ydi. Shunda yer ustidan bir yahudiy mol do'xtiri tushib, uni axta qilib qo'ydi. Ana shundan keyin u yuvosh tortib, itoatli bo'lib qoldi. Ko'p otlar havo yetishmasligidan, og'ir mehnatdan birin-ketin o'la boshladilar. Yuqori quvvatli elektr liniyalari tortib keltirilgandan keyin otlar kerak bo'lmay qoldi. Ular ishdan ozod qilinib, yer betiga chiqaziladi. Ammo yorug'likka chiqqach, qorachiqlari kengayib ketgandan kuchli yorug'likka chidamay, hammasi ko'r bo'lib, badbo'y iflos havoga o'rgangan o'pkalari toza havoga dosh berolmay qoldi. Shaxtada qolgan uch-to'rt ot ham o'lib ketdi. Faqat shu birgina ot hamon yer qa'rida yashayapti.

Boshimdagi kaska chirog'ini otga tushiraman. U jimgina turaveradi. U axta qilinganidan buyon ana shunaqa befarq, loqayd bo'lib qolgan ekan.

Menga hamroh bo'lgan kon muhandisiga qarayman.

— Buni nima qilmoqchisizlar? Yuqoriga chiqazilsa, ko'r bo'lib, o'lib ketadi. Bechora shu yerda yashayveradimi?

— Boshqa iloj yo'q. Xudo qancha umr bergan bo'lsa shu yerda poyoniga yetkazadi.

O'z o'limini sokin, itoat bilan, isyonsiz kutayotgan baxtsiz jonivorga qarab, yuraklarim zirqirab ketdi. Qanchalar rahmsiz bo'lib ketganmiz-a, deyman o'zimga o'zim. Dinga qarshi tinimsiz tashviqotlar o'z ishini qilmayotganmikin? Dilimizdan imon ko'tarilmayotganmikan? Nahotki, Xudoni unutayozdik? Yo'qsa, bu shafqatsizlik bizda qaydan paydo bo'ldi?

Qamoq lagerlarida umrini o'tkazayotgan mahbuslar uyini, bola-chaqalarini sog'inib mushuk boqishardi. O'zlari to'ymagan ovqatdan yulib mushuklarga berishardi. Lager siyosiy rahbari shu

mushuklarni qopga solib, olov gurullab yonayotgan novvoyxona pechiga tashlaganini ko'rganman. U alangada jizg'anak bo'lib yonayotgan mushuklarni zavq bilan tomosha qilgandi. Bu shafqatsiz odam ibodat qilayotgan nasroniylarni, namoz o'qiyotgan musulmonlarni ayamasdan kaltaklardi. Bu xil shafqatsizliklar o'shanaqa imonsizlardan o'tmaganmikan?

Shunday iztirobli xayollar bilan otdan uzoqlashdim.

Goh emaklab, goh bukilib, vagonchalarga, elektr simlarga tegib ketishdan qo'rqib, ming bir xavotir bilan shaxta yo'llarini aylanib chiqdim. Tepamda, kim bilsin, necha million tonnali yer qatlami. U tinimsiz qisirlaydi. Har biri uydek-uydek keladigan ko'mir xarsanglarining darzidan qurum to'kiladi. Vagonchalarning taraqa-turuq tovushlari, tepadan yomg'irdek quyilayotgan suvlarning shovqini, suv tortayotgan nasoslarning tinimsiz guvullashi, parmalarning pulemyot tovushini eslatuvchi ovozi, ular ko'chirgan ko'mir xarsanglarining pastga qarsillab tushishidan hosil bo'lgan momaqaldiroqdek vahimali tovushi meni dovdiratib qo'ydi, quloqlarim bitib, chiqish joyiga keldim. Hamrohim yuqoriga chiqib ketgan ekan. Liftchi chol ahvolimni ko'rib, temir kursini men tomon surib qo'ydi.

— Birpas dam oling. Ancha urinib qopsiz. Shaxtaga birinchi tushgan odam shunaqa esankirab qoladi.

O'tirdim. Ikki ko'zim otda. Uning badani harakatsiz edi. Yer betidagi otlar tanasiga qo'ngan pashshalarni dumi bilan haydaydi. Dumi yetmagan joylariga qo'nganlarini terisini dirillatib uchirib yuboradi. Bu joyda na pashsha, na chivin bor. U otning o'zi emas, go'yo haykali edi.

Ot ham o'ylarmikan, deyman o'zimga o'zim. Ko'rgan kunlarini eslarmikin? Tolstoy ham, Aytmatov ham ot o'ylash, eslash qobiliyatiga ega jonivor, degan. Shunday bo'lsa, bu ot ham bolaligini eslay oladi. Shataloq otib yayragan yashil yaylovini, onasining to'lib, tirsillab turgan yelinini boshi bilan turtib-turtib iydirganlarini, iliq, xushbo'y ona sutini miriqib emganlarini eslayotgandir. Chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumburlab, yomg'ir quyganda onasining issiq pinjiga suqilganlarini xayolidan o'tkazayotgandir. Avji g'unon bo'lgan paytida raqiblarini dog'da qoldirib, ko'ngli

xushlagan suluv biyani ergashtirib, uyur orasidan g'olibona olib o'tgan paytlarini nahotki eslamasa!

Ot xo'rsinsa, ko'zidan yosh oqsa, bir falokat yuz beradi, egasi o'ladi, deyishadi. Xo'rsingan otni, albatta, so'yib yuborishadi.

1952-yili shu otning ko'zidan mo'lt-mo'lt yosh oqqandi. Nimqorong'i shaxtada buni hech kim sezmagandi.

O'sha yili olis Jezqozg'on konida mis xarsanglarini ko'chiradigan mahbuslar orasida bir mahbus, sobiq qahramon, otliq askar Ermat chavandoz olamdan o'tdi. Mis to'zonlari uning o'pkasini chiritgan edi. Ermat chavandoz umrini vatan xoini degan "unvon" bilan yakunladi.

Ot o'z chavandozining olamdan o'tganini sezdimikin? Uning xo'rsinishi, ko'zida mo'ltiragan yosh, balki, shundandir? U jonivorlik hissiyoti bilan fojiani olisdan turib sezgan bo'lishi mumkin.

Bu ruhiy holat, bu erk sog'inchi menga tanish.

Yigit yoshim barq urgan, uylanib, hayot nash'asini surayotgan, yonib ijod qilayotgan paytimda meni zindonga tashladilar. Yorug' tushmaydigan, tashqaridan tiq etgan tovush kelmaydigan yakka zimiston xona (odinochka)da yotganimda xuddi shu otga o'xshab ko'rgan-kechirganlarimni eslab o'tirardim. Qiziq, negadir faqat bahor paytlarini eslardim. O'rik gullagan, shabboda shaftoli gullarini to'zg'itardi. Majnuntollarning uzun yashil sochlari yangi tuyg'ongan maysalarning boshlarini silardi. Jannatmonand o'zbek bog'larida bahor bir necha haftalik mehmon edi.

Yigitlik ham ana shunday mehmon. Shu g'animat, keyin hech qachon qaytib kelmas damlarni qorong'i zindonda o'tkazish naqadar ayanchli, naqadar armonli...

Shu topda, yer tagida ot o'ylayapti, men o'ylayapman.

Ot yashil yaylovlarni ko'ryapti. Ona bag'rida yayraganlarini eslayapti. Men birinchi kitobim chiqqan, quvonchim olamga sig'mas baxtiyor damlarni ko'z yumib xotiramda jonlantiryapman.

Beixtiyor otga qarayman. U hamon bosh eggancha loqayd turardi.

— E, birodar, ne gunohing bor ediki, seni shu alpozga solishdi? Ot tilga kirgandek bo'ldi:

— Menda qanday gunoh bo'lsin? Bir bezabon jonivorman. Odamlarning yukini yengil qildim, uzog'ini yaqin qildim. O'zimni insonning do'sti degandim... Hayronman. Olis yurtlarda janglarga kirdim. Odamlar menga o'q uzdilar. Yaralanib, uzoq yurtlardan vatan deb bilgan manzilga yetib keldim. Mana, ko'rib turibsan, o'sha sog'inib kelgan vatanda oftob ko'rmay turibman...

— Bilaman, bilaman, jonivor. Xalqlar otasi ho'l-u quruqni barobar yondirgan edi. Sendan biron zurriyot qolmadimi? — deb so'rayman undan. U bosh chayqaydi.

— Meni bunday baxtdan mosuvo qilganlar.

Ko'ksimda bir dunyo g'am bilan yer betiga chiqib ketdim. Osmon ko'm-ko'k, ukpardek oppoq bulutlar beozor suzadi.

Ot pastda, quyoshsiz, oysiz, yulduzsiz makonda mung to'la ko'zlarini yumganicha qora taqdirini poyoniga yetkazish uchun zimistonda qoldi. O'ttiz yetti yildirki, uni eslayman. Ba'zan u tushlarimga kiradi. Biron yerda ot ko'rsam, shu g'arib, baxti chopmagan jonivor esimga keladi. Shunday paytlarda dohiy "padari buzrukvorimizga" qarata: "Zulmingni, jabringni tortmagan kim qoldi? Odamlarga qilgan zulming kammidi, jonivorlarni ham baxti qora qilding-ku!" degan bir nido ich-ichimdan otilib chiqadi.

O'tgan yili vodiyga mashinada ketayotganimda yomg'ir quyib yubordi. Olmaliq yo'lidan Ohangaron tomon burilishda hassaga tayangan bir keksa odam yomg'irda ivib, o'tgan-ketgan mashinalarga qo'l ko'tarib, olib ketishlaridan umid qilib turardi. Uning yonginasiga kelib, mashinani to'xtatdim. U eshikni ochib, Angrengacha olib ketishimni so'radi. Olib ketdim. U menga ikki-uch marta qarab olgach:

— Sizni taniyman, birodar, — dedi. — Esingizda bormi, o'ttiz yetti yil oldin sizni shaxtaga olib tushgandim.

Tasodifni qarang, shuncha yildan beri xayolimni band qilgan odamni topdim. Undan shoshib so'radim. "Esingizdami, hu, shaxtadagi ot? U nima bo'ldi?" — dedim. U ichki bir iztirob bilan, past ovozda: "O'ldi", — dedi.

— Siz kelib ketganingizdan biron yil o'tib, jonivor qazo qildi. Jasadini Jigariston dagi frontchi do'stlari dafn qilingan joyga ko'mdik. Juda bahavo joy. Baland adir poyida. Kon veteranlari

maslahatlashib, shu otlarga yodgorlik o'rnatmoqchi bo'ldik. Biroq o'zingiz bilasiz, Jigariston voqeasini butun dunyo bilib ketdi. Bemahal kelgan yomg'ir selga aylanib, ko'priklarni buzdi. Daraxtlarni qo'pordi. Adirning tagi nam tortib, surila boshladi. Oxiri o'pirilib, odamlarning uylarini bosdi. Ehhe, qancha odam tuproq tagida qoldi. O'shanda otlarning mozori ham tuproq tagida qolib ketdi.

Bu gapdan ingrab yubordim.

Taqdirni qarang, bu baxti qora otning o'n yetti yil yer tagida yashagani, yer tagida jon bergani kamlik qilgandek, qabri ham yer tagida qolib ketibdi. O'zi aytgandek, "vatanini topibdi".

Hamrohimni Angrenda qoldirib, tog' tomon ketdim. Yomg'ir tingan, lekin tog' boshida bulutlar g'ujg'on o'ynardi.

Dovonga ko'tarilaman. Yonbag'irlarda uyur-uyur yilqilar o't-lab yurishibdi. Ular orasida men bilgan otning zurriyoti yo'q. U dunyodan nom-nishonsiz ketgan...

"Ot kishnagan oqshom" qissasining so'nggi satrlarini yoddan o'qiyman: "Ayo Tarlon, sen mening akamsan. Uka desa degulik mendayin ukang bor... Ayo Tarlon, sen mening qiyomatlik birodarimsan, qiyomatlik..."

Bu so'zlar insonning eng yaqin do'sti, vafoli jo'rasi — ot sha'niga aytilgan madh-u taronadir.

ROSTGO'Y POSBON

(Ko'hna Buxoroning beqiyos rostgo'y fuqarosi Sangin Hamro to'g'risida haddan tashqari rost hikoya)

Bu odamni men o'n bir yil burun Amir zindonining darvozasi yonida uchratgan edim. U xontaxta ustiga jevachka, sigaret, bir shisha nos, sho'rdanak, qovurilgan no'xat qo'yib, xaridor kutib o'tirardi.

Bir zamonlar, ya'ni amir vaqtida bu joy juda gavjum bo'lgan deyishadi. Endi zindonning sharti ketib, parti qolgan. Ilgarilari odamlar bu joydan damlarini ichlariga yutib, oyoq uchida yurib

o'tar ekanlar. Hozir unaqa emas. Zindonning mutlaqo obro'si ketgan. Bezori bolalar uning devoriga bo'r bilan uch harfli o'rischa uyat so'z bitib ketibdilar. Ho'l latta bilan o'chirganning foydasi yo'q. Quriganda yana o'sha yozuv paydo bo'ladi. Qirib tashlashning ham iloji yo'q. Shuvog'i Nekalayning semonidan qorilgan. Tosh-metin deyavering. Amir Olimxonning zindoni hozir muzey emish, deb eshitgandim. Bu daf'a Buxoro safarimda bir borib, erinmay ko'rishni niyat qildim.

Afsus, zindon yopiq ekan. Bu yerga dunyoning bari joyidan xorijliklar kelardi. Shularning jamisiga tushunadigan qilib o'rischa yozib qo'yilgan: "Zindan zakrit, vse ushli na xlopok".

Urush yillarida jang bo'layotgan rayonlarda ham raykom idorasi eshigiga shunaqa deb yozib qo'yishardi.

Chol tilining tagiga bir otim nos tashlab, o'z ishlaridan nolib qoldi.

— Haminqadar yashab, zindonning bundoqchikin beobro' bo'lganini man ko'rmagan. E, aka mullo, bachalar hozir paxtaga, shaharga to'lka boboylar qoldi. U nokaslar jevachka chaynamaydu, papiro'ys tutatmaydu...

Cholning yoniga o'tirib, gapga soldim.

— Man amir zamonida ham shu zindonga qorovul bo'lgan. U paytga zindonmisan, zindon edi. Ichiga kirgan odamning sira chiqqisi kelmasdi. Boshlariga qorako'l qalpoq kiyib, bellariga qilich taqqanlar u yoqdan bu yoqqa savlat to'kib yurar edilar.

— Amir qanaqa odam edi, ko'rganmisiz? — deb so'rayman.

— Amirni man ko'rgan. Uning kogonli shoir do'sti bo'lar edi. O'zi zo'r mergan, ya'ni ovchi edi. Shig'rining oxiriga "Kogon Ovchi" deb nomini ham qo'shib qo'yar edi.

Amirga cho'ldan kiyik urib kelardi. Amir ertalab qirg'ovul go'shtini, tushlikka kiyik go'shtini, kechasilikka qora qo'chqorning ba'zi joylarini qaynattirib, sho'rposini ichardi. Kogon ovchi uni ko'p martalab Shofirkon tomonlarga qirg'ovul oviga olib borgan. Kechga yaqin bir olam qirg'ovul urib kelardilar. Shu desangiz, amir ovchi do'stiga bir yaxshilik qilmoqchi bo'ldi. Ovchining yolg'izgina bachasini Maskopga o'qishga yubordi. Ilm olib, o'rischaga o'rganib, yurt ko'rib kelsin deb, shundoqchikin ish qil-

ganda!.. Odam bolasiga yaxshilik qilib bo'lmas ekan. Maskopga borib, o'rislarga qo'shilib, ota-onasini unutdi. Istalin bilan jo'ra bo'lib, katta ishlarga ko'tarilib ketibdi. Kogon Ovchiyev deyishga Istalinning tili kelishmay, fomilasini o'zgartiripti. Ya'ni, "Kaganovich" qilib boshpurt beripti. Sho'roning jami otash-aravasi, ya'ni poyizlariga kattakon qilib qo'yipti. Kattakon o'zimizdan chig'di, endi o'ruslarning yerini ham Buxoroga qo'shib olamiz, degan gaplar tarqaldi. Maskop ham o'zimizniki bo'ladi, deb, o'ris pulini yig'a boshladilar. Gapimning boshiga, odam bolasi yaxshilikni bilmaydi, devdim-ku: o'sha Kogon ovchining pisari, ya'ni Kaganovich to'rt-beshta jo'ralari bilan lak-lak Sho'ro askarlarini ergashtirib kelib, muborak Minorayi Kalonni ayamay zambarakka tutdi. Ayripilon bilan amir o'rdasiga bo'mbalar yog'dirdi. Ularning ichiga Qo'ygo'shev degan bir badtarini bor ekan. Hech birovini ayamadi. Bechora amir tilla to'la ikki xurjunni foytunga ortib, Afg'onga qochdi. Sitorayi Mohi Xosadagi amirning ikkita tilla qubbali kalovatining bittasini Kogon ovchining o'g'li ildirib ketdi. Bittasini Maskop muzeyiga qo'ydilar.

Xaloyiq orasiga bir gap g'imirlab qoldi. Minorayi Kalonni Maskopga ko'chirib olib ketar emishlar! Bu gapga birov ishondi, birov ishonmadi. Bu luqma ham o'zimizdan chiqqan baloning gapi ekan. Undan shundoqchikin Kalon Minorani qandoq olib ketasan deb so'rashsa, u kaltafahm, ellikta ayvoncha poyizni qatorasi qo'yib, ustiga minorani asta yiqitamiz, degan emish.

Bu gapdan xabar topkan Istalin, qo'ygin, bunaqa qilma deb, dilgirom yuboripti. Yaqinda Maskopning qoq o'rtasidagi butxonani buzganmish. Narod orasida yaxshi-yomon gaplar yurganmish. Minorani uning o'rniga qo'ndirsak, musulmonlar ustimizga yopirilib bostirib kelishi mumkin deb, zo'rg'a to'xtatipti.

O'ttiz yettinchi yilinda Buxoroning paxtasi bo'lmadi. Yashnab turgan g'o'zalarni garimsel yalab ketdi. Axir, bu Xudoning irodasi bilan bo'lgan kor, bandaga nima ayb? Nechukkim, Buxoro paxta pilonini to'ldirmaydi, bu ishga dushmanning dasti bor, deb o'ylagan Istalin Qo'ygo'shev bilan Kogon ovchining o'g'lini — dushmanlarni fosh qilinglar, ayamasdan jazolanglar deb yubordi. Bu nobakorlar odamlarning uyidan ko'rpa-yastuqlarini tortib olib chi-

qib, paxtasini to'kdilar. O'shanda har bir rayondan besh-oltitadan odam otildi. Lochindek-lochindek raykomlar, ordin taqqan savlatli raislar o'qqa uchib, juvonmarg bo'lib ketdi. Qamoqxonalar odamga to'lib, mana shu zindonga ham elliktacha odamni tiqdilar. Zindon o'sha paytga ham bir obod bo'lib, atrofi melisaga to'lgan edi.

Kaganovich o'zimizniki, odamlarni qutqarib qoladi deb umid qilganlar barmoqlarini tishlab qolishdi. Keyin bilsak, ishboshi shu Kogon ovchining o'g'li ekan. O'zingdan chiqqan baloga, qayga boray da'voga, degan gap bor Buxoroning xalqiga. Dono xalqimizning aytkanlari bo'ldi.

Kaganovich Kogon ovchining o'g'li ham emas, musulmon ham emas, degan gap chig'di.

Mening qaynotam Buxoroning katta hammomiga xodimgar edi. Xodimgarning nimaligini bilasizmi? Bu — misoli o'rislarning massaji degan gap. Har yakshanbada Kaganovich shu hammomga tushib, xodimi qildirar ekan. Odamlar qaynotamdan, anig'ini bilib bering, u musulmonmi-yo'qmi deb, iltimos qilishdi. U kishi Kaganovich musulmon, yalang'och holda o'z ko'zim bilan ko'rdim, xatna bo'lgan ekanlar, deb, shohidlik berdilar desangiz, bu gap yo'qqa chiqdi.

Xotiram faromush bo'lib, bitta zarur gap yodimdan chig'ipti.

Amir qochgandan keyin kanizlarini bitta-bittalab majburlab erga berishdi. Men ham umid bilan ochirtka yozildim. Peshonam qursin, sho'r ekan, navbat menga kelganda nachayli melisa bittasini benavbat ilib ketdi-yu, menga amirning kanizlaridan yetmay qoldi.

O'rtoq Lenin xalqimizga xizmat qilaverib, oxiri Kallelin bo'lib qoldilar. U kishini men ko'rgan. Buxoroga qurultoy bo'lib, u kishining o'zlari keldilar, o'rischalab doklad qildilar. Men teatruvning sakkizinchi qatorida o'tirganman. Silkingan soqollari, yaltiragan ko'zoynaklarini o'z ko'zim bilan ko'rganman, yana bir dona gap pamitimdan faromush bo'libdi. Buxoro bonqasiga bir tilmoch bor edi. O'zi xo'jalardan edi. Otlari Nig'matxon edi. O'zlariga "Buxoriy" deb yangicha ot qo'yib olgan edilar. O'rischani shunaqa bila edilar, shundoq bila edilar, gapirganlarida o'rislarning og'zi ochilib qola edi. Bo'sh vaqtlarida Kogonga borib, o'rislarga

o'rischa o'rgatar edilar. Buxoroga shundoqchikin odam borligining hidini bilgan Lelin Nig'matxonni zudlik bilan Maskopga oldirib ketdilar. Gaplashib ko'rdilar-u, o'sha zahoti o'zlariga pomoshnik qilib oldilar. Bir kuni Lelin bobo unga, sani o'zbekcha otingni maskopliklar aytolmaydilar, shuning uchun oting Nig'matxon emas, Nikolay bo'lsin, Buxoriy emas, Buxorin bo'lsin, dedilar. Shundan keyin yana bir gap aytdilar. Agar men o'lsam, o'rnimga o'zing o'tirasan, deb vasiyatga o'xshatib gapirdilar. Bu gapni mo'yloving qirqilgur Istalin eshitib turgan edi. Alam qildi unga. Bu joy zaynit, dedi o'ziga o'zi. Lelin bobo o'lishlari bilan zemlyakimiz Buxorinni qamab, otdirib tashladilar. Odami xo'blar, ya'niy yaxshi odamlar Buxoroga tug'iladi, Maskopga o'ladi. Fayzulloxon ham xo'jalardan edi. Uni ham Istalin Maskopga chaqirib, otdirib tashlagan. Xudo rahmat qilsin Maskopda o'lgan xo'jalarni! Shuning uchun men sira Maskopga bormayman. Istalin ko'rsalar otdirib tashlatadilar, deb qo'rqaman.

Maskopda besh-o'nta palid odam to'planib, Palidbo'yra tuzdilar. Qiladigan ishlarini o'zaro taxsimlashdi. Istalinga — odam qamashni, Beriyo deganga — odam otishni, Kallelin bobomizga — orden tarqatishni, hamyurtimiz Kaganovichga — jami poyizlarni yurgizishni topshiripti.

Shu desangiz, Maskopdan Palidbo'yraning surati palokat bo'lib keldi. Hammamizga besh-o'ntadan berib, devorlarga yopishtiringlar, deb buyurishipdi. Men melisa boshlig'iga, bu palokatni qayga uray, deb so'radim-u, baloga qoldim. Mana shu zindonga uch kun bandi qildi. Nechukkim, sen plakatni palokat deysan, deb rosa kaltakladi. Tilim kelishmasa, qandoq qilay, deyman. Shu so'zni to'g'ri aytadigan bo'lguningcha zindonda mog'or bosib yotaverasan, deydi. Kaltakning zo'ridan palokat emas, palokat deydigan bo'ldim. Istat g'arning eri ana shundan keyin meni zindondan chiqardi.

E, jo'ram, bu boshga nimalar tushmadi, bu ko'zlar nimalarni ko'rmadi! Yolg'izlanib qoldim. Bizning Buxorodan "navisandayi xalqiy", ya'ni Xalq yozuvchisi chiqdi. Usto Aminning o'g'li. Shunga boshimdan o'tkanlarni yozdirib yubordim. Kitob qilib chiqar, pisarim, dedim. Chiqsa, aqchasining nimtasi, ya'ni pala-

vinasi seniki bo'ladi, dedim. Zindonga azob chekkan bir bechora Sangin Hamro ham tarixga qolsin, ohi!

Cholning ichi to'la g'ij-g'ij gap ekan. Zo'rg'a qochib qutuldim.

Keyin bilsam, Buxoroning eng rostgo'y odamiga ro'baro' kelgan ekanman.

1998-yil

QORAKO'Z MAJNUN

Qur'oni Karimdan:

"Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar".

Hadisi sharifdan: (Baqara surasi, 217-oyat)

"Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu — "As'hobi kahf"ning vafodor itidir".

(Al-jome al-Kabir)

Saodat aya bomdod namozini o'qib, joynamoz poyida uzoq o'tirib qoldi. Bundan uch yil oldin olamdan o'tgan eri usta Turobga atab Qur'on tilovat qildi. O'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li Bo'rixonga Xudodan insof tiladi. Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo'layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaginaning yo'lini och, deb Allohga iltijo qildi.

Kampir har sahar ichki bir ezginlik bilan shu gaplarni takrorlardi. U qo'l cho'zib, joynamozning bir uchini qayirib o'rnidan turdi.

Sentabr oyoqlab, suvlar tiniqqan, ariq tublaridan bola-baqra tashlab yuborgan piyolami, choynak qopqog'imi, qoshiqmi, shunday doqqina ko'rinib turibdi. Qirg'oqlar zax tortib, ekin-tikin suv so'ramay qo'ygan palla.

Qo'shni hovlilardan maktabga ketayotgan bolalarning injiqliklari, xarxashalari, onalarning yalinib-yolborishlari eshitilib turibdi. Kampir bu tovushlarga bir dam quloq tutib, boshini tebratib, kulib qo'ydi.

Saodat yoshligida juda chiroyli qiz bo'lgandi. Sochlari taqimini o'pardi. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo'llari sochining uchigacha yetmasdi. Yarmini qismlab turib, bu yog'ini tarardi. Opasi bu sochlarni qirqta qilib o'rganda, yana shunchasi ortib qolardi.

— E, soching qursin! — derdi opasi. Qo'llarim tolib ketdi, sochingni o'rdirishga odam yollash kerak.

Ko'chada amirkon mahsi-kavushni g'irchillatib, sochlarini selkillatib yurganda qaragan ham qarardi, qaramagan ham. Yosh qizaloqlar orqasidan kelib, sochlarini ko'ziga surtib qochishardi.

Mana, yillar o'tib soch ham oqardi, siyraklashdi-yu, baribir, o'sha uzunligicha qoldi. Uchiga biror narsa taqmasa, hurpayib, bo'yni, yelkalarini tutib ketadi. Shuning uchun ham u sochining uchiga o'g'ri tutar sandiqning kalitini osib qo'yadi. Sandiqni ochayotganda kalitni yechib olmaydi. Sochi uzun bo'lganidan, tizzalasa, kalit bemalol qulfga yetadi. Endi yangi uylarga sandiq urf bo'lmay qoldi. Hamma uyni po'rim javonlar bosib ketdi.

Bundan tashqari, qulfni daranglatib ochadigan kalitlarni yasaydigan ustalar qolmagan.

Kampirning sochlari hamon yoshligidagidek. Faqat yarmidan ko'pi oqarib ketgan. Orqasiga tashlab qo'yadigan, uchi birlashtirilgan ikki o'rim sochining uchiga erining frontdan olib kelgan og'irgina medalini osib qo'ygan. Tayyor ilgagi ham bor, sochni pastga tortib turadi.

Hovlining yarmiga yaqin joyga tangadek oftob tushirmaydigan qari tut barglari sarg'aya boshlagan. Qurigan shoxiga bahorda ilinib qolgan varrakning qamish qovurg'alari skeletdek bo'lib turibdi. Faqat uzun latta dumi shamolda ilondek to'lg'anadi.

Shu tut tagida bir oppoq it supurgi ustida uxlab yotibdi. Kichkinagina belida belbog'dek ikkita — biri qora, biri jigarrang chizig'i bor. Xuddi kimdir ataylab bo'yab qo'yganga o'xshab ko'rinadi. Tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-qora. Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor. U kampirning oyoq tovushidan bir ko'zini erinibgina ochdi-yu, chala yarim kerishib, yana uyquga ketdi.

— Ha-a, joningni huzurini bilmay o'l-a! Supurginiyam harom qilding.

— Qo'y, urishma, opasi, Qorako'z hali bola-da!

— Nima deyapsiz, oyijon! Bu it o'lgurga men nega opa bo'larkanman?! — dedi Qumrixon nolib.

— Agar Qorako'zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo'y, ukalaringnikiga ketib qolaman.

— Voy, oyijon-ey, it o'lsin, odamdan aziz bo'lmay! Shu itni deb bizni tashlab ketmoqchimisiz? Qo'ying-e!

— Shu bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam, yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga ayt-chi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo'q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko'kragini qorga berib, hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo'ni-qo'shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos.

— Oyijon, qo'ying endi... — dedi Qumri norozi bo'lib.

Itning bir qulog'ida, bo'ynida, oyoqlarida qon qotib qolgan edi.

— Ahmoq! — dedi kampir. — Qayoqlarda sanqib yurganding?! Yana marjabozlikka bordingmi? Majnun bo'lmay ketkur! Ahvolingni qara, xotin talashib rosa ta'ziringni yebsan-ku! E o'lmagina-a, shilinmagan joying qolmapti... Endi o'zingdan ko'r. Majnun, yaralaringga dori surtaman. Illo, dod demaysan!

Qumrixon itning bo'ynidan bosib turdi, kampir yaralariga yod surta boshladi. It g'ingshiydi, ingillaydi, Qumrixonning qo'llarini tishlamoqchi bo'ladi.

— Ana, bo'ldi. Endi ovqatingni beramiz.

Bir oydan beri o'g'li surunkasiga kampirning tushiga kiradi. Na yotishida, na turishida halovat bor. O'g'lini o'ylagani-o'ylagan. Yoshi saksonga yaqinlashib, kuch-quvvatdan qola boshlagan, bolamni ko'rmay o'lib ketamanmi, deb kuyib-yonadi.

O'g'li Bo'rixon oltmish yettinchi yili armiyaga ketgan. Harbiy xizmati tugadi hamki, uyga qaytmadi. O'sha yoqlarda uylanib, bola-chaqali bo'lib, qolib ketdi. Ba'zi-ba'zida undan "Ya zdorov" degan ikki enlikkina xat kelardi. Yaqin o'n besh yildirki, manzilni unutib qo'yganmi, ishqilib, shu o'rischagina xat ham kelmay qo'ygan.

Kampir qo'ni-qo'shnilarnikiga ham chiqmaydi. Uyda o'tiraverib qon bo'lib ketadi. Ba'zan kiyim-boshlarini apil-tapil tugib o'g'illari yo qizlaridan birinikiga otlanib qoladi.

Baribir, borgan joyida ham halovat topmaydi. Qizi Qumrixonni o'ylab qaytib keladi. Qumrixonning baxti chopmadi. Ikki bor turmush qildi, farzand ko'rmadi, qaytib keldi. Biron joyda ishlab ovunay desa, hayhotdek hovliga, munkillab qolgan onasiga kim qaraydi? Aka-ukalari, singillari: "Opa, qo'y, ishlama, tirikchiliging bizning bo'ynimizda, onamga qara", — deb qo'yishmadi.

Kampirning o'g'illari, biznikida turing, oyi, deb Xudoning zorini qilishsa ham, otang chiqqan uyni tashlab ketolmayman, men ham shu uydan chiqazilaman, deb ko'nmadi.

Kampir juda dono xotin edi. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to'ladi, albatta, ular quruq kelishmaydi, shu bahona Qumrining ham kuni o'tadi, deya qadrdon uyidan jilmasdi. Onalar shunaqa — baxti chopmagan bolasi bilan birga bo'ladi.

O'tgan yili o'tli-shudli, har ish qo'lidan keladigan nevarasi Anvarjon, tog'amni topib kelaman, deb chiqib ketdi. Shu ketgancha yigirma kun deganda daragini topib keldi.

Bu gapdan xabar topgan qo'shni xotinlar kampirni qutlagani kirdilar.

— Buvijon, tashvishlanmang, tog'amning ishlari "besh". Ro'zg'ori but, tirikchilikdan kami yo'q. Uchta bolasi bor. O'zi o'zbekchani esidan chiqarib yuboribdi. Men bilan o'rischa gaplashdi. Bitta sog'in echkisi, to'rtta qanor qopdek cho'chqasi, o'ntacha cho'chqachalari bor ekan. Qish zabtiga olganda shu mollarini ham uyiga opkirib olisharkan. Bo'chka-bo'chka samogon aroq yasab, qishi bilan ichisharkan. Qishloqdagilar tog'amni "Bo'rixon" demay, "dyadya Borya" deb chaqirishar ekan.

Bu gaplarni eshitib, kampir yer yorilmadi-yu, kirib ketmadi. Bolasi tushmagur-ey, qo'shni xotinlarning oldida shu gaplarni aytib o'tiribdi-ya! Birovga so'zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay, uyda muqim o'tirib qoldi.

Qachongacha chilla o'tiraman, deb kampir bugun qizinikiga otlanib qoldi. Kampirning niyatini sezgan Qorako'z ostonaga borib o'tirib oldi. Yaqin bir oydan beri hech qayoqqa bormagan Qorako'z o'zida yo'q shod edi. Boshini bir tomonga egib irg'ish-

lar, tezroq chiqmaysizmi, degandek, har xil ovoz chiqarib g'ingshirdi.

Kampir shoshilmasdi. O'sma ekilgan bir bo'yra yer oldida cho'nqayib, o'smalarning sersuv, bo'liq barglarini tagidan kertib uzardi. Oxiri kafti o'smaga to'lgach, rayhonning gul otmagan shoxlaridan sindirib olib, o'smaga qo'shib, dastro'moliga o'radi. U qiz nevaralariga, kelin-u qizlariga, albatta, o'sma olib borardi. Nihoyat, kampir tugunni qo'ltiqlab chiqdi. Qorako'z o'tirgan joyidan bir sapchib ko'cha tomon otildi. Kampir uning ketidan bo-rarkan, hoy, muncha shoshasan, sekinroq, deb javrardi.

Qorako'z, uning gapiga tushungandek, ko'cha o'rtasida to'xtab, orqasiga qaraydi. Kampir yetib kelguncha yayrab qulog'ini qashlaydi. Bir qulog'ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik qiladi. Orqa oyog'ida turib, bir-ikki aylanadi. Kampir yetib kelishi bilan yana o'ynoqlab yugurib ketadi. Yo'lda uchragan mushuklarni tiraqaylatib quvib, nimqizil tilini osiltirgancha hansirab qaytib keladi. Daraxtlardagi musichalarga irg'ishlab akillaydi. Ariqdan shapillatib suv ichadi. Ba'zan yo'l chetiga chiqib, paxsa devor tagini ho'l qilib qaytadi. Velosiped minib o'tgan bolalarga ergashib uzoqlarga ketib qoladi.

Kampir uning qiliqlariga andarmon bo'lib yo'l yurganini sezmaydi. Qorako'z donlab yurgan tovuqlarni qaqag'latib, to'rt tarafga to'zg'itib yuboradi. Yo'lda uchragan itlar bilan iskashib, quvlashmachoq o'ynaydi. Ko'cha betidagi uy ostonasida tinmay akillayotgan kalamushdek kuchukni tuproqqa qorishtirib bulg'aladi. Ariq bo'yidan qo'porib tashlangan to'ngak soyasida yotgan bo'ribosar itga ham zo'rlik qilmoqchi bo'lgandi, ta'zirini yedi. Bo'ribosar uning gardanidan tishlab, uloqtirib tashladi. Yo'l o'rtasiga borib tushdi, tuproqqa qorishdi.

Kampir boshini sarak-sarak qildi.

— Hoy, jinni, senga kim qo'yibdi otang tengi it bilan olishishni! Qorako'z unga qaray olmadi. Yo'lning bu yog'iga ma'yus alpozda, yugurmay, ohista ketdi. Baribir, Qorako'z it-da, itligini qiladi. Bir qora itning dumini hidlab, ochiq turgan eshikdan kirib ketdi. Birozdan keyin uning vangillagani eshitildi. Eshikdan chiqayotganda ichkaridan otilgan eski tufli qoq beliga tushdi.

Katta yo'lga chiqishdi. Bu yo'lning o'ng yog'i Chirchiqqa, chap yog'i Toshkentga olib boradi. Oldinlab ketgan Qorako'z, qayoqqa yuraylik, degandek, kampirga qaradi.

— Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangnikigami! Dilbar opang domda turadi. Itdan hazar qiladi. Seni uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz. Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o'ynab turasan.

Qorako'z bu gaplarga tushunadi. Har gal ko'cha boshiga kelganda, albatta, kampir shu gaplarni takrorlaydi.

Olisdan baland imoratlarning qorasi ko'rindi. Qorako'zning sabri chidamadi. Ildamlab ketdi. Kampir unga yetolmay halloslab qoldi. Qorako'z yugurib emas, g'ildirab ketayotganga o'xshaydi. Bir zumda ko'rinmay ketdi.

Uchinchi qavatning boloxonasida o'ynayotgan bolalar Qorako'zni ko'rib, buvim kelyapti, deb qiyqirishdi. Tapir-tupur qilib, zinaning ikki poyasini bitta qilib, pastga yugurib tushishdi. Bittasi Qorako'zga konfet, bittasi sergo'sht suyak berdi. Birpasda hovli bolalarga to'lib ketdi. Qorako'zning boshini, orqasini silashdi. U erkalanib turib berdi. Boloxonada Dilbarxon ko'rindi. Onangiz kelyapti, degan xushxabar olib kelgan Qorako'zga mehr bilan boqdi. Unga qand tashladi.

Nihoyat, hansirab kampir yetib keldi. Bolalarga qurut, yong'oq, turshak ulashdi. Qorako'z ham umidvor bo'lib, qo'liga qaradi.

— Senga yo'q, bevafo! Meni yo'lga tashlab ketgansan. Orqangdan halloslab yugurib, tilim og'zimga sig'may qoldi.

Qorako'z gunohkorona bosh egib turdi. Kampir konfet tashladi, Qorako'z ilib oldi-yu, quvonchdan hovlini shamoldek aylanib chiqdi. Kampir qizi bilan kechgacha ezilib gaplashdi. O'g'lini eslab ko'zyosh ham qilib oldi. Qumrining betoleligidan, men bir balo bo'lib ketsam, u sho'rlik nima bo'ladi, deb afsus-nadomatlar qildi. Gap orasida Qorako'z esiga tushib, ovqat-povqat berdingmi, deb so'rab qo'yardi. Kampir asr namozini o'qib, ketishga shoshildi.

— Endi ketay, shom namozini uyginamda o'qirman.

— Ovqat qilyapman, oyijon, yeb keting. Bir kechagina yotib ketsangiz nima bo'ladi? Uyingizni bo'ri yeb ketarmidi!

Kampir tugunni qo'ltiqlab pastga tushdi. Hovlida bolalar bilan yayrayotgan Qorako'zning ketgisi kelmaydi. Bolalar tuflab uloqtirgan kaltakni o'tlar orasidan topib keladi.

Kampir yo'lga tushdi. Qorako'z erkalanib, irg'ishlab goh undan o'zib, goh orqada qolib qulog'ini qashlaydi.

Uyda Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g'uborlarini tarqatadigan, ko'ksidan tog'dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan olamshumul bir yangilik kutib turardi.

U uyiga yaqinlashganda eshigi oldida u yoqdan bu yoqqa shoshib yurayotgan odamlarni ko'rib, yuragi hapriqib ketdi. Qadamini tezlatdi. Eshik oldida turganlar unga, qulluq bo'lsin, sevinib qoldingizmi, qariganingizda dilingizga yorug'lik tushgani muborak bo'lsin, deyishardi.

Kampir hajga ketayotganlarga pensiyadan yig'gan pullarini "Hoji badal" uchun berib yuborgan edi. Haj qabul bo'ldi, degan xushxabar kelgan bo'lsa kerak, o'zingga shukr, Allohim, deb ostona hatladi.

Shoxiga katta lampochka osilgan tut tagidagi supada yoshi oltmishlardan oshgan bir notanish odam o'tirardi. Uning ko'zlari... bundan o'ttiz ikki yil oldingi Bo'rixonning ko'zlari edi. Kampir, voy bolam, deb unga talpindi. Supaga yugurib bordimi, uchib bordimi, bilmaydi. Bag'rida o'g'lini ko'rdi. Undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi. Kampir buni sezmasdi. G'oyibining hozir bo'lganidan mast-alast edi. Karaxt edi. Baxtiyor edi. O'g'lining boshlariga, yelkalariga ko'z yoshlari to'kilardi.

O'g'li uning bag'ridan chiqishga urinar, ammo kampirning qoq suyak, chayir qo'llari uni bo'shatmasdi.

— Nu zachem, zachem plachesh, mama, vot i priyexal, xvatit, xvatit, — derdi o'g'li.

Ona bu gaplarni eshitmasdi. Eshitganda ham, baribir, tushunmasdi. Kampir hushini yig'ib, bolasini bag'ridan bo'shatdi. Serrayib turgan Qumriga:

— Nega baqrayib turibsan, Rahmon qassobni chaqir, bolamning oyog'i tagiga og'ildagi qo'yni so'ysin! Qo'shnisinikida telefon bor, aka-ukalaringga, singillaringga, akam keldi, deb xabar qil! — dedi.

Qorako'z kampirning oyog'i tagiga o'tirib olgan. Bu notanish odamga g'ashlik qilib tinmay irillardi.

— Qayoqlarda yurganding? — dedi kampir o'g'liga. O'g'li onasi nima deyayotganini tushunmay yelka qisdi.

— Tushunmadingmi? Sen boshqa odam bo'lib ketibsan.

Kampir uning yuzlariga qarab ezilib ketdi. Qarib, adoyi tamom bo'pti. Basharasiga ham o'sha tomonlarning nuqsi urib, o'zbekligi qolmabdi. Ellik bir yoshda yetmish yashar chol bo'lib qo'ya qopti.

Rahmon qassob allaqayoqqa ketib qolgan ekan, topib kelishdi. Ko'cha tomonda qo'sh mashinaning gurullagani, o'g'il-qizlarining ovozlari eshitildi.

Abdumalik qo'y yetaklab kirdi. Qizlari, kuyovlari karton qutilarda, xaltalarda meva-cheva, olma-uzum ko'tarib kirishdi. Bir zumda hovli gavjum bo'lib qoldi.

Bo'rixon ukalarini ham, singillarini ham tanimadi. Ular ham buni tanishmadi.

Bo'rixon begona uyga kirib qolgan odamdek qovushmay turardi. U ukalariga, singillariga nima deyishni bilmasdi. To'g'ri, nima deyishni bilardi. Ammo til bilmasa, nima qilsin? O'ylab-o'ylab, "Salyam!" dedi. Jigarlari kulishni ham, yig'lashni ham bilmay, hayron turib qolishdi.

Qassob og'ildan kattakon, boquvdagi qo'yni sudrab chiqdi. Bo'rixonning oyog'i tagiga yotqizib, ukam, qani bir fotiha bering, dedi.

— E, darvoqe, o'zbekcha bilmasligingizni esimdan chiqaribman, qani, omin denglar, kampir enamizning umrlari uzun bo'lsin, g'oyiblari hozir bo'lgani rost chiqsin, omin!

Qassob shunday deb qo'yning bo'g'ziga pichoq tortdi.

— Nu zachem, zachem? — dedi Bo'rixon. — Ved barana jalko, vse ravno ya stolko myasa ne yem! U nas baraninu ne yedyat.

To yarim kechagacha kampirning hovlisi to'yxonaga aylanib ketdi.

Tarqash paytida Abdumalik akasini mehmonga taklif qildi.

Hovli jimib qoldi. Qumri ona-bolaga supaga joy solib berdi. Kampir bolasiga tikilib mijja qoqmadi. Bo'rixon to'ygunicha ichgan edi. Og'zidan gup-gup aroq hidi kelib turibdi. Kampir ro'mo-

lining uchi bilan burnini berkitgancha o'tiribdi. Rostdan ham shu odam mening bolammi, deb o'ylardi kampir. Qarib ketibdi, sochlari to'kilib, boshining yarmi yalang'ochlanib qopti. Ko'p ichadigan odamlardagina bo'ladigan zahil bir befayzlik zohir edi uning yuzlarida. Ko'zlarining tagi salqigan, tishlari tamakidan jigarrang tusga kirgan. U otasi o'tgan uyda, tug'gan onasiga, jigarlariga begona bo'lib, beparvo yotibdi.

Saodat kampir uni chaqaloqligida xuddi shu supada beshikka belab tebratardi. Uch yoshga kirguncha shu supada bag'rida olib yotgan edi. Bo'rixon do'mboqqina bola bo'lgandi. Uni yomon ko'zdan asrasin, deb kiyimlariga tumor-u ko'zmunchoqlar taqib qo'yardi. Sultonimga atab unga kokil qo'ygandi. Olti yoshga to'lganda uni er-xotin Turkistonga olib borib, hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kestirishgan, qo'y so'yib, xudoyi qilishgan edi.

Bo'rixon u yonboshidan bu yonboshiga ag'darildi. Shunda... shunda uning ustidagi oq choyshab sirg'alib yelkalari, ko'ksi ochilib qoldi. Kampir badanidan chayon o'rmalagandek seskandi. O'zini orqaga tashladi.

Bo'rixonning bo'ynidagi zanjir uchida but yaltiradi. Kampirning ko'zlari tindi. Bir dam uni shuur tark qildi. Telbadek sapchib o'rnidan turdi-yu, ayvon tomonga chekindi...

Bo'rixon armiya xizmatini o'tagandan keyin ham uyga qaytmadi. O'rmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qo'ng'iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiq-u beqaror bo'lib qoldi. Qallig'ining otasi, boshqa dindagi odamga qizimni bermayman, deb turib oldi. Qiz Bo'rixonni xristian diniga kirishga undadi. Ishq-muhabbatdan ko'zini parda bosgan Bo'rixon hech ikkilanmay rozi bo'ldi. Uni cherkovda cho'qintirishdi. Keyin cherkov oqsoqoli kelin bilan kuyovga toj kiydirib, nikoh o'qidi.

Ana shundan keyin Bo'rixon xotini, qaynonasi bilan har kuni cherkovga borib cho'qinadigan bo'ldi. Qaynotasi o'lgandan so'ng uning o'rniga cherkov qo'ng'iroqchisi qilib qo'yishdi. Nimaiki ish bo'lsa, barini u bajaradigan bo'ldi. Piligi so'xta bo'lgan shamlarning uchini qaychilaydi, yonib tamom bo'lganlarini almashtiradi.

1970-yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi...

Oh, otaginasi tirik bo'lganda shu supa ustida bolta bilan chopib tashlardi-ya! Kampir ayvon tomon tisarilib borar ekan, ana shunday o'ylardi. U ayvonga yetolmay hushidan ketib yiqildi. Qorako'z uning atrofida ulib aylanardi. Qumri yotgan uyning eshigini timdalab, uni uyg'otmoqchi bo'ldi. Qumri uyqusini buzgan itni qarg'ay-qarg'ay hovliga chiqdi. Qorako'z uning etagidan tortib, kampir yotgan joyga sudradi. Qumri onasining behush yotganini ko'rib qo'rqib ketdi. Qarib, mushtdekkina bo'lib qolgan onasini dast ko'tarib, ayvonga olib chiqdi. Boshi ostiga yostiq qo'yib, suv ichirdi. Yelkalarini uqaladi. Kampir ko'zini ochdi. Hali tong yorishmay turib, Abdumalik mashinada kelib, akasini olib ketdi. Unga Toshkentning mustaqillikdan keyingi manzarasini ko'rsatmoqchi, Chorsu bozoridan uning bolalariga sovg'a-salomlar olib bermoqchi edi.

Bo'rixon uchun O'zbekistonda mustaqillik bo'ldimi, bo'lmadimi, baribir edi. U o'zga yurtning fuqarosi, o'zga e'tiqodning sig'indisi edi. Tug'ilgan yurtga muhabbat tuyg'usi uni tark qilganiga ko'p yillar bo'lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unutilib ketgan Shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi.

Ertalab kampir hech narsa bo'lmagandek o'rnidan turdi. Qumri qarasa, onasining qolgan qora sochlari ham bir kechada oqarib, ajinlari ko'payib ketibdi.

Qumri onasining nega bunaqa bo'layotganini bilib turardi. Boya akasi tong yorishmay hovli etagidagi yong'oq tagida devorga qarab cho'qinayotganini ko'rib hayron-u lol qolgandi. Ayollar umuman titimsak xalq bo'ladi. Akasi Abdumalik bilan hovlidan chiqib ketgach, ichkari uyda turgan chemodanini titkiladi. Shunda sariq baxmalga o'ralgan bir narsaga ko'zi tushdi. Ushlab ko'rdi. Qutichaga solingan narsa to'pponcha emasmikan, deb baxmal tugunni yechib qaradi. U xristianlarning muqaddas kitobi Injil edi. Uni ushlagan qo'llari kuyayotgandek shoshib, yana baxmalga o'rab qo'ydi.

Kampir bomdod namozini o'qiyotib, har sajdaga bosh qo'yganida joynamozga ko'z yoshlari tomardi. U joynamoz burchagini qayirib, eriga atab Qur'on tilovat qildi. Baxti chopmagan Qumriga

bag'ishlab, shu farishtaginaning yo'lini och, deb Allohga iltijolar qildi. G'oyibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga ham olmadi.

Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomg'ir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: "Bo'ri bolalayapti", degandi. Shuning uchun ham o'g'liga u Bo'rixon deb ism qo'ygandi. Oradan ellik bir yil o'tib, bu bolani men emas, bo'ri tug'gan ekan, degan xayolga bordi.

— Oyi, kiyinasizmi? Abdumalikning mashinasi hozir kelib qoladi. O'g'lingiz tayinlab ketgan.

— O'zing boraver, men shu yerda qolaman, — dedi kampir.

— Axir, akam kechqurun poyezdga chiqadi. Xayrlashmaysizmi?

— O'zi kelgan, o'zi ketaveradi. Mashina kelsa, chemodanini tashlab qo'y. Bu uyga endi qaytib kelmasin, — dedi kampir qat'iy qilib.

— Oyijon-ey, juda qahringiz qattiq-da! Bugun ketadi, qaytib ko'ramizmi-yo'qmi, bolam-bo'tam deb kuzatib qo'ya qolsangiz nima qiladi-ya! — dedi zorlanib Qumri.

— Bu bolani men emas, bo'ri tug'gan... Bir marta dadam qani, deb so'ramadi-ya! Qandoq ota edi-ya, rahmatli.

Ko'chadan mashina ovozi keldi. Qorako'z o'qdek otilib chiqib ketdi. Birozdan keyin kampirning nevarasi Abdunabining atrofida gir aylanib kirib keldi.

— Iya, hali ham kiyinmay o'tiribsizmi? Uyimiz qarindosh-urug'larga to'lib ketdi. Dadamning o'rtoqlari ham kelishgan. Qani bo'la qolinglar!

— Men bormayman, — dedi kampir. — Qumri boradi. Chemodan o'lgurni ola ketinglar.

— Iya, qiziq bo'ldi-ku! Amakim bugun ketadilar-ku!

Kampir indamay uyga kirib ketdi, keyin derazadan boshini chiqarib:

— Sen boraver, bolam. Men bilan o'tirib qon bo'lib ketding. Jigarlaring bilan birpas yozilib kelasan, — dedi Qumriga.

Mashina ketdi. Kampir hayhotdek hovlida bir o'zi qoldi. Uning ko'ksiga allaqaydan kelib tushgan bir parcha muz kechadan beri erimay, vujud-vujudini qaqshatardi.

U uyga kirib tugun ko'tarib chiqdi. Undan Bo'rixonning go'dakligida, bolaligida kiygan kiyimlarini olib qaradi.

Ilgari kampir ba'zi-ba'zida bu kiyimlarni hidlab yig'lardi. Endi ko'ksidagi muz uni yig'lashga qo'ymadi. U hovli o'rtasiga xazon to'plab gugurt chaqdi. Gurullab yonayotgan gulxanga Bo'rixonning kiyimlarini birma-bir tashlay boshladi. Gulxanda Bo'rixonning bolaligi yonardi. Qorako'z gulxan atrofida aylanar, goh alanga taftiga chidolmay nari ketardi. Bir bo'xcha kiyim zum o'tmay yonib kulga aylandi. Shamol kuyindilarni hovlining to'rt tarafiga uchirib ketdi.

Qumrining ko'ngli bir nimani sezdimi, ko'cha boshiga yetmay mashinadan tushib qoldi. Uyga kelganda, onasi kaftini iyagiga tirab, qimirlamay o'tiribdi. Qorako'z uning xayollariga sherik bo'lgandek, u ham old oyoqlariga dahanini qo'ygancha ko'zlarini yumib, qimirlamay yotibdi. Qumri u yoq-bu yoqqa qaradi. Hovlidan kuygan latta hidi kelyapti. Qo'shnilardan birortasi eski-tuskilarni yondiryapti, shekilli, deb o'yladi. Hovlining supradek joyi qorayib qolganini ko'rib hayron bo'ldi. Yaqin borib qarasa, qoraygan yerda bolalar ko'ylagiga qadaladigan o'n-o'n beshta qovjiragan tugma sochilib yotibdi. Qumri nima bo'lganini bildi. Ichidan zil ketdi.

— Oyi, — dedi u, — nima ovqat qilib beray? Ertalab ham hech narsa tatimadingiz. Bunaqada toliqib qolasiz-ku.

Kampir boshini sarak-sarak qildi.

— Ishtaham yo'q, bolam. Ichim to'la muz. Tanamga asta tarqalyapti. Qumri qo'rqib ketdi.

— Ko'p kuyinmang endi, bo'lar ish bo'ldi. Xudoning irodasi bu.

— E, qizim-a, bola tug'magansan-da, bilmaysan!

Kampir qiziga hech qachon tug'magansan, deb aytmagan. Aytsa, ta'na qilayotgandek bo'lardi. Qizining shundoq ham dardi ichida. Bu gapni begona aytsa, chidash mumkindir. Ammo o'z onang aytsa, yuragingni kimga ochasan?

Qumri onasining gapini malol olmadi.

— Farzand dog'i yomon bo'ladi, bolam.

— Axir, akam tirik-ku, shukr qilmaysizmi? Kampir uning gapini cho'rt kesdi:

— U yo‘q endi!

Kampir so‘zini oxiriga yetkaza olmay yonboshiga behush yiqildi. Qorako‘z bezovtalanib sapchib turib ketdi. Qumri onasini ko‘tarib, ko‘rpacha ustiga yotqizdi.

Eshik taqilladi. Qorako‘z darvoza tomon yugurdi. Qumri onasi bilan ovora edi. Hovliga mahalla machitining imom-xatibi bilan mutavallisi kirdi. Kampirning ahvolini ko‘rib, bir-biriga qarab olishdi.

— Qizim, — dedi mutavalli, — bemavrid kelib qopmiz. Onaxondan suyunchi olmoqchi edik.

Ular ayvon oldiga kelishdi. So‘nggi nafasini olayotgan kampirga:

— Onajon, kecha muborak haj safaridan qaytdik. Sizning hajingiz qabul bo‘ldi, — deyishdi.

Imom-xatib Saodat ayaning "Hoji badal" bo‘lgani to‘g‘risidagi hujjatni uzatdi. Kampir qo‘lini ko‘tara olmadi. Ko‘zini arang ochib, o‘zingga shukur, Allohim, deya oldi, xolos. U qiziga bir nima demoqchi bo‘lgan edi, tili kalimaga kelmadi.

Qumri uning nima demoqchiligini bildi. Yugurib uyga kirdi-yu, ikkita ohorli to‘n ko‘tarib chiqdi.

— Oyim shu kunga atab saqlab yurgan edilar.

U shunday deb ikkovining yelkasiga to‘n tashladi.

Kampir ikki kun shu alpozda yotib, sal o‘ziga kelgandek bo‘ldi. Tilga kirdi.

Aslini olganda, uning umri tugagan edi. Bu xushxabar uning tugab borayotgan umriga umr ulagan edi. Bu hol shamning o‘chish oldidan bir lop etishiga o‘xshardi.

— Ukalaringni, singillaringni chaqir! Vasiyat qilib qo‘yay. Sen qo‘rqma, qizim. O‘lim haq. Bu jon degani Allohning tandagi omonati. Undan qochib qutulib bo‘lmaydi. Puf etadi-yu, chiqadiketadi.

Kampirning bolalari yetib kelishdi. Qumri onasining orqasiga yostiq qo‘yib berdi. Qator o‘tirgan bolalariga, nevaralariga qarar ekan, kampir mamnunlik bilan:

— Xudoga shukr, tobutim oldida boradigan hassakashlarim ko‘p ekan, — dedi. — Eshitinglar, bolalarim. Abdumalik, endi bularga sen ota o‘rnida otalik qilasan. Qumri, qizim, endi sen mening

o‘rnimga qolasan. Abdunabini shu hovlida uylantiringlar. Yilimni kutib o‘tirmay to‘y qilaveringlar. Shundoq qilsalaring, arvohim shod bo‘ladi. Abdunabi kelin bilan Qumrining oldida qolsin. Shu uy uniki. Onam go‘rida tinch yotsin, desanglar Qumrini aslo yolg‘izlatib qo‘ymanglar.

Kampirning lablari quruqshadi. Qumri piyoladagi suvga paxta botirib, og‘ziga tomizdi.

— Shoshib turibman, bolalarim. Meni otalaringning oldiga olib ketishga kelishyapti. Endi bu yog‘ini eshitinglar. Hamma tadorigimni ko‘rib qo‘yganman. Yilim o‘tguncha bo‘ladigan marosimlarga yetarli pulni Qumriga berib qo‘yganman. Qizim, qulog‘imdagi ziragimni, mahsi-kavushimni g‘assolga bergin. — U endigi aytmoqchi bo‘lgan gapidan iymandi, shekilli, jilmaydi. — Azaga kelgan xotinlar oldida xunugim chiqib yotmayin, qoshimga o‘sma...

Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay, osongina jon berdi. Hovliga tumonat yig‘ildi. Unga "Hoji ona" deb janoza o‘qishdi.

Tobutni ko‘tarishayotganda Qorako‘zni qabristonga bormasin, yomon bo‘ladi, deb qo‘shnining hujrasiga qamab ketishdi.

Kampirning qirqi o‘tgandan keyingina hovlidan odam oyog‘i tovsildi. Egasi ketib fayzi yo‘qolgan hovlida Qumri va Qorako‘z mung‘ayib qolishdi.

Bir kuni Qorako‘zning mijjalarida yosh ko‘rib, Qumrining yuraklari ezilib ketdi. Qorako‘zga qo‘shilib u ham yig‘ladi. Asta qo‘l yuborib, uning boshlaridan siladi. Oldin bu itni jinidan ham yomon ko‘rardi. Necha marta kosov bilan urgan. Oyog‘i ostida o‘ralashganda tepib yuborgan. Qorako‘z ham uni unchalik suymasdi.

Ana endi ikki munglig‘ bir-biriga qarab, yum-yum yosh to‘kishyapti.

Qorako‘z endi kechalari daydib ketmay qo‘ydi. Har kuni hali tong yorishmay turib (kampir bomdodga turganda) uyg‘onib ketardi. Kampirning bolalaridan ikkitasi Toshkentda, bittasi Chirchiqda, ikkitasi Qibrayda yashaydi. U tong otgandan to kun botguncha hammasining uyiga borardi. Kampirni topolmay, horib-charchab qaytib keladi.

Bugun ham tong sahardan Qorako'z chiqib ketdi. Pildiragancha Chirchiq tomonga yo'l oldi. Kimyogarlar shaharchasida kampirning kenja qizi turadi. O'g'li magnitofon jinnisi. Hammaning ovozini tasmaga yozib yuradi. Shu yil bahorda buvisining ovozini ham bildirmay yozibdi. O'shanda kampir supada o'tirib, allaqayoqlarda daydib kelgan Qorako'zga tanbeh berayotgan edi.

Qorako'z Kimyogarlar shaharchasining eng chekkadagi "dom"ga yetib kelganda kampirning nevarasi shisha bankada sut olib kelayotgan edi. Qorako'z unga dumini likillatib yaltoqlandi. Unga ergashib uchinchi qavatga chiqdi. Uyga kirmay qaytib tushdi. Birozdan keyin kampirning ovozi eshitila boshladi. Qorako'zning qulog'i ding bo'ldi. Yaqin ikki oydan beri yo'qotgan qadrdon kishisining ovozini eshitib yig'layotgandek g'ingshidi. Qorako'z uchinchi qavatga otilib chiqdi. Eshikni timdalab vovulladi. Yana qaytib tushdi. Boloxonaga qarab vovullayverdi, vovullayverdi...

Magnitofondan kampirning ovozi kelardi.

"Qorako'zgina, qayoqlarda sanqib yuribsan? Hech uyda o'tirasanmi-yo'qmi? Qorning ham ochgandir? Tentakkina. Gapimga quloq sol, nega beozor musichani quvasan?.."

Qorako'z akillar, yerni timdalab, orqasiga tuproq otardi. Shu hovlida kecha to'y bo'lgandi. Shirakayf yigitlar mikrofonni baland qo'yib, hech kimni uxlatmagan edi. Uyquga to'ymagan odamlarga tong mahali akillayotgan itning bu qilig'i malol kelardi. Quturgan bu it qayoqdan paydo bo'ldi, uni yo'qotish kerak, deb o'ylashardi.

Qorako'z odamlarni jonidan bezor qilib, tinmay vovullar, u yoqdan bu yoqqa yugurib, akillagani-akillagan edi.

— Daydi itlarni tutadiganlarni chaqirish kerak, — dedi birinchi qavat boloxonasiga choyshab yopinib chiqqan kasalmand bir kishi.

— Quturgan bu, bolalarni tishlab olmasin-da! Uni otib tashlash kerak! Hoy, kimning miltig'i bor? — deb asabiy qichqirdi uchinchi qavatdan bittasi.

Kampirning ovozi hamon eshitilib turibdi. Qorako'z akillashini qo'ymaydi.

Shu payt to'rtinchi qavatdan kimdir varanglatib o'q uzdi. Qorako'z vangillab yonboshiga ag'darildi. Orqa oyog'ini bir-ikki silkitib, jimib qoldi.

Magnitofon tasmasi hamon aylanardi.

"...Qorako'z o'lmagur, Majnungina, yana qayoqqa ketyapsan? Ma'shuqalaring oldigami? Kelinni qachon ko'rsatasan? Laylingni bir olib kel, ko'ray..."

Qorako'z kampirning ovozi kelayotgan boloxona tomonga yuzini burgancha, jonsiz yotardi.

1999-yil, yanvar

UCHINCHI MINORA

Gap-gashtaklarda, to'y-u tomoshalarda Juman bobo hamisha bitta gapni takrorlaydi:

— Meni shoshirmanglar, nevara-chevaralarimni narigi ming yillikka o'tqazib qo'yay, ana undan keyin haydamasanglar ham o'zim ketaman. Men tengilar ketib bo'ldi. Kunim sen mishiqilarga qolib o'tiripti. Senlar nimani ko'ribsanlar, boshlaringdan qandoq savdolar o'tiptiki, men bilan gaplashasanlar. Bu yil kuzda, Xudo xohlasa, to'qson oltidan hatlab o'taman. Hisobchi bo'lsang, bir cho'tga urib ko'r. Har o'ttiz yilga bir yildan qo'sh, ona qornidaligimga ham bitta tosh tashla. Qancha bo'pti? Barakalla, roppa-rosa yuz bo'pti.

Davrada o'tirgan vetvrach Kozimboy yonidagi kishiga bar-mog'ini chakkasiga tirab, parmaga o'xshatib burab ko'rsatdi. Juman bobo buni payqab qoldi.

Kozimboy gapni chalg'itmoqchi bo'ldi.

— O'n to'qqizinchi asrning to'rt yilini ko'ribsiz, yigirmanchi asrning to'qson ikki yilini ko'ryapsiz. Bo, yana yigirma birinchi asrni ham ko'rmoqchimisiz? Ibi, insof qani?

— Ko'raman, — dedi Juman bobo. — Ammo sen ko'rmaysan. Birovning haqidan qo'rqmaysan. Mollar orasida yurib, odam bolasining ichidagini bilmaysan. Shu ichishing, shu chekishing bo'lsa, yoshimning ikkidan biriga ham yetolmaysan. Mard bo'lsang, tur o'rningdan. Minorayi Kalonga dam olmay chiqishga bahs boylashamiz.

— Buxoroga borib nima qilasizlar, ana, Vobkentning minorasi ko'rinib turipti. Shunga chiqa qolinglar, — deyishdi davradagilar kulishib.

Juman bobo shart o'rnidan turdi. Uni kalaka qilmoqchi bo'lgan Kozimboy turmadi. Hazillashdim, hazil qildim, deb qo'lini ko'ksiga qo'yib, uzr so'ragan bo'ldi.

Chol qaytib o'tirmadi. Eshik tomon yurarkan, orqasiga o'girildi. Voyenkom bilan qo'lga tushib qolgan kelin ayangga hazil qil, ahmoq, dedi-yu, chiqib ketdi.

Uning dili og'rigan edi. Shunday paytlarda dilini yoradigan bittagina Mutavakkil degan jo'rasi bo'lar edi. U ham ketdi. Endi qayoqqa boradi? Kimga dardini to'kib soladi?

U jimjit ko'chadan borarkan, qadami sekinlashdi. Ilgari bunaqa imillab yurmasdi. Do'stining o'limidan keyin cho'kib qoldi. Yurganda astarsiz choponining etagi ikki yonida qanotga o'xshab pirpirardi. Soqoli to'zg'ib, goh o'ng, goh chap yelkasini siypalardi.

Juman bobo bitta-bitta qadam tashlab borarkan, ko'p narsalarni o'yladi. U yashagan umridan xijolatlik emasdi. Ammo bugungi gap yurak-bag'rini o'rtab yubordi. Odamlarga malol kelmasidan bu dunyodan tezroq ketish kerakka o'xshaydi, degan gap xayolidan o'tdi. Qandoq qilsin, dunyoga qachon kelishing, qachon ketishing ixtiyoringda emas ekan.

Juman boboni Buxoroning uchinchi minorasi deb atashardi. Birinchisi ming yil umr ko'rgan Minorayi Kalon, ikkinchisi, undan salgina yosh Vobkent minorasi, uchinchisi shofirkonlik shu Juman bobo edi.

U ostona hatlab hovliga kirishi bilan ilgarigidek baland ovoz bilan emas, shikasta bir tovushda Istamboy, deb xotinini chaqirdi.

Qo'lida elak bilan Mo'mina momo chiqdi. U yelkasiga tushib qolgan ro'molini shoshib boshiga tashladi.

— Joy qilib ber, yotaman, — dedi Juman bobo.

— Zavol paytiga-ya, bo sizga nima bo'ldi, Istamboy, tobingiz qochdimi?

Er-xotin bir-birlarini to'ng'ich o'g'illarining nomi bilan chaqirishardi. Istamboy o'n to'rt yoshida olamdan o'tgan. Ammo nomi ota-ona xotirasida bir umr qolib ketgandi.

Mo'mina momo elakni qoziqqa ilib uyga kirdi. Eriga, ovqat yeysizmi, dedi. Chol javob qilmagandan keyin, chiroqni o'chirib, chiqib ketdi. Juman boboni xayol hali u yoqqa, hali bu yoqqa

boshlardi. Alla-pallagacha to'lg'anib, uxlolmadi. Narigi ayvonda multfilm ko'rayotgan nevaralarining ovozlariga quloq ham solib yotdi.

Mo'mina momo derazadan qaradi.

— Istamboy, turmaysizmi, shom bo'ldi. Obdastaga ob tahorat quyib qo'ydim.

Chol o'rnidan turib, tashqariga chiqib keldi. Joynamoz poyiga cho'kkaladi. Uzoq namoz o'qidi. O'qib bo'lib ham o'rnidan turmadi. Xotini Mo'minaga, yetti o'g'liga, qudalariga, nevaralariga Xudodan umr tiladi. O'rnidan turib hovli aylandi. O'g'illariga atab qurilgan peshayvonli uylar oldida bir-bir to'xtadi. Nevaralarining shovqiniga quloq tutdi. Chehrasi yorishgandek bo'ldi. Qo'yxonaga kirib chiroqni yoqdi. Besh kun oldin tug'ilgan ikki qo'zichoqni ko'tarib erkalatdi. Sovliq bezovtalanib pishqirdi. Chol uni ham siladi. Ularga suv berdi, xashak tashladi. Uyga kirib yechinib yotdi. Zum o'tmay, ko'zi uyquga ketdi. Tushiga otasi kiripti. Ariq bo'yida turib uni imlab chaqirarmish.

Orqasida turgan onasi kelma, kelma, deb ishora qilarmish. Tush aylanib, boya otasi turgan joyda Mutavakkil paydo bo'pti. U ham imlab chaqirarmish. Ana undan keyin Istamboy paydo bo'pti. Ota, sizni sog'indim, qachon kelasiz, deb so'rarmish. Juman bobo, yaqinda boraman, demoqchi bo'lib og'iz juftlarmish, ammo ovozi chiqmasmish.

Bir nima daranglab, uni uyg'otib yubordi. Ochiq qolgan derazadan kirgan mushuk patnisni tushirib yuborgan ekan.

Tong yorishib kelardi. So'fining bomdod namoziga chaqirib, Allohu akbar, Allohu akbar, degan tovushi eshitildi.

Juman bobo ko'ngli xiralik bilan tahorat olib masjidga chiqib ketdi. Hech kim bilan gaplashmadi. Namozni o'qib, orqasiga qaytdi.

"Nima bo'ldi, otam chaqiryapti, Mutavakkil ham, Istamboy ham chaqiryapti. O'lganlar kuni bitgan kishini chaqiradi. Nima, kunim bitdimikin?".

Nonushtada er-xotin bir-biriga gapirmay, jimgina shirchoy ichishardi.

Juman bobo bo'shagan kosalarni olib ketayotgan Mo'minani o'tir, Istamboy, gapim bor, deb qayta o'tqazdi.

— Menga qara, xotin, bu dunyoda ishim bitganga o'xshaydi. Tadoringingni ko'rib qo'ysang bo'larmidi. Nimang bor, nimang yo'q, qarab qo'y.

Mo'mina momo eridan biron marta bunaqa gap eshitmagandi. Chol o'limdan og'iz ochmasdi. Nima bo'ldi?

— Esingizni yeb qo'yibsiz, Istamboy, nafasingizni issiq qiling, yaxshi gapga ham, yomon gapga ham farishtalar omin, deydi.

Chol salmoqlab gap boshladi:

— E, xotin, o'lmaydigan kim bor? Xudoning inoyati bilan shuncha yil yashadim. Gapimni bo'lma! Yaxshi-yomon gapirgan bo'lsam, ko'nglingdan chiqarib yubor. To'qqiz bola tug'ib berding, ming rahmat. Bir marta chertmadim. Og'zimdan nojo'ya gap chiqmadi. Nimaiki orzu qilgan bo'lsam, hammasiga yetdim. Birovning dilini og'ritmadim, birovning mahramiga ko'z tashlamadim. Xudoning dargohiga pok imon bilan boraman.

Kampir o'ylanib qoldi. Nimadir demoqchi bo'lib, bir-ikki marta og'iz juftladi. Aytolmadi. Chol buni sezib turardi.

— Qandoq gap aytmoqchisan? Tortinma, ayt. Gunoh qilgan bo'lsam, tavba qilay...

Mo'mina momo eriga uzoq qarab turdi. Keyin jur'atsizlik bilan gap boshladi:

— Ayt, dedingiz, aytay. Gunohingiz bor, Istamboy. Xudo kechirmaydigan gunohingiz bor.

Chol qoshlarini kerib unga qaradi. Manglay ajinlari qavat-qavat bo'lib ketdi. "Nahot Xudo kechirmaydigan gunoh qilgan bo'lsam? Bu kampir nimalar deb aljiyapti?". Shu o'tirishida xayoli dunyoni ikki aylanib chiqdi. Yashab o'tkazgan to'qson olti yilni bir-bir elakdan o'tkazdi. Olti yoshidan suruv ketidan chang yutib, cho'llarni kezdi. Qirchillagan qish chillasida, oftob olov purkagan saratonda qo'ylar bilan birga yotib, birga turdi. Otarida tug'iladigan qo'zilar orasida aqlni lol qoldiradigan "Antiqa", "Sur", "Sheroz" terilarini boshqa cho'ponlarga o'xshab bekitmadi. Sovxozga topshirdi.

Kampir umrida birinchi marta erining ko'ziga tik qaradi:

— Siz to'qqiz bacha ko'rib... Xudodan tilab-tilab olgan bitta-yi bitta qizingiz bilan yuzko'rmas bo'ldingiz. Bu gunoh emasmi?

Hasan-Husan nevaralaringiz bu yil sakkizga kiradi. Biron marta borib ko'rdingizmi? Bacha bechoralar Shofirkonda geroy bobomiz bor, deb maqtanib yurisharmish.

Mo'mina momo to'qqiz yildirki, erini insofga keltirolmasdi. Hozir juda mavridi kelib qolgandi. Ichidagi dardlarini to'kib soldi:

— Qizingiz g'ar bo'lmapti, o'g'ri bo'lmapti, Hamroboyning qiziga o'xshab o'qishdan qornini do'ppaytirib kelmapti...

Juman bobo ikki tizzasiga shapillatib urib, o'rnidan turib ketdi. Bundan to'qqiz yil muqaddam Juman bobo to'shakka yotib qolgan tengdosh do'sti usta Mutavakkilni ko'rgani bordi. Uning ikki oyog'i shol bo'lib, ko'chaga chiqolmay qolgandi. Kiyevda o'qiydigan o'g'li pochtadan aravacha yuboripti. U borganda aravachada yurishni mashq qilayotgan ekan. Juman bobo aravachada ketganlardan gaplashib o'tirishdi. Tengdosh bo'yinsa do'stlarini eslashdi. Birin-ketin hammasi ketib bo'ldi. Bu odam to'ymas dunyoda tengqurlardan ikkovigina sho'ppayib qolishipti.

— Jumanboy jo'ram, — dedi Mutavakkil. — Sen bilan, adashmasam, sakson yetti yildan beri jo'rachilik qilaman. Oramizga biron marta bo'lsin sovuqchilik tushmadi. Ginaxonlik qiladigan biron gap aytishmadik. Biz-ku, ketamiz, ammo orqamizda qoladigan bachalarimiz bir-biridan uzoqlashib ketishmasmikin? Shundoq bo'lmasin, desang, kel, qudachilik qilaylik. Qizing Istatoyni kelin qilay. O'g'lim Luqmonboy bu yil o'qishni tugatib keladi. To'y qilaylik.

Mutavakkilning o'g'li es-hushli yigit bo'lgandi. Kuyoving bormi, desang, bor degulik.

— E, do'stim, o'nta qizim bo'lsa, o'ntasini ham qo'lingga topshiraman. Istatoy ta'tilga kelsin, qo'l-oyog'ini bog'lab, ostonangga tashlab kelganim bo'lsin.

Ikki quda obdan ezilib gaplashishdi. To'y rejasini ham tuzib qo'yishdi. Kechga tomon Juman bobo arava tortib Mutavakkilni uyiga eltib qo'ydi.

Mutavakkil shu ko'chaga chiqqancha qaytib chiqmadi. Yotib qoldi. Do'xtirlar Buxoro shifoxonasiga olib ketishdi. Ikki oyog'i qorason bo'lgan ekan, kesmasa, aynigan qon tananing boshqa to-

monlariga ham o'tib ketishi mumkin ekan, kesishdi. To'rt kundan keyin oldiga odam qo'yishdi. Juman bobo borganda u ko'kka qarab qimirlamay yotardi. Ko'zini arang ochib unga qaradi. Nimadir demoqchi bo'ldi, aytolmadi. Labi sal-pal qimirlagandek bo'ldi.

Oradan bir hafta o'tib uni tuproqqa qo'yishdi.

Mutavakkil u bilan birga uzoq yo'l bosgan jo'ralarining eng so'nggisi edi. Endi bu yorug' jahonda Juman boboning bir o'zi sho'ppayib qolgandek bo'ldi.

Bu orada qizi Istatoy do'xtirlik o'qishini tugatib, qaytib kelmadi. Birga o'qigan toshkentlik yigit bilan don olishib qopti. Otaonalarini, aka-uka, yangalarini to'yga aytib telegramma yuboripti. Juman bobo hech kimni to'yga yubormadi. Bunday qizim yo'q. Uni tanimayman, dedi. Mo'mina momo yig'ladi, yalinib-yolvordi, bo'lmadi.

Chol esa erta sahardan chiqib ketganicha Jilvon cho'llarida tentirab kunini kech qilardi. Ba'zan Vardonze qal'asiga borib, vayronalar ustida kun botishga qarab o'tirardi. Qizarib-bo'zarib botayotgan quyosh uning dardlarini ham olovli barkashiga solib botayotgandek bo'lardi.

Buxoroyi sharifga tengdosh bu qal'ani Vardon xudotlar davlati tiklagan edi. Bunda kimlar bo'lmadi, nimalar bo'lmadi? U Qutaybani ham, elakchi Torobiyni ham, jomakor safidlar yetakchisi Muqannani ham, mo'r-malaxdek yopirilgan Chingizxon lashkarlarini ham, to'p, zambaraklar sudrab kelgan shafqatsiz Frunzeni ham va nihoyat qishloqma-qishloq yurib odam otgan Kuybishevni ham ko'rgan.

Chol har gal Vardonzega kelganda shashtidan tushar, bu qal'a oldida inson umri bir oniy ekaniga iqror bo'lar, tani sovib, fikri tiniqlashib uyiga qaytardi.

Mutavakkilning tashlab ketganiga, Istatoyning Toshkentda qolib ketganiga ham to'qqiz yil bo'ldi. Dunyoning to'xtatib bo'lmas tashvishlari-yu yangidan yangi jumboqlari eskisining ustiga kul tortadi. Asta-sekin xiralashib, xotira deb atalmish go'shaning bir puchmog'ida ko'milib ketadi. Ammo Juman bobo Mutavakkilni unutolmasdi. Har juma namozdan keyin qabristonga borib, go'ri tepasida Qur'on tilovat qilar, va'dasida turolmagan do'stingni kechir, deb pichirlardi.

Bugun negadir hamma yoq jimjit. Har kuni ertalab otasiga salom berib ishga ketadigan o'g'illari kun peshindan og'diki, ko'rinishmaydi. Kelinlar burchak-burchakda pichirlashadi. Mo'mina bugun sigirni ham sog'mayapti. Ma'rab, hovlini boshiga ko'taraman, deydi. Tovuqlar donsiz qolgan. Nima bo'ldi? Tinchlikmi?

Ko'cha yo'lagidan hassaga tayanib uchta oqsoqol kirdi. Mo'mina ularni ichkariga boshladi. Juman bobo poygakda tiz cho'kib, ularning og'ziga tikildi. Chollar gapni nimadan boshlashlarini bilmay, sen ayt, sen ayt, degandek bir-birlariga qarashardi. Ular avval ob-havodan, keyin bu yil kuzning yaxshi kelganidan, hukumat SJKni taqiqlab, zap ish qilganidan gapirishdi.

Juman boboning toqati toq bo'ldi.

— Chaynalmasdan gapiraveringlar, nima bo'ldi? — dedi tashvishli bir ohangda.

Chollardan biri unga emas, jo'mragidan hovur chiqayotgan choynakka qarab, gap boshladi:

— Sizga Xudo sabr-toqat bersin. Qandoq qilamiz? Dunyoning ishlari shu ekan. Bir kelmoqning bir ketmog'i ham bor, deydilar. Istatoy omonatini topshiripti. Juman boboning boshi egildi, beli bukilib-bukilib, oxiri soqollari tizzasini qordek bosdi.

Butun olam birdan sukutda qolgandek, jimjit. Shunday jimlik cho'kdiki, bandidan uzilgan bargning yerga qo'ngani ham eshitildi. Juman boboning badanidagi har bir mo'y og'ir tosh bo'lib pastga tortardi...

Bundan bir yil oldin Istatoy bilan Rahmonjonni harbiy komissariat chaqirib, do'xtirlar yetishmayapti, deb ularni Afg'onistonga jo'natgan edi. Bu gapdan faqat Juman boboning to'ng'ich o'g'lignina xabardor edi.

Buni na onasiga, na otasiga aytgan. U oyda bir marta Toshkentga borib, jiyanlaridan xabar olib turardi.

Bugun ertalab Toshkentga ikkita tunuka tobut keldi. Birida Istatoyning, yana birida Rahmonjonning jasadi bor edi. Juman boboning ikki o'g'li shitob bilan Toshkentga jo'nab ketishdi. Qudalar maslahat bilan ikkoviga yonma-yon go'r qazitmoqchi bo'lib turishgan ekan. Istatoyning akalari bunga ko'nishmadi.

Singlimizni tug'ilgan yurtiga dafn qilamiz, dedilar. Maslahat bilan Rahmonjon Toshkentda, Istatoy Shofirkonda dafn qilinadigan bo'ldi. Bugun peshin namozida Rahmonjonga janoza o'qildi. Duoyi fotihadan keyin Istatoyning tobuti solingan avtobus Buxoro tomonga yo'l oldi...

...Chollar yuzlariga fotiha tortib, o'rinlaridan turishdi. Juman bobo, harchand urinsa ham, o'rnidan turolmadi. Ikki kishi qo'ltig'idan olib turg'azib qo'ydi.

Ko'p yashagan, ko'pni ko'rgan, baxt-u baxtsizliklarni, to'y-u azalarni ko'rgan Juman bobo shu tobda o'zini eplolmay muvozanatini yo'qotgan edi.

Hovli odamga to'lib ketgan. Quda-qudag'aylar, qarindosh-urug'lar, hamqishloqlar ko'cha eshigi oldida jimgina yer chizib o'tirishardi. Ichkaridan xotin-xalajning aytib yig'lashi eshitildi. Oqsoqollardan biri hovliga kirib, hoy, murda eshikdan chiqmay, tuproqqa qo'yilmay yig'lab bo'lmaydi, deb ularni tinchitib chiqdi. Baribir Mo'mina belini boylab hovlining u boshidan bu boshiga yurib yig'lardi.

Avtobus kechasi o'n birlarda keldi.

Allaqaydan paydo bo'lgan voyenkom tobutni ochishga ruxsat bermadi.

— Tobuti bilan ko'miladi. Kim ochsa javobgarlikka tortiladi.

Ruxsat bo'lganda ham ochib bo'lmasdi. Ruxlangan qalin tunukani faqat elektr payvand apparatida kesish mumkin edi.

— Voy, uzoqlarda o'qqa uchgan bolam. Temir kafan kiygan bolam. Mo'minaning bu faryodi odamlarning yurak-bag'rini o'rtab yubordi.

Hamma baravar uv tortdi.

Istatoyning Hasan-Husan o'g'illari hech qachon kelmagan hovlida, hech qachon ko'rmagan odamlar orasida hayron qarab turardilar. Ular go'dak edi. Bir kunda ham otasidan, ham onasidan ajralganini, endi yetim bo'lib qolganlarini idrok qila olmasdilar. Ularning bolalik ongida ertami-kechmi, bir kun qaytib keladigandek edi. Endi bir umr ota bilan onani qo'msab yashashlarini, shodlik va alamli damlarda eng yaqin hamdard kishilari bo'lmasligini hali bilmasdilar.

Tobutni ichkari uyga olishdi. Mo'mina tobutni quchoqlab faryod urardi.

— Bolaginam, to'qqiz yil diydoringdan benasib bo'lganim yetmasmidi? Chiq, chiq, bu temir kafandan. Jamalak sochlaringni bir silay, jonsiz tanangni bag'rimga bosay.

Kelinlar uni suyab, tashqariga olib chiqishdi. U ostonada bel bog'lab turgan norasta ikki nevarasini bag'riga bosib, faryod urdi.

Juman bobo ayvon dahanida ko'ksini hassaga berib qimirlamay o'tirardi. Uning o'g'illari tobutni buzib ochamiz, deb bolta ko'tarib kelishdi. Voyenkom bilan ikki soldat yo'llarini to'sib, boltani olib qo'ydi. Bu oqshom xonadonda hech kim uxlamadi. Juman bobo ikki yetim nevarasini to'niga o'rab, ko'zlarini yumgancha qimirlamay o'tirardi, hadeb o'zini o'zi qarg'ardi.

Yig'i-sig'i, dod-faryod bilan Shofirkon tongi yorishdi. Oftobning olovli qo'li Vobkent minorasi peshtoqini sham qilib yoqdi.

Ko'cha eshigi oldiga qo'yilgan kursilarda keksalar o'tirishardi. Yosh-yalang qo'l qovushtirib tik turipti. Kimdir, yuvilmagan, kafanlanmagan murdaga janoza lozimmi, deb so'rab qoldi. Masjid mutavallisi javob qildi:

— Muhorabada qurbon bo'lganlar shahid ketadilar. Ularning jasadlari havo bilan, oftob bilan yuviladi. Buni tayammum, deydilar. Istatoy to'ppa-to'g'ri behishtga tushadi. Hur-g'ulmonlarga qo'shilib ketadi. Qabristondan qaytayotganlar orasida Juman bobo ko'rinmasdi. Har kimning o'z gunohi o'zi bilan. Balki, Juman bobo qizini kechirganda, kel, deb eshigini ochganida bunday bo'lmasmidi? Endi Mo'minaning betiga qanday qaraydi? Axir, u nimaga bunday bo'lganini biladi-ku! Undan qayoqqa qochib qutuladi?

U qal'a tomon og'ir yuk orqalagandek bukchayib borardi. Necha yuz yillar oldin qulab ketgan ming yillik daraxtlarning toshga aylangan ildizlariga tirmashib xarobalar tepasiga chiqdi. Bu joydan butun voha kaftda turgandek ko'rinardi.

Oftob o'chyapti. Ko'm-ko'k osmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq pag'a-pag'a bulutlar tagi yonayotgandek lovullardi.

Juman bobo ikki qo'lini baland ko'tarib, Allohga nola qildi:

— E Xudo, muncha qahringga olasan? Nega meni o'lmaydigan dardga mubtalo qilding!? Ilon-chayonlar chaqsa ham o'l-

maydigan, bo'ri-yu shoqollar daf qilmaydigan, o'tda yonmas, suvda cho'kmas qilib yaratding. O'z bolasini ostonadan quvgan gunohkor bandangman. Dargohingga sig'inib keldim. Omonatingni ol! Dunyoga to'ymagan norastalar umrini nega menga yulib berasan? Axir, men yoshimni yashab bo'ldim. Yashayverib zerikib ketdim. O'zingdan tilab olgan yolg'iz qizim u dunyoga mendan dili og'rib ketdi. Bunga qandoq chidayman? Tong-la mahsharda unga qandoq qarayman? Endi ketay, bu yorug' jahonda boshqalarga joy bo'shatay.

Ko'm-ko'k osmon jim. Bulutlar jim. Uning iltijolariga na ko'k, na yer javob qilardi.

Olisda harir tuman ortida salkam ming yil yashagan Vobkent minorasi abadiylik timsoli bo'lib ko'rinib turardi. Go'yo u:

— Yur, olis asrlarga birga boraylik, — deb chorlayotganga o'xshardi.

Chol qal'adan horg'in tushib kelarkan, atrofni qorong'ilik pardasi o'rab, nildek osmonda birin-ketin yulduzlar ko'z ocha boshlagan edi.

1992-yil, may

QISHDAN QOLGAN QARG'ALAR

Nasibjon hovlisidan ancha berida mashinadan tushdi. Eshik oldida ikki "Jiguli" turibdi. Kimlar keldi ekan? Uni yo'qlab keladigan yaqinlari yo'q edi-ku. Tinchlikmi o'zi? Ishqilib, tinchlik bo'lsin-da, deya ostona hatladi. Xotini chorpoyada omonatgina o'tirib, guruch tozalayapti.

Ayvonda dasturxonga tugilgan uch-to'rt tog'ora. Ulardan somsa, hasip, varaqi va allaqanday yoqimli hidlar keladi. Xotini oyoq sharpasidan bosh ko'tardi.

— Tinchlikmi, nima gap o'zi? — dedi Nasibjon hayron bo'lib.

— Voy, urug'laringiz kelishdi, — dedi quvonch bilan Anzirat. — Qulluq bo'lsinga kelishipti. Xolangiz bilan ammangiz biram dilbar juvonlar ekan. Bir gapirib, o'n kulishadi-ya, baraka topkurlar! Tog'angizni aytmaysizmi, biram mehribon, biram dono...

Anziratning gapi og'zida qoldi.

— Mening ham urug'larim bor ekanmi! Dadam bilan ayam o'lgandan keyin bularni qarg'ish tegib qirilib ketgan deb yurgan edim...

— E-e, gapingiz qursin! Kiring, ichkariga kiring, anchadan beri kutib o'tirishipti.

Ayvon peshida sovun qutisidek radiopriyomnikni qulog'iga tutib, o'n ikki yoshlardagi bir qiz o'tirardi. Uning quloqlarida so'lkavoydek tilla baldoq. Bo'ynida shoda-shoda marvarid. Hamma barmoqlarida qo'sha-qo'sha tilla uzuk. U Nasibjonga qarab, tilla tishga to'la og'zini ochgancha radio eshitardi.

Nasibjon xotiniga, bu kim, degandek qaradi.

— Voy, tanimasangiz, tanib oling. Bu kelinimiz. Xolangizning qizlari, quda bo'lamiz, deb atayin ko'rsatgani olib keptilar.

— Obbo, bitta shu yetmay turgandi.

Nasibjon xotiniga yomon qarash qildi. Uning bu qarashida, ularni nega uyga kiritding, degan ma'no bor edi.

Nasibjon bilan Anziratning turmush qurganlariga o'n to'qqiz yil bo'ldi. To'ng'ich o'g'illari institutga bordi. Nasibjon biror marta bo'lsin, xotinini urug'larinikiga olib bormagan. Ular ham jiyanimiz bor edi, deb aqalli bir marta qadam izi qilib kelishmagan. Oralaridan nima gap o'tgan, bilmasdi. Eri shundoq-shundoq bo'lgan, deb aytmagan. Anzirat o'zicha, urug'laridan uylanmagani uchun yuzko'rmas bo'lib ketishgan bo'lsa kerak, deb o'ylardi.

Nasibjon qarindoshlari yeb-ichib o'tirgan uyga tomon yurarkan, o'zi ustidan chiqarilgan hukmni eshitish uchun sud zaliga kirayotgandek bir alpozda edi. U kirishi bilan katta xolasi sapchib turdi-yu, uni bag'riga bosdi.

— Voy, sen qanaqa mehrsiz bola chiqding! Axir, men onagingni singlisiman. Xolaginam o'likmi, tirikmi, deb biror marta xabar olmaysan! Sen o'zi kimga tortganding?!

— Ha, bu shunaqa! — deya uni opasining bag'ridan tortib oldi Robiya xolasi.

U qoshini bir-biriga ulab, enlik qilib o'sma qo'ygan semizgina, so'lqillama juvon edi.

— Sen tug'ilganda opaginam, o'g'il ko'rdim, deb qandoq suyungan edi! Seni yer-u ko'kka ishonmasdim. Erta-yu kech opichlab yurardim. Shu yelkaginamda uxlab qolarding, shiringina bo'lib.

Nasibjon shu mehribon Robiya xolasinikiga oxirgi marta borganida institutning ikkinchi kursida o'qirdi. Tirikchiligi og'ir bo'lganidan durustroq o'qiyolmay, stipendiyaga ilinmay qoldi. Kiyim-boshi to'zigan, yeyish-ichishining ham mazasi yo'q edi. Biron nima tamaddi qilib kelay, deb shu xolasinikiga bordi. Xolasi osh damlab qo'ygan ekan. Damlangan oshning hidi dimog'iga urdi.

— Ha, yaxshi yuribsanmi? — dedi xolasi shu paytda nima qilarding kelib, degandek stolga to'qillatib choynakni qo'yarkan. — Aksiga olib, uyda non ham qolmapti. Jiyanlaring bir-biridan quloqsiz. Ertalabdan javrayman, magazindan non opkelib, keyin ishingizga ketinglar deb, qani quloq solsa! Shuncha bola o'stirib, kunim qotgan nonga qolib o'tiribman!

O'g'il-qizlar birin-ketin birovi o'qishdan, birovi ishdan kelishdi. Tog'ajon-tog'ajon, deb uning bo'yniga osilishdi. Onasi ularni birin-ketin imlab chaqirib, olib chiqib ketdi. Birozdan keyin ular lablari yog'dan yiltirab kirishdi.

Xolasining qilmishidan Nasibjonning dili vayron bo'ldi. Shu uyga ikkinchi qadam bosmaganim bo'lsin, dediyu, chiqdi-ketdi.

— Hoy, shoshma, hozir ovqatga unnayman! Quruqdan quruq ketma, — degancha qoldi xolasi.

Mana, yigirma uch yil bo'pti uni ko'rmaganiga. Bugun jiyanim katta lavozimga o'tibdi, deb kelibdi.

— Xolaginang girgitton, gap mundoq. Kimsan, endi kattakon ministrsan! Yot-begonalar yoningda yeb-ichib yurmasin. Bosh yorilsa bo'rk ichida, degan gap bor. Jiyaningni yoningga ol. Pomoshnik qilib ol. Nima qilasan begonalarga sir berib. Iloji bo'lsa, jiyanlaringdan yana bittasini o'zingga shopir qil. Xudo xohlasa, ikkovimiz quda bo'lamiz. Kenja qizim oqi oq, qizili qizil bo'lib turibdi. Eshigimdan sovchilarning oyog'i uzilmay qoldi. Shu qizim o'g'lingga munosib. Otingni qamchila, bo'lmasa quruq qolasan!

Gapirganda yasama tishi shiq-shiq qilib turadigan Nurmat tog'asi salmoqlab gap boshladi.

— Xolang savodsiz bir narsa, ammo yurt ko'rgan xotin. Yetti yil poyezdlarda provodnik bo'lib, bormagan shahri qolmagan. O'zing bilasan, provodnik ishi og'ir ish, bir kunda necha-necha odam bilan gaplashadi. Xolang o'rischalab so'kkanida o'rislar ham qulog'ini bekitib qochib qolardi. Topmadi emas, topdi. Topganini bolalarini o'qishga joylashga sarfladi. O'zing yaxshi bilasan, hozirgi domlalarning nafsi hakkalak otib ketgan. Noinsoflar, peshana terini to'kkandek, berganingni barmog'iga tuflab sanab oladi. Xolang bechora bolalarning hammasini diplomli qildi. Uning gaplari qulog'ingda tursin, pomoshnik masalasi — o'ylab ko'rsa arziydigan masala. Endi mening gapimni eshit. Yoshim o'tib, kuch-quvvatdan qolyapman. Qariganda urug'laringni qo'msab qolarkansan. Ko'rgim keladi. Endi qariganimda bir yaxshilik qilib ketay. Hali sen kelguningcha hovlingni aylanib chiqdim. Endi sen kimsan, ministrsan! Bunaqa uy, bunaqa hovli senga yarashmaydi. Oldingga o'zingga o'xshagan kazo-kazolar keladi. Ularni manavi chaldivorga qanday olib kirasan?! Endi senga obro'yingga yarasha uy kerak. O'zimcha chamalab chiqdim. Ikki qavatli uy quramiz. O'n ikki xona bo'ladi. Zal uyga eng kamida oltmish kishi sig'adi. Tagida bilyardxona, fin hammomi, sport zali bo'ladi. Menga qara, g'isht zavodlari ham senga qaraydi. Taxminan yetmishta g'isht zavoding bor, deb eshitdim. Taxta iskalating ham yuzdan oshar emish. Har qaysisidan beshtadan taxta olganingda ham butun urug'-aymog'ingga yetadi. Direktorlaringga meni ko'rsatib, shu odam mening vakilim, deb qo'ysang tamom, u yog'ini o'zim kelishtiraman...

Mehribon tog'asi uni ikkinchi kursni tugatib, endi ta'tilga chiqaman, deb turganda qidirib borgandi. Kimsan, kattakon bazaning mudiri katta boshini kichik qilib kelibdi.

— Hoy, sen kimga o'xshagan chiqding? Urug'imizda bunaqa odam bo'lmagandi-ku? Tog'am bechora uchastka quryapti, qiynalib ketgandir deb o'ylamadingmi? Sendan osh-non so'rayotganim yo'q. "Horma, bor bo'l"ga ham yaramaysanmi? Ertaga kanikulga chiqasan. Umringni bekor o'tkazma. Erta-indin qilichini ko'tarib qish keladi, ishlab, besh-to'rt tangani belingga tugib qo'ysang, teshib chiqmaydi. Mardikor bozoriga chiqib, bizni uyatga qo'yma! Menikiga kel. Bitta student o'rtog'ingni yoningga olib, g'isht

quyasan. Har kuni ovqatingdan o'zim xabar olib turaman. Uch oyda, o'hho', qancha g'isht quyish mumkin! Ertaga borib, mashinada olib ketaman. Ko'rib olasan, keyin o'zing boraverasan.

Nasibjon qashqadaryolik hamkursi bilan tog'asining uchastkasida uch oyda ehhe, qancha g'isht quyib tashladi! Sakson mingdan oshgan chiqar... Tog'a aytganini qilib, har kuni tushlikka ikkoviga to'rttadan somsa olib kelib, quyilgan g'ishtlarni ko'zdan kechirardi. Va albatta, balli, deb qo'yardi. G'irt piyozdan iborat somsa shunchalik Nasibjonning me'dasiga tegdiki, birov, somsa, desa, ko'ngli ayniydigan bo'lib qoldi.

Tog'aning hisob-kitob qiladigan payti ham keldi. Negadir u shoshilmasdi. Nasibjon puldan gap ochgan edi, jerkib tashladi.

— Uyalmaysanmi, begona emasman-ku! Qochib ketayotganim yo'q. Arzimagan shu xizmatingni minnat qilib, haq so'ragani qandoq tiling bordi? Manavi bola, mayli, u — begona. Uch-to'rt so'm bersam bo'ladi. Ammo sen o'zimiznikisan, jiyan! Hasharga haq so'rasa, ayb bo'ladi. Unaqa past bo'lma, jiyan. Shu gapni sen aytmading, men eshitmadim.

Uch oylik mehnati kuygan Nasibjon hamkurs o'rtog'i oldida yuzi qora bo'ldi.

Nasibjon mehribon tog'asini shundan keyin ko'rmadi. Ko'rgani toqati yo'q edi. To'g'ri, bir marta ko'rdi. O'sha yili qish juda mijg'ov bo'lgandi. Qor yog'adi-eriydi, yog'adi-eriydi. Nasibjon brezent tuflida shilt-shilt ho'l qor kechib, poyabzal do'koniga bordi. Kecha olgan stipendiyasiga tufli olmoqchi bo'ldi. Bir tuflini endi qo'liga olgan edi, tanish ovoz eshitildi. Peshtaxta orqasida shu Nurmat tog'asi turardi. Demak, tog'asi bazani silliqqina topshirib, shu do'konga o'tib olibdi-da.

— Stipendiya tegibdi-da, jiyan? Diding durust, yaxshi tufli tanlading.

Nasibjon pulini sanasa, uch so'm yetmayapti.

— Tog'a, uch so'm yetmayapti. Yetmaganini ertaga tashlab o'taman.

— Unaqa emas-da, jiyan! Bu hukumatning moli. Reviziya bossa, shu uch so'm uchun meni nima qiladi, bilasanmi? Qo'y, menga jabr qilma. Pulingni butlab, keyin tuflini olib ket.

Nasibjon tog'asiga xayr ham demadi, indamay chiqib ketdi. Mana, shundan beri "mehribon" tog'asini endi ko'rib turipti.

— Endi mundoq qilsak, — dedi tog'asi yasama tishini shaqillatib. — Men ham qarib qoldim. Ketadigan vaqtim bo'lib qoldi, shekilli. Bittagina o'g'limdan ko'nglim notinch. Mendan keyin u nima bo'ladi, bilmayman. Mana, baxtimizga sen ministr bo'lding. Bu ham Xudoning inoyati. Sulton suyagini xo'rlamas, deb bekorga aytmaganlar. Shu bolani yoningga ol. Eski shahar bozorini olib ber. O'zing bilasan, bozorda katta bo'lgan bola, eplab ketadi.

U yonida o'tirgan shirakayf yigitni turtdi.

— Tur o'rningdan, ministr tog'angga qulluq qil! Bozor seniki bo'ldi, nodon! Endi ko'pam ichaverma! Bunaqa ichish rahbar odamga yarashmaydi!

Ko'kragiga Brus Lining surati tushirilgan mayka kiygan, barzangi yigit o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yib qulluq qildi. Uning og'zi to'la tilla tish. Bo'yniga har donasi konfetdek tilla tross osib olgan.

Nasibjon hayron. Bu tilla trossning bahosi biron ming dollar tursa kerak, deb ko'nglidan o'tkazdi. Urug'larining hammasi tilla tishli, go'yo topgan boyligini og'ziga joylaganday. Ular bo'lar-bo'lmasga xandon otib kulishar, kulganlarida og'izlarida chiroq yonib turgandek bo'lardi. Xotinlarning bo'yni, qulog'i, bilagi, barmoqlari "archa bayrami"ni eslatardi. Bugun Nasibjonning uyiga urug'lari emas, "Yuvelirtorg"ning ko'chma do'koni kelgandek edi.

Nasibjonning tog'asi bilan xolasi shunchalik ishonch bilan gapirdilarki, nimaiki so'ragan bo'lsalar, og'izlaridan chiqmay turib, vazir jiyanlari bajaradigandek edi. Ammo Nasibjon bu gaplarga na "ha" dedi, na "yo'q" dedi. Nimaiki eshitgan bo'lsa, ichiga yutib o'tiraverdi. Hukumat unga bu lavozimni faqat urug'-aymoqlarini ta'minla, deb bergandek edi.

Xolasi iymanib, qimtinib o'tirgan singlisiga achitma gap qildi:

— Boshqa ko'ylaging yo'qmi?! Ministrning uyiga shu alpozda keldingmi?! Bu shtapel o'lgurni Achavotning lo'lilari ham kiymaydi-ku!

— Qandoq qilay, opa, bir etak bola. Erim rabochiygina odam bo'lsa! Topganini bolalarning boshiga yetkazsam, egniga yetkazolmayman! — dedi Salima o'ksib.

— Ering ham o'zingga o'xshagan Xudo urgan qaysar! Provodnik vaqtimda ikki-uch marta yur, olib ketay, dedim. Ering ko'nmadi. Hamma tishingni tilladan qo'ydirib berardim. Mana, yuribsan, itning keyingi oyog'i bo'lib!

Tog'asining qudasi — qo'ziqorindek pak-pakana, negadir bo'yni yo'q, boshi ikki yelkasi orasiga chaplab qo'yilgandek, yoniga qarash uchun o'rnidan turib buriladigan, ko'sanamo bir odam gap boshladi:

— Hoy, insoflaring bormi?! Bola bechorani qo'y so'ygandek, nimta-nimta qilib bo'lib oldilaring-ku! Menga nima qoldi? Nuqul shaqir-shuqur suyagi qoldi... Endi gap bundoq, "Sabis"dagilar nomardlik qilib, nafaqaning eng pastini berdilar. Bergani nos pulimga ham yetmaydi. "Sabis" boshlig'i bir gap aytdi, jon-jonimdan o'tib ketdi. "Senga nafaqa u yoqda tursin, eski paytava ham hayf", — dedi. "Hukumatga sariq chaqalik foydang tegmagan, faqat zararing teggan!" — deydi. Qandoq qilay, bo'yim past, bo'ynim yo'q. Yonimga qarayman, desam, o'rnimdan turib burilishim kerak... Menga bittagina "Trudovoy" yozdirib ber! Nafaqamning bo'yini ham jichcha cho'zib qo'y. Sen eshitganmisan-yo'qmi, yaqinda meni mashina urib ketgan. Bo'ynim o'lgur burilmay qoldi-yu, mashina shartta urdi-ketdi! Ikki oy kasalxonada yotdim. Hozir o'sha urib ketgan shopirdan oyiga besh yuz so'lkavoydan xonaki nafaqa olib turibman.

Hovlida nimadir taraqlab ketdi. Mast odamning so'kingani eshitildi.

— Sharmandalarni nega uyga kiritding, kelin! Hayda ularni! Xonadagilar pildir-pis bo'lib qolishdi. Tog'aning rangi quv o'chdi.

Robiya xolaning o'sma tutashtirgan qoshlari ulangan joyidan uzilib ketgandek bo'ldi.

— Oshga pashsha tushdi, aka! — dedi qo'rqa-pisa... — "Devoriy gazeta" o'lgur keldi.

"Devoriy gazeta" — bu Nasibjonning o'rtancha tog'asi Turg'unboy. Uning shunaqa ichadigan odati bor edi. Haftada bir ichadi. Ichganda ham birvarakay ichadi. Kayf qilib, hamma aka-uka, amma-xolalarinikiga boradi. Navbati bilan bo'ralab so'kadi. Kayfi tarqalguncha, o'zi charchaguncha so'kadi. Mahalla uni haftada bir chiqadigan "Devoriy gazeta" deb atardi.

Turg'unboy avvallari ichmasdi. Mo'min-qobil, yuvoshgina odam edi. Qo'li gul ganchkor usta edi. Shaharning muhtasham saroylari u chekkan ajib, chiroyli naqshlar bilan betakror mo'jizaga o'xshardi. Ro'zg'ori tinch shu odamning xonadoni birdan ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Bittagina o'g'illarini yalab-yulqab, shamolni ravo ko'rmay, puf-puflab, unga oydin istiqbol tilab yashardilar. Er-xotin shu arzanda bolasini Afg'on urushiga kuzatar ekan, bag'irlaridan bir nima uzilib ketgandek bo'ldi. Tagli-taxtli oilaning eshigini ochib, qiziga non sindirishgan edi. Kelinning sarpolari ham taxt edi. Ota-ona orzusi cheksiz edi. Olisda — Afg'on zamiinida portlayotgan bombalar ularning xonadonida ham portladi. Temir tobutda o'g'lining jasadi keldi.

Eshikdan soqchilar qurshovida tobutni olib kirishganda onasi faryod urib, o'zini tobutga otdi. U qayta o'rnidan turmadi. Hovlida qiyomat qo'pdi. O'sha kuni eshikdan qo'sh tobut chiqdi.

Kelin tushadigan yasatug'li uy huvullab qoldi. Turg'unboyning yorqin orzulari qora yerga ko'mildi. To'yga atab qazilgan o'choqqa o't yoqilmay qoldi. Yigirma yetti yil "sen" demay, sizlab yashagan xotinidan, o'n sakkiz yil bag'riga, mehriga o'rab o'stirgan bolasidan tumanga qorishiq xotiralargina qoldi. U ichdi, ichaverdi. Yor-birodarlarining nasihatini olmadi. Tani boshqa — dard bilmas, o'zimdan o'tganini o'zim bilaman, dedi-yu, ichaverdi.

Bugun dam olish kuni emas. Turg'unboy odati bo'yicha faqat dam olish kunlarigina ichardi, bugun u ichdi. Ichmasa bo'lmasdi. O'g'liga unashtirilgan qizni kecha dang'illama to'y qilib, yor-yor aytib kuyovga chiqarishdi. Turg'unboy kechasi bilan mijja qoqmay, tebranib-tebranib o'tirdi. Sahar payti bir dunyo g'am bilan, sudralgandek qabristonga bordi. Qo'shmozor bo'lib yotgan xotini bilan o'g'li poyiga tiz cho'kkanicha ko'z yoshlarini tiyolmay, uzoq tilovat qildi.

Go'rkov kelib qo'ltig'idan ko'tarmaganda hali-beri o'rnidan turmasdi.

— Bolam, o'zingizni qo'lga oling. Axir, siz er kishisiz. Manavi yotgan yuzlab marhumlarning ham ota-onasi, farzandlari bor. Qandoq qilamiz, bu — Xudoning irodasi.

Turg'unboy bir so'z demay, boshini eggancha darvoza tomon ketdi. Qaytishda u ichdi. To'yib-to'yib ichdi.

Uning dardini aytadigan odami yo'q edi. Aka-ukalariga yorilmasdi. Umuman, ularni ko'rishga toqati yo'q. Qilayotgan ishlarini ko'rib bir otadan, bir onadan tug'ilganiga pushaymonlar yerdi.

Bir vaqtlar akasi Nurmat tog'aning daranglagan paytlari bo'lgan. Poyabzal bazasida mudir paytlarida aytgani-aytgan, deganidegan, besh ming, o'n ming so'm degan gaplar og'zining yeli edi. Shaharda o'nta "Pobeda" bo'lsa, bittasi shuniki bo'lgan.

Uzoq-yaqin yurtlardan keladigan mijozlar shundoq shahri azimdan uning uyini topishi juda oson edi. Xo'roz tarnovli oq uy qayerda, desa bo'ldi, yosh bola ham mana, deb ko'rsatib berardi.

U qilgan to'ylar hali-hali og'izlarda doston. Uning to'yiga bir marta kelgan hofiz qistir-qistirdan tushgan pulga bemalol o'g'il uylasa bo'lardi. Otasiga, onasiga bag'ishlab o'tkazgan ma'rakalariga ham, har ehtimolga qarshi, ikki guruh hofiz aytib qo'yardi. Ashula aytsa aytar, aytmasa osh yeb ketaveradi, derdi.

* * *

Uning orqasida qancha ipirisqilar ro'zg'or tebratishardi. Shaharning pastqam mahallalarida xufiya "iskalat"lari bo'lardi. Nurmat tog'a bu joylarga biron marta bormagan. Bu ishlarni singlisi Robiya boshqarardi. Chex tuflilari u vaqtlarda otliqqa ham yo'q, piyodalarga yo'l bo'lsin, paytlar edi. Nurmat tog'a bazaga kelgan bu xil tuflilarning hidini chiqazmay, o'sha birovning nazari tushmaydigan xufiya "iskalat"larga jo'natar edi.

Nima bo'ldi-yu, mahallaning "qitmirlari" hid olib, xufiya ombor to'g'risida tegishli joyga xabar qiladilar. Kechasi melisa bosadi. Uyning egasi sakson yoshlarga borib, hilvirab qolgan kampirni so'roq qiladilar yer tagida ilon qimirlasa biladigan Robiya bo'lgan voqeani o'sha kechasiyoq eshitadi. Mahallaga bormay qo'yadi. "Ombor"da ming juft tufli bor edi. Yaxshiyam uch kun oldin olti yuz juftini olib ketgani, bo'lmasa, salkam mingta tufliga kuyib qolardi.

Hovlining egasi Robiya qayerda turadi, asli oti nima, bilmasdi. Ijara pulini vaqtida to'lab turganidan keyin surishtirib nima qilaman, deb o'ylardi.

Robiya u yerga borganda qora xalat kiyar, oq doka ro'mol o'rab qari xotinlarga o'xshab olardi. Kampirning nurdan qolayozgan ko'zlari uning yuzlarini durustgina ko'rmagan. Shu sabab hovli egasi bo'lmish bechora kampir militsiya savollariga tayinli biron javob berolmadi.

Shundoq shahri azimda Robiyani qidirish oson gap emasdi. Uni izlash qora po'stakdan burga qidirishdek gap edi. Hilvirab, omonat bo'lib, ana ketaman, mana ketaman, deb turgan kampir uch kundan keyin jon taslim qildi. Sakson yil toat-ibodat qilgan, tong saharlarda Xudodan imonimni salomat qil, deb iltijolar qilgan bir mushtipar kampir yuzi qaro bo'lib Alloh dargohiga ko'chdi. Militsiya tintuv paytida olgan tuflilarni egasiz mol sifatida davlat hisobiga o'tkazdi.

O'sha kezlari bayram arafasida militsionerlarga yangi yozlik forma berishga tayyorlanayotgan edilar. Faqat qora tufli topish muammo bo'lib turgan edi. Shahar militsiyasining boshlig'i yuqori idoraning ruxsati bilan pul o'tkazib, tuflilarni o'zlariga olib qoldi.

Bayram namoyishini tartibga solib turgan militsionerlarning oyog'ida qora tufli ko'rgan Robiya, "Qora tufli kiygan oyoqlaring sinsin", — deb qarg'ardi.

U bo'ldi, bu bo'ldi, aka-singil bir mo'min-musulmon, mushtipar kampirning fojiaviy o'limiga sabab bo'ldi.

Bu sir sirligicha qoldi, deb o'ylashadi. Ammo Turg'unboy bu gaplardan xabardor. Shuning uchun ham aka-singillarini ko'rishga toqati yo'q. Ko'rdi, so'kaveradi. Ayniqsa, ichib olgandan keyin ularni charchaguncha, kayfi tarqaguncha so'kardi. Uning bunaqa chidab bo'lmas haqoratli so'zlariga chidamay ilojlari yo'q edi. Bu tentak piyonista ukamiz sirni ochib qo'yishdan ham toymaydi, deb mum tishlab o'tirishardi.

Avvallari oilasi jam, tinch paytlarda Turg'unboy jiyani Nasibjondan xabar olib turardi. Dam olish kunlari o'g'lini yuborib, uni oldirib kelardi. Ichiga issiq kirsin, deb o'zi osh damlab yedirardi.

Ketayotganida cho'ntagiga zo'rlab pul solib qo'yardi. Birgina Nasibjon xotini bilan borib uyini yig'ishtirib, hovlisini supurib kelishardi. Uyda biron tansiqroq ovqat qilsalar, nasiba olib borardilar.

Turmushi tangroq Salima degan singlisi ham ko'p kelardi. U serfarzand, qurilishda betonchi bo'lib ishlaydigan erining topganini uchma-uch qilib ro'zg'or tebratadigan mungligina bir xotin edi.

U tez-tez kelib, javrab-javrab uyini supurib-sidirib ketardi.

— Agar shunaqa ichaveradigan bo'lsangiz, bilib qo'ying — kelmay qo'yaman! — deb tahdid qilar, baribir akasi ichishni, Salima esa kelishni qo'ymas edi.

Turg'unboy bo'lsa ichib olib akasinikiga, opalarinikiga borib, erinmay so'kib kelishini qo'ymasdi. Shu "vazifa"sini bajarib bo'lib, Nasibjonnikiga gandiraklab kelardi-yu, chorpoyada oyog'ini osiltirib uxlab qolardi. Nasibjon uni to'shakka yotqizib qo'yardi.

Ertalab uyg'onib jiyanidan, kelinidan uyalganidanmi, ular turishguncha ketib qolardi.

Anzirat uning bu xil kelishlarini malol olmasdi. Faqat, "Attang, shunday odam", — deb qo'yardi...

* * *

Turg'unboy urug'lari o'tirgan xonaga sherday o'kirib kirdi.

— Nima qilib o'tiribsanlar?! Bu bolaga yetti yot begona edilaring-ku! Amaldor bo'lgandan keyin g'imirlab qoldilaringmi? Qani, jo'nalaring!

Aka-singillarning dami ichiga tushib ketdi. Suhbatning guli bo'lib o'tirgan Nurmat akasi tilini yutib yuborgandek jim edi. Har haftada uyiga kelib, aytadigan sassiq gaplari opasiga yod bo'lib ketgan: "Chayqovchisan... Puldan boshqa darding yo'q... Harom yemagan kuning uyqing kelmaydi... Sen odamxo'rsan, aytaymi, qanaqa odamxo'rligingni? Manavi sheriklaringga aytaymi? Qo'rqasan-a!"

Turg'unboy munkib-munkib choy ho'pladi.

— Eshitdilaringmi, tish do'xtirlarning omadi kepti.

— Nima balo bo'pti?! — dedi tog'asi, gap boshqa yoqqa burilganidan suyunib.

— Iya, hali xabarlaring yo'qmi?! Shaharda yangi toifa yo'l-to'sar qaroqchilar paydo bo'pti. Tramvaydami, avtobusdami, ko'chadami tilla tishli odamni ko'rsa, og'ziga ombir tiqib, tishini sug'urib olyatkanmish. Ko'chada, do'xtirxonada lunjini bog'lab olganlarning son-sanog'i yo'q!

— Gaping o'lgur o'zingdan ham sovuq! Robiyaning gapi og'zida qoldi.

— Itiga tilla tish qo'ydirgan otarchi artist bor edi-ku, shu bechoraning boshiga qora kun tushib qopti. Itining kallasini kesib, olib ketishipti. Itning kallasini olgan qaroqchilar tilla tishli odamni tinch qo'yarmidi!

— Hoy, yaramas, topib kelgan gaping shumi?

— Gapning kattasini hozir eshitasanlar. Ketasanlarmi-yo'qmi? — u atrofga alangladi. Tokchadagi dazmolni ko'rib, chayqala, chayqala borib qo'liga oldi. — Ketmasalaring, shu bilan urib dabdala qilaman.

Qo'ziqoringa o'xshagan mehmon birinchi bo'lib o'zini eshikka urdi. Katta xolasi Robiya, dod, degancha yugurib hovliga chiqib ketdi. Birpasda uy bo'shab qoldi. Qo'lida dazmol bilan hovliga chiqqan Turg'unboy:

— O'rtoqlar, bugun tozalik kuni, ya'ni "sanden", uy dezinfeksiya qilinadi! — dedi tantana bilan. Gap shu: bu uyga ikkinchi qadam bosmaysanlar! Qoralaringni ko'rmay! Sen qol, ketma! — dedi u Salimaga. — Sen bular toifasiga kirmaysan. Onam rahmatli o'rdakning tuxumini bosgan ekanmi, bilmadim, ochib chiqqanlarning bittasiga ham suv yuqmaydi-ya!

— Onam rahmatliga til tegizma, diydoring qursin!.. Opasi uni qarg'ay-qarg'ay, akasi so'ka-so'ka chiqib ketdi.

— Endi menam ketay, — dedi Salima. — Borib, bolalarga ovqat qilay.

— Nima qilasan ovqat qilib?! Mana, ko'ryapsanmi, bir qozon palov damlog'lik turibdi. Shundan bitta tog'oraga bosib beramiz! Opalaringni haydaganimga xafa bo'ldingmi? Qo'y, xafa bo'lma! Ular odammas. Achinma.

Turg'unboy har galgidek javray-javray chorpoyada uxlab qoldi.

Nasibjon yigirma yildan ortiq yo'q bo'lib ketgan, och-yalang'och qolganda, holing ne deb bir marta xabar olmagan, bir kosa oshini ravo ko'rmagan, brezent tuflida qor kechib kelganda uch so'm pulini ayagan, sakson ming g'isht quydirib, haqqini bermagan, endi yurtga qo'shilib, mehnati bilan el nazariga tushganda, hukumat iltifotiga erishganda, vazirlik lavozimiga loyiq topilganda, go'sht isini sezgan aridek paydo bo'lgan urug'laridan nafratlanib ketdi.

Turg'unboy tog'asi mast bo'lsa ham, rost aytdi:

— E-e, jiyan, bularning gapiga kirma! Ularni qishdan qolgan qarg'alar deb, o'z ishingni qilaver! Bilib qo'y, saraton qancha qizisa, sovuq kunlarni sog'ingan qarg'alar shuncha qattiq qag'illaydi.

BUQALAMUN BILAN UCHRASHUV

— Siz meni tanimaysiz, ukaginam. Ko'p joylarda jon fido qilib ishlaganman. Badbaxt sho'ro qadrimizga yetmagan. Ishla, desa ishlayveribmiz, ishlayveribmiz. Shuncha ishlab biron kun ro'shnolik ko'rmadik...

Ana shu "ro'shnolik" ko'rmagan odam hozirgina eshikdan kirib keldi. U ikki qo'llab ko'risharkan, qalamlariga qudrat, qalamlariga qudrat, deya barmoqlarimni birma-bir ezib chiqdi.

— Rivoyatlarda aytilishicha, Xizr boboning o'ng panjalaridagi barmoqlaridan birida suyak yo'q emish.

Uning bu ishidan ensam qotib, "Xotirjam bo'ling, men Xizr buva emasman", deya qo'limni siltab hovuchidan chiqarib oldim.

— Shunday deysiz-u, ammo yozuvchi xalqi yarim Xizr hisobida yuradi. Siz meni tanimaysiz. Bir chekkada qolib ketgan bandayi mo'mindirman. Kelmog'imdan murod shuldirkim, men bechorani "pensiya" masalasida bisyor ranjitdilar. Arzihol qilishdan murod yordamingizdan picha umidvorlikdir. Tanimasni siylamas, deganlaridek, avval kimligimni shoshilmay aytib bersam...

— Sizni juda yaxshi taniyman, — dedim.

Birdan uning popugi pasayib qoldi. Umidvor bo'lib turgan ko'zlari ma'yus tortdi. Ikki qoshi o'rtasiga tuguncha tushdi. Kimligini bilgan yozuvchidan madad kutish behuda ekanidan hafsalasi pir bo'ldi. Meni ham xayol tortdi. O'ylayapman. Ko'z oldimda tirikchilik deb harom-xarishdan hazar qilmagan, yetim-yesirning haqini seskanmay bemalol hazm qilib ketaveradigan bir kimsa paydo bo'ldi.

Siz ham, albatta taniysiz. Bu to'g'rida gurunglarda ko'p gapirganman. U partiyaga o'tayotganda, dinga munosabatingiz qanday, degan savol tushadi. Shunda u javob o'rniga sumkasidan kolbasa chiqarib, g'arch-g'arch tishlab ko'rsatgan.

Uning dinsiz ekaniga qanoat hosil qilgan majlis ahli ikkinchi savolga o'tadilar. Bu xiyla nozik savol edi.

— Otangiz o'ttizinchi yilda qayerda va nima ish qilgan? Qahramonimiz pastki labini so'rib, andakkina shiftga boqib turgandan keyin dadil javob beradi:

— Iltimos, bunday savolni bermanglar. Mening otam hech qachon bo'lmagan.

Uning og'ziga shartta urishdi.

— Nima, Odam atodek otasiz tug'ilganmisiz? Yoki onangiz tushlarida homila bo'lganmilar. Aytavering...

— Men otamdan voz kechganman. Otam bosmachi bo'lgan. Shu gapni eshitishim bilan undan voz kechib familiyamni o'zgartirganman.

— Masalan, o'zingizga qanaqa familiya tanlagansiz?

U yana ostki labini so'rib, shiftga qarab o'ylandi. Oxiri aytish juda qiyin bo'lgan gapni zo'rlab tiliga chiqardi.

— Ikromov degan familiyani tanladim.

Partiya o'quvi kursining shtatsiz lektori — dahani kapgirga o'xshagan yigit so'radi.

— Hozir familiyangiz unaqa emas-ku...

— Ikromov xalq dushmani bo'lib ketgandan keyin noiloj Yusupov deb o'zgartirdim. O'tirganlar orasidan kimdir piching qildi:

— Ko'p erga tegadigan xotinlar necha marta erga tegsa, shuncha familiya orttirardilar. Shu familiya bilan tinchib ketdingizmi yo yana o'zgartirdingizmi?

— Usmon Yusupov bilan Xrushchovning orasi buzilgandan keyin o'ylab-o'ylab o'zimga bir umrlik familiya qo'ydim. Ya'ni Diyorov deb boshpurt oldim.

Bugungi yig'inga qatnashayotgan tuman partiya komitetining ideologiya ishlari bo'yicha sekretari Fatxullin o'tirgan joyida gapga qo'shildi.

U o'zidan katta kishilarni ham malay deyaverardi.

— O'hu, tolkoviy malay shul. Bundan otlichniy kommunist chiqa. Ul partiya uchun atisidan kechdi. Dinsiz ekanini dokazat etish uchun kolbasa yib kursatdi. Buni o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz. Tolko patriot kommunistgina kolbasani shulay yeyishi mumkin. Bravo, bravo!

Kolxoz raisi bugungi tuman gazetasi bilan o'zini yelpib o'rnidan turdi.

— Manavu gazetada sizning "Nechun men islom dinidan voz kechdim" degan maqolangiz bosilibdi. O'qib chiqdim. Shu narsani yozishga sizni birov majbur qildimi yo o'z xohishingiz bilan yozdingizmi? Shunga javob bering.

— Dil amri bilan yozganman, — deb javob qildi Diyorov. — Jahon proletariatining otasi Karl Marks "Din xalq uchun afyundir", deganlar. Maqolamda islom dinining reaksion mohiyatini fosh qilishga harakat qildim. O'sib kelayotgan sog'lom avlodlarimizni eshon-u mullalar boshlayotgan xatarli yo'ldan ogoh qilishni niyat qilganman.

— Vot molodets, — deb yubordi zavqiga chidamagan Fatxullin. Partiya safiga fidoyi patriot kelib qo'shilayotganidan gorjus!

Majlis bir ovozdan Diyorovni Lenin partiyasi safiga qabul qildi. Majlis qarorini tuman partiya qo'mitasining byurosi hech qanday gap-so'zsiz tasdiqladi. Va uni qorako'lchilik sovxozi qabul punktiga mudirlik lavozimiga tavsiya qildi.

Diyorov bu lavozimda uch yildan mo'lroq ishladi. Bu davr orasida tuman rahbarlarining xotinlari ikki juftdan sur, sheroziy terilardan qalpoq kiyishdi. Faqat prokurorgina uni o'ziga yaqin yo'latmasdi. Diyorov yurak yutib prokurorning shofyoridan ikki xil antiqa teri berib yubordi. Prokuror shofyorini bo'ralab so'kib,

terilarni qaytarib yubordi. Kechga yaqin prokurorning xotini kelib, qo'yavering, mulla aka, bizning xo'jayin shunaqalar. Biror nima beradigan bo'lsangiz o'zimga beravering, dedi-yu, boya qaytib kelgan terilarning har biriga uch so'mdan to'lab olib ketdi.

Prokurorning xotini ishni pishiq qilishda eridan qolishmasdi. Mabodo eri bu terilarni qayoqdan olding, deb so'rab qolsa, jaraq-jaraq pulini to'lab olganman, ishonmasangiz surishtiring, deydi. Har biri besh yuz so'mlik teriga uch so'mlik to'lab kvitansiya olmaganligi ham bir saxiylik alomati edi.

Ayyorlikni bilmagan sodda, halol cho'ponlar unga uch yil yem bo'lishdi. Boqimlaridagi qo'ylardan tushgan terilarni mushuk terisi bahosida Diyorovga sotib ketishar, mushkullarini oson qilgani uchun unga qayta-qayta minnatdorchilik bildirishardi. Shunday qilib, Diyorovning itining tuvagi oltindan bo'lib ketdi. U Dog'iston, Chechenistan, Avariston tomonlardan kelib ulgurji xarid qiladiganlarga teri tayyorlab qo'yardi...

Kosa kunda emas, kunida sinadi deganlari rost ekan. Diyorovning kosasi bemahal chil-chil bo'ldi. Ya'ni u chechen mijozi Ruslanga ellikta terini sotayotganda qo'lga tushdi. Ana shundan keyin u olti yilga qulog'ini ushlagancha qamalib ketdi. Tag'in ham uning kommunistligini inobatga olishdi. Bo'lmasa naq o'n yilga ketardi. U olti yil bandilikda tuz-nasibasini tatib qaytib kelganidan keyin nima ishlar qildi, qayoqlarda yurdi, bilmayman. U bugun oldimda aftodahol bir alpozda o'tiripti.

U uzoq sukutdan keyin, shunaqa deng-a, taniyman, deng-a, dedi.

— Bu Sho'ro degani menga ko'p azoblar bergan. Birimni ikki qilmadi. Yaxshiyam mustaqillik bo'lib menga o'xshagan bekorga aziyat chekkanlarning ko'ksiga shamol tegdi. Yashaydigan zamon ana endi keldi.

— Unday demang, siz "fidoyi" kommunist edingiz. Shu partiya uchun dindan kechdingiz. Otangizdan kechdingiz.

— Zamon shunaqa edi, — dedi u afsusli bir ohangda. — Endi ma'lum bo'ldi. Mening otam milliy qahramon ekan. Xalq ozodligi uchun kurashgan. Men shunday otam borligidan faxrlanaman.

Unga javob qildim:

— Lekin otangiz sizdek farzandi borligidan or qiladi. Siz qamoqdaligingizda kelib sizni surishtirdi...

— Tirik ekanmi? — dedi u shoshib.

— Ha, tirik ekan. Kanada degan mamlakatda yasharkan. Qarib qopti. O'zbekiston mustaqil bo'lganidan keyin qishlog'ingizga keldi. Rahbarlar uni izzat-ikrom bilan kutib olishdi. Sovg'a-salomlar berishdi. U ham kasalxona qurilishiga allaqancha ming dollar berdi. Sizning otadan kechganingizni eshitib, ko'p afsuslar qildi. Bunday farzandim yo'q, oq qildim, dedi.

Diyorovning boshi egildi. Yerdan ko'z uzolmay qoldi.

— Meni otamdan kechishga majbur qilishdi...

Uning gapini shart bo'ldim.

— Yolg'on! Partiyaga o'tish uchun, hukumatdan amal ilinj qilib otadan kechgansiz.

— Ko'rasiz, men o'zimni oqlayman.

— Bunday qilishga endi umringiz yetmaydi. Otangizni ham endi bir umr ko'rmaysiz. Qandoq qilib o'zingizni oqlaysiz? Otangiz o'tgan yili qazo qildilar. Kanadadagi ukalaringiz qishloqqa kelib, yurtga osh berib, aza ochdilar. Siz esa dindan kechdingiz.

— Ko'rasiz, hali o'zimni oqlayman.

— Nima, yegan kolbasani tuflab tashlaysizmi? Endigi umringiz azobda o'tadi. Axir, imonsiz yashab bo'ladimi?

Undan jirkanib ketdim.

— Meni uyimga nima istab keldingiz? — dedim ko'zlariga tikilib.

— Pensiya masalasiga yordam bersangiz. Atigi bir ming bir yuz so'm berar emish. Nimaga yetadi? Pensiya beradiganlarda insof bormi, o'zi?

O'rnimdan turib jag'iga bir tushiray dedim-u, o'zimni bosdim. Shu isqirt bilan olishib o'tiramanmi. U sadqayi musht ketsin. O'zimni bosib, g'azab bilan gapirdim:

— Qaysi xizmatlaringiz uchun "pensiya" talab qilyapsiz? O'z otangizdan kechganingiz uchunmi, dinni haqorat qilganingiz uchunmi, umringizda atigi uch yil ishlaganingiz va uch yil surunkasiga davlat mulkini talon-toroj qilganingiz uchunmi?

Mendan biron ish chiqazishdan umidini uzdi, shekilli, tund bo'lib qoldi.

— Mustaqillik bo'lsa ham biz yorug'likka chiqmas ekanmizda, mayli asli sho'rpeshana banda ekanmiz. Mustaqillik, mustaqillik, deysizlar, qani yuzaga chiqqanimiz? Bu mustaqillik menga nima berdi?

Yoshi katta odamni senlab yuborganimdan o'zimni koyidim.

— Sen mustaqillikka nima berding? Atrofga qara, nimalar bo'layotibti? Ko'chaga chiqib u yoq-bu yoqqa qara, osmono'par imoratlarni ko'r. Qullik yukini yelkasidan irg'itib tashlagan yurtdoshlarimizning yuzlariga, ko'zlariga boq.

— E, — dedi u qo'l siltab. — Bu imoratlarni yeb bo'lmasa. Quruq savlatning kimga keragi bor?

— E, noshukur banda. Qorindan boshqa tashvishing bormi o'zi?

— Meni senlama.

— Sizlashga arzimaysan. Qani, tuyog'ingni shiqillat!

U o'rnidan turdi. Bir nima deb to'ng'illadi. Yo meni so'kdi, yo mustaqillikni so'kdi. Orqasidan itarib ko'chaga chiqarib qo'ydim-u, eshikni ichidan zanjirladim.

U ketdi. Mening ko'ksimda og'ir tosh qoldi. Bir yarim yildan keyin yangi asr boshlanadi. Nahotki shu isqirt ham biz bilan yangi asr darvozasidan kirsa. Yangi asr ostonasida bu suprindilarni eski kalishdek yechib tashlab ketsak, qandoq yaxshi bo'lardi-ya.

Shu uchrashuvdan keyin uni ko'rmadim. Eshitishimcha, u qishlog'iga borib namoz paytida masjidga kirib, namozxonlardan uzr so'ragan emish. Hech kim uning betiga qaramapti... Boshini egib masjiddan chiqib ketibdi. Uch kundan keyin uning o'ligini adir orqasidagi tolzordan topishibdi. Masjid imomi janoza o'qishga ruxsat bermabdi. U musulmonchilikdan chiqib kofir bo'lgan, deb qishloq qabristoniga ko'mishga ham ijozat bermabdi. To'rtta odam uning o'ligini zambarda olib borib chakalakzorga ko'mishibdi.

Menga faqat bir narsa taskin beradi. Shu isqirt biz bilan XXI asr darvozasidan o'tadimi, degan tashvishim bor edi. Xayriyat, u jag'i ayrilgan eski kalishdek darvozaning bu tomonida qolib ketdi.

1998-yil, iyun

AZOB

Viloyat hokimi Ergash Nosirov uyiga alla-pallada qaytdi. Bolalari uxlab yotishibdi. Xotini olib kelgan ovqat tomog'idan o'tmadi. Bir-ikki qoshiq tatigan bo'ldi-yu, kosani nari surib qo'ydi.

— Qayoqda edingiz? Xavotir olib uxlolmadim.

Ergashvoy javob o'rniga, soatiga qaradi: birdan oshibdi.

— Pochcham olamdan o'tibdilar, o'sha yoqda edim.

— Voy, o'lmasam, — dedi xotini tamoman uyqusi qochib.

— Nega menga xabar qilmadingiz? Borardim. Axir, ota o'rnida ota edilar.

Ergashvoyning yoshligida ota-onasi olamdan ko'z yumib ketadi. Uni opasi o'zining to'rt bolasi qatori bag'riga bosadi. Pochchasi tinib-tinchimas odam edi. Imorat quradiganlarning hojatini chiqarardi. To'ng'ich o'g'lini yoniga olib, arrakashlik qilib, quchoqqa sig'mas g'o'lalardan taxta tilardi. Rom yasar, bitmagan imoratlarning tomini yopardi. Xullasi, qishin-yozin unga birdek ish topilib turardi. Ergashvoy shu mehnatkash odamning qo'lida muhtojlik nimaligini, yetimlik nimaligini bilmay o'sdi. Usta Turob o'z bolalari qatori uni kiyintirdi, yedirdi, ichirdi. Yoshiga yetib, institutda o'qiyotgan paytlarda Toshkentga borib, topgan-tutganini qo'liga berib kelardi. Ammo unga aslo nasihat qilmasdi. O'zining es-hushi joyida, nasihat ortiqcha, deb bilardi. Shu yetimgina ukasiga mehribonlik qilayotgan eridan opasi minnatdor edi. Ba'zan ko'z yoshi to'kib, uni chin dildan duo qilardi.

Umri mehnat bilan o'tgan usta Turob olamdan o'tdi. Ergashvoy to'rt azamat jiyanlari yonida bel bog'lab, "voy, otam"lab tobut oldida bordi. Xotini piq-piq yig'lab: "Ertaga meni ham ola keting, yangam bechoraning yonida bo'lay!" — dedi.

— Xo'p, — dedi Ergashvoy. — Endi ozroq mizg'ib olay, juda charchadim. U shunday dedi-yu, yotoqqa kirib ketdi.

Ergashvoyning viloyat hokimi qilib tayinlanganiga atigi ikki oy bo'ldi. Hali tuzuk-quruq ish boshlagani ham yo'q edi. Viloyat kat- ta, unda tog' ham, daryo ham, cho'l ham bor. Ilgarigi hokim bir chiqib ketganicha ikki-uch kunlab uyga qaytib kelolmasdi.

Ergashvoy avval ham hokimiyatda kichik lavozimlarda ishlagani sababli tumanlarni, xo'jaliklarni yaxshi bilardi.

Ergashvoyning endi ko'zi yumilganda sigir ma'rab, uyqusini qochirdi. Bu qanaqa sigir bo'ldi? Qo'shnilarnikimi desa, ovozi hovlidan kelyapti.

Ergashvoy to'nini yelkasiga tashlab, ayvonga chiqdi. Xotini stolga boshini tirab yig'layapti. U oyoq tovushini eshitib, boshini ko'tardi: ikki ko'zi jiqqa yosh edi.

— Bu qanaqa sigir? — dedi Ergashvoy xotiniga zaharli tovushda.

— Qo'shtegirmonlik rais Normat aka tashlab ketdi.

— Hozir sigir olishga qurbimiz yetmaydi, deb aytmadingmi?

— Aytdim. Ey, kelin, xotin kishisiz-da, erkaklarning ishini tushunmaysiz. Ergashvoy jigarimdek bo'lsa, undan pul olamanmi, hokim bo'lganiga suyunchi bu, ya'ni podarka, sog'ib ichavering-lar, endi shu ona-bola sigir sizlarniki, — dedi.

Ergashvoyning peshanasi tirishdi. Bir so'z demay, yotoqqa kirib ketdi. Shu yotganicha soat beshdan oshganida uyg'ondi. Uyg'ondi-yu, "uyali" telefon bilan Qo'shtegirmonga — Normat raisga qo'ng'iroq qildi. "Lab-bay", degan uyquli tovush eshitildi.

— Normat aka, hozir sizga mashina boradi, biznikiga keling, birga nonushta qilamiz.

— O'zimning mashinamda boraveraman, — dedi rais. — Shofyoringizni ovora qilmang.

— Iltimos, xo'p deng. Boshqa gaplar ham bor, albatta, ordenlaringizni ham taqib keling!

— Xo'p bo'ladi, hokim buva! Televizorga chiqamizmi?

Endi uning ovozi jaranglardi. Ona-bola sigir kuchini ko'rsatdi, deb o'ylayotgan bo'lsa kerak. Qalovini topsang qor yonadi deb, bekorga aytmaganlar. Ilindi. Juda chiroyli bo'lib ilindi.

Qo'shtegirmon bilan viloyat markazining oralig'i atigi o'n to'rt kilometr, hozir yo'lga chiqsa, o'n besh minutga qolmay yetib keladi.

Ergash Nosirov DANga telefon qilib, kim bilandir gaplashdi. Keyin hovliga chiqib, ona-bola sigirni ko'zdan kechirdi.

O'h-ho', bunaqa sigir bozorda falon pul bo'lsa kerak. Xotinining gapiga qaraganda, kuniga uch mahal sog'ish kerak ekan. Nechuk shuncha pulli narsani tekinga tashlab ketdi ekan? Axir, u Toshkentga qurultoylarga borishganda o'ziga o'xshagan serxarj raislar bilan restoranlarga kirishardi, aqalli bir marta bo'lsin, "Sen ham yur!" demagan. Ergashvoyning hamyoni bunaqa xarjlarni ko'tarmasdi. Shuning uchun ham mehmonxona bufetida yengilgina ovqatlanib qo'ya qolardi.

Paxtakorlar qurultoyiga borishganda Normat rais ordenlarini taqib olardi. Chindan ham uning ordenlari ko'p edi. Yil ora orden olardi. Boshqa raislar hazil qilib, "Normatning ikki kastumlik ordeni bor", deyishardi. Sal og'zi botirroqlari: "Leonid Ilich bo'lib ket-e!" desa, boshqasi: "Yaxshi do'xtir tanishim bor, chap ko'kragingni kengaytirib beradi!" — deb odamlarni kuldirardi. U yurganda jarang-jurung ovoz chiqardi, hatto qurultoyga raislik qilayotgan rahbar unga:

"Normat aka, qimirlamay o'tiring, ordenlaringiz jaranglab, doklad eshitishga xalaqit beryapti", — degandi. O'shanda qurultoy ahli gurra kulib yuborgandi.

Ergashvoy bir gal qurultoyga borganda Normat rais mehmonxona pastida uni kutib turgan ekan.

— Mundoq qilsak, — dedi rais uning oldiga kelib, — ertalabki majlisga sen qatnashmasang ham bo'ladi. Chorva masalasi ko'riladi. Senga aloqasi yo'q gaplar.

U shunday deya turib, yonidan bir dasta pul chiqarib, unga uzatdi:

— Taxtapuldagi choyxonaga borib, o'n kishilik osh buyur! Vodiy raislari bilan oshxo'rlik qilamiz. Xo'pmi, akasi? Masxaraboz Obid kaltani ham top, bir kulishib o'tiraylik.

Ergashvoy g'alati bir holga tushdi. Bu rais meni kim deb o'ylayapti?

Juda o'zidan ketibdi-ku!

U jahl bilan pullarni uning cho'ntagiga tiqib qo'ydi.

— Men sizga malay emasman! Qurultoyga sizning chamadoningizni ko'tarib yurishga, dastyorlik qilishga kelmaganman!

Rais undan bunaqa gap kutmagandi. Yuvosh, bayov bola deb bilardi.

— Seni o'sadigan kadr bo'ladi deb o'ylagan edim. Shu fe'ling bo'lsa, ikki dunyoda ham kosang oqarmaydi. Yonimga olib, o'sishingga yordamlashmoqchi edim. Qo'limdan har ish kelishini bilasan-ku, endi o'zingdan ko'r! Shu kichkinagina amalingdan ham ayrilib qolasan.

Ergashvoy qat'iy qo'l siltadi:

— Peshonamdagini ko'raveraman, aka!

Normat rais bir zambar loy bo'lib qolgan edi o'shanda.

Normat har qanday bir so'zli, o'jar raykom kotibini ham o'ziga rom qilib olardi. Qishloq rahbarlarining, ayniqsa, raykom kotiblarining otpuskasi qish paytiga to'g'ri kelardi. Shunga qaramasdan, ular dam olish uchun Yaltagami, Sochigami ketishardi. Bu paytda na dengizda cho'milib bo'ladi, na sohilda o'zini oftobga toblab bo'lardi. Hech bo'lmasa, muolajasidan foydalanaman, massaj, xil-ma-xil vannalarga tushib tarang asablarimni yumshatib kelaman, deb o'ylashardi.

Qaysi bir raykom kotibi kurortga ketsa, Normat rais orqasidan kassiri bilan yetib borardi. Sanatoriyga yaqin joydan ijara uy olib, kotibning xizmatini qilardi. Qish, hamma yoq qor, dam olish mavsumining eng zerikarli paytlari. Ana shunday paytlarda Normat ularning jonlariga oro kirardi. Kunora oshxo'rlik, norinxo'rlik kimga yoqmaydi, deysiz. Bir chemodan qazi, bir xalta O'zganning devzirasi, qog'oz qutidagi Dashnobod anori tugaguncha har kuni qozon qaynab turardi. Ana shunday kurort mavsumlarida Normat ko'p ishlarini bitkazib olardi. Kotiblar yosh bo'lsa, ota-bola, o'rta yashar bo'lsa qadrdon, keksaroq bo'lsa "farzand" bo'lib ketardi.

Bir gal Risqiyev degan raykom kotibining orqasidan borganda ishi yurishmadi. Uning oshqozoni xastaligidan faqat parhez taom yeyar ekan, "bazmi jamshidga" bormadi. Ukol olib, dori ichib, sanatoriydan chiqmadi. Normat begonalarga yediradigan anoyilardan emasdi. Shuncha yo'l bosib, olib borgan narsalarini qaytarib olib keldi. Esiz shuncha pul. Ikki kishiga borish-kelish palon pul, deya afsuslandi.

Ba'zan u kayf qilgan paytlarida: "paloncha" kotibmi, nima deb o'tiribsan, gah, desam qo'limga qo'nadi, yo'rig'imga yurmay ko'rsin-chi, o'g'liga mototsiklni kim olib bergan, Normat akang olib bergan, deb maqtanardi.

Uning bu xil qiliqlarini Ergashvoy yaxshi bilardi. Shuning uchun ham undan uzoqroq yurardi.

Tashqaridan mashina ovozi eshitildi. Sedanalik oltita issiq non, shisha bankada asal ko'tarib, ordenlarini jaranglatib, xandonxushon Normat kirib keldi. Egnida yangi kastum, boshida taxtakachdan yangi chiqqan chust do'ppi. Soqoli hafsala bilan olingan. Ikki lunji xuddi archilgan shaftoliga o'xshardi. Budyonniynikiga o'xshagan shop mo'ylovi lok surtilgandek yaltirardi. Undan gupgup atir hidi anqiydi.

U yo'l-yo'lakay javrab kelardi:

— Qarang, rovna o'n to'qqiz minutda yetib kelibman, — dedi u bilagidagi soatiga qarab. — Uyingiz bilan mening uyim orasi 19 minutli yo'l ekan.

Normatning bilagidagi shu soat bir vaqtlar Ergashvoyniki edi. U stipendiyasidan orttirib yig'ib yurgan puliga saudiyalik bir talabadan sotib olgan edi.

Bundan uch yil oldin kasaba soyuzlari qurultoyiga borganda delegatlar uchun maxsus ochilgan magazinda Belgiyada tikilgan ayollar paltosi sotilayotgan edi. Ergashvoy bittasini tanladi. Yonidan pul chiqazib sanagan edi, 40 so'm pul yetmadi. Hayron bo'lib turgan edi, Normat rais kelib, birdaniga uchta paltoni qog'ozga o'ratdi.

— Bittasi xotinimga, beshik to'ylariga kiyadi. Bittasi kelinimga, yana bittasi... — Rais bir ko'zini qisib qo'ydi, — bir jononga. Nega serrayib turibsan? Olmaysanmi?

— Ozroq pul yetmayapti, — dedi Ergashvoy.

— Puling yo'q ekan, nima qilarding magazinga kirib? Ergashvoy bilagidan soatini chiqardi.

— Rais buva, shu soatni olmaysizmi, Shveysariyaniki, aniq yuradi. Normat soatni qo'liga olib qulog'iga tutdi.

— Eh-he, haftaning hamma kunlarini, qaysi oyligini ham ko'rsatar ekan. Qancha beray?

— O'zim uch yuz ellik so'mga olgandim. Siz ikki yuz so'm bera qoling.

— Undoq emas-da, ukaginam, yuz so'm bersam ham bo'lardi-yu, senga jabr bo'lmasin, deb yuz ellik so'm beraman.

U shunday deb peshtaxta ustiga uchta ellik so'mlik tashladi.

Bu voqeadan Ergashvoy ranjimadi. Qo'lidan ketgan qadrdon soatiga achinmadi. Xotinining paltoni ko'rgandagi quvonchi oldida soat nima degan gap...

Normatning og'zi gapdan bo'shamasdi:

— Bilardim, bilardim! Bir kuni jonajon viloyatimizga o'zingiz hokim bo'lishingizni bilardim! Viloyatimiz endi hokimga yolchidi, raman! Qani, birortasi ko'z olaytirib ko'rsin-chi? Bizga o'xshagan ish ko'rgan, tajriba orttirgan akalaringizga suyansangiz, dog'da qolmaysiz. Hammaga ishonavermang. Kimga qanaqa muomala qilishni o'zim aytib turaman. Mana, nonushtaga Urgutning asalidan olib keldim. Ma'qul bo'lsa, ertaga bir flaga tashlab ketaman.

Ular endigina bir piyoladan choy ichishgan edi, ko'cha tomondan DAN mashinasining tovushi eshitildi.

— Qani, ketdik, — dedi Ergashvoy.

Tashqarida viloyat shofyorlarining "ofati" — DAN inspektori kutib turardi. Sigir bilan buzoqni ham shu yerda ko'rib, Normat hayron bo'ldi.

— Normat aka, meni kim deb o'yladingiz? Sigiringizni olib keting! Men bunaqa suyunchilarga o'rganmaganman.

— Iya-iya, qiziq bo'ldi-ku! Men dildan chiqarib...

DAN inspektori sigir-buzoqning arqonini raisning qo'liga tutqazdi.

— Qani, ketdik, aka! Men yo'l boshlayman. Orqadan shoshilmay yetaklab kelaverasiz.

Normat iltijo bilan Ergash Nosirovga qaradi.

— Bu qanaqasi bo'ldi, ukam? Agar shunchalik bo'lsa, odam yuboraman, olib ketishadi.

— Yo'q, o'zingiz haydab ketasiz!

Ergashvoy shunday dedi-yu, ichkariga kirib ketdi. Mashina qo'zg'aldi.

— Orqamdan qolmang! — deb buyurdi inspektor.

Inspektor aytganini qiladigan qaysar odam edi. Uni gapga ko'ndirib bo'lmas edi. Normatning o'g'li yo'l qoidasini buzgani uchun hujjatlarini oldirib qo'yganda, rais olti marta yalinib borib ham uni gapga ko'ndirolmagan. Qaytadan imtihon topshirishga majbur qilgan. O'tolmagan. Hozir unga yalinib-yolvorishdan ish chiqmasligini biladi. U imillab borayotgan mashina orqasidan sigirni sudrab borardi.

Ertalab ishga ketayotganlar, avtobusdagilar, mashinadagilar unga ajablanib qarashadi. Yo'lovchilar ko'kragi to'la orden, savlatli kishining sigir yetaklab kelayotganini ko'rib ajablanishardi. Odamlar ko'p sut beradigan sigirni viloyat ko'rik-tanloviga olib ketyapti, shekilli, deb o'ylashardi. Ammo Normat, obro'li odamning jasadini qabristonga olib ketayotgandek, mashina orqasidan buyuk bir motamsarolik bilan borardi.

— Jon uka, birorta yuk mashinasini to'xtatib ber. Chiqazib olay.

— Mumkin emas, o'zingiz piyoda yetaklab borasiz!

— Hech bo'lmasa, sigir yetaklashga birorta odam topib ber, qancha so'rasa, beraman!

— Mumkin emas. O'zingiz oborasiz. Bilasizmi, sizning vazningizdagi odam kuniga o'n besh kilometr piyoda yurishi kerak. Boshingizni ko'tarib yuring, televizorga olishyapti.

Normat do'ppisi bilan yuzini berkitdi. U hech qayoqqa qaramas, yuzi yopiq bo'lgani uchun yo'lni ko'rolmay har qadamda qoqilardi.

Yo'lda uchragan odam borki: "Sigir necha pul bo'ldi? Yo sotgani olib ketyapsizmi?" — deb qayta-qayta so'raydi. Normatning tili gapga kelmaydi. Mum tishlagandek, gung bo'lib olgan.

Shahardan chiqish yo'li kovlangan, vodoprovod quvurini almashtirishayotgan edi. O'tib bo'lmadi. Taxminan bir yarim kilometr orqaga qaytib, boshqa yo'ldan keta boshlashdi.

— Jon ukam, shu sigirni ham olaqol, men ketdim! — dedi zarda bilan Normat rais.

— Menga sigir kerak emas, o'zingizga buyursin!

— Duch kelgan odamga tekinga berib yuboraman.

— Bo'lmaydi, — dedi inspektor. — Xalq mulkini ko'z qorachig'iday asrash kerak, rais!

Shu alpozda ular shahar chekkasiga chiqishdi. Inspektor mashinasini to'xtatdi. Ratsiya orqali allakim bilan gaplashdi. Keyin:

— Bu yog'iga yo'lni o'zingiz bilasiz, men ketdim, — dedi-yu, mashina tezligini oshirib, jo'nab ketdi.

Rais sigir-buzoq bilan ko'cha o'rtasida qoldi...

* * *

To'rt kundan keyin viloyat xalq deputatlarining sessiyasi bo'ldi. Har gal shunaqa yig'in oldidan Normatvoy atrofiga odam to'plab, latifa aytib kuldirar, ba'zi kichik rahbarlarning yurishini qilib ko'rsatardi. Bu gal Normat rais hammadan oldin zalga kirib, bir o'zi o'tiribdi. Boshqalar majlis oldidan gurunglashib yurishibdi.

To'rt kun oldingi voqea allaqachon ovoza bo'lib ketgan. Bugun, albatta, uning taqdiri hal bo'ladi, deb o'ylashardi. Zal odamga to'la. DAN inspektori hay'atda o'tirgan Ergash Nosirovga nimadir deb, orqaroqqa borib o'tirdi. Normat raisning ichida bir nima uzilib ketganday bo'ldi. Ko'zlari tinib, boshi g'uvulladi.

Hokim viloyatda chorvaga qishki ozuqa tayyorlash yomon ahvolda ekanligi to'g'risida aniq faktlarni keltirib, ma'ruza qildi. Ko'pgina xo'jalik rahbarlari ayovsiz tanqidga uchradi.

Normat, endi menga navbat keldi deganda, hokim boshqa masalani boshlaydi. Yuragi tars yorilayozgan Normat, mening masalam oxirida bo'ladi, shekilli, deb hukm kutayotgan sudlanuvchidek karaxt bir alpozda edi. Oxirida video ko'rsatib, sharmanda qiladi, deb atrofga javdirab qarardi.

Normat rais to'g'risida gap bo'lmadi. Shu bilan qutuldimmikan, deb o'ylardi u.

Uch-to'rt oy vaqt o'tdi. Normat raisning viloyat markazi ko'chalarida sigir yetaklagani odamlarning esidan ham chiqib ketdi. Bu orada viloyat miqyosida qancha-qancha yig'inlar o'tdi, faollar majlisi bo'ldi, xalq deputatlari sessiyasi bo'ldi. Biroq hokim hamon jim edi. Shu yig'inlarning hammasida Normat rais yuragini hovuchlab o'tirdi. Chaqirishmasa ham bordi. Men yo'g'imda

masalamni hal qilib qo'yishmasin, deb hadiksiradi. U ozib, shop mo'ylovlari osilib qoldi. Shu alpozda hadik bilan yashash raisning joniga tegdi.

Shuncha yil raislik qildim, Xudoga shukur, uyim bor, joyim bor, mashinam bor, bola-chaqamni uyli-joyli qildim, bas endi – ishni topshirishim kerak, degan o'yga keldi rais. U umrida biror marta ariza yozmagan, xat bitmagan. Qog'ozlarga imzo chekib yuravergan ekan, ariza yozish, nainki ariza, oddiy xat yozish ham shunchalar qiyin ekanini endi bildi. Ikki soat o'tirib besh-olti varaq qog'ozni qoraladi, kelishtira olmadi. Oxiri u kotib bolani chaqirib, ariza yozib berishni buyurdi.

— Charchadim, rahbarlik ishiga chog'im kelmay qoldi. Vazifamdan ozod qilishingizni so'rayman, deb yoz!

Kotib, nega, qo'ying, unaqa qilmang, demadi. U hamma vaqt rais nima desa, aytganidan ham afzal qilib qog'ozga tushirgan.

Normat rais ertalab soqolini qirtishlab, ordenlarini taqib, viloyat hokimligiga ariza topshirish uchun bordi. Hokimning oldida odam bor ekan. Kotibadan arizani kiritib yubordi. Ichkaridagi odam chiqib ketdi hamki, hokim uni chaqirmadi.

— Ey qizim, menga qara, men kelganimni hokimga aytdingmi? — dedi u toqati toq bo'lib.

— Yo'q, — dedi kotiba. — Arizangizni berdim, xolos.

— Jon bolam, kirib ayt, oldingizga kirmoqchi, deb ayt!

Kotiba ichkariga kirib, bir dasta qog'oz ko'tarib chiqar ekan: "Kiring, kutyaptilar", — dedi.

Normat rais jur'atsizlik bilan eshikni ochdi. U, albatta, meni bo'shatadi, bu dargohga oxirgi marta kirishim, deb ko'nglidan o'tkazdi. Hokim qandaydir bir jiddiy hujjatni o'qiyapti, shekilli, uning kirganini sezmadi. Ordenlarning jiringlashini eshitib, boshini ko'tardi.

Ergashvoy o'rnidan turib kutib oldi. U rais bilan kresloda o'tirib emas, divanda yonma-yon o'tirib gaplashdi.

— Nima bo'ldi? Ishlamayman, deb ariza yozibsiz?

— Ha-a, endi, — dedi rais. — Shuncha ishladim, yetar, endi bu azoblarga chiday olmayman.

— Sizga kim azob beryapti, ayting?

— Siz! — dedi Normat. — To'rt oydan beri kutaman. Necha-necha yig'inlar o'tdi, ammo mening masalamni majlisdan majlisga qoldirasiz. Qo'ying, o'ladiganning o'lgani durust, uydagilarning tingani durust.

— Sizga kim aytdi, masalangiz ko'riladi, deb?

— Yosh bola emasman, o'zim bilaman. Ergashvoy qizishib ketdi.

— Menga qarang, rais aka! Sizga hech kim azob berayotgani yo'q, siz o'zingizga o'zingiz azob beryapsiz. Bu yaxshi. Odam o'z qilmishi uchun o'zini o'zi jazolay olsa, o'ziga o'zi azob bera olsa, u odamga ishonsa bo'ladi. Siz yaxshi raissiz, ishni bilasiz, xo'jaligingiz viloyatda eng namunali xo'jalik. Bu jihatdan ko'nglim to'q. Siz ishlaysiz! Arizangizni o'zingiz yirtib tashlaysizmi yo esdalikka menda qolsinmi?

Raisning Budyonniynikiga o'xshagan mo'ylovi titradi. Nima uchun o'rnidan turganini o'zi ham bilmadi. Nima uchun hokim tomonga qo'l uzatdi — eslay olmadi. Arizamni qaytib bera qoling, demoqchi edi, shekilli. Ergash Nosirov uning ochiq kaftiga to'rt buklangan arizani qo'ydi. Normat qog'ozni burda-burda qildi-da, qayoqqa tashlashini bilmay, oxiri cho'ntagiga soldi.

— Kelishdik-a? — dedi hokim. — Har xil xayollarga borma-ng, ishingizni davom ettiravering!

Normat rais u bilan xayrlashayotganda negadir gavdasining og'irligini sezmadi. Eshik tutqichiga endi qo'l uzatgan edi, hokim uni to'xtatdi.

— Sizga bitta gap aytay, aslo esingizdan chiqarmang, ko'ngilingizdagilarni olib qo'ying. Bularni bergan hukumat allaqachon yo'q bo'lib ketgan.

Oradan to'rt oy o'tib, viloyat hokimi Ergash Nosirov pochasining yil oshini o'tkazdi. Odam ko'p keldi. Ular orasida Normat rais ham bor edi. Ammo unga hech kim e'tibor bermadi. Hatto tanishmadi ham. Ko'pchilik uning ko'ksidagi ordenlarga qarab, yuzining qanaqaligiga uncha e'tibor bermagan ekan. U el qatori osh yeb chiqib ketdi.

1998-yil

AZROIL O'TGAN YO'LLARDA

(Sobiq sho'ro tergovchilari qo'lida azob chekkan yurtdoshlarimga bag'ishlayman)

Zo'r kurash ko'ramiz, deb kelganlarning hafsalasi pir bo'ldi. Birinchi davradayoq kurash alanga olmay, cho'g'ligicha qoldi.

Ikki polvon yarim soatdan beri hadis olib, tomoshabinlarni zeriktirib yubordi. Davrada o'tirganlarning toqati toq bo'ldi.

— Ajrim qivoringlar, kurash ko'rgani kelganmiz!

— Jalol polvon chiqmasa, kurash qizimaydi. Jalol chiqsin.

Jalol polvon yetmish yoshlarga borgan, ellik yildan beri kurash tushadi, shu paytgacha kuragi yer ko'rmagan polvon.

Ishqibozlar uni behudaga kurashga chaqirishayotgan edilar. U davraga chiqqani bilan talabgor bo'lmagani uchun qayta joyiga borib o'tiradi. Kurashaman, deb kelganlarning ko'pchiligi undan yengilgan, hammasining alami ichida edi.

Ishqibozlar talab qilaverganlaridan keyin bakovul uni davraga sudrab chiqdi. Qo'lidan ushlab, o'rtada aylantirib yurdi.

— Mamlakatimizning mutlaq chempioni, yuzlab yosh chempionlarning ustozi Jalol polvonga talabgor bormi? — dedi u davraga murojaat qilib.

Hech kim chiqmadi. U bilan bir bellashsam armonim yo'q, deb kelgan o'spirin polvonlar odob saqlab jim o'tirishardi.

Orqa qatorda o'tirgan yigirma besh yoshlar chamasi bir yigit o'rnidan turdi.

— Men bellashaman!

Hamma unga qaradi. U tanasi xuddi cho'yandan quyilgandek, miqti bir yigit edi. Yelkalari keng, bilaklaridan mushaklari bo'rtib chiqib turgan, ochiq kaftiga bitta odam bemalol o'tirsa, yana ikki barmog'i ortib qoladigan bo'z yigit edi. Davrada kimdir hazil qildi.

— Voy-bo', badaniga mix qoqsang qayrilib ketadi-ku!

Kimdir, Jalol uni ikki yamlab, bir yutib yuboradi, deb yubordi. Jalol polvon, pisand qilmagandek, miyig'ida kulib turardi. Uning jilmayishi yosh polvonning nafsoniyatiga tegdi.

— Qo'y, bolam, men go'daklar bilan kurashmayman. O'z tenging bilan bellash, — dedi unga nasihat qilgandek.

— Yo'q, faqat siz bilan kurashaman. Bilib qo'ying, yengaman. Kuragingizni yerga ishqayman!

— Katta ketma, bola! Mening kuragim faqat o'lganimda — go'rda yotganimda yerga tegadi.

"Mayli, mayli, bellashsin, bolaning sazasi o'lmasin, xo'p deng, polvon buva!" degan ovozlar chiqdi.

Bakovul ikki tomonning roziligini olib: "Bo'stonliqlik Jalol polvon yozyovonlik Ermat polvon bilan bellashishga rozi bo'ldi!" — deb e'lon qildi.

Jalol polvon yerga o'tirib etigini yecharkan, qilayotgan ishi o'ziga kor qilib, endi kuning shu mishiqi go'dakka qoldimi Jalol, shu norasida bolani yengib, nima obro' topasan, derdi ichida.

Ermat polvon esa uni pisand qilmay, yengaman, degandek mag'rur turardi. Uning bu "surbetlarcha" turishi Jalol polvonning g'ashini keltirdi. Endi o'zingdan ko'r, bola, deb o'rnidan turdi.

Bakovul ularning belbog'larini boshqatdan bog'lab, omin, deb fotiha berdi.

Jalol polvon beparvo edi. Qani, bir urinib ko'rsin, deb qo'yib berdi. Ermat uning belbog'i orqasiga qo'lini suqib, bilagiga uch marta o'radi. Jalol polvon xotirjam edi. Ermat: "Yo Egam, o'zingdan madad!" dedi uni bir siltab ko'tarib, oyog'ini yerdan uzdi. Yana bir marta silkinganida ko'kragigacha chiqardi, turgan yerida ikki aylanib, chap yonboshiga otdi. U bolalar choynak qopqog'ini burab qo'yib yuborgandek chir aylanib, yana qimirlamay turib qoldi.

— Endi, bas, xumordan chiqdingmi, — dedi u raqibining qulog'iga. — Endi navbat menga! — u shunday deb Ermatni bir siltab ko'tardi-yu, yerga otdi. U yerga chalqancha tushdi. Jalol polvon tik turgancha engashib uning ikki yelkasidan bosdi. Ermat tipirchiladi. Raqibining chayir qo'llari hamon uning yelkasini yerga qapishtirib turardi. Shunda... Shunda Jalol polvon raqibining o't chaqnagan ko'zida go'daklar yig'laganda oqadigan shaffof, bokira yoshlarini ko'rib, seskanib ketdi. Uning yelkasidan qo'lini olib, ajib bir mehribonlik bilan qo'lidan tortib turg'azmoqchi bo'ldi. Ammo Ermat uning qo'lini siltab tashladi.

Ermat o'kirib-o'kirib yig'ladi. Bu yig'i Jalol polvonning yurak-bag'rini o'rtab yubordi. Bolam, yig'lama, ko'z yoshingni yut, birov ko'rmasin, dedi uning qulog'iga shivirlab, Ermat shu zahoti yaktagining yengini ko'ziga surtdi. Uvol, uvol, derdi Jalol polvon. Mana shu bola mening o'rnimga qoladi. Uyat ish qilib qo'ydim. Bolaning shoxini sindirdim. Attang, attang... Jalol polvon gulduros qarsak tovushlari ostida davradan chiqib ketdi. Etagini tutib pul yig'madi. Yong'oqzor oralab uyi tomon ketdi. Yo'l-yo'lakay, bu yengganimmi, deb o'zidan o'zi so'rab borardi. Yengilganim, yengilganim! Mayda bolalar bilan bel olishadigan bachkana polvon bo'lib qoldingmi, Jalol, derdi boshini sarak-sarak qilib.

Ertaga javob bellashuvi bo'ladi. Nima qilay? Bellashmasam, polvonlik sha'nim tuproqqa qorishadi. Bellashsam-u, atayin yiqilib bersam, unda nima bo'ladi? Polvonlik g'ururimni qayoqqa yashiraman...

Shunday xayollar bilan ketar ekan, yaqin orada ayol kishining qiqirlab kulgani eshitildi. Alanglab qaradi. Uch tegirmon suv oqadigan soy bo'yidagi xarsang ustida o'g'li Qo'chqorvoy Nurim sartaroshning kelini Odinani bag'riga bosib o'pyapti. Odina qiyshanglab kular, Qo'chqorning yuziga beozor shapatilardi. Soyning shovullashidan ular oyoq tovushini eshitmasdi. O'z ishlari bilan mashg'ul edilar. Qo'chqor Odinani tizzasiga o'tqazib olib, yuz-ko'zlaridan, lablaridan tinmay o'pardi.

Jalol polvon nima qilishini bilmay serrayib turib qoldi. Qo'chqorning yerga tushgan do'ppisini olayotgan Odina sapchib o'rnidan turib ketdi.

— Voy, men o'lay... dadangiz! Sharmanda bo'ldik! — dedi-yu, tugmalari qadalmagan harir koftasini ochiq qolgan oppoq ko'kragiga bosganicha qochdi.

Qo'chqor nima qilishini bilmay, dadasiga qarab turgach:

— Yigitchilik-itchilik ekan-da, dada, — dedi. — Bu ahmoq, erimni turmadan chiqarmasang, o'zimni suvga tashlayman, deb...

— Durust, durust... Bir odamgarchilik qipsan-da, barakalla! Agar quchoqlab turmaganingda, bag'ringga bosib, tomog'ining tagidan o'pmaganingda, albatta, o'zini suvga otardi. Menga qara,

ko'ppak, xotiningning oldiga shu alpozda borma! Yuzingni artib ol, hamma yog'ing qip-qizil lab bo'yog'i bo'lib ketibdi.

Jalol polvon g'udrana-g'udrana nari ketdi.

Polvon o'g'lining shu juvonga aylanishib qolganini bilardi. Odinaning eri qamalmasdan burunoq boshlangan edi bu savdo.

Nurim sartaroshning o'g'li Sobit zo'r Odinani Chustning Olmosidan opqochib kelgandi. Husni bir dunyo, yuzi sutga chayqab olingandek, ko'zlari-ku... Bu dunyoda unaqa ko'z bo'lmasa kerak. Mashhur rassom Chingiz Ahmarov uni Nanayda ko'rib qolganda bu juvonning ko'zlarida lazer nuri bor, qaragan joyiga o't qo'yadi, degan edi. Qo'chqor ohudek hurkagich shu dilbarga ilakishib qoldi. Necha marta uchrashuvga chaqirdi, kelmadi. Eridan qo'rqdi. Eri uni haddan tashqari rashk qilardi.

Sobit zo'r qishloqda tizginsizligi bilan mashhur edi. Ko'ngliga kelgan har qanday ishni tap tortmay qilib ketaverardi. Ba'zan u iki-uch oylab yo'q bo'lib ketar, poyezdlarda lo'lilarga qo'shilib qimor o'ynar, yo'lovchilarni qarta o'yiniga tortib, cho'ntaklarini qoqlar edi. U yo'q paytlarida qishloq tinchib qolardi. Odamlar Sobit yo'g'ida qishloq dam oladi, deyishardi. Ba'zan u bor-bud-shudini yutqazib, uyiga qorong'i tushganda maykachan qaytib kelardi. Besh-o'n kun uyida "mo'min-qobil" bo'lib yurardi-da, yana sigirmi, buzoqnimi o'g'irlab, lo'lilar to'dasiga qaytar, sigir-buzoq egalarini kelgan paytlarda bir xalta pul bilan saxiylik bilan rozi qilib, o'z ko'nglida gunohlardan forig' bo'lardi.

Sobit zo'r Odinani Olmosdan opqochib kelgandan keyin nomi o'ziga yarashmay qoldi. Xuddi onasi boshqatdan tug'gandek yaxshi bola bo'ldi-qo'ydi. Qo'ni-qo'shnilar Sobitga Xudo insof berdi, deb sevinishdi.

Sobit otasiga qo'shilib, to'y-ma'rakalarga boradi. Nurim sartarosh ichkariga — qariyalar oldiga kirib ketganda Sobit tashqarida qolib, samovarchiga qarashar, keldi-ketdiga choy tashir, oshpazga o'tin yorib berardi. Uning bir chiroyli qobil bola bo'lganidan sevingan hamqishloqlar: "Qarang-a, Xudo insof beraman, desa hech gap emas ekan", deyishardi.

Sobit Odinani yer-ko'kka ishonmasdi. Odina esa bu erkalashlardan taltayib ketgan edi. Ro'zg'or ishlariga qo'l urmasdi. Hat-

to yechib tashlagan kiyimlarini qaynonasining oldiga tashlardi. Ovqatni yeb, idish-tovoqni yig'ishtirmay, indamay turib ketaverardi. Qaynonasi javrab-javrab kir yuvar, javrab-javrab hovli supurar edi. Ba'zan u eriga nolib qolardi:

— Nega indamaysiz, boshimizga chiqib oldi-ku, qaynotamisiz, nimasiz? Men kimman? Qaynonamanmi, kelinmanmi? Mundoq nasihat qilib qo'ysangiz bo'lmaydimi?

Nurim sartarosh bosiqlik bilan javob qilardi:

— Qo'y, xotin, ko'pam zorlanma. O'g'ling shunga andarmon bo'lib, qimorboz do'stlaridan kechdi. Yomon qiliqlarini tashladi. Shu kelin deb yurtga qo'shilib qoldi. Ikki marta juma namoziga ham olib bordim. Keliningdan nolima, unga rahmat de. O'g'ling hozir misoli Majnun.

Sobit har kuni kechqurun jomda issiq suv opkirib, xotinining oyog'ini yuvib, oppoq sochiqqa artar, tirsillab turgan boldirlariga shapalatib urib qo'yardi. Keyin uni dast ko'tarib to'shakka yotqizardi. Odina bu xizmatlarga mukofot sifatida uzuk taqilgan barmoqlarini uning peshanasiga tegizib o'pib qo'yardi.

Sobit hali tong yorishmay yelkasiga miltiq tashlab tog'ga chiqib ketardi. Tun salqinida qanotlari karaxt bo'lib qolgan besh-to'rtta kaklik urib kelardi. Xotini uyqudan turguncha kakliklarning patlarini yulib, tozalab, tuzlab qo'yardi. Odina hovliga chiqqanda shamol uchirib yurgan patlarni ko'rib, burnini jiyirardi. "Shu kaklik o'lgur ham jonimga tegib ketdi-da", — deb norlirdi.

Sobitga otasi, bolam, o'rtoqlaring hasharga aytsa, qolmagin. Endi sen yurt ichiga kirib qolding. Keksalar oldidan salomsiz o'tmagin, o'tirgan bo'lsang, o'rningdan turib salom bergin, deb nasihat qilardi. Onasi bo'lsa uning ko'ylaklarini juhud domlaga oborib dam soldirardi. U yozib bergan allaqanday qog'ozlarni choyga ivitib ichirardi.

Kunlarning birida eshik taqillab qoldi. Sobit eshikni ochsa, ostonada mashhur rassom Chingiz Ahmarov turipti.

— Keling, mulla aka, — dedi Sobit unga hayron qarab.

— Kelinning suratini ishlashga ruxsat bersangiz. Parij ko'rgazmasiga yuboraman.

Sobitning bundan besh oy oldingi qoni ko'pirdi. Panjalari mushtga aylandi.

— Qani, yaxshilikcha jo'nab qoling, bo'lmasa, bir kor-hol bo'ladi. Meni kim deb o'yladingiz, xotinini tomoshaga qo'yadigan hezimkashlardan deb o'yladingizmi?

Ahmarov bir so'z aytmay orqasiga qaytdi. U shunaqa javob bo'lishini avvaldan bilardi. Zora unga Xudo insof berib rozi bo'lsa, deb o'ylagandi.

Lekin bu beqiyos iste'dodli rassomda bir-ikki marta ko'rgan odam qiyofasini yoddan chiza olish qobiliyati bor edi. Baribir ishlayman, deya diliga tugib qo'ydi.

Qo'chqor Odinaga yetishish uchun bor hunarini ishga soldi. Sobitni ho'kiz o'g'irladi, deb qamadi. Tergov paytida mototsikl ham o'g'irlagansan, deb soxta guvohga to'para qildi. O'zi uning tomiga tashlab qo'ygan bir xalta ko'knorini ham "delo"ga yopishtirdi. Sobit sakkiz yilni bo'yniga olib ketdi-yu, xotini militsiya tergovchisi — kapitan Qo'chqor Jalolovga qoldi. Xohlagan paytida uchrashib, aysh-ishrat qilishga imkon yaratildi. Bir kun Odina unga erkalanib, o'lsin, to'nka erimdan aynigan tuxumning hidi kelardi, deb kuldi.

Yaqinda, bir haftacha bo'ldi, Sobit turma qorovulini o'ldirib qochgan emish, degan gap tarqaldi.

Bu gapni eshitgan Nurim sartarosh bolasidan umidini uzib qo'ydi. Endi uni eplab bo'lmaydi. Bu bola qon to'kib qo'ydi. Uning ichidagi ajdar uyg'onib ketdi. Endi u duch kelganga o't purkaydi, duch kelganni g'ajib tashlaydi, deb afsus-nadomatlar chekdi.

Shu tobda ko'zi oldida bo'lib o'tgan hodisa Jalol polvonga negadir ta'sir qilmadi. Uning xayoli ertaga bo'ladigan kurash bilan band edi. Nima qilsin, bellashmasa, Jalol polvon qochdi, deyishadi. Bellashsa, bir navqiron yigitning dili vayron bo'ladi. Ermat yengilsa, kurashga qo'l siltab, ikkinchi marta davraga chiqmaydigan bo'lib ketadi. Agar unga yiqilib bersa, ellik yil yelkasi yer iskamay kelgan, shu oxirgi kurashdan keyin polvonlikni tashlab, umrining qolganini toat-ibodat bilan o'tkazaman, deb ahd qilib qo'ygan. Kurash — boshqalarga tomosha. Polvon uchun esa

Ermat sira belini bermasdi. Hamla bilan bir-ikki marta uni ko'ksiga qapishtirdi ham. Ammo Ermat bir kuchanganda Jalol polvonning baquvvat qo'llari uzilgan zanjirdek belbog'dan chiqib ketardi. Jalol polvon payt poylab uni bag'riga bosdi. "Yu Tangrim!" deb oyog'ini yerdan uzdi. Hamma jim. "Jalol yutdi, Jalol hozir uni yerga qapishtiradi", degan ovozlar eshitildi. U raqibini endi yonboshga olmoqchi bo'lib turganda yong'oqzordan ketma-ket ikki marta o'q tovushi eshitilib qoldi. Hamma yong'oqzor tomonga qaradi. Otilgan o'q go'yo Jalol polvonning qon tomiriga, mongа qaradi. Baquvvat paylariga tegganidek bo'ldi. Bir dam qoni aylanishdan to'xtagandek, paylari dutorning tarang ipларiga suv sepilgandek bo'shadi-qoldi.

— Ur, ur, bolam! — dedi Jalol polvon ingrab. — Shu topda yerga otmasang, keyin meni yengolmaysan!

Ermat nima bo'layotganini tushunmasdi.

— Ur, shoshib turibman! Zudlik bilan ketishim kerak, ur!

Ermat uni dast ko'tarib o'ng yonboshga otdi. Jalol polvon ikki qulochini yozguncha yerda yotar ekan: "Yengding, yengding, boq

kelardi. Uning yuzlarida, bo'yinlarida, ko'kraklarida qip-qizil lab bo'yog'ining izlari aniq ko'rinib turardi.

Shu topda o'lgan Qo'chqor emas, Gulandom edi. Orzulari, ko'ksida yongan olovdek muhabbat, erkalanishlari bir zumda jon berdi-qo'ydi.

Marhumning yigirmasi o'tguncha ham Gulandomning ko'zida hech kim yosh ko'rmadi. Go'yo u erining emas, begonaning ma'rakasida yurgandek edi.

Qulog'idan ziragini, bo'ynidan shoda-shoda marvaridlarini, barmoqlarida chaqnagan uzuklarini olib qo'ymadi. U azador uy sohibasi emas, to'y egasidek edi.

Gulandomning boradigan joyi yo'q edi. To'yda kelin tomondan bironta tirik jon kelmagandi.

Polvon o'g'il uylasam, qudalarim bilan bordi-keldi qilsam, deb orzu qilardi. Afsus, unday bo'lmadi.

Qo'chqor Ohangaron tomonlarda militsiya tergovchisi bo'lib ishlardi. Bir to'yda Gulandomga ko'zi tushadi-yu, halovatini yo'qotadi. Yotsa ham, tursa ham, ko'zidan Gulandom ketmaydi. Necha marta yo'lini to'sib, gapga solmoqchi bo'ladi. Ammo qiz yovvoyi kaptardek unga tutqich bermas, oshiq yigitning yolvorishlarini elamas edi. Oxiri Qo'chqor ko'pdan sinalgan usulini qo'llaydi. Gulandomning ukasini, mototsiklda odam urib ketgan, deb qamab qo'yadi. Gulandom bosh egib, Qo'chqorning oldiga borishga majbur bo'ladi. U qiladi, bu qiladi, qizning u yog'idan o'tadi, bu yog'idan o'tadi, aldaydi, avraydi. Falon vaqt falon joyga kel, ukangni ko'rsataman, deydi. Shunday uchrashuvlardan keyin Gulandomdá Qo'chqorga moyillik sezila boshlaydi. Qiz tegadigan bo'ladi, Qo'chqor uylanadigan bo'ladi. Qo'chqordan qiznikiga sovchi keladi. Ota unamaydi. Jallodga beradigan qizim yo'q, deb uzil-kesil javob qiladi.

Gulandomning onasi eriga yotig'i bilan tushuntirmoqchi bo'ladi.

— Rozi bo'ling, dadasi, bo'lmasa, sharmandamiz chiqadi. Yigit o'lgur qizimizni boshqa erga tegolmaydigan qilib qo'ygan.

Xotinining gapi og'zida qoladi. Ota sapchib o'rnidan turib, ichkari uydan Gulandomning sochidan sudrab chiqadi. Ko'cha eshigidan itarib chiqaradi.

— Ikkinchi bu uyda qorangni ko'rmay! Oq qildim, — deydi...

Gulandom kechalari ayvon dahaniga o'tirib, shum taqdirini qarg'ardi. Begona xotin qo'ynidan chiqib kelgan nahs er bilan yotganiga o'ksib-o'ksib yig'lardi.

Shunday paytlarda bu pushti kuygan, zurriyotsiz erining go'riga o'tlar qo'yib yuborgisi kelardi.

Jalol polvonning buyragiga birdan og'riq kirdi. Chidab bo'lmas bu og'riqqa Jalol polvon tishini tishiga qo'yib chidab berdi. Uch kun ma'rakaga kim keldi, kim ketdi, bilmasdi. O'zi bilan o'zi ovora edi. Oxiri u belini ko'tarolmay, bukchayib qoldi. Doktorlar og'riqni bosadigan ukol qilishdi, baribir, sal fursatdan keyin yana og'riq boshlanaverdi.

— Bu uzoq davom etadigan dard, — deyishdi vrachlar. — Agar tezroq tuzalaman desangiz, Buxoroga boring. Davosi o'sha yerda. Buxoro sanatoriysidan shifo topasiz. Albatta, boring, yigirma kunda tuzalib qaytasiz.

Og'riq chidab bo'lmas bir holga keldi. Polvon jiyanini chaqirtirdi.

— Jiyan, ahvolimni ko'rib turibsan. Og'riq zo'rayib ketdi. Kelgunimcha bola-chaqang bilan shu uyga kelib tur. Hovlini shundoq tashlab ketaversam ham bo'laverardi. O'g'ri oladigan hech vaqo yo'q. Bilasan-ku, mol-dunyoga hirs qo'ymagan odamman. Ammo uyda birovning omonati bor. Jiyaningni o'rtog'i chet elga ishlagani ketgan. Manavi mashina bilan bitta chamadonni tashlab ketgan. Omonatga xiyonat bo'lmasin, deb haligacha itdek qo'riqlab o'tiribman.

— U darvozasi ochiq turgan garajga qaradi. Ustiga brezent yopilgan "Volga"ning g'ildiraklari ko'rinib turardi. — Ehtiyot qil, bolalaring chizib-netib o'tirmasin.

Qo'chqorning hovlisi polvonning uyidan olti eshik narida. Toshkentning eng yaxshi ustalari qurgan. Tagi yerto'lali sakkiz xona uy. Hammasiga cho'g'dek yonaman deb turgan gilamlar to'shalgan. Shiftlarida billur qandillar. Javonlarda yapon, xitoy, nemis chinnilari. Hovli o'rtasida favvorali to'rtburchak hovuz. Polvon xonlarning saroyidek hovlini ko'rganda, bolam, uch uylanding, Xudo senga farzand bermadi. Bolang bo'lmasa, chaqang

bo'lmasa, shuncha uyni nima qilasan, dedi. Er-xotinga ikkitagina xona bo'lsa yetardi-ku, deganda Qo'chqor gapga chap berib, ha endi, bu ham bir ishqibozchilik-da, degandi.

Ostonada eshik kesakisiga suyanib Gulandom turardi. U uzoqqa ketayotgan qaynotasi bilan xayrlashgani kelgan.

— Bolam, — dedi polvon unga, — azador xotinsan, bo'yningdan, quloqlaringdan anavi yaltir-yultirlarni olib qo'y. O'zbekchilikda ayb bo'ladi. Do'st bor, dushman bor, o'zingni ehtiyot qil. Endi seni qo'riqlaydigan ering yo'q. Hayhotdek hovlida bir o'zing qolyapsan. Qulog'ingdagi zirak juda qimmatbaho buyum emish. Samovardagi choyxo'rlar ermak qilib, polvonning kelini ikkita "Volga"ni qulog'iga ilib yuribdi, deyishyapti. Uyda yolg'iz yotma. Xayr endi, sog'-omon bo'linglar. Sizlarni Allohga topshirdim. Men Buxoroyi sharifga ketdim.

Jalol polvon to'nini yelkasiga tashlab, kafti bilan o'mganini bosib, inqillab, safar anjomlari solingan xaltani arang ko'targancha bukchayib chiqib ketdi.

Yetmish yil yashab biron marta dardga chalinmagan, faqat bolaligida qizamiq bo'lgan, ko'kyo'tal bo'lgan Jalol polvon umrimning qolganini ham ana shunday doktor-u dori nimaligini bilmay o'tkazaman, deb o'ylagan edi. Bandasining aytgani bo'lmas ekan. Dard ham, darmon ham Xudoning irodasidan. Hech kasal bo'lmagan odam dardni og'ir ko'taradi. Jalol polvon besh kun bosh ko'tarmay, shiftga boqib, oh-voh qilib yotdi. Umrida olmagan ukollarni oldi. Ko'ngli aynib-aynib, qo'lansa dorilarni yutdi.

Mana, besh kun o'tib, endi ko'zini ochdi. Shunda qayerda yotganini bildi. Atrofiga qaradi. Palatada undan boshqa yana uch bemor bor edi.

Ular yetmishga yetib-yetmagan, ko'p dard tortganliklari shundoqqina bilinib turgan kishilar edi. Birining iyagi asabdan ba'zi-ba'zida chap tomonga tortadigan, biri andak duduqlanadigan, biri oyog'i nogiron odam edi.

Yursa yer silkinadigan, orqasi bitta stul o'rindig'iga sig'maydigan Jalol polvon besh kunda bir burdagina bo'lib qoldi.

Tog'-u archazorlarning shaffof havosiga o'rgangan bu odam dard bilan bo'lib, dori hidiga to'lgan palataning bo'g'iq, qo'lansa bo'yini sezmagan ekan. Joni sal orom olib, endi sezyapti.

— Mehmon ako, bizde jido qo'rqitib yubordingiz-ku! Xayriyat, ko'zdi ochdingiz. Xudo xohlasa krizis o'tdi. Aparasiyaga ko'nmang. Buyrak sabel nozik narsa. Tig' tegizib bo'lmaydu.

Jalol polvon iyagi chap tomonga tortadigan bu odamning gaplaridan buxorolik ekanini bildi.

— Man kafil, ko'rmagandek bo'lib ketasiz. Tomiringizga besh kundan beri gimodez degan dori tomizishadi. Bu dori qonni tozalaydi. Yo'q demay bilagingizni tutib beravering. Bu yer kasalxona emas, sanatoriy. Sizni shahardagi katta kasalxonaga olib ketishmoqchi edi. Ahvolingiz og'ir bo'lgani uchun bezovta qilishmadi. Endi hammasi o'tdi. Bu yog'iga o'zimizdi qo'li yengil do'xtirlarimiz davolayveradilar.

Hamshira qiz Jalol polvonga dori ichirib, chiqib ketayotganda duduqlanadigan bemor uni to'xtatdi:

— Sangcha bonu, mehmondi gulaysaga olib chiqsak maylimu?

— Oytimullodan so'ray-chi, — deb chiqib ketdi hamshira.

Jalol polvon: "Hamshiraning ismi qiziq ekan, bu Oytimullosi kim bo'ldi ekan", — deb o'yladi.

Birozdan keyin oq xalati o'ziga yarashgan navbatchi vrach kirdi. U ellik yoshlarni qoralab qolgan, yuzida bitta ham ajini yo'q, ko'hlik ayol edi. O'ng chekkasida taroqqa so'z bermagan zulfi qulfnusxa ziragiga ilinib turardi.

Oyog'i nogiron bemor tilga kirdi:

— Qayerlarga yuribsiz, Oyti? Ishqingizga o'llik-ku!

Oyti uning haziliga hazil bilan javob berdi:

— Boshqa palatalarga ham jazmanlarim ko'p, akamullo!

— Ayoqim mundoqchikin bo'lmaganda sizni o'zim opqochib ketardim.

— Undoq bo'lsa, oyog'ingizni shu bugunoq tuzatib qo'yganim bo'lsin, — u shunday deb yonidagi hamshiraga yuzlandi. — Aravachani olib kelib otaxonni bir bog' aylantiring. Tog' havosiga o'rgangan odam palatada juda qiynalib ketdi.

U bemorlarning qon tomirini o'lchab, "Zo'r, zo'r, yurak emas, parovoz. Ovqatdan qismasak, quturib ketibsizlar", — dedi.

— Undoq bo'lsa, bir kunga uyga javob bering, momoning quloqiga sekratniy gapim bor edi.

Oyti, yomonsiz, yomonsiz, rais bova, deya chiqib ketdi.

Ayollar kirgan palata birdan yorishib ketgandek bo'ldi. Ulardan quvonch va nur qoldi.

— Baraka topkur, zap fayzli ayol-da. Bemorning og'rig'ini ikki og'iz so'z bilan tuzatvoradi-ya!

Jalol polvon o'zim yuraman, deyishiga qo'yishmay, uch kishilashib uni aravachaga o'tqazib, tashqariga olib chiqishdi.

Havo ochiq, g'ir-g'ir shabboda esib turipti. Qo'lida stakan, piyola ushlagan bemorlar suv ichgani buloq tomonga ketishyapti.

Bu yerdan chiqqan buloq suvi naq buyrak kasalining tayyor davosi edi. Juda ko'p odamlar buyrak og'rig'idan voyvoylab kelib, shu suvdan shifo topib, xandon-xushon uylariga qaytib ketganlar. Uchta chol polvon o'tirgan aravachani navbatma-navbat itarib xiyobon aylanishar edi.

— Bu yerda ayollarning ismi qiziq ekan, — dedi Jalol polvon hayron bo'lib. — Sangcha, Oyti... bu nima degani? — Qo'ltiqtayoqda sudralib kelayotgan bemor tushuntira boshladi:

— Sizning Toshkentingizga Toshxon, Toshbibi degan ayollar bormi? Bale, bizning Buxor tiliga Sangcha degani Toshkent tiliga Toshcha degani. Onalari boshing toshdan bo'lsin, do'xtarim, deb shunaqa ism qo'yadilar. Oyti degani asli Oyto'ta degani. Bu Oyxola degan ma'no beradi, o'rislarning tyotya degan so'zi ham shundan olingan bo'lishi kerak. Sizlar erkaklarni mulla aka deysizlar, biz akamullo deymiz, opamullo deymiz. Do'xtir opaning ismi dakumentga boshqacha. Ya'ni Istat Fuzaylovna. Tushundingizmi?

Polvon, tushundim, degandek bosh irg'ab qo'ydi. Ular so'lim-gina shiyponchaga chiqib, chaqchaqlashmoqchi bo'lishdi.

— Mehmon, o'zlarini qayerdan so'raymiz? — dedi iyagi silkinadigan bemor.

— So'ramang, — dedi polvon. — Yurtim juda uzoqda, tog'lar orasida. O'zlaringdan so'ray. Sizlarga nima bo'lgan? Ko'p dard tortganga o'xshaysizlar.

— Ha, nimasini aytasiz, Guloyanning toshkentlik ityalog'i uraverib, hammamizni invalid qilib ketgan. Balki, eshitgandirsiz u itni? Qo'chqor Jalolov degan tergovchi, ha, onangni...

— Hoy, hoy, og'zingga qarab gapir, Oyti kelyaptilar. — Fuzaylovna o'tib ketgandan keyin u so'zini davom ettirdi: — O'sha padar la'nat ko'p ishlar qilib ketdi. Butun bir shaharni boqsa yetadigan boylik olib ketdi o'sha itning bolasi.

— So'kinmay gapir, — dedi duduqlanadigan bemor arang gapirib.

— So'kinaman, nega so'kmas ekanman! U ablahning otasi eshak, onasi mochaxar!

Jalol polvonning vujud-vujudiga minglab igna sanchilgandek bo'ldi.

U dunyoga kelib hali bunaqa haqorat eshitmagan edi. Tishini tishiga qo'yib chidadi.

— Guloyanning o'zi hafta-o'n kunda bir kelib Qo'chqorning yig'gan-terganlarini chamadonga solib olib ketardi. Uning tergovchilari Farg'onada, Xorazmda, shu bizning Buxoroda ish olib borardi. U ablah juda ham shafqatsiz jallod edi. Xotinlarimizni ham, kelin-u qizlarimizni ham qamagan edi...

Hamshira Sangcha Amonova ularni tushlikka chaqirdi:

— Qani, toychoqlarim, do'mboqlarim, avqotga. Uning bu gapiga Jalol polvonning g'ashi keldi:

— Iya, biz uning bobosi tengi bo'lsak, bu tirrancha qizaloq ermak qilyaptimi?

Uchala bemor barobariga xandon tashlab kulib yuborishdi.

— Shu qizaloqning ikki kuyovi, bir kelini bor. Saksoninchi yilda nevaram ko'richak bo'lib kasalxonaga tushib qoldi. Sangchani o'shanda birinchi ko'rishim edi. Qarasam, u til-jag'li, oyoq-qo'li chaqqon, suxsurdek qiz. Kenja o'g'limga qiz qidirib yurgan paytimiz edi. Bosh vrach oldiga kirib, Sangcha degan hamshirangiz bor ekan, axloq-odobi qandoq, deb so'radim. Bosh vrach kuldi.

— Bu qizning birinchi eridan uch, keyingisidan to'rtta bolasi bor. Eri avariyaga uchrab halok bo'lgandan keyin ota-onasining qistovi bilan erining yilini o'tqazib, erga teggan. Otasi bir yuz birga kirdi. Onasi to'qson olti yoshida olamdan o'tdi. Bitta opasi hozir sakson bir yoshda.

Jalol polvon bu gapga ishonqiramay "Yo'g'-e", deb yubordi.

— U Oytimullodan uch yosh katta. Qarang, yuzida bitta ham ajini yo'q. Sochlariga haligacha oq oralamagan. Oyti ellik bir yoshda bo'lsa, u demak ellik to'rtda bo'ladi. Hali zuvalasi pishiq. Qizlariga sovchi kelsa, yanglishib, Sangchani qizlardan bittasi bo'lsa kerak, deb gapga solib ko'rishadi.

Jalol polvon, yo alhazar, deb yuborganini bilmay qoldi.

— Buxoroning tagiga oltin bor. Mana shu ichayotgan suvimiz ham tillo qumlar orasidan o'tib kelayotgan bo'lsa ajab emas, — dedi qo'ltiqtayoqda sudralib kelayotgan bemor. Poshsho-yu amirlar ham ahmoq emas. Tillo piyolada sharob ichishgan. Tillo me'dani tozalaydi. Odamlar bekorga tillo tish qo'ymaydi. Qaynotamning dadasi zargar edi. Yiliga bir marta bitta buxor tangani egovlab kukunini kap otardi. Ana shu odam bir yuz yetti yoshda olamdan o'tgan.

Kechqurun Sangcha Amonova dori ichirgani kirganda polvon unga razm solib qaradi. Uning jilmayishga moyil bo'lib turgan ma'sum lablari, quyuq kipriklari qurshovida qolgan mastona ko'zlari, hali pardoz ko'rmagan yuzlari qaramaganni ham o'ziga qaratadi. Jalol polvon yetmish yoshli chol bo'laturib unga behayolarcha qarab turganidan uyalib ketdi. Tangrim, o'zing kechir, tavba qildim, deb istig'for keltirganini o'zi ham bilmay qoldi.

Sangcha chiqib ketar ekan, bilib qo'yinglar, bolakaylarim, televizorni rovna soat o'nda o'chirib ketaman, dedi.

— Unday qilma, bolam. Bugun soat o'n-u o'nda Maryam bilan Gulbahorning kanserti bo'ladi. Maryam "Qurbon o'lam"ni, Gulbahor "Barno yigit"ni aytadi. O'chirma, jon bolam, — deb yolborishdi chollar.

— Bo'pti, — dedi Sangcha rahmi kelib. — Mehmon, — dedi u Jalol polvonga. — Siz famil choy ichmay turing. Ko'k choy

buyrakni yuvadi. Hozir aytaman, hammanglarga bir choynakdan ko'k choy keltiradilar.

Birozdan keyin patnisda choynakpo'sh kiydirilgan to'rtta choynak keltirib stol ustiga qo'yib ketishdi.

Iyagi silkinadigan bemor anchagina gapdon ekan.

— Mehmon, biz sizning ismi sharifingizni bilmaymiz, siz biznikini bilmaysiz. Keling, yaxshilab tanishib olaylik. Mening ismim Hamro Ochil. Mana shu joydagi kolxozga rais edim. Shu sanatoriyaga yerni men o'zim o'lchab berganman. Manavi langning, ya'niy cho'loqning oti Ixtiyor Kamol, qorako'l sovxoziga direktor bo'lgan. Anavu soqovning oti...

— Soqov dema, duduq de.

— Xo'p, bo'pti. Uning oti Zulfiqor, fomilasi... — aytaverayin, deb unga qaradi. Zulfiqor menga baribir, degandek qo'l silkitab qo'ydi. — Uning fomilasi Gadoyev. Paxta zavodiga direktor bo'lgan. Ana endi siz o'zingizning ismi sharifingizni ayting.

— Men unaqa mashhur odam emasman, po'ristoy bir polvonman, xolos.

Polvon aka desanglar bo'ladi.

Oraga jimlik cho'kdi. Har kim o'z choynagidan choy quyib qaytara boshladi.

— Choyni bir qaytarsang choy bo'ladi, ikki qaytarsang moy bo'ladi. Uch qaytarsang, gijinglagan toy bo'ladi, — dedi Zulfiqor Gadoyev.

Jalol polvon yana Qo'chqor to'g'risida gapirib qolishmasin, deb asli kamgap odam bo'lishiga qaramay, uzundan uzoq gap boshladi:

— Ellik besh yildan beri kurash tushaman. Manaman degan zo'r polvonlar bilan bellashganman. Xudoning mehribonligidan o'rgilay, umrimda yengilish nimaligini bilmay o'tdim. To o'lgunimcha shundoq ketaman, deb o'ylagandim. Ammo bir yosh boladan yiqilib, sharmandayi sharmisor bo'ldim. Kasalim ham shundan. Bola nihoyatda kuchga to'lgan, abjir, kurash hadisini olgan polvon ekan. Urdi, meni chalpak qilib yerga urdi. Belbog'imni tirsagiga o'rab qisganda belim cho'rt uzilib ketadiyov, deb o'yla-

dim. Belbog'im xuddi sim arqon bo'lib suyak-suyaklarimgacha qisardi. Quymichim bilan yerga zarb bilan tushdim. Ichak-chavoqlarim aralash-quralash bo'lib ketdi, deb o'yladim. Davradan og'riq azobida, yurt ko'ziga qarayolmay, sharmandayi sharmisor bo'lib chiqib ketdim. Do'xtirlar buyragingiz joyidan qo'zg'alibdi, deyishdi. Mana endi, qariganimda dardga chalinib o'tiribman.

Bemorlar uning bu gaplarini quloq qoqmay tinglashardi.

— Har bir odamning ichida dard bor. E, nimasini aytasiz, biravniki oshkora, biravniki pinhona. Mana, bizdi olsak...

Hamro Ochil Zulfiqorning gapini bo'ldi:

— Yana anavu iflos, itdan tarqagan Qo'chqor Jalol to'g'risida gap boshlamoqchimisan, gadoyning bolasi? Qo'y, o'shaning harom otini og'zingga olma.

Polvon bir qizardi, bir bo'zardi. Noiloj chidadi. U shuncha, uzundan uzoq gapirib ularni chalg'itmoqchi bo'lgandi. Baribir gap aylanib yana o'g'liga kelib to'xtadi...

— Ertaga biznikiga nonushta qilsak. Uyim yaqin, shu yerdan ko'rinib turadi. Bir yayrab saryoqli shirchoyxo'rlik qilsak. Tandirdan yangi uzilgan, ushlagan qo'lni kuydiradigan moyli patirni shirchoyga to'g'rab yegan odam prama jannatga tushadi. Nima deysizlar, jo'ralar?

— Bilmadim, — dedi polvon. — Bu yerning qoidasini unchalik bilmayman. Do'xtirlar ko'nisharmikan?

— Bildirmaymiz-da. Ular to ishga kelguncha biz nonushta qilib bo'lamiz. Shirchoy sahar paytiga ichiladi. Tushundingizmi, jo'ra?

Polvon yana gap Qo'chqordan boshlanmasin, deb darrov xo'p, dedi.

Hamro Ochilning hovlisi katta, imoratlari ham raischasiga qurilgan. Xonalari keng, shifti baland. Qandaydir patnislarga qarab chizilgan gul, tarvuz, qushlarning suratlari bilan bejalgan edi. Xona jihozlari nochor edi. Birov havas qilsa bo'ladigan gilam-u javonlar yo'q. Bir kitob javonida besh-o'nta paxta gulli piyola bilan to'rtta choynak bor edi.

Polvon ko'p raislarning uylarida bo'lgan. Ularnikida qimmatbaho mebellar, devorlarda ham, oyoq ostida ham eron-u turkman

gilamlari, yapon, xitoy, nemis chinnilari tokchalarda, javonlarda chaqnab ko'zni olardi. Jalol polvon Hamro raisning zavqi pastroq ekan, degan o'yga bordi. Yo bo'lmasa, ko'p qiz uzatgan-u har to'yda qizlar uyni bo'shatib ketavergan, deb dilidan o'tkazib qo'ydi.

Hamro Ochil uning ko'nglidan o'tayotgan gaplarni sezdi.

— Ajablanyapsiz-a, Polvon ako? Bu uydagi qimmatbaho buyumlar muzeylarda ham topilmasdi. Bebaho chinnilarning ko'pligidan yo'talsang chinni ovozi yarim soat jaranglab xonada aylanib yurardi. Men qamalganimda bolalarim bir chekkadan sotib o'sha onangni... Qo'chqorga oborib berishipti, na gilam qopti, na chinni asbob.

Polvon hech bo'lmasa shu yerda Qo'chqorning nomi tilga olinmas, deb o'ylagan edi. Yo'q, bo'lmadi.

Dasturxonga ajoyib ne'matlar tortilgan edi. Kattaqo'rg'onning ushlasa uqalanib ketadigan pashmagidan tortib, Buxoroning mashhur yog'li holvasigacha, har biri "Jiguli"ning g'ildiragidek yog'li patirlar...

Hovlida hech kim yo'q.

— Kelinlar, qizlar saharlab bu taomlarni tayyorlab, birlari ishga, birlari o'qishga ketishgan.

Yoshi oltmishlarga borib qolgan ozg'in bir xotin patnisda to'rt chinni kosada shirchoy ko'tarib kirdi. Hamro Ochil turib, patnisdagi chinnilarni olib dasturxonga qo'ydi. Shunda Jalol polvonning ko'zi xotinning barmog'iga tushdi. Uning o'ng qo'lidagi o'rta barmog'i xuddi ipga osib qo'ygandek salanglab turardi.

— Qani, shirchoy sovumasin. Patir qaynoqligida to'g'ranglar, mazasi boshqacha bo'ladi. Murch sepsak-ku, mazasi yanayam boshqacha bo'ladi-ya, ammo buyrakka achchiq narsa to'g'ri kelmaydi-da.

Mehmonlar nihoyatda totli shirchoy bilan ovora bo'lib, hech biridan sado chiqmadi. Hamro Ochil jimlikni buzdi:

— Polvon aka, xotinimning barmog'ini ko'rib hayron bo'ldingiz-a? Bu o'sha padarla'nat Qo'chqor tergovchining ishi. Men uylanganimda onam rahmatli barmoqlaridagi uzukni chiqarib, kelinga, bolam, bu uzukni katta buvim taqqanlar, u kishidan ke-

yin men taqqanman, endi siz taqing, deb xotinimning o'rta barmog'iga taqib qo'ygan edilar. Uzukning ikkita moshdek olmos ko'zi bor edi. U paytda xotinim ozg'in, barmoqlari ham qalamdek ingichka edi. Ikki bola tug'gandan keyin et qo'yib, semirib ketdi. Barmoqlari ham yo'g'onlashib qoldi. U shu uzukni qirq yildan ortiq taqdi. Ammo qo'ldan qo'ymadi. To'ng'ichimni uylantirganimizda, xotinim kelinning barmog'iga shu uzukni taqib qo'ymoqchi bo'ldi. U ancha urindi, barmog'idan chiqarolmadi. Uzuk go'shtdor barmog'i terisi orasida qolib ketibdi. Kelinga Buxorodan boshqa uzuk opkelib bergandim. Men qamalganimdan keyin ham ablah Qo'chqor tergovchi uyni obis qipti. Kelinlarimning, qizlarimning hamma taqinchoqlarini opti. Xotinimning barmog'idagi uzukka ko'zi tushib, shuncha urinibdiki, chiqazolmapti. Oxiri uzukni ombur bilan qisib bor kuchi bilan tortibdi. Uzuk barmoqning terisini, go'shtlarini sidirib chiqibdi. Barmoq bo'g'inlari uzilib ketibdi. Hozir ko'rdingiz-ku, bitta barmog'ida jon yo'q, to'rtta barmoq orasida lattaga o'xshab osilib qolgan. Kir yuvolmaydi, xamir qorolmaydi, igna ushlasa, joni yo'q, barmoq xalaqit beradi.

Gap nimadan boshlansa, oxiri Qo'chqor bilan tugardi. Jalol polvon Buxoroga kelganiga pushaymonlar yedi. Ming o'lib, ming tirildi.

— Shu desangiz, — deya gapini davom ettirdi Hamro Ochil. — Erta-indin pensiyaga chiqsam, kolxoz mashinasini topshirishim kerak bo'ladi. Har qalay, o'ttiz-qirq yil mashinada yurgan odam piyoda qolmay, deb kenjamga bitta "Volga" olib berdim. Nomer oldik. Pravasi yo'q bola minib-netib yurmasin, deb kalitini xotinimga berib qo'ydim. Ablah Qo'chqor hali moyi artilmagan yap-yangi mashinani ham olib ketibdi. Iloyo buyurmasin, iloyo avariyaga uchrab o'ligi xor bo'lsin! Ota-onasi tobuti ketida faryod urib qolsin...

Jalol polvon dod devoray dedi. Birdan, kutilmaganda yuragiga sanchiq kirdi. Tomiri to'xtab-to'xtab ura boshladi. Hamro Ochildan yurak dorisi bormi, deb zo'rg'a so'rayoldi. Rais hozir, hozir deganicha yugurib chiqib ketdi. Birozdan keyin dori solingan qutichani ko'tarib kirdi.

— Xotinimning ham yuragi xuruj qilib turadi. Manavuni tilingizning tagiga tashlab oling, hozir o'tib ketadi, — u shunday deb polvonga validol tabletkasini uzatdi.

— Chaynamang, o'zi erib ketsin, — dedi Zulfiqor Gadoyev.

Jalol polvon yurak og'rig'i qandoq bo'lishini endi bildi.

— Doktor chaqiraylikmi? — dedi Ixtiyor Kamol.

— Yo'q, yo'q, hojati yo'q, hozir o'tib ketadi, — dedi arang o'zini tutib polvon.

Polvonni palataga opkirib, o'rniga yotqizib qo'yishdi. Sangchaxon uning qon bosimini o'lchab, labini tishladi.

— Sizga nima bo'lli, qo'zichog'im? Biron nimadan diqqat bo'ldingizmi?

Polvon boshini sarak-sarak qildi. Istat Fuzaylovna Sangcha vahima qilyapti, deb boshqatdan qon bosimini o'lchadi.

Polvonni doktor ko'rayotganda boshqalar tashqariga chiqib turishgan edi.

— Bu odamning ichi to'la dard. Siz bilan bizdan ko'ra alamli kunlarni ko'rganga o'xshaydi. Og'ir, bosiq odam ekan, yorilib dardini aytmayapti.

— Sizga hayajonlanish mumkin emas. Ko'rgan yaxshi kunlaringizni eslang, — dedi Istat Fuzaylovna.

— Do'xtir opa, endi menga javob beraqoling. Xudoga shukr, buyragim durust bo'lib qoldi. Yurakni Toshkentda davolatsam ham bo'ladi.

Oyti boshini sarak-sarak qildi:

— Buyrak bilan hazillashmang. Hali tuzalgani yo'q. Bilasizmi, buyragingiz joyidan siljigan. To tuzalmagunizcha ketishni o'ylamang.

Polvon yana biron oy turishga ham rozi edi. Ammo sherikla-rining gaplari uning jon-jonidan o'tib ketyapti. Ertalab turiboq bismillosiga Qo'chqorni padarla'nat, deb so'kishadi. Kechqurun yotishda ham yana o'sha gap. Bu gaplarga qandoq chidaydi? O'sha ablahning padari menman, siz og'izga olib bo'lmaydigan uyat gaplar bilan so'kayotgan onasi mening xotinim, deb aytolmasdi.

— Zulfiqor Gadoyev bundan ikki oy oldin nevarasini kuyovga chiqazgan edi. Ertaga quda chaqiriq qilishyapti. Albatta, boring.

Ko'pni ko'rib, dilingiz yorishadi. Yana o'n marta tomiringizga gemodez yuborsak, ko'rmagandek bo'lib ketasiz. Endi aravachadan tushing. Piyoda yuring. Ammo oyoqni yerga zarb bilan tashlamang. Suvda suzgandek belga og'ir kelmaydigan qilib yuring.

Polvon lom-mim deyolmay qoldi. Tani boshqa dard bilmas ekan. Agar eshitayotgan yuzlab haqoratlarining bittasini u eshitganda edi, hovli o'rtasida sochini yozib, dod derdi. Bilmaydi-da. Buni polvonning o'zidan boshqa hech kim bilmaydi. Endi bu yog'iga Polvon, ko'zim ko'r, qulog'im kar, deb yashashga majbur. Qiyin, juda qiyin bundoq qilish. Na iloj!

Ertalab nonushtadan chiqib, bir stakandan buloq suvi ichib, kundalik nasiba — ukol yeb, shiyponchada o'tirishgan edi, Zulfiqorning o'g'li kelib, mashinada olib ketdi.

Oytimullo ko'pni ko'rib dilingiz yorishadi, degandi. Qayoqda, mehmonlar uchun dasturxon tayyorlangan xonaga qadam bosishlari bilan polvonni elektr toki urgandek bo'ldi. Ko'zlari tinib, boshi aylandi.

Devordagi qip-qizil cho'g'dek eron gilami o'rtasida ilib qo'yilgan zarrin ramkada nihoyatda ko'hlik ayol kishining kattalashtirilgan fotosuratini ko'rgandayoq Polvonning rangi o'chdi. Suratdagi ayolning qulog'ida kelini Gulandom taqib yurgan zirakni ko'rdi. Polvon Gulandomning qulog'idan olib, salmoqlab ko'rib, taqma, azador xotinsan, olib qo'y, degan edi o'shanda.

— Bu kimning surati? — deb so'radi polvon Ixtiyor Kamoldan. Ixtiyor qo'ltiqtayog'ini devorga suyab, stul tomon intilar ekan, muvozanatini yo'qotib, yonboshiga og'a boshladi. Polvon ushlab qolmaganda yiqilishi aniq edi.

— Hozir so'ramang, Polvon aka, keyin aytaman, bu ayol o'zi-ga o't qo'ygan.

Ko'chadan qo'sh mashinaning ketma-ket signali eshitildi. Bolalarning baqiriq-chaqiriqlari boshlandi. Bunday paytlarda bolalarga Xudo beradi. Quda taraf, albatta, bolalarga turli sovg'alar olib kelishadi. Biriga jevachka, biriga shokolad, biriga suvotar to'pponcha tarqatadilar. Avval ayol qudalar hovliga kirishdi. Zulfiqorning xotini ularning oyog'i tagiga oq surp poyandoz yozdi. Kelinlik libosida yal-yal yonib kirgan nevarasini bag'riga bosib, ko'zyosh qilib oldi. Zulfiqor erkak qudalarga ham xuddi shunaqa oq surp poyandoz to'shadi. U oldiga kelib bosh egib turgan nevarasi Baxshanda kelinchakning peshanasidan o'pib: "Baxtli bo'l, bolam, borgan joyingda palak otib, uvali-juvali bo'l, — deb yelkasini silab qo'ydi. — Endi dadang bilan ko'rish".

Baxshanda o'rik tagida o'pkasi to'lib, hiqillab turgan dadasi oldiga bordi. Dadasi qirq besh yoshlardagi jikkak, ko'zlari chaqnab turgan chiroyli kishi edi. Baxshanda yuzidan to'r pardani olib, dadasining bo'yniga osildi. Bolalik paytlaridagidek, xuddi birov ota bag'ridan tortib olmoqchi bo'layotgandek yopishib olgandi.

— Onang rahmatli ko'rmadi bu kunlarni, — dedi u bolasining boshlarini, yelkalarini silab.

U o'zini tutishga urinardi. Ammo irodasidan hayajoni zo'rlik qildi. Yig'lab yubordi.

Kuzatib turganlar ham qattiq hayajonda edilar. Oxiri buvisi kelib Baxshandani otasi bag'ridan, bo'ldi, bo'ldi, duxtarim, bas endi, deya olib ketdi.

Ayollarni hovli etagidagi xonaga, erkaklarni kiraverishdagi mehmonxonaga olib kirishdi. Dasturxonga quyuq-suyuq tortildi. Zulfiqorning kenja o'g'li xokandozda isiriq tutatib chiqib ketdi. O'tirganlar baholi qudrat biri yuz so'mlik, biri ellik so'mlik uzatdilar. Udum shunaqa, isiriq tutatgan odamga, albatta, pul berish kerak.

Zulfiqor qudalariga polvonni tanishtirdi.

— Ixtiyorni ham, Hamroni ham taniysizlar. Polvon aka biz bilan sanatoriyda birga davolanyaptilar. U kishi ko'p yaxshi odam. Bosiq, mulohazali, andishali.

Polvon ichidan zil ketdi. U o'ylardi, shu andishali, shu mulohazali odamning farzandi bu oilaga cheksiz jafolar qilgan. Qarshingizda o'tirgan shu andishali odam — odam emas, bo'rining, shoqolning otasi...

Hali bir-biri bilan tanishib ulgurmagan odamlar, odatda, u yoqdan bu yoqdan gapirib, oxiri suhbat mavzuyini topib oladilar.

Ayniy teatriga Obid qiziq bilan Mirza qiziq kelganini, rosa qiziq hangomalar aytib odamlarni kuldirganini, Bahovuddin pirim ziyoratidan qaytayotgan Erkin Vohidov bilan Abdulla Oripov Labihovuzga choy ichgani kelishganini, odamlar o'rab olganini, Devonbegi madrasasining gumbazigacha odam to'lib ketganini, ikki soatdan ortiq she'r o'qitishganini gapirishardi.

Bu bo'layotgan gaplar Polvonning qulog'iga kirmas, ikki ko'zi devordagi suratga qadalgan. Nazarida, suratdagi ayolning qulog'idagi zirak qimirlayotganga o'xshayverdi. Ixtiyor Kamol mehmonlarga mulozamat qilib, kirib-chiqib turgan Zulfiqorning qulog'iga nimadir dedi. U bosh irg'ab, xo'p, deb chiqib ketdi-da, bilagiga ikkita to'n tashlab kirdi.

— Qudajonlar, bu mehmonlarimizni, — u Polvon bilan Ixtiyor Kamolga ishora qildi, — do'xtirlardan qarzga olib kelganmiz. Ketishmasa bo'lmaydi. Polvon akaning tomirlariga dori yuboradigan payt bo'ldi. Nima deysizlar? Javob beraylig-a...

Zulfiqor Polvon bilan Ixtiyorning yelkasiga to'n tashladi.

Ular ikkovlashib mashinada qaytishar ekan, Zulfiqorning uyidagi ayollarning pazandaligiga tasannolar aytishardi.

— Do'stim, — dedi Polvon palataga kirishgach, — o'ziga o't qo'ygan ayol to'g'risida keyin aytaman, degan edingiz. Ayting, nima bo'lgan?

— Xunuk ish bo'lgan, jo'rajon, juda xunuk, anavu yaramas, it emgan Qo'chqor Zulfiqorni qamab, ko'p azoblar berdi. Zulfiqor ham anoyi odamlardan emas. Xonning saroyidek uyni qurishga g'ishtni qaydan olding, taxtani qaydan olding, deb qiyin-qistovga tutaverdi. Zulfiqor imorat uchun nimaiki olgan bo'lsa, hammasiga g'isht zavodidan, taxta iskalatidan, semon-u tunukalargacha kvitansiya olib qo'ygan edi. Bundan ish chiqazolmagan tergovchi, qancha paxta sotib olgansan, qancha sotgansan, deb qiynayveradi. Paxta zavodini uch marta reviziya qiladilar, pichoqqa ilinadigan biron ishkal topolmaydilar. Tillangni, boyligingni qayerga yashirgansan, deb yana do'pposlaydilar. Zulfiqor menda bunaqa narsalar yo'q, deb azoblarga chidab beradi. Bu orada bir yarim yilga yaqin vaqt o'tib ketadi. Oxiri Zulfiqorning xotini bilan kelinini qamab tergov qiladilar. Guloyan Qo'chqor tayyorlagan hujjatlarni

ko'rib, bo'lmaydi, dedi. "Uni shundoq qo'yib yuborsak, gap tegadi. Hujjatlarni ikki yilga kesish mumkin bo'ladigan qilib tayyorla. Xotini bilan kelinini shu bugun qo'yib yubor", — deb o'zi Qarshi tomonga o'tib ketadi.

— Qo'chqor Jalolov o'sha kuni Zulfiqorning xotinini qo'yib yuboradi. Uning yolg'iz qolgan kelini oldiga tun yarmida kiradi. Qo'llarini qayirib, uni zo'rlaydi. Qulog'idagi ziragini olib, tongga yaqin chiqarib yuboradi. Telba bo'lib qolgan juvon hali osmon oqarmay turib uyga keladi. Holdan toygan qaynonasi uxlab yotardi. Hali uyg'onmagan qizi Baxshandaning tepasiga kelib uzoq qarab turadi. Harom vujudi bilan unga yaqin kelolmaydi. Oshxonaga kirib kerosin to'la tunuka bankani ko'tarib chiqadi-yu boshidan quyadi. Gugurt chaqib yuboradi.

Tom bo'yi bo'lib yonayotgan olov hovlining u boshidan bu boshiga yugurar, shu olov ichidan ayol kishining bo'g'iq ovozi eshitilardi. Uyg'onib ketganlar unga yaqin borolmasdilar. Chelaklab suv sepsalar ham o't o'chmasdi.

Zulfiqorni turmaning ichida sud qilib, ikki yil beradilar. Ikki yillik muddatni o'tab bo'ldi, deb chiqarib yuboradilar. U qamoqdan chiqqanda kelinning qirqi o'tib bo'lgandi.

Ixtiyor Kamol stoldagi allaqachon sovib qolgan choyni simirib, insonning boshi toshdan ekan, jo'ra, deb o'tirgan yerida qo'ltiqtayog'iga ko'ksini tiradi. Tashqaridan odamlarning ovozi eshitila boshladi. Birozdan keyin tomirga dori tomizadigan moslama ko'tarib Sangcha kirdi.

— Bugun vaqtida ukol olmadinglar, jujuqlarim, gemodez tomizish ham kechikib ketdi.

Sangcha Polvonga faqat quvnoqlikka yaratilgan bir malak bo'lib ko'rinadi. Yer yuzi shunaqa nurli odamlar bilan munavvar, deb o'ylardi u. Xudo jami go'zallarni odamlarni mahliyo qilish uchun, insonlar ko'nglidan badbinliklarni quvib, vujud-vujudini ezgulikka chulg'ab, yaxshiliklarga chorlash uchun yaratgandek edi.

Polvon salkam ikki soat bilagida igna bilan yarim litrli shishadagi gemodez suyuqlikning oxirgi tomchisi qolguncha qimirlamay yotdi. Ko'zini uyqu bosdi. Hamshira quymichiga ukol

qilgandagina uyg'ondi. Hali oftob o'chmagan. Bemorlar kechki salqinda xiyobonlarda sayr qilib yurardilar. Ixtiyor Kamol hamon qo'ltiqtayog'ini iyagiga tirab qimirlamay o'tiripti. Polvonning uyg'onganini sezgach, tashqariga chiqmaymizmi, deya o'rnidan tura boshladi. Polvon ham turdi. Ikkovlashib hovliga chiqishdi. Buloqdan bir piyoladan suv ichib, o'zlari o'rgangan shiyponga chiqib o'tirishdi.

— Uch kundan keyin muddatim tugaydi. Ketsam, siz zerikib qolmasmikinsiz, deb o'ylayman, — dedi Ixtiyor Kamol.

— Men ham ketsam kerak, — dedi Polvon.

Aslini olganda, bu mehribon, qayg'ungga qayg'udosh odamga Polvonning mehri tushib qolgandi. Faqat, faqat Qo'chqordan gap boshlamasa bo'lgani. Baribir bo'lmadi. Qo'chqorning nomi aralashmagan suhbat suhbat o'rniga o'tmay qoldi.

— Oyog'ingizga nima qildi, deb so'ramadingiz, o'zim aytay. Tergovchi Qo'chqor Jalol meni qamoqqa olgan kuniyoq, oltinlaringni, boyliklaringni qayerga yashirgansan, deb kechasi-yu kunduzi uxlatmay so'roq qildi. Menda bunaqa narsalar yo'q, desam, ishonmaydi. Uradi, tepadi, qo'llarimni qayiradi. Men bir chorvador odam bo'lsam, menda tillo nima qiladi, deyman, qani ishonsa! Ikki barzangi yerga yotqizib, qo'l-oyog'imni bosib turdi, yana biri stulga chiqib, ikki tizzamning ko'ziga sakrab tushdi. Og'riq azobida hushimdan ketib qopman. Tizzalarimning oshiq-moshig'i joyidan qo'zg'ab qopti. Doktorlar gipsga solishdi, bo'lmadi. Oxiri romitonlik mosh tabibni chaqirib kelishdi. Qo'li yengil ekan, oshiq-moshiqni joyiga soldi. Og'riq qolgandek bo'ldi. Lekin tizzalarimdan pastida jon yo'qdek. Shu-shu, qo'ltiqtayoqqa osilib, sudralib yuribman. Qo'chqor Jalol haromi, g'arning bolasi bitta gapni biladi. Oltin, oltin qani? Yashirgan joyingni ayt. Aytmasang, qo'llaringni ham sindiraman, deydi. Bo'lmadi. Bolalarimni, kuyovimni chaqirtirdim. Ularni cho'ldan zudlik bilan olib kelishdi. Kenjam ahvolimni ko'rib dodlab yubordi. Ikki tarsakidan keyin bolam sho'rlik jim bo'lib qoldi. Ularning hammasi cho'pon. Sovxoz qo'ylarini boqishadi. Har birining xususiy ikki-uch yuzdan qo'yi bor. Bunga hukumat ruxsat bergan. Terisini, junini, go'shtini davlatga sotishadi. Bundan tashqari, plan ustiga qo'shimcha

mahsulot bergani uchun yaxshigina mukofot puli ham olishadi. "Bolalarim, qo'ylaringni bitta qoldirmay sotinglar. Pulini manavularga keltirib beringlar", — dedim. Bolalarim ota so'zidan chiqmaydigan qobil bolalar edi. Xo'p, deb chiqib ketishdi. Sovxoz qo'y sotib olmaydi. Olganda ham pulini bir yil sudrab chala-yarim qilib, kattagina soliq olib, barakasini ketqizib keyin beradi. Mingga yaqin qo'yni bozorga chiqarib bo'lmasa! Bolalarim nima qilishlarini bilmay ikki mototsiklda cho'ldagi cho'ponlar oldiga borishadi. Sovxozning Qizilqumda bir yuz qirq ming qo'yi boqiladi. Ikki yuzdan ortiq cho'pon qishin-yozin saratonni saraton demay, chillani chilla demay, oftob tig'ida kuyib, cho'l bo'ylab qo'y haydashadi. Normengli degan cho'pon ularga boshchilik qiladi.

U asli Surxondaryoning Sherobod tumanidan. Yoshligida Shofirkonga kelib qolgan. Normengli halol, pokiza odam, chorvachilik unga otakasb bo'lgan. Bolalarim o'sha Normenglining oldiga borib, niyatlarini aytadilar. Normengli boshini qashlab uzoq o'tiradi. Yerga ko'zini qadagancha tinmay sigareta chekadi. Yarim soatcha shu alpozda o'tirib, o'rnidan turadi, u yoq-bu yoqqa yuradi. U nihoyatda asabiy, hozir birov bilan mushtlashmoqchidek mushtlarini tugadi. Normengli keyingi paytlarda uyqusizlik kasaliga mubtalo bo'lgandi. Ana olib ketadi, mana olib ketadi, deb o'tov oldiga chiqar, olisdan to'zon ko'tarilsa, to yetib kelguncha o'zini qo'yarga joy topolmasdi. Mashinada yo zootexnik, yo vetvrach kelganini ko'rgandan keyin ko'ngli joyiga tushardi. Normenglining tuman markaziga bormaganiga ham uch oydan oshdi. Guloyan ayg'oqchilarining ko'zi tushsa, uni ham ro'yxatga tirkab qo'yishlarini biladi. Yaxshisi, yomon ko'zlardan yiroqroq yuray, deb cho'l kezgani-kezgan edi. Normengli bir qarorga keldi, shekilli, joyiga o'tirib: "Ketaveringlar, — deydi. — Hammang o'z otaringga bor. Ertalab oldilaringga odam boradi".

Ertalab Normenglining o'g'li to'ng'ichimnikiga mototsikl kajavasida bir qop sabzi-piyoz, kartoshka tashlab ketadi. Ketar chog'ida kelinimga piyoz tagida pul bor, hammasini tergovchiga bermanglar, ellik mingi o'zlaringda qolsin, hali sizlarga pul ko'p kerak bo'ladi, deb jo'nab ketadi.

O'g'lim Qo'chqor Jalolga pulni olib borganda u bola bechoraga baqirib beradi.

— Men senlarga pul deganim yo'q. Tilla tanga olib kel, deb aytganman, tushundingmi? — deydi.

— Bizda unaqa narsa yo'q. Umrimda bir donasini ham ushlab ko'rmaganman.

Qo'chqor tajang bo'ladi.

— Bunday qilasan. Hoziroq Buxoroga borib katta bozordan Ashot degan armani kabobpazni topasan. Meni Qo'chqor Jalol yubordi, deb qo'liga pullarni berasan. Hushyor bo'l, oldida odam yo'q paytida u bilan gaplash. Nima qilishni uning o'zi biladi, — deb tushuntiradi.

Nafsingga o't tushgur Qo'chqor Jalol yuzta buxor tangani olgandan keyin, "Aybi isbotlanmadi", deb meni qo'yib yuboradi.

Uyni tintuv qilganda olib ketgan bitta qo'l soati bilan Parijda mukofotga berishgan oltin medalimni qaytib bermadi. Uni "antiqa" teri uchun olgandim. Tanlov hakami bilagimga har o'n besh daqiqada kuy chaladigan shveysar soatini taqib qo'ygandi. Afsus, juda qimmatli esdalik edi. Hay, janozasiga buyursin...

Chiqqanimning ertasi kech qorong'ida Normengli keldi. Qo'ylardan birontasini ham sottirmaganini, pullarni cho'ponlar to'plab berganini aytdi. Bunaqa odamgarchilikdan ko'zlarim yoshga to'ldi.

O'zimni tutolmay hiqillab yig'lab yubordim. Iflos Qo'chqor shuncha azob berganda ham mijjamga yosh kelmagandi. Cho'ponlarning odamgarchiligidan ta'sirlanib ketibman.

* * *

Kechqurun palatada ulfati chor bo'lib, choy ichib o'tirishardi. Televizor birinchi o'zbek kosmonavti Sharipovning xonadonini ko'rsata boshladi. Qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilari, yor-birodarlari Sharipovning ota-onalarini tabriklashyapti. Hovli odamga to'lgan. Hammaning qo'lida gul.

Choy ho'playotgan Hamro Ochil: "Qanday baxtli oila bu!" — deb yuborganini bilmay qoldi.

— Otasiga rahmat! — dedi Ixtiyor.

— Shundoq farzand o'stirgan onasiga ming-ming rahmat-e! — deb yubordi Zulfiqor.

Faqat Jalol polvonning tiliga gap kelmasdi. Hamro Ochilning faylasufligi tutib ketdi.

— Bilasizmi, inson nima uchun farzand o'stiradi? Mehnat qilib, topib kelgan osh-noni uchungina emas, o'lganingdа go'ringa qo'yadigan marmartoshi uchungina emas, el-yurtdan olib ketadigan otangga rahmat, degan birgina so'zni eshitish uchun o'stiradi. Otangga la'nat, padaringga la'nat, degan so'z olib keladigan farzandning yuzini Xudo teskari qilsin!

Mana shu suhbat asnosida Jalol polvon ming o'lib, ming tirildi. O'zidan o'tganini o'zi biladi. Mum tishlagandek, tilini yutib yuborgandek zabun edi u.

— Mana, masalan, ablah Qo'chqor Jalolning otasiga hech kim rahmat, dermikin? Qani aytinglar-chi? Nima deysiz, Polvon aka?

Jalol polvon nimalardir deb g'udrandi. Nima deganiga hech kim tushunmadi. Uning rangi oqarib ketgan, qoshlari o'rtasiga tugunchak tushib, bir nuqtaga tikilgancha telbanamo alpozda o'tirardi.

— Yo'q, — dedi Ixtiyor Kamol. — Hech kim rahmat demaydi. Shunday iflos bola o'stirgan sendek otaga ming, million la'natlar yog'ilsin, deydi.

Jalol polvon holsizlanib o'rnidan turdi, mast odamdek chayqala-chayqala hovliga chiqib ketdi.

— Bechoraning yana qon bosimi oshib ketdi, shekilli, — dedi Zulfiqor. — Yo yuragi xuruj qildimikin? — u shunday deb cho'ntagini kovlab, validol qidira boshladi.

Jalol polvon kechasi uxlayolmadi. U yonboshidan bu yonboshiga ag'darilaverganida karavot g'ichirlab, sheriklarini uxlatmadi. Oxiri o'rnidan turib, shippagini kiydi-yu, tashqariga chiqib, har gal orom oladigan shiyponda o'tirib o'y o'ylab ketdi.

Kecha sokin. Tiq etgan tovush yo'q, oy ham sindirilgan patirdek yarimtagina bo'lib qolgan. Polvonning holiga kulgandek yaqinginada baqa qurullaydi. Ketma-ket, cho'zib-cho'zib qurullaydi.

Polvonning ichida nimadir yonayotgandi. Ichidagi olov chiqib ketishga yo'l izlayotganga o'xshardi. Oxiri bir xo'rsinganida bo'g'zini kuydirdi-yu, tashqariga chiqib ketdi. Odamning joni ham shunaqa chiqib ketarmikin? Yo'g'-e, undaymasdir. Polvon jilmayib turib jon berganlarni ko'rgan.

— E, attang. Esiz umr, esizgina umr-a! Xudo meni odamlarning la'natini eshitish uchun yaratgan bo'lsa ilojim qancha! — dedi u afsus nadomatlar bilan.

Polvonning davolanish muddati tugadi. Uni kuzatgani aeroportga chiqishdi. Polvon samolyot trapiga oyoq qo'ya turib, kutinglar, bir haftaga qolmay kelaman, deb takrorladi.

Samolyot havoga ko'tarilganda Polvon birdan yengil tortdi. Badbaxt o'g'li tufayli yog'ilgan qarg'ishlar, undan azob chekkan alamzada odamlar yerda qoldi.

Qishloq o'sha-o'sha, odamlar o'z tashvishlari bilan ovora. Chollarga har kuni bo'lmasa ham, kunora nahorga osh bo'lib turibdi. Birov qiz uzatayapti, birov o'g'il uylayapti. Yana birov olamdan o'tgan otasi yo onasiga yigirma oshi beryapti.

Faqat Nurim sartarosh bu oshlarga borolmaydi. Odamlardan yuzi shuvit. U do'konini ham ochmay qo'ygan. Qulog'iga bir xunuk gap kirdi-yu, do'konga qulf soldi. "Nurim o'sha odam ovchisi Sobitning otasi-da, bolasidan o'tib qayoqqa borardi? Bo'yningga lungi boylab, kekirdagingga ustara tortib yuborishi hech gap emas. Hukumat yo'li bilan boshqa sartaroshxona ochish kerak".

Shu gap qulog'iga kirdi-yu, Nurimning qirq yillik kasbi barham topdi. Ko'chaga ham chiqmay tomorqasida g'imirsib yuradi.

Kunduz soat birlarda samolyotdan tushgan Polvon qishloqqa kun botmay kirib keldi.

Nurim sartarosh eshigi oldida omborga tiqilib qolgan xashaklarni olayotgan edi. Jalol polvonning qorasi ko'rinishi bilan ishini tashlab shoshilganicha uyiga kirib ketdi. Uning Polvonga ko'rinishga beti chidamasdi. O'g'lini otib ketgan bolasi uchun, albatta, mendan qasos oladi, deb o'ylardi. Polvon esa unga qarayolmasdi. Shu tinchgina oilani xarob qilgan o'g'li uchun Nurim, albatta, mendan o'ch oladi, deb o'ylardi. Polvon Nurimdan, Nurim Polvondan qochib yurardi. Polvon shu topda, hozir Nurim ketmonnimi, boltanimi ko'tarib chiqadi, menga tashlanadi, degan o'yda sergaklanib kelardi. Nurim esa, Jalol hovlimga bostirib kiradi-yu, hozirgina xashagi olingan omborga meni ikki buklab tiqadi, deya qochish uchun devor nahrasini mo'ljalga olib, dag'-dag' titrab turardi.

Yo'q, Jalol polvon indamay o'tib ketdi. U uyiga kelganda jiyani tomda kechagi shamol uchirib tushirgan tarnovni joyiga o'rnatayotgan edi.

U tog'asini ko'rib, ishini shosha-pisha bitkizdi-yu, tomga engashgan tut shoxiga osilib pastga tushdi.

— Keldingizmi, tog'a? Ahvolingiz durustmi?

— Shukur-shukur, — dedi Polvon ayvon dahaniga o'tirar ekan. — Bitta choy qo'yib ber. Buxoroning ta'msiz suvini icha-verib tinkam quridi.

Jiyani gazga choygum qo'yib chiqdi.

— Jiyan, — dedi Polvon. — Shu mashinani yurg'izsa bo'ladimi, bir ko'r-chi.

— Akkumulatori o'lgan, uni bir kun tokka qo'yish kerak.

Qo'chqor mashina akkumulatorini chiqazib, suvini to'kib garaj tokchasiga qo'ygan edi.

— Zarur bo'lsa hoziroq ustaga berib kelaman, ertalabgacha tayyor qilib qo'yadi.

— Juda zarur. Buxoroga shu mashinada ketaman. Ustaga olib bor, o'shanaqasi akangni ham chaqirib kel. Gulandom uyda bo'lsa, ayt, tez kelsin.

Jiyani choy damlab chiqdi, keyin chang bosgan akkumulatorni velosiped orqasiga o'rnatib jo'nab ketdi.

Polvonning katta jiyani avtomobil nazorati boshlig'ining o'rinbosari edi. Buxoroga mashinani shu minib borgani durust. Yo'lda inspektorlar bo'lar-bo'lmasga to'xtatmaydi.

Polvon novvot suvidek totimli choyni huzur qilib icharkan, o'zingga shukur, o'zingga shukur, deb qo'ydi. Birpasda choynakni bo'shatdi. Peshanasidan terlarni sidirib, yaktagining etagiga qo'lini artib, hovli pastidagi o'tinxonaga kirib ketdi. Ko'mir kukunlari o'rnashib, asli rangi qandoqligi bilinmay ketgan cham-

adonni ko'tarib chiqdi. Supurgi bilan obdan changini qoqib, latta bilan artdi. Chamadon qulflangan edi. Urinib ocholmadi. Garaiga kirib ombir bilan katta bir otvyortka olib chiqdi.

Shu payt Gulandom kelib qoldi. Qaynotasi bilan yig'lab ko'rishdi. U endi o'zini oldirgan, ko'zi taglarida, iyagining pastida mayda ajinlar paydo bo'lgan. Avvalgi shiddati yo'q. Yig'idan ho'l bo'lgan kipriklari orasida ilgari chaqnab turadigan o't so'ngandek edi. Ovozi ham so'lg'in. Shu bir oy ichida so'lib, ertangi taqdiridan umidini uzgan aftodahol bir alpozda edi. Polvon unga qarab rahmi keldi. Bechora...

Polvon uni bag'riga bosib boshlarini siladi. Yupatmoqchi bo'ldi. Nima deb yupatadi? Uni ovutadigan qandoq so'z bor dunyoda? Gulandom esa uning bag'rida o'ksib-o'ksib yig'lardi.

— Bolam, qandoq qilamiz, peshanamiz sho'r ekan. Baxt bizga betini emas, ketini ko'rsatgan bo'lsa, kimga zorlanamiz? Bor, bolam, muzdek ariq suvida betlaringni yuvib ol!

Polvon tugunchasidan bir surat olib, unga uzatdi.

— Iya, ota, bu mening ziragim-ku! — dedi hayron bo'lib Gulandom.

— Yo'q, bolam, seniki emas, shu kelinchakniki. Sen uning ziragini taqib yurgan eding. Ering ablah uni zo'rlab, keyin qulog'idan chiqarib olgan. Bu kelinchak hozir yo'q. Nomusi barbod bo'lganiga chidamay, o'ziga o't qo'ygan.

Gulandom seskanib ketdi. Beixtiyor ikki qulog'iga qo'l yubordi. Shu topda uning ikki qulog'i o'tda kuyayotgandek edi.

Gulandom qaynotasi "taqma bu zirakni", deganda olib qo'ygan edi.

— O'tir. Endi manavu chamadonni ochamiz.

U shunday deb chamadon qulfining tagiga otvyortka tiqib ko'chirib oldi, qopqog'ini ochdi. Yelimxaltaga solingan bir zarbof to'nni olib, xaltadan chiqazdi. Buxoro zardo'zlarining noyob bu namunasi aslida amir vazirlaridan biriniki edi. Polvon to'nni namatga tashlab, hind choyidan bo'shagan tunuka bankani oldi. U juda og'ir edi.

Qopqog'ini ochib, ichidagilarni dasturxonga to'kdi. Buxoro tilla tangalari jaranglab ketdi.

— Bilasanmi, bolam, shu tilla uchun ering sovxoz direktorining ikki oyog'ini sindirgan.

Polvon bir to'rvani oldi. Tugunini yechib ichidagilarni to'kdi. Ular ayollarning turli xil taqinchoqlari edi. Polvon qiyshiq bir uzukni qo'liga olarkan, ovozi titrab dedi:

— E Xudoyim-a, bu qandoq ko'rgilik! Uzukka yaxshilab qara, bolam. Gulandom uzukni qo'liga oldi. Uzuk negadir doira shaklida emas, tuxumga o'xshash uzunchoqroq edi.

— Bu uzuk bir xotinning qo'lidan ombirda tortib chiqarilgan. Bechora xotinning barmoq bo'g'inlari ajralib ketib, shalvirab qolgan. Barmoq terisi shilinib, go'shti chiqib qolgan. Ko'ryapsanmi, unda ombir izlari qolgan.

Uyulib yotgan tilla taqinchoqlarni titkilab bir medalni oldi.

— Bu uyingdagi ering taqib yurgan soatning egasiniki. Hali hayot. Bu soat bilan medalni Fransiyada mukofotga berishgan.

Gulandom sapchib o'rnidan turdi-yu ko'cha tomonga o'qdek otilib chiqib ketdi. Polvon taqinchoqlarni yana xaltaga soldi. Tilla tangalarni choy qutiga bitta-bittalab sanab tashladi. Buxor tanga roppa-rosa 100 dona chiqdi. Nikolayning surati solingan tanga bir yuz saksonta edi.

Polvon shu ishlar bilan band ekan, Gulandom kelganini sezmay qoldi.

— Mana, — dedi u, — zirakni chamadonga tashlar ekan. — Mana soat. Gulandom yugurganda soat mexanizmlari ishlab ketgan edi. Bir-ikki daqiqadan keyin soat sho'x bir kuyni chaldi. Bu soat o'lib yotgan Qo'chqorning bilagida shu kuyni chalib turgandi.

Polvon chamadon tagida yaxshilab qog'ozga o'ralgan kitobchaga o'xshash qattiq bir narsani olib ochdi. Hali taxi buzilmagan, bankdan olingan dollarlar edi.

Chamadonda bulardan tashqari sopiga olmos, brilliant qadalgan xanjar, tillo, kumush quyma naqshlar qadalgan baxmal kamar bor edi.

Polvon buyumlarni joy-joyiga qo'yib, chamadon qopqog'ini yopti.

— Mana, bolam, — dedi Polvon Gulandomga. — Qo'ynimizda chayon bor ekan. Topgan narsasini iniga tashiydigan kalamush bor ekan.

Ko'cha tarafda mashina gurullagani eshitildi. Birozdan keyin eshikdan bir militsiya mayori bilan Polvonning jiyani kirib keldi. Bu marhum singlisining o'g'li Salohiddin edi.

U tog'asining ancha o'ziga kelib qolganidan sevindi. Hol-ahvol so'radi.

— Jiyan, sendan bitta iltimos. Boshlig'ingdan ikki kunga ruxsat so'ra. Manavu mashinada Buxoroga boramiz. Juda zarur ish bor. Yo'q dema, jiyan.

Salohiddin chakkasini qashlab turib javob qildi.

— Bizda yo'l harakati oyligi ketyapti. Mayli, bir kunga boray. Boraman-u, yana samolyotda orqaga qaytaman. Maylimi?

— Mayli, — dedi Polvon jiyanidan xursand bo'lib.

Kichik jiyani mashinani yuvib, yog'larini tekshirib safarga tayyor qilib qo'ydi. Endi ertalab bitta akkumulator qo'ysa bo'ldi. Bemalol ketaversalar bo'ladi.

Polvon ertasi azonda Salohiddin bilan yo'lga chiqdi.

Gulandom eshik kesakisiga suyanib mung'ayguncha mashina orqasidan qarab qoldi.

Polvon ertasiga samolyotda qaytib keldi. Uning chehrasi ochiq edi. U umrida bir marta savobli ish qildim, hamma vaqt kurashda polvonlarni yiqitib ranjitardim. Raqiblarim, albatta, yengilganlari uchun menga rahmat aytmagandirlar. Shularning uvoliga qoldim, deb o'ylardi.

Polvon qishloqda bir noxushlik ustidan chiqdi. Gulandom bir banka kerosinni Qo'chqorning go'riga sepib o't qo'yib yuboripti. Go'r lovullab yonipti. Tepasidagi daraxtlar ham kuyib ketibdi. Gulandomning o'zi allaqayoqqa g'oyib bo'pti. Qayoqqa ketgan, tirikmi, o'likmi — hech kim bilmasdi.

Polvon kechqurun samovarga chiqdi. Choyxo'rlar bilan hardamxayol, uzuq-yuluq gaplashib, qishloq xalqini ertalab uyiga taklif qildi.

"Nima, Polvon aka, yurtga osh berasizmi?" — deb so'rashgandi, "Ertalab bilasizlar", — dedi u choyxonadan chiqib ketarkan.

Qishloqda osh berilsa, oqsoqollar sabzi to'g'rashga kirishadi. Masjid omboridan idish-tovoq olishadi. Stol-stul, dasturxon degan gaplar bor. Qiziq-ku, he yo'q, be yo'q, ertalab uyga chaqiryapti.

Polvon uyga kelib, jiyanidan suv isitib berishni so'radi. Yuvinib, toza kiyimlarini kiydi. Xufton namozini uzoq o'qidi. Ikki qo'lini ko'kka ko'tarib, Allohga iltijolar qildi.

— Tangrim, bu jonni o'zing bergansan. Endi omonatingni ol. Sen bergan jonga qasd qilib gunohga botishni istamayman. Jonimni o'zing ol.

Polvon bu gaplarni besh-olti martadan takrorladi. Tog' tepasida qimirlamay turib qolgan oyga uzoq tikilib o'tirdi. Tun osuda. Tiq etgan ovoz yo'q.

— Bergan ne'matlaringga ming bora shukur. Davri davron surdim, kurashlardan yakkakift bo'lib chiqdim. Xorlik-zorlik ko'rmadim. Endi bas, qiynalib ketdim. O'z bolam meni yurt ko'zida sharmisor qildi. Omonatingni ol, Allohim. Bas, endi ketay. Bu dunyoda endi yaxshilar yashasin.

Tongotar mahali Jalol polvonnig joni uzildi.

Janozaga qishloqning katta-kichik hammasi keldi. Faqat Nurim sartarosh kelmadi. Yurt ko'zida uning yuzi shuvit edi.

Oradan to'rt kun o'tib, Chorvoq dengizida cho'milayotgan bolalar qirg'oqdan bir juft tufli topib olishdi. Bu Gulandomning tuflisi edi.

1999-yil, aprel

MUNDARIJA

Hikoyada hayot manzaralari. *(Abdulla Ulug'ov)* 5

Abdulla Qahhor

O'tmishdan ertaklar

Bir-ikki so'z 16
Falokatning sharofati 18
"Indamas" 26
"Zinger"li boy 31
Hur qiz 35
Xudo 45
To'raqul vofurush 53
Bir palla tarvuzning po'chog'i 60
Valixon so'fi 66
Odam zavodi 75
Teshiktosh 78
Oqposhshoning arzandasi 84
Dukchi eshonning ko'lankasi 91
Arafa 94
"Ko'za"lar 102
Muhammadjon qori 105
Bir boshga ikki o'lim 110
Qo'qon xarobalari orasida 115

Hikoyalar

Adabiyot muallimi 138
Karavot 141
Anor 145
O'g'ri 150
To'yda aza 153
Ming bir jon 158
Mahalla 164
Nurli cho'qqilar 170

Mirkarim Osim

Qissalar

To'maris 182
Aljabrning tug'ilishi 199
Ibn Sino qissasi
Ma'rifat darvozasi 220
Kitobga ixlos 230

Xorazm bo'sag'asida 241
Xatarli yo'l 246
Dard va darmon 248
Savdoyi shahzoda 258
Hamadon safari 266
Qamoqda 278
Baxt va musibat 284
Yangi shogird 288
Umr daftarining so'nggi sahifasi 290

O'tror 293
Shiroq *(hikoya)* 364

Said Ahmad

Hikoyalar

Mehribon 372
Muhabbatning tug'ilishi 378
Ko'zlaringda o't bor edi 383
To'lqinlar 389
O'n sakkiz yoshing 394
Zumrad 401
Laylak keldi 409
Suvlar oqib ketdi 414
Iqbol chiroqlari 420
Rahmat, azizlarim 427
Onajonlar 433
Poyqadam 439
Alla 446
Oftob oyim 451
Minnatdorlik 463
Sarob 464
Taqdir, taqdir, muncha shafqatsizsan? 480
Xotima 493
Ot bilan suhbat 494
Rostgo'y posbon 499
Qorako'z majnun 504
Uchinchi minora 519
Qishdan qolgan qarg'alar 528
Buqalamun bilan uchrashuv 540
Azob 546
Azroil o'tgan yo'llarda 556

A 15 Abdulla Qahhor. Mirkarim Osim. Said Ahmad [Matn]: nasr/ to'plovchilar Ma'ruf Toshpo'latov, Luqmon Bo'rixon. — Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. — 592 b.
ISBN 978-9943-8723-4-9

UO'K 821.512.133-3
KBK 84(5O')-44

TURKIY ADABIYOT XAZINASIDAN

ABDULLA QAHHOR
MIRKARIM OSIM
SAID AHMAD

17-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizaynet *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 1/16.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 37,0. Nashriyot-hisob tabog'i 34,71.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 85-1/22. Buyurtma raqami № 22-299

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ABDULLA QAHHOR
MIRKARIM OSIM
SAID AHMAD